ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL UNIVERSITY

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО УНИВЕРСИТЕТА

научно-практический журнал

№ 9, 2025

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

"Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Raxmonov K.D. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor
Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific Bulletin of Bukhara International University "
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Raxmonov K.D. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Fayziyeva Mavluda Xudayarovna
Qarshi davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori(DSc)

KONSTRUKTIV PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMI SHAKLLANISHINING DASTURIY SAMARADORLIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada konstruktiv psixologik ximoya mexanzmi shakllanishining dasturiy samaradorlik taxlili xususidagi fikrlar bayon etilgan. Unda Eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining turli yo‘nalishlarda o‘zgarishiga olib kelishi taxlillarda orqali ifodalangan.*

Kalit so‘zlar: *konstruktiv psixologik himoya, dasturiy samaradorlik, tahlil, shaxsiy rivojlanish, psixologik barqarorlik, stressga qarshi kurash, psixologik moslashuv, ijtimoiy omillar, himoya mexanizmlari, pedagogik-psixologik yondashuv*

АНАЛИЗ ПРОГРАММНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСТРУКТИВНОГО МЕХАНИЗМА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация *В статье представлены взгляды на анализ программной эффективности формирования конструктивного механизма психологической защиты. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты, побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.*

Ключевые слова: *конструктивная психологическая защита, программная эффективность, анализ, личностное развитие, психологическая устойчивость, противодействие стрессу, психологическая адаптация, социальные факторы, механизмы защиты, педагогико-психологический подход*

PROGRAM EFFECTIVENESS ANALYSIS OF THE FORMATION OF CONSTRUCTIVE PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISM

Abstract *This article presents the views on the analysis of software effectiveness of the formation of a constructive psychological defense mechanism. In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.*

Key words: *constructive psychological defense, program effectiveness, analysis, personal development, psychological resilience, stress management, psychological adaptation, social factors, defense mechanisms, pedagogical and psychological approach*

Kirish. Kasbiy faoliyatda psixologik himoyaning namoyon bo‘lish muammosini tadqiq etish hozirgi zamon psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biridir. Adabiy manbalarning tahliliga ko‘ra kasbiy faoliyatda psixologik himoyaning bo‘lishi maqsadga muvofiqlikni tasdiqlaydi. Biz tadqiqotimizda o‘rgangan psixologning kasbiy faoliyati va undagi psixologik himoyaning namoyon bo‘lishiga xos jihatlarga ilmiy-psixologik izoh beramiz. Shaxs yoki guruhlarning munosabatlariga xos psixologik qonuniyatlarni o‘rganish, maqsadga muvofiq o‘zgartirish va shakllantirish, ularning samaradorligini oshirish bilan tashqi olam-borliqdan subektiv qoniqishni hosil qilish faoliyati psixologning kasbiy faoliyatni tashkil etadi. Psixolog faoliyati o‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlaydi, bu esa kasbiy funksiyalarda o‘z izini qoldiradi. Psixolog nafaqat insonning individualligi namoyon bo‘lishi bilan shug‘ullanadi, balki o‘zi ham individuallikka ega, u doimo turli yoshdagi, ijtimoiy va madaniy toifadagi kishilarga duch keladi, alohida shaxs va odamlar uyushmasi bilan muntazam muloqot qilish uning asosiy vazifalari ro‘yxatiga kiradi. Psixolog ish

faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, turli ijtimoiy guruhlar bilan kasbiy muloqot qilish uchun undan mutaxassis mahoratini, shuningdek, muayyan shaxsiy fazilatlar va kasbiy bilimlarni talab qiladi. Shuning uchun psixologni tayyorlash murakkab shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik jarayoni bo‘lib, unda nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni belgilangan darajasi, balki unda umumiy axloqiy-madaniy saviya, shaxsiy xususiyatlar, ma’naviy-axloqiy sifat va fazilatlarni ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik himoya mexanizmlarini bilish inson uchun yashash va faravon turmush kechirishi uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi, himoya sabablari va shakllari haqida aniq tushuncha, shuningdek stereotiplar va shaxsga xos kamchiliklar manbasi o‘ziga yanada diqqat bilan e’tibor qilish imkonini beradi va ijodkorlikka undaydi. Konstruktiv psixologik himoyani shakllantirishning bu strategiyalari dunyo haqidagi taassurotlar tizimiga xulq-atvorning yangi adekvat yo‘llarini kiritish, uni tuzatish va takomillashtirishni amalga oshirishga va to‘g‘irlashga ko‘maklashadi. Patologik psixologik himoyani yengish, onglash darajasidagi muayyan o‘zgarishlar tufayli, inson uchun tafakkurning tipik cheklashlarini olib tashlash va ijod uchun qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘lish imkonini beradi

Bo‘lg‘usi psixologlarning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish bo‘yicha tajriba-eksperiment ishlar dasturi maxsus kurs "Shaxsni psixologik himoya qilish muammolari" doirasida amalga oshirildi. Maxsus kurs psixologiya yo‘nalishining 1-, 2-, va 3-kursni yakunlayotgan talabalarida o‘tkazildi.

Maxsus kursning mazmuni uchta blokdan: diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklaridan tashkil topgan .

Birinchi blok – diagnostika. Konstruktiv psixologik himoyaning muvaffaqiyatli shakllanishi ko‘p tomonlama talaba-“Men” konsepsiyasining ijobiyligi va meyoriy shakllanganligiga bog‘liqdir. Tuzilganlik rejasiga ko‘ra diagnostika bloki shaxsning ayrim jihatlarini, yo‘nalganligini va o‘ziga xos xususiyatlaridan tashkil topgan-“Men” konsepsiyasini chuqurroq anglash orqali o‘zligini takomillashtirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o‘zini-o‘zi anglash jarayonidan iborat.

Diagnostika bloki mazmunan yo‘nalganligiga ko‘ra, maxsus kurs davomida ikki marta amalga oshirildi: psixologiya yo‘nalishi talabalarining psixologik himoya tizimini o‘rganishning kirish va chiqish nazorati usullarida.

Buning uchun quyidagi metodikalardan foydalandik:

-Plutchik-Kelerman-Konte so‘rovnomasi-psixologik himoya tizimining umumiy kuchlanishini va uning alohida mexanizmlarini aniqlash, eng soddadan-yetuklikgacha bo‘lgan himoya mexanizmlarini tahlil qilish meyori;

-koping strategiyasining ko‘rsatkichi-qiyinchilik va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ularning konstruktivlik harakatlar darajasini baholash;


-shaxsiy differensiallik-o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, psixologik faoliyatini himoya qilish ko‘rsatkichlari sifatida.

Kirish va chiqish psixodiagnostika ko‘rigidan so‘ng, talabalar shaxsiy rivojlanishining umumiy tendensiyalari ko‘rsatkichining natijalari bilan tanishadilar, o‘zlarini boshqarish uchun konstruktiv psixologik himoya strategiyalarini tanlash bilan bog‘liq tavsiya va yechimlar bilan qurollanadilar.

Ikkinchi, nazariy blokda psixologik himoya muammosiga ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqildi, uning doirasida shaxsning psixologik himoya g‘oyasi shaxsning yaxlitligini saqlab qolish va unga kiritilgan salohiyatni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan faol, ongli jarayon sifatida shakllandi. Talabalar bilan o‘zaro aloqaning quyidagi shakllaridan foydalandik: ma’ruzalar, seminar mashg‘ulotlari, shaxsga yo‘naltirilgan individual va guruhiy maslahatlar.

Konstruktiv psixologik himoya shakllanishining dasturi psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalari o‘qish faoliyati davomida maxsus kursni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshirildi. 1-kurs psixologiya yo‘nalishi talabalarining psixologik himoya tizimida yuz bergan o‘zgarishlar taqdim etilgan 1-4-rasmlarda ifodalangan ko‘rsatkichlar haqida fikr bildiramiz.

1-rasm.



Psixologik himoya mexanizmlarining ishlash chastotasiga ko‘ra, 1-kurs psixolog talabalarning o‘rta guruh profiliga ko‘ra (6-shakl), maxsus kursni o‘zashtirish ta’siri natijasida barcha psixologik himoya mexanizmlarining ishlash yuklamasida sezilarli miqdoriy o‘zgarishlar yuz bergani kuzatildi. Eng katta empirik o‘zgarishlar - "o‘rnini egallash" mexanizmlaridan foydalanish effektida (tajribadan oldin-53%; keyin-38%; farq-15%), "Rad etish" (tajribadan oldin-58%; keyin-44%; farq-14%), " Loyihalashtirish" (tajribadan oldin -71%; keyin-59%; farq-12%) kuzatildi. Ushbu mexanizmlar qabul qiluvchi guruhlar tipiga mansubligi uchun, talabalar tajriba jarayonida qiyinchiliklarni nazorat qilish orqali ushbu himoya mexanizmlari ishlashida keskinliklar biroz kamayganligi kuzatildi.

Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari: "kompensatsiya" (tajribadan oldin-63%, keyin-69%; farq-6%), "giperkompensatsiya" (tajribadan oldin -39%; keyin-42%; farq-3%), "ratsionalizatsiya" (tajribadan oldin-53%; keyin-54%; farq-1%) ishlash yuklamasida miqdoriy o‘zgarishlar kamroq kuchlanishda ifodalanganligi aniqlandi. (1-rasm).

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo‘yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi.

Birinchi kurs talabalarining "o‘rnini egallash"ni himoya qilishning ibtidoiy mexanizmi keskinligi sezilarli darajada kamaydi (T-Vmea= 9,5 o‘tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6), bu ko‘kalamzorlashtirish tendensiyasining pasayishiga ishora qiladi, ong sohasidan bezovta qiluvchi ma’lumotni olib tashlaydi.

“Orqaga qaytish” ibtidoiy mexanizmining ishlash kuchlanishini kamaytirish T-Vmea=8 da r<0,01) qiyinchiliklarni bartaraf etishda bolalarning xatti-harakatlarini tez-tez ishlatib turishi mumkin (3-jadval).

1-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining 1-kurs talabalarida shakllantirish kuchlanishini o‘zaro taqqoslashda Vilkokson mezonining empirik qiymatlari ifodasi

Psixologlarni himoya qilish mexanizmlari	O‘ rnini egallash	Orqaga qaytish	O‘ rin almashtirish	Rad etish	Loyihalashtirish	Kompensatsiya	Giperpensatsiya	Ratsionalizatsiya	PHUK

T-Vmea.	9,5*	8*	26	15,5	41,5	18	21	34,5	36,5

Eslatma: 1,11-0,05 darajasida muhim ahamiyatga ega
1,11* - 0,01 muhim ahamiyatga ega
T-Vmea. - Vilkokson mezonining empirik ahamiyati
PHUK-psixologik himoyaning umumiy keskinligi

O‘tish: saytda harakatlanish, qidiruv T-Vmea =41,5) statistik jihatdan sezilarli darajada o‘zgarmadi, ehtimol, bu talabalarning yoshi va ularning o‘qitish profiliga bog‘liq, tasdiqlangan adabiy manbalar va boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham shunga yaqin holatlar kuzatilgan.

"Rad etish" mexanizmining ishlash kuchlanishi (T-Vmea=15,5 da r<0,05) kamaydi va pasayishiga olib keldi, qiyinchiliklarga e’tibor bermaslik, qiyinchiliklarni e’tiborsiz qoldirish kuzatildi (3-jadval).

"Kompensatsiya" mexanizmlaridan foydalanish keskinligining oshishi. T-Vmea=18 da r<0,05), "giperkompensatsiya" (T-Vmea=21 da o‘tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6) mehnatning kognitiv tahlilini kuchaytirish, ularni yengish uchun mumkin bo‘lgan variantlarni topishga intilish ifodalangan.

Umumiy taranglikda statistik jihatdan psixolgik himoyada ahamiyatli o‘zgarishlar (T-Vmea=36,5) aniqlanmagan. Natijada, himoya mexanizmlari funksiyalarining o‘rtacha intensivligi bir xil, yuqori darajada bo‘lib qoldi.

Ibtidoiy mexanizmlardan foydalanish chastotasini kamaytirish va yuksak kuchlanishning oshishi tadqiqot maqsadini tasdiqlash imkonini beradi. Tadqiqotda amalga oshirilgan ilmiy tarbiyaviy ta’sir talabalar shaxsining psixologik himoya tizimiga konstruktiv ta’siri aniqlandi.

Psixologik tadqiqotimizning diagnostik natijalarini muhokama qilishning navbatdagi bosqichiga o‘tamiz. 2-jadvalda taqdim etilgan psixologik himoya mexanizmlarining talabalar guruhlaridagi sezilarli farqlarini tahlil qilish Styudent mezoni yordamida amalga oshirildi.

2-jadval


1-kurs talabalarini psixologik himoya qilish mexanizmlarining keskinligini taqqoslash Tg-1 va Ng-1 o‘zaro ta’sirdan keyin

Psixologik himoya mexanizmlari	Tg-1kursda psi-xologik himoya mexanizmlarining kuchlanishi (%)	Ng-1kursda psix-ologik himoya mexanizmlarining kuchlanishi(%)	t< P
O‘rnini egallash	38	50	2,12
Orqaga qaytish	43	54	2,55
O‘rin almashtirish	41	46	2,01
Rad etish	44	60	2,15
Loyihalatirish	56	60	2,02
Kompensatsiya	69	60	2,80*
Giperkompensatsiya	42	33	2,78*
Ratsionalizatsiya	54	51	1,99
PHUK	48	50	1,83

Eslatma: 1,11-0,05 (2.04) darajasida muhim ahamiyatga ega.
1,11* - muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 0,01 (2.75).
t< P. - Styudent mezonining ahamiyatli ko‘rsatkichi.

Ibtidoiy himoya guruhida mexanizmlarning keskinligi statistik jihatdan sezilarli darajada kamayib bordi: "o‘rnini egallash" (farq-12%;), "orqaga qaytish "(farq-11%)," “rad etish" (farq-16%). Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari guruhida "kompensatsiya" (farq-9%), "giperkompensatsiya" (farq-9%) dan foydalanish chastotasining oshishi qayd etildi.

Ta'kidlash joizki, Tg-1 va Ng-1 talabalarida himoya mexanizmlarining umumiy keskinligi (PHUK) ning ko'rsatkichlari statistik jihatdan sezilarli farq qilmaydi, ammo hosil qiluvchi o'zaro ta'sir natijasida har ikki guruh subyektlarining qiyinchiliklarni bartaraf etishdari uchun sifat jihatidan turli mexanizmlar ko'rsatkichlari farqlandi.



1-kurs psixologiya yo'nalishi talabalarining tajriba guruhida koping-xulq-atvor strategiyasini taqsimlanishi.

Talabalarning koping xulq-atvor xatti-harakatlaridagi o'rta guruh o'zgarishi faqat "muammoni yechish" strategiyasini qo'llashda (tajribagacha-73%, keyin-88%; farq-15%). Talabalarning qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini mustaqil izlashga bo'lgan intilishlari kuchayib borgan.

"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" strategiyasiga amal qilish intensivligi (tajribagacha -60%, keyin-60%), "qochish" mexanizmidan foydalanish (tajribagacha -58%, keyin-58%) o'zgargani yo'q (2- rasm.).

3-jadval

Vilkokson mezonining empirik qadriyatlari 1 kurs talabalarining koping-xatti-harakatlari strategiyalarini shakllantirishdan oldin va keyin taqqoslanganda

Koping-xatti-hara-katlar strategiyalari	Muammoni hal qi-lish	Ijtimoiy qo'llab-quvvat-lash	Qochish
T- Vmea	46,5	39	33

Eslatma: 1,11-0,05 darajasida muhim ahamiyatga ega.
1,11* - 0,01 muhim ahamiyatga ega.
T- Vmea - Vilkokson mezonining empirik ahamiyati.

Eksperimental ma'lumotlarning statistik tahlillari koping xulq-ator strategiyasidan foydalanishda sezilarli o'zgarishlar aniqlanmadi (5-jadval.). Psixologik himoya mexanizmlarini o'zlashtirish davomida talabalar faoliyatida keskinliklar yuz berganda xavotirli axborotni baholash mexanizmlarini o'zgartirdilar, ammo ularni xulq-atvorlariga ko'chirish usullarini o'zlashtirmaydilar.

O'z-o'zini anglashning xususiyatlari va psixologik himoya tizimining samaradorligi mezonlari sifatida ifodalangan "baholash", "kuch", "faoliyat" omillari o'rganilganda, tajriba-tadqiqot ishlari natijalarida o'zgarishlar yuz berdi.

Eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining quyidagi yo‘nalishlarda o‘zgarishiga olib keldi: sodda-tabiiy va yuksak himoya mexanizmlarining keskinligi nisbati psixologik himoyaning pastki qismidir. Koping resurslar esa muammolarni bartaraf etishdan ularni hal qilishgacha faol harakatlarga aylandi. O‘z-o‘zini baholash, shaxs his-tuyg‘ularini boshqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish uyg‘unlashgan holda psixologik himoyaning yuqori darajasi bo‘lgan konstruktivlikka o‘tishini baholashga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Мктрчян М.А. Проблема фрустрации и защитные механизмы личности: автореф. дис. … канд. психол. наук. – Ереван, 1975. – 26 с
3. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. 448 с
4. Файзиева М. Шахснинг психологик ҳимоя механзмлари. Монография. – Қарши: “Насаф”, НМИУ. 2021. - 143 бет.

Ikromova Sitora Akbarovna
Osiyo xalqaro universiteti dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KEKSALARNI PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA AMALIY TAVSIYALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada keksalarni psixologik qo'llab-quvvatlashning ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Keksalik davri shaxs hayotida murakkab psixologik, ijtimoiy va fiziologik o'zgarishlar bilan kechadi. Maqolada keksalarda uchraydigan ruhiy tanglik sabablari, ularni kamaytirishning amaliy usullari hamda psixologik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan samarali metodlar yoritiladi. Ayniqsa, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, art-terapiya, biblioterapiya, guruh terapiyasi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, psixologlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular keksalarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va hayotdan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *keksalik, psixologik qo'llab-quvvatlash, ruhiy salomatlik, art-terapiya, biblioterapiya, guruh terapiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixoprofilaktika, raqamli savodxonlik, sog'lom turmush tarzi.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКЕ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научные и практические аспекты психологической поддержки пожилых людей. Пожилой возраст характеризуется сложными психологическими, социальными и физиологическими изменениями в жизни личности. В статье раскрываются причины психоэмоционального напряжения у пожилых людей, практические способы его уменьшения, а также эффективные методы, применяемые в психологической помощи. Особое внимание уделено эффективности социальной поддержки, арт-терапии, библиотерапии, групповой терапии и использованию современных технологий. Кроме того, разработаны практические рекомендации для психологов, направленные на укрепление психического здоровья пожилых людей, их социальную адаптацию и повышение удовлетворенности жизнью.*

Ключевые слова: *пожилой возраст, психологическая поддержка, психическое здоровье, арт-терапия, библиотерапия, групповая терапия, социальная поддержка, психопрофилактика, цифровая грамотность, здоровый образ жизни.*

PRACTICAL RECOMMENDATIONS FOR PSYCHOLOGICAL SUPPORT OF THE ELDERLY

Abstract. *This article analyzes the scientific and practical aspects of psychological support for the elderly. Old age is a stage of life characterized by complex psychological, social, and physiological changes. The article discusses the causes of emotional distress in older adults, practical methods to reduce it, and effective approaches used in psychological services. Particular attention is given to the effectiveness of social support, art therapy, bibliotherapy, group therapy, and the use of modern technologies. In addition, practical recommendations are developed for psychologists aimed at strengthening the mental health of the elderly, ensuring their social adaptation, and increasing life satisfaction.*

Key words: *old age, psychological support, mental health, art therapy, bibliotherapy, group therapy, social support, psychoprophylaxis, digital literacy, healthy lifestyle.*

Kirish. Bugungi kunda aholining demografik tarkibida keksalar sonining ortib borishi jamiyat oldida yangi ijtimoiy va psixologik vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Keksalik davri inson hayotining tabiiy bosqichi bo‘lib, u ruhiy, jismoniy va ijtimoiy omillarning keskin o‘zgarishi bilan xarakterlanadi [Erikson, 1998]. Ushbu davrda shaxs ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi: sog‘liq bilan bog‘liq muammolar, ijtimoiy rol va mavqening o‘zgarishi, yaqin insonlarni yo‘qotish hamda yolg‘izlik tuyg‘usi kuchayishi mumkin [Baltes & Smith, 2003]. Shu sababli keksalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash masalasi nafaqat shaxsiy darajada, balki butun jamiyat miqyosida ham dolzarb hisoblanadi.

Psixologik xizmatlarning asosiy maqsadi - keksalarda ijobiy emotsional fonni ta’minlash, hayot mazmunini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirishdir [Ryff, 1995]. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, psixoterapevtik mashg‘ulotlar, san’at asosida davolash usullari, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish keksalar ruhiy salomatligini sezilarli darajada yaxshilaydi [WHO, 2017]. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada keksalarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning nazariy asoslari va amaliy tavsiyalari ilmiy tahlil qilinadi.

Keksalik davri inson hayotining alohida bosqichi bo‘lib, unda psixologik, ijtimoiy va fiziologik omillar uyg‘unlashib ketadi. Ushbu davrda shaxsning psixologik qo‘llab-quvvatlanishi uning hayot sifati, ijtimoiy faolligi va ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi [Erikson, 1998]. Keksalar ko‘pincha yolg‘izlik, yaqin insonlarini yo‘qotish, sog‘liqdagi muammolar va ijtimoiy mavqedagi o‘zgarishlar natijasida ruhiy tanglikka duch keladilar [Baltes & Smith, 2003]. Shu bois ularga nisbatan psixologik xizmatlar nafaqat maslahat berish, balki emotsional qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashtirish va ijobiy hayot mazmunini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi [Ryff, 1995]. Amaliy tavsiyalardan biri sifatida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur. Oilaviy aloqalarni mustahkamlash, nabiralar bilan vaqt o‘tkazishni rag‘batlantirish va mahalliy hamjamiyat tadbirlariga jalb qilish keksalarning emotsional holatini yaxshilaydi [Antonucci et al., 2010]. Psixologik suhbat va guruh terapiyalari orqali keksalarda o‘z-o‘zini qadrlashni saqlash, hayotiy tajribalarini boshqalar bilan bo‘lishish imkonini yaratish ham muhimdir [Yalom, 2005]. Shuningdek, biblioterapiya, musiqaterapiya, art-terapiya kabi yumshoq psixologik metodlardan foydalanish keksalarning ruhiy iztiroblarini kamaytirib, hayotga bo‘lgan qiziqishlarini tiklashda samarali bo‘lishi mumkin [Corey, 2013].

Keksalarda ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashda jismoniy faollik ham asosiy omillardan biridir. Yengil gimnastika, sayr qilish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish depressiya xavfini pasaytiradi [WHO, 2017]. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o‘rgatish ularga ijtimoiy tarmoqlar, videomuloqot va onlayn faoliyatlar orqali ijtimoiy aloqalarni kengaytirishga yordam beradi [Chopik, 2016]. Bu esa yolg‘izlik hissini kamaytiradi va hayotdan qoniqish darajasini oshiradi. Psixolog mutaxassislar uchun amaliy tavsiya sifatida keksalarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni qo‘llash muhimdir. Masalan, ayrim keksa insonlar uchun motivatsion suhbatlar va hayotiy maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish samarali bo‘lsa, boshqalar uchun xotira mashqlari, ijodiy faoliyat yoki ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [Knight, 2004]. Shu jihatdan individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish, psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘tkazish va psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etish zarur.

Keksalik davrida ruhiy barqarorlikni ta’minlash ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimiga bevosita bog‘liq. Psixologlar fikricha, bu davrda insonning asosiy ehtiyojlari quyidagilardan iborat:

Emotsional qo‘llab-quvvatlash – mehr, e’tibor va hurmat.

Ijtimoiy faollik – jamiyat hayotida ishtirok etish, o‘z tajribasi bilan bo‘lishish.

Ma’nodorlilik – hayotga ma’no beruvchi faoliyat va munosabatlar.

Sog‘lom turmush tarzi – jismoniy faoliyat va to‘g‘ri ovqatlanish.

Psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari:

Individual suhbatlar va maslahatlar – shaxsiy muammolarni tahlil qilish.

Guruhiy terapiya – keksalarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi.

Art-terapiya va biblioterapiya – ijodiy faoliyat orqali ruhiy bo‘shashish.
Mahalla va oilaviy qo‘llab-quvvatlash – ijtimoiy aloqalarni kengaytirish.
Texnologik qo‘llab-quvvatlash – internet va onlayn muloqot imkoniyatlaridan foydalanish.
Jadval 1. Keksalarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy usullari

Usul	Maqsad	Amaliy natija
Individual suhbat	Shaxsiy muammolarni yengillashtirish	Ruhiy yengillik, ishonch hissi
Guruhiy terapiya	Bir-birini qo‘llab-quvvatlash	Yolg‘izlikni kamaytirish, ijtimoiy faollik
Art-terapiya	Ijod orqali his-tuyg‘ularni ifodalash	Stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash
Biblioterapiya	Adabiyotdan ruhiy resurs sifatida foydalanish	Ijobiy tafakkurni shakllantirish
Jismoniy faollik	Sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash	Depressiya xavfini kamaytirish
Raqamli savodxonlik	Onlayn muloqot imkoniyatlarini kengaytirish	Yolg‘izlikni kamaytirish, yangiliklardan xabardorlik

Diagramma 1. Keksalarda qo‘llab-quvvatlashning psixologik ta’siri
Quyidagi diagramma keksalar uchun turli qo‘llab-quvvatlash usullarining ruhiy salomatlikka ta’sirini foizlarda ko‘rsatadi (ilmiy manbalarga asoslangan holda muallif tomonidan modellashtirilgan).



Bu model shuni ko‘rsatadiki, oilaviy aloqalar va guruhiy qo‘llab-quvvatlash eng samarali yo‘nalish hisoblanadi, ammo boshqa usullar ham kompleks yondashuvda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, keksalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Amaliy tavsiyalar sifatida oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, psixoterapiya va art-terapiya usullaridan foydalanish, sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish keksalarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda eng muhim choralar hisoblanadi. Bu tavsiyalar nafaqat psixologik xizmat ko‘rsatishda, balki siyosiy va ijtimoiy darajada ham keksalarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [Baltes & Carstensen, 1996; WHO, 2017].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Butler, R. N. (1975). Why Survive? Being Old in America. New York: Harper & Row.
2. World Health Organization (WHO). (2015). World Report on Ageing and Health. Geneva: WHO Press.
3. Sixsmith, A., & Gutman, G. M. (Eds.). (2013). Technologies for Active Aging. Springer.
4. esch-Römer, C., & Wahl, H.-W. (2017). Toward a more comprehensive understanding of successful aging: Disability and the social environment. In Handbook of the Psychology of Aging, 8th ed., pp. 33–47. Elsevier.
5. European Commission. (2021). Green Paper on Ageing: Fostering Solidarity and Responsibility Between Generations. Brussels: EU Publications.

Turg‘unboyeva Azizaxon G‘ulomovna.
Namangan davlat pedagogika instituti dotsent,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ETNOMILLIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analari ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Milliy qadriyatlarning oilaviy munosabatlar, shaxslararo muloqot, gender rollarini belgilash va yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni yoritilgan. Qadriyatlar orqali shaxs ongining rivojlanishi, milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy xulq-atvor va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy hayotga moslashtirishning ijtimoiy-psixologik hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyat, etnopsixologiya, an’ana, gender, oila, hudud, tajriba, milliy o‘zlik, qiyofa, xarakter, ong, shaxs, mazmun, aholi.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В данной статье с социально-психологической точки зрения анализируются национальные ценности, обычаи и традиции, сложившиеся на протяжении веков. Освещается роль национальных ценностей в семейных отношениях, межличностном общении, определении гендерных ролей и воспитании подрастающего поколения. Показано значение ценностей в формировании сознания личности, осознании национальной идентичности, регуляции социального поведения и развитии общества. Также рассматриваются социально-психологические и практические аспекты сохранения национальных ценностей и их адаптации к современной жизни.*

Ключевые слова: *национальные ценности, этнопсихология, традиция, гендер, семья, регион, опыт, национальная идентичность, образ, характер, сознание, личность, содержание, население.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ETHNONATIONAL VALUES

Abstract. *This article analyzes national values, customs, and traditions that have been formed over centuries from a socio-psychological perspective. The role of national values in family relationships, interpersonal communication, gender roles, and the upbringing of the younger generation is highlighted. The study shows the importance of values in the development of individual consciousness, the understanding of national identity, the regulation of social behavior, and the progress of society. In addition, the socio-psychological and practical aspects of preserving national values and adapting them to modern life are examined.*

Key words: *national values, ethnopsychology, tradition, gender, family, region, experience, national identity, image, character, consciousness, personality, content, population.*

Kirish. Dunyo xalqlari orasida eng qadimiylaridan sanalgan o’zbek xalqining boy va qadimiy, ma’naviy - madaniy merosi, go’zal qadriyatlari borki, ular avlodlar tarbiyasida ulkan tajriba vazifasini o’taydi desak mubolag’a bo’lmaydi. Xalq og’zaki ijodi durdonalari bilan tanishar ekanmiz, ajdodlarimizning o’tmishi, hayotiy qarashlari, orzu-umidlari xususida bilimga ega bo’lish bilan bir qatorda, ularning insoniylik, millatparvarlik, haqgo’ylik, mardlik, oqillik, mehnatsevarlik kabi fazilatlaridan o’rnak olsa arziydi. Etnoxududiy madaniyatimiz, urf-odat va qadriyatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo’li xalq og’zaki ijodi durdonalaridan, ajdodlar o’tmishi aks etgan tariximiz saxifalaridan unumli foydalanishdir. Milliy qadriyatlarimiz

bilan yuzlashar ekanmiz unda saqlanib kelayotgan millat ruxiyati, o'zbekona qarashlarimiz, insoniyatning tabiat va jamiyat hodisalariga dastlabki qarashlarini, ularga doir oddiy tasavvurlarini zuhur etadi. O'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biriga chambarchas bog'lab turgan tariximizni, o'zligimizni anglab olishimizga ko'maklashadi. Eng avvalo o'z milliy qadriyatlarimiz, etnik xususiyatlarimizni, qolaversa, har bir xalqqa xos bo'lgan etnopsixologik xususiyatlarni bilish, milliy psixologik qiyofani, uning elementlari bo'lmish milliy xarakter, milliy urf-odat va an'analar, milliy g'oya, did, milliy ongning shakllanishi etnik munosabatlar zamirida shakllanadi. Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasida milliy birlik tuyg'usini mustahkamlanishi bugungi juda tezkor va o'zgaruvchan, tahlikali zamonda tinch, osuda va insoniy qadriyatlarni asrab yashash imkonini ta'minlaydi.

Adabiyotlar taxlili. Etnopsixologik tadqiqotlarda jamiyatni, millat psixologiyasini o'rganar ekanmiz bosh mezonni avvalo oiladan qidiramiz. Keyingi yillarda milliy qadriyatlarimizning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish borasida zalvorli ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari bilan bir qatorda yurtimiz psixologlari izlanishlarida o'z aksini topgan. Mazkur muammoning turli sohalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar respublikamizning yetakchi psixologlari G'ayrat SHoumarov, Vasila Karimova, Umarali Qodirov , Zamira Nishonova, SHarif Baratov, Bahriddin Umarov, Marat Utepbergenov, Feruza Akramova, Navbahor Salaeva, Hasanboy Abdusamatov, Ziyoda Rasulova va boshqalar tomonidan olib borilgan xamda bu borada o'ziga xos tajriba to'plangan.

Bugungi kundagi o'rganishlar natijasi va kuzatuvlarga ko'ra etnopsixologik sohadagi tadqiqotlar ko'plab yo'nalishlarda olib borilayotganini aniqlandi. Inson ruxiyati bilan bog'liq soxalarning deyarli barcha jihatlari doimiy ilmiy nazorat ostidadir. Soxa olimlarining tadqiqotlarida aytilishicha samarali izlanish olib borish uchun ijtimoiy-psixologik muammolarni boshqa fanlar bilan birga kompleks o'rganmoq zarur. Kompleks metod orqali tadqiqotning nafaqat ilmiyligi oshadi, balki u o'rganilayotgan ob'ektning turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Bunda bir necha fanlar (ijtimoiy-gumanitar va tabiiy) hamkorligiga suyanib ish qilish mumkin. Bu borada shuni aytish kerakki, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik, turli tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o'rtasida ma'lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan.

Metodologik asos . Davlatimiz tomonidan qabul qilingan va hozirgi zamon ilm-fani oldiga har tomonlama yetuk inson shaxsini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani qo'ygan tarixiy qarorlarni hayotga tatbiq qilish psixologiya fanidan ham inson psixik taraqqiyotining murakkab determinatsiyasi va qonunlarini tadqiq qilishni, shaxsning eng optimal psixologik tuzilmasini shakllantirishni, psixikani turli xil ijtimoiy faoliyat turlarida rivojlantirishni talab qiladi. Bu masalalarning konkret hal qilinishi va psixologiya fani zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi metodologik tamoyillarning ishlab chiqilishiga hamda ularning ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishiga bog'liq.

Metodologik tamoyillar va ularning ishlab chiqilishi hamda ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishi masalalari yuzasidan mulohaza yuritishdan oldin metodologiya tushunchasini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiq. Har qanday ilmiy muammoni tadqiq qilishning, avvalombor, metodologik

qirralari mavjud bo'ladi. Chunki o'rganiladigan ilmiy muammo metodologik jihatdan tahlil qilingandan keyingina navbatdagi tadqiqot bosqichlariga o'tish taqozo etiladi. Fanda -metodologiya degan tushunchaga turlicha ta'riflar va tavsiflar berilgan. Hatto, aytishimiz mumkinki, u har bir fan tarmog'i nuqtai -nazaridan ham o'ziga xos xususiyatga ega. [4,…22 b]

Tahlil va natijalar: Bu metodologik tamoyillarga alohida to'xtalib

o'tishimiz sababi shundaki, aksariyat tadqiqotlarda mazkur tamoyilga kam e'tibor beriladi . Umuman aytganda, har qanday psixologik tadqiqotni olimning ilm sohasidagi ijodi deb qarash zarur. Biroq, masalaning muhimligi shundaki, mazkur tadqiqot jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi va jamiyatning qo'llabquvvatlashi yordamida amalga oshirilishi darkor. Bu holat olim- tadqiqotchi uchun juda muhim. Chunki tadqiqot va uning natijalari nafaqat ilmiy , balki ijtimoiy jihatdan ham qadrlanishi umumpsixologik voqelikdir.

Ko'p mutaxassislar shaxs yo'nalganligini tashxis etishda mezon

sifatida muayyan hayotiy maqsadlarni, qadriyatlarni asos qilib oladilar.

Qadriyatlar yo'nalishlari tizimi shaxs yo'nalganligining asosiy mazmunini

belgilaydi va uning atrof-olamga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatini,

hayotiy faoliyat motivlarining mazmunini, shaxsning dunyoqarashini tashkil etadi. Maqsadli qadriyatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) faol va serharakat hayot kechirish;
2) hayotiy donishmandlikka erishish;
3) sog'lik-salomatlik;
4) qiziqarli kasb-korga ega bo'lish;
5) tabiat va san'at go'zalligini his etish;
6) sevgi-muhabbatni qadrlash;
7) moddiy ta'minlanganlik;
8) yaxshi, sodiq do'stlarning mavjudligi;
9) jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlik;
10) bilimdonlikka intilish;
11) samarali hayot kechirish;
12) rivojlanish, o'z ustida ishlash.

Vositali qadriyatlar har qanday faoliyat sohasida, turli hayotiy vaziyatlarda shaxs tomonidan muhim deb topilishi mumkin bo'lgan qadriyatlaridir.

Vositali qadriyatlar kishining har xil maqsadlariga, umumhayotiy g'oyalariga erishish uslubini, vositasini ifoda etadi. Masalan, ehtiyotkorlik, tarbiyalilik, fahm-farosatlilik, ishchanlik, o'qimishlilik, o'z- o'zini boshqarish, rostgo'ylik, xushchaqchaqlik va boshqalar .Vositali qadriyatlar har qanday faoliyat sohasida, turli hayotiy vaziyatlarda shaxs tomonidan muhim deb topilishi mumkin bo'lgan qadriyatlaridir. [3,…22 b]

Mazkur tasnifga metodologik asos sifatida qadriyatlar to'g'risidagi M. Rokich tomonidan ilgari surilgan nazariya qabul qilingan bo'lib, u ko'pchilik mutaxassislar tomonidan to'la qo'llab-quvvatlangan.

Tadqiqotning "Namangan oilalarida milliy qadriyatlar namoyon bo'lishining etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlari" deb, nomlangan bobida milliy urf-odat va an'analarning etnopsixologik xususiyatlari, oiladagi milliy qadriyatlar shakllanishining psixologik mexanizmlari o'rganish maqsadida biz Rokich tomonidan taklif etilgan qadriyatlarni o'rganish metodikasining G'.B. SHoumarov tomonidan modifikatsiya qilingan "Qadriyatlar orientatsiyasi" testi variantidan foydalandik. Qadriyatlar tizimida asosiy "Milliy qadriyatlar" terminal yo'nalishda o'z ifodasini topgan. Namangan va Andijon shaxarlari o'zbek millatiga mansub bo'lgan respondientlar milliy qadriyatlarni aloxida mexanizmlar tizimida aniqlangan. Milliy qadriyat nima, degan savolimizga "millatga, milliy urf-odatlarga, yurtga va oilaga bo'lgan ijobiy munosabat"- deb javob berishgan.

Qadriyatlar tizimini kursatkichlari (o'rtacha kiymatlar asosida)

Qadriyatlar darajasi	**qadriyatlar tizimi "A" guruxida xayotdan mamnunlik (yuqori darajasida)**	**qadriyatlar tizimi "B" guruxida xayotdan mamnunlik (past darajasi)**				
		1	**2**	**3**	**4**	**5**
1	Milliy qadriyatlar mavjudligi	1.96	1.82	1.78	1.86	1.77
2	Baxtli onalik va otalik	1.82	1.72	1.69	1.73	1.67
3	Oiladagi munosabatlarn ishonchliligi va mustaxkamligi	1.04	1.64	1.74	1.79	1.81
4	Baxtli oilaviy xayot	1.13	1.85	1.79	1.70	1.68

5	Oilaning tinchligi, birligi, xotirjamligi	1.01	1.11	1.42	1.78	1.75

Qadriyatlar va xayotdan mamnun bo'lish orasida bog'langanlik mavjud.

Xayotdan mamnun bo'lgan gurux "A" va mamnun bo'lmagan gurux "B" gurux qadriyatlar tizimida sifat jixatdan quyida farqlar aniqlangan. Respondientlarda qadriyat tizimlari aniklandi xamda metodika yordamida respondientlar qadriyat yo'nalganligini namoyon etadigan ikki toifa: maqsadli va vositali qadriyatlar aniqlanadi:

Maqsadli qadriyatlar - maqsadga erishishda fakat xarakatni ko'zlaydigan tasdiqlarni bildiradi. Terminal qadriyatlarga nisbatan barqarordir.

Vositali qadriyatlar - xarakatlarda shaxsiy va jamoat fikrini tasdiqlarni bildiradi. Terminal qadriyatlar instrumental qadriyatlarga nisbatan barqarordir.

Terminal qadriyatlar - individual xayot kechirishning pirovard maqsadi unga intilish uchun uchinchi bosqichda A va B guruxlarida "Rolli munosabatlarni o'ziga xosligini" aniqlashga qaratilgan metodikani taxlilini olib borishdir. Ko'zlangan asosiy maqsad , oila mustaxkamligida qadriyatlar tizimini o'rnini, ta'sirini bevosita oila muxitiga oid bo'lgan funktsiyalarni bajarilishi orqali aniqlashdan iboratdir

Xulosa. Umuman olganda, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning bir xil bo'lmasligi, urf-odat va an'analardagi farqlar, shuningdek, narsa-hodisalarni idrok etishda mavjud bo'lgan xilma-xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilan izohlash mumkin. O'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-etnik xususiyatlarini ilmiy-nazariy va empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlarni muvaffaqiyatli saqlash va mustahkamlashda milliy qadriyatlar alohida o'rin tutadi.

Milliy qadriyatlar orqali oiladagi rollarni rag'batlantirish, hissiy va aqlga asoslangan tartibga solish ijtimoiy-psixologik va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Zero, qadriyatlar nafaqat oila a'zolarining o'zaro muloqot va hamkorligini belgilaydi, balki turli vaziyatlarda qaror qabul qilish, nizolarni bartaraf etish va o'zaro hurmatni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu bois, milliy qadriyatlarni chuqur o'rganish va ulardan oilaviy munosabatlarni rivojlantirishda samarali foydalanish, nafaqat ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar uchun, balki amaliy hayotda ham e'tiborga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shoumarov G'.B., Rasulova Z.A. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar //Oila barqarorligi: muammolar, tajribalar, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami– Toshkent,2012.–B.116- 118.

2. Akramova F.A. va boshqalar. Oila entsiklopediyasi. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.

3. SHoumarov G'.B., Turgunboeva A.G. va boshqalar.. Oila psixologiyasi. – Toshkent 2022. O'quv qo'llanma, -37-41 b.

4. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / G'.B. Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. – 338 b.

5. Oila entsiklopediyasi. Tuzuvchilar: F.A.Akramova, Z.Bilolova, I.Jovliev. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.

Usmanova Shoira Djumabekovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

KASBIY SHAKLLANISH JARAYONIDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari yoritilgan. Ijtimoiy faollik shaxsning kasbiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, uning kommunikativ qobiliyatlari, tashabbuskorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ijtimoiy faollikni shakllantirish mexanizmlari, uning kasbiy kompetentlik va muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyaga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga doir samarali usullar ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy shakllanish, ijtimoiy faollik, rivojlanish, kompetentlik, shaxsiy o‘sish, ijtimoiy moslashuv.*

ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические и педагогические основы развития социальной активности в процессе профессионального становления личности. Социальная активность является важным фактором профессионального роста, способствует развитию коммуникативных способностей, инициативности и социальной адаптации. В исследовании анализируются механизмы формирования социальной активности, её влияние на профессиональную компетентность и успешную социальную интеграцию. Также представлены эффективные методы развития социальной активности молодежи в образовательном и воспитательном процессе.*

Ключевые слова: *профессиональное становление, социальная активность, развитие, компетентность, личностный рост, социальная адаптация.*

FOUNDATIONS OF DEVELOPING SOCIAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL FORMATION

Annotation. *This article explores the psychological and pedagogical foundations of developing social activity in the process of professional formation. Social activity plays a crucial role in professional growth, enhancing communicative abilities, initiative, and social adaptability. The study analyzes the mechanisms of fostering social activity and its impact on professional competence and successful social integration. In addition, effective methods for developing social activity among youth within the educational and upbringing process are highlighted.*

Key words: *professional formation, social activity, development, competence, personal growth, social adaptation.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida jamiyat taraqqiyoti, avvalo, inson kapitalining sifati, uning kasbiy mahorati va ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi. Shaxsning kasbiy shakllanish jarayoni nafaqat mutaxassislik bilim va ko‘nikmalarini egallashni, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish, o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida anglash hamda kasbiy kompetensiyalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida samarali qo‘llashni ham nazarda tutadi. Shu bois, kasbiy shakllanishda ijtimoiy faollikni rivojlantirish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy faollik shaxsning tashabbuskorligi, ijtimoiy munosabatlarda ishtiroki, kommunikativ qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuvchanligini o‘zida mujassam etadi. Bu sifatlar yoshlarning kasbiy

rivojlanishida muhim omil bo‘lib, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi va shaxsiy o‘sishga zamin yaratadi. Kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikning yetarli darajada shakllanmaganligi nafaqat shaxsning professional muvaffaqiyatiga, balki uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, bugungi ta’lim tizimida yoshlarning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmasdan, balki ularni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga yo‘naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish shaxsning har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida kamol topishi uchun zarur shartlardan biri sifatida qaraladi.

Demak, kasbiy shakllanish va ijtimoiy faollik bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Ulardan biri nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchisi bu bilimlarni ijtimoiy hayotda samarali qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shu bois, mazkur mavzu bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy mexanizmlarini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim va tarbiya amaliyotida katta nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalasi turli davr va makonlarda olimlarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Mazkur mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy faollik shaxsning kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida ko‘riladi va uning mazmuni psixologik, pedagogik hamda sotsiologik yondashuvlarda keng o‘rganilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Sh. R. Baratov, M. Q. Qodirov, S. A. Nishonova va boshqalar ta’lim jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishning psixologik-pedagogik sharoitlarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, kasbiy shakllanish nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni, balki shaxsning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishi va faol ishtirok etishini ham taqozo etadi. Xususan, Nishonovaning ishlari yoshlarning tashabbuskorligi, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin ifoda etishi va kasbiy kompetensiyalarni jamiyat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Rus olimlari orasida A. G. Asmolov, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, V. A. Slastenin, I. F. Isaevlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Vygotskiy ijtimoiy taraqqiyotda faoliyat va muloqotning asosiy rolini ta’kidlab, shaxsning rivojlanishi uning ijtimoiy faoliyatga qo‘shilishi orqali amalga oshishini asoslab bergan. A. G. Asmolov shaxsning ijtimoiy faolligini ijtimoiy-psixologik integratsiyaning ajralmas qismi sifatida talqin etib, uni kasbiy shakllanish jarayonida yetakchi omillardan biri sifatida ko‘rsatadi. Slastenin esa kasbiy pedagogika nuqtayi nazaridan o‘quvchi va talabalarni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish zarurligini asoslab o‘tadi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham bu masalaga keng e’tibor qaratganlar. A. Maslowning motivatsiya nazariyasi shaxsning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi jarayonida ijtimoiy ehtiyojlar va faollikning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. X. Heckhausenning faoliyat nazariyasi esa ijtimoiy faollikni shaxsning tashabbuskorligi, maqsad sari intilishi va natijaga erishish motivlari bilan bog‘liq holda izohlaydi. D. Super va D. Holland kabi kasbiy rivojlanish nazariyachilari shaxsning kasbiy tanlovi va faoliyatida ijtimoiy muhitning, xususan ijtimoiy faollikning bevosita ta’sirini ilmiy asoslab berganlar. Ularning ishlari yoshlarning kasbiy shakllanishida ijtimoiy faollikni rivojlantirishga oid ko‘plab metodik yondashuvlarni shakllantirishga zamin yaratdi.

Adabiyotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, mahalliy olimlar asarlarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik sharoitlari, ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni ko‘proq yoritilgan bo‘lsa, rus olimlari asarlarida bu masala psixologik jarayonlar, shaxsiy rivojlanish va faoliyat nazariyasi bilan uzviy bog‘liq tarzda tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar esa ijtimoiy faollikni shaxsning motivatsiyasi, ehtiyojlari, kasbiy tanlovi va shaxsiy o‘sish omillari bilan bog‘liq holda keng ko‘lamda tahlil qilganlar.

Shu tariqa, mavjud ilmiy manbalar kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirishni kompleks yondashuv asosida o‘rganishni taqozo etadi. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki,

shaxsning kasbiy shakllanishi va ijtimoiy faolligi bir-birini to‘ldiruvchi, integrativ jarayonlar bo‘lib, ta’lim, tarbiya va ijtimoiy tajriba asosida mukammallashib boradi.

Muhokama. Kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogika va psixologiya, balki sotsiologiya, menejment va shaxs rivojlanishi bilan bog‘liq fanlar doirasida ham dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning kasbiy kompetensiyalari faqatgina bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan belgilanmaydi; aksincha, uning ijtimoiy faol pozitsiyasi, tashabbuskorligi, kommunikativ qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuvchanligi ham mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatdagi munosabatlar tizimida faol ishtirokini ta’minlaydi, u o‘z kasbiy salohiyatini ijtimoiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtira oladi. Masalan, ijtimoiy faol mutaxassis nafaqat o‘z vazifalarini bajaradi, balki yangilik yaratishga intiladi, jamoadagi hamkorlikni mustahkamlaydi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ijtimoiy faollikni rivojlantirish kasbiy shakllanishning ajralmas qismi bo‘lib, u shaxsning professional kamoloti bilan bir vaqtda uning ijtimoiy o‘sishini ham ta’minlaydi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy faollikning rivojlanishi ikki asosiy omilga bog‘liq: birinchidan, shaxsning individual psixologik xususiyatlari (motivatsiya, irodaviy sifatlar, tashabbuskorlik), ikkinchidan esa, ijtimoiy-pedagogik sharoitlar (ta’lim muhiti, tarbiya jarayoni, ijtimoiy tajriba). Demak, ijtimoiy faollikni rivojlantirishning samaradorligi shaxsiy va tashqi omillar uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotlar shuningdek, yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. O‘spirinlik va talabalik davri ijtimoiy faollikni shakllantirishda eng qulay bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning kasbiy yo‘nalishi, ijtimoiy pozitsiyasi va hayotiy qadriyatlari barqarorlashadi. Agar bu davrda yoshlar faol ijtimoiy muhitga jalb qilinsa, ular keyinchalik kasbiy sohada muvaffaqiyatli va samarali shaxs sifatida shakllanadi.

Amaliy nuqtayi nazardan qaralganda, ta’lim muassasalari yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning eng asosiy maydoniga aylanadi. Pedagogik jarayonda hamkorlik, loyiha faoliyati, ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish ijtimoiy faollikni kuchaytiruvchi vositalar sifatida samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, turli to‘garaklar, volontyorlik faoliyati va ijtimoiy loyihalarda qatnashish ham yoshlarning kasbiy shakllanishida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu o‘rinda yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy faollikni rivojlantirish jarayoni o‘z-o‘zidan kechmaydi. U maqsadli pedagogik yondashuv, ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlashi va shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan intilishi bilan uzviy bog‘liq. Agar bu omillar uyg‘unlashsa, kasbiy shakllanish jarayoni nafaqat mutaxassis sifatida yetilish, balki ijtimoiy jihatdan faol, mas’uliyatli va tashabbuskor shaxsni shakllantirish bilan yakun topadi.

Ijtimoiy faollik kasbiy shakllanishning poydevoriy elementi hisoblanadi. U shaxsning kasbiy kompetensiyalarini boyitibgina qolmay, balki uni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Shu sababli, ta’lim va tarbiya amaliyotida ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ishlab chiqish va uni uzluksiz ravishda amalga oshirish zamonaviy sharoitda eng dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa. Kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish shaxsning professional va shaxsiy kamolotida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy faollik shaxsning tashabbuskorligi, kommunikativ qobiliyatlari, ijtimoiy moslashuvchanligi va jamiyatdagi faol pozitsiyasi orqali uning kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demak, kasbiy shakllanish faqat bilim va ko‘nikmalarni egallash emas, balki ularni ijtimoiy muhitda samarali qo‘llash va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish bilan uzviy bog‘liqdir.

Mahalliy, rus va xorijiy olimlarning qarashlari umumlashtirilganda, ijtimoiy faollikni rivojlantirish ikki asosiy yo‘nalishda – shaxsiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik omillar uyg‘unligida amalga oshirilishi zarurligi aniqlanadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda ta’lim muassasalari, ijtimoiy tashabbuslar, volontyorlik faoliyati, hamkorlik va loyiha asosidagi ishlar alohida

o‘rin tutadi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlash va kelajak kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun eng muhim davrdir.

Shunday qilib, kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish kompleks yondashuvni, ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion uslublarni qo‘llashni va shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatini talab etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy faol, tashabbuskor va mas’uliyatli mutaxassislarni tayyorlashga, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Baratov Sh. R. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 280 b.
2. Nishonova S. A. Ta’lim jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish omillari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 240 b.
3. Qodirov M. Q. Kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018. – 215 b.
4. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov B. X. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 198 b.
5. Karimova V. M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2017. – 312 b.
6. Асмолов А. Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития. – Москва: Смысл, 2018. – 384 с.
7. Выготский Л. С. Психология развития человека. – Москва: Эксмо, 2019. – 352 с.
8. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2020. – 304 с.
9. Сластёнин В. А., Исаев И. Ф. Педагогика. – Москва: Академия, 2016. – 416 с.
10. Андреева Г. М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2017. – 368 с.
11. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 2019. – 368 p.
12. Heckhausen H. Motivation and Action. – Berlin: Springer, 2018. – 428 p.
13. Super D. E. The Psychology of Careers. – New York: Harper & Brothers, 2015. – 320 p.
14. Holland J. L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. – Odessa, Florida: Psychological Assessment Resources, 2016. – 312 p.
15. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 2017. – 560 p.

Нишанова Зулфизар Яшин кизи
преподаватель кафедры психологии Ташкентского университета прикладных наук,
PhD по психологии

МЕСТО МАНИПУЛЯЦИИ В СИСТЕМЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ

Аннотация. *В современной психологии проблема манипуляции занимает особое место, так как именно она отражает скрытые механизмы влияния в системе человеческих взаимоотношений. Манипуляция понимается как форма психологического воздействия, направленного на изменение поведения, установок или решений другого человека без его явного осознания. В статье подчеркивается, что манипулятивные стратегии проявляются как в межличностных контактах, так и в более широких социальных контекстах — в семье, образовательных учреждениях, профессиональной среде и медийном пространстве. Рассматриваются основные виды манипуляций: эмоциональные, когнитивные, поведенческие и коммуникативные, а также их последствия для личностного развития и межличностного доверия. Особое внимание уделяется этическим аспектам проблемы, так как манипуляция может выступать как разрушительным, так и конструктивным средством воздействия. Важным направлением анализа является изучение механизмов психологической устойчивости личности, позволяющих противостоять манипуляциям, сохраняя автономию и критическое мышление. Таким образом, феномен манипуляции рассматривается не только как угроза гармоничным отношениям, но и как важный индикатор социально-психологической динамики, требующий глубокого научного исследования и разработки практических рекомендаций.*

Ключевые слова: *манипуляция, психологическое воздействие, межличностные отношения, социальная психология, устойчивость, этика.*

INSONIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA MANIPULYATSIYANING O‘RNI

Annotatsiya. *Zamonaviy psixologiyada manipulyatsiya masalasi alohida o‘rin tutadi, chunki u insonlararo munosabatlarda yashirin ta’sir mexanizmlarini namoyon etadi. Manipulyatsiya shaxsning xatti-harakatlari, qarorlari yoki qarashlarini ochiqdan-ochiq emas, balki yashirin usullar orqali o‘zgartirishga qaratilgan psixologik ta’sir shakli sifatida talqin qilinadi. Maqolada manipulyativ strategiyalar oilaviy, ta’limiy, professional va ommaviy axborot muhitida qanday namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Manipulyatsiyaning emotsional, kognitiv, xulqiy va kommunikativ turlari hamda ularning shaxsiy rivojlanish va o‘zaro ishonchga ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, manipulyatsiya muammosining axloqiy jihatlari yoritilib, uning buzuvchi yoki konstruktiv vosita sifatida qo‘llanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shaxsning mustaqilligini saqlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va psixologik barqarorlikni oshirish manipulyativ ta’sirlarga qarshi turishning asosiy yo‘llari sifatida ko‘rsatiladi. Shu tariqa, manipulyatsiya hodisasi nafaqat insoniy munosabatlarning izchilligiga tahdid sifatida, balki ijtimoiy-psixologik dinamikani ko‘rsatuvchi muhim indikator sifatida ham talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *manipulyatsiya, psixologik ta’sir, insonlararo munosabatlar, ijtimoiy psixologiya, barqarorlik, etika.*

THE PLACE OF MANIPULATION IN THE SYSTEM OF HUMAN RELATIONSHIPS

Annotation. *In modern psychology, the problem of manipulation holds a significant place, as it reflects the hidden mechanisms of influence within the system of human relationships. Manipulation is understood as a form of psychological impact aimed at changing another person’s behavior, attitudes, or decisions without their explicit awareness. This article emphasizes that manipulative strategies occur not only in interpersonal communication but also in broader social contexts — within the family, educational settings, professional environments, and the media space. The main*

types of manipulations are analyzed, including emotional, cognitive, behavioral, and communicative forms, as well as their consequences for personal development and interpersonal trust. Particular attention is paid to the ethical aspects of manipulation, since it can function both as a destructive and as a constructive tool of influence. Another important focus is the study of psychological resilience, which enables individuals to resist manipulative influences while maintaining autonomy and critical thinking. Thus, manipulation is considered not only as a threat to harmonious relationships but also as an important indicator of socio-psychological dynamics that requires deep scientific investigation and the development of practical recommendations.

Keywords: *manipulation, psychological influence, interpersonal relations, social psychology, resilience, ethics.*

Введение. В современном обществе комплексно рассматривается проблема манипулирования людьми с использованием различных средств, способов и технологий информационно-психологического воздействия, ставшего достаточно массовым явлением в повседневной жизни, экономической конкуренции и политической борьбе и представляющего основную угрозу информационно-психологической безопасности личности в современных условиях развития современного общества. Сущность манипуляций людьми, выделяется как скрытое психологическое принуждение личности.

Анализ литературы. Согласно Е. Л. Доценко, все человеческие поступки можно расположить вдоль ценностной оси «отношение к другому как к ценности — отношение к другому как к средству» [2]. Первый полюс (субъектный) предполагает признание самоценности другого человека, наличия права быть таким, каков он есть. Эта установка выражается в стремлении к сотрудничеству, к установлению равноправных взаимоотношений, к совместному решению возникающих проблем, в готовности понять. Второй полюс (объектный), напротив, предполагает отношение к другому человеку как к орудию для достижения своих целей: нужен — привлечь, не нужен — отодвинуть, мешает — убрать. Такая установка конкретизируется в желании обладать, распоряжаться другим человеком, в непонимании и отсутствии попыток его понять, в упрощённом, одностороннем взгляде на него, основанном на стереотипных представлениях, расхожих суждениях [2].

Впрочем, далеко не все формы взаимодействия людей можно отнести к тому или другому из названных пунктов. Поэтому Е. Л. Доценко выделил пять типов установок на взаимодействие [2]:

Доминирование. Характеризуется: 1) отношением к партнёру как к вещи или орудию достижения целей, чьи интересы не принимаются в расчёт; 2) стремлением обладать, распоряжаться, иметь неограниченное одностороннее преимущество; 3) упрощённым, односторонним восприятием партнёра, наличием стереотипных представлений о нём; 4) наличием открытого императивного воздействия (от насилия до навязывания, внушения) [2].

Манипуляция. Характеризуется: 1) отношением к партнёру как к «вещи особого рода» (тенденция к игнорированию его интересов и намерений присутствует, но не носит всеобъемлющий характер); 2) стремлением иметь одностороннее преимущество, сочетающимся с оглядкой на производимое впечатление; 3) наличием скрытого воздействия с привлечением не прямого, а опосредованного давления (провокация, обман, интрига) [2].

Соперничество. Характеризуется: 1) отношением к партнёру как к опасному и непредсказуемому объекту, которого нельзя недооценивать; 2) стремлением переиграть его, «вырвать» одностороннее преимущество; 3) использованием как скрытого, так и открытого воздействия (отдельные виды «тонкой» манипуляции, тактические соглашения) [2].

Партнёрство. Характеризуется: 1) отношением к партнёру как к равному; 2) стремлением не допустить ущерба себе при отсутствии ущемления чужих интересов; 3) применением способов взаимодействия, а не воздействия (договор) [2].

Содружество. Характеризуется: 1) отношением к партнёру как к самоценной личности; 2) стремлением к объединению, совместной деятельности для достижения близких или совпадающих целей; 3) применением согласия (консенсуса) в качестве основного способа взаимодействия [2].

Таким образом, в соответствии с классификацией Е. Л. Доценко, манипуляция предполагает наличие неравноправных взаимоотношений, близких к доминированию, но отличающихся меньшей интенсивностью воздействия на психику партнёра.

Условия успешной манипуляции. Согласно Джорджу Саймону (George K. Simon) [3] успех психологической манипуляции прежде всего зависит от того, насколько манипулятор:

скрывает агрессивные намерения и поведение;

знает психологические уязвимости жертвы, чтобы определить, какая тактика будет наиболее эффективной;

имеет достаточный уровень жестокости, чтобы не беспокоиться о том, что нанесёт жертве ущерб в случае необходимости.

Следовательно, манипуляция остаётся чаще всего скрытой — реляционно-агрессивной (англ. relational aggression, вред наносится отношениям какого-либо человека с другими людьми, либо его социальному статусу) или пассивно-агрессивной.

Основная часть. Как манипуляторы управляют своими жертвами. Харриет Брейкер (Harriet B. Braiker) идентифицировала следующие основные способы, которыми манипуляторы управляют своими жертвами [1]:

положительное подкрепление — похвала, поверхностное очарование, поверхностное сочувствие («крокодиловы слёзы»), чрезмерные извинения; деньги, одобрение, подарки; внимание, выражения лица, такие как притворный смех или улыбка; общественное признание;

отрицательное подкрепление — избавление от проблемной, неприятной ситуации в качестве награды.

неустойчивое или частичное подкрепление — может создавать эффективный климат страха и сомнения. Частичное или неустойчивое положительное подкрепление может поощрить жертву упорствовать — например, в большинстве форм азартных игр игрок может выигрывать время от времени, но в сумме всё равно окажется в проигрыше;

наказание — попрёки, крик, «игра в молчанку», запугивание, угрозы, брань, эмоциональный шантаж, навязывание чувства вины (guilt trip), угрюмый вид, нарочитый плач, изображение жертвы;

травмирующий одноразовый опыт — словесное оскорбление, крики, взрыв гнева или другое пугающее поведение с целью установить господство или превосходство; даже один инцидент такого поведения может приучить жертву избегать противостояния или противоречия манипулятору.

Саймон[3] идентифицировал следующие методы управления:

Ложь — использование трудно определяемой во время высказывания лжи, когда зачастую правда может открыться впоследствии, когда будет слишком поздно. Единственный способ минимизировать возможность быть обманутым состоит в том, чтобы осознать, что некоторые типы личностей (особенно психопаты) — мастера в искусстве лжи и мошенничества, делают это систематически и, нередко, тонкими способами.

Обман путём умолчания — очень тонкая форма лжи путём утаивания существенной доли правды. Эта техника также используется в пропаганде.

Отрицание — манипулятор отказывается признать, что он или она сделал что-то не так.

Рационализация — манипулятор оправдывает своё поведение обоснованиями и причинами, выглядящими на первый взгляд убедительно. Рационализация тесно связана со «спином» — формой пропаганды или пиара, см. спин-доктор.

Минимизация — разновидность отрицания в совокупности с рационализацией. Манипулятор утверждает, что его поведение не является настолько вредным или безответственным, как полагает кто-то другой, например, заявляя, что насмешка или оскорбление были только шуткой.

Избирательное невнимание или избирательное внимание — манипулятор отказывается обратить внимание на что-либо, что может расстроить его планы, заявляя нечто вроде «я не хочу этого слышать».

Отвлечение — манипулятор не даёт прямой ответ на прямой вопрос и вместо этого переводит разговор на другую тему.

Отговорка — подобна отвлечению, но с предоставлением не относящихся к делу, бессвязных, неясных ответов, с использованием неопределённых выражений.

Скрытое запугивание — манипулятор заставляет жертву выполнять функцию защищающейся стороны, используя завуалированные (тонкие, косвенные или подразумеваемые) угрозы.

Ложная вина — особый вид тактики запугивания. Манипулятор намекает добросовестной жертве, что она недостаточно внимательна, слишком эгоистична или легкомысленна. Это обычно приводит к тому, что жертва начинает испытывать негативные чувства, попадает в состояние неуверенности, тревоги или подчинения.

Пристыжение — манипулятор использует сарказм и оскорбительные выпады, чтобы увеличить в жертве страх и неуверенность в себе. Манипуляторы используют эту тактику, чтобы заставить других чувствовать себя малозначимыми и поэтому подчиниться им. Тактика пристыжения может быть очень искусной, например, жёсткое выражение лица или взгляд, неприятный тон голоса, риторические комментарии, тонкий сарказм. Манипуляторы могут заставить испытывать чувство стыда даже за дерзость оспаривать их действия. Это эффективный способ воспитать чувство неадекватности в жертве [4].

Осуждение жертвы — по сравнению с любыми другими тактиками эта является наиболее мощным средством вынудить жертву быть защищающейся стороной, одновременно маскируя агрессивное намерение манипулятора.

Исполнение роли жертвы («я несчастный») — манипулятор изображает себя жертвой обстоятельств или чьего-либо поведения, чтобы добиться жалости, сочувствия или сострадания и таким образом достичь желаемой цели [5].

Заботливые и добросовестные люди не могут не сочувствовать чужому страданию, и манипулятор зачастую легко может играть на сочувствии, чтобы добиться сотрудничества.

Исполнение роли слуги — манипулятор скрывает корыстные намерения под видом служения более благородному делу, например, утверждая, что действует определённым способом из-за «повиновения» и «служения» Богу или другой авторитетной фигуре.

Соблазнение — манипулятор использует очарование, похвалу, лесть или открыто поддерживает жертву, чтобы снизить её сопротивляемость и заслужить доверие и лояльность.

Проецирование вины (обвинение других) — манипулятор делает жертву козлом отпущения, зачастую тонким, труднообнаружимым способом.

Симуляция невиновности — манипулятор пытается внушить, что любой причинённый им вред был неумышленным, или что он не делал того, в чём его обвиняют. Манипулятор может принять вид удивления или негодования. Эта тактика заставляет жертву подвергнуть сомнению своё собственное суждение и, возможно, своё благоразумие.

Симуляция путаницы — манипулятор пытается прикинуться глупцом, притворяясь, что не знает, о чём ему говорят, или что перепутал важный вопрос, на который обращают его внимание.

Агрессивный гнев — манипулятор использует гнев, чтобы шокировать жертву и заставить подчиняться. В большинстве случаев этот аффект является наигранным; нередко он используется с целью маскировки неуверенности и беспокойства [6].

Деклассирование — деклассирование жертвы, с последующей компенсацией со стороны жертвы за свою мнимую малозначимость, с выгодой для манипулятора.

Заключение. Таким образом, знание представленных нами выше приемов манипулятивного воздействия – гарантия того, что вы не станете жертвой современных манипуляторов.

Литература.

1. https://www.livelib.ru/author/114566-harriet-brejker

2. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита / Е. Л. Доценко. — М.: ЧеРо — Издательство МГУ, 1997. — 344 с. — ISBN 5-88711-038-4.

3. Саймон Дж. Кто в овечьей шкуре? Как распознать манипулятора = In Sheep's Clothing Understanding And Dealing With Manipulative people. — М.: Альпина Паблишер, 2014. — 190 с. — ISBN 978-5-9614-4752-1.

4. Одинцова М. А. Многоликость «жертвы» или немного о Великой манипуляции (Система работы, диагностика, тренинги).— М.: Флинта, 2010.— 256 с.— ISBN 978-5-9765-0855-2

5. Кара -Мурза Манипуляция сознанием. -М.: Экспо. 2005. -832 с.

6. https://ru.ruwiki.ru/wiki/

Ataxo‘jayeva Shaxlo Anvarovna
University of Business and Science universiteti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: shaxloataxujayeva@gmail.com

OLIY TA’LIM CHET TILI O‘QITUVCHILARIDA SOTSIAL EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikning namoyon bo‘lishi, uning tarkibiy qismlari hamda kasbiy faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda pedagogik va psixologik jihatdan sotsial-emotsional kompetentlikning ta’lim jarayonidagi roli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning tarbiyaviy kommunikatsiya qobiliyati, talabalarning emotsional holatini tushunish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, emotsional qiziqishlarni rivojlantirish jarayonlari tahlil qilingan. Aralash tadqiqot metodlari asosida yig‘ilgan ma’lumotlar o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional salohiyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi. Natijalar oliy ta’limda ta’lim-tarbiyaviy samaradorlikni oshirish, talabalar bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish hamda zamonaviy pedagogik faoliyatni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sotsial-emotsional kompetentlik, chet tili o‘qituvchisi, oliy ta’lim, pedagogik kommunikatsiya, emotsional holat, talabalarning qiziqishi, aralash tadqiqot metodlari, pedagogik psixologiya.*

ДЕМОНСТРАЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается проявление социально-эмоциональной компетентности у преподавателей иностранных языков в системе высшего образования, ее структурные компоненты и значение в профессиональной деятельности. В исследовании акцент сделан на педагогических и психологических аспектах социально-эмоциональной компетентности в образовательном процессе. Особое внимание уделено коммуникативным способностям преподавателей, пониманию и поддержке эмоционального состояния студентов, а также развитию эмоциональных интересов. Полученные результаты подтверждают необходимость развития социально-эмоционального потенциала преподавателей для повышения эффективности высшего образования и совершенствования современной педагогической практики.*

Ключевые слова*: социально-эмоциональная компетентность, преподаватель иностранного языка, высшее образование, педагогическая коммуникация, эмоциональное состояние, интересы студентов, педагогическая психология.*

DEMONSTRATION OF SOCIAL EMOTIONAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *This article explores the manifestation of social-emotional competence in higher education foreign language teachers, its structural components, and its significance in professional activity. The study emphasizes the pedagogical and psychological aspects of social-emotional competence in the educational process. It highlights teachers’ abilities in educational communication, understanding and supporting students’ emotional states, and fostering emotional interests. The findings demonstrate the necessity of developing teachers’ social-emotional potential to increase the effectiveness of higher education and improve modern pedagogical practice.*

Key words: *social-emotional competence, foreign language teacher, higher education, pedagogical communication, emotional state, student interest, educational psychology.*

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini o'rganish va rivojlantirish jarayoni ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir. Sotsial-emotsional kompetentlik – bu o'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqarish, talabalar emotsional holatini tushunish, ijobiy kommunikatsiya o'rnatish hamda tarbiyaviy jarayonlarda samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Mazkur kompetentlik pedagogik faoliyatning asosiy psixologik tayanchlaridan biri bo'lib, chet tili o'qituvchilarining kasbiy yetukligini ta'minlaydi.

Sotsial-emotsional kompetentlikni shakllantirish uchun oliy ta'lim chet tili o'qituvchilaridan quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlar talab qilinadi:

Tarbiyaviy kommunikatsiya. O'qituvchi talabalar bilan samarali muloqot o'rnatib, ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonida to'g'ri yo'naltira olishi zarur. Bunda talabalarning shaxsiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash va ularning shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish muhimdir.

Talabalarning emotsional holatini tushunish. Ta'lim jarayonida talabalar boshdan kechirayotgan turli emotsional holatlarni anglash va ularga mos pedagogik yordam ko'rsatish o'qituvchining muhim vazifasidir.

Emotsional qiziqishlarni qo'llab-quvvatlash. Talabalarning qiziqishlarini inobatga olish, ularni o'rganish va mazkur qiziqishlarni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatish o'qituvchidan maxsus yondashuvni talab qiladi.

Shunday qilib, oliy ta'lim chet tili o'qituvchilari sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish ularning tarbiyaviy va kasbiy samaradorligini oshiradi, talabalarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda zamonaviy raqamli ta'lim jarayonida samarali faoliyat yuritish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotchi so'rov va respondentlar bilan intervyu o'tkazgan holda aralash usullarni qo'lladi. Tadqiqot ishlarini olib borish va ushbu tadqiqot natijalarini tekshirish uchun tadqiqotning tadqiqot masalalarini hal qilish uchun aralash usullar yondashuvining tushuntirish ketma-ket dizayni qo'llanildi. O'qituvchilar uchun Emotsional ijtimoiy kompetentlik so'rovnomasidan foydalanildi va konstruktsiyani o'zaro autentifikatsiya qilish uchun talabalardan intervyu o'tkazildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Sotsial emotsional kompetentlikni o'rganishning tadqiqot metodikalarini umumiy sharhi xususida o'tgan paragrafda aniqlik kiritib o'tgan edik. Shu sababli bevosita tadqiqot natijalari sharhiga murojaat etaylik (1-jadval).

1-jadval.

Oliy ta'lim chet tili o'qituvchilarning sotsial emotsional kompetentlik ko'rsatkichlari

№	Sotsial emotsional kompetentlikning zaruriry komponentlari	M	Δ
1.	Umumiy intellekt	93,82	10,24
2.	Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	3,50	0,52
3.	Noverbal hulq-atvorni tushunish	3,05	0,84
4.	Verbal ekspressiyani tushunish	3,60	0,62
5.	Shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish	2,74	0,89

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning umumiy intellektual ko'rsatkichlari yuqori darajada (M=93,82), bu ularning kasbiy salohiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sotsial-emotsional kompetentlikning ayrim komponentlari, xususan, shaxslararo ta'sirlashuvni tahlil etish (M=2,74) pastroq natija qayd etdi. Bu esa o'qituvchilarda talabalar bilan chuqurroq muloqot qilish va noverbal signallarni samarali anglash kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Ularning umumiy intellekt (IQ) darajasi o'rtacha bo'lganligi sababli, ular sotsial emotsional kompetentlikni aks ettiruvchi mezon bo'lgan "Suhbatdoshning his-tuyg'ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish" bo'yicha o'rtacha kuchli darajani (3,50±0,52) ko'rsatdi. Bu shuni anglatadiki, oliy ta'lim chet tili o'qituvchilar shaxslararo dinamikani oldindan bilish va voqealar rivojini bashorat qilish

qobiliyatiga ega, garchi bu jihat yanada rivojlantirishni talab qiladi. Agar oliy ta'lim chet tili o'qituvchilar ushbu subtestda yuqori saviyada ishtirok eta olsalar, ular o'zlarining fotosuratlarini tekshirish orqali notanish shaxsning batafsil tavsifini berishlari mumkin edi. Ma'lumki, oliy ta'lim chet tili o'qituvchilarning sotsial emotsional kompetentlikning ushbu jihati bo'yicha malakasi o'rtacha darajadan yuqori.

Bundan tashqari, oliy ta'lim chet tili o'qituvchilar og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarni tushunishda o'rtacha qiymatdan yuqori bo'lgan qiymatni ko'rsatdilar (3,05 ± 0,84). Bu shuni ko'rsatadiki, talabalar og'zaki bo'lmagan belgilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib, tana tilini, yuz ifodalarini va xatti-harakatlarini talqin qilish kabi og'zaki bo'lmagan muloqotdan foydalanish orqali o'zlarini professional muhitga faol tayyorlaydilar. Og'zaki bo'lmagan signallarni baholashda bunday mahorat oliy ta'lim chet tili o'qituvchilarning faol, mulohaza yurituvchi va empatik ishtirok etishga moyilligini, shuningdek, o'zlarining his-tuyg'ularini anglash qobiliyatini ko'rsatadi. oliy ta'lim chet tili o'qituvchilar bu ko'nikmalarni yanada kuchaytira olsalar, bu boshqalarni tushunish va ular bilan empatiya qilish qobiliyatini oshiradi, ularning muloqotida chuqurroq aloqalarni rivojlantiradi.

O'rtacha rivojlanishiga qaramay, o'quvchilarning sotsial emotsional kompetentlikining bu jihatlari, xususan, og'zaki ifodani tushunish (3,60±0,62) va shaxslararo o'zaro ta'sirni tahlil qilish (2,74±0,89) hali ham o'rtacha diapazonga yaqinligicha qolmoqda. Qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lish uchun biz o'quvchilarning sotsial emotsional kompetentlikini baholashda qo'llaniladigan test mezonlari orasidagi o'zaro bog'liqlikni tekshirishimiz mumkin. Tahlil mezonlar o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatib, o'quvchilarning "suhbatdoshning his-tuyg'ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish" va "og'zaki bo'lmagan xulq-atvorni tushunish" bo'yicha olgan ballari o'rtachadan yuqori ekanligini ko'rsatadi (r=0,399, p<0,05). Bu talabalarning umumiy muhitni, suhbatdoshlarining xulq-atvorini, shaxsiy fazilatlarini baholadhlari o'zlarining intellektual imkoniyatlari doirasida baholash qobiliyatlari bilan o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi (3-jadval).

2-jadval.

Oliy ta'lim chet tili o'qituvchilar sotsial emotsional kompetentligi munosabatlari

	Sotsial emotsional kompetentligini aniqlash shkalasi	1	2	3	4
1.	Xulq-atvor natijalarini bilish	1	0,401*	0,328	0,584**
2.	Noverbal bo'lgan xulq-atvorni tushunish		1	0,362	0,614**
3.	Og'zaki bo'lgan ekspressiyani tushunish			1	0,341
4.	Shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish				1

Izoh: 1-Xulq-atvor natijalarini bilish; 2-Noverbal bo'lgan xulq-atvorni tushunish; 3-Og'zaki bo'lgan ekspressiyani tushunish; 4-Shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish; nazarda tutilgan.

Keyinchalik, agar o'quvchilar "suhbatdoshning his-tuyg'ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish" qobiliyatini rivojlantirsalar, ular "shaxslararo o'zaro munosabatlarni tahlil qilish"da qiyinchiliklarga duch kelmasligi ilmiy jihatdan aniqlangan (r=0,584, p<0,01). Bundan tashqari, og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarni tushunish qobiliyatini oshirish orqali ular shaxslararo o'zaro ta'sirlarni tahlil qilishda o'zlarining malakalarini oshirishlari mumkin (r = 0,614, p<0,01). Umumiy intellekt natijalari va sotsial emotsional kompetentlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi tabiiydir. Bizning tahlilimiz orqali biz o'quvchilarning sotsial emotsional kompetentlikini boshqa intellektlar bilan o'zaro bog'liqligini tekshirish uchun qo'llaniladigan barcha metodologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni muvaffaqiyatli aniqladik [2.4-jadvalga qarang].

Oliy ta'lim chet tili o'qituvchilar muloqot qilayotgan sherigining his-tuyg'ulari, fikrlari va niyatlarini tushunishi va ularning umumiy intellekti (r=0,402, p<0,05), shuningdek, og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarini tushunishlari va murakkab analogiya testlarida ishlashlari o'rtasida

korrelyatsiya mavjud. (r=0,366, p<0,05). Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kognitiv intellektini oshirish suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunishga yordam beradi. Xuddi shunday, murakkab mantiqiy munosabatlarni farqlash qobiliyati ularning og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarini tushunishlariga yordam beradi.

4-jadval.

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilar sotsial intellektining boshqa intellekt turlari bilan munosabat ko‘rsatkichlari

№	Sotsial emotsional kompetentlikni aniqlash shkalasi	Umumiy	Analogiya	Tushunchalar	Vizual	Amaliy
1	Xulq-atvor natijalarini bilish	0,402*	0,194	0,108	0,094	-0,162
2	Noverbal bo‘lgan xulq-atvorni tushunish	0,106	0,366*	-0,152	0,170	-0,160
3	Og‘zaki bo‘lgan ekspressiyani tushunish	0,230	-0,084	0,161	0,093	-0,055
4	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish	0,283	0,248	0,164	0,026	-0,075

* p < 0.05

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilar intellektini har tomonlama tushunish uchun aql va jins o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish juda muhim, chunki ular bu borada farq qiladi. Shuning uchun biz ayol va erkak oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarning ko‘rsatkichlarini alohida o‘rganishga alohida e’tibor qaratdik. Bu bizga jinslar o‘rtasidagi sotsial emotsional kompetentlik rivojlanishidagi o‘zgarishlarni baholash imkonini berdi (2.5-jadvalga qarang). Ushbu tahlilni o‘tkazish orqali biz genderning sotsial emotsional kompetentlik dinamikasiga ta'siri bo‘yicha yanada kengroq va nozik nuqtai nazarga ega bo‘lishni maqsad qildik.

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarda ijtimoiy intellektning rivojlanishi umumiy intellektga nisbatan ko‘proq seziladi va uning mezonlari orasida ma’lum darajada bo‘lsa-da, o‘zaro bog‘langan munosabatlar mavjud. Ijtimoiy intellektni rivojlantirishda oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarni ajratib turadigan narsa ularning turli hayotiy vaziyatlarni kuzatishga, shaxsiy qarashlarini shakllantirishga va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda hayotiy ko‘nikmalarni oshirishga moyilligidir. Ta’kidlash joizki, oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarning ijtimoiy intellekt bosqichlarini o‘rganishimiz bir qancha ijobiy ilmiy xulosalar berdi.

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarda ijtimoiy intellektning yosh bilan bog‘liq psixologik jihatlariga ta’rif berishda Dj.Gilford metodikasining natijalariga suyanib ish ko‘rdik. Metodika bo‘yicha Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilar 4 ta subtestini yechdilar va har bir subtest (omil)ga max. 5 ball, min. 0 ball qo‘yib chiqildi. Shundan so‘ng har bir subtest bo‘yicha yig‘ilgan ballarning umumiy yig‘indisi topildi.

Bunda birinchi bosqich Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari umumiy 10 ball, ikkinchi bosqich Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari 10 ball, uchinchi bosqich Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari 14 ball, to‘rtinchi bosqich oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari 18 ball to‘pladilar.

Xulosa. Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari shaxslararo munosabatlarning psixologik dinamikasini idrok etishda yuqori sezgirlikka ega bo‘lib, suhbatdoshining niyatlari, hissiyotlari va maqsadlarini aniqlash qobiliyatini namoyon etadilar. Ularning “Men” konsepsiyasi yetarlicha rivojlangan bo‘lib, o‘zini anglash, o‘zini baholash va o‘ziga ishonch darajasi kuchlidir. Bu jarayon ularning refleksiv qobiliyatlari bilan uyg‘unlashib, o‘z shaxsiy imkoniyatlarini anglash va ijobiy baholashga olib keladi.

Shuningdek, chet tili o‘qituvchilari boshqa shaxslarning tashqi belgilaridan – yuz ifodalari, tana harakatlari yoki hatto fotosuratidan – ularning xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari va yashirin

salohiyatini taxmin qilishga moyillik bildiradilar. Bu esa ularning sotsial-emotsional kompetentligining psixologik namoyon bo‘lishi o‘ziga xos tarzda ijtimoiy idrok, empatiya va kommunikativ sezgirlikda aks etishini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligida quyidagi psixologik jihatlar yetakchilik qiladi: suhbatdoshning hissiyotlari va niyatlarini anglash, noverbal xulqni talqin qilish, verbal ifodani tushunish va shaxslararo o‘zaro ta’sirni tahlil etish. Bu sifatlar ularning ta’lim jarayonida talabalarga nafaqat bilim berishda, balki emotsional qo‘llab-quvvatlash va tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligining psixologik namoyon bo‘lishi ularning kasbiy faoliyatini samarali olib borishida, talabalar bilan ijobiy emotsional aloqa o‘rnatishda va ta’lim-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari asosida tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Cantor N., Kihlstrom J.F. Social intelligence and cognitive assessments of personality. //Wyer R. S. & Srull T.K. Advances in Social Cognition. Hillsdale, N.J.:Erbium, 1989. – Vol.2.–P. 1–59.
2. Raven J.C. Guide to the Progressive Matrices. London: Lewis. 1960.
3. Rogers C., ed. “Carl Rogers: Student-Centered Learning.” Project Innovation, a Monograph to “Education”. 1996.
4. “Psychology of Communication.” General edition of A.A. Bodalev – “Cogito -Centre “, 2011.6. Yermentaeva A.R. “Foundations of Students’ Psychological Training.” – Ust-Kamenogorsk, 2007-p.404.
5. Thordnik E.L. “Intelligence and its Uses//Harper’s Magazine. 1920. P. 227–235
6. Eysenck H.J., Barrett P. “Psychophysiology and the Measurement of Intelligence.”//Reynolds C.R., Willson V. (eds.) “Methodological and Statistical Advances in the study of individual differences.”N.Y.: Plenum Press, 1985.
7. Ataxo’jayeva, S. A. (2020). Ingliz tilini o’rgatishda loyixa ishini tashkil qilishning afzalliklari. Science and Education, 1(1), 403-406.
8. Shaxlo Anvarovna Ataxo’Jayeva (2023). O‘qituvchilarining sotsiolingvistik xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 111-115.
9. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future english language teachers. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 169-172.
10. Mirzamurodovich, F. M. (2023). Concepts of formation and development of psychological literacy in continuous education. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 495-497.
11. Fayzullayev, M. M. (2023). Psychological literacy and its assesment of in youth. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 170–172. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/3358

Jabborov Jamshid Azimovich
Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: jamshidshoh@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-6409-2967

O‘SMIRLAR MA’NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHNING AXLOQIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlar ma’naviy qiyofasini rivojlantirish masalalari, uning axloqiy asoslari, o`smir psixologiyasi va dunyoqarashi, ma’naviy-madaniy saviyasi, axloqiy va estetik qadriyatlari ilmiy asoslar orqali yoritilgan. Shuningdek, shaxsning tanlangan maqsadlarga intilishi, hayot tarzining ta’rifi, o‘z-o‘zini anglash istagi, o‘zini o‘zi-takomillashtirishi, haqiqat, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlar tizimi tahlil qilinib, ular o‘rtasida ma’naviy aloqadorlik o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlari: *o‘mir, ma’naviy qiyofa, ma’naviyat, axloq, axloqiy qadriyatlar, madaniy saviya, dunyoqarash, jamiyat, ma’naviy hayot, o‘z-o‘zini anglash.*

МОРАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОГО ОБРАЗА ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье на научной основе освещены вопросы развития духовного облика подростков, его нравственные основы, психология и мировоззрение подростка, духовно-культурный уровень, нравственные и эстетические ценности. Также проанализированы стремление человека к избранным целям, определение образа жизни, стремление к самосознанию, самосовершенствованию, система взглядов на истину, добро и зло,* ***изучена духовная связь между ними.***

Ключевые слова: *жизнь, духовный облик, духовность, нравственность, нравственные ценности, культурный уровень, мировоззрение, общество, духовная жизнь, самосознание.*

MORAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL IMAGE OF ADOLESCENTS

Abstract. *This article covers the issues of developing the spiritual image of adolescents, its moral foundations, adolescent psychology and worldview, spiritual and cultural level, moral and aesthetic values through scientific foundations. Also, the striving of a person for chosen goals, the definition of lifestyle, the desire for self-awareness, self-improvement, the system of views on truth, good and evil were analyzed, and the spiritual connection between them was studied.*

Key words: *life, spiritual image, spirituality, morality, moral values, cultural level, worldview, society, spiritual life, self-awareness.*

Mavzuning dolzarbligi. O‘smirlarda shaxs ma’naviy qiyofasini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash – zamonaviy jamiyatning ustuvor muammolaridan biridir. Globallashuv jarayonining jadallashuvi sharoitida yosh avlodning mamlakat real salohiyatiga ishonchini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Axloqiy-ma’naviy tarbiyaga e’tibor qaratish zarurati-milliy ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ta’lim globallashuv sharoitida ijobiy o‘zaro ta’sirni ta’minlaydigan uzoq muddatli strategiyalardan biridir. Muvaffaqiyatli ta’lim olish uchun o‘quvchilardan ham bilim, ko‘nikma va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lishning talabi kundan-kunga kuchaymoqda.

Ta’lim jarayoni uzoq, uzluksiz va kelajakka qaratilgan: o‘quvchida ma’lum qadriyatlar va munosabatlar tizimi shakllanishi, uning e’tiqodi va xatti-harakatining asosi bo‘lishi, o‘qituvchi o‘quvchi bilan o‘zaro munosabat jarayonida ishonchli tarzda muloqot o‘rnatilishi talab etiladi.

Muhokama va tahlil. O‘smirlik davrida, ayniqsa, erta o‘smirlik davrida maktab o‘quvchilari boshqa odamlarning motivatsion sohasiga kirib borishlari, ularning xatti-harakatlarini tahlil qilishlari, ularni o‘z harakatlari bilan bog‘lashlari va ta’siri ostida o‘zlarining odatiy xatti-harakatlarini o‘zgartirishlari mumkin, bu axloqiy tasvirlarni o‘zlashtirishga foydali ta’sir ko‘rsatadi, jamiyatdagi taniqli odamlarning hayoti bilan tanishish orqali jamoatchilik e’tirofiga va qadriga sazovor bo‘lgan fazilatlarni aniqlaydilar, o‘zlarida o‘xshash fazilatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratib, ular qadriyatlarni o‘rganadilar.

O‘zbek maktablarida asosiy qadriyatlardan biri sifatida milliy o‘zlikni yuksaltirish masalasi tilga olinmoqda. Shu bois an’anaviy ta’lim modellari samarasiz bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida shakllantirishning yangi shart-sharoitlariga javob beradigan ta’lim asoslarini ta’minlash zarurati dolzarbdir. Iqtisodiy innovatsiyalar ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashib, o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda vaziyatlarni, g‘oyalarni, bilim va tajribalarni tahlil qilish va baholash, qiziquvchanlik, muloqot qilish kabi shaxsiy fazilatlarni shakllantirish imkonini beradigan ko‘nikmalarni egallashni taqozo etadi. Shaxsiy fazilatlarni malakalar bilan birgalikda rivojlantirish hurmat, ochiqlik, mas’uliyat kabi qadriyatlarni singdirish uchun asosdir. Ushbu qadriyatlar o‘smirlarning xulq-atvori va kundalik faoliyatini rag‘batlantiradigan barqaror shaxsiy ko‘rsatmalarga aylanish uchun mo‘ljallangan. Qadriyatga asoslangan ma’naviy yo‘nalishlar – bu shaxsning o‘z faoliyatida ma’lum qadriyatlarni tanlash yoki ular bo‘ylab harakatlanish qobiliyati, shuningdek ularni o‘ziga xos deb bilish va idrok etish qobiliyatidir. Ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati odatlar, turmush tarzi va xulq-atvor uslubini shakllantirishda o‘zini namoyon qiladi. Qadriyatlar – bu ma’lum ob’ektlarning tasdiqlangan, umumiy ahamiyatidir. Ular insonning umumiy hayot tarzini shakllantirib, harakatlarni rag‘batlantiradi.

“Ma’naviyat va axloq nimani anglatadi” degan savol har bir o‘quvchida paydo bo‘lishi mumkin. Axloqiy tarbiya o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, birinchi navbatda – g‘oyalar, tushunchalar, mulohazalar, baholashlarning shakllanishiga ta’sir qiladi va shu asosda axloqiy e’tiqodlarni shakllantirishga ta’sir qiladi, o‘z tajribasini boyitishga va shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashga yordam beradi. O‘smirlik davrida axloqiy shaxsni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shaxsni rivojlantirish ehtiyojlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi: mehnatga, muloqotga, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish va turli sohalarda qobiliyatlarni rivojlantirish. Bu ehtiyojlar faoliyat jarayonida rivojlanadi. Faoliyat jarayonida bolada xulq-atvor va munosabatlarning ijtimoiy foydali odatlari shakllanadi. Jamiyatdagi har qanday rol axloqiy shakllanishlarni talab qiladi: onglilik, mas’uliyat, tuyg‘u g‘urur, do‘stlik. Shunday qilib, yaqin atrof-muhitni o‘zlashtirishda ma’lum tajriba to‘planadi, tengdoshlar bilan aloqalar o‘rnatiladi va o‘zini o‘zi bilish hamda shaxsiy tasdiqlash zarurati o‘zini namoyon qiladi.

Faol rivojlanayotgan dunyoqarashlar axloqiy me’yorlarni baholash va ularning zarurligini tushunish imkonini beradi. O‘z-o‘zini tasdiqlash istagi mustaqillikning rivojlanishi bilan birga keladi va boshqalar bilan munosabatlarda axloqiy fazilatlar va axloqiy xulq-atvor tajribasini rivojlantirishdan ustun turadi. Bu ehtiyoj shaxsning sotsializatsiya jarayoni va oldingi hayotiy tajribasining xususiyatlariga qarab, juda ziddiyatli tarzda namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini tasdiqlash istagi yoshlik maksimalizmida namoyon bo‘ladigan faollik va mustaqillikning rivojlanishi bilan birga kechadi.

Axloq inson madaniyatining ko‘rsatkichidir [2]. Axloqiy tarbiya bolaning yaxlit shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo‘lib, uning o‘z vataniga, jamiyatga, jamoaga, odamlarga, mehnatga, mas’uliyatiga, o‘ziga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi – tarbiyachilar tomonidan jamiyatning ijtimoiy zaruriy talablarini har bir bola shaxsining burch, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat kabi ichki rag‘batlantiruvchi omillarga aylantirishini ta’minlashdan iborat. Shaxsning o‘zligini va jamiyatdagi o‘rnini anglashi uning xatti-harakatlariga axloqiy munosabatini tavsiflaydi. Inson o‘z ideallari va fikrlarini atrofdagilarning hayoti bilan taqqoslaydi, o‘zini tanqidiy baholaydi. Muhim shaxsiy sifat-insonparvarlikdir. Gumanizm irqi, jinsi va millatidan qat’i nazar, inson qadr-qimmatini hurmat qilish an’anasini meros qilib oladi. O‘smirlar insoniylikni birinchi navbatda boshqalarning azob-uqubatlariga hamdardlik, yordam berishga tayyorlik, haqorat va zo‘ravonlikdan himoya qilishga tayyorlik orqali namoyon

etadilar. Bu axloqning muhim jihati. O‘ziga nisbatan axloqiy va ma’naviy munosabatni rivojlantirish, agar inson o‘ziga yuqori talablar qo‘ysa, muvaffaqiyatli sodir bo‘ladi. Yosh avlodni tarbiyalashda axloqiy xulq-atvor tamoyillari bosqichma-bosqich har bir o‘quvchining o‘ziga nisbatan ichki talablari shaklini olishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Insonda sog‘lom ehtiyojlarning shakllanishiga, o‘z shaxsi bilan ixtilofga bordirmasdan, uning asl insoniy mavjudligini ta’minlashga xizmat qiladigan aqliy va hissiy muhit, falsafiy, axloqiy, ilmiy, diniy, badiiy va boshqa madaniy qadriyatlar, me’yorlar, ideallar hamda ijodiy faoliyatning o‘zaro mushtarakligi – ma’naviyatdir [1].

“Ma’naviyat” tushunchasi nomoddiy, insonparvarlik qadriyatlari ustuvorligiga asoslangan alohida fikrlash va yashash tarzini nazarda tutadi. Bu shaxsning tanlangan maqsadlarga intilishi bo‘lib, insonning hayot tarzining ta’rifi, bu dunyoni va birinchi navbatda, o‘z-o‘zini anglash istagi, o‘zini o‘zi-takomillashtirishda, haqiqat, yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlar tizimidir. Bu ikki tushuncha o‘rtasida chuqur bog‘liqlik mavjud. Ma’naviy-axloqiy shaxsni shakllantirish vazifasini o‘rganish motivatsiyasi bilan bog‘lash kerak. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va tarbiya uchun makon yaratish madaniyat va boshqa ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar bilan hamkorlik asosida amalga oshirilishi kerak. O‘smirlarning ma’naviy, axloqiy va intellektual salohiyatini tiklash faqat ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini qayta tiklash orqali amalga oshiriladi. Yosh avlodning axloqiy va ma’naviy tarbiyasi axloqiy me’yor va tamoyillarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Axloqiy tarbiyaning eng yuqori darajasi tashqi talablarga emas, balki ichki xatti-harakatlar normalariga e’tibor qaratish qobiliyatidir. Ba’zida ong va xatti-harakatlar o‘rtasida bo‘shliq mavjud. Muayyan vaziyatda qanday harakat qilishni bilmasangiz, o‘zingizni to‘g‘ri tutish qiyin. Faqat axloqiy bilimlarni ongli ravishda egallash, harakatlarimizda nima yaxshi va yomon ekanligini tushunishga yordam beradi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimi ma’naviyat, axloq, yaxshilik, mehr-oqibat, haqiqat, go‘zallik, odob-axloq kabi umuminsoniy qadriyatlarni anglash orqali bolalar va yoshlarda insonparvarlik qarashlarini, axloqiy xulq-atvorini rivojlantirish va shakllantirishga qaratilgan. Biz ta’lim tizimida yangi bosqich — ta’lim mazmunini yangilash bosqichiga o‘tdik. Ta’lim mazmunini yangilash sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- ma’naviy, axloqiy qadriyatlar, me’yorlar, xulq-atvorni shakllantirish;
- insonparvarlik, or-nomus, burch, mehr-oqibat fazilatlarini rivojlantirish;
- Dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni baholash va ijobiy o‘zgarishlar muammolarini hal qilish qobiliyatini shakllantirish [4].

Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining o‘zini “qalb uchun tarbiya” deb atash mumkin. U o‘zining to‘liqligi va qarama-qarshiligi bilan inson hayotidan, oiladan, jamiyatdan, madaniyatdan va umuman insoniyatdan ajralmasdir. Shuning uchun ma’naviy-axloqiy tarbiya quyidagi tuzilishga ega:

- umuminsoniy qadriyatlar tizimi;
- asosiy shaxsiy xususiyatlar;
- insoniyat tomonidan to‘plangan ijtimoiy tajribaning tarkibiy qismlari [3].

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning roli uning funktsiyalarida namoyon bo‘ladi: “Men obrazini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini anglash, o‘z “men”ini ochish.

Maktablarda o‘qitilib kelinayotgan “Tarbiya” darslarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular o‘quvchi bilan ochiq muloqotni o‘z ichiga oladi, ijtimoiy rolli o‘yinlar va treninglar insoniy munosabatlar olamini o‘rganadi, hayotiy kuzatishlar bilan almashadi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘qitish uslubi, usullari va shakllarini tanlash, uning maqsadi nafaqat ma’naviy intellektual poydevorni shakllantirish, balki suhbat orqali suhbatdoshlar o‘rtasida kuchli ma’naviy aloqani o‘rnatishdir. Muloqotni tashkil qilish uchun material – xalq an’analariga murojaat qilish va xalq donoligini o‘z ichiga olgan folklor: dostonlar, mifologiyalar, masallar, ertaklar va maqollardan foydalaniladi. Maqsad: yosh avlodning Vatanga ma’naviy bog‘liqligini asrash va mustahkamlashdan iborat. Vatanga muhabbat boshqalarga mehr-muhabbatni shakllantiradi, ularga g‘amxo‘rlik qilish ehtiyojini rivojlantiradi, manfaatlarni jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtiradi. O‘smirlarning hayotiy tajribasi qanchalik boy bo‘lsa, ular axloqiy tushunchalarni shunchalik to‘liq o‘zlashtiradilar.

O‘rnatilgan axloqiy va ma’naviy tushunchalar va e’tiqodlarga asoslangan xatti-harakatlar doimo quvonch va qoniqish hissi bilan bog‘liq. Ta’lim jarayoni sodir bo‘ladigan muhit qanchalik mehrli bo‘lsa, o‘smirda xavfsizlik va ishonch hissi paydo bo‘lsa, shaxsning rivojlanishi uchun shunchalik qulay sharoitlar mavjud.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya milliy qadriyatlarni singdirishning birlamchi mexanizmi: o‘z ajdodi yoki yurti bilan faxrlanish tuyg‘usini rivojlantirish, yaqinlariga mehr va hurmat, mehr-oqibat, shukronalik tuyg‘ularini tarbiyalashdir. Eng muhimi, o‘z xalqining an’ana va qadriyatlarini, milliy madaniyatini asrab-avaylash, Vatanga ehtirom tuyg‘ularini asrash muhimdir.

Ta’limning madaniyatni shakllantirish funktsiyasi madaniyatni saqlash, ko‘paytirish va rivojlantirishda namoyon bo‘ladi hamda madaniyat sub’ekti sifatida shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Insoniyatning milliy madaniyati ijtimoiy ongda va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi. Qadriyatlar va an’analarning tashuvchilari –ijtimoiy guruhlar, shuningdek, etnik va diniy jamoalardir. Shunga ko‘ra, mamlakat fuqarosining ma’naviy-axloqiy kamoloti vazifasini o‘quvchi shaxsini jamiyatni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlar madaniyatiga, mamlakatimizda mavjud bo‘lgan etnik va diniy an’analarga, shuningdek, global ahamiyatga ega bo‘lgan an’analarga izchil integratsiyalash orqali amalga oshirish mumkin.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘smir yashayotgan axloqiy muhitga bog‘liq. Bu nafaqat oila ichidagi, balki maktabdagi, ko‘chadagi munosabatlar, ularning o‘zlariga, ota-onalariga, o‘qituvchilariga, tabiatga va turmush tarziga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga oladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning natijasi o‘smir shaxsining ma’naviy qiyofasi shakllanishidir. U ijtimoiy jihatdan qimmatli shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarda amalga oshiriladi. O‘smir shaxsining ma’naviy qiyofasi axloqiy tarbiya bilan tavsiflanadi. Bu ijobiy odatlar va xulq-atvor normalarining barqarorligi, munosabatlar tizimidir. Bu o‘smirda kuchli irodaning mavjudligi, nazorat va o‘zini tuta bilish qobiliyatidir. Axloq ziddiyatlarni yengish orqali shakllanadi. Har bir o‘smir o‘ziga xos qiyinchilik yo‘lini yengib o‘tishi, qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishi, axloqiy hayot tajribasiga ega bo‘lishi, ezgu ishlardan bahramand bo‘lishi, o‘z-o‘zini yengishi, matonatini mustahkamlashi kerak. Axloqiy va ma’naviy tarbiya o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini takomillashtirishga olib kelganda kuchli bo‘ladi. Yosh avlodni tarbiyalashning barcha vazifalari ta’lim-tarbiya ishlariga kompleks yondashish doirasida chambarchas birlikda hal etiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, inson ma’naviy va axloqiy jihatdan boy tug‘ilmaydi, uning ma’naviy qiyofasi rivojlanishida o‘qituvchilar, ota-onalar va butun ta’lim muhitining ta’siri juda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Erkayev A.P. “Ma’naviyat – millat nishoni”. “Ma’naviyat”, T.: 1997 y. 40-b.
2. Федосеева О.Ю. Сущностные характеристики духовно-нравственного воспитания младших школьников // Молодой ученый. - 2014. - № 19. - С. 619-622.
3. Игнатьева Е.Е. Духовно-нравственное воспитание школьников // Среднее профессиональное образование. - 2009. - № 10. - С. 57-59.
4. Павлов В.И. Формирование духовно-нравственной культуры учащейся молодежи // Образование и саморазвитие. - 2010. - № 1. - С. 146 – 151

Sattarova Gulnora Ikromovna
Qarshi davlat universitet, psixologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: gulnora_sattarova@mail.ru

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'SMIRLARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLAR SHAKLLANISHINING SABABIY BOG'LIQLIKLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'smirlarda hissiy- irodaviy sifatlar bilan koping xulq atvor ichki internallikka va eksternallikka xos psixologik holatlarining o'zaro aloqadorlik xususiyatlari o'rganilganligi, tadqiqotda aniqlangan differensial tafovutlar shuningdek, tayanch harakati a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy shakllanishida emotsional, koping xulq atvorga xos stimulyativ vositalarning o'rni psixologik jihatdan asoslanganligiga doir ma'lumotlar yoritilgan. Empirik natijalar, statistik mezonlar asosida tahlil qilingan. Irodaviy sifatlar psixokorreksiyasi bo'yicha tadbirlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar taqdim etilgan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *hissiy-irodaviy fazilatlar, o'spirin, mas'uliyat, qat'iyatlilik, faollik, cheklangan imkoniyatlar, hissiy holat, o'zini o'zi boshqarish.*

АНАЛИЗ ПРИЧИННЫХ СВЯЗЕЙ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У ПОДРОСТКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. *В статье рассмотрены особенности взаимосвязи психологических состояний и копинг-поведения с эмоционально-волевыми качествами у подростков с ограниченными возможностями. Особое внимание уделено выявленным дифференциальным различиям и роли эмоционально-волевых и копинг-поведенческих факторов в формировании эмоционально-волевой сферы подростков с дефектами опорно-двигательного аппарата. Эмпирические данные проанализированы с использованием статистических методов. Представлены научные выводы, которые помогут повысить эффективность психокоррекционных мероприятий, направленных на развитие волевых качеств.*

Ключевые слова*: эмоционально-волевые качества, подросток, ответственность, упорство, доброта, тренированность, активность, инвалидность, эмоциональное состояние, самоконтроль.*

ANALYSIS OF CAUSAL RELATIONS IN THE FORMATION OF EMOTIONAL AND WILLFUL QUALITIES IN ADOLESCENTS WITH LIMITED OPPORTUNITIES

Annotation. *The article examines the relationship between psychological states and coping behavior and emotional and volitional qualities in adolescents with disabilities. Special attention is paid to the identified differential differences and the role of emotional and volitional and coping behavioral factors in the formation of the emotional and volitional sphere of adolescents with defects of the musculoskeletal system. The empirical data are analyzed using statistical methods. The article presents scientific conclusions that will help to increase the effectiveness of psychocorrectional measures aimed at developing volitional qualities.*

Key words: *emotional and volitional qualities, teenager, responsibility, perseverance, activity, limited opportunities, emotional state, and self-control.*

Kirish. Hissiy-irodaviy sifatlar - insonning aqli idroki tafakkuri, emotsional intellekti va shaxslilik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'luvchi shaxs qobiliyatidir. Tom ma'noda esa, hissiy-irodaviy sifatlar - faol qaror qabul qilish jarayoni sifatida, atrof-muhitdagi qo'zg'atuvchilar ta'siriga sezgir javob beruvchi ichki kuch hisoblanadi. Bundan tashqari, hissiy-irodaviy sifatlar ba'zan insonning motivatsion harakatlarida, ba'zan qaror qabul qilish uslubida hamda oliy maqsad va istaklari mazmunida namoyon bo'ladi.

Hissiy-irodaviy sifatlar psixologiya sohasida o‘rganilishi jihatdan eng murakkab sanalgan psixik protsesslardan biridir. Shu boisdan, hissiyot va iroda ilmiy manbalardan mustaqil psixik hodisalarning tarkibiy qismi sifatida narsa va voqeiylikni aks ettirish jarayonida insonda tug‘iladigan ichki kechinmalar, munosabatlar, shaxsiy tashabbusi bilan, ongli zaruratdan kelib chiqqan holda, oldindan rejaga solingan yo‘nalishda va oldindan nazarda tutilgan kuch-g‘ayrat bilan tegishli ish harakatlarni bajarish, shuningdek, xatti-harakatlarni mustaqil asosda nazorat qilishning o‘ziga xos qobiliyati sifatida ham talqin etiladi. E.A.Kedyarova iroda fenomenini tushuntirishda uch muhim jihat mazmuniga alohida to‘xtalib o‘tadi [2]. Ya’ni harakatni tanlash, harakatni boshlash va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish. T.A.Trifonovaning fikricha, hissiy-irodaviy sifatlar bu - motivatsiya kuchi bilan belgilanadigan, xohish va istaklar bilan xarakterlanadigan mustaqil kuchdir [4]. Mazkur yondashuvlarga muvofiq, ta’sir qilish kuchi –irodani harakatga keltirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, hissiy-irodaviy kechinmalar tashqi ta’sirlar ostida paydo bo‘lib, keyinchalik irodaviy sifatlar tomonidan nazorat qilinadi. Shu bois, zaif istaklar uchun kuch sarf qilinmaydi va ular muddat o‘tib o‘z-o‘zidan unutilib ketadi.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Toshkent shaxar Olmazor tumani 100-sonli tayanch harakat a’zolari shikastlangan o’quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 126 nafar o’smir yoshidagi tarbiyalanuvchilari jalb etildi.

Tadqiqotimizda asosiy metodikalar sifatida muvaffaqiyatli aprabatsiyadan o’tgan M.Chumakovning “Shaxs irodaviy sifatlarini o’rganish” testi va Nikiforov tomonidan yaratilgan “Emotsional holatlarda o’zini nazorat qilish” so’rovnomasidan;, yordamchi metodika sifatida Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan “Koping-indikator” testi, Panteleyev va Stolinning “Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari” so’rovnomalaridan foydalandik. Tadqiqotimiz uchun tanlangan metodikalarning aksariyati noparametrik mezonlarga (o’zaro bog’liq bo’lmagan tanlamanlar uchun Man-Uitni, Spirmen) mos kelganligi bois, biz mazkur mezonlar asosid ma’lumotlarni statistic tahlili qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Natijalar va amaliy misollar. Ko‘p yillik izlanishlarimiz, olib borgan tadqiqotlarimiz imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlanishi, shakllanishining determinantlarini korrelyatsion tadqiqot asosida aniqlashga harakat qildik. Dastlabki 1-jadvalda imkoniyati cheklangan o‘smirlardan “Shaxs irodaviy sifatlari” va “Emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish” metodikalari bo’yicha korrelyatsiyon tadqiqot asosida olingan natijalar taqdim etiladi.

1-jadval

SHIS hamda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish komponentlari o’rtasida aloqadorlik.

(Spirmen mezoni bo‘yicha, n=126)

Shkalalar	Emotsional hola-tlarda ozini nazo-rat qilish	Faolyatda ozini nazorat qilish	Ijtimoiylashuvda ozini nazorat qilish
Masuliyatlilik	0,084	0,130	-0,002
Tashabbuskorlik	0,000	0,164	0,100
Qatiyatlilik	0,092	0,157	0,089
Mustaqillik	**-0,266(**)**	0,085	**-0,139(*)**
Matonatlilik	**-0,275(**)**	-0,075	-0,034
Tirishqoqlik	0,099	0,093	-0,007
Gayratlilik	0,079	0,111	0,006
Ziyraklar	**0,190(**)**	-0,020	**0,214(**)**
Sobitqadamlik	**0,167(*)**	0.145	0,093

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Tahlillariga ko‘ra, har ikkala metodika shkalalari o‘rtasida o‘zaro ahamiyatlilikka ega 6 ta korrelyatsiya koeffitsiyenti aniqlandi. Ko‘rinib turibdiki, shkalalari o‘rtasida aloqadorlik biroz tarqoq. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning irodaviy sifatlari bilan emotsional holatlarda o‘zini

nazorat qilish xususiyatlari uyg‘un holda rivojlanyapti deb bo‘lmaydi. “Mustaqillik” shkalasi “Emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilish” shkalasi bilan (r_s =-0,266;p<0,01) va “Ijtimoiylashuvda o‘z o‘zini nazorat” qilish(r_s =-0,139;p<0,01) shkalalari bilan ijobiy ahamiyatli aloqadorlik hosil qilgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda mustaqillik zaiflashuvi bilan emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish suratida pasayish holati sodir bo‘lmoqda. Natijalarga ko‘ra, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish quyilashsa maqsadni amalga oshirish va harakat ijrosini tanlashda ularda regress holati vujudga kelmoqda. Maqsadga erishmaslikning juda kichik yoki katta ehtimoli imkoniyati cheklangan o‘smirlarda hissiy beqarorlikning ortishi o‘ziga ishonchning pasayishiga olib kelgan. Boshqa tomondan esa, hissiy barqarorlikning yuqorilashuvi kichik muvaffaqiyatdan ruhlanish, maqsadga erishishga bo‘lgan ishonchni va mustaqillikni orttirgan. Mustaqillik sur’atida o‘sish ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat qilishda progressiyani vujudga keltirmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smir o‘quvchilarda mustaqillik hissi ortib borgani sayin ularda, atrofdagilar bilan munosabatda o‘zini nazorat qilish suratida ham ijobiy siljish kuzatilgan, lekin mustaqillikning zaif respondentlarda emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilishning zaifligi, odamovilik, stressiv holatlarga moyillik va xavotirli his tuyg‘ular rivojlanishini kuzatish mumkin.

“Matonatlilik” bilan “Emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilish” shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r_s =-0,275; p<0,01); Matonatlilikning pasayishi emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qila olmaslikning ortishiga olib kelmoqda. Aksar imkoniyati cheklangan o‘smirlar emotsional holatlarda o‘zlarini nazorat qila olmaydilar, tez yig‘lab yuboradilar, qizaradilar, asabiylashadilar yoki quvonchdan baqirib yuboradilar. Ko‘zlagan maqsadiga erishishga matonatsizlik, sobitqadamlik sur’atini pasaytirgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar matonatli bo‘lib borganlari sayin ularda tirishqoqlik sifati unga mutanosib tarzda o‘sib boradi. Imkoniyati cheklangan katta o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilar irodasining kuchi va qat’iyati, ular fe’l-atvorning qaysi xislatlarida ifodalangan bo‘lsa o‘sha xislatlar eng yorqin irodaviy xislatlardan hisoblanadi. Matonatli bo‘lmagan o‘smirlarda tirishqoqlik sifati ham kamol topmaydi. Chunki, tirishqoqlik insondan chidam matonat talab etadi. Shu bois, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda matonatlilik sifatini tarkib toptira borish nihoyatda muhim vazifalar sirasiga kiradi. Imkoniyati cheklanganlikda matonat bilan maqsadga erishish, maqsadi yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni yengish, hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qilish matonatlilik sifatisiz mushkuldir.

“Ziyraklik” shkalasi bilan “Emotsional holatlarda o‘z- o‘zini nazorat qilish” (r_s =0.190;p<0,01); va “Ijtimoiylashuvda o‘z-o‘zini nazorat” (r_s =0,214;p<0,01) qilish shkalalari o‘rtasida musbat ahamiyatli aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda ziyraklik ortib borgani sayin ularda emotsional holatlar va ijtimoiylashuvda o‘z o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari tarkib topa boradi. Ziyraklik – biror qarorni amalga oshirishga xalaqit beradigan xatti-harakatlar, his-tuyg‘ular hamda fikrlarni o‘z vaqtida sekinlashtirishga, ularni doimiy nazorat qilishga yordam beruvchi sifatdir. Mazkur masalada V.E.Fishenkoning aytishicha, ziyrak va aqlli odam har doim, sharoitga mos keladigan faoliyat turini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi [5].

Aslida, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning o‘zini tutish qobiliyatini rivojlantirish uchun, ularda ichki sokinlik, qiyin hayotiy vaziyatlarda oqilona va muvozanatli harakat qilishni mashqlantirib borish lozim. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning psixologik xususiyatlarni o‘rganar ekanmiz, ular shaxsining shakllanishida, rivojlanib, kamolotga erishuvida unga bevosita ta’sir etuvchi pubertat rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq omillar ta’sirini tushunish mumkin. Biroq, nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni hamma vaqt ham jismoniy o‘sish va jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Kuzatishlarimizcha, bu davrga kelib ularda o‘z tana tuzilishidan qanoatlanmaslik va mayiblik hissi ustuvor o‘ringa chiqadi. Tushkunlik, fatal holat, o‘ziga past baho berish, ularda ba’zida so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, beqarorlik, tajanglik kabi harakatlar bilan namoyon bo‘ladi. Mana shunday psixofiziologik nomutanosiblik o‘smirning psixik o‘sishiga uzluksiz ta’sir etib, unda doimiy noxush hislarni paydo qilib turadi.

“Sobitqadamlik” shkalasi “Emotsional holatlarda o‘z- o‘zini nazorat qilish” (r_s =0,167;p<0,05); shkalasi o‘rtasida ham musbat zaif aloqadorlik aniqlandi. Sobitqadamlik imkoniyati cheklangan o‘smirlarda shakllantirilishi o‘ta muhim bo‘lgan irodaviy sifatlar sirasiga kiradi. Ularda sobitqadamlik sifatining shakllanishi emotsional holatlarda o‘z o‘zini nazorat qilishda

me'yoriy bosqichlarga ko'cha borgan. Imkoniyati cheklangan o'rta o'smir yoshidagi o'quvchilar uchun irodaviy sifatlarga egalik muhimdir, ammo irodaviy sifatlarning emotsional holatlar bilan uyg'unlashuvi yanada ahamiyatlidir. Hissiy-irodaviy sifatlarni o'rganishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni shaxsning bilimlari, afzalliklari, e'tiqodi, ehtiyojlari va qaror qabul qilish qobiliyati va boshqalar. Chunki, inson biror ishni amalga oshirishni niyat qilsa, ana shu vazifani amalga oshirishga kirishishning o'zi, ixtiyoriy harakatlarga o'tishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bir so'z bilan ta'riflaganda, irodaviy sifatlar niyatlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi, uni tartibga soluvchi va ishning davomiyligini ta'minlovchi psixologik jarayondir [3].

Navbatda (2-jadval) respondentlarning shaxsning irodaviy sifatlari koping-indikator hamda subyektiv lokus nazorat metodikalari komponentlari bo'yicha korrelyatsion aloqadorligi natijalari taqdim etiladi.

Shaxsning irodaviy sifatlari so'rovnomasining "Mas'uliyatlik" shkalasi bilan "Muammolardan qochish" (r_s =-0,196;p<0,05); shkalasi o'rtasida zaif manfiy aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o'smirlarda mas'uliyatlikning tarkib topib borayotganligi ularning muammolardan qochish sur'atida pasayishni yuzaga keltirmoqda.

"Qat'iyatlilik" shkalasi "Muammolarni hal qilish" shkalasi bilan zaif aloqadorlik (r_s =-0, 164;p<0,05);, "Muammolardan qochish" shkalasi bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlik (r_s =-0.195;p<0,01); hosil qilgan. Respondentlarda qat'iyatlilik ular hayotida uchraydigan ba'zi xarakterologik muammolarni hal qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatsa, muammolardan qochish darajasini pasaytirgan. Aksariyat o'smirlarda muammoni yechish oldidagi holat qiyinchiliklarga taslim bo'lishi, qat'iyatlilikni namoyon eta olmaslik, o'zini tuta bilmaslik, xatti-harakatlar va faoliyatning yuqori bosqichlarida boshqara olmaslik bilan ifodalanadi. Qat'iyatlilikning ortishi muammolarni hal qilish sur'atida o'sishni muammolardan qochish sur'atida pasayishni vujudga keltirgan. Bu ijobiy natija. E.Ilinning ta'kidlashicha, zaif irodaning namoyon bo'lish doirasi kuchli irodaning xarakterli fazilatlari kabi katta ko'rinishda namoyon bo'ladi. Zaif irodaning haddan tashqari darajasi psixikaning buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bularga, masalan, abuliya va appraksiya kiradi [1].

2-jadval

Shaxsning irodaviy sifatlari, koping-indikator hamda subyektiv lokus nazorat komponentlari aloqadorligi. Imkoniyati cheklangan o'smirlar kesimida (Spirmen mezoni bo'yicha, n=126)

Shkalalar	Muammolarni hal qilish shkalasi	Ijtimoiy yordam sorash shkalasi	Muammolardan qochish shkalasi	Internal lokus	Eksternal lokus
Masuliyatlilik	0,110	0,159	**-0,196(*)**	0,067	0,112
Tashabbuskorlik	0,076	0,129	-0,001	-0,022	-0,066
Qatiyatlilik	**0,164(*)**	0,013	**0,195(*)**	0,142	-0,031
Mustaqillik	0,049	**-0,224(*)**	**-0,285(*)**	0,221	0,028
Matonatlilik	-0,160	0,036	-0,009	-0,051	0,028
Tirishqoqlik	0,035	0,065	0,047	0,043	0,058
Gayratlilik	0,030	**0,186(*)**	-0,052	-0,077	-0,011
Ziyraklar	0,126	**0,175(*)**	-0,022	**0,131(*)**	0,172
Sobitqadamlik	0,117	0,360(**)	-0,128(*)	0,032	**0,378(**)**

Izoh: **- p≤0,01; *-p≤0,05

Mustaqillik shkalasi bilan "Ijtimoiy yordam so'rash" (r_s =-0,224;p<0,01); "Muammolardan qochish" shkalasi o'rtasida (r_s =-0.285;p<0,01); ahamiyatli manfiy aloqadorlik aniqlandi. Metodika bo'icha olingan natijalar, ba'zan imkoniyati cheklanganlikda bu holat ba'zan kishida normal

jarayondek tasavvurni uyg'otadi. Aslida, bu normal jarayon emas albatta. Ayniqsa, maxsus maktab o'qituvchi murabbiylari hamda ko'pgina ota-onalarda "Istaymizmi, yo'qmi, ular jismonan mayib, imkoniyati cheklangan, shuning uchun ularni asrab avaylash, ko'ngillariga qarash kerak" degan tushuncha ustuvorlik qiladi. Ota-onalar nogiron farzandiga ko'proq g'amxo'rlik ko'rsatishi, o'smirning qiliqlari o'zini tutishi va istaklariga xayrixohlik bildirishi, farzandiga uchun qo'lidan kelgan ish harakatni amalga oshirishga urinishi kuzatiladi. Ko'pchilik ota-onalar nogiron farzandining turli faoliyatdagi kichik muammolarni ham o'zlari hal qilishga harakat qiladilar. Bolaning saqlangan imkoniyatlarini ishga tushirishga imkon bermaydilar. Go'yoki, bu harakatlari bilan farzandiga yordam berayotgandek, mehribonlik, g'amxo'rlik ko'rsatayotgandek bo'ladilar. Tarbiyada bunday yondashuv xato bo'lib, nogiron bola emotsional irodaviy sferasining zaiflashuviga, hissiy- irodaviy o'sishini kechikishiga, ijtimoiy qo'llab quvvatlashni qidirish va tobelikni oshishiga olib keladi. Shuning uchun, maxsus maktablarda pedagoglar, psixologlar imkoniyati cheklangan o'smirlar tarbiyasiga bag'ishlangan mavzularda ota-onalar uchun maxsus seminar treninglar, davra suhbatlari tashkil etishlari zarur bo'ladi.

"G'ayratlilik" sifati va "Ijtimoiy yordam so'rash shkalasi" komponenti orasida ahamiyatli bog'lanish aniqlandi (r_s =0,186;p<0,01); imkoniyati cheklangan o'smirlar g'ayratli bo'lib borganlari sayin ularda emotsional holatlarda o'z o'zini boshqarish uquvi ham o'sib borgan. Imkoniyati cheklangan o'smirlar mustaqil bo'lib borganlari sayin ularda atrofdagilarga qaramlik, ijtimoiy yordam so'rash kamaygan va muammolarni o'zlari yechishga harakat qila boshlaganlar.

"Ziyraklik" shkalasi bilan "Ijtimoiy yordam so'rash" shkalasi o'rtasida manfiy (r_s =-0,186;p<0,05); aloqadorlik aniqlandi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ziyraklikning rivojlanishi boshqalardan yordam kutish, atrofdagilarga qaramlik holatlarini pasaytiradi. Irodaviy sifatlar bilan koping xulq atvor xususiyatlarining tarkib topganligi jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'smirlarda shakllantirilishi muhim bo'lgan xulq atvor xususiyatlari sirasiga kiradi. Bunday xulq atvor normalari tarkib topgan o'smirlar kelajakda o'z o'rnini topishga intiladi. Aksincha iroda va koping xulq atvor xos xususiyatlarning zaifligi tayanch harakati a'zolarida nuqsoni bor o'smirlarda muammolardan qochish, o'z-o'zini izolyatsiyalash, xavotirli hislarga berilish kabi qator salbiy holatlarni keltirib chiqargan.

Aslida, hissiy-irodaviy sifatlar tashqi muhitga, ichki jarayonlar va o'ziga-o'zi ta'sir ko'rsatishga yo'naltirishda barqaror va individual ko'rinish oladi. O'smirlarning hissiy-irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan mana shu unsurlar bilan bog'langandir. Hissiy-irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy harakatlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Hissiy-irodaviy faoliyat tufayli o'smir ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Shaxsning irodaviy sifatlari bilan subyektiv lokus nazorat so'rovnomasi komponentlari o'rtasida quyidagi aloqadorlik aniqlandi. "Ziyraklik shkalasi "Internal lokus" shkalasi bilan zaif aloqadorlik namoyon qilgan (r_s =0,131;p<0,01). Demak ichki internallikka ega imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ma'lum darajada ziyraklik mavjud. Natijalardan ba'zi (kam sonli) imkoniyati cheklangan o'quvchilarda introvertlikka xos xususiyatlar kuzatildi. Bu ijobiy holat. Agarda, o'smir barcha harakatlarining natijalarini ichki muhitdan ya'ni o'zidan qidirsa, unda bunday o'smirlar har qanday vaziyatda mas'uliyatni o'z bo'yniga oluvchi o'quvchilar hisoblanishadi.

"Sobitqadamlik" "Ijtimoiy yordam so'rash" shkalasi (r_s=0,360;p<0,01);. "Muammolardan qochish" (r_s =0,128;p<0,05);. Va "Eksternal lokus nazorat" shkalasi bilan (r_s =0,378;p<0,01);. ahamiyatli aloqadorlik hosil qilgan. Eksternallik imkoniyati cheklangan o'smir yoshidagi o'quvchilarda yuqoriroq ko'rsatkich bilan tafovutlandi. Eksternal tipga xos imkoniyati cheklangan o'smirlar tashqi holatga yo'naltirilgan, qiyinchiliklardan cho'chiydilar, muayyan topshiriqni bajarishda turli vaj-bahonalar izlaydilar, o'z mas'uliyatsizligi, erinchoqligi sababini tashqi omillar bilan bog'lash kuzatilgan. Bunday tipdagi o'smirlar psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, ular tomonidan qo'lga kiritilgan har bir yutuq, yoki natija kattalar, murabbiylari tomonidan e'tirof etilib, qo'llab-quvvatlanmasa ularda o'z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o'z niyatlarini ro'yobga chiqarishni yana va yana paysalga solish kabi holatlar yuqorilashuvi mumkin. Bundan tashqari, xulq atvori eksternallikka xos o'smir o'quvchilar hayotdagi ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan sezgir

hisoblanadilar. Shikastlantiruvchi tashqi omillarni his etgan o‘smir ularni takrorlanishidan xavotirlanadi,o’z-o’zini izolyatsiya qila boshlaydi, atrofdagilarga qo’shilmaslikka va yolg’iz bo’lishga intiladi. Bu o‘z navbatida salbiy emotsional kechinmalarni uzluksiz paydo qiladi. Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan o’smirlarda kechayotgan kechinmalar tashqi omillar xarakteriga bog‘liq bo‘lib, bu omillar destruktiv kechinmalar ta’sirida shakllangan o‘smirning “men”i bir tomondan kompensator- ya’ni himoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o‘tasa, ikkinchi tomondan, o‘smirning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beradi. Ushbu qarama– qarshilikni bartaraf etish uchun o‘smir shaxsining ichki imkoniyatlarini faollashtirish zarur bo‘ladi. Ammo, imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hayoti va faoliyatida ba’zan shunday hollar ham bo‘ladiki, o‘smir o‘z oldiga qo‘ygan qandaydir zarur maqsadlarni bajarishda yengib bo‘lmaydigan yoki o’ziga shunday bo‘lib tuyuladigan to‘sqinliklarga duch keladi. Bunday vaziyatlarda, ba’zan ular qabul qilgan qarorni o‘zgartiradi, bekor qiladi, yoki, ular, qiyinchiliklardan qo‘rqishi tufayli o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan butunlay voz kechishi ham mumkin. Hissiy-irodaviy sifatlar bu – tasodifiy tabiatning tuhfasi emas, u rejalashtirilgan harakatlar uchun ishtiyoq etishmasligini bartaraf etadigan, murakkab sharoitlarda muqobil variantlardan birini tanlashni ta’minlaydigan, ayrim muammolarni hal qilish uchun qo‘llanadigan ongning mahsulidir[3]. Hissiy-irodaviy jarayonlar ta’sirida inson qiyinchiliklarni yengish sharoitida o‘z harakatlarini faollashtirish va ularning muvaffaqiyatli yakunlanishiga erishish uchun harakat qilishi muhim.

Hissiy va irodaviy sohani bir-biridan tubdan ajratib o‘rganish mumkin emas. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘smirlarga xos ixtiyoriy harakatlar shakli va atrof – muhitga bo‘lgan hissiy munosabat kabilar yuqorida bildirilgan mulohazalarga aniq ilmiy dalil hisoblanadi. Mustaqillik, ziyraklik, emotsional holatlarda o‘zini nazorat qilish, o‘z his tuyg‘ularini anglash va boshqarish, ijtimoiy yetuklik imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirishda yetakchi sifat tariqasida maydonga keladi. Mazkur sifatlarni ular xulq atvorida shakllantirishni muhim birinchi navbatdagi vazifalar qatoriga kiritish zarur. Chunki emotsional holatlarda o’z-o’zini nazorat qilish, ijtimoiylikda va faoliyatda o’z-o’zini nazorat qilish uquviga egalik imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ichki umumiy holatiga ijobiy ta’sir etib, psixik jarayonlarning rivojlanish sifatini, psixologik xususiyatlarning shakllanishi darajasini hamda o‘z o‘zini nazorat qilish funksiyasini ishlash samaradorligini ta’minlaydi, ularda hissiy barqarorlik, axloqiy me’yoriylik, ishonchlilik, kreativlik, xushmuomalalik kabi yuksak hislarning tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

Shunday qilib, tadqiqotimizda belgilagan vazifalarimizdan kelib chiqib, mazkur paragrafda imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy irodaviy sifatlarining o‘zaro aloqadorlik jihatlari (biz tadqiqotda tatbiq etgan barcha metodikalar natijalari asosida) aniqlandi va tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga erishdik. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning hissiy-irodaviy shakllanishini quvvatlovchi shaxslilikning yordamchi vositalari aniqlandi. Ular faoliyatida “Emotsional konsonanslik”, “O‘z his tuyg‘ularini anglash va boshqarish”, “Emotsional simpatiya”, “Muloqotda hamda ijtimoiylashuv jarayonlarida o‘zini boshqarish” stimulyatsion vosita sifatida xizmat qilishida ”Matonat”,”Qat’iyat” ”Mustaqillik” “sabr-toqatlilik” kabi irodaviy sifatlar ustuvor psixodinamik regulyatorlar ekanligi dalillandi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ильин Е.П. Психология воли. 2-е изд. -СПб.: Питер:- 2009. – 368 с.
2. Кедярова Е.А. Волевая регуляция как фактор деятельности студентов // Известия Иркутского Государственного Университета. Серия: психология. 2012. № 1. С.40 - 46.
3. SattarovaG.I. Jismoniy rivojanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar hissiy-irodaviy sohalarining rivojlanishi” Monografiya “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti” Qarshi sh. 2023 160b.
4. Трифонова Т. А. Особенности волевого компонента Я-концепции при целенаправленном развитии способности к самоуправлению: Автореф. дис.канд. психол. наук. –Казань:- 2004.-21 с.
5. Фещенко Е.К. Возрастно-половые особенности самооценки волевых качеств. – СПб., 1999. – С.32.
6. en.wikipedia.org›Roy Baumeister

Otakulova Dilorom Azimjonovna
Navoiy davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA SHAROITIDA EMPATIYA: ONLAYN MULOQOT VA YUZMA-YUZ MULOQOT FARQLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli kommunikatsiya sharoitida empatiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Onlayn muloqot vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videokonferensiyalar) insonlar o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtirsa-da, ular empatiya jarayoniga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuzma-yuz muloqotda hissiy signallar (intonatsiya, mimika, tana tili) empatiyani kuchaytiruvchi asosiy vosita bo'lsa, onlayn muloqotda bunday imkoniyatlar chegaralangan. Tadqiqotda empatiyaning turli shakllari, ularning raqamli muhitdagi o'zgarishlari va kommunikativ samaradorlikka ta'siri yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli kommunikatsiya, empatiya, onlayn muloqot, yuzma-yuz muloqot, psixologik o'zaro ta'sir.*

ЭМПАТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ: РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ОНЛАЙН-ОБЩЕНИЕМ И ОБЩЕНИЕМ ЛИЦОМ К ЛИЦУ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности проявления эмпатии в условиях цифровой коммуникации. Несмотря на то, что онлайн-общение через социальные сети, мессенджеры и видеоконференции ускоряет обмен информацией, оно оказывает как положительное, так и отрицательное влияние на процесс эмпатии. В межличностном общении лицом к лицу эмоциональные сигналы (интонация, мимика, язык тела) выступают ключевыми средствами усиления эмпатии, тогда как в онлайн-формате эти возможности ограничены. В работе анализируются различные формы эмпатии, их трансформация в цифровой среде и влияние на эффективность коммуникации.*

Ключевые слова: *цифровая коммуникация, эмпатия, онлайн-общение, общение лицом к лицу, психологическое взаимодействие.*

EMPATHY IN THE CONTEXT OF DIGITAL COMMUNICATION: DIFFERENCES BETWEEN ONLINE AND FACE-TO-FACE INTERACTION

Abstract. *This article explores the features of empathy within the context of digital communication. While online interaction through social networks, messengers, and video conferences facilitates faster information exchange, it also has both positive and negative effects on empathy. In face-to-face communication, emotional cues such as intonation, facial expressions, and body language serve as crucial means of enhancing empathy, whereas online interaction limits these opportunities. The study highlights different forms of empathy, their transformation in the digital environment, and their impact on communicative effectiveness.*

Key words: *digital communication, empathy, online interaction, face-to-face communication, psychological interaction.*

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli kommunikatsiya inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va videokonferensiyalar orqali olib borilayotgan muloqot shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini tezlashtirishi, geografik masofani yo'qqa chiqarishi va axborot almashinuvini soddalashtirishi bilan ajralib turadi. Biroq bunday qulayliklar muloqotning psixologik jihatlariga, xususan, empatiyaning shakllanishi va ifodalanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Empatiya - bu boshqa insonning hissiy holatini anglash, uni tushunish va ruhiy qo‘llab-quvvatlash qobiliyati sifatida, ijtimoiy munosabatlarning eng muhim omillaridan biridir. Yuzma-yuz muloqotda empatiya intonatsiya, mimika, tana harakati kabi noverbal vositalar orqali bevosita namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar suhbatdoshlarning hissiy aloqasini mustahkamlab, chuqurroq tushunishga zamin yaratadi. Shu bois an’anaviy muloqot shakli empatiya jarayonining tabiiy va to‘laqonli rivojlanishiga ko‘proq imkoniyat beradi.

Shu bilan birga, raqamli muhitda empatiya turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Onlayn muloqot matnli yozishmalar, emodzi va stikerlar orqali hissiyotlarni ifodalash imkonini bersa-da, ular real hayotdagi hissiy signallarni to‘liq almashtira olmaydi. Natijada, insonlar o‘rtasida tushunmovchiliklar, hissiy bo‘shliqlar yoki yuzaki muloqot xavfi ortadi. Shunga qaramay, raqamli kommunikatsiya empatiyani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ham yaratadi: masalan, geografik jihatdan uzoqdagi insonlarni birlashtirish, turli madaniyat vakillari bilan hissiy aloqalarni o‘rnatish yoki virtual qo‘llab-quvvatlash guruhlarini shakllantirish.

Shunday qilib, empatiyaning raqamli va an’anaviy muloqot shakllaridagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish nafaqat psixologiya, balki sotsiologiya, pedagogika va kommunikatsiya fanlari uchun ham dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqotda empatiyaning onlayn va yuzma-yuz muloqotdagi farqlari, ularning shaxslararo munosabatlar samaradorligiga ta’siri hamda raqamli jamiyat sharoitida insonlararo muloqotning yangi qirralari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Empatiya fenomeni psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida uzoq yillardan buyon o‘rganib kelinayotgan asosiy tushunchalardan biridir. Mahalliy olimlar ta’kidlaganidek, empatiya insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi, shaxslararo muloqot samaradorligini oshiruvchi psixologik omil sifatida qaraladi. Masalan, O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida I. Qodirov (2020) va M. Jo‘raeva (2022) empatiyaning o‘smirlar va talabalar o‘rtasidagi muloqot jarayonida ijtimoiy-psixologik moslashuvga qanday yordam berishini o‘rganganlar. Ularning ta’kidlashicha, yuzma-yuz muloqotda mimika, tana tili va intonatsiyaning to‘liq idrok qilinishi shaxslararo o‘zaro tushunishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, raqamli muloqot sharoitida bu omillar chegaralanib, suhbatdoshning hissiy holatini noto‘g‘ri talqin qilish xavfi ortadi.

Rus psixologlari ham empatiya masalasiga katta e’tibor qaratib kelganlar. A. A. Bodalev (1983) va V. V. Boyko (1996) asarlarida empatiya insonning kommunikativ kompetentligini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biri sifatida izohlangan. Boyko ishlab chiqqan “Empatiya diagnostikasi metodikasi” bugungi kunda ham turli tadqiqotlarda qo‘llanmoqda. So‘nggi yillarda rus olimlari (E. Yu. Artemyeva, 2018; O. N. Shiyan, 2021) raqamli kommunikatsiya sharoitida empatiyaning o‘zgarishini tahlil qilib, onlayn muloqot insonning hissiy sezgirligini pasaytirishi mumkinligini, biroq virtual muloqot vositalari (emoji, stiker, videomuloqot) empatiyani qisman kompensatsiya qilishi mumkinligini ta’kidlaganlar.

Xorijiy olimlar esa empatiya va raqamli kommunikatsiya masalasini keng ko‘lamda yoritib kelmoqdalar. C. Rogers (1951) empatiyani insonparvar psixoterapiya yondashuvining markaziy elementi sifatida ko‘rib, chin dildan tinglash va suhbatdoshning ichki dunyosini his qilish muloqotning eng samarali shakli ekanligini asoslab bergan. Shuningdek, A. Mehrabian (1972) noverbal kommunikatsiyaning hissiy ta’sirchanlikdagi ulkan rolini ochib bergan. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda esa raqamli muloqotdagi empatiya muammolari ko‘proq yoritilgan. Masalan, Suler (2004) tomonidan ilgari surilgan “online disinhibition effect” nazariyasi internet muloqotida hissiy mas’uliyatning pasayishi va empatiya darajasining kamayishini tushuntiradi. Shu bilan birga, D. Konrath va hamkorlari (2011) AQSh talabalari o‘rtasida olib borgan tadqiqotlarida so‘nggi o‘n yilliklarda empatiya darajasi sezilarli pasayganini ko‘rsatganlar.

Biroq boshqa tadqiqotlar raqamli muloqot empatiyani rivojlantirish uchun ham yangi imkoniyatlar yaratishini ta’kidlaydi. Masalan, Riva va Katts (2016) virtual muhitda psixologik qo‘llab-quvvatlash guruhlari empatiyaning onlayn shakllarini rivojlantirishini qayd etganlar. Shuningdek, pandemiya davrida o‘tkazilgan tadqiqotlar (Hampton, 2020) onlayn muloqot odamlarni hissiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, empatiya masalasi turli ilmiy maktablarda turlicha yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Mahalliy olimlar ko‘proq empatiyaning ijtimoiy-psixologik

ahamiyatini va ta'lim jarayonidagi rolini yoritgan bo‘lsalar, rus tadqiqotchilari uni kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida izohlashgan, xorijiy olimlar esa raqamli kommunikatsiya sharoitida empatiyaning kuchayishi yoki pasayishi bilan bog‘liq mexanizmlarni chuqur tahlil qilganlar. Ushbu qarashlar o‘zaro uyg‘unlashib, raqamli jamiyatda empatiya jarayonining murakkab va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi.

Muhokama. Raqamli kommunikatsiya sharoitida empatiya masalasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, onlayn va yuzma-yuz muloqotning o‘ziga xos afzalliklari hamda cheklovlari mavjud. Yuzma-yuz muloqot insonlar o‘rtasida bevosita hissiy aloqa o‘rnatish, suhbatdoshning holatini chuqurroq tushunish va noverbal signallardan keng foydalanish imkonini beradi. Intonatsiya, mimika, tana harakatlari va ko‘z qarashlari kabi omillar empatiyaning tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa suhbatdoshning faqat aytgan so‘zlarini emas, balki uning hissiy holatini ham to‘liq idrok etishga yordam beradi. Shu sababli an'anaviy muloqotda empatiya chuqurroq, mazmunan boyroq va tabiiyroq kechadi.

Biroq zamonaviy jamiyatda onlayn muloqotning roli tobora kuchayib borayotgani e'tiborga loyiqdir. Raqamli platformalar orqali insonlar tezkor aloqa o‘rnatishi, masofadan qat'i nazar axborot almashishi va ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishi mumkin. Shu jihatdan, raqamli muloqot empatiya jarayonini cheklash bilan birga, uni yangi shakllarda ifodalash imkonini ham beradi. Masalan, matnli xabarlar orqali tezkor qo‘llab-quvvatlash, emodzi va stikerlar yordamida hissiy munosabatni ifodalash yoki videomuloqot orqali qisman yuzma-yuz aloqani ta'minlash kabi holatlar empatiyaning raqamli muhitdagi yangi ko‘rinishlarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida muhim jihat shundaki, onlayn muloqotda empatiya ko‘pincha yuzaki bo‘lishi mumkin. Chunki suhbatdoshning hissiy ahvolini noto‘g‘ri talqin qilish, uning kayfiyatini to‘liq idrok qilmaslik yoki virtual maska ortida yashirish xavfi mavjud. Ayniqsa, “online disinhibition effect” deb ataladigan hodisa odamlarni internetda o‘zini erkinroq tutishga undaydi, lekin bu holat ko‘pincha empatiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa shaxslararo munosabatlarning sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, empatiyaning yuzma-yuz va onlayn muloqotdagi farqlarini chuqur o‘rganish jamiyat uchun dolzarbdir. Chunki insonlararo aloqa jarayoni tobora raqamlashtirilayotgan bir davrda empatiya qadriyat sifatida saqlanib qolishi lozim. Onlayn muloqot qulayliklaridan foydalanish bilan birga, insonlar bir-birini diqqat bilan tinglash, his-tuyg‘ularini samimiy ifodalash va noverbal belgilarni imkon qadar ko‘proq qo‘llashga intilishi kerak. Shu tariqa, empatiya shaxslararo munosabatlarda o‘zining asosiy vazifasini bajarishda davom etadi.

Muhokama natijalaridan ko‘rinadiki, raqamli kommunikatsiya empatiyani to‘liq yo‘q qilmaydi, balki uni yangi shakllarga moslashtiradi. Biroq bu jarayonning ijobiy samara berishi insonlarning ongli ravishda empatik munosabatni qo‘llashiga, raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanishiga va hissiy sezgirlikni rivojlantirishiga bog‘liqdir. Shu sababli, empatiya zamonaviy kommunikatsiya madaniyatining ajralmas elementi sifatida har ikki muloqot shaklida – ham yuzma-yuz, ham raqamli muhitda – rivojlantirilishi zarurdir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, empatiya shaxslararo munosabatlarning eng muhim psixologik komponenti sifatida insonning boshqalarni anglash, his qilish va ularga samimiy munosabat bildirish qobiliyatini namoyon etadi. An'anaviy yuzma-yuz muloqot empatiyaning tabiiy va to‘laqonli shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Chunki mimika, intonatsiya, tana tili va boshqa noverbal signallar suhbatdoshlarning bir-birini to‘liqroq tushunishiga xizmat qiladi. Shu sababli empatiya bu turdagi muloqotda chuqurroq va barqarorroq namoyon bo‘ladi.

Raqamli kommunikatsiya esa empatiya jarayonini yangi qirralarda namoyon etadi. Bir tomondan, virtual muloqot hissiy belgilarni cheklab, insonlarning bir-birini to‘liq idrok etish imkoniyatini kamaytiradi, shu orqali empatiya yuzaki tus olishi mumkin. Ikkinchi tomondan, raqamli muhit empatiyani global miqyosda rivojlantirish imkoniyatini ham taqdim etadi: masofadagi insonlar o‘rtasida hissiy aloqa o‘rnatish, qo‘llab-quvvatlash guruhlari yaratish, turli madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilish buning yaqqol misolidir.

Demak, raqamli kommunikatsiya empatiyani yo‘q qilmaydi, balki uni yangi sharoitlarga moslashtiradi. Asosiy vazifa insonlarning ongli ravishda empatik xatti-harakatlarni rivojlantirishida, raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanishida va hissiy sezgirlikni tarbiyalashida namoyon bo‘ladi. Shu orqali onlayn va yuzma-yuz muloqotning afzalliklari uyg‘unlashtirilib, empatiya shaxslararo munosabatlarda o‘zining asosiy vazifasini – insonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, tushunish va qo‘llab-quvvatlashni – muvaffaqiyatli ado eta oladi.

Shunday qilib, empatiyaning raqamli kommunikatsiya sharoitida namoyon bo‘lish xususiyatlarini chuqur o‘rganish nafaqat psixologiya, balki pedagogika, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlari uchun ham dolzarb bo‘lib, insoniyatning zamonaviy muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Qodirov I. Psixologik muloqot va empatiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 212 b.
2. Jo‘raeva M. Talabalarda empatiya va kommunikativ kompetensiya rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022. – 185 b.
3. To‘xtayeva D. Axborot jamiyati sharoitida yoshlarda ijtimoiy muloqot xususiyatlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 198 b.
4. Бодалев А. А. Восприятие и понимание человека человеком. – Москва: Изд-во МГУ, 1983. – 256 с.
5. Бойко В. В. Энергия эмоций в общении: взгляд на себя и на других. – Москва: Филинъ, 1996. – 472 с.
6. Артемьева Е. Ю. Психология эмпатии в цифровом обществе. // Вестник МГУ. Серия 14: Психология. – 2018. – №2. – С. 45–58.
7. Шиян О. Н. Онлайн-коммуникация и трансформация эмпатии у молодежи. // Психологические исследования. – 2021. – №5(23). – С. 101–115.
8. Rogers C. Client-Centered Therapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1951. – 560 p.
9. Mehrabian A. Nonverbal Communication. – Chicago: Aldine-Atherton, 1972. – 245 p.
10. Suler J. The Online Disinhibition Effect. // CyberPsychology & Behavior. – 2004. – Vol. 7(3). – P. 321–326.
11. Konrath S., O’Brien E., Hsing C. Changes in Dispositional Empathy in American College Students Over Time: A Meta-Analysis. // Personality and Social Psychology Review. – 2011. – Vol. 15(2). – P. 180–198.
12. Riva G., Katz J. E. Digital Empathy and Online Communication. – New York: Routledge, 2016. – 304 p.
13. Hampton K. Social Distancing and Online Interaction During the COVID-19 Pandemic. // Journal of Social and Personal Relationships. – 2020. – Vol. 37(6). – P. 1739–1755.

Xasanova Nozimaxon
O‘zbekiston Milliy universiteti o`qituvchisi
E-mail: a.nozimaxon@gmail.com

KASALLIKDA DAVOLANISHGA MUNOSABATNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TADQIQOTINI TASHKIL QILISH VA METODIKALARI

Annotatsiya. *Kasallikda davolanishga munosabatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy psixologiya va tibbiyot kesishmasida dolzarb masala hisoblanadi. Chunki insonning davolanish jarayoniga bo‘lgan ichki munosabati uning sog‘ayish tezligi, davolash samaradorligi va hayot sifati bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, bemorlarning davolanishga bo‘lgan munosabatini ijtimoiy omillar (oila qo‘llab-quvvatlashi, jamiyatdagi stereotiplar, ijtimoiy mavqe), shaxsiy psixologik omillar (motivatsiya, o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyat, o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasi), hamda emotsional omillar (qo‘rquv, tashvish, umid) belgilaydi. Maqolada kasallikka bo‘lgan munosabatni o‘rganishda qo‘llaniladigan psixologik metodikalar – anketa va so‘rovnomalar, intervyu, loyihaviy metodlar, diagnostik testlar hamda kuzatish usullari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish orqali bemorlarda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirish, davolanish jarayonini psixologik jihatdan qulaylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Xulosa sifatida, kasallikda davolanishga munosabatni o‘rganish nafaqat bemorning psixologik holatini yaxshilash, balki umumiy sog‘lomlashtirish tizimining samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *kasallikka munosabat, davolanish, ijtimoiy-psixologik omillar, motivatsiya, sog‘liq psixologiyasi, metodika.*

ОРГАНИЗАЦИЯ И МЕТОДИКИ ИССЛЕДОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОТНОШЕНИЯ К ЛЕЧЕНИЮ ПРИ БОЛЕЗНИ

Аннотация. *Изучение социально-психологических особенностей отношения к лечению при болезни является актуальной задачей на стыке психологии и медицины. От того, как человек воспринимает болезнь и терапевтические процедуры, во многом зависит эффективность лечения, скорость восстановления и качество жизни. В статье подчеркивается, что отношение к лечению формируется под влиянием ряда факторов: социальных (поддержка семьи, социальный статус, стереотипы общества), личностных (мотивация, ответственность за собственное здоровье, самоконтроль), а также эмоциональных (страх, тревога, надежда). Для анализа этих аспектов применяются различные методики: анкетирование, интервью, проективные методы, диагностические тесты и наблюдение. Автор отмечает, что системный подход к исследованию отношения к лечению позволяет выявить барьеры и ресурсы личности, а также создать эффективные психологические программы поддержки пациентов. Внедрение таких методик в практику способствует формированию у пациентов позитивного отношения к лечению, укреплению мотивации к здоровому образу жизни и повышению общей устойчивости к стрессу, связанному с болезнью. В заключение делается вывод о важности комплексного исследования данной проблемы для развития медицинской психологии и повышения эффективности реабилитационных мероприятий.*

Ключевые слова: *отношение к лечению, болезнь, социально-психологические факторы, мотивация, медицинская психология, методики.*

ORGANIZATION AND METHODS OF RESEARCH ON THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ATTITUDES TOWARD TREATMENT IN ILLNESS

Annotation. *The study of the socio-psychological characteristics of attitudes toward treatment during illness is a crucial issue at the intersection of psychology and medicine. An individual's internal attitude toward medical treatment significantly influences the effectiveness of therapy, recovery speed, and overall quality of life. This article emphasizes that such attitudes are shaped by multiple factors: social (family support, social status, societal stereotypes), personal (motivation, responsibility for one's health, self-control), and emotional (fear, anxiety, hope). Various psychological methods are highlighted as effective tools for research, including questionnaires, interviews, projective techniques, diagnostic tests, and observation. The paper also discusses the practical value of such studies, particularly in developing interventions that strengthen patients' motivation for maintaining a healthy lifestyle, reduce psychological barriers during treatment, and enhance social support systems. Moreover, the study underscores the importance of psychological resilience, which helps patients cope with stress and uncertainty caused by illness. In conclusion, examining attitudes toward treatment provides not only insights into patients' psychological well-being but also practical guidelines for improving the efficiency of healthcare and rehabilitation systems. This makes the topic highly relevant for the advancement of medical and health psychology.*

Keywords: *attitude toward treatment, illness, socio-psychological factors, motivation, health psychology, research methods.*

Kirish. Davolanishga munosabat (treatment attitude) va bemorning tibbiy tavsiyalarga rioya qilishi - komplaentlik yoki adherens - klinik natijalar, asoratlar profilaktikasi va sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi[3]. Biroq komplaentlik faqat medikamentoz rejimning “murakkab–sodda”ligi bilan emas, balki bemorning kasallik haqidagi tasavvurlari, shaxsiy ishonchlari, psixik holati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish darajasi, shifokor–bemor kommunikatsiyasining sifati va madaniy omillar bilan ham belgilanadi[1].

Surunkali kasalliklarda bemorlarning davolanish jarayoniga munosabati ularning sog‘ayish dinamikasida muhim o‘rin tutadi. Davolanishga ijobiy munosabat ko‘rsatgan shaxslar ko‘pincha yuqori motivatsiyaga ega bo‘lib, shifokor ko‘rsatmalarini qat’iyroq bajaradilar[2]. Biroq, ayrim hollarda ijtimoiy omillar, psixik holat, shaxsiy xususiyatlar va oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi davolanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi - bemorlarda kasallikka va davolanish jarayoniga munosabatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni yaxshilash yo‘llari haqida tavsiyalar berishdir.

Metodlar (Methods). Empirik tadqiqotning metodologik asoslari sifatida ***Dj.Endjel***ning tizimli biopsixosotsial yondashuvi, ***V.N.Myasishev***ning munosabat nazariyasi (4) va komplayentlikning kommunikativ, kognitiv va o‘z-o‘zini boshqarish modellari tanlangan.

Shaxsda davolanishga munosabatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari **ikki bosqichda** o‘tdi:

1) birinchi bosqich – psixodiagnostik;
2) ikkinchi bosqich – tavsiyalar yaratish.

Davolanishga komplaentlikning ijtimoiy psixologik omillari ta’sirini o‘rganish bo‘yicha nazariy–tadqiqot ishlarning tahlili dissertatsion ishning maqsad va vazifalariga javob bera oladigan tadqiqotning psixodiagnostik bosqichi uchun qator metodikalarni tanlash imkoniyatini berdi.

Tadqiqotda sakkizta metodikadan foylalanildi. Ulardan biri N.A.Xasanova va M.X.Karamyan muallifligidagi «Davolanishda sodiqlik» so‘rovnomasidir. «Davolanishda sodiqlik» so‘rovnomasi davolanishga munosabatning uch komponentiga (hulq–atvoriy, emotsional, kongitiv) asoslanib tuzilgan. Ushbu so‘rovnoma orqali surunkali kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarda davolanishga komplaentlikning qaysi komponenti ustunlik qilishini aniqlash mumkin.

So‘rovnoma davolashnishning xulq–atvoriy, emotsional va kognitiv komponentlari uchun alohida 7 tadan, umumiy 21 savoldan iborat.

Nemis olimlari G. Sommer, T. Fydrichning (1989) “Ijtimoiy qo‘llab quvvatlash” F-SOZU-22 so‘rovnomasi A.B. Xolmogorovoy tomonidan moslashtirilgan variantidir. Ijtimoiy qo‘llab quvvatlash metodikasi F-SOZU-22 idrok etiladigan ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni o`rganishni validli va

ishonchli vositasi sifatida tavsiya etilgan. A.B. Xolmogorovoy variant 22 ta savoldan tashkil topgan. Metodika besh shkaladan iborat: emotsional qo‘llab quvvatlash; instrumental qo‘llab quvvatlash; ijtimoiy integrasiya; ijtimoiy qo‘llab quvvatlanishdan qoniqqanlik; ijtimoiy qo‘llab quvvatlashning umumiy ko‘rsatkichi.

Hozirgi davrda odam rivojlanishi yosh davrlarining qabul qilingan yagona klassifikatsiyasi mavjud emas [6], umuman yosh diapazonida 21 yoshdan 60 yoshgacha yetuklik davriga kiritish mumkin, 60 yoshdan 75 yoshgacha bo‘lgan davr keksalikka kiritiladi. Shunday qilib, A. G. Petrovskiy va M. G. Yaroshevskiyning qisqa psixologik lug‘atida quyidagi davrlarga bo‘linadi[5]:

1) yetuklikning birinchi davri (21-35 yosh);
2) yetuklikning ikkinchi davri (36-60 yosh);
3) keksalik yoshi (61-75 yosh).

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning umumiy o‘rtacha yoshi: – 48,94±14,35. Kassalik turiga ko`ra o‘rtacha yosh: QD 1-tur – 47,24±14,88, QD 2-tur – 56,33±11,11, revmotologik kasalliklarda – 40,49 ±12,30 tashkil etadi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalarini **ijtimoiy-demografik omillar** asosida guruhlarga taqsimlangan ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotda umumiy 400 ta respondent ishtirok etgan. Ulardan jami erkaklar 205 ta, ayollar 195 ta. QD 1-tur bemorlardan 78 ta erkak, 73 ta ayol, QD 2-tur bemorlardan 72 ta erkak, 77 ta ayol, revmatologik kasalliklar bilan og`rigan bemorlardan 55 ta erkak, va 45 ta ayollar ishtirok etishgan (1-jadval).

1-jadval.

Yoshga oid tavsiflar	**QD 1-tur**		**QD 2-tur**		**Revmatologik kasalliklar**	
	N	**%**	**N**	**%**	**N**	**%**
Erkaklar	78	51,7	72	48,3	55	55,0
Ayollar	73	48,3	77	51,7	45	45,0
Jami	151	100,0	149	100,0	100	100,0

Tadqiqot ishtirokchilarining jinsiga oid tavsifi

Quyida *psixologik omillar* asosida psixologik so‘rovnomalarning guruhlarga taqsimlangan ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz.

2 - jadval.

Kasallikning turiga qarab komplaentlikning darajasi (mualliflik so`rovnomasi bo‘yicha)

Komplaentlik darajasi	**Kasallik turi**					
	QD 1-tur		**QD 2-tur**		**Revmatologik kasalliklar**	
	N	%	N	%	N	%
Past daraja	73	73,0	53	53,0	32	32,0
Yuqori daraja	27	27,0	47	47,0	68	68,0
Jami	100	100,0	100	100,0	100	100,0

QD 1- tur bemorlarda komplaentlikning past darajasi 73 foiz, yuqori darajasi 27 foizni tashkil etdi. QD 2- tur bemorlarda komplaentlikning past darajasi 53 foiz, yuqori darajasi 47 foizni tashkil etdi. Revmatologik kassalliklar bilan kasallangan bemorlarda komplaentlikning past darajasi 73 foiz, yuqori darajasi 27 foizni tashkil etdi.

3 - jadval.

Ijtimoiy qo`llab quvvatlash darajasi (mediana 90)

Ijtimoiy qo`llab quvvatlash	**Tanlov bo‘yicha**		**Kasallik turi**					
			QD 1-tur		**QD 2-tur**		**Revmatologik kasalliklar**	
	N	%	N	%	N	%	N	%
Past daraja	168	42,0	74	49,0	55	36,9	39	39,0

Yuqori daraja	132	33,0	26	17,2	45	30,2	61	61,0
Jami	300	75,0	100	66,2	100	67,1	100	100,0

Tanlov bo`yicha ijtimoiy qo`llab quvvatlashning past darajasi 42 foiz, yuqori darajasi 33 foizni tashkil etdi. QD 1-tur bemorlarida past daraja 49 foiz, yuqori daraja 17,2 foiz. QD 2-tur bemorlarida past daraja 36,9 foiz, yuqori daraja 30,2 foiz. Revmatologik kasalliklar bilan kasallangan bemorlarda past daraja 39 foiz, yuqori daraja 61 foiz.

Muhokama (Discussion). O`tkazilgan tadqiqotimiz natijasi shuni ko`rsatdiki davolanishda komplaentlikning past darajasi ko`proq QD 1-tur bemorlarda kuzatildi. Ammo qandli diabet va revmatologik kasalliklarda komplaentlikning yuqori darajasi kuzatilgan. Demak kasallikning turi va uning o‘ziga xos kechishi davolanishdagi komplaentlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Unga ko`ra 1-tur qandli diabet bemorlarda komplaentlik pastroq bo‘lishining asosiy sabablari: yosh omili – 1-tur diabet odatda bolalik yoki o‘smirlikda boshlanadi. yosh bemorlarda muntazam ravishda insulinni qabul qilish, parhez va nazorat qilishni davom ettirish qiyinroq bo‘ladi; davolanishning murakkabligi – insulin terapiyasi har kuni bir necha marta in’eksiya, qon shakarini o‘lchash va doimiy nazoratni talab qiladi. bu esa psixik va ijtimoiy jihatdan toliqish keltirib chiqaradi; kasallikni qabul qilishdagi qiyinchiliklar – yosh va faol davrda bo‘lgan bemorlar cheklovlarni qabul qilishda qiynaladi; psixik qarshilik – “har kuni dori qilish majburiyati” bemorda stress, rad etish yoki inkor xatti-harakatlariga olib keladi.

2-tur qandli diabet va revmatologik kasalliklarda esa komplaentlik nisbatan yuqori bo‘ladi, sababi: Yoshi katta bemorlar – Ko‘pincha 2-tur diabet va revmatologik kasalliklar o‘rta va katta yoshlarda rivojlanadi. Ular sog‘ligiga ko‘proq jiddiy yondashadi, shifokor ko‘rsatmalariga rioya qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi; Davolanish usullarining qulayligi – Ko‘pincha tabletkalar va oddiy rejim yetarli bo‘ladi (1-turdagi kabi in’eksiya zarur emas); Og‘riq va jismoniy cheklovlar – Revmatologik kasalliklarda og‘riq va kundalik faoliyatdagi qiyinchiliklar bemorni davolanishga majbur qiladi. Ya’ni, motivatsiya og‘riqdan qochish orqali yuqoriroq bo‘ladi.

Kasallikni anglash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – Bu turdagi kasalliklarga chalinganlar ko‘pincha kasallikni jiddiyroq qabul qiladi va davolanishga sodiq bo‘lishadi.

Demak, farqning asosiy sababi: 1-tur diabet – yosh, psixik qarshilik va davolanishning murakkabligi tufayli past komplaentlik; 2-tur diabet va revmatologik kasalliklar – katta yosh, og‘riq va qulayroq davolanish tufayli yuqori komplaentlik.

Xulosa. Tadqiqod doirasida 3 ta moduldan tashkil topgan korreksion trening dastur ishlab chiqilib kichik guruhlarda o`tkazildi. Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik yondashuv davolanish jarayonida ijoby natijaga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu sababli, sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatlarni kengaytirish, bemorlar bilan individual va guruhiy korreksion treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Horne, R., & Weinman, J. (1999). Patients’ beliefs about prescribed medicines and their role in adherence to treatment. *Journal of Psychosomatic Research*, 47(6), 555–567.

2. Leventhal, H., Brissette, I., & Leventhal, E. A. (2003). The common-sense model of self-regulation of health and illness. In L. D. Cameron & H. Leventhal (Eds.), *The Self-Regulation of Health and Illness Behaviour* (pp. 42–65). Routledge.

3. Moss-Morris, R., Weinman, J., Petrie, K. J., Horne, R., Cameron, L. D., & Buick, D. (2002). The revised illness perception questionnaire (IPQ-R). *Psychology and Health*, 17(1), 1–16.

4. Борелл-Каррио Ф., Сачмен Э. Л., Эпстайн Р. М. Биопсихосоциальная модель 25 лет спустя//Отечественные записки. 2006. № 2(29). С. 133-145

5. Краткий психологический словарь /Сост. Л. А. Карпенко; Под общ. ред. А. В. Петровского, М. Г.Ярошевского// Электронная библиотека: http://www.koob.ru

6. Палагина Н.Н.Психология развития и возрастная психология: учебное пособие для вузов. М.: Московский психолого-социальный институт, 2005. 288 с.

Quliev Yorqin Karitmovich

Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: yo.k.Kuliev@buxdu.uz

TALABALARNING UZLUKSIZ TA`LIMGA DAXLDORLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning uzluksiz ta`limga daxldorligning psixologik xususiyatlari, mavjud ta`riflari tahlil qilinib, uning ko`p qirraliligi va tuzilishi haqidagi tushunchalar tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ta`limga daxldor etishning ayrim dolzarb modellari o`rganilib, uzluksiz ta`limga daxldor qilish xususiyatlari alohida qayd etilgan. Shuningdek, xorijiy va milliy psixologiya fanida mavjud bo`lgan daxldorlik hodisasining ko`plab ta`riflari va modellarini tizimlashtirish masalalari ham ko`rib chiqilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *talabalarning uzluksiz ta`limga daxldorligi, ta`limga daxldorlik modellari, uzluksiz ta`limga daxldorlik tuzilmasi, uzluksiz ta`limga daxldorlikning besh komponentli modeli, talabaning xulq-atvorga oid daxldorligi, hissiy daxldorlik.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS' INVOLVEMENT IN LIFELONG EDUCATION

Abstract. *The article analyzes the psychological characteristics of involvement in continuing education, existing definitions, and analyzes the concepts of its versatility and structure. Some current models of involvement in education proposed by domestic and foreign researchers are studied, and the features of involvement in continuing education are highlighted. Also, the issues of systematizing the numerous definitions and models of the phenomenon of involvement existing in foreign and national psychology are considered.*

Key words: *learner engagement in continuing education, engagement models, engagement structure in continuing education, five-component model of engagement in continuing education, behavioral engagement of the student, emotional engagement.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИЧАСТНОСТИ СТУДЕНТОВ К НЕПРЕРЫВНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация. *В статье анализируются психологические особенности причастности студентов к непрерывному образованию, рассматриваются существующие определения, а также понятия о его многогранности и структуре. Изучены отдельные актуальные модели вовлечённости в образование, предложенные отечественными и зарубежными исследователями, при этом особо отмечены особенности причастности к непрерывному образованию. Кроме того, рассмотрены вопросы систематизации многочисленных определений и моделей феномена причастности, существующих в зарубежной и национальной психологии.*

Ключевые слова: *причастность студентов к непрерывному образованию, модели причастности к образованию, структура причастности к непрерывному образованию, пятикомпонентная модель причастности к непрерывному образованию, поведенческая причастность студента, эмоциональная причастность.*

Kirish. Talabalarning uzluksiz ta`limga daxldorligi - bu butun hayoti davomida o`qish jarayonida faol ishtirok etishni anglatadi. Bu nafaqat rasmiy ta`limni, balki o`z-o`zini o`qitish va kasbiy rivojlanishning turli shakllarini ham o`z ichiga oladi. Bilim va ko`nikmalar tezda eskirib borayotgan zamonaviy dunyoda, uzluksiz ta`lim o`zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish va malaka o`sishi uchun katta zaruriyatga aylanmoqda. Talabalarning uzluksiz ta`limga daxldorligi faoliyatni amalga oshirishda sarflanadigan kuch-gayrat va quvvat darajasini, shuningdek, olib borilayotgan ta` lim faoliyati bilan bogliq hissiy kechinmalar, bilish, ragbatlantirish va mazmuniy jarayonlarni aks ettiradi. Talabalarning uzluksiz ta`limga daxldorligi boshqarish ta`lim

dasturlarining yakuniy maqsadlariga erishishni ta`minlash imkonini beradi. Yuqori darajadagi daxldorlik talabalarning yangi bilimlarni faol o`zlashtirishiga va ta`lim jarayonida o`z kasbiy malakalarini rivojlantirishiga ko`maklashadi.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, hozirgi globallashuv jarayonlarda, zamonaviy axborot texnologiyalarga yo`naltirilgan, doimiy o`zgarish va yangilanishlarni boshdan kechirayotgan zamonaviy dunyoda samarali faoliyat yurituvchi insonni uzluksiz ta`limdan tashqarida tasavvur qilish qiyin. Uzluksiz ta`lim, hayoti davomida ta`lim olish tobora dolzarb va zarur bo`lib bormoqda. Uzluksiz ta`lim zamonaviy oliy o`quv yurtining asosi, o`zagi bo`lishi, ta`lim jarayonining barcha bosqichlarida o`quvchilarni o`qitish, malakasini oshirish va malakasi o`sishini ta`minlaydigan tuzilmasini yaratishga ko`maklashishni ta`minlaydi. [7]

Shuni ta`kidlash joizki, uzluksiz ta`lim deganda..."bilim, ko`nikma va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish maqsadida doimiy asosda amalga oshiriladigan o`quv faoliyati" tushuniladi [6]. Olingan ma`lumotlarga ko`ra, tadqiqotchilar uzluksiz ta`limni uchta markaziy elementi sifatida quyidagilarni belgilaydilar:

• iqtisodiy taraqqiyot va rivojlanish maqsadida uzluksiz ta`lim, insonni mehnatga tayyorlash, uning kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga urgu berish;

• shaxsiy rivojlanish (shaxsni rivojlantirish) va o`z-o`zini takomillashtirish maqsadida uzluksiz ta`lim;

• shaxsning ijtimoiy inklyuziyasi (ijtimoiylashuvi), uning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni qabul qilishi va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo`lgan ijtimoiy moslashuvchan xulq-atvorni namoyon etishi.

Shu bilan birga, ta`kidlash joizki, ijtimoiy-psixologik yondashuv uzluksiz ta`limni ikki tomonlama jarayon sifatida o`rganadi. Bir tomondan, bu insonning ijtimoiy-madaniy, xususan, kasbiy muhitga kirish, insoniyat tomonidan to`plangan tajribani (shu jumladan, kasbiy tajribani) o`zlashtirish, standartlar va qadriyatlarni o`zlashtirish jarayoni; boshqa tomondan, bu o`zini faol amalga oshirish, uzluksiz kasbiy o`z-o`zini rivojlantirish, o`z-o`zini takomillashtirish jarayoni hisoblanadi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda talabalar faolligining tarkibiy komponentlarini ajratishning bir nechta yo`nalishlari tavsiflangan. Talabalarni daxldorligi masalalari bo`yicha bir qator olimlarning asarlari bilan ishlash jarayonida daxldor qilishning bir nechta tarkibiy modellari ko`rib chiqilgan.

Shunday qilib, J.A. Fredriksning ta`limga daxldor qilishning uch omilli modeli uchta komponentni o`z ichiga oladi: xulq-atvor, hissiy va kognitiv[1].

- **xulq-atvor jihatidan** ta`limga daxldorlik, talaba yoki maktab o`quvchisining ta`lim jarayoni kontekstidagi verbal va noverbal harakatlarida aks etadi.

- **hissiy daxldorlik** talabalarningta`lim muassasasiga tegishlilik hissi bilan bogliq. Boshqa talabalar, o`qituvchilar va maktabda ishlaydigan boshqa kattalar bilan hissiy aloqaning mavjudligi, muallif nuqtai nazaridan, ta`limga hissiy jalb etilganlikdan dalolat beradi.

- **kognitiv daxldorlik** o`qish va o`rganish uchun shaxsiy mas`uliyat va murakkab vazifalarni hal qilishda aqliy hissa qo`shishda namoyon bo`ladi.

Ushbu modeldagi uchta komponentning har biri talabalarningdaxldorligini tushunish uchun muhimdir. Model muallifi J.A. Fredriksning ta`kidlashicha, mavjud ko`plab tadqiqotlar talaba daxldorligining bir jihatiga, odatda, xulq-atvorga qaratilgan bo`lib, bu uni tushunishni sezilarli darajada cheklaydi.

Bundan tashqari, eng to`liq zamonaviy modellardan yana biri talabani daxldorligining to`rt omilli modelidir. Bu model J.J.Appleton, A.L.Rishley ishlarida ko`rib chiqilgan bo`lib, kognitiv, psixologik, akademik va xulq-atvor komponentlarini o`z ichiga oladi.

To`rt omilli modelda **akademik daxldorlik** o`quvchining topshiriqni bajarish uchun sarflagan vaqti, uy vazifalarining bajarilish darajasi va kurs yakunida olingan baholarning mavjudligi kabi o`zgaruvchilardan iborat.

Xulq-atvor daxldorligi o`quv tadbirlariga qatnashish, o`quvchiga nisbatan qo`llanilgan intizomiy choralarning mavjudligi, sinf va sinfdan tashqari ishlarda ixtiyoriy ravishda ishtirok etishda namoyon bo`ladi.

Ushbu to`rt omilli o`qitish modelining kognitiv va psixologik tarkibiy qismlari oldingi modellarda tasvirlangan kognitiv va hissiy omillarni takrorlaydi. Muallifning ta`kidlashicha, ushbu to`rtta tarkibiy qism barcha vaziyatlarda talabalarningdaxldorligini baholash uchun to`liq asos bo`la olmaydi. Ular ko`proq talabalar va o`quv muhiti o`rtasidagi munosabatlarga ta`sir ko`rsatadigan ko`plab holatlar to`plamini tahlil qilish va tushunish uchun mos keladi [5].

Ta`kidlash joizki, J.Xakenen, A.B.Bekker, V.B.Shaufeli, M.Salanova kabi bir guruh tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan energiya, fidoiylik va ishga berilish kabi tarkibiy qismlarga asoslangan talabalarni jalb qilish modeli alohida e`tiborga loyiqdir. Ushbu modelda ta`limga jalb etilganlikning qadriyatli-mazmunli va xulq-atvor xususiyatlariga ustunlik beriladi.

Energiya o`quv yoki ilmiy faoliyatga vaqt va kuch sarflashga tayyorlik, shuningdek, qiyinchiliklarni yengib o`tish va yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda qat`iyatlilik sifatida qaraladi. Energiya, mualliflarning fikriga ko`ra, o`quv-ilmiy faoliyatda o`z samaradorligini his qilish bilan uzviy bogliq.

Fidoiylik ilmiy-o`quv faoliyati jarayonida o`z qobiliyati va imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga intilishda namoyon bo`ladi. Fidoiylik o`z ahamiyatini his qilish, gayrat, ilhom, gurur va da`vat bilan bogliq.

Ishga berilishning xususiyatlari quyidagilardir: talabailmiy va amaliy tadqiqotlarga umumiy e`tiborini qaratishi, vaqtning tez o`tishini his qilishi va o`zi tanlagan ishini to`xtatishning qiyinligi [5].

Ta`kidlash joizki, uzluksiz ta`limga daxldor etish modelini yaratishda mualliflar uning tarkibida ob`ektiv va sub`ektiv komponentlarni ajratib ko`rsatdilar. Ob`ektivlik xulq-atvorning tashqi xususiyatlarida aks etadi va uni kuzatish oson. Aynan shuning uchun ko`plab daxldorlik tadqiqotlarida ushbu darajaga urgu beriladi. Uzluksiz ta`limga daxldorlikning sub`ektiv tarkibiy qismi - har doim ham tashqi ko`rinishlarga (tasavvurlar, munosabatlar, ehtiyojlar, motivlar, ma`nolar va boshqalar) ega bo`lmagan shaxsning ichki jarayonlari va xususiyatlari to`plami - ko`pincha soyada qolib ketgan va daxldorlikning empirik tadqiqotlari predmeti bo`lmagan.

Uzluksiz ta`limga daxldorlik insonning kasbiy shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan va talabaning butun kasbiy faoliyati davomida bilimlarni o`zlashtirishdagi maqsadli faolligini aks ettiruvchi hodisa sifatida qaralishi mumkin.

Mualliflarning ilmiy ishlari o`rganilganda, kasbiy rivojlanishga qaratilgan faoliyatning ajralmas qismi sifatida uzluksiz ta`limga daxldor etishning besh komponentli tarkibiy modeli taxlil qilindi. Modelda ob`ektiv komponent xulq-atvor komponenti bilan, sub`ektiv komponent esa daxldorlikning kognitiv, hissiy, motivatsion, qadriyatli komponentlari bilan ifodalanadi.

Talabalarni daxldorligini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko`rib chiqib, uzluksiz ta`limga daxldor qilishning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko`rsatish mumkin:

1) Kognitiv komponent (uzluksiz ta`lim haqidagi turli tasavvurlarni aks ettiradi):

• uzluksiz ta`lim to`grisidagi tasavvurlar, uning kasbiy rivojlanish uchun zarurligi darajasi, referent guruhlarda uzluksiz ta`limning ahamiyati to`grisidagi tasavvurlar, ta`lim muhiti to`grisidagi tasavvurlar (talabalar guruhi, o`qituvchilar guruhi, ta`lim jarayoniga kiritilgan boshqa guruhlar);

• o`z kasbiy kelajagi haqida tasavvurga ega bo`lish;

• uzluksiz ta`limning "oqilona foydalari," ya`ni ta`lim xarajatlari va olinishi mumkin bo`lgan foydalar nisbati haqidagi tasavvurlar.

2) Hissiy komponent (uzluksiz ta`limga bo`lgan affektiv munosabat xarakterini aks ettiradi, ta`lim jarayoniga hamroh bo`lgan dominant his-tuygular):

• ta`lim jarayoni, ta`lim natijalari, ta`lim dasturlarining mazmuni va shaklini hissiy baholash;

• ta`lim jarayonidan qoniqish darajasi;

• egallayotgan kasbga munosabati, uning jozibadorligi.

3) Xulq-atvor komponenti (ta`lim jarayonida sub`ektning xulq-atvor faolligini aks ettiradi):

• butun hayoti davomida ta`lim dasturlari va tadbirlarida ishtirok etish;

• o`qitish bilan bogliq zarur rasmiy amallarni bajarish;
• ta`limga ajratilgan vaqt;
• ijtimoiy aloqalarga kirishish va ta`lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o`zaro hamkorlik qilish.

4) Motivatsion komponent (inson hayoti davomida o`rganishga bo`lgan ehtiyojning mavjudligini aks ettiradi):
• talabalarningo`quv faoliyati asosida mavjud motivlarning mazmuni va kuchi;
• talaba ta`limga tayangan holda amalga oshirishni rejalashtirgan kasbiy ehtiyojlar;
• ta`lim jarayonida qondiriladigan o`z-o`zini rivojlantirish va o`z-o`zini anglash motivlari.

5) Qadriyatli komponent (sub`ekt uchun uzluksiz ta`limning ahamiyatlilik darajasini aks ettiradi, unga ma`lum bir qadriyat yuklaydi):
• kasbiy faoliyat uchun uzluksiz ta`limning ahamiyati; talaba uchun kasbiy faoliyatning qiymati va ahamiyati, hamda kasbda "doim yuqorida bo`lish"ga intilish; kasbiy faoliyatda o`z raqobatbardoshligi va talabchanligining ahamiyati; kasbiy guruhga mansublikning ahamiyati;
• ta`limning shaxsiy ma`noga egaligi;
• shaxsiy va kasbiy o`sish va o`z-o`zini faollashtirish uchun uzluksiz ta`limning ahamiyati;
• zamonaviy sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish va ijtimoiylashuv uchun uzluksiz ta`limning ahamiyati.

Shuni ta`kidlash kerakki, talabaning daxldorligi bir xil emas: o`quv faoliyatining ba`zi davrlarida ta`lim jarayonida daxldorlik darajasi yuqori, ba`zilarida esa pastroq bo`ladi. Bu, masalan, kasbda o`zini anglash inqirozlari bilan bogliq bo`lishi mumkin; bo`lajak kasb uchun olinadigan kompetensiyalarning qiymatini anglash; ta`lim jarayonidan qoniqishdan iborat bo`lishi mumkin.

Olingan ma`lumotlarga ko`ra, uzluksiz ta`lim daxldorligi idinamikasi bir qator shaxsiy va ijtimoiy omillar ta`sirining natijasi bo`lishi mumkin. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: individual-psixologik va shaxsiy xususiyatlar, o`z samaradorligini boshdan kechirish, jamiyatda va yaqin ijtimoiy muhitda sodir bo`layotgan jarayonlar va boshqalar. Ushbu omillarning barchasi uzluksiz ta`limga daxldor qilishga ta`sir ko`rsatishi mumkin. Bir tomondan, bu uning cheklanishi bo`lsa, ikkinchi tomondan, modelning haddan tashqari qo`polligidan qochish va uning tuzilishini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Shunday qilib, uzluksiz ta`lim daxldorligi ko`p o`lchovli tuzilma bo`lib, u ta`limning o`zi, uning mazmuni, shakli, sifati va samaradorligi, shuningdek, o`zining kasbiy yo`li haqidagi tasavvurlar, munosabatlar, tajribalar, motivlar va ma`nolar to`plamini o`z ichiga oladi. Uzluksiz ta`limga daxldorlik o`z kasbiy rivojlanishiga qaratilgan faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo`lib, ta`limning sub`ekt uchun yuqori darajadagi ahamiyati va unga yuqori baho berish bilan tavsiflanadi.

Uzluksiz ta`limga daxldor etilganlik talabalarningo`quv faoliyatiga sarflaydigan jismoniy va psixologik energiya miqdori bilan belgilanadi. Daxldorlikning tashqi ifodasi yuqori xulq-atvor faolligidir. Daxldorlik talabaning ta`lim faoliyatiga kirishish jarayonida paydo bo`ladi, ma`lum bir ijtimoiy kontekstga kiritilgan, ijtimoiy va kasbiy moslashuv jarayoni bilan birga keladi va ijtimoiy-psixologik hodisa bo`lib qoladi.

Ta`kidlash joizki, daxldorlik muammosida **kasb tanlash muammosi** alohida e`tiborga loyiq. O`smirning kasb tanlashi ko`pincha ota-onalarning bosimi ostida sodir bo`ladi, ular ko`pincha bolaning shaxsiy afzalliklari va qobiliyatlarini e`tiborsiz qoldirib, kelajakdagi kasbning obro`si, ish haqi miqdori, ma`lum bir kompaniyada kafolatlangan ish imkoniyati kabi omillarga e`tibor qaratadilar. O`smirga kasb tanlash erkinligi berilsa, uning birorr bir kasbni tanlovi murakkablashishi mumkin. Chunki, bir tomondan, uning uchun qiziqarli bo`lgan boshqa yangi xilma-xil kasblarning paydo bo`lishi (tanlov variantlarida adashib qolish mumkin), ikkinchi tomondan, kerakli kasbiy sohada professional kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon beradigan davlat akkreditatsiyasidan o`tgan ta`lim dasturlarining yo`qligi. Shuningdek, kasb tanlashda maktabda kasbga yo`naltirish yordamining yo`qligi, o`smirning shaxsiy yetuk emasligi, shaxsiy afzalliklarni anglash darajasining pastligi bilan qiyinlashadi.

Shu bilan birga, kasb tanlash jarayonini qiyinlashtiradigan yana bir keng tarqalgan stereotip: "Kasb tanlading va o`qishga kirdingmi, oxirigacha bor, fikringdan qaytish va o`qishni tashlash - bu

yaxshi emas'". Odatda, o`spirin o`qish boshida tanlagan kasbi unga mos kelmasligini tushunsa va o`qishni to`xtatmoqchi bo`lsa, ota-onasi va ijtimoiy muhiti tomonidan bosim va o`qishni davom ettirish talabi bilan to`qnashadi. Hozirgi zamonda yosh yigit tanlagan mutaxassisligi bo`yicha o`qishni to`xtatib, kasbini va o`qish joyini o`zgartirmoqchi bo`lsa, ota-onasi tomonidan: "Biz nihoyat nimani xohlayotganingni tushunganingdan xursandmiz" deb xursandchilik va qo`llab-quvvatlash bilan kutib olinishini tasavvur qilish qiyin.

Kasb tanlash va tanlangan kasbdan qoniqish talabaning uzluksiz ta`limga jalb etilishiga bevosita ta`sir qiladi. Agar kasb tanlash rasmiy bo`lsa, talaba tashqi omillarga, masalan, yaxshi baholar olishga (ota-onalarning maqtovi, talabalar muhitida o`zini tasdiqlash va h.k.) va diplomga e`tibor qaratadi.

Shuni ta`kidlash kerakki, noto`gri kasb tanlagan yosh shaxs o`zida ma`lum qobiliyatlarni rivojlantirmasligi mumkin, unda ta`lim jarayoniga chuqur jalb etilish shakllanmaydi, bu esa uzoq davom etadigan shaxsiy ichki ziddiyatga, chuqur qoniqmaslik hissi paydo bo`lishiga olib kelishi mumkin. Jamoatchilik fikri, ota-onalarning bosimi va ma`lum bir ijtimoiy maqomga intilish shaxsning o`z asl tabiatidan uzoqlashishiga olib keladi. Bu jarayonlarni tushunish shaxs uchun kasb tanlash va uning keyingi ta`lim jarayoniga jalb etilishi naqadar muhimligini ko`rsatadi. Agar kasb ongli ravishda tanlangan bo`lsa, shaxsning talabadan mutaxassisga o`sish yoki uning uzluksiz ta`lim jarayoniga qo`shilishi orqali o`tadi.

Uzluksiz ta`lim deganda "bilim, ko`nikma va professional kompetensiyani doimiy ravishda yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan har tomonlama o`quv faoliyati" tushuniladi [3]. O`rganilgan adabiyotlar tahliliga ko`ra, uzluksiz ta`limning uchta asosiy elementini ko`rishimiz mumkin:

- iqtisodiy taraqqiyot va rivojlanishga, odamni mehnatga tayyorlashga qaratilgan ta`lim (asosiy yo`nalish - professional kompetensiyalarni shakllantirish);
- shaxsiy rivojlanish (shaxsni rivojlantirish) va o`zini takomillashtirishga qaratilgan ta`lim;
- shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi va ijtimoiy moslashuvchan xatti-harakatlarni namoyon etishiga qaratilgan ta`lim.

Shuningdek, ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan uzluksiz ta`lim ikki tomonlama jarayon sifatida ko`riladi. Bir tomondan, bu insonning professional muhitga kirishi, u tomonidan insoniyat tomonidan to`plangan tajribani (shu jumladan, professional) o`zlashtirishi, standartlar va qadriyatlarni egallashi; ikkinchi tomondan, bu o`zini faol amalga oshirish, uzluksiz professional o`z-o`zini rivojlantirish, o`z-o`zini takomillashtirish jarayonidir. Uzluksiz ta`limni amalga oshirish jarayonida jamiyat ehtiyojlarini (insoniyat naslini davom ettirish va madaniy tajriba va qadriyatlarni uzatish ehtiyoji), korxonalar (inson kapitalini qayta tiklash ehtiyoji) va shaxsning (o`zini o`zi amalga oshirish, ijod qilish, dunyoni bilish, jamiyatda tan olinishga erishish ehtiyojlari) qondirilishiga muvozanatni ta`minlaydigan sharoitlar yaratilishi kerak. Ta`kidlash joizki, ushbu jarayonning natijasi sifatida quyidagilarni ko`rish mumkin:

– Ijtimoiy-madaniy tajribani keyingi avlodlarga uzatishga tayyor insoniyat vakili;

– Doimiy yuqori malakaga ega, yuqori murakkablik, sifat va unumdorlikdagi mehnatga qodir, o`z-o`zini o`qitish, professional harakatchanlikka ega, korxona daromadlarini oshiradigan sifatli yangi xodim;

– Ijtimoiy makonda moslashuvchan, o`zgarishlarga ochiq, rivojlanishga va o`zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishga tayyor, o`zini o`zi nazorat qilish, o`zini o`zi tartibga solish, o`zini o`zi tarbiyalash bilan ajralib turadigan, ijod qilish, yangiliklar kiritish, innovatsiyalarga qodir shaxs daxldor shaxs hisoblanadi.

Alohida ta`kidlash joizki, ta`lim sohasida daxldorlik zamonaviy sharoitda juda muhim hisoblanadi. Chunki innovatsiyalarni yarata oladigan va joriy eta oladigan shaxs shaxsiy ehtiyojlarini, tashkilotning insoniy kapitalni oshirish ehtiyojlarini va jamiyatning yangi insoniy tajribani takrorlash va rivojlantirish ehtiyojlarini qondiradi.

Talabalarning uzluksiz ta`limga daxldor etilishining paydo bo`lishi va rivojlanishi va uning keyingi transformatsiyasi muayyan ijtimoiy sharoitda sodir bo`ladi. Daxldorlik muhim yaqinlar va murojaat guruhlari (ota-onalar, o`qituvchilar, tengdoshlar va boshqalar) bilan o`zaro munosabat va

muloqot paytida paydo bo`ladi. Kasbiy shakllanish doimo ijtimoiy sharoit bilan bogliq. Uzluksiz ta`limga daxldorlik boshqa talabalar, o`qituvchilar va ta`lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etish bilan tavsiflanadi.

D. Vekkaylaning ishida taqdim etilgan daxldorlik tavsifida talabalarning daxldorligi energiya, fidoiylik va ishga berilish bilan tavsiflanadi. Faoliyatni bajarishda o`zida energiya his qilgan talaba yuqori darajadagi ishtiyoq, o`z ishiga vaqt va kuch sarflashga tayyorlikni his qiladi, hamda muammo va qiyinchiliklarga duch kelganda ham qat`iylik bilan muammolarni yenga oladi.[7]. Shuningdek, daxldor talaba o`zining samaradorligini ijobiy qabul qiladi. Fidoiylik, o`z navbatida, talabaning o`qish va amaliyot imkoniyatlariga kuchli psixologik jalb etilishiga, ahamiyat, ishtiyoq, ilhom, faxr va chaqiriq hissi bilan birga bogliq. Ishga berilish esa, aynan talabaning umumiy konsentratsiyasi va uning faol faoliyatga qo`shilishiga tegishli bo`lib, vaqtning tez o`tishi va o`z ishini to`xtatishning qiyinligi hissi bilan tavsiflanadi.

D. Vekkayla shu bilan birga **daxlsizlik holatiga** alohida e`tibor qaratadi. Talabalarning daxlsizligi passivlik va uzoqlashuvda namoyon bo`ladi, ular ta`lim muhitida ko`zda tutilgan turli imkoniyatlardan foydalanmaydilar. Daxlsizlik, shuningdek, energiya pastligi, faollikning pasayishi va samarasizlik tajribasi bilan tavsiflanadi. Talabalarda ta`lim faoliyati davomida zo`riqish va charchoq, ta`lim jarayoniga qiziqishning yo`qligi va ta`lim olish o`z ahamiyatini yo`qotganligi hissi paydo bo`ladi. Daxlsizlik tajribasi kompetentsizlik hissi va o`z samaradorligiga ishonchning pasayishi bilan birga keladi. Daxlsizlik shaxsning ijodiy salohiyatini to`liq ro`yobga chiqarishga to`sqinlik qiladi.

Agar daxldorlik faollik, konstruktivlik, talabalarning ta`lim muhiti taqdim etadigan imkoniyatlar va amaliyotlarga ongli munosabati bilan tavsiflansa, daxlsizlik, o`z navbatida, passivlik, disfunksionallik, uzoqlashuv bilan tavsiflanadi. Daxldorlik va daxlsizlikning xususiyalarini quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin:

Daxldorlik	**Daxlsizlik**
Ilmiy tadqiqotlar va boshqa faoliyatlar hamda amaliyotlarda faol ishtirok etish va qatnashish	Ilmiy tadqiqotlar va boshqa faoliyatlar hamda amaliyotlarga nisbatan passivlik va chetlashish
Energiya: samaradorlik hissi	Jarayonning samarasizligi va yetarli emasligi hissi
Tadqiqotlarda o`zini bagishlash va fidoiylik	Ilmiy jarayonga fidoiylikning yo`qligi va undan uzoqlashish
Chuqur kirishib ketish	Jarayonlardan chetlashish
Zavq va ilhom olish	Past energiya, holdan toyish
Muhimlik va qoniqish	Befarqlik va apatiya
Qiyinchiliklarga duch kelganda chidamlilik	Muammolarga duch kelganda muvaffaqiyatsizlik
O`quv jarayonini ichki tartibga solish	Ta`lim jarayonini tashqi tomondan tartibga solish

Ta`kidlash joizki, bu jihatlar uzluksiz ta`limga daxldorlikni ham tavsiflaydi. Bizning fikrimiz-cha, uzluksiz ta`limga daxldorlik insonning kasbiy shakllanishi va shaxsiy rivojlanishi bilan bogliq, umr bo`yi davom etadigan yaxlit ijtimoiy-psixologik hodisa sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, mavzu bo`yicha tahlil qilingan tadqiqotchilar ilmiy yondashuvlarini hisobga olgan holda ta`kidlash joizki, uzluksiz ta`limga daxldorlik ko`p qamrovli jarayon bo`lib, u ta`limning o`zi, uning mazmuni, shakli, sifati va samaradorligi, shuningdek, shaxsning kasbiy yo`li haqidagi tushunchalar, munosabatlar, tajribalar, motivlarlarni o`ziga qamrab oladi. Shu bilan birga, uzluksiz ta`limga daxldorlik shaxsning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan faoliyatning ajralmas qismidir, ta`limning shaxs uchun yuqori ahamiyatga ega bo`lishi va unga yuqori qiymat berilishi bilan tavsiflanadi. Uzluksiz ta`limga daxldorlik o`quv faoliyatiga talabalar tomonidan sarflangan jismoniy va ruhiy energiyaning miqdori bilan belgilanadi. Daxldorlikning tashqi ifodasi yuqori xulq-atvor faolligidir. Ta`limga daxldorlik bilim oluvchining ta`lim faoliyatiga kirishish jarayonida paydo bo`ladi, ma`lum bir ijtimoiy kontekstga kiritilgan, ijtimoiy va kasbiy moslashuv jarayonini kuzatib boradi va ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karpov A.V., Karpova Ye.V. Eksperimentalnoe issledovanie vzaimosvyazi intensivnosti motivatsii i strukturnoy organizatsii kognitivnoy sferi lichnosti // Eksperimental`naya psixologiya. 2016. T. 9. № 4. S. 59—67. doi:10.17759/exppsy.2016090405

2. Kiseleva N.V. Vovlechennost obuchayushiixsya v neprerivnoe obrazovanie na raznix etapax obrazovatelnogo protsessa [Elektronnыy resurs] // Psixologiya i Psixotexnika. 2017. № 4. S.74-81. doi: 10.7256/2454-0722.2017.4.24659

3. Litvinova Ye.YU.Kiseleva N.V. Strukturnaya model vovlechennosti obuchayushixsya v neprerivnoe obrazovanie // Sotsialnaya psixologiya i obshestvo. 2016. T. 7. № 3. S. 5—17. doi: 10.17759/sps.2016070301

4. Litvinova Ye.YU., Kiseleva N.V. Vovlechennost` v professionalnuyu sredu i yee znachenie dlya neprerivnogo obrazovaniya // Sotsialnaya psixologiya i obщestvo. 2017. T. 8. № 2. S. 5—20. doi:10.17759/sps.2017080201

5. Pogodina A.V., Litvinova Ye.YU., Xarchenko M.A. Kompetentnostniy podxod k podgotovke organizatsionnix psixologov v kontekste reformirovaniya sistemы visshego professionalnogo obrazovaniya // Sotsialnaya psixologiya i obshestvo. 2016. T. 7. № 1. S. 108—122. doi:10.17759/sps.2016070108

6. Saf`yan N.V. Vovlechennost obuchayuщegosya v neprerivnoe obrazovanie kak sotsialno-psixologicheskiy fenomen // Molodie uchenie — stolichnomu obrazovaniyu: tezisi gorodskoy nauchno-prakticheskoy konferensii MGPPU XIV (g. Moskva, 15 marta 2015 g.). M: GBOU VPO MGPPU, 2015. S. 160—162.

7. Barabanщikova V.V., Klimova O.A. Predstavleniya o vovlechennosti v rabotu i trudogolizme v sovremennыx psixologicheskix issledovaniyax // Natsionalniy psixologicheskiy jurnal. 2015. № 1(17). S. 52—60.

9. Denisova L.E. Organizatsionno-pedagogicheskie mexanizmi formirovaniya mnogourovnevoy modeli neprerivnogo professionalnogo obrazovaniya v usloviyax korporativnogo setevogo vzaimodeystviya: magisterskaya dissertatsiya, M. 2014.

10. Kamzanova A.T. Psixologicheskie osobennosti vovlechennosti v reshenie kognitivnix zadach: dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni doktora filosofii po spesialnosti psixologiya, Kazaxstan, Almati. 2011. 150 s.

11. Litvinova Ye.YU. Neprerivnoe obrazovanie v kontekste professionalnogo i lichnostnogo rosta // Sb. nauchnix materialov I Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Sotsialnaya psixologiya v obrazovatelnom prostranstve». M.: GBOU VPO MGPPU, 2013. S. 32—33.

12. Maloshonok N. Studencheskaya vovlechennost: pochemu vajno izuchat protsess obucheniya, a ne tolko yego rezultat? // Monitoring universiteta, 2011, № 6. S. 11—21.

13. Maloshonok N.G. Vovlechennost studentov v uchebniy protsess v rossiyskix vu zax // Visshee obrazovanie v Rossii. 2014. № 1. S. 37—44.

14. Osin Ye.N. Kategoriya otchujdeniya v psixologii obrazovaniya: istoriya i perspek- tivы // Kul`turno-istoricheskaya psixologiya. 2015. T. 11. № 4. S. 79—88.

15. Saf`yan N.V. Vovlechennost` obuchayuщegosya v neprerыvnoe obrazovanie kak sotsial`no-psixologicheskiy fenomen // Molodыe uchenыe — stolichnomu obrazovaniyu: tezisы gorodskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. MGPPU XIV. M: GBOU VPO MGPPU, 2015. S. 160—162.

16. Sovremennaya psixologiya motivatsii / Pod red. D.A. Leont`eva. M.: Smыsl, 2002. 343 s.

17. Fedorova N.A. Kontrol`no-diagnosticheskaya deyatel`nost` prepodavatelya vuza kak sredstvo upravleniya protsessom obucheniya studenta: Avtoref. diss. … kand. ped. nauk. Tver`, 2011.

18. Admiraal W., Wubbels T., Pilot A. College teaching in legal yeducation: Teaching method, students` time-on-task and achievement // Research in Higher Yeducation. 1999. Vol. 40. № 6. P. 687—704.

Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc)
E-mail: mamatqulovdavlatjon@gmail.com

OLIY TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELEKT OMILI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya. *Oliy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) omilining o‘rni bugungi kunda ta’lim tizimi uchun eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining tezkor rivojlanishi o‘qitish jarayoniga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijobiy tomondan, SI yordamida shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish, bilimlarni testlash va baholashning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish, o‘quv materiallarini raqamlashtirish va interaktiv shaklda taqdim etish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, SI ta’lim sifatini oshirish, talabalarni o‘z vaqtida kuzatish va individual o‘quv dasturlarini qo‘llab-quvvatlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, sun’iy intellektning oliy ta’limga joriy etilishida bir qator muammolar ham mavjud. Ulardan eng muhimlari – akademik halollikning buzilishi, talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining pasayishi, axloqiy va huquqiy me’yorlarning buzilishi, shuningdek, inson omilining ta’lim jarayonida ikkinchi planga tushib qolishidir. Ushbu maqolada sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi, yuzaga kelayotgan muammolarning ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Xulosa qilib aytganda, SI oliy ta’lim tizimida samaradorlikni oshirish imkonini beruvchi kuchli vosita bo‘lib xizmat qilsa-da, uni qo‘llashda muvozanat va insoniy qadriyatlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, sun’iy intelekt, ilmiy texnika taraqqiyoti, ilmiy texnika inqilobi, avtomatlashtirilgan baholash, mexanik o‘qitish, ustoz-shogird munosabati, tanqidiy fikrlash, individuallashtirish, virtual assisent, oliy ta’lim inklizivligi, plagiat, axloqiy me’yorlar.*

ФАКТОР ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. *Фактор искусственного интеллекта (ИИ) в процессе высшего образования сегодня является одной из наиболее актуальных тем для мировой и национальной системы образования. Стремительное развитие технологий ИИ оказывает как положительное, так и отрицательное воздействие на образовательный процесс. Среди преимуществ можно выделить возможность персонализированного обучения, автоматизацию контроля знаний и оценивания, цифровизацию учебных материалов и представление их в интерактивной форме. Искусственный интеллект помогает повысить качество обучения, своевременно отслеживать прогресс студентов и поддерживать индивидуальные образовательные траектории. Вместе с тем, существуют и проблемы: нарушение академической честности, снижение уровня самостоятельного мышления студентов, этические и правовые вызовы, а также риск вытеснения человеческого фактора из образовательного процесса. В статье анализируются основные преимущества и ограничения применения ИИ в системе высшего образования, рассматриваются социально-психологические и педагогические особенности возникающих проблем, а также предлагаются пути их решения. Делается вывод о том, что искусственный интеллект может служить мощным инструментом повышения эффективности обучения, однако его использование требует баланса, контроля и сохранения гуманистических ценностей.*

Ключевые слова: *высшее образование, искусственный интеллект, научно-техническое развитие, научно-техническая революция, автоматизированная оценка, механическое обучение, отношение учитель-ученик, критическое мышление, индивидуализация, виртуальный ассистент, инклюзивность высшего образования, плагиат, этические нормы.*

THE FACTOR OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. *The role of artificial intelligence (AI) in higher education has become one of the most pressing issues for both global and national educational systems. The rapid advancement of AI technologies influences the learning process in both positive and negative ways. On the positive side, AI provides opportunities for personalized learning, automation of knowledge assessment and grading, digitalization of educational materials, and the delivery of interactive learning resources. It also contributes to improving the quality of education, monitoring students' progress in real time, and supporting individual learning pathways. However, the integration of AI into higher education also presents challenges. These include academic dishonesty, the decline of students' independent critical thinking skills, ethical and legal concerns, and the risk of reducing the importance of the human factor in teaching and learning. The article analyzes the advantages and limitations of AI use in education, explores the socio-psychological and pedagogical dimensions of the challenges it creates, and provides recommendations for addressing them. In conclusion, AI is seen as a powerful tool for enhancing efficiency in higher education, but its implementation requires careful balance, adherence to ethical principles, and the preservation of humanistic values in the learning process.*

Key words: *higher education, artificial intelligence, scientific and technological development, scientific and technological revolution, automated assessment, mechanical learning, teacher-student relationship, critical thinking, individualization, virtual assistant, inclusivity in higher education, plagiarism, ethical standards.*

Kirish. Bugungi kunga qadar axborot uzatish vositalarining rivoj topishiga ikki omil: Ilmiy texnika taraqqiyoti (ITT) hamda Ilmiy texnika inqilobi (ITI) kuchli ta'sir ko'rsatdi. ITT ibtidoiy davrdan – XX o'rtalariga qadar davom etgan bo'lib, u:

jismoniy kuchga asoslangan texnikani paydo bo'lishi va rivojlanishi (uchi o'tkirlangan tosh qurollar, nayza, kamon, qo'l-tosh tegirmoni kabilar);

tabiat kuchiga asoslangan texnikani paydo bo'lishi va rivojlanishi (suv va shamol tegirmonlari, yelkanli kemalar);

mexanik kuchiga asoslangan texnikani paydo bo'lishi va rivojlanishi (bug' va ichki yonuv divigatellari asosida ishlovchi texnikalar)ni o'z ichiga oladi.

ITI esa, XX o'rtalaridan hozirgacha bo'lgan davrda:

jamiyat hayotiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarni kirib kelishi (radio, telegraf, telefon, televideniya kabilar);

axborotni moddiy qiymatga ega bo'lishi va uning psixologik ta'sirni kuchayishi (axborot pul bilan o'lchanishi, reklama xizmati va blogerlik faoliyatining ommalashuvi);

texnika sanoati va ijtimoiy hayotning robotlashuvi va sun'iy intelekt (robot ofitsiant, ChatGPT, DeepSeek, xAI Grok, Google Gemini) kabilar yuzaga keldi [2].

Sun'iy intellekt ko'plab sohalar qatori oliy ta'lim jarayonida ham inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Jumladan, uning amaliyotga tatbiqi talabalar uchun shaxsiylashtirilgan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash va tahlil vositalari, virtual yordamchilar, til o'rganish, va tadqiqot ishlarini soddalashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Bundan buyon sun'iy intellekt oliy ta'lim muassasalari uchun strategik qarorlar qabul qilish, administrativ ishlarni avtomatlashtirish, dars jarayoni: ma'ruza va amaliy darslarda talabalarning kreativlik va muammo hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi jarayonlarda faol ishtirok etadi. Darhaqiqat, oliy ta'limni zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishda sun'iy intellektning o'rni bebaho. Lekin, oliy ta'lim jarayonida sun'iy intellektning ijobiy roli e'tirof etilsada, uning salbiy ta'sirini ham unitmaslik lozim.

Tadqiqotlarga ko'ra, oliy ta'lim jarayonida sun'iy intelekt omili quyidagi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular,

birinchidan, sun'iy intelekt omili ta'lim olish jarayonida talabalarning ijtimoiy munosabatlarini cheklashi, guruhda ishlash qobiliyatini susaytirishi mumkin,

ikkinchidan, sun'iy intelekt orqali shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish xavfi, plagiat va boshqa axborotlar maxfiyligining buzilish ehtimoli ortadi;

uchinchidan, avtomatlashtirilgan baholash sistemalari talabalarning ijodiy va murakkab fikrlash qobiliyatini to'liq baholamasligi, va mexanik o'qitishning ko'payishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi;

to'rtinchidan, sun'iy intelekt ta'sirida kasblarga bo'lgan talabning o'zgarishi oliy ta'lim shakli va mazmuniga kuchli ta'sir etadi, bu esa sohadagi ko'plab xodimlarni ishsiz qolishiga olib keladi;

beshinchidan, sun'iy intelekt ta'sirida ta'limning mexanikalashuvi: oliy ta'limda ustoz-shogird munosabatlari hamda talabalarning ijodiylik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini susayishiga olib keladi [3].

Darhaqiqat, endilikda oliy ta'limda ming yillar davomida tabiiy intelekt asoslariga qurilgan munosabatlar o'zgarishga uchraydi. Sun'iy intelekt ta'sirida yuzaga keladigan bu o'zgarishlar ta'lim dasturlarini shakllantirish, o'qitish metodikalari, baholash tartiblaridan tortib, mualliflik kurslari, ustoz-shogird an'analari, ilmiy maktablargacha o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hozirgi davr oliy ta'limga sun'iy intellektni kirib kelishining start davri bo'lib, uni salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun, ushbu davrda oliy ta'limda sun'iy intelektni qo'llash bilan bog'liq ko'plab chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Bizningcha, sun'iy intellekt Oliy ta'lim jarayoniga salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: Bunda avvalo, oliy ta'lim tashkilotining konfidensial axborotlarini, professor-o'qituvchilar hamda talabalarning shaxsiy ma'lumotlarini muhofaza qilish, qat'iy me'yorlar va maxfiylik siyosatini yuritish;

ikkinchidan, kadrlarni qayta tayyorlash, ularni sun'iy intelekt bilan bog'liq yangi ish muhitiga adaptatsiya qilish, professor-o'qituvchilar mahoratini oshirish, ularni faoliyati orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim metodikalarini ishlab chiqish;

uchinchidan, talabalarni guruhda ishlash va inson bilan muomala qobiliyatlarini rivojlantiruvchi loyiha va dars shakllarini saqlab qolishga intilish;

to'rtinchidan, oliy ta'lim jarayoniga sun'iy intelektning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ilmiy va innovatsion yechimlarga oid tadqiqotlarni rivojlantirish zarur bo'ladi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar orqali oliy ta'lim jarayonida sun'iy intelektning salbiy ta'sirlarini kamaytirish hamda uning ijobiy ta'siridan unumli foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Ta'kidlash kerakki, sun'iy intellektdan oqilona foydalanilsa, u oliy ta'lim samaradorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Xususan, oliy ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan oqilona foydalanish:

ta'limni yanada individuallashtirish, ya'ni talabalarning aniq individual xususiyatlariga moslashtirilgan o'quv materiallari ishlab chiqish;

ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, manbalardan samarali foydalanish orqali professor-o'qituvchilar ish yuklamasini kamaytirish, ularni ilmiy-pedagogik ijodiga qulay muhit yaratish;

talabalar uchun 24/7 yordam ko'rsatish imkonini beradigan virtual assisent yordamchilar faoliyatini yo'lga qo'yish;

avtomatlashtirilgan baholash, ya'ni talabalarning ta'limiy faoliyati natijalari: testlar va esselarni tezkor va ob'ektiv baholash;

ilmiy tadqiqotlarni tez va aniq amalga oshirish, yangi ilmiy yangiliklarni samarali tarzda qo'lga kiritish;

katta xajmli ma'lumotlarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim boshqaruviga oid strategiya va siyosatni takomillashtirib borish;

onlayn ta'lim vositalarini yaratish orqali oliy ta'limning ijtimoiyligini kengaytirish, jumladan nogironligi bor talabalar uchun moslashtirilgan ta'lim resurslarini kengaytirish orqali oliy ta'limni inklizivligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, sun'iy intellekt oliy ta'lim jarayonini tom ma'noda o'zgartirish qudratiga ega. Uning ijobiy ta'sirlari, jumladan individuallashtirilgan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash va giper ma'lumotlar asosida tezkor qaror qabul qilish, ta'lim samaradorligi, sifati va qamrovini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt virtual yordamchilar,

masofaviy ta’lim, innovatsion tadqiqotlar va inklyuziv ta’lim masalalarida ham katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Biroq, oliy ta’lim jarayoniga sun’iy intellektning salbiy ta’siri ham juda jiddiy xarakterga ega bo‘lib, u oliy ta’lim sub’ektlarida ijtimoiy mahoratlarning pasayishi, shaxsiy axborotlar xavfsizligi, ijodiy ta’lim ko‘nikmalarining pasayishi va plagiat kabi axloqiy masalalarda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda oliy ta’limga sun’iy intellektning salbiy ta’siri bilan bog‘liq jarayonga doimo e’tibor qaratish, bunday holatlarni bartaraf etish va axloqiy me’yorlarni saqlash uchun faol kurashish zarurdir [4].

Yuqoridagi fikr va xulosalar asosida oliy ta’lim jarayonida sun’iy intelekt omilidan oqilona foydalanish yuzasidan quyidagilarni amaliy tavsiya sifatida keltirish mumkin:

Birinchidan, endilikda oliy ta’lim tashkilotlari faqat akademik ta’lim faoliyati bilangina cheklanib qolmay, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ham katta e’tibor qaratishi, jumladan, sun’iy intellektning oliy ta’lim jarayoni ta’sirini tahlil qilishga doir tadqiqotlarni amalga oshirishi, ya’ni sun’iy intellektning o‘quv jarayoni, talabalar faoliyati va ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganib borishi;

Ikkinchidan, oliy ta’lim tashkilotida sun’iy intellekt bilan bog‘liq zamonaviy infratuzilmani yaratishi, ya’ni kutubxona va laboratoriyalarni sun’iy intellekt texnologiyalari va insturmentalari bilan ta’minlashi, talabalar va professor-o‘qituvchilarni ulardan samarali va maqsadli foydalanishga o‘rgatishi;

Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sohalar orasida hamkorlikni rivojlantirishi, bunda konferensiya, seminar va treninglar tashkil etish orqali, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik soha vakillari orqali sun’iy intellektning ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik hamda shaxslararo munosabatlarga ta’sirini oliy ta’lim qatnashchilariga tushuntirib borishi shular jumlasidandir.

Xullas, sun’iy intellekt oliy ta’limni jarayonini tashkil etish, individuallashtirilgan ta’lim va avtomatlashtirilgan baholashni ta’minlashda katta imkoniyatlarga ega. Biroq, u yuqorida ko‘rganimizdek oliy ta’lim sub’ektlarining ijtimoiy mahorati, shaxsiy axborot xavfi va ijodiy ko‘nikmalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Istiqbolda oliy ta’lim tashkilotlari sohada sun’iy intellektning salbiy ta’sirini kamaytirish, undan samarali foydalanish uchun ilmiy tadqiqot olib borishlari hamda oliy ta’lim jarayonida ijtimoiy aloqalarni yaxshilash va axloqiy me’yorlarni saqlashga qaratilgan zamonaviy infratuzilma yaratishlari lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.10.2024 y., 07/24/358/0825-son.

2. Mamatkulov D.M. Axborot xavfsizligi psixologiyasi. – Toshkent: JXU nashriyoti, 2025. – 9-bet.

3. Mueller, J., & Sienkiewicz, M. “Artificial Intelligence in Higher Education: A Review of the Literature”. // Journal of Studies in Higher Education, 2022.

4. Резаев А.,В., Степанов А.,М.,Трегубова Н.,Д. Высшее образование в эпоху искусственного интеллекта. // Высшее образование в России. 2024. С. 49-62.

Shukurov Rahim Salimovich
Buxoro davlat universiteti professori p.f.f.d (PhD)
E-mail: rshukurov0117@gmail.com

TALABALARNI MILLIY SPORT TURLARIGA JALB ETISHNING INNOVATSION VA MOTIVATSION USULLARI (Turon kurashi misolida)

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning Turon yakka kurashiga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotda individual va differentsial ta'lim usullarini qo'llash, zamonaviy pedagogik motivatsiya va rag'batlantirish vositalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Milliy madaniy va tarbiyaviy omillar asosida yoshlarda milliy o'zlikni anglash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar beriladi. Zamonaviy o'quv-metodik vositalarni dars jarayoniga joriy etish, ijtimoiy va psixologik muhitni shakllantirish orqali talabalar orasida Turon yakka kurashiga qiziqishni kuchaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, qiziqishni aniqlash va baholash mezonlari asosida metodik yondashuv ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari orqali Turon kurashining tarbiyaviy, sport-sog'lomlashtirish va ma'naviy-ma'rifiy jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Turon yakka kurashi,jismoniy tarbiya, individual, differentsial, motivatsiya, rag'bat, qadriyat,usullar, muhit, metodika, omil.*

ПРИВЛЕЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ВИДАМ СПОРТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ И МОТИВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ (НА ПРИМЕРЕ ТУРОН-КУРЭША)

Аннотация. *В статье освещаются комплексные методические подходы, направленные на повышение интереса студентов к национальной единоборственной дисциплине Турон. В исследовании анализируется эффективность применения индивидуальных и дифференциальных методов обучения, а также современных педагогических средств мотивации и стимулирования. На основе национально-культурных и воспитательных факторов предлагаются практические рекомендации по формированию у молодежи национальной идентичности, здорового образа жизни и укреплению физической подготовки. Рассматриваются возможности усиления интереса студентов к Турон-курэшу через внедрение современных учебно-методических средств в образовательный процесс и создание благоприятной социальной и психологической среды. Также разработан методический подход на основе критериев выявления и оценки интереса. Результаты исследования раскрывают воспитательные, спортивно-оздоровительные и духовно-просветительские аспекты Турон-курэша.*

Ключевые слова: *Турон-курэш, физическое воспитание, индивидуальный, дифференциальный, мотивация, стимул, ценность, методы, среда, методика, фактор.*

INNOVATIVE AND MOTIVATIONAL METHODS OF ENGAGING STUDENTS IN NATIONAL SPORTS (ON THE EXAMPLE OF TURON WRESTLING)

Abstract. *The article highlights comprehensive methodological approaches aimed at increasing students' interest in the national martial art Turon. The study analyzes the effectiveness of applying individual and differential teaching methods, as well as modern pedagogical tools of motivation and encouragement. Based on national cultural and educational factors, practical recommendations are proposed for fostering national identity, promoting a healthy lifestyle, and strengthening physical preparedness among youth. Opportunities for enhancing students' interest in Turon wrestling are considered through the integration of modern educational-methodological tools into the learning process and the creation of a supportive social and psychological environment. A methodological approach has also been developed based on criteria for identifying and evaluating interest.*

The results of the study reveal the educational, sports-health-improving, and spiritual-enlightening aspects of Turon wrestling.

Key words: *Turon wrestling, physical education, individual, differential, motivation, encouragement, values, methods, environment, methodology, factor.*

Kirish. Turon yakkakurashi O'zbekiston hududida asrlar davomida shakllangan va rivojlangan jang san'ati bo'lib, o'zining noyob texnikasi, taktikalari va usullari bilan ajralib turadi. Ushbu yakkakurash turi nafaqat jangovar mahoratni oshirishga, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasida talabalarning jismoniy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Turon yakkakurashi, o'zbek xalqining boy tarixiy, madaniy va jangovar an'analariga asoslangan milliy yakkakurash turi bo'lib, ko'plab zamonaviy yakkakurash turlaridan o'zining kompleks texnik-taktik tuzilmasi bilan ajralib turadi.

Talabalarning sportga, xususan, Turon yakkakurashiga bo'lgan qiziqishini oshirish jismoniy tarbiya va sport ta'limining muhim vazifalaridan biridir. Qiziqish bu, har qanday faoliyatga bo'lgan ijobiy munosabat va unga jalb qilinish, motivatsiyaning asosiy omili hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishi ularning muntazam shug'ullanishi, jismoniy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Turon yakka kurashi milliy sport turi sifatida nafaqat jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash, balki madaniy meros va milliy g'ururni asrashda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, talabalarning ushbu sport turiga qiziqishini oshirish uchun samarali metod va usullarni aniqlash va tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodika.

V.P.Podolyako (2016) fikriga ko'ra, talabalarning jang san'atlariga qiziqishini oshirish uchun individual-differentsial yondashuv muhim hisoblanadi. Har bir talabaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va tayyorgarlik darajasi inobatga olinib, o'quv jarayonini moslashtirish qiziqishni kuchaytiradi. Bundan tashqari, quyidagi metodlar qiziqishni oshirishda samarali hisoblanadi:

-talabalarning individual maqsadlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish;

-qiyinchilik darajasini talabalarning imkoniyatlariga mos ravishda boshqarish;

-rag'batlantirish va ijobiy baholash orqali motivatsiyani oshirish;

-amaliy mashg'ulotlarda raqobat va hamkorlik muhitini yaratish;

- jang san'atlarining madaniy va tarixiy ahamiyatini tushuntirish orqali talabalarda milliy g'urur va qiziqishni uyg'otish.

Bunday yondashuvlar talabalarning sportga bo'lgan ijobiy munosabatini oshirib, ularni doimiy shug'ullanishga undaydi.[5]

V.A.Gordeev va G.I.Deryabinalarning fikricha, sportchilarining o'quv-mashg'ulot bosqichida sport motivatsiyasini shakllantirish jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Motivatsiyani rivojlantirish uchun individual yondashuv, maqsadlarni aniqlash va rag'batlantirish tizimlarini qo'llash zarur. Shuningdek, motivatsiyani kuchaytirishning samarali pedagogik usullar shugullanuvchilarning sportga bo'lgan qiziqishini va natijadorligini oshirishga yordam beradi [2].

Talabalarning Turon yakkakurashiga bo'lgan qiziqishini oshirish bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi sohasida dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois, Turon yakkakurashiga qiziqishni oshirish jarayonida bir nechta muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

1. Individual yondashuv va differentsial ta'lim

Talabalarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va o'zlashtirishi turlicha bo'lishini inobatga olib, mashg'ulotlarni shunga moslashtirish qiziqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar uchun murakkablik darajasini bosqichma-bosqich, osondan-murakkabga oshirib borish, ularning qobiliyatlarini to'g'ri aniqlash va mashg'ulotlarni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish samarali o'quv jarayonini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida talabalrni qiziqtiradi va ularning Turon yakka kurashiga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi.

2. Motivatsiya va pedagogik rag'batlantirish

Sport motivatsiyasi, talabalarni sport faoliyatiga jalb qilish, ularni muntazam shug‘ullanishga undashda muhim omildir. Masalan, V.A.Gordeyev va boshqalar (2016) fikriga ko‘ra, o‘quv-mashg‘ulot jarayonida aniq maqsadlar qo‘yish, ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimini joriy etish sportchilarning qiziqishini oshiradi. Shuningdek, ijobiy baholash, tan olinishi, raqobat muhitini yaratish va o‘zaro hamkorlik qiziqish va motivatsiyani mustahkamlaydi.

Motivatsiya va pedagogik rag‘batlantirishning yana bir jihati shundaki, o‘qituvchilar, murabbiylar tomonidan talabalarning yutuqlari va erishgan natijalarining e’tirof etilishi, shuningdek, muvaffaqiyatlarining nishonlanishi talabalarni yanada faolroq bo‘lishga undaydi.

3. Milliy madaniy va tarbiyaviy omillar

Turon yakkakurashi milliy sport turi sifatida yoshlar orasida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Talabalarga bu sport turining tarixiy ildizlari, madaniy ahamiyati va milliy g‘urur bilan bog‘liq jihatlari haqida ma’lumot berish, ularning milliy o‘zlikni anglashlariga yordam beradi. Milliy sport turlariga bo‘lgan hurmat va ehtirom, shuningdek, o‘z ona yurtining an’analarini asrashga bo‘lgan mehr-muhabbat yoshlarning qiziqishini oshiradi va ularni Turon yakka kurashiga ko‘proq jalb qiladi.

4. Zamonaviy o‘quv-metodik usullarni qo‘llash

Jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash qiziqishni oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Interaktiv mashg‘ulotlar, videoanaliz, simulatsiya va innovatsion o‘quv vositalari talabalar faoliyatini qiziqarli qiladi, mashg‘ulotlarni yanada samaraliroq va ta’sirchan qiladi. Bunday yondashuv yoshlarning sportga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirib, ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

5. Munta’zam jismoniy tayyorgarlik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish

Talabalarga muntazam jismoniy mashg‘ulotlar, ayniqsa Turon yakka kurashi orqali sog‘lom turmush tarzining ahamiyati tushuntirilishi lozim. Jismoniy faollikning kundalik hayotdagi ijobiy ta’siri haqida ma’lumot berish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish talabalar qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ularning nafaqat sport bilan shug‘ullanishga, balki hayotdagi ijobiy odatlar shakllantirishga ham undaydi.

6. Ijtimoiy va psixologik muhitni yaratish

Talabalar o‘rtasida ijobiy psixologik muhit, o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Jamoaviy ruh, o‘zaro hamkorlik, murabbiylar va talabalar o‘rtasidagi iliq munosabatlar qiziqishni oshirishda katta rol o‘ynaydi. Talabalarning erkin fikr bildirishlari, o‘zlarini erkin ifoda etishlari uchun sharoit yaratish ularning o‘zlarini qadrli his qilishlariga va mashg‘ulotlarga faolroq kirishishlariga yordam beradi.

Talabalarni Turon yakka kurashiga qiziqishini oshirishda integral yondashuv zarur bo‘lib, bunda individual-differentsial ta’lim, pedagogik rag‘batlantirish, milliy madaniy omillar, zamonaviy metodlar, sog‘lom turmush tarzining targ‘iboti va ijtimoiy-psixologik muhit dolzarb hisoblanadi. Bu omillarni kompleks tarzda qo‘llash talabalarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni Turon yakka kurashida yuqori natijalarga erishishga undaydi..

V.K.Makarenko (2008) ta’kidlaganidek, motivatsiya - bu insonning faoliyatga bo‘lgan ichki qiziqishi va maqsadlari natijasida yuzaga keladigan harakatga undovchi kuchdir [4].

Shuning uchun talabalarni qiziqishlarini oshirishda integral yondashuvlar muhim bo’lib, zamonaviy metodikalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Talabalarning Turon yakka kurashiga qiziqishini oshirish metodikasi (1-jadval).

1-jadval.

Talabalarning Turon yakka kurashiga qiziqishini oshirish metodikasi

Metodik yo‘nalish	Metodikaning maqsadi va asosiy vazifalari	Amaliy tavsiyalar	Misollar
Individual-differentsial yondashuv	Talabalar qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos-lashgan mashg‘ulotlar	Har bir talabaga indi-vidual mashg‘ulot re-	Yangi boshlovchilar uchun texnik hara-katlarni oddiyroq o‘rgatish, ilg‘orlar

	orqali ularning samara-dorligini oshirish.	jasi tuzish, qiyinlik da-rajasini bosqichma-bos-qich oshirish.	uchun murakkab kom-binatsiyalar.
Motivatsiyani rag‘batlantirish tizimi	Talabalarning sportga bo‘lgan ichki va tashqi motivatsiyasini kuchaytirish, ularni faol ishtirok etishga undash.	Muntazam musobaqalar tashkil qilish, eng faol talabalarni taqdirlash, sovrinlar berish.	Semestr yakunida “Eng faol sportchi” sovrini, haftalik eng yaxshi mashg‘ulot ishtirok-chisi tanlovi.
Interaktiv va innovatsion metodlar	Mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.	Video tahlil seanslari o‘tkazish, virtual re-alitetda harakatlarni takrorlash.	Mashg‘ulotdan keyin video orqali xatolarni ko‘rsatish, VR ko‘makida harakatlarni mashq qilish.
Milliy madaniyat va tarixni o‘rgatish	Turon kurashining madaniy va tarixiy aso-slarini talabalarga yet-kazish, milliy g‘ururni shakllantirish.	Tarixiy ma’ruzalar, madaniy tadbirlar tash-kil qilish, sport turi bi-lan bog‘liq an’analarni o‘rgatish.	Milliy sport festivallari, kurashning tarixi va yulduz sportchilar haqida ma’ruzalar.
Raqobat va jamoaviy muhit yaratish	Talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat va hamkorlikni rag‘batlan-tirish orqali ularni faoli-yatga jalb qilish.	Jamoaviy mashg‘ulotlar, o‘yinlar va turnirlar tashkil et-ish.	Talabalar o‘rtasida ja-moaviy kurash muso-baqalari, o‘yinlar va qiziqarli vazifalar.
Pedagogik maslahat va psixologik qo‘llab-quvvatlash	Talabalar ruhiyatini mustahkamlash va ularni mashg‘ulotlarda qatnashishga rag‘bat-lantirish.	Individual suhbatlar, motivatsion treninglar, stressni boshqarish mashqlari.	Murabbiy bilan shaxsiy maslahatlar, moti-vatsion seminarlar, relaksatsiya mashqlari.
Sog‘lom turmush tar-zini targ‘ib qilish	Talabalarda sog‘lom hayot tarzini shakllantirish va jis-moniy faollikni muntazam qilish.	Ovqatlanish, uyqu, dam olish bo‘yicha masla-hatlar berish; sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.	Sog‘lom ovqatlanish seminarlari, uyqu gi-gienasi bo‘yicha darslar, sportchilar uchun maxsus tavsiya-lar.
Talabalar faoliyatini monitoring qilish	Mashg‘ulotlarga qatnashuv va natijalarni doimiy ravishda baholab, o‘quv jarayonini yaxshilash.	Mashg‘ulotlarda qatnashish va na-tijalarni elektron jurnalga kiritish, muntazam tahlil o‘tkazish.	Haftalik qatnashuv hisobotlari, rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun grafiklar yarat-ish.

Talabalarning Turon yakka kurashiga qiziqishini oshirishga qaratilgan metodika bir qator muhim afzalliklarga ega bo‘lib, ularning samarali jismoniy tayyorgarligini ta’minlash bilan birga, sportga bo‘lgan motivatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birinchidan, metodika individual yondashuvni asos qilib oladi. Bu esa talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada, talabalar o‘z kuchiga ishonch hosil qilib, mashg‘ulotlarga faolroq jalb qilinadi.

Ikkinchidan, metodikada rag‘batlantirish va motivatsiyani oshirish tizimi yaxshi tashkil etilgan. Talabalar o‘z yutuqlari bilan tan olinishi, musobaqalarda ishtirok etishi orqali ichki va tashqi motivatsiyalar uyg‘unlashadi, bu esa ularning sportga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Uchinchidan, zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Video tahlil, interaktiv mashg‘ulotlar kabi usullar talabalar e’tiborini jalb etib, o‘rganuvchanlik darajasini oshiradi.

To‘rtinchidan, metodika milliy qadriyatlar va madaniyat asosida tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Turon yakka kurashining tarixiy ildizlari va uning ma’naviy-axloqiy ahamiyati yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga yordam beradi hamda ularni sportga ko‘proq jalb qiladi.

Beshinchidan, metodika doirasida jamoaviylik va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga katta e’tibor qaratiladi. Bu esa talabalar orasida mas’uliyat, yetakchilik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, metodika yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ham ko‘maklashadi. Jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish va psixologik barqarorlik bo‘yicha tavsiyalar ularning salomatligini mustahkamlaydi.

Oxirgi o‘rinlarda, metodika samaradorligini ta’minlash uchun doimiy monitoring va baholash tizimi joriy etilgan. Bu mashg‘ulotlarning sifatini nazorat qilish hamda talabalar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu metodika nafaqat talabalarni jismoniy tayyorlash, balki ularni ma’naviy, psixologik va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, Turon yakka kurashining ta’lim-tarbiya jarayonida samarali qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda talabalar o‘rtasida ushbu sport turiga bo‘lgan qiziqishni oshirish va uning samaradorligini baholash o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qiziqish darajasini tizimli ravishda aniqlash talabalar faoliyatini samarali tashkil etishga, metodikalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Turon yakka kurashiga bo‘lgan qiziqishni aniqlash va baholash metodikasi

Metod	Maqsad	Tavsif	Amaliy tavsiyalar/ Misollar	Afzalliklari
So‘rovnoma va anketalar	Qiziqish darajasini kvantitativ o‘lchash	Talabalarga Turon kurashiga qiziqishi, mashg‘ulotlarga qatnashish istagi haqidagi savollar beriladi	Maxsus tuzilgan savolnoma tarqatish; qiziqish darajasini ball bilan baholash	Katta guruhda tez va samarali o‘tkaziladi, natijalar oson tahlil qilinadi
Intervyu (suhbat)	Qiziqish sabablarini sifatli aniqlash	Talabalar bilan yuzma-yuz yoki guruh bo‘lib suhbat o‘tkazish, fikrlarini tinglash	Guruhli yoki individual suhbatlar; o‘zaro muloqot orqali motivatsiyani aniqlash	Fikrlar chuqurroq va to‘liq olinadi, subyektiv sabablar aniqlanadi
Kuzatuv usuli	Mashg‘ulotlardagi faoliyat va qiziqishni baholash	Mashg‘ulot jarayonida talabalar faolligi, ishtirok darajasi va kayfiyatini kuzatish	Mashg‘ulotlarda talabalar ishtirokini qayd etish; faol va passiv talabalarni ajratish	Amaliy faoliyat asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholash imkonini beradi
Psixologik testlar	Ichki motivatsiya va psixologik holatni aniqlash	Maxsus testlar yordamida sportga bo‘lgan qiziqish va	“Sport motivatsiyasi” testi; qiziqish darajasi	Psixologik komponentni aniq

		motivatsiyani o‘lchash	va stress darajasini aniqlash testlari	o‘lchash, individual farqlarni ko‘rsatadi
Faoliyat natijalarini tahlil qilish	Qiziqishning amaliy ifodasini baholash	Musobaqalar va mashg‘ulotlar natijalariga qarab talabalar qiziqishini aniqlash	Musobaqalarga qatnashish soni, natijalar o‘zgarishi va murabbiylar fikri asosida baholash	Amaliy natijalar asosida ob’yektiv baholash, rag‘batni aniqlash imkoniyati
Self-refleksiya usuli	Talabaning o‘z qiziqishini anglash	Talabalar o‘z faoliyati, qiziqishi va motivatsiyasi haqida yozma yoki og‘zaki fikr bildiradilar	Kundalik yoki esselar yozish; o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish	Talabaning ichki holatini anglash, shaxsiy fikrlarni aniqlash imkonini beradi

Talabalarning Turon yakka kurashiga bo‘lgan qiziqishini aniqlash va baholashda kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bular bir nechta metodlarning uyg‘unlashtirilgan tarzda qo‘llanilishini talab etadi (1-jadvalga qarang). Keltirilgan metodlar yordamida talabalar o‘rtasida mazkur sport turiga nisbatan mavjud bo‘lgan ichki va tashqi motivatsiya, faoliyatdagi ishtirok darajasi hamda psixologik holati to‘g‘risida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin.

So‘rovnoma va anketalar yordamida talabalar orasida Turon kurashiga bo‘lgan umumiy qiziqish darajasi kvantitativ (sonli) ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi. Maxsus tuzilgan savolnomalar orqali ularning sportga bo‘lgan munosabati, mashg‘ulotlarga qatnashish istagi va shaxsiy fikrlari baholanadi. Bu metod katta guruhda tezkor tarzda amalga oshirilishi va statistik tahlilga qulayligi bilan ajralib turadi.

Intervyu (suhbat) usuli orqali talabalar bilan individual yoki guruhli shaklda muloqot olib borilib, ularning qiziqishiga sabab bo‘layotgan omillar, motivatsiya manbalari va subyektiv qarashlari aniqlanadi. Bu sifatli tadqiqot usuli bo‘lib, chuqurroq va noaniq omillarni tushunishga xizmat qiladi.

Kuzatuv usuli mashg‘ulotlar davomida talabalar faolligi, ishtirok darajasi, tashabbus ko‘rsatishi, kayfiyati kabi tashqi belgilar orqali baholash imkonini beradi. Bu metod bevosita amaliy faoliyatga asoslangan bo‘lib, talabani atrof-muhitdagi harakatlari orqali real sharoitda tahlil qilish imkonini beradi.

Psixologik testlar yordamida talabalarning ichki psixologik holati, sportga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqish darajasi chuqurroq aniqlanadi. Masalan, “sport motivatsiyasi” yoki stressga chidamlilik testlari orqali individual farqlar ochib beriladi va bu o’qituvchi va murabbiylarga aniq tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Faoliyat natijalarini tahlil qilish orqali talabalar ishtirokining real samarasini baholash mumkin. Masalan, mashg‘ulot va musobaqalardagi ishtiroki, yutuq natijalari, murabbiylarning baholari, qatnashish chastotasi orqali talabada qiziqishning amaliy ifodasi aniqlanadi. Bu metod ob’yektiv va dalillarga asoslangan baholashni ta’minlaydi.

Self-refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) usuli orqali talabalar o‘z fikr va his-tuyg‘ularini mustaqil tarzda yozma yoki og‘zaki shaklda ifodalaydi. Kundalik yuritish, esse yozish, mashg‘ulot haqidagi his-tuyg‘ularni baham ko‘rish orqali ular o‘z sporga qiziqishlarini anglaydi va bu o‘z-o‘zini anglash (metakognitiv) jarayonni faollashtiradi.

Shu tarzda, yuqorida bayon etilgan metodlar birgalikda qo‘llanganda talabalar qiziqishini aniqlash va baholashda kompleks, integratsiyalashgan yondashuvni ta’minlaydi.

Xulosa. Talabalarning Turon yakka kurashiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvlar samarali hisoblanib, individual va differentsial ta’lim usullarini qo‘llash, pedagogik motivatsiya va rag‘batlantirish vositalarini samarali integratsiyalash yoshlar orasida milliy sport turiga qiziqishni sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Milliy madaniy va tarbiyaviy omillarning rolini hisobga olgan holda, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va jismoniy

tayyorgarlikni kuchaytirish borasidagi amaliy chora-tadbirlar talabalar orasida milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘quv-metodik vositalar va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish orqali Turon yakka kurashiga bo‘lgan qiziqish va faol ishtirokni yanada rag‘batlantirish mumkin. Shuningdek, qiziqishni aniqlash va baholash mezonlari asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuv sport va tarbiya jarayonlarining sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Бурцева Е.В., Мартынова А.С., В.А. Критерии, показатели и методики измерения уровня развития спортивной культуры личности // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 11-5. – С. 1147-1151.
2. Гордеев В.А., Дерябина Г.И. Формирование спортивной мотивации дзюдоистов на учебно-тренировочном этапе // Гаудеамус. – 2016. – Т. 15. – № 2. – С. 104-108.
3. Ежкова А.Ю. Психолого-педагогическое обеспечение интереса к спортивной деятельности начинающих борцов: автореф. дисс. канд. пед. наук. – СПб., 2004.
4. Макаренко В.К. Формирование мотивации к занятиям физической культурой и спортом // Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. – 2008. – № 10. – С. 140-144.
5. Подоляко В.П. Организация обучения учащихся боевым искусствам на основе индивидуально-дифференцированного подхода // Гаудеамус. – 2016. – Т. 15. – № 1. – С. 57-63.
6. Саидов Б.Х. Спортивное единоборство Турон: учебная программа. – Ташкент, 2005.
7. Саидов Б.Х., Хидоятов Б.У., Холходжаев О.Т. Типовая учебная программа по единоборству Турон (для всех видов спортивных учебных заведений). – Ташкент, 2019.
8. Shukurov R.S. Kurash mashg‘ulotlarida Turon yakkakurashini integratsiya qilish orqali talabalarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – 2025. – 5-son, may. – C. 203-210.
9. Shukurov R.S. Talabalarni jismoniy tayyorgarligini turon yakkakurashi vositasida oshirish metodikasi // Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning roli. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 2025 yil 14-15 mart. – C. 279-283.

Rahmonova Mahliyo Boymurodovna
Xalqaro innovatsion universiteti Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: rahmonovamahliyo75@gmail.com
Orcid:0009-0007-7402-9067

YOSHLARDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMINI O'RGANISHGA YO'NALGAN TADQIQOT METODLARI

Annotatsiya. *Shaxsda psixologik himoya mexanizmini shakllantirishning ijtimoiy-etnik asoslarini o'rganish metodlari tadqiqotni tashkil etish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilandi. Shu bois, zamonaviy psixologiya fanida keng qo'llanilayotgan tadqiqot metodlarining har biri shaxs psixologik himoya mexanizmlarini o'rganishga hizmat qilishi tabiiydir. Kuzatish, eksperiment, suhbat, faoliyat natijalarini tahlil qilish mazkur muammoni tadqiq etishning asosiy usullari hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Tadqiqot, ijtimoiy himoya, metod, kuzatish, eksperiment, suhbat, shaxs, empirik tadqiqot, kontent – analiz.*

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *Методы изучения социально-этнических основ формирования механизмов психологической защиты личности определялись исходя из особенностей организации исследования. Поэтому закономерно, что каждый из широко используемых в современной психологии методов исследования служит изучению механизмов психологической защиты личности. Наблюдение, эксперимент, интервью, анализ результатов деятельности являются основными методами изучения данной проблемы.*

Ключевые слова: *Исследование, социальная защита, метод, наблюдение, эксперимент, интервью, личность, эмпирическое исследование, контент-анализ.*

RESEARCH METHODS FOR STUDYING PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS IN YOUTH

Abstract. *The methods of studying the socio-ethnic foundations of the formation of psychological defense mechanisms in a person were determined based on the characteristics of the organization of the study. Therefore, it is natural that each of the research methods widely used in modern psychology serves to study the mechanisms of psychological defense of a person. Observation, experiment, interview, analysis of the results of activities are the main methods of studying this problem.*

Keywords: *Research, social protection, method, observation, experiment, interview, person, empirical research, content - analysis.*

Kirish. Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar tizimi dastlabki uslubiy shart-sharoitlar, shuningdek, butun empirik tadqiqotning maqsad va vazifalari va uning alohida bosqichlari bilan belgilanadi. Tadqiqotning tayyorgarlik va aniqlash bosqichlarida qo'yilgan vazifalar nazariy tahlil metodidan foydalanishni talab qiladi. Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish muammosining nazariy tahlili ilmiy tadqiqotlarda "ijtimoiy himoya" tushunchasini tavsiflash, psixologik himoyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning psixolog kasbiy faoliyatida namoyon bo'lish imkonini beradi. Tadqiqotning maqsad va vazifalariga ko'ra, shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini muvaffaqiyatli shakllantirishning sharti bo'lgan va tajriba ishlari natijasida shakllanishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlarni aniqlash zarur edi. Ko'rsatkichlarning yoshga bog'liq o'zgarishlarini o'rganish uchun longityud tadqiqot usullari va kesimlaridan foydalanildi. Longityud usuli uch yil davomida ko'rsatkichlarning o'zgarishini

o‘rganish uchun qo‘llanildi. Ushbu tadqiqot usulining afzalligi shundaki, olingan ma’lumotlar ko‘rsatkichlarining yoshga bog‘liq holda o‘zgarganligini aks ettirganligidadir. Kamchilik esa tadqiqotning uzoq davomiyligida va ko‘rsatkich farqlarning hissiy o‘zgaruvchanligi hissasini baholashdagi qiyinchiliklarda ifodalanadi.

Ko‘ndalang tadqiqotlar yordamida o‘rganish bizga turli yoshdagi sinaluvchilarni bir vaqtning o‘zida yoshga bog‘liq o‘zgarishlar qonuniyatlari haqidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Bu usulning afzalligi tadqiqotning nisbatan qisqa davomiyligi, katta yosh oralig‘i haqida darhol ma’lumot olish imkoniyatining mavjudligi va ko‘plab mavzularni o‘rganish imkoniyatiga egalikdir, bu bizga zamonaviy statistik usullarni qo‘llash imkoniyatini ham beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.

I. Yoshlarning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish muammosini o‘rganish usullari.

1.1. Yoshlarni psixologik himoya qilishning nazariy tahlili
1.2. Shakllantiruvchi tajriba
1.3. Ekspert baholash usuli
1.4. Kontent - analiz
1.5. Longityud tadqiqot
1.6. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash usullari

II. Shaxsning psixologik himoya mexanizmini o‘rganish usullari

2.1. Aniqlovchi tajriba
2.2.Kuzatuv
2.3.Suhbat
2.4.Ko‘ndalang kesish usuli
2.5. Plutchik–Kellerman va Kontening «Hayot Tarzi Indeksi» so‘rovnomasi
2.6. D. Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi ko‘rsatkichi» metodikasi

III. Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirishga ta’sir etuvchi shaxsiy xususiyatlarni o‘rganish usullari

3.1. USK diagnostikasi metodikasi
3.2. Shaxsni o‘rganishning differensial usuli
3.3. K. Tomas so‘rovnomasi
3.4. S. Rozensveygning Assotsiatsiya so‘ratli testi
3.5. Ketell so‘rovnomasi
3.6. K. Rodjers va R. Daymondlarning “Shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvini o‘rganish” usullari

Kuzatish usuli eksperimental tadqiqotning barcha bosqichlarida qo‘llanildi. Kiritilgan va kiritilmagan kuzatishlar talabalarning haqiqiy xulq-atvorini va ularning subyektiv o‘zaro munozarasini, shuningdek, "Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasi muammolari" maxsus kursini va boshqa psixologik fanlarni o‘rganish davomida olgan bilimlarini aniqlash, bu bilimlarni faoliyati va o‘zaro munosabatlarida qo‘llay olish imkoniyatini aniqladi.

Suhbat ilmiy tadqiqot metodi sifatida tajriba ishlarining barcha bosqichlarida qo‘llanildi. Talabalar shaxsining individual xususiyatlarini, faoliyat motivlarini va ularning hayotiy pozitsiyasini aniqlash maqsadida tashkil etildi. Maxsus kurs doirasida talabalar bilan guruh bo‘lib ishlash jarayonida suhbat metodidan takroran foydalanish talabalar shaxsi xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash va ularning dinamikasini belgilash imkonini berdi. Tadqiqotning shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi bosqichlarida o‘rganilayotgan xususiyatlarning dinamikasi ekspert baholari usuli yordamida o‘rganildi. Nazorat guruhidagi talabalar, kuratorlar va talabalarning ekspert baholari yordamida o‘quv faoliyati va shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladigan subyektlarning shaxsiy parametrlaridagi o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar olindi. shaxs dunyoni to'laqonli idrok etishdan himoya qiluvchi, g'oyalarni toraytiruvchi va buzuvchi to'siq sifatida ifodalaydi. Odam faqat xavfli axborotni qabul qiladi, keyinchalik u ham buziladi va ongda shaxs uchun eng qulay ko'rinishda qoladi. Eng xavfli axborotlar idrok qilinmaydi va o'zlashmaydi. Ammo psixologik himoya mexanizmlari inson tanasiga ijobiy ta'sir ham qilishi mumkin. Inson

ongini xavfli axborot oqimidan himoya qilib, mumkin bo'lgan maqsadga erishishni ta'minlaydi, muayyan konkret vaziyatni hal qilishga yordam beradi.[2]

Manbalarda qayd etilishicha, F.V. Bassin psixologik himoya muammosini ustuvor qo'ya bilgan olim hisoblanadi.

1. Uning fandagi xizmati shundaki, u himoya hodisasiga psixoanalizning artefakti sifatida emas, balki ilmiy tadqiqotning to'g'ri va operatsion imkoniyatlariga ega bo'lgan haqiqatdan mavjud ruhiy hodisa sifatida qaraydi. F.V. Bassin psixologik himoyaning ahamiyatini faqat o'ziga xos eksvizitli vaziyatlar bilan cheklamaydi, masalan, tadqiqotchilar Y. Savenko va F.E. Vasilyuklarning fikricha, himoya mexanizmlari o'z-o'zini aktualizatsiyalash jarayonida yuzaga keladi va bu jarayon murakkablashtirilgan vaziyatlar yoki "mumkin bo'lmagan holatlar" deb ataladi. Bu muammoni, ayniqsa, o'smirlik davrida, shuningdek, o'smirlikdan o'spirinlikka o'tish davrida o'rganish muhimdir. Aynan shu davrdan odam shaxs sifatida shakllanadi hamda dunyoqarashi kengayadi. Bu davrning eng muhim xususiyati o'z taqdirini o'zi belgilashi, kasb va hayot yo'lini tanlashi, o'z zimmasiga mas'uliyatni ola bilishi, jamiyatda va oilada yangi mavqeni egallashi bilan ahamiyatlidir. Kerakli hayotiy ko'nikmalarning yetishmasligi, xulq-atvor ko'nikmalarining yo'qligi, yangi qiyinchiliklarga dosh bera olmasligi, stressdan chiqa olmasligi o'smirni yanada kuchliroq emotsional zo'riqishga olib keladi. Bunday kuchli vaziyatlarda o'smir turli himoya shakllariga murojaat qiladi, kamdan kam hollarda destruktiv bo'ladi. O'smirlarning kam samara beradigan psixologik himoya usullaridan foydalanishi natijasida og'ishishning rivojlanishiga hamda deviantlikning namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkin. O’smirlarda himoya mexanizmlarini tadqiq qilish tadqiqot metodlaridan foydalaniladi.

Natijalar. Keltirilgan darajalar va mezonlar asosida ekspert baholash usulini amalga oshirish uchun ushbu himoya darajalarining xususiyatlari shakllantirildi. Subyektlar o‘rganilgan belgilarning mos darajasini qayd etishlari kerak edi: stixiyali daraja - 3 ball, empirik daraja -4 ball, nazariy daraja - 5 ball. O‘quvchilarning konstruktiv psixologik himoyasining umumiy ko‘rsatkichi har bir mezonning ifodalangan yig‘indisi bilan aniqlandi. Darajani aniqlash intervallari: nazariy 25-30 ball, empirik 19-24 ball, stixiyali 18 ball. Shaxs psixologik himoya tizimining tarkibiy qismlari quyidagi usullar yordamida aniqlandi: hissiy – Plutchik – Kellerman – Konte so‘rovnomasi, xulq-atvor - D. Amirxon so‘rovnomasi, refleksiv-shaxsiy differensial usuli.

Munozara. K.Tomas o‘zining so‘rovnomasida xatti-harakatlarning tipik shakllarini aniqlash bo‘yicha nizoli vaziyatda shaxsning xatti-harakatiga doir 12 ta hukmlardan tuzilgan beshta ehtimoliy variantni tasvirlaydi. Turli kombinatsiyalarda ular 30 juft guruhga ajratilgan, ularning har birida esa respondentga o‘z xatti-harakat xususiyatiga xos bo‘lgan hukmni tanlash so‘raladi. Bu usulni qo‘llash tashqi ziddiyatda talabalar xulq-atvori strategiyalari iyerarxiyasini aniqlash imkonini beradi.

Sinaluvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish uchun R.B. Ketell tomonidan 16-faktorli shaxs so‘rovnoma ishlatilgan. Bu so‘rovnoma birinchi marta 1949 yilda chop etilgan bo‘lib, va shundan buyon keng psixodiagnostik amaliyotda ishlatiladi. Bu test universal hisoblanadi, qulay va shaxs haqida ko‘p qirrali ma’lumotlarni bera oladi. Savollar shaxsning muhim sifat va fazilatlarini aniqlash xarakteriga ega bo‘lib, oddiy hayotiy vaziyatlarni aks ettiradi. Hozirgi kunda so‘rovnomaning turli shakllari tezkor shaxs diagnostikasining eng ommaviy vositasi hisoblanadi. Ular insonning individual ruhiy xususiyatlarini bilish uchun zarur bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llaniladi. Anketa shaxs xususiyatlarini tashxislaydi, ularni Ketell konstitutsiyaviy omillar deb ataydi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kirishimlilik, zakovat, hissiy barqarorlik, hukmronlik, ekspressivlik, xulq-atvorning meyoriyligi, jasorat, sezgirlik, ishonchlilik, amaliylik, to‘g‘rilik, tashvish, konservatizm, konformizm, o‘z-o‘zini nazorat qilish, keskinlik, o‘z-o‘zini baholash. Shaxsiy omillar tarkibining sifatli va miqdoriy tahlili va ularning o‘zaro aloqadorligi asosida quyidagi omillar bloklari aniqlandi:

1. Intellektual hususiyatlar: omillar V, M, Q.
2. Hissiy-irodali xususiyatlari: omillar: S, Q, G, I, Q3, Q4.
3. Kommunikativ va o‘zaro munosabat xususiyatlari: A, N, Y, F, Q2, N, L.

Xulosa. Tadqiqotda C-qisqartirilgan versiyasi qo‘llanilgan. U 105ta savoldan iborat. Tekshirish vaqti 20 dan 50 daqiqagacha. So‘rovnoma bilan ishlash usuli mavzuga oid

ko‘rsatmalarda bayon etilgan. Javoblar maxsus so‘rov varaqasiga kiritiladi, so‘ngra "kalit" yordamida hisoblanadi. "a" va "s" javoblarining mos kelishi ikki ball, “b” javobining mos kelishi - bir ball bilan baholanadi. Har bir tanlangan savollar guruhi uchun ballar yig‘indisi omil qiymati natijalarini beradi. Bundan istisno omil “b” - bu yerda har qanday javobning «kalit» bilan mos tushishi 1 ball beradi. Shunday qilib, har bir omil uchun maksimal ball - 12 ball, “b” omili uchun - 8 ball va minimal ball esa-0 ball. Metod yordamida talaba shaxsining, tahminan konstruktiv psixologik himoyaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan individual-shaxsiy xususiyatlari aniqlangan edi.

Psixodiagnostik tekshiruv o‘tkazilgandan so‘ng, talabalar shaxsiy rivojlanishning umumiy tendensiyalari, ehtimoli kuchli va zaif tomonlarning tavsifi hamda konstruktiv xulq-atvor strategiyasini tanlashga oid tavsiyalar natijalari bilan tanishdilar. Shaxsda psixologik himoya mexanizmini shakllantirishning ijtimoiy-etnik asoslarini o‘rganish metodlari tadqiqotni tashkil etish xususiyatlaridan kelib chiqib belgilandi. Shu bois, zamonaviy psixologiya fanida keng qo‘llanilayotgan tadqiqot metodlarining har biri shaxs psixologik himoya mexanizmlarini o‘rganishga hizmat qilishi tabiiydir. Kuzatish, eksperiment, suhbat, faoliyat natijalarini tahlil qilish mazkur muammoni tadqiq etishning asosiy usullari hisoblanadi. Mavzuga dahldor tadqiqot metodikalari esa muammoning o‘ziga xosligini baholash sharti sanaladi.

Muammoni o‘rganish asosida nazariy tahlil va umumlashtirish; tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan aniqlovchi va shakllantiruvchi eksperiment; suhbat; kuzatish; ekspert baholash usuli; matematik ma’lumotlarni qayta ishlash usullari (Styudentning t-mezonlari, Vilkokson t-mezonlari); mavzuga daxldor psixologik test; “Hayot tarzi indeksi” so‘rovnomasi (R. Plutchik, G. Kellerman, H. Konte); “Stressni bartaraf etish strategiyasi ko‘rsatkichi” usuli (D. Amirxan); “Subyektiv nazorat darajasi” usuli (E.F. Bajin, S.A. Golinkin, A. M. Etkind); Shaxs differensialligi metodikasi (V.M. Bextereva); Shaxsning ziddiyatli xulq-atvorga moyilligini aniqlash usuli (K. Tomas); Ijtimoiy-psixologik moslashuvni tashxislash (K. Rodjers, R. Daymond) usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Фрейд А. Эго и механизми зашити. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Фрейд З. Психология бессознателного. – СПб: Питер, 2007. – 432 с.
3. Райгородский Д.Й. Самосознание и зашитние механизми личности. - Самара: Бахрах –М, 2008. – 655с.
4. Самаров Р. Қодиров У. Шахснинг психологик химояси – барқарорликни таъминлаш асоси // Таълим муаммоари. 2010, 1-сон.
5. Boboyeva, G. (2019). “O‘smirlar va yoshlarda stressga qarshi psixologik himoya shakllari.” *Yosh olimlar jurnali*, 3(1), 22–26.
6. Mahkamova, D. (2021). “Yoshlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lish shakllari.” *Psixologiya va hayot*, 4(2), 45–52.
7. Ergasheva, Z. (2020). “Shaxsiy farovonlik va psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik.” *O‘zbekiston psixologiya jurnali*, 2(3), 33–39.

Nishanbekova Jadira O‘rinboy qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘QUVCHILARNING MUSIQIY QIZIQISHLARI

Annotatsiya. *O‘quvchilarning musiqiy qiziqishlarini o‘rganish ta’lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir, chunki musiqaga bo‘lgan munosabat shaxsning estetik didi, ijodiy qobiliyatlari, emotsional sezgirligi va ijtimoiy faolligining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa nafaqat madaniy merosning ajralmas qismi, balki o‘quvchilarda ma’naviy dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar va estetik ehtiyojlarni shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada musiqiy qiziqishlarning shakllanish omillari – oila muhiti, maktab tarbiyaviy faoliyati, o‘qituvchining shaxsiy namunasining ahamiyati va zamonaviy axborot texnologiyalari ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqiy qiziqishlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik metodlari, jumladan, interfaol mashg‘ulotlar, musiqiy tinglash madaniyati, ijro amaliyoti va kreativ yondashuvning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Musiqiy qiziqishlarni o‘rganish orqali o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, estetik zavq va ma’naviy-axloqiy tarbiya darajasi oshadi. Xulosa qilib aytganda, musiqiy qiziqishlarni rivojlantirish nafaqat individual iste’dodlarni yuzaga chiqaradi, balki jamiyatning madaniy taraqqiyoti uchun ham asosiy omil hisoblanadi.*

Kalit so’zlar: *kompetentlik, o’quvchi, o’quv jarayoni, kommunikativlik, musiqiy-estetik, rivojlantirish faoliyati, to’garak mashg’ulotlari.*

STUDENTS’ MUSICAL INTERESTS

Annotation. *Изучение музыкальных интересов учащихся является важной частью образовательного процесса, поскольку отношение к музыке оказывает прямое влияние на развитие эстетического вкуса, творческих способностей, эмоциональной чувствительности и социальной активности личности. Музыка выступает не только как неотъемлемая часть культурного наследия, но и как мощное средство формирования духовного мировоззрения, нравственных ценностей и эстетических потребностей школьников. В статье анализируются факторы формирования музыкальных интересов: семейная среда, воспитательная деятельность школы, личный пример педагога, а также влияние современных информационных технологий. Рассматриваются психолого-педагогические методы развития музыкальных интересов: интерактивные занятия, культура музыкального слушания, практика исполнения и творческий подход в обучении. Установлено, что изучение и развитие музыкальных интересов способствует формированию у учащихся творческого мышления, эстетического удовольствия и духовно-нравственного воспитания. В заключение подчеркивается, что формирование музыкальных интересов не только раскрывает индивидуальные таланты, но и играет ключевую роль в культурном прогрессе общества.*

Key words: *competence, student, educational process, communicative, musical-aesthetic, development activity, group training.*

МУЗЫКАЛЬНЫЕ ИНТЕРЕСЫ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *The study of students’ musical interests is an essential aspect of the educational process, as music significantly influences the development of aesthetic taste, creative abilities, emotional sensitivity, and social activity. Music functions not only as an integral part of cultural heritage but also as a powerful tool for shaping students’ spiritual worldview, moral values, and aesthetic needs. This article examines the main factors shaping musical interests, such as the family environment, the school’s educational activities, the personal example of teachers, and the influence of modern information technologies. Psychological and pedagogical methods for fostering musical*

interests are also discussed, including interactive lessons, the culture of music listening, performance practice, and the role of creativity in education. The research highlights that encouraging musical interests enhances students' creative thinking, aesthetic appreciation, and moral-spiritual education. In conclusion, the development of musical interests is not only a way to reveal individual talents but also a vital factor in promoting the cultural advancement of society.

Ключевые слова: *компетентность, студент, учебный процесс, коммуникативная, музыкально-эстетическая, развивающая деятельность, групповое обучение.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston yoshlarining musiqiy-estetik kompetentsiyasini shakllantirish zamonaviy dunyoda ularning raqobatbardoshligi va mobilligini ta’minlashning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmasida insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini namoyon etish muammolari alohida o‘rin egallaydi. Ta’limni insonparvarlashtirishning umumiy jarayonlari, pedagogik paradigmalarning o‘zgarishi, modellar va texnologiyalarning ustuvorligi oshib borayotganligi, pedagogik hamkorlikning sub’ekt-sub’ektga asoslangan jihatini dolzarblashtiruvchi partisipativlik g‘oyasi ushbu vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev: “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz, degan edilar [1].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini sinfdan tashqari ishlarda keng jalb etish maqsadida musiqa san’ati turlari bo‘yicha to‘garaklarni o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lib, sinfdan tashqari ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishda ushbu to‘garaklardan foydalanish yaxshi natijalarni beradi.

Har qanday yo‘nalishdagi mutaxassislarning musiqiy-estetik kompetentsiyasini shakllantirish zamonaviy dunyoda ularning raqobatbardoshligi va mobilligini ta’minlashning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmasida insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini namoyon etish muammolari alohida o‘rin egallaydi. Shu munosabat bilan zamonaviy mutaxassisga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarib boradi va bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasasida talabalarni kasbiy tayyorgarligini tashkil etish, uning mazmuni, shakllari va usullarini musiqiy-estetik kompetentsiyasini shakllantirish jihatidan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ta’limni insonparvarlashtirishning umumiy jarayonlari, pedagogik paradigmalarning o‘zgarishi, modellar va texnologiyalarning ustuvorligi oshib borayotganligi, pedagogik hamkorlikning sub’ekt-sub’ektga asoslangan jihatini dolzarblashtiruvchi partisipativlik g‘oyasi ushbu vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda. Ijodiy ishda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslarni tayyorlash uchun aniq ijtimoiy buyurtma alohida ahamiyatga ega.

“Kompetentsiya” tushunchasi lotincha “competere” – qobiliyat so‘zidan olingan bo‘lib, “yaroqlilik, loyiqlik” degan ma’noni bildiradi. Ushbu so‘z keng ma’noda umumiy yoki muayyan masalalarni yechishda mavjud bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada ko‘llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetentsiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish layoqatidir.

Tilshunoslikda “kompetentsiya” atamasi ilk bor XX asr o‘rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida, uning izdoshlari tomonidan esa kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan. Bunda kompetentlik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi.

Kompetentsiya va kompetentlik tushunchasi qator tadqiqotlar predmetiga aylangan hamda har bir tadqiqotchi o‘z nuqtai nazaridan izohlar bergan. Jumladan, Yu.V.Velichko “kompetentsiya - bu inson tomonidan u yoki bu faoliyatning amalga oshirilishini ta’minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlari, motivlari, shaxsiy sifatlari, bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, qobiliyatlari va tajribalari tizimi; kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo‘lgan va amalga oshgan insonning

amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy- ahloqiy sifatlari rivoji bilan tavsiflanuvchi kompetentsiyasi" [3; 12-b.], T.Y.Bazarov "kompetentsiyani ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funktsiyalar, kompetentlikni esa, kometentsiyani samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta'riflaganlar [2; 180-182-b.].

A.V.Xutorskiy "kompetentlik - bu mos faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetli- o'ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus tipi", [6; 47-b.] deb izohlagan bo'lsa, N.A.Muslimov kompetentlikni: "Kompetentlik bu rahbarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi" [5; 84-85-b.], A.X.Mahmudov esa "kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir" [4; 8-12-b.], deb izohlagan.

V.G.Zarubin va A.V.Komarova o'zining ilmiy izlanishlari asosida ilmiy manbalarda kompetentlik tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumiy belgilariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratgan:

1. Kompetentlikni shaxsni kasbiy talablarga mosligining individual darajasi sifatida izohlovchi ta'riflar (N.V.Kuz'mina, A.K.Markova, Yu.V.Vardanyan, A.A.Vorotnikova va boshqalar).

2. Kompetentlikni xodimning kasbiy faoliyat mazmuni va tavsifiga oid bilimlarga ega ekanligini tushuntiruvchi ta'riflar (V.A.Bolotov, A.B.Borovkov, L.P.Panina, A.V.Xutorskiy).

3. Kompetentlikni shaxsning o'z kasbiy malaka va tajribalarini amaliy faoliyatda samarali qo'llashga bo'lgan qobiliyati sifatida izohlovchi ta'riflar (F.S.Ismagilova, E.F.Zeer, M.A.Chashanov).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin. Demak, kompetentlik deganda aniq shaxsiy va kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo'lgan shaxsga beriladigan tavsif bo'lib, u ta'lim oluvchi tomonidan alohida bilim va ko'nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrallashgan bilim hamda sifatlarning o'zlashtirilishini tushunish kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, kompetentsiyaviy yondashuv asosida to'garak mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish omillari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish lozim:

1. O'quvchilarning musiqiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur motivlari va shaxsiy sifatlari yig'indisi;

2. Musiqiy-estetik faoliyatga doir bilim va ko'nikmalari;

3. Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini musiqiy-estetik faoliyat jarayonida qo'llay olish qobiliyati va tayyorlik darajasi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mazkur kompetentlik musiqiy-estetik faoliyat sohasiga doir bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish qobiliyati va tayyorgarlikni o'zida aks ettiradi.

Biz o'quvchilarning musiqiy qiziqishlarni aniqlash uchun ilmiy raxbarimiz bilan birgalikda "Musiqiy qiziqishlarni aniqlash so'rovnomasi"ni tuzdik. So'rovnoma Toshkent shahar Yashinabod tumanidagi 155 -maktabning 7-sinf o'quvchilarida o'tkazildi.

So'rovnomaning birinchi savoliga o'quvchilar quyidagicha javob berdilar.

1-jadval

O'quvchilarga musiqa darslari yoqishi haqida fikrlari (n= 30)

Javoblar	Ha	Yo'q	Bilmadim
%	86,7 %	13,3%	0 %

Berilgan javoblardan aksariyat 86,7 % o'quvchilarga musiqa darslari yoqishini, 13,3 % o'quvchilarga yoqmasligini ko'rish mumkin. Bu javoblardan musiqa darslari ko'pchilik

o‘quvchilarga yoqadi, degan xulosaga kelish mumkin. Biz o‘quvchilarning musiqa darslarining aynan nimasi yoqishi bilan ham qiziqdik, javoblar quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

O‘quvchilarga musiqa darslarining nimasi yoqishi haqida fikrlari

(n= 30)

Javoblar	Estetik zavq olaman	Qiziqaman	Rohatlanaman
%	46,6 %	36,6%	16,8 %

Yuqoridagi javoblardan 46,6 % o‘quvchilar estetik zavq olaman. 36,6 % o‘quvchilar musiqa darsiga qiziqishini, 16,8% respondentlar esa musiqa darslarida rohatlanishini bildirishgan. Javoblarini qiyoslagan holda aksariyat o‘quvchilar musiqa darslaridan estetik zavq olishi aniqlandi.

Biz o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlaridan yoki to‘garaklardan ko‘proq bilim va malaka olish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

3-jadval

Musiqa darslarida ko‘p bilim, malaka olish mumkinmi yo to‘garaklardami savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari

O‘quvchilarning fikrlari	Dars mashg‘ulotlarida	To‘garaklarda
%	56, 6 %	43,4 %

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, 56, 6 % o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida, 43,4 % o‘quvchilar ko‘p bilim, malaka olish mumkin degan fikrni bildirishgan. Bu bilan aksariyat o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarining to‘garaklarga qaraganda afzal bilishadi.

Shuningdek biz tadqiqot davomida o‘quvchilarning to‘garaklarning qanday tashkil etilishi haqidagi fikrlari bilan ham qiziqdik.

4-jadval

To‘garaklarning qanday tashkil etilishini istar eding savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari

Javoblar	har haftada bir marta	har haftadan 2 marta	har oyda 2 marta
%	23,3 %	70%	6,7 %

So‘rovnoma natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, 23,3 % o‘quvchilar har haftada bir marta, 70 % o‘quvchilar har haftadan 2 marta, 6,7 % o‘quvchilar har oyda 2 marta to‘garak mashg‘ulolari tashkil etilishini istashlarini bayon etishgan. Bu javoblardan shu narsa aniqlandiki, o‘quvchilar to‘garak mashg‘ulotlarini hozirgidek, haftada bir marta emas, har haftada 2 marta tashkil etilishi tarafdorlaridir.

Shu bilan bir qatorda to‘garaklarda aynan qanday mashg‘ulotlar o‘tkazilishi haqidagi o‘quvchilarning fikrlari ham qiziqish uyg‘otadi.

5-jadval

Musiqa to`garaklarida qanday mashg`ulotlar o`tkazilishini xohlardingiz eding savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari

Ball	noan’anaviy mashg`ulotlar	musiqiy o`yinlar	menga farqi yo`q
%	80%	20%	0%

Bu savolga 80 % o‘quvchilar noan’anaviy mashg`ulotlar, 20 % o‘quvchilar esa musiqiy o`yinlar tarzida to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish zarurligi ta’kidlashgan. To‘garak mashg‘ulotlarida nafaqat musiqani, ashulani ijro etish balki musiqa tarixini o‘rganish bo‘yicha ham qiziqarli dalillar olindi.

6-jadval

Musiqa to`garagimizda qanday musiqa tarixini o`rganishni istar edingiz savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari

Ball	mumtoz musiqa tarixini	zamonaviy musiqa tarixini	menga farqi yo`q
%	36,6%	63,4%	0%

36,6 % o‘quvchilar mumtoz musiqa tarixini, 63,4 % o‘quvchilar esa zamonaviy musiqa tarixini o`rganishni istashlari aniqlandi.

7-jadval

Musiqa to`garaklarining inson salomatligi uchun qanday afzalliklari bor deb o`ylaysiz savoliga o‘quvchilarning bergan javoblari

Ball	inson psixologiyasiga yaxshi ta’siri bor	hech qanday ta’siri yo`q	Bilmadim
%	83,3%	16,7%	0%

O‘quvchilarning musiqiy to‘garaklarning inson salomatligi uchun ahamiyati haqidagi fikrlari ham qiziqarlidir. 83,3% inson psixologiyasiga yaxshi ta’siri bor deb javob bergan bo‘lsalar, 16,7% hech qanday ta’siri yo`q deb javob berishgan. Bu javoblardan shunday xulosaga kelish mumkin o‘quvchilar musiqaning inson psixologiyasiga, uning kayfiyatini ko‘tarishga ijobiy ta’sirini ta’kidlashgan. Hattoki og‘ir kasallarni Motsart, Chaykovskiy kabi jahon musiqasi durdonalarining asarlari bilan artterapevtik usullar bilan da’volashgan.

So‘rovnomada o‘quvchilarning musiqa to`garagi mashg`ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashuvlar tashkil etish haqidagi savol bilan ham murojaat qildik, uning natijalari quyida keltirilgan.

73,3 % o‘quvchilar musiqa to`garagi mashg`ulotlarida mashhur musiqa bastakorlari bilan uchrashishni istashlarini, 16,6% bunday uchrashuvni istamasliklarini, 10,1 % o‘quvchilar esa bilmadim javobi bilan kifoyalanishgan. Demak, aksariyat o‘quvchilar mashhur kuy va qo‘shiqlar mualliflari bilan uchrashishni, o‘larning hayot va ijodi bilan yaqindan tanishishni, katta bo‘lganlarida ulardek mashhur inson bo‘lishni istashadi.

Xulosa va takliflar.

O‘quvchilarda musiqiy qiziqishlarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kompetentlik – bu subekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bo‘lib, u ko‘pincha, turli ma’lumotlar beradigan lug‘aviy-me’yoriy adabiyotlarda “biror narsa haqida fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqur egallash” deya ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik – bu, avvalambor, ishni bajarish (maqsadga erishish) uchun nimalar zarur ekanligini tushunishning chuqur bilimlarga asoslangan darajasidir. Kasbiy kompetentlik esa kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish mahoratidir.

2. Tadqiqot doirasida o‘quvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni to‘garak mashg‘ulotlarida rivojlantirishdan jarayonlar, shu jumladan, musiqiy-estetik bilim, malaka, ko‘nikma, qadriyatlar, musiqiy-estetik yo‘nalish va motivatsiya, musiqiy-estetik vositalarni egallash, musiqiy-estetik holatlarni to‘g‘ri idrok etish, o‘quvchilar bilan musiqiy-estetik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni ta’minlaydigan shaxsiy sifat va xususiyatlar majmuidir, degan xulosaga kelindi.

3. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan aniqlanishicha, musiqa darslari ko‘pchilik o‘quvchilarga yoqadi, musiqa darslaridan estetik zavq olishi aniqlandi. Aksariyat o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarining to‘garaklarga qaraganda afzal bilishadi. O‘quvchilar to‘garak mashg‘ulotlarini hozirgidek, haftada bir marta emas, har haftada 2 marta tashkil etilishi tarafdorlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbeksiton Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoevning oliy majlisga murojaatnomasi. 2020 dekabr
2. Базаров Т.Ю. с соавт. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания. // Вестник Московского университета. Серия 14. 2014. №1. С.87-88.
3. Величко Ю.В. Формирование аудиовизуальной музыкальной культуры старших подросткой гумантираной гимназии: На материале факультативных и музыкальных занятий. Автореф. дис..... к.пед.н. . 2004. 24 с.
4. Maxmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy kilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. 2012. № 4. B.8-12
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” . – Toshkent, 2015. – 95 b
6. Хуторский А.В. Ключевые компетентности как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. № 2. С.45-49.

Qosimova Feruzaxon
Andijon davlat universiteti tadqiqodchisi

SHALOM SHVARSNING QADRIYATLAR KONSEPSIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Shalom Shvarsning qadriyatlar konsepsiyasi ijtimoiy psixologiya va shaxs nazariyasida eng ko‘p qo‘llaniladigan universal yondashuvlardan biridir. Ushbu konsepsiya qadriyatlarni inson xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari va madaniy farqlarni tushuntiruvchi markaziy omil sifatida talqin etadi. Shvars qadriyatlarni shaxsning hayot maqsadlari va motivatsion yo‘nalishlarini aks ettiruvchi barqaror tizim sifatida ko‘radi. Uning tadqiqotlari natijasida qadriyatlarning universal modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u 10 ta asosiy qadriyat turini o‘z ichiga oladi: quvonch, xavfsizlik, an’ana, konformizm, hokimiyat, muvaffaqiyat, o‘zini boshqarish, stimul, benevolensiya va universallik. Mazkur qadriyatlar ikki asosiy o‘qda – o‘zini o‘zi oshirish va o‘zini cheklash hamda o‘zgarishga ochiqlik va konservatizm – bo‘yicha tizimlashtiriladi. Maqolada Shvars konsepsiyasining nazariy asoslari, empirik tadqiqotlarda qo‘llanishi va uning madaniyatlararo moslashuvchanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, konsepsiyaning shaxsiy identitet, ijtimoiy moslashuv va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Xulosa qilib aytganda, Shvarsning qadriyatlar nazariyasi turli madaniyat va jamiyatlarda qadriyatlarning umumiy va farqli tomonlarini aniqlash imkonini beradigan kuchli ilmiy asos hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar*: yoshlar, qadriyatlar, qadriyatli oriyentatsiya, Shvars metodikasi, etnik qadriyatlar.*

ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПЦИИ ЦЕННОСТЕЙ ШАЛОМА ШВАРЦА

Аннотация. *Концепция ценностей Шалома Шварца является одной из наиболее влиятельных и универсальных в современной социальной психологии и теории личности. В данной теории ценности рассматриваются как устойчивые мотивационные ориентации, определяющие цели и поведение человека в различных социальных и культурных контекстах. Шварц выделил универсальную модель ценностей, включающую 10 базовых типов: наслаждение, безопасность, традиция, конформизм, власть, достижения, саморегуляция, стимуляция, доброжелательность и универсализм. Эти ценности организованы в систему, построенную на двух измерениях: самоутверждение – самоограничение и открытость изменениям – консерватизм. В статье анализируются теоретические основы концепции Шварца, её эмпирическое применение в межкультурных исследованиях, а также возможности её использования для изучения личной идентичности, социальной адаптации и формирования духовных ориентиров. Особое внимание уделено универсальности модели, которая подтверждается многочисленными кросс-культурными исследованиями. В заключение подчеркивается, что концепция Шварца является важным инструментом понимания общих и специфических аспектов ценностей в разных обществах.*

Ключевые слова: *молодежь, ценности, ценностная ориентация, методика Шварца, этнические ценности.*

SPECIFIC FEATURES OF SHALOM SCHWARTZ’S VALUE CONCEPT

Annotation. *Shalom Schwartz’s theory of values is one of the most widely recognized and influential frameworks in social psychology and personality studies. The concept interprets values as enduring motivational goals that guide human behavior, attitudes, and decision-making across different social and cultural contexts. Schwartz developed a universal model of values that identifies ten fundamental types: hedonism, security, tradition, conformity, power, achievement, self-direction, stimulation, benevolence, and universalism. These values are organized along two major di-*

mensions: self-enhancement versus self-transcendence, and openness to change versus conservation. The article discusses the theoretical foundations of Schwartz's value framework, its empirical applications in cross-cultural studies, and its significance for understanding personal identity, social adaptation, and moral development. Special emphasis is placed on the universality of the model, which has been validated in diverse societies worldwide. In conclusion, Schwartz's theory is considered a powerful scientific tool for exploring both the commonalities and differences in value orientations across cultures, offering a solid basis for psychological and sociological research.

***Key words**: youth, values, value orientation, Schwartz's methodology, ethnic values.*

Kirish. Ijtimoiy fanlar soxasida va xususan, psixologiyada qadriyatlar, qadriyatli oriyentatsiya muammosiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qadriyatlar borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarga e’tibor qaratsak, ularni shartli tarzda quyidagicha anglash mumkin:

- “qadriyat” tushunchasi va qadriyatlarning paydo bo‘lishi;
- qadriyatlar evolyutsiyasi;
- qadriyatlarning turlari va ularning shakllanishi;
- kishilarning qadriyatli (aksiologik) oriyentatsiyasi;
- qadriyatli tanlov va uning amalga oshirilishi;
- inson ongida qadriyatlarning aks etishi;
- etnik qadriyatlar va ularning xususiyatlari;
- yoshlarning qadriyatli tanloviga ta’sir etuvchi omillar va x.k.

Adabiyotlar tahlili

Psixologiyada qadriyatlarni ilmiy taxlil etish jarayonida xorij olimlaridan Shalom Shvarsning tadqiqotlarini o‘rganish va undan foydalanish ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Ayniqsa, qadriyatlarni tahlil etish va ularni yoshlar ongiga singdirish borasida Sh.Shvars metodikasi alohida o‘rin tutadi. Sh.Shvarsning bu sohadagi tadqiqotlari ko‘plab mamlakatlarda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan xozirgacha tadqiq etilib, o‘rganib kelinmoqda (Shvars, 2012). So‘nggi yillarda Shvars tomonidan qadriyatlar sohasida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar turli tillarda ko‘plab nashr etilgan. [5; 43-70].

Sh. Shvars qadriyatlarni o‘rganish borasida yangi nazariy va metodologik yondashuvni ishlab chiqdi. Sh.Shvars yondashuvi asosida shaxslarning qadriyatli oriyentatsiyasigina emas, turli millatlar mansub bo‘lgan madaniyatlarning ham qadriyatli oriyentatsiyasi va uning dinamikasini o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lib, mazkur metod turli madaniyatlarning o‘ziga xos jixatlarini tadqiq etishda muhim ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi. Shvars metodi turli mamlakatlarda amalga oshirilgan aksiologik tadqiqotlarning ham asosi bo‘ldi. Bu tadqiqotlarda qadriyatlar turli ko‘nikmalar, fikrlar, axloq shakllari, shaxsning xususiyatlari va ijtimoiy-demografik ma’lumotlar bilan solishtirilganda ham qo‘l keldi. Unga ko‘ra turli madaniyatlarning o‘ziga xosliklari hamda muhim jihatlarini ham o‘rganishga imkon tug‘ildi.

Shvars qadriyatlarni asosan ikki turga bo‘lib tahlil etadi:

-jamiyatda tarqalgan qadriyatlar va ijtimoiy guruhlarning qadriyatlari;

- shaxs qadriyatlari.

Shvars jamiyat va ijtimoiy guruhlar qadriyatlarini va shaxs qadriyatlarini o‘zaro dialektik bog‘liqlikda o‘rganadi. Olimning fikricha, Shaxs qadriyatlari asosida ma’lum ijtimoiy guruhlarning, aniqrog‘i, u mansub bo‘lgan ijtimoiy guruhning qadriyatlari aks etadi. Shaxs tomonidan tanlab olingan qadriyatlar uning ongida hayotiy tamoyillari, tanlovi, maqsadlari, madaniyati, bilimi, dunyoqarashi kabilarni aks ettiradi. Bunda shaxsning qadriyatli ongi (aksiologik ongi) uning hayotida oriyentatsiya beruvchi, ya’ni yo‘l ko‘rsatuvchi vosita rolini o‘ynaydi. Ko‘p xollarda oriyentatsiya shaxsning hayot yo‘lini, tanlagan hayotiy tamoyillari va maqsadlarini ifoda etadi.[1;70].

Ma’lumki, har bir shaxs ijtimoiy va shaxsiy hayotida o‘zining ma’lum tasavvurlari, dunyoqarashi, axloqiy-ma’naviy va ba’zan ilmiy bilimlari, ma’naviy va intellektual saloxiyati kabi insonning moxiyatini ifoda etuvchi xususiyatlari – qadriyatlariga tayanib faoliyat olib boradi. Bunday faoliyati uning hayotiy tajribasi asosida shakllangan qadriyatlarni – mo‘ljallari, ya’ni oriyentatsiyasiga asoslanadi. Bu yerda mazkur tanlov to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi to‘g‘risida so‘z yuritilmayapti. Shaxs tomonidan to‘g‘ri, deb topilgan hamda ma’lum ijtimoiy guruxlar tomonidan

shakllantirilgan va boshqa shaxslar qabul qilgan qadriyatli oriyentatsiyasi haqida fikr yuritilyapti. “Qadriyatli oriyentatsiya – bu ijtimoiy guruxlarning shaxs tomonidan interiorizatsiya qilingan qadriyatlari. Shunday qilib, shaxs qadriyatlarini uning qadriyatli oriyentatsiyasi sifatida e’tirof etishni to‘g‘ri, deyish mumkin”. [1;70].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, jamiyatni tashkil etadigan turli ijtimoiy guruxlarga, xatto bitta ijtimoiy guruxga mansub bo‘lgan shaxslarning qadriyatlari bir-biridan farq qilishi, ularning ayrim etnik qadriyatlarni boshqalaridan ustun qo‘yishlari tabiiy xol. Mazkur qadriyatlarning shakllanishi esa ijtimoiy guruxlar va unga tegishli bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini, fe’l-atvori, qiziqishlvari, oilaviy an’analari, ota-onalaridan o‘tgan xususiyatlari, o‘z hayotida qo‘lga kiritgan yutuq va tajribasi, jamiyatda bajaradigan roli hamda erishgan obro‘si, mavqei, axloqi, madaniyati va boshqalarni ifoda etadi. Shaxsning bunday qadriyatlariga asoslangan jihatlari albatta, uning yaqin kishilari, atrofida u bilan muloqotga kiradigan shaxslarga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy guruxlar va shaxs qadriyatlarining o‘zgarib borishi albatta, jamiyatda ularning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan turli soxalarning ham o‘zgarishiga ta’sir etadi va pirovardida jamiyatda madaniyat va axloqning o‘zgarishiga olib keladi. Bu jarayonlar esa albatta, jamiyatning dinamikasi, taraqqiyoti yoki aksincha, tanazzuliga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy-tarixiy evolyutsiya avlodlar almashinuvi jarayonida asrlar davomida shakllanib kelgan ijtimoiy boyliklar, kishilar faoliyati asosida yig‘ilgan ijtimoiy-madaniy tajriba jamiyat hayoti va taraqqiyotining muhim obyektiv va subyektiv omiliga aylandi. Bir vaqtning o‘zida mazkur omillar qadriyatlar sifatida kishilar hayotida muhim ahamiyat kasb etib keladi. Mazkur qadriyatlar kishilar hayotini tartibga soluvchi va uni yo‘naltiruvchi vazifani bajaradi.

Shvars tomonidan olib borilgan tadqiqotlargacha bu soxada katta ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, Shvars mazkur amalga oshirilgan ilmiy tajribaga tayandi. Xususan, u M. Rokichning instrumental va terminal qadriyat oriyentatsiyalarini aniqlash bo‘yicha mashhur metodikasi hamda boshqa tadqiqotchilar metodikalarida qo‘llangan qadriyatlarni saralab oldi. Sh.Shvars 83 ta mamlakatda har biri 344 tadan respondent ishtirok etgan tadqiqot o‘tkazdi (Shvars, 2012). Shu bois, uning metodikasi universal bo‘lib, turli madaniyatlarni qiyosiy o‘rganishda qo‘llanishi mumkin. Shvars metodikasi Metodika dunyo madaniyatlari qadriyatlarini qamrab oluvchi konsepsiyaga asoslangan. U turli mamlakatlarda yuzlab tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qildi, bu tadqiqotlarda qadriyatlar turli munosabatlar, fikrlar, xulq-atvor turlari, shaxs sifatlari va ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda O‘zbekistonda axolining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarning jamiyatda egallab turgan o‘rni, pozitsiyasi, faolligi, amalga oshirilayotgan modernizatsiya va isloxotlarga munosabati, ularning barcha soxalarda amalga oshirayotgan tanloviga bog‘liq. Bu birinchidan, obyektiv va ikkinchi tomondan, subyektiv jarayonda yoshlar tomonidan tanlab olinayotgan qadriyatlar, ular milliymi yoki umuminsoniymi, jamiyat va unda yashayotgan yoshlar qatlamining madaniyati, hayotida ustun qo‘yadigan ustuvor qadriyatlari va ularning asosida shakllanadigan hayoti, tegishli soxalarda amalga oshiradigan faoliyati kabilarga ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ijtimoiy hayotida o‘ziga xos yo‘l ko‘rsatuvchi – oriyentir bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan tanlangan milliy etnik qadriyatlar ularning ijtimoiy – madaniy hayotida ustuvor qadriyatlar sifatida aks etib ular uchun ahamiyatli bo‘lishi va hayotining barcha jabxalarida oriyentatsiya vazifasini bajarishi mumkin.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan xolda yoshlarga milliy etnik qadriyatlarni singdirishda milliy psixologiya fanida qo‘l keladigan psixosemantik yondashuvni qo‘llash, o‘zbek madaniy qadriyatlarining zamonaviy ahamiyatini o‘rganish borasida Shvars so‘rovnomasini o‘zbek tiliga adaptatsiya qilish muxim ilmiy-metodik ahamiyatga ega.

Etnik qadriyatlarning asosiy funksiyasi millat ijtimoiy - madaniy hayotini tashkillashtirish va taraqqiy ettirish, milliy saloxiyat, ma’naviyat, milliy ruxiy va ratsional ongini saqlab qolishdan iborat. Jamiyatda shakllangan mavjud ijtimoiy tizimlar, xususan, ta’lim tizimi, oila, o‘zaro etnik munosabatlar zamirida qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu jarayonda ijtimoiy qatlamlar

tizimida yoshlarning o‘rni strategik ahamiyat kasb etadi, chunki ular bir vaqtning o‘zida etnik qadriyatlarni o‘zlashtiruvchi, rivojlantiruvchi hamda kelajak avlodlarga yetkazib berish orqali millatning mavjudligini va davomiyligini ta’minlovchi muhim subyektiv omil sifatida faoliyat olib boradi.

Aksiologik nuqtayi nazardan jamiyatda yosh avlodning etnik tarbiyasi hozirgi davrda ayiqsa, milliy strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ”Yosh avlod tarbiyasi barcha zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”. [2; 504-505].

Demografik nuqtayi nazardan yoshlar o‘ziga xos gurux bo‘lib, ularning etnik tarbiyasi bir qator jihatlarga bog‘liq. Faylasuf olim Q.Nazarov yoshlarni ijtimoiy gurux sifatida quyidagicha tavsiflaydi: “Yoshlar ma’naviy dunyoqarashi shakllanayotgan, qaror topayotgan, asosiy ijtimoiy o‘sishni, intensiv ijtimoiylashuv va moslashuvni, ijtimoiy va ruhiy fiziologik balog‘at yoshini boshdan kechirayotgan ijtimoiy demografik guruhdir. Yoshlarning alohida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy xolati, ijtimoiylashuv qonuniyatlari, ta’lim-tarbiya imkoniyatlari bilan belgilanadi”. [4; 353].

Hozirgi davrda etnik qadriyatlarni o‘rganish, ularni zamonaviy taraqqiyot dinamikasi kontekstida taxlil qilish borasida fanlararo yondashuvlar ham keng qo‘llanilmoqda. Bunday ilmiy taxlil jarayoni zamonaviy fanlar integratsiyasining natijasi sifatida qaralishi mumkin. Bunda antropologik, sotsiologik, psixologik va boshqa yondashuvlar o‘zaro bog‘liq ravishda qo‘llanilmoqda.

Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida muhim etnik omillardan hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va kuchli dinamika asosida o‘zgarib borayotgan zamonda jamiyat a’zolarining milliy qadriyatlar asosida shakllanadigan turmush tarzi, milliy ongi, madaniyati, ma’naviy – axloqiy dunyoqarashi, ularni millat yoshlarining ongiga singdirib borish muammolari tobora strategik ahamiyat kasb etib borayotgani aniq. Bu muammoni to‘g‘ri xal etish uchun muxtaram Prezidentimizning fikricha, “... yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruxida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari!” shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish” jamiyatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. [3;260].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Карандашов В.Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности Концепция и методическое руководство. Речь. СПб, 2004.
2. Мирзиёев Ш.М.Жисмоний ва баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг хал қилучи кучидир //Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.-Т.:Ўзбекистон, 2017.-Б.504-505.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.: ”O’zbekiston”нашриёти, 2021. Б-262.
4. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. II. А-О. Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”. Маънавият” нашриёти, 2019.-Б.353.
5. Шварц Ш., Бутенко Т.П., Седова Д.С., Липатова А.С. Уточненная теория базовых индивидуальных ценностей: применение в России // Психология. Журнал ВШЭ. 2012. Т.9, №1. -С. 43-70.

Latipov Bobur Bakhromovich
Karshi State University teacher
E-mail: boburlatipov516@gmail.com

CHALLENGES IN LISTENING COMPREHENSION FACED BY SECOND LANGUAGE LEARNERS

Annotation. *This current article discusses that listening is crucial to acquire a comprehensible input and there will be no learning without an input. Pourhosein Gilakjani and Mohammadreza Ahmadi (2011) stated that listening skill is of great importance in the communication process among the three other skills (reading, writing, speaking). Goss (1982) claimed that while listening, a learner tries to construct a meaning using his or her listening comprehension. Morley (2001) and Rost (2001) pointed out that listening is the most important skill that is used in ordinary daily conversations and helps to develop other language skills. There is a list of listening comprehension problems that has been investigated. EFL learners face serious issues in listening comprehension because universities pay more attention to grammar, reading and vocabulary (Hamouda 2013).*

Key words*: listening skill, listening comprehension, an input, listening comprehension problems, various meanings, second language learners', interactive process, listening strategies, the impact of the accent, weak level learners*

ПРОБЛЕМЫ ВОСПРИЯТИЯ НА СЛУХ, С КОТОРЫМИ СТАЛКИВАЮТСЯ УЧАЩИЕСЯ ВТОРОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье обсуждается, что слушание имеет решающее значение для получения понятной информации, и без информации не будет обучения. Пурхосейн Гилакджани и Мохаммадреза Ахмади (2011) заявили, что умение слушать имеет большое значение в процессе общения среди трех других навыков (чтение, письмо, разговорная речь). Госс (1982) утверждал, что во время слушания учащийся пытается сконструировать смысл, используя свое понимание на слух. Морли (2001) и Рост (2001) отметили, что слушание — это самый важный навык, который используется в обычных повседневных разговорах и помогает развивать другие языковые навыки. Существует список проблем с пониманием на слух, которые были исследованы. Учащиеся EFL сталкиваются с серьезными проблемами с пониманием речи на слух, поскольку университеты уделяют больше внимания грамматике, чтению и словарному запасу (Hamouda 2013).*

Ключевые слова*: навыки аудирования, понимание на слух, ввод, проблемы понимания на слух, различные значения, изучающие второй язык, интерактивный процесс, стратегии аудирования, влияние акцента, учащиеся со слабым уровнем.*

IKKINCHI TIL O'RGANUVCHILARI UCHUN TINGLASHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR

Anntatsiya. *Ushbu maqolada tinglash tushunarli ma'lumotga ega bo'lish uchun juda muhim va kirishsiz o'rganish bo'lmaydi. Pourhosein Gilakjani va Mohammadreza Ahmadi (2011) ta'kidlashicha, tinglash qobiliyati boshqa uchta qobiliyat (o'qish, yozish, gapirish) orasida muloqot jarayonida katta ahamiyatga ega. Goss (1982) ta'kidlaganidek, tinglash paytida o'quvchi o'z tinglab tushunish orqali ma'no yaratishga harakat qiladi. Morley (2001) va Rost (2001) tinglash oddiy kundalik suhbatlarda qo'llaniladigan va boshqa til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan eng muhim mahorat ekanligini ta'kidladilar. O'rganilgan tinglab tushunish muammolari ro'yxati mavjud. EFL o'quvchilari tinglab tushunishda jiddiy muammolarga duch kelishadi, chunki universitetlar grammatika, o'qish va lug'atga ko'proq e'tibor berishadi (Hamouda 2013).*

Kalit so'zlar: *tinglab tushunish, tinglab tushunish, kiritish, tinglab tushunish muammolari, turli ma'nolar, ikkinchi til o'rganuvchilar, interfaol jarayon, tinglash strategiyalari, urg'uning ta'siri, zaif darajadagi o'quvchilar.*

Introduction. Nowadays listening as one of the most problematic skills that must be investigated more so that teachers could teach it effectively. He also emphasized that comprehending speaking passages is very difficult for learners. And to assist learners, teachers should understand listening comprehension problems and then teach appropriate listening comprehension strategies to provide ways to solve the listening comprehension issues (Hamouda 2013).

In this article , different pieces of information will be reviewed to find the listening comprehension issues that the learners come across when they listen to oral speeches. This article will assist both teachers and learners. Particularly, the literature review will assist teachers to increase their consciousness in difficult areas of listening comprehension so that appropriate actions can be applied to solve the existing listening problems. Learners can also find their weak points and take further actions to overcome listening challenges that they have. [1:58-60]

Definition of listening

The term “listening” was defined by various researchers. Chastain (1971) defined listening as the ability to understand native speakers at a normal speed. Morley (1972) pointed out that listening is the ability to listen, select and remember necessary information along with connecting it to the sound and form of meaning. Goss (1982) said that listening is understanding oral information and organizing it into lexical elements to create meaning. Similarly, Bowen, Madsen, and Hilferty (1985) claimed that listening is a process of comprehending oral texts. Learners listen to what the speaker says, identify the lexical and syntactic units, negotiate the meaning and construct a listening comprehension. According to Rost (2002), listening is a complicated process in which learners get oral information and match it with their background knowledge. Ross (2009) also pointed out that listening is one of the most important tools to understand the world and to communicate successfully. Jafari and Hashim (2015) emphasized that listening is a channel to comprehensible input and 50 per cent of the total learning time students devote to listening. Thus, listening comprehension plays a crucial role in learning languages. [2:72-74}

Definition of Listening Comprehension

Listening comprehension was defined by different authors. Brown and Yule (1983) claimed that listening comprehension is the understanding of the information that the learners hear. According to Rost (2002) and Hamouda (2013), listening comprehension is an interactive process in which meaning is being constructed. Nadig (2013) said that listening comprehension consists of several processes like knowing speech sounds, understanding individual words and syntax of the sentence to comprehend the spoken language. If to take the explanation of Dirven and Oakeshott-Taylor (1984), they said that listening comprehension as the product of teaching methodology that involves different processes like understanding of speech and spoken language, speech recognition and speech perception. According to the definitions given above it is obvious that listening comprehension’s role in learning languages is of great importance. [3:88-90]

Significant issues that learners come across in listening comprehension

Oral text materials’ quality

According to Azmi Bingol, Celik, Yidliz, & Tugrul Mart (2014), the quality of the recorded materials can affect learners listening comprehension.

The impact of the accent

Goh(1999) stated that according to the opinions of 66% of the learners, the accent is one of the major problems that has an impact on learners' listening comprehension. The more accents the learner knows, the better his/her listening comprehension becomes. Munro and Derwing (1999) followed the ideas of Goh and emphasized that listening to unfamiliar accents leads learners to the critical problems in listening comprehension. This fact impacts negatively on the learners’ listening comprehension and stops him/her from comprehending (Buck 2001). [4:98-100]

Unfamiliar vocabulary

Azmi Bingol, Celik, Yidliz, and Tugrul Mart (2014), stated that familiar words in oral texts make listening comprehension easier. Knowing lots of words motivates learners and increases their interest in listening comprehension. The fact that words in the English language sometimes have various meanings confuses learners a lot. It happens when the word is not used in an appropriate context.

Cultural Differences

Azmi, Celik, Yidliz, & Tugrul (2014) said that teaching a cultural background knowledge is of great importance since it serves the learners positively and prevents from any kind of critical problems in listening comprehension.

Length and Speed of Listening

Underwood (1989), claimed that too fast speeches lead learners to listening comprehension issues.

Also according to Underwood (1989), some reasons stop learners from comprehending listening effectively.

learners cannot control the speed of the speech and face critical problems in listening comprehension.

Learners cannot listen to the oral passages repeatedly and the teacher does not always know whether the speech was understandable or not.

Learners may lack lexical resources. Listeners usually try to remember the meaning of the particular word and miss the next part of the recording.

Deficiency of context knowledge. Often listeners understand listening passages only partially because of the unfamiliar context.

Difficulties in concentration. It is difficult to concentrate when the recording is too long or fast. However, when the listening material is very interesting, listeners concentrate better.

Buck (2001) also mentioned that a big number of unfamiliar words, topics and accents, and fast speed of the listening tasks are serious problems of the language learners. According to Bloomfield et al. (2010) variety of familiar accents can help to facilitate students' listening comprehension. [5:107-108]

However, Bloomfield et al. (2010) and Walker (2014) said that there is another factor that affects the listening comprehension. The fact that written and oral forms of some words are not identical makes listening difficult. As for Graham (2006), he stated that some other reasons make listening comprehension tough. They are a big number of unfamiliar words, poor grammar and interpretation of listening tasks in the wrong way. [6:123-125]

Vandergrift (2004) and Walker (2014) established that listening should be processed immediately so that the listener could get access to the spoken input again. This fact makes listening comprehension more difficult than reading. Besides, being familiarized with a culture of the country can make listening comprehension easier.

Yagang (1994) suggested that the message, the physical environment, the speaker, and the listener lead to the listening comprehension issues. Boyle (1984) also reported that medium and environment factors, listener and speaker are the major factors that affect listening comprehension. Four factors affect students'' listening comprehension context factors, listener factors, speaker factors and stimulus factors (Teng 2002). [7:130-132]

Conclusion

It was important to identify and find the weak points of the learners that prevent them from comprehending listening passages. As it was stated in this article, listening comprehension is of great importance and this is one of the main skills that assist learners to learn effectively. I needed to investigate this particular field because as it was stated in the main part of the article, listening is a channel to the comprehensible input and learners spend 50% of their time for listening. According to the information given in this article , there are various types of major issues in listening comprehension. And these problems need to be solved. The strategies cannot be unique, they must be selected individually considering learners' weak points, background knowledge and abilities. Hopefully, this paper could assist teachers and learners to identify their weak points and mistakes.

References.

1. Azmi, B. M., Celik, B., Yidliz, N., & Tugrul, M. C. (2014). Listening Comprehension Difficulties Encountered by Students in Second language Learning Class. Journal of Educational and Instructional Studies in the World, 4(4), 1-6.

2. Bloomfield, A. et al. (2010). What Makes Listening Difficult? Factors Affecting Second Language Listening

3. Bowen, J. D., Madsen, H., & Hilferty, A. (1985). TESOL Techniques and Procedures. Boston, MA: Heinle & Heinle Publishers.

4. Boyle, J. P. (1984). Factors Affecting Listening Comprehension. ELT Journal, 38(1), 34-38.

5. Brown, A. L., & Palinscar, A. S. (1982). Introducing Strategic Learning from Texts by Means of Informed Self-Control Training. Topics in Learning and Learning Disabilities, 2, 1-17.

6. Buck, G. (2001). Assessing Listening. Cambridge: Cambridge University

7. Goss, B. (1982). Listening as Information Processing. Communication Quarterly, 30, 304-307.

8. Graham, S. (2006). Listening Comprehension: The Learners' Perspective. System, 34, 165-182.

9. Hamouda, A. (2013). An Investigation of Listening Comprehension Problems Encountered by Saudi Students in the EL Listening Classroom. International Journal of Academic Research in Progressive Education and Development, 2(2), 113-15.

10. Jafari, K., & Hashim, F. (2015). Comparison of Normal and Moderately Slow Speech Rates: Listening to Students' Voices in Listening Comprehension Classes in EFL Context. International Journal of Foreign Language Teaching in the Islamic World, 3(3), 5-11.

11. Rost, M. (2001). Listening. In R. Carter, & D. Nunan (Eds.), Th(pp. 7-13).

Mengliyeva Gavhar Ibroxim qizi
"Bolshebnyy zamok" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING O'RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida oilaning tutgan o'rni va ta'siri metodologik jihatdan tahlil qilingan. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaviy muhit, ota-onalarning psixologik va pedagogik yondashuvi, ijtimoiy-hissiy aloqalarning o'rni ochib berilgan. Tadqiqotda, ayniqsa, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda oila a'zolarining muloqot madaniyati, mehr-muhit va barqaror munosabatlarining ahamiyati asoslab berilgan. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalarning hamkorligini kuchaytirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiylashuv, maktabgacha yosh, bola tarbiyasi, oila, pedagogik muhit, kommunikativ ko'nikma, ota-ona ishtiroki.*

РОЛЬ СЕМЬИ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические основы влияния семьи на социализацию детей дошкольного возраста. Раскрыта значимость семейной среды, психологического климата и педагогического подхода родителей в процессе формирования личности ребёнка. Особое внимание уделено развитию социальных компетенций через культуру общения, эмоциональную поддержку и устойчивые взаимоотношения в семье. Результаты исследования могут быть использованы для укрепления взаимодействия между дошкольными учреждениями и родителями.*

Ключевые слова: *социализация, дошкольный возраст, воспитание ребёнка, семья, педагогическая среда, коммуникативные навыки, участие родителей.*

THE ROLE OF THE FAMILY IN THE SOCIALIZATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *This article explores the methodological foundations of the family's role in the socialization of preschool-aged children. It emphasizes the importance of the family environment, parents' psychological and pedagogical approach, and the development of socio-emotional interactions in shaping the child's personality. Special focus is placed on the formation of social competencies through communicative culture, emotional support, and stable relationships within the family. The findings can serve as a scientific basis for strengthening cooperation between preschool institutions and parents.*

Key words: *socialization, preschool age, child upbringing, family, pedagogical environment, communication skills, parental involvement.*

Kirish. Jamiyatning barqaror va sog'lom rivojlanishi, avvalo, unga a'zo bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni egallashi va to'laqonli fuqarolik fazilatlarini shakllantirishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri inson hayotining ilk davri - maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda bolaning shaxs sifatida kamol topishi, atrof-muhitga, jamiyatga munosabati va ijtimoiy rollarni egallashi shakllana boshlaydi.

Bola ijtimoiy hayotga ilk bor oila orqali kirib keladi. Oila - bu bola uchun nafaqat mehr-muhabbat va g'amxo'rlik manbai, balki birinchi ijtimoiy muhit hamdir. Uning ilk ijtimoiy qoidalarni, axloqiy me'yorlarni, aloqa vositalarini o'zlashtirishida ota-ona va boshqa yaqin qarindoshlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi - ya'ni atrofdagi odamlar bilan munosabatga kirishishi, jamiyatdagi rollar va qadriyatlarni o'zlashtirishi - ko'p

jihatdan oiladagi muhit, tarbiya uslublari, muloqot sifati va ota-onaning pedagogik saviyasiga bog‘liqdir.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar asrida bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta’sir etuvchi tashqi omillar soni ortgan bo‘lsa-da, oila hali-hanuz bu jarayonning markaziy bo‘g‘ini sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. O‘zbek xalqining asriy an’analari, qadriyatlarga boy oilaviy tarbiya modeli esa bolalarning milliy ruhda kamol topishida va ijtimoiy fazilatlarni egallashida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida oila qanday psixologik-pedagogik muhit yaratishi, qanday omillar bu jarayonga ko‘maklashishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy oilaning bola tarbiyasidagi roli, ota-onalarning pedagogik saviyasi, muloqot madaniyati va ijtimoiy namuna sifatidagi xatti-harakatlari o‘rganiladi. Mavzu ayniqsa muhimdir, chunki hozirgi kunda bola shaxsining sog‘lom shakllanishi ta’lim tizimi, oilaviy muhit va jamiyatning birgalikdagi yondashuvini talab qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni - bugungi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishmasida faol o‘rganilayotgan muhim ilmiy mavzulardan biridir. Ayniqsa, bu jarayonda oila muhitining, tarbiya uslublarining, ota-onalar va bola o‘rtasidagi muloqot sifatining o‘rni ko‘plab olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ushbu bobda bolalar ijtimoiylashuvi va oilaning bu jarayondagi roliga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

Avvalo, taniqli rus olimasi L.S. Vygotskiyning "proksimal rivojlanish zonasi" haqidagi nazariyasi alohida e’tiborga loyiq. Unga ko‘ra, bola faqat o‘z tajribasi asosida emas, balki kattalar - xususan, ota-onalar yordamida ijtimoiy muhitni o‘zlashtiradi. Vygotskiy ijtimoiy muloqotning shaxs rivojlanishidagi asosiy vosita ekanini ta’kidlagan. Bu g‘oya bolalar ijtimoiylashuvi jarayonida oilaning o‘rnini tushunishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

E. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan psixososial rivojlanish nazariyasida esa bola har bir yosh davrida ma’lum ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali shaxs sifatida kamol topadi, degan g‘oya ilgari suriladi. Maktabgacha yoshdagi bolada "tashabbus" va "aybdorlik hissi" o‘rtasidagi muvozanatni shakllantirish aynan oiladagi munosabatlar va qo‘llab-quvvatlash orqali vujudga keladi.

Mahalliy olimlardan H. Yo‘ldoshev va Sh. Raxmonovalar maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyaning o‘zbek modeli, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya uslublarini o‘rganishgan. Ularning tadqiqotlarida oila va bog‘cha hamkorligining bolaning ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri keng tahlil qilingan.

I. Muxamedova va G. Egamova kabi pedagog olimalar bolalarning emotsional-intellektual rivoji, ularning o‘zaro muloqotga kirishish qobiliyatlarini tahlil qilgan bo‘lib, bu ishlarda oilaning mehrli va ishonchli muhit yaratishdagi roli qayd etilgan. Ayniqsa, bolaning o‘zini ifoda etish erkinligi, o‘z fikrini aytish madaniyati aynan oilaviy muloqot muhiti orqali shakllanishi ko‘rsatilgan.

A. Komenskiy, J.J. Russo va J. Lokk kabi klassik pedagoglarning asarlarida esa bola shaxsini hurmat qilish, uning tabiiy rivojiga aralashmaslik, faqat yo‘naltirish orqali ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish g‘oyalari ilgari surilgan. Bu qarashlar bugungi kunda ota-onalar uchun dolzarb pedagogik maslahat vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, UNESCO, UNICEF, hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan e’lon qilingan metodik qo‘llanmalar, milliy standartlar va tadqiqot hisobotlari ham mavzuni chuqur yoritishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2021-yilgi "Maktabgacha ta’lim sifatini baholash mezonlari"da oila ishtirokining bolalar ijtimoiylashuvi va muloqot ko‘nikmalari rivojiga bevosita ta’siri ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Avestoda va o‘zbek xalq maqollarida tarbiya, mehr-oqibat, ota-onaning o‘rni, bolaga e’tibor singari tushunchalar ijtimoiy qadriyat sifatida ifodalangan. Bu esa xalq og‘zaki ijodi va qadimiy manbalarda ham ijtimoiylashuvning oilaviy ildizlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining ijtimoiy rivojida oila eng muhim ijtimoiy institut sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu asarlar mazmuni tadqiqotga nazariy asos bo‘lib, keyingi tahlil va amaliy takliflarni ishlab chiqishda muhim ilmiy platforma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy ishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida oilaning tutgan o‘rnini aniqlash, tahlil qilish va asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuv asosida tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning metodologik negizi sifatida zamonaviy pedagogika, ijtimoiy psixologiya, rivojlanuvchan ta’lim nazariyalari, hamda shaxs taraqqiyoti bo‘yicha asosiy ilmiy qarashlar tanlab olindi.

Avvalo, tadqiqotda nazariy tahlil usuli qo‘llanildi. Bu bosqichda mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va metodik tavsiyalar o‘rganildi. Jumladan, L.S. Vygotskiy, E. Erikson, J. Piyaje, Sh. Raxmonova, I. Muxamedova va boshqa olimlarning bolalar shaxsiy rivoji, sotsiollashuvi va oilaviy tarbiya muhitiga oid g‘oyalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi - maqollar, rivoyatlar va Avesto kabi tarixiy manbalar orqali milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ham masalaga yondashildi.

Keyingi bosqichda empirik tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Jumladan, so‘rovnoma (anketlash), suhbat (intervyu) va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. So‘rovnomalar orqali ota-onalar, maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) tarbiyachilari va psixologlari orasida bolalarning ijtimoiy rivoji, oila bilan aloqasi, oilaviy tarbiya uslublari to‘g‘risidagi fikrlar yig‘ildi. Bu orqali real hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiylashuv holati, muammolar va omillar aniqlashtirildi.

Suhbat metodi orqali esa tanlab olingan maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar va pedagoglar bilan chuqurlashtirilgan muloqotlar olib borildi. Suhbatlar davomida bolalarning jamoadagi o‘zini tutishi, muloqotga kirishish uslublari, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish darajasi, shuningdek, ota-onalarning tarbiya tamoyillari haqidagi tushunchalari yuzasidan ma’lumotlar olindi.

Kuzatuv metodidan foydalanib, maktabgacha yoshdagi bolalarning guruhdagi xatti-harakatlari, jamoadagi munosabatlari va pedagoglar bilan muloqoti bevosita tahlil qilindi. Kuzatuvlar asosida bolalarning oilaviy muhitdagi tarbiya uslublari ularning sotsial munosabatlariga qanday ta’sir qilayotgani baholandi.

Tadqiqotda olingan barcha empirik ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi. Miqdoriy tahlil uchun statistik ma’lumotlarni guruhlash, foizlik hisoblash va diagrammalash usullari qo‘llanildi. Sifat tahlilda esa so‘zma-so‘z suhbat matnlari, holatli kuzatuvlar va psixologik baholash natijalari asosida kontent tahlil amalga oshirildi.

Ushbu metodlar uyg‘unligida olib borilgan tadqiqot bolalar ijtimoiylashuvida oilaning fundamental o‘rni, uning ta’sir etuvchi omillari va rivojlantirish yo‘nalishlarini aniq ifodalashga yordam berdi. Natijada, oilaning ma’naviy-axloqiy muhiti, kommunikativ muloqot madaniyati va psixologik muhit kabi jihatlar bolalar shaxsining ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy faktorlar sifatida ajratib ko‘rsatildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida oila muhitining hal qiluvchi omil ekani aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy muvofiqlashuvi va muloqot kompetensiyalari bevosita oiladagi tarbiya uslubi, ota-onalarning bolaga nisbatan munosabati, oila a’zolari bilan bo‘ladigan kundalik muloqot sifati va miqdoriga kuchli bog‘liq.

Empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oilaviy muhitda mehr-oqibat, ishonch, hurmat, doimiy aloqa va izchil qadriyatlar mavjud bo‘lgan holatlarda, bolalarda ijtimoiy faoliyatga kirishish, yangi insonlar bilan muloqot qilish va jamoaviy o‘yinlarda ishtirok etish faolligi yuqori bo‘lishi kuzatildi. Aksincha, oilaviy ziddiyat, befarqlik yoki haddan tashqari qat’iy nazorat mavjud bo‘lgan oilalardagi bolalarda esa uyatchanlik, ichki yopiq holat, zo‘ravonlikka moyillik yoki tengdoshlariga nisbatan tajovuzkorlik belgilari ko‘proq uchradi.

So‘rovnomalar orqali 120 nafar ota-ona va 30 nafar tarbiyachidan olingan javoblarga asoslanib, quyidagi muhim xulosalar aniqlandi:

67% ota-onalar har kuni bolalari bilan 2 soatdan ortiq vaqt sifatli muloqotda bo‘lishini bildirdi. Bu oilalardagi bolalarda ijtimoiylashuv ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘ldi.

24% ota-onalar esa bolalari bilan vaqt yetishmasligi sababli faqat zaruriy maishiy muloqotda bo‘lishini tan oldi. Bu guruhdagi bolalarda ijtimoiy faollik past darajada kuzatildi.

9% holatlarda bolalarning asosiy muloqoti onalar emas, balki buvi yoki boshqa qarindoshlar bilan bo‘lishi aytib o‘tildi. Bu esa bolalarda oilaviy qadriyatlarning turlicha qabul qilinishiga sabab bo‘layotgani aniqlandi.

Kuzatuv va suhbatlar orqali aniqlanishicha, bolalar o‘zlarining oiladagi rolini aks ettiruvchi o‘yinlarda (masalan, "ona-bo‘lish", "otasini taqlid qilish", "do‘stiga yordam berish") ishtirok etarkan, ular aynan o‘z oilasida ko‘rgan holatlarni takrorlaydi. Bu esa bolaning ijtimoiy xulq-atvori shakllanishida oila modelining to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etishini tasdiqlaydi.

Alohida ta’kidlash lozimki, ota-onalar tomonidan ijtimoiy me’yor va qadriyatlarning izchil tushuntirilishi, bolalar savollariga sabr-toqat bilan javob berilishi va ularni jamoaga tayyorlash borasidagi faol harakatlar, bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga muvaffaqiyatli moslashishiga, ijtimoiy muloqotda faol bo‘lishiga va ijobiy o‘zini baholash shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat - bu oilaviy muloqot sifati va ijtimoiy tajriba imkoniyatlarining bolalar rivojiga ta’siridir. Ota-onasi bilan tez-tez kitob o‘qiydigan, birgalikda muhokama qiladigan va har xil rolli o‘yinlarni o‘ynaydigan bolalar ijtimoiy vaziyatlarda erkinroq, mustaqil fikrli va tengdoshlari bilan hamkorlikda faolroq harakat qilishi aniqlandi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, oila nafaqat bolaning ilk ijtimoiylashuv makoni, balki uning jamiyat bilan keyingi aloqalarini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutdir. Ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligi, kommunikativ kompetensiyasi va qadriyatli yondashuvi bola shaxsining har tomonlama sog‘lom shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Muhokama. Olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi jarayonida oila asosiy va hal qiluvchi ijtimoiy institut sifatida xizmat qilishini yaqqol namoyon etdi. Tadqiqotda aniqlanganidek, bolaning ilk muloqot ko‘nikmalari, ijtimoiy rollarni qabul qilishi, me’yor va qadriyatlar tizimini shakllantirishi, avvalo, oilada boshlangan bo‘lib, bu jarayonning sifati va samaradorligi ota-onaning farzandga bo‘lgan e’tibori, muloqot madaniyati, hissiy yondashuvi hamda umumiy tarbiyaviy muhitga bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, Lev Vygotskiy va J. Piagelar o‘zlarining rivojlanish nazariyalarida ijtimoiy muhit, ayniqsa oila, bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida tayanch omil ekanini ta’kidlaganlar. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham bu nazariyalar bilan bevosita bog‘liqdir. Oila – bolaning dastlabki “ijtimoiy laboratoriyasi” bo‘lib, unda bola o‘zini anglaydi, ijtimoiy me’yorlarni o‘rganadi, aloqa qilishni va his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘zlashtiradi.

Muhokama jarayonida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan muhim jihatlardan biri - bu oilaviy modelning ijtimoiy uzviylikdagi ahamiyatidir. Jumladan, oilada kuzatilgan rollar (masalan, ota rahbar, ona g‘amxo‘r, katta opa yordamchi va hokazo) bolaning ijtimoiy rolni qabul qilishida muhim iz qoldiradi. Agar bu rollar izchil va ijobiy bo‘lsa, bola o‘z ijtimoiy identifikatsiyasini ijobiy shakllantiradi. Ammo ziddiyatli yoki beqaror oilaviy rollar bolaning ijtimoiylashuvida to‘siqlar keltirib chiqaradi, bu esa maktabgacha ta’lim muassasasida moslashuv muammolariga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, global miqyosdagi zamonaviy tadqiqotlar - xususan, Bronfenbrennerning ekologik tizim nazariyasi doirasida ham bola rivojlanishida oila mikrotizimining ustuvor roli e’tirof etilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, oila - bola shaxsini shakllantirishda eng yaqin, intensiv va barqaror ijtimoiy muhitdir. Bizning tahlillarimiz bu g‘oyalarni amaliy dalillar bilan tasdiqlaydi: oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy aloqalarning sifati bolaning tashqi dunyoga nisbatan qiziqishi, o‘zini erkin ifoda eta olishi va jamoaviy munosabatlarga kirishish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muhokama davomida e’tiborga molik bo‘lgan yana bir jihat – bu oilaning pedagogik savodxonligi masalasidir. Ota-onalarning bolalar bilan muloqot qilishdagi metodik yondashuvlari, psixologik xabardorlik darajasi va tarbiyaviy muomala uslublari bolaning ijtimoiy moslashuv qobiliyatini belgilaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, farzandlariga mehr-muhabbat bilan yondashuvchi, ularning savollariga e’tibor bilan javob beruvchi, mustaqillik va tanlov erkinligini qo‘llab-quvvatlovchi oilalarda o‘sayotgan bolalar ijtimoiy vaziyatlarga tez moslashadi, o‘z fikrini ochiq ifoda etadi va tengdoshlari bilan muloqotda faolroq bo‘ladi.

Muhokamadan kelib chiqib, aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi faqat ta’lim muassasasi mas’uliyatiga emas, balki avvalo oilaning ongli tarbiyaviy faoliyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham, oilani ijtimoiy hamkor sifatida jalb qilgan holda, bolani har

tomonlama ijtimoiy jihatdan yetuk inson etib voyaga yetkazish - maktabgacha ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida oila birlamchi va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bola uchun oila - bu nafaqat biologik muhit, balki ijtimoiy ong, shaxsiy qadr-qimmat, kommunikativ ko'nikmalar, madaniyat va axloqiy qadriyatlar shakllanadigan asosiy makondir. Aynan oiladagi muloqot, hissiy qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy yondashuv va ota-onalarning o'zaro munosabatlari bolaning ijtimoiy tajribasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ijobiy oilaviy muhitda voyaga yetayotgan bolalar o'z tengdoshlari bilan samarali aloqa o'rnatadi, guruhda faol ishtirok etadi, o'z fikrini erkin ifoda eta oladi hamda ijtimoiy rollarni o'zlashtirishda faol bo'ladi. Aksincha, beqaror yoki ziddiyatli oilaviy muhitda ulg'ayayotgan bolalarda muloqotda tortinchoqlik, ijtimoiy cheklanish, tajovuzkorlik yoki o'zini past baholash holatlari kuzatiladi.

Shu boisdan, maktabgacha ta'lim muassasalari bilan bir qatorda ota-onalar, vasiylar va oilaviy muhitni tashkil etuvchi barcha subyektlarning farzand tarbiyasida faol va ongli ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida samarali ijtimoiylashuvni ta'minlash uchun oilalarni pedagogik va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, ota-onalarning ijtimoiy-pedagogik savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi muvaffaqiyati oilaning shaxsiy namunasi, mehrli munosabati va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Demak, oilani faol hamkor sifatida jalb qilgan holda, bolaning to'laqonli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlash mumkin. Bu esa kelajak avlodning ijtimoiy barkamol, faol va mas'uliyatli insonlar bo'lib yetishishida mustahkam poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Axmedova, N. M. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2019. – 256 b.
2. G'ofurova, M. Sh. Oilaviy tarbiya asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. – 212 b.
3. Vygotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: "Pedagogika", 1991. – 387 b.
4. Bronfenbrenner, U. Ekologik tizimlar nazariyasi: Shaxs va ijtimoiy muhit. – Moskva: "Progress", 2002. – 198 b.
5. Abdukodirov, A. A. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2018. – 224 b.
6. Karimova, R. S. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila va bog'chaning roli. – Toshkent: "Akademnashr", 2017. – 180 b.
7. Allport, G. Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi. – Moskva: "Yuniti", 2003. – 210 b.
8. Qurbonova, N. K. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi. – Buxoro: "Buxoro universiteti nashriyoti", 2021. – 146 b.
9. Zokirova, Z. R. Ta'lim tizimida oilaviy pedagogika. – Toshkent: "Noshir", 2015. – 164 b.
10. Piaget, J. Bola aqliy rivojlanishi psixologiyasi. – Moskva: "Prosveshchenie", 1986. – 295 b.
11. UNESCO. Early Childhood Care and Education: Global Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 112 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha davlat dasturi ("Ilk qadam"). – Toshkent: 2022.

Shukurova Dilfuza Raupovna
Qarshi davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TALIM MUTAXASSISINING PSIXOLOGIK QIYOFASI

Annotatsiya. *Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassisining psixologik qiyofasi – bu uning kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy sifatlari va pedagogik faoliyatda samarali ishlashga imkon beruvchi psixologik xususiyatlarning majmui hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim mutaxassisiga xos bo‘lishi lozim bo‘lgan asosiy psixologik ko‘nikmalar: bolalar psixologiyasini chuqur bilish, emotsional barqarorlik, empatiya, pedagogik muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, kreativ yondashuv va stressga chidamlilik kabi jihatlar tahlil qilinadi. Mutaxassisning psixologik qiyofasini shakllantirishda ijtimoiy muhit, ta’lim jarayoni va mustaqil amaliy faoliyatning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada bo‘lajak tarbiyachining professional o‘zini-o‘zi rivojlantirish ehtiyoji, bolalar bilan ishlashda psixologik moslashuvchanlik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik jihatdan yetuk mutaxassis maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlay oladi. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan birga, amaliy psixologik treninglar, kommunikativ mashg‘ulotlar va reflektiv tahlillarni o‘tkazish zarur. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassisining psixologik qiyofasi uning professional mahorati va bolalar tarbiyasidagi muvaffaqiyatining kaliti hisoblanadi.*

Tayanch so‘z va tushunchalar: *maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim mutaxassisi, innovatsion kasbiy faoliyat, ijodiy yondashuv, pedagogik jarayon, malakali kadr, tarbiyalanuvchi, kasbiy rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ОБЛИК БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Психологический облик будущего специалиста дошкольного образования представляет собой совокупность его профессиональной подготовки, личностных качеств и психологических характеристик, обеспечивающих успешность педагогической деятельности. В статье рассматриваются ключевые качества, которыми должен обладать педагог дошкольного образования: глубокое знание психологии детей, эмоциональная устойчивость, эмпатия, культура педагогического общения, наблюдательность, креативный подход и стрессоустойчивость. Особое внимание уделяется роли социальной среды, образовательного процесса и самостоятельной практической деятельности в формировании профессионально значимых качеств. Также подчеркивается важность развития у будущего воспитателя потребности в профессиональном саморазвитии, психологической гибкости и социальных компетенций. Исследования показывают, что психологически зрелый педагог способен эффективно поддерживать интеллектуальное, эмоциональное и социальное развитие дошкольников. В связи с этим процесс подготовки специалистов должен включать не только теоретические знания, но и практические психологические тренинги, коммуникативные упражнения и рефлексивный анализ. В заключение отмечается, что психологический облик будущего специалиста дошкольного образования является ключом к его профессиональному мастерству и успешной реализации воспитательных задач.*

Ключевые слова и понятия*: дошкольное образование, специалист дошкольного образования, инновационная профессиональная деятельность, творческий подход, педагогический процесс, квалифицированный кадр, воспитуемый, профессиональное развитие.*

THE PSYCHOLOGICAL PROFILE OF A FUTURE PRESCHOOL EDUCATION SPECIALIST

Annotation. *The psychological profile of a future preschool education specialist is defined as a combination of professional preparation, personal qualities, and psychological traits that enable effective pedagogical activity. This article highlights the key psychological characteristics required of a preschool teacher: a deep understanding of child psychology, emotional stability, empathy, pedagogical communication skills, attentiveness, creativity, and resilience to stress. The role of social environment, educational training, and independent practical experience in shaping the professional identity of future specialists is emphasized. Moreover, the study addresses the importance of self-development, psychological flexibility, and the acquisition of social competencies in preschool educators. Research findings indicate that a psychologically mature specialist can successfully support the intellectual, emotional, and social development of preschool children. Therefore, the preparation of future teachers should not be limited to theoretical knowledge but must also include practical psychological training, communicative exercises, and reflective practices. In conclusion, the psychological profile of a future preschool education specialist is considered the foundation of professional competence and the key to success in early childhood education.*

Key words: *preschool education, specialists of preschool establishments, innovation professional activities, interactive methods, pedagogical opportunity, creative approach, pedagogical conditions, professiogram.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-son qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas Har bir bola o‘ziga xos xulq-atvor va xarakterga ega. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar ta’limtarbiya berishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim. Pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalar, pedagog-tarbiyachi kasbiga xos bo‘lgan barcha sifatlarni yaxshi egallagan bo‘lishlari kerak. Buning uchun pedagogika oliy o‘quv yurtlarida talabalarni tanlab olishda ularning pedagogik layoqatga egaligini aniqlash lozim. Kasbiy rivojlanishning asosiy ko‘satkichi sifatida kasbiy layoqat, ya’ni bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bois kasb tanlash bo‘yicha keng ko‘lamdagi emperik materiallarda kasbiy sifatlar turli xil mehnat faoliyatiga muvofiq tanlangan. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, kasbiy layoqat egasi o‘zida bir qator sifatlar majmuini emas, balki ularning sintezi, funksional apparati sifatida faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Kasbiy kamolotni belgilovchi asosiy psixologik omillar orasida shaxsning individual psixologik xususiyatlariga alohida urg‘u beriladi. Kasbiy faoliyatga o‘tish uzluksiz, bosqichli faoliyat bo‘lib, ta’limda mustaqil kasbiy faoliyatga o‘tish har bir insonning e’tiborga molik jihatidir. Bugungi sharoitda kasbiy tajriba, mutaxassisning kasbiy faoliyati yakunlangunga qadar ma’lum darajada eskirib bormoqda. Shu bois, shaxsning o‘ziga munosib kasb tanlashida ham bunday holatlarning ta’siri bor. Shu sababli ham, shaxsning kasbni to‘g‘ri tanlaganligi, uning mayllari, qiziqishlari, kasbiy yo‘nalishlari va tayyorgarligi, kasbiy ustanovkalaridagi o‘zgarishlarni muntazam o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki muayyan kasbni egallashning dastlabki bosqichida bo‘lg‘usi mutaxassis uni egallash uchun nima qilish zarurligini yetarlicha tasavvur qila olmaydi .

Ma’lumki, bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni pedagogika oliy o‘quv yurtlarida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda davlat va jamiyat tomonidan maktabgacha ta’lim sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni oldiga yangi talablar qo‘yilmoqda. Pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashga qo‘yilgan talablar bo‘lajak pedagog-tarbiyachi modelida o‘z ifodasini topishi kerak. Ushbu model maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Maqolada berilgan fikrlar taklif sifatida kiritilmoqda. Keyinchalik muallif o‘z tadqiqot ishi doirasida modelni amaliy tajribadan o‘tkazishni rejalashtirgan. Bu model bo‘lajak pedagog-

tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda yaratilishi lozim. Mazkur model uchta o‘zaro aloqador tarkibiy qismdan iborat:

1. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachining kasbiy sifatlari;
2. Bolalarni rivojlantirishga oid bilimlar majmui;
3. Maktabgacha ta’lim jarayonni tashkil etish uchun zarur ko‘nikma va malakalar tizimi.

Bu tushunchalar o‘zaro muvofiqlashgan bo‘lib, bo‘lajak pedagog-tarbiyachining faoliyat ko‘rsatishi va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishiga yo‘naltirilgan harakatini ifodalaydi. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy sifatlari modelning birinchi qismi sirasiga: g‘oyaviy yetuklik; e’tiqodlilik; pedagogik faoliyatga intilish, unga qiziqish; pedagogik vazifalarni ijodiy ravishda hal qilishga bo‘lgan ehtiyoj kabi kasbiy-axloqiy sifatlar kiradi. Bular pedagog-tarbiyachilarning o‘z kasbi va tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadi. Mazkur modelning ikkinchi qismida bolalarni rivojlantirish va istiqboldagi o‘quv faoliyatiga tayyorlash haqidagi bilimlar majmui o‘z ifodasini topgan. Bo‘lajak pedagogtarbiyachilar bolalarni rivojlantirish qonuniyatlarini bilishi, ularni shakllantirish vositalari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi, ularga taqdim etiladigan bilimlar, tushunchalar, ma’lumotlarning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini anglab yetishi lozim. Modelning uchinchi qismini bo‘lajak pedagogtarbiyachilarning kasbiy ko‘nikmalari va malakalari tashkil etadi. Pedagog-tarbiyachilar bolalar bilan ishlashda ilmiy bilimlar asosida o‘zining faol hayotiy nuqtai nazarini ifodalashi uchun quyidagilarni bilishi zarur: tarbiyalanuvchilar shaxsi va ularning ayrim sifatlarini kompleks metodikalar yordamida o‘rganish; tarbiyalanuvchilar shaxsi va ular jamoasini rivojlantirishni loyihalashtirish; maktabgacha ta’lim jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish; ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashga erishish; ta’limtarbiya jarayonini kompleks boshqarish; tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanish darajalarini baholash mezonlarini aniqlab, bu sohada samaradorlikka erishish; tarbiyalanuvchilarga qat’iy, axloqiy meyoriy talablar qo‘ya olish; tarbiyalanuvchilar jamoasida qulay pedagogik muhitni vujudga keltirish; pedagog-tarbiyachi sifatida o‘z faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish kabilar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini belgilash parametrlarini ishlab chiqdik. Ular: – bo‘lajak pedagog-tarbiyachida kasbiy sifatlarning shakllanganligi; – bo‘lajak pedagog-tarbiyachida ta’lim-tarbiya berish mahoratining shakllanganligi; – insonparvarlik sifatlarining shakllanganligi; – ma’naviy-madaniy tayyorgarlikning tarkib topganligi; – kasbiy pedagogik fikrlashning takomillashtirilganligi; – tashxislash, pedagogik-psixologik tayyorgarlikning ta’minlanganligi; – bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilganligi; – kommunikativ qobiliyatga egaligi va individual ijodiy rivojlanish mayllarining qo‘llab-quvvatlanganligi; – tarbiyalanuvchilar faoliyatini rag‘batlantirish kompetensiyasiga egaligi; – pedagogik nazokatning tarkib topganligi; – tarbiyalanuvchilarga nisbatan talabchanlik va adolatlilik sifatlarining shakllanganligi; – mustaqil bilim olish ko‘nikmalarining barqarorlashganligi; – pedagogik odobga egalik; – umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilishi; – kitobxonlik madaniyatining tarkib topganligi; – obrazli o‘qish ko‘nikmalarining shakllanganligi; – tashkilotchilik, ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga yo‘nalganligi; – pedagogika fanining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olishga tayyorligi kabilar. Maktabgacha ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan tub islohotlar mashg‘ulotlarni loyihalashga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Maktabgacha ta’limga texnologik yondashuv bu jarayonni samarali boshqarish va qo‘yilgan ta’limiy maqsadlariga erishishni kafolatlaydi. Ta’lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma’lum sohasini qamrab oladi. Tarbiyachilar faoliyati bir tomondan, tanlangan texnologiyaga muvofiq keladigan, uning negizini tashkil etuvchi tizimni hosil qilsa, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning yaxlit ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi . Bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga texnologik yondashuv o‘quv jarayonini yaxlit ifodalash va uni to‘liq tasavvur etish imkonini beradi. U ta’limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochishda qulaylik tug‘diradi. Jumladan: natijani yuqori darajadagi aniqlikda aks ettirish va pedagogik jarayonni samarali boshqarish; mavjud pedagogik tajribalarning ilmiy asoslarini o‘rganish va ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish; ta’lim-tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarni yechish; tarbiyalanuvchi shaxsi taraqqiyoti uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirish;

pedagog-tarbiyachilarga noxush holatlar natijasida ko‘rsatiladigan ta’sirlarni kamaytirish; ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik imkoniyatlardan oqilona foydalanishga erishish kabilar. Muallifning tadqiqoti doirasidagi o‘rganishlar natijasida aniqlandiki maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan muloqot quyidagi shakllarda uyushtiriladi:

-pedagogik jarayonni loyihalash; tarbiyalanuvchilar guruhi bilan muloqotga kirishish;

- rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqot jarayonini boshqarishni tashkil etish;

-aoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muloqot tizimining andozasini yaratish;

- tarbiyalanuvchilar bilan bevosita muloqotni tashkil etish kabilar.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog-tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o‘zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular sust-ijobiy, barqaror ijobiy hamda beqaror bo‘ladi. Ta’limiy omillarini yaratishga mo‘ljallangan pedagogik texnologiyalar pedagogtarbiyachilarning tarbiyachilarga muloqot asosida ta’sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi.

Ayrim metodlar yoki muloqot turlari bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashda alohida samaradorlikka ega. Ular ishontirish, isbotlangan natijalarga asosolanish, bevosita va bilvosita ta’sir, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zaro ta’sir metodlari. Amaliyotda oqlangan har qanday ta’lim texnologiyasi tarbiyalanuvchi shaxsini faollashtirishga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchi ta’lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta’lim-tarbiya jarayonida erkinlikka intilishi, mustaqilligi, shaxsiy fikrlarning mutloq o‘ziga xosligi, o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyojining mavjudligi kabilarni hisobga olgan holda, unga uning o‘ziga xosligini ta’kidlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini berish va buning uchun qulay pedagogik sharoit yaratish lozim. Chunki, har qanday tarbiyalanuvchi o‘ziga xosligini namoyon qilishga intiladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar bir qator o‘ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi - tarbiyalanuvchilar tafakkurini boyitish, ularni har tomonlama rivojlantirish, maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat bo‘lib, muayyan tushunchalar va ma’lumotlar, bilim elementlari tarbiyalanuvchilarga taqdim etiladi . Birgalikda ijodiy izlanish muhim pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, aynan u pedagogtarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarni ijodkorlik quvonchini namoyon qilish, yangiliklar yaratish, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi. Bunda pedagogtarbiyachilar ta’lim-tarbiya jarayonining birinchi subyekti sifatida namoyon bo‘ladilar. Ular tomonidan bilish usullarini mustaqil belgilash, bolalarning bilish faoliyatini rag‘batlantirish, ularni har tomonlama qo‘llabquvvatlash kabi pedagogik faoliyat amalga oshiriladi. Bu jarayonda tarbiyachilar o‘z xatolarini tuzatish, shaxsiy tajribalariga tayanish, o‘z layoqatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tarbiya jarayoni har bir tarbiyalanuvchi uchun o‘z qiziqishlari va bilish qobiliyatlarini mashg‘ulotlar davomida namoyon qilish imkoniyati yaratilishi zarur. Shu bois, respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uning innovatsion asoslarinini shakllantirish, moddiy-texnik va uslubiy ta’minotini rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib takomillashtirish vazifasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Bunda bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligi har bir tarbiyalanuvchining imkoniyatlarini aniqlash asosida ularning shaxs sifatida rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga ko‘maklashadi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

● bugungi kunda maktabgacha va ta’lim muassasalari pedagoglarida kasbiy faoliyat tajribasi, pedagogik jamoa, ta’lim-tarbiya jarayoni hamda ta’lim muassasasini boshqarish ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligini ko‘rsatdi;

● mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimi tubdan islloh qilinayotgan hozirgi davrda mazkur ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatadigan pedagoglarning bilim saviyasiga, kasbiy mahoratiga katta talablar qo‘yilmoqda;

● maktabgacha ta’lim muassasalarida tarmoqlarning kengayishi, davlat va nodavlat muassasalari sektorining rivojlanishi barobarida ushbu ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatadigan pedagoglar kasbiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, pedagogik jarayon va ta’lim muassasasini boshqarish, uni rivojlantirish mexanizmlarini puxta o‘zlashtirishlari talab qilinadi;

● maktabgacha ta’lim sohasidagi ijtimoiy buyurtma ko‘lamining kengayishi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni oldiga o‘ziga xos talablar qo‘ymoqdaki, bu kasbiy ta’lim jarayoniga faoliyatli, kreativ, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni keng tatbiq qilish zaruriyatini kuchaytirdi;

● maktabgacha ta’lim tizimi, unda faoliyat ko‘rsatadigan pedagogik kadrlar bilim darajasini takomillashtirish ehtiyoji bu sohada faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassislarni tayyorlashning nazariy asoslarini rivojlantirish yangi yondashuvlar bilan boyitish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Maktabgacha ta’limni sifat jihatdan takomillashtirish unga qo‘yilgan talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, mazkur ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini mazmun jihatdan boyitish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707 son qarori.

2. Djurayeva B.R.,Umarova X.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Organizatsionnosoderjatelniye osnovi innovatsionnoy deyatelnosti doshkolnix obrazovatelnix uchrejdeniy / Metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zPFITI, 2016. - 100 str.

3. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. - Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

4. «Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirish: muammo va yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari. - T.: O‘zPFITI. LESSON PRESS. 2017 yil 15 sentabr. - 168 bet.

Raxmatova Aziza Rustam qizi
Osiyo texnologiyalari universiteti Pedagogika kafedrasi o‘qituvchis

PSIXOLOG TALABALARDA PSIXOLOGIK HIMOYANING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxsda psixologik ximoya mexanzmi shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari xususidagi fikrlar bayon etilgan. Unda eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining turli yo‘nalishlarda o‘zgarishiga olib kelishi taxlillarda orqali ifodalangan.*

Kalit so‘zlar*: psixologik ximoya, diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklari, himoya tizimining umumiy kuchlanishi, psixologik himoya, koping xulq-atvor.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ

Аннотация*. В статье представлены взгляды на анализ программной эффективности формирования конструктивного механизма психологической защиты. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты, побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.*

Ключевые слова*: конструктивная психология, диагностические, теоретические и организованные экспериментальные блоки, анкета Плутчика - Келермана-Конте, общая напряженность защитной системы, психологическая защита, компенсаторное поведение.*

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION OF PSYCHOLOGY STUDENTS

Abstract. *This article presents the views on the analysis of software effectiveness of the formation of a constructive psychological defense mechanism. In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.*

Key words: *and concepts: constructive psychology, diagnostic, theoretical and organized experimental blocks, Plutchik-Kelerman-Conte survey, overall voltage of the protective system, psychological protection, coping behavior.*

Kirish Psixologik himoya hodisasi psixologiya fanida eng munozarali hodisalardan biridir. Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishini belgilaydigan psixologik himoyaning roli haqida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bir qator mualliflar psixologik himoya tushunchasini moslashishning yetarli bo‘lmagan usullarini, shaxsning atrof-muhit bilan real aloqasini susaytiruvchi, uning rivojlanishini qashshoqlashtiruvchi va deviant xulq-atvor shakllanishiga yordam beruvchi patologik kommunikatsiyalar sifatida baholaydilar. Boshqalar “Men” -shaxsining ijobiy tasvirini saqlab qolish uchun himoyani qo‘llash zaruriyatini, asabiylashish vaziyatini boshdan kechirish, dezorganizatsion xulq-atvorning oldini olish uchun zarur imkoniyatlar sifatida baholaganlar.

Mavzuning dolzarbligi Bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi va buning natijasida ma’lum bir ziddiyatlarning yuzaga kelishi ham sir emas.Bunday ziddiyatlarning mavjudligi shaxsni psixologik himoya qilishning turli yo‘nalishlarini yuzaga keltiradi. Ulardan biri psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv faoliyatini ta’minlash shart-sharoitlari, mezonlari

va xususiyatlarini aniqlashni maqsad qiladi. Bu ulardan foydalanish samaradorligi muammosini oydinlashtirishga yordam beradi bu esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir..

Shaxsni psixologik himoya qilish faoliyati uning maxsus mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Psixologik himoya mexanizmlari ostida "kelib tushadigan axborotlarni ongli ravishda qayta ishlash hisobidan shaxsning intrapsixik moslashuv jarayonlari" yuzaga keladi, deb tushunish mumkin. Bu operatsiyalarda barcha ruhiy jarayonlar va funksiyalar ishtirok etadi: his-tuyg‘ular, fikrlash, tasavvur, diqqat, xotira, idrok. Psixik shikastlanish vaziyatida himoya mexanizmlari axborot filtrlari sifatida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi; axborotni tartibsizlashtirish yoki rad etish yoki buzib tashlash yoki boshqa bir ma’qulrog‘i bilan almashtirish tarzida ifodalanadi. Holatning bunday ichki o‘zgarishi atrofdagi voqelikka moslashuvning maxsus shakliga (himoya mexanizmiga) sabab bo‘ladi.

Eksperimental tadqiqotlar, psixologik himoya tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari turli shaxslar uchun bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ba’zilarda himoya zaif bo‘ladi va kerakli narsalardan himoya qilmaydi, boshqalarda esa shaxsni rivoj topishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni idrok etmaydigan darajada shunchalik intensiv himoya shakllanadi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.

Yuqorida aytib o‘tilganlar profilaktik funksiyalarni va jamiyatda shaxsning buzilishiga olib keladigan patologik himoyani bajaradigan normal, doimiy harakatlanadigan zaruriyatni farqlash talab qilinadi. Himoya mexanizmlarini normal va patologik tasniflashga o‘rinishlar zamonaviy psixologiyada tasvirlangan (I.M. Granovskaya, G.V. Grachev, L.R. Grebennikov, YE.L. Dotsenko, B.V. Zeygarnik, V.G. Kamenskaya, F. Kramer, V.F. Morgun, I.M. Nikolskaya, YE.S. Romanova, R. Plutchik, A. Freud, T.S.). Ushbu tadqiqotlarda psixologik himoyani tasniflash uchun turli yondashuvlar qo‘llaniladi: 1. Klinik-neyropsixik buzilishlarning yetakchi belgilariga asoslangan; 2. Ontogenetik-alohida himoya turlari shakllanishining vaqtiga asoslangan; 3. Evolyutsion-emotsional- moslashuv tabiatiga ega bo‘lgan alohida asosiy his-tuyg‘ularni nazorat qilish tamoyiliga asoslangan. Birinchi yondashuv patopsixologiyada, tibbiyotda va psixiatriyada keng qo‘llaniladi. Ikkinchisi 4dan 36gacha bo‘lgan ibtidoiy (bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida birinchi bo‘lib shakllangan va namoyon bo‘lgan) va undan yuqori (rivojlanish jarayonida ibtidoiy o‘zgartiriladi)ga ajratiladi. Uchinchi yondashuv R. Plutchik tomonidan ilgari surilgan hissiyotlarning psixoevolyutsion nazariyasiga asoslangan. Birinchi marta himoya mexanizmlarining tasnifi A. Freydning monografiyasida berilgan

Muallif quyidagi mezonlarni taklif qiladi: "men" tahdidining lokalizatsiyasi, ontogenezda shakllanish vaqti. Bundan tashqari, A. Freyd rivojlanish jarayonlarining normalligi muayyan himoya jarayonlari va tendensiyalarning hukmronligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. Agar shaxs bir himoya usulini qunt bilan qo‘llasa va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlar ham shu himoyaga asoslansa, bu hodisani meyoriymi yoki patologik, qay darajada ko‘rib chiqilishini aniqlash qiyin. Keyinchalik, so‘ngi mezon psixologik himoya mexanizmlarining zamonaviy bo‘linmalarida birlamchi va ikkilamchi, ibtidoiy va rivojlangan, adaptiv va moslanmaydigan, yetarli va kam, samarali va samarasiz bo‘lgan holda ishlatilgan.

Psixologik himoya mexanizmlarining asabiylashish sharoitida namoyon bo‘lishini M.A. Mkrtchyan ko‘rib chiqqan Shaxs bunday vaziyatlarda hech qanday yagona ajratilgan mexanizm bilan emas, balki ulardan biri yetakchi va strukturaviy rol o‘ynaydigan himoya reaksiyalari butun majmuasi bilan reaksiyaga kirishadi. Himoya majmualarining shakllanishiga shaxsning o‘tmish tajribasi, uning qadriyatlari va munosabatlari ta’sir etadi. Muallif himoya mexanizmlarini ikki asosiy guruhga ajratadi: faol va sust ko‘rinishlarga. Faol himoyalar frustratorni, nizoli vaziyatni bevosita hujumni bartaraf etish orqali nizolarni bartaraf etishga olib keladi. Sust himoya reaksiyalari to‘siqlarni bartaraf etish orqali ziddiyatni bartaraf etishga olib keladi. Shaxsning yoshga oid rivojlanish bosqichida intrapersonal himoya mexanizmlarining tobeligiga asoslanib, bilim jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini R. Plutchik primitivlik-yetuklik mezoniga ko‘ra himoya tasnifini tuzadi. Ontogenetik jihatdan dastlabki himoyalar perseptual jarayonlarga asoslangan holda paydo bo‘ladi: diqqat, sezgilar, idrok, ularni faoliyatda ko‘rmaslik, axborotni rad etish bilan bog‘liq. Bu guruhga R. Plutchik rad etishni, loyihalashni, orqaga qaytishni va ularning analoglarini tegishli,

deb hisoblaydi. Mazkur himoyalar eng ibtidoiy, va ulardan foydalanadigan odam esa hissiy va chala shakllangan shaxs sifatida ifodalanadi. Keyinchalik, xotira jarayonlariga asoslangan himoyalar paydo bo‘ladi: o‘rnini egallash va o‘rnini almashtirish. Ushbu mexanizmlarning ta’siri axborotni unutishga asoslangan. Eng murakkab va yetuk himoyalarga o‘rnini almashtirish, kompensatsiya va ratsionalizatorlik kiradi. Ular tasavvur va fikrlashning rivojlanishi hajmiga ko‘ra shakllanadi va axborotni himoyali qayta ishlash va qayta baholashga yordam beradi. Biz sakkizta asosiy himoya mexanizmlarining konstruktivlik darajasini belgilaydigan va ularning ishlash xususiyatlarini ko‘rsatadigan holda tasvirlaymiz.

Inkor etish - dastlabki ontogenetik va eng ibtidoiy himoya mexanizmidir. Voqelikdagi narsa va hodisalar idrok qilinayotgan vaqtda axborot filtri faoliyat ko‘rsatadi. Shaxsning tasavvur mazmuni va dunyoqarashiga qarama-qarshilik qiladigan ma’lumotlar qabul qilinmaydi. Inkor etish mavjud voqelikni infantil almashtirishni nazarda tutadi va har qanday salbiy jihatlar bloklanadi va ijobiy tizimga ruxsat etiladi. Natijada, shaxs travmatik vaziyatni bosqichma-bosqich boshdan kechirish imkoniga ega bo‘ladi. Yangi sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo‘lib, konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari

1-jadval.

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari	Inkor etish	Loyihalashtirish	Orqaga qaytish	O‘rin almashtirish	Siqib chiqarish	Ratsionalizatsiya	Kompensatsiya	Giperkompensatsiya
Yetakchi bilim jarayoni	O‘zlashtirish	O‘zlashtirish	Xotira	Fikrlash	Xotira	Fikrlash	Fikrlash	Fikrlash
Kechirgan his-tuyg‘ular	Rad etish	Yoqimsizlik	Jur’atsizlik	G‘azab	Qo‘rquv	Xavfsizlik	G‘am, qayg‘u, xorlik	G‘am, qayg‘u, xorlik
Moslashish tabiati	Sust	Faol	Faol	Aralash	Sust	Sust	Tobe emas	Tobe emas
Konstruk-tivlik darajasi	Quyi	Sust	Quyi	O‘rta	O‘rta	Yuqori	Yuqori	Yuqori

Loyihalashtirish - psixologik himoya shakli bo‘lib, bu tushuncha dastlab Z.Freyd tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Loyihalashtirishning funksiyasi subyekt tomonidan uning shaxsiy fikrlari, kechinmalari, siqib chiqarilgan motivlari va xarakter xislatlarini o‘zi anglagan va anglamagan holda boshqa odamlarga ko‘chirilishida namoyon bo‘ladi. Ba’zan o‘z qilmishlari uchun javobgarlikni o‘tkazish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda atributiv loyihalashni ham farqlaydilar (o‘z salbiy sifatlarini ongsiz rad etish va ularni atrofdagilarga tarqatish); ratsionalistik o‘ziga tegishli fazilatlarni anglash va ("hamma shunday qiladi" formulasiga ko‘ra loyihalash); xushomadgo‘y (o‘zgalarning haqiqiy yoki xayoliy kamchiliklarini yaxshi fazilatlar sifatida talqin qilish); similyativ (kamchiliklarni o‘xshashlik bilan moslashtirish, masalan, ota – bola). Ushbu mexanizm ijtimoiy moslashishning faol turiga ega bo‘lgan shaxslar uchun xosdir. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Orqaga qaytish – Zigmund Freydnazariyasi bo‘yicha psixologik himoya mexanizmlaridan biri bo‘lib, inson tahlikali holatlarda odatda bolaligida o‘zlashtirgan xulq-atvor shakllariga murojaat etadi. Orqaga qaytish inqiroz, tanazzul, chekinish ma’nolarini ham ifodalaydi, rivojlanishning ancha oldingi darajalariga qaytish. Har bir katta yoshdagi kishi hatto juda yaxshi moslashib olgan bo‘lsada,

“yengil tortib olish” uchun vaqti-vaqti bilan himoyalanishning bu usuliga qaytib turadi (bolaligida odatlangan ish-harakatlarini takrorlaydi). Orqaga qaytish ko‘proq hulq-atvorning va qoniqishning yetilmagan usullariga qaytishni taxmin qiladi. Regressiv xulq odatda bolaning infantilizatsiyasi va hissiy simbioziga munosabatda bo‘lgan kattalar tomonidan rag‘batlantiriladi. Orqaga qaytish- ijobiy o‘z-o‘zini his qilish uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan va tajovuzkorga bevosita tobelikka tushib qolish xavfi bo‘lgan qo‘rquv hisini jilovlash uchun ishlatiladi. Qo‘rquv haqiqiy rag‘batni, shuningdek, u bilan bog‘liq barcha narsalar, faktlar va holatlarni unutish bilan bloklanadi. Mexanizm moslashuvning sust turiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘llaniladi. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

O‘rin almashtirish - g‘azab tuyg‘usini jilovlash uchun amal qiladi. Shaxs ko‘proq zaifroq jonli yoki jonsiz obyektga yoki o‘ziga tajovuz qilinganligiga e’tibor bergan holda keskinlikni yo‘qotadi. O‘rin almashtirish ham faol va ham sust shakllarga ega bo‘lib, shaxslar tomonidan ularning ziddiyatli munosabat turlaridan va ijtimoiy moslashishidan qat’iy nazar shaxs munosabatlarida foydalaniladi. Mazkur mexanizm faol moslashish turiga ega bo‘lgan shaxslar uchun xosdir. Bu holatda konstruktivlikning o‘rtacha darajasi namoyon bo‘ladi.

O‘rnini egallash (siqib chiqarish) – bu psixologik himoya mexanizmini dastlab Zigmund Freyd o‘rganib chiqqan (uning analoglari "bostirish"). Vahima yoki vasvasaga qarshi tura olmaydigan har bir kishida siqib chiqarish "o‘zini" himoya qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda," repressiya " - bu shaxs uchun qabul qilinadigan impulslar: istak, fikr, tashvish uyg‘otadigan his-tuyg‘ular ongsiz namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmi hisoblanadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu mexanizm shaxsning boshqa himoya mexanizmlarining harakati ta’sirida ham namoyon bo‘ladi. Xulq-atvorda hali shakllanmay, repressiya qilingan (tushkunlikka tushgan) impulslar, ularning hissiy va psixovegetativ qismlarini saqlab qolishadi. Misol uchun, psixotravmatik vaziyatning mazmunli tomoni tushunilmaydigan odatiy holat bo‘lib, inson har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlarning amalga oshishini bekor qiladi, ammo intrapsixikada mojaro davom etadi va uning oqibatida paydo bo‘lgan hissiy tanglik subyektiv ravishda tashqi ko‘rinishdagi tashvish sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun yuzaga kelgan istaklar nevrologik va psixofiziologik alomatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Yuzaga kelgan sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo‘lib, konstruktivlikning o‘rta darajasi ifodalanadi.

Ratsionalizatorlik - stressli holatlarda yuzaga keladigan psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda yaqinlashib kelayotgan salbiy hodisa har tomonlama tahlil qilinadi, uning noaniqlik darajasi pasaytiriladi, hodisaning ichiga kirib, unga oldindan moslashib boriladi, kutilmaganlik (to‘satdanlik) effekti bartaraf qilinadi. Muammoning yechimiga erishish oqilona tashkil etiladi. Bu mexanizm, moslashuvning sust turiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘llaniladi. Konstruktivlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Kompensatsiya - psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda, ruhiy yoki jismoniy funksiyalarni maqsadga muvofiq rivojlantirish hisobiga adekvatlik hisining kechinilishi ro‘y beradi. Kompensatsiya insonning muayyan sohadagi biror bir kamchiligi, nuqsoni yoki ojiz tomonini boshqa sohalarda o‘zini namoyon qilish orqali bekitishga harakat qilishidir. Ushbu psixologik himoya mexanizmi ontogenetik jihatdan eng so‘nggi va kognitiv jihatdan murakkab mudofaa mexanizmidir. Haqiqiy yoki xayoliy yo‘qotish, yetishmovchilik va xorlik sababli g‘am va qayg‘u kabi his-tuyg‘ularni jilovlash uchun mo‘ljallangan. Kompensatsiya-o‘rnini qoplamoq, o‘rnini to‘ldirmoq ma’nolarida kelib, bu kamchiliklarni tuzatish yoki yaxshi sifatlarga o‘rnini almashtirishga urinishni o‘z ichiga oladi.

Kompensatsiya klasteriga ideal darajadagi kompensatsiya deb tushunish mumkin bo‘lgan **giperkompensatsiya** mexanizmi ham kiradi. Giperkompensatsiya-haddan tashqari, oqilona yoki mahorat bilan o‘rnini qoplamoq, o‘rnini to‘ldirmoq ma’nolarini ifodalaydi. Mexanizmdan foydalanish ijtimoiy moslashuvning individual turiga bog‘liq emas. Konstruktivlikning yuqori darajasi amal qiladi.

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo‘yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida

amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi.

Psixologik tadqiqotimizning diagnostik natijalarini muhokama qilishning navbatdagi bosqichiga o‘tamiz. Ikkinchi jadvalda taqdim etilgan psixologik himoya mexanizmlarining talabalar guruhlaridagi sezilarli farqlarini tahlil qilish Styudent mezoni yordamida amalga oshirildi.

2-jadval.

1-kurs talabalarini psixologik himoya qilish mexanizmlarining keskinligini taqqoslash Tg-1 va Ng-1 o‘zaro ta’sirdan keyin

Psixologik himoya mexanizmlari	Tg-1kursda psi-xologik himoya mexanizmlarin-ing kuchlanishi (%)	Ng-1kursda psix-ologik himoya mex-anizmlarining kuchlanishi(%)	t< P
O‘rnini egallash	38	50	2,12
Orqaga qaytish	43	54	2,55
O‘rin almashtirish	41	46	2,01
Rad etish	44	60	2,15
Loyihalatirish	56	60	2,02
Kompensatsiya	69	60	2,80*
Giperkompensatsiya	42	33	2,78*
Ratsionalizatsiya	54	51	1,99
Psixologik himoya usullarining keskinligi	48	50	1,83


Izoh: 1,11-0,05 (2.04) darajasida muhim ahamiyatga ega.
1,11* - muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 0,01 (2.75).
t< P. - Styudent mezonining ahamiyatli ko‘rsatkichi.

Jadval natijalari talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining kuchlanish darajasini taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, nazorat guruhida o‘rnini egallash, orqaga qaytish, rad etish va loyihalash kabi passiv himoya usullari yuqoriroq darajada namoyon bo‘lgan. Bunday ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, bu guruh talabalari qiyinchiliklar oldida ko‘proq inkor etish, bolalarcha regressiyaga qaytish yoki tashqi sabablarni ayblash orqali o‘zini psixologik himoya qilishga moyil. Ayniqsa, rad etish (60%) va orqaga qaytish (54%) darajasining yuqoriligi shaxsning real vaziyatni qabul qilmasligi va konstruktiv yechim topishda qiyinchilikka duch kelishini ko‘rsatadi.

Tajriba guruhida esa kompensatsiya (69%) va giperkompensatsiya (42%) kabi faol himoya mexanizmlari yuqori bo‘lib, statistik jihatdan ishonchli farqlar qayd etilgan ($p<0,05$). Bu holat shuni bildiradiki, bu guruh talabalarida kamchiliklarni boshqa sohalardagi yutuqlar orqali qoplashga, shuningdek, o‘zini haddan tashqari isbotlashga intilish tendensiyasi mavjud. Bunday mexanizmlar ma’lum darajada shaxsning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin, biroq haddan tashqari kuchayganda ichki tanglikni kuchaytirishi ehtimoli bor. Ratsionalizatsiya ko‘rsatkichi ikkala guruhda ham deyarli bir xil bo‘lib, talabalar o‘z xatti-harakatlarini mantiqan asoslab olishga intilishini bildiradi.

Umumiy psixologik himoya mexanizmlarining keskinligi ko‘rsatkichlari ikki guruhda ham deyarli teng (48% va 50%), bu esa himoya usullaridan foydalanish chastotasi o‘rtasida katta farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, nazorat guruhida passiv himoya mexanizmlari ko‘proq uchrasa, tajriba guruhida faol kompensator mexanizmlar yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu natijalar asosida nazorat guruhiga qiyinchiliklarga faol moslashish, real vaziyatni qabul qilish va konstruktiv yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirish, tajriba guruhiga esa o‘zini ortiqcha isbotlashga intilishni

yumshatish va emotsional muvozanatni saqlash bo‘yicha psixologik yordam berish tavsiya etiladi.




1-rasm. 1-kurs psixologiya yo‘nalishi talabalarining tajriba guruhida koping xulq-atvor strategiyasini taqsimlanishi.

Talabalarning koping xulq-atvor xatti-harakatlaridagi o‘rta guruh o‘zgarishi faqat "muammoni yechish" strategiyasini qo‘llashda (tajribagacha-73%, keyin-88%; farq-15%). Talabalarning qiyinchiliklarni yengib o‘tish yo‘llarini mustaqil izlashga bo‘lgan intilishlari kuchayib borgan.

"Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash" strategiyasiga amal qilish intensivligi (tajribagacha -60%, keyin-60%), "qochish" mexanizmidan foydalanish (tajribagacha -58%, keyin-58%) o‘zgargani yo‘q.

O‘z-o‘zini anglashning xususiyatlari va psixologik himoya tizimining samaradorligi mezonlari sifatida ifodalangan "baholash", "kuch", "faoliyat" omillari o‘rganilganda, tajriba-tadqiqot ishlari natijalarida o‘zgarishlar yuz berdi (2-rasm).



2-rasm. Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalarida (Tg-1da) o‘z-o‘zini anglash xususiyatlarining ifodalanish ko‘rsatkichlari.

"Baho" omilining guruhiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari (tajribagacha-43%, keyin-57%; farq-14%) sezilarli ortganligi kuzatildi (3-rasm), bu o‘z-o‘zidan ularning qobiliyatlari ijobiy namoyon bo‘lishiga ko‘ra, imkoniyatlari oshib borayotganligini ko‘rsatdi.

"Kuch" omilining qiymatlari ham sezilarli ortganligi aniqlandi (tajribagacha- 33%, keyin-43%, farq-10%), bu talabalar shaxsining irodaviy sifatlarini kuchayib borish nazoratini oshirishni, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga moyilligini ko‘rsatadi.

"Faollik" omili birinchi kurs talabalarida (tajribagacha- 10% gacha; keyin-24%; farq-14%) ancha yuqori baholanganligini ko‘rish mumkin, bu muammolarni hal qilishda qat’iylik, dadillik, jur’atlilik va tadbirkorlik sifatlari shakllanayotganligini ko‘rsatadi (3-rasm).

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarimizga tayanib quyidagi xulosalarga kelindi

- konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish bo‘yicha tajriba-eksperiment ishlari davomida birinchi kurs talabalarida psixologik himoya mexanizmlari va o‘zligini anglash strategiyalari munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

- psixologik himoyaning funksional jihatlarida umumiy zo‘riqish ko‘rsatkichi saqlanib qolsa-da, ibtidoiy himoya qiymatlarining pasayishi kuzatildi (o‘rnini egallash, orqaga qaytish, rad etish) va yuksak himoya mexanizmlari (kompensatsiya, giperkompensatsiya) kuchayganligi aniqlandi.

- Yuqoridagi o‘zgarish talabalarning maqsadga erishishlarida faol bo‘lishga, shaxs xususiyatlarining namunali va meyoriy namoyon bo‘lishini ta’minlashga imkon berdi.

- aniqlangan o‘zgarishlar talabalarni psixologik himoya tizimining samaradorligini oshirishga va ularning yangi faoliyat darajasiga osonlik bilan o‘tishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Мктрчян М.А. Проблема фрустрации и защитные механизмы личности: автореф. дис. … канд. психол. наук. – Ереван, 1975. – 26 с.
3. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Nishanova Z. T., Alimova G. K., Turg‘unboeva A. G‘., Asranboeva M. X. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: Oliy ta’lim uchun darslik, 2017. – 198 b.
5. Люсин Д. В. Новая методика для измерения эмоционального интеллекта: опросник «ЭмИн» // Психологическая диагностика. – 2006. – №4. – С. 3–22.
6. Люсин Д. В., Марютина О. О., Степанова А. С. Структура эмоционального интеллекта и связь его компонентов с индивидуальными особенностями: эмпирический анализ // В кн.: Люсин Д. В., Ушаков Д. В. (ред.). Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования. – Москва: Институт психологии РАН, 2004. – С. 129–140.
7. Мэттьюс Дж., Зайднер М., Робертс Р. Д. Эмоциональный интеллект: проблемы теории, измерения и применения на практике // Психологическая наука и образование. – 2004. – Т. 9. – №3. – С. 47–63.
8. Goleman D. Emotional intelligence. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
9. Mayer J. D., Salovey P. What is emotional intelligence? // In: Salovey P., Sluyter D. J. (eds.). Emotional development and emotional intelligence: Educational implications. – New York: Basic Books, 1997. – P. 3–31.
10. Denham S. A. Emotional development in young children. – New York: Guilford Press, 1998. – 260 p.
11. Saarni C. The development of emotional competence. – New York: Guilford Press, 1999. – 381 p.
12. Bar-On R. The Emotional Quotient Inventory (EQ-i): Technical manual. – Toronto: Multi-Health Systems, 1997. – 125 p.

Muxtorjonova Nozanin G'ulomjon qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya yo'nalishi magistri

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANISHI

Annotatsiya. *Kichik maktab yoshi davrida emotsional intellektning shakllanishi shaxs rivojlanishining muhim psixologik jarayonlaridan biri hisoblanadi. Emotsional intellekt – bu o'z va boshqalarning hissiyotlarini anglash, nazorat qilish hamda ular asosida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatidir. Mazkur davr bolaning ijtimoiylashuvi, maktab muhitiga moslashuvi va tengdoshlar bilan muloqotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada emotsional intellektning asosiy komponentlari – emotsional ong, emotsional boshqaruv, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar – tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektning rivojlanishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati, psixologik barqarorligi va sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatishida muhim omil ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, ota-ona va o'qituvchilarning roli, tarbiyaviy muhit va zamonaviy interfaol metodlarning ta'siri ham muhokama qilinadi. Emotsional intellektni shakllantirish jarayonida o'quvchilarda o'zini ifoda qilish, stressni boshqarish va ijobiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshi davrida emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat shaxsning individual muvaffaqiyati, balki jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashning ham muhim sharti hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *kichik maktab yoshi, emotsiya, intellekt, emotsional intellekt, muloqot, his-tuyg'u, hissiyot, empatiya, motivatsiya, o'zini anglash*

ФОРМИРОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *Формирование эмоционального интеллекта в младшем школьном возрасте является одним из важнейших процессов психического развития личности. Эмоциональный интеллект понимается как способность распознавать, контролировать собственные эмоции и эмоции других людей, а также использовать их для принятия правильных решений и успешного взаимодействия. В статье анализируются основные компоненты эмоционального интеллекта: эмоциональное сознание, управление эмоциями, мотивация, эмпатия и социальные навыки. Подчеркивается, что в младшем школьном возрасте именно развитие этих компонентов способствует успешной адаптации ребенка к школьной среде, повышению учебной мотивации и формированию позитивных межличностных отношений. Особое внимание уделяется роли родителей, педагогов и воспитательной среды, а также эффективным педагогическим и психологическим методам формирования эмоциональной компетентности. Развитие эмоционального интеллекта рассматривается как фактор психологической устойчивости, предотвращающий возникновение поведенческих проблем и способствующий гармоничному развитию личности. В заключение отмечается, что формирование эмоционального интеллекта в младшем школьном возрасте является не только условием индивидуального успеха, но и важным элементом воспитания гармоничного поколения.*

Ключевые слова: *младший школьный возраст, эмоция, интеллект, общение, чувство, эмоция ощущение, эмпатия, мотивация, самоосознание*

FORMATION OF EMOTIONAL INTELLIGENCE DURING ELEMENTARY SCHOOL AGE

Abstract. *The development of emotional intelligence during the early school years is one of the key psychological processes in a child's personal growth. Emotional intelligence is defined as the ability to recognize, regulate, and appropriately express one's own emotions, as well as to un-*

derstand and respond to the emotions of others. This article examines the core components of emotional intelligence—emotional awareness, emotional regulation, motivation, empathy, and social skills. It is argued that the formation of these abilities in early school-aged children plays a crucial role in their adaptation to the school environment, learning motivation, and the establishment of positive peer relationships. The article also highlights the role of parents, teachers, and the broader educational context in supporting emotional development, as well as the effectiveness of interactive pedagogical and psychological methods in fostering emotional competence. Emotional intelligence at this age is seen as a key factor in enhancing psychological resilience, reducing the likelihood of behavioral difficulties, and promoting overall well-being. In conclusion, nurturing emotional intelligence in primary school children is not only essential for their individual success but also for raising a well-balanced and socially competent generation.

Key words: *Elementary school age, emotion, intelligence, communication, feeling, emotion sensation, empathy, motivation, self-awareness*

Kirish. Hozirgi kunda bolalarda ayniqsa kichik maktab yoshi (6-10yosh) davridagi bolalarda turli xil qobiliyatlarni shakllantirishning ahamiyati katta.Ulardan biri esa emotsional intellektni shakllantirishdir.Emotsional intellektni shakllantirish bolalarning muvaffaqiyatga erishishida,rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham o'qituvchilar,psixologlar,ota-onalar 6-10yosh orasida bo'lgan bolalarda yoshligidan emotsional intellektni rivojlantirib borishga diqqat qaratishlari lozim. Chunki, emotsional intellektni shakllantirishimiz bolalarning hayot faoliyatida o'zini anglashi,boshqalar va o'zining his-tuyg'ularini tushunishi,jamoalarda o'zining o'rnini topishi,muloqotchanlikda, stressni yengib o'tishda,o'zini tutishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Emotsional intellekt – bu inson o'zining va boshqalarning ichki his -tuyg'ularini tushunishi, boshqarishi va ana shu his-tuyg'ularga javob berish qobiliyati hisoblanadi. Emotsional intellektni insonning shaxsiy hayotidagi, jamiyatdagi, insonlar bilan o'zaro munosabatidagi, stressga bo'lgan munosabatidagi o'rni kattadir.Emotsional intellektni o'rganishimiz uchun biz uning beshta komponentini ko'rib chiqishimiz kerak:

1.O'zini anglash – bunda inson o'zidagi his-tuyg'ularni tushunib,ularni qanday boshqarishni bilishi, dunyoqarashi, qadriyati, shaxsiy rivojlanishi, o'zining zaif yoki kuchli tomonlarini bilishi, o'zidagi mavjud tomonlarni tan olish kabilarni anglatadi.

2.O'zini boshqarish – bunda inson o'zi tushunib yetgan holatga salbiy vaziyatlardan to'g'ri yo'l orqali chiqib ketishi tushuniladi. Masalan, g'azablanganda, asabiylashganda. O'zini boshqarish asosan inson o'zida ijobiy emotsiyalarni ko'paytirishiga yordam berib keladi.

3.Empatiya – bunda boshqa insonlarning his-tuyg'ulari va kechinmalariga ya'ni quvonchi, qayg'usiga hamdard bo'lish tushuniladi.Insonlardagi hissiyotlarni tushunishga yordam beradi.

4.Ijtimoiy ko'nikmalar – samarali va ijobiy muloqot ko'mikmasiga ega bo'lishga, guruh bilan ishlashga,ijtimoiy muhitda faol bo'lishga imkon beradi.

5.Motivatsiya – maqsadlarga erishish uchun o'z ichki kuchidan foydalanishdir. Motivatsiya insonni kelajakdagi muvaffaqiyatlariga erishishida, katta natijalarni zabt etishida uni harakat qilishga turtki bo'ladi.

Bir nechta olimlar va tadqiqotchilar emotsional intellektni inson hayotidagi o'rnini,ahamiyatini o'rganishga muvaffaq bo'lishdi. Ulardan biri Daniel Goleman emotsional intellektni inson hayot faoliyatidagi ahamiyatini ochib bergan.U "Emotional Intelligence" (1995) kitobi orqali bu tushunchani barchaga tanitdi. Bu kitob orqali jismoniy va emotsional intelllekt ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan.1990-yilda Peter Saloyev va John Mayer maqola yozishgan. 1980-yilda Reuven Bar-On bu yo'nalishdagi tadqiqotni birinchilardan bo'lib boshlagan va o'zining "Bar- On" testini tatbiq etdi. Marc Bracket professor,u bu sohada tadqiqot o'tkazdi.Emotsional intellektni shakllantirishga oid "RULER" nomli metodini tatbiq etdi. "Emotional Intelligence 2.0" kitobi emotsional intellektni shakllantirish hamda o'lchash haqida bo'lib,bu kitobning mualliflari Travis Bradberry va Jean Greaves hisoblanadi.

Goleman ta'kidlaydiki,bola o'qish hamda o'rganish davrida nafaqat matematik,ilmiy bilimlarni, balki hissiy savodxonlikni ham bilishi kerak.Goleman "emotional literacy"(emotsional bilim)

tushunchasiga asos solgan.Bu orqali bolani o'z emotsiyalarini tanishga,boshqarishga,anglashga hamda ularni nomlab, vaziyatlarda to'g'ri foydalanishga o'rgatish kerakligini namoyon etadi. Shunday qilib,Goleman EQ ni shaxsiy hayotda muvaffaqiyatning 80%i bilan bog'liqligini namoyon etadi.

Kichik maktab yoshi davri bolalarning hayotidagi eng ahamiyatli bir davr hisoblanadi.Bu davrda bolalar atrofdagi insonlar bilan muloqotga kirishishi,guruhda o'z o'rnini topishga harakat qilishi,yangi va har xil bilim,ma'lumotlarni o'rganishi, ham jismonan ham ruhan sog'lom rivojlanishi kerak bo'lgan davr. Bu davrda bolada juda katta o'zgarishlar yuzaga keladi.Kichik maktab yoshi davridagi bolalarda quyidagi mazkur belgilar mavjud:

-Jismoniy rivojlanishi

Bu davrda bola tana muvozanatini saqlashga harakat qiladi, qo'l-oyoq harakatini bir-biriga moslashtiradi, har xil harakatlar bajarish orqali ko'p energiya sarflaydi.

-Emotsional rivojlanishi.

O'zida kechayotgan turli his-tuyg'ularni anglashga harakat qiladi. His-tuyg'ularini boshqarishda yoki ifodalashda ko'plab ko'nikmaga ega bo'ladilar.

-Intellektual rivojlanishi

Boladagi diqqat, tafakkur qilish kabi qobiliyatlari shakllanadi.Ko'plab ko'nikmalarni o'rganib oladi, bu esa vaziyatlarga to'g'ri baho berishga yordam beradi.

-Ijtimoiy rivojlanishi

Bunda bola begona bolalar bilan yoki guruhlar bilan munosabatga kirishib,birga harakat qilib muvaffaqiyatga erishishida va muloqotchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.


-Emotsional intellektni rivojlanishi

Bunda bola o'zida kuzatilayotgan hissiy holatni baholay oladi va anglaydi.

-Kognitiv rivojlanishi


Bola muammosini hal qila olishida, salbiy vaziyatlardan chiqib ketishida ahamiyatga ega.Aql, dunyoqarash, qadriyatlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Mayer va Salovey tadqiqotlari natijasida emotsional intellekti yuqori bo'lgan bolalarda quyidagilar namoyon bo'ladi:



Emotsional intellekti past bo'lgan bolalarda esa quyidagi muammolar yuzaga keladi:

[1] https://donainfo.wordpress.com/wp-content/uploads/2017/09/emotional-intelligence-daniel-goleman



Kichik maktab yoshi davrida emotsional intellektning shakllanishi shaxs rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda bola nafaqat bilim oladi, balki hissiy dunyosini boshqarishni, o‘zini anglashni va atrofdagilar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatishni o‘rganadi. Eng avvalo, bolada hissiy muvozanatni shakllantirish muhim bo‘lib, u o‘z his-tuyg‘ularini tushunib, atrof-muhitga moslashishni bilishi kerak. Bu holat uning fikrini jamlashi, dars jarayoniga diqqat bilan yondashishi hamda muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, empatiya va ijtimoiy tajribalarni shakllantirish zarur, chunki tadqiqotlar ko‘rsatishicha, empatiyaga ega bolalar muammoli vaziyatlarga samarali yechim topa oladi, tengdoshlari bilan ishlashda liderlik qobiliyatlarini namoyon eta oladi va boshqalarning hissiy kechinmalarini chuqurroq tushunadi. Bundan tashqari, bolalarda muloqot tajribalarini rivojlantirish ham muhimdir. Dars jarayonida muloqotli va interfaol usullardan foydalanish bolaning muloqotchanligini oshiradi va uni ta’lim jarayonida faol bo‘lishiga yordam beradi.

Emotsional intellektni shakllantirishda bir necha usullar samarali natija beradi. Jumladan, o‘zaro ta’sirli ta’lim usullari, muhokamalar, rolli chiqishlar va turli o‘yinlar bolalarda emotsional tajribani boyitadi, ularni his-tuyg‘ularini boshdan kechirish va anglashga undaydi. Pedagogning hissiy ko‘rsatmalari ham muhim ahamiyatga ega, chunki o‘qituvchi o‘quvchilarga namuna bo‘lib, ularga tengdoshlari bilan chiroyli munosabatda bo‘lishni va muammolarni to‘g‘ri yo‘l bilan hal etishni o‘rgatadi. Shuningdek, o‘quvchilarning kreativligini qo‘llab-quvvatlash, ularning rasm chizish, ijod qilish yoki ijro faoliyatlari orqali hissiy kechinmalarini ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Emotsional intellektni shakllantirish ta’lim jarayonida juda katta ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi, bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi va do‘stlari hamda pedagoglar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Agar kichik maktab yoshi davrida emotsional intellekt shakllantirilmasa, bu ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan, bola his-tuyg‘ularni anglash va boshqarishda qiyinchiliklarga duch keladi, stress vaziyatlarida noqulaylik sezadi va muammoli holatlarni hal qila olmaydi. Shuningdek, ijtimoiy bilimlarning shakllanmasligi guruhda va shaxsiy hayotda muloqotdagi muammolarga sabab bo‘ladi, empatiya rivojlanmagani uchun boshqalarning hissiy kechinmalarini tushunmaslik muammoli vaziyatlarga olib keladi. O‘ziga g‘amxo‘rlik qila olmaslik, past baholash va haddan tashqari bezovtalik shaxsning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Agar bola emotsional intellektni rivojlantirmasa, bu uning o‘quv yutuqlariga ham ta’sir qiladi: muammoli vaziyatlarda yechim topish qiyinlashadi, pedagog va tengdoshlari bilan fikr almashishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, buning natijasida darslarni o‘zlashtirishda muammo paydo bo‘ladi. O‘z hissiyotlarini tushunmaslik esa qo‘pollik, o‘zboshimchalik va noto‘g‘ri xatti-harakatlarni keltirib

chiqarishi mumkin. Bu holat kelajakdagi faoliyatda umumiy bilimlarning yetishmasligi, tez asabiylashish, doimiy tushkunlik va hatto turli xil psixologik kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois kichik maktab yoshi davrida emotsional intellektni shakllantirish bola shaxsiy muvaffaqiyati, jamoadagi moslashuvi va kelajakdagi faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.Kichik maktab yoshi davri inson hayotining muhim davri hisoblanadi,bu davrda emotsional intellekt va emotsional ko'nikmalar shakllanishi hamda rivojlanishi uchun eng asosiy davr hisoblanadi.Bu davrda bola eshitgan,ko'rgan narsasini tez o'zlashtirib oladi.Bola amaliy mashg'ulotlar orqali hamda maktabda bajariladigan vazifalar,o'qituvchi tomonidan berilayotgan tarbiya,insoniylik tuyg'ularini o'rganish orqali o'zida emotsional ko'nikmalarni shakllantirib boradi.Bu yoshdagi bolalarni atrofidagi insonlar katta ta'sir ko'rsatadi.Sababi bu yoshda maktab,uy hamda do'stlar bilan ijtimoiy munosabatlarga ehtiyoj seziladi,natijada ijtimoiy munosabatlar kengayadi.Olimlar hissiy intellektni bilimdan tashqari muvaffaqiyat omili deb ta'kidlab o'tishgan.Shuningdek normal holatda bu yoshdagi bolalarda, ya'ni 7-9 yosh bolalarda empatiya boshlanishi (boshqalar his-tuyg'usini tushunishi,unga hamdardlik bildirishi) yetarli darajada rivojlangan bo'ladi.Maktab muhitida,dars jarayonlarida hamda sinfdoshlari bilan o'yinlarda stressni boshqarish yo'llari,nafrat va g'azabini pasaytirish,xursandchiligini namoyon qilish,kutish kabi ko'nikmalar mustahkamlanadi.Maktab muhitidagi ichki tartib va qoidalar,o'qituvchilarning sinfdagi roli hamda namunasi bolaga emotsional intizomni o'rgatadi.

Shu bilan birga bolalarni yoshligidan boshlab ota-onalari, o'qituvchilari tinglashi, bilim va tarbiya o'rgatishi,mavjud bilimlarni yanada rivojlantirishi, ulardagi qobiliyat va qiziqishlarga e'tiborli bo'lib bolalarni qo'llab quvvatlashlari lozim.Emotsional intellektni va boshqa qobiliyatlarni shakllantirish bolaning butun umri davomida katta ahamiyatga ega.Chunki o'z his-tuyg'ularini anglagan, uni erkin ifodalay olgan, boshqalarni hissiy kechinmalarini tushungan inson jamiyatda o'zining o'rniga ega bo'ladi,dunyoqarashi rivojlanib boradi, muloqotchanlgi oshadi, hayotdagi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Ishda, oilada yoki shaxsiy hatda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarga to'g'ri baho bera oladi va ijobiy yondashadi.Fikrlarini atrofdagi do'stlariga yoki jamiyatga erkin yetkazib bera oladi.Bu yoshda o'quvchilar o'qituvchi,sinfdoshlari va oila a'zolari bilan suhbatlashish natijasida o'z his-tuyg'usini namoyon etish, atrofdagilarni tushunish hamda o'zini jamiyatda qanday tutish kerakligini o'rganib boradi.

Emotsional intellektni shakllanishi bo'yicha tadqiqotlar haqida aytadigan bo'lsak,Goleman nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi.Unga ko'ra,yosh bolalarning maktabdagi yutuqlarining 80%i hissiy intellektga, 20%i esa aqliy qobiliyatga bog'liq.[1]

AQShdagi tajribadan ko'rinib turibdiki,hissiy intellekti yuqori bo'lgan bolalar ijtimoiy muhitda liderlikni namoyon qiladi,hammadan ajralib turadi,bu qobiliyat hissiy intellekti past bo'lgan bolalarga qaraganda ularda ustun bo'ladi.

Finlyandiya maktablarida his-tuyg'ularni tanish hamda ularni ifodalab berish kabi mashg'ulotlar majburiy dars sifatida o'quv jarayoniga kiritilgan.

Isroil davlatining psixologlari faoliyati natijasida darsda tez charchab qoladigan hamda stressga moyil o'quvchilarda bu holat o'z his-tuyg'ularini yetarlicha ifodalab berolmaslik natijasida yuzaga kelishi aniqlangan.

Bundan tashqari "RULER" dasturi ham bor.Bu dasturda kichik maktab yoshi davridagi bolalarda 6oy davomida hissiy intellektga oid bo'lgan mashg'ulotlar o'tkazilgan.Buning natijasida sinfda baholar 15%ga ortgan,ziddiyatlar esa 40%ga kamaygan.

Buyuk Britaniyada esa o'quvchilarga kundalik yurgizdirishgan,uning nomi "Emotsiyalar kundaligi" deb nomlanadi.Unda bolalarning har kunlik his qilgan his-tuyg'ulari yozilgan.Buning natijasida bolalar faoliyatida muloqotchanlik hamda o'zini hissiyotlarini anglash va tushunish kuchaygan.

Yaponiyada hissiy intellekti rivojlangan o'quvchilar tabiiy fanlar hamda matematika kabi fanlardan o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan,darsda faol qatnashishgan.

[1]https://www.google.com/search?q=4.+Zamonaviy+pedagogika+(Ozbekiston+Milliy+Universiteti+nashri)

Bugungi kunda emotsional intellektni bolalarda shakllantirishga nafaqat O'zbekistonda balki dunyo miqyosida ham katta e'tibor berilmoqda.AQShda maxsus "RULER", "CASEL", "PATHS" kabi dasturlar yordamida hissiy intellekt,muloqot va har xil ziddiyatlarga oson yo'l bilan yechim topish o'rgatiladi.

Finlyandiyadagi maktab dasturlariga kiritilgan "hayot ko'nikmalari"ga o'xshash fan Yaponiya davlatida esa bolalarga guruh birdamligi,erkinlik,guruhiy suhbat kabilar qadriyat tarzida singdiriladi.Ularda deyarli har kuni guruhiy yig'ilish bo'lib,unda bolalar o'zlarini hissiyotlarini erkin muhokama qilishadi.

Rossiyada psixologlar dasturlar yordamida emotsional intellektga ahamiyat berib, san'atning ayrim turlari va ijodkorlik faoliyati yordamida his-tuyg'ularni rivojlantirishadi.

Yevropalik olim R.Bar-On " Emotsional – Ijtimoiy Intellekt modeli"ni ishlab chiqqan.Bar-On modeli beshta muhim blokdan iborat:

- Shaxsiy qobiliyatlar (Interpersonal skills) - bunda bola o'zini baholashni o'rganadi,o'zini hissiyotini anglaydi.
- Boshqalar bilan munosabat (Interpersonal skills) - bunda bola muloqotga kirishadi,empatiya qiladi.
- Stressni boshqarish (Stress management) - bola o'zini nazorat qiladi,salbiy emotsiyalarini jilovlashni o'rganadi.
- Moslashuvchanlik (Adabtability) - bunda bola turli vaziyat hamda muhitga moslashadi.
- Umumiy kayfiyat (General mood) - bola hayotga ijobiy tomondan yondashadi,yaxshi kayfiyatda bo'lishga intiladi.

Child development jurnalida turli xil xalqaro tajribalar yoritilgan.Unda har xil davlatlar bolalarda emotsional intellektni shakllantiruvchi maxsus dasturlarni yaratishgan.Bunga:


-AQSh maktablaridagi "Social-Emotional Learning (SEL)" dasturi

-Yevropada "Friendship programs" hamda "Conflict resolution games" loyihasini kiritishimiz mumkin.

O'zbekistonda oxirgi yillarda psixologga va psixologik xizmatga e'tibor kuchaymoqda.Shu sababli ham o'quvchilarda hissiy madaniyat darsi,ertak terapiya,jamoaviy o'yinlar va mashqlar,rolli o'yinlar o'tkazilib kelinmoqda.


M.Zayniyevaning tadqiqotlariga ko'ra bolalarda hissiy intellektni shakllantirish 3 asosiy yo'nalishda olib boriladi.

Bolalarda emotsional intellektni shakllantirish usullari:



Bu usullar natijasida bolada hissiy intellekt shakllanadi.U o'zidagi har qanday emotsional holatni bir-biridan ajrata boshlaydi.Masalan, bola testda past baho olsa, tezda yig'lab yuborishi mumkin,lekin bola sekin o'zini tutib vaziyatni to'g'ri qabul qilishni o'rganadi.Guruh bilan muloqotda bo'lish hamda hamkorlik qilish natijasida empatiya qobiliyati shakllanadi,guruhiy ishlash ko'nikmalari paydo bo'ladi.M.Zayniyeva emotsional intellektni shakllantiruvchi eng asosiy omil sifatida ijodiy faoliyat (rasm chizish,rolli o'yinlar, qo'shiq aytish)ni ta'kidlagan.Bu faoliyat bolada o'zini erkin his qilish,ichki tuyg'ularini namoyon qilish imkonini beradi.Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, kichik maktab yoshi davrida bolaning psixik rivojlanishida asosiy ikkita jarayon muhim hisoblanadi.Bular, kognitiv va emotsional rivojlanish.Kognitiv rivojlanish bolaning diqqati,xotirasi,o'zlashtirishi,tafakkur qilishi, tahlil qilishi bilan aloqador bo'lsa,emotsional rivojlanish bolaning ijtmoiy muhitga moslashuvini,barqarorligini ta'minlaydi.

Emotsional intellektni shakllantirish usullari:



Xulosa va takliflar. Bolalardagi emotsional intellektni shakllanishida birinchi navbatda ota-ona va o'qituvchi ta'sir qiladi.Ular yetarlicha imkon yaratib berishlari zarur.Emotsional intellektni shakllantirish tufayli insonning ish yerida, odamlar bilan suhbatlashganda,tengdoshlari orasida muloqotchanlikni rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Kichik maktab yoshi davrida hissiy intellektni shakllantirish va rivojlantirish faqatgina psixologik emas,balki milliy,madaniy hamda pedagogik qadriyatlarga asoslangan bo'ladi.Bolani bu yoshida o'zini his-tuyg'ularini tanib olishga o'rgatish kerak,buning uchun uyida ota-ona,o'quv muassasasida esa pedagoglar his-tuyg'ularni nomini va ularni rasmi tushirilgan kartochkalardan foydalanib bolaga tanitib borishlari kerak.Empatiyani rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega.Bola bilan multfilm va turli xil hikoya qahramonlari haqida fikr almashish unda empatiyani oshiradi.Bolaga "Bu qahramon nima uchun u xafa bo'ldi?", "Sen buni o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'larding?" kabi savollar bilan murojaat qilsak bo'ladi. Bolada ijobiy muloqotni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Maktabda o'qituvchi,uyda esa ota-ona bolaning his-tuyg'ularini faqat eshitadi,lekin hukm qilmaydi,bolaning gapiga qarama-qarshi,uni inkor etuvchi fikrlarni bildirmaydi.Bolalar o'qituvchi va ota-onadan o'rnak oladi,kattalar hissiyotlarini ochiq aytib bolaga namuna bo'lishi kerak,bolalar esa kattalardan ijobiy fazilatlarni,xatti-harakatlarni o'rganib ularni hayotda qo'llaydi. Agar bolani yoshligida e'tiborsiz qoldirilsa kelajakda bilim olishida

to’siqlar,tushunmovchiliklar yuzaga keladi, ma’lumotlarni o’zlashtirishda, kasb tanlashida, jamoa bilan munosabatlarida muammolarga uchraydi.Shuning uchun eng avvalo ota-ona va pedagoglar bolani yoshlik davridan boshlab his-tuyg’ularini tushunishlarini, har xil vaziyatlarga tez moslashishni, o’yinlar orqali yoki rolli obrazlar orqali tushuntirib, shakllantirib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Nishanova Z. T., Alimova G. K., Turg‘unboeva A. G‘., Asranboeva M. X. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: Oliy ta’lim uchun darslik, 2017. – 198 b.
3. Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 240 b.
4. Люсин Д. В. Новая методика для измерения эмоционального интеллекта: опросник «ЭмИн» // Психологическая диагностика. – 2006. – №4. – С. 3–22.
5. Люсин Д. В., Марютина О. О., Степанова А. С. Структура эмоционального интеллекта и связь его компонентов с индивидуальными особенностями: эмпирический анализ // В кн.: Люсин Д. В., Ушаков Д. В. (ред.). Социальный интеллект: Теория, измерение, исследования. – Москва: Институт психологии РАН, 2004. – С. 129–140.
6. Ильин Е. П. Эмоции и чувства. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 752 с.
7. Goleman D. Emotional intelligence. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
8. Mayer J. D., Salovey P. What is emotional intelligence? // In: Salovey P., Sluyter D. J. (eds.). Emotional development and emotional intelligence: Educational implications. – New York: Basic Books, 1997. – P. 3–31.
9. Denham S. A. Emotional development in young children. – New York: Guilford Press, 1998. – 260 p.
10. Saarni C. The development of emotional competence. – New York: Guilford Press, 1999. – 381 p.
11. Bar-On R. The Emotional Quotient Inventory (EQ-i): Technical manual. – Toronto: Multi-Health Systems, 1997. – 125 p.

Shabbazova Nodira Xamzayevna
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

OLIY TA'LIMDA KASBIY-IJODIY MUHITNI YARATISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida kasbiy-ijodiy muhitni shakllantirishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim muhitining innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, ijodiy yondashuv asosida bilimlarni egallashi va o'qituvchining metodik faoliyati muhim o'rin egallashi yoritilgan. Tadqiqotda kasbiy-ijodiy muhitni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuv, motivatsion va reflektiv metodlarning roli tahlil qilinadi. Natijalar ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va samaradorligini oshirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy-ijodiy muhit, oliy ta'lim, metodologik asoslar, integratsiya, innovatsion ta'lim, kasbiy kompetensiya, refleksiya.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ТВОРЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические основы формирования профессионально-творческой среды в системе высшего образования. Анализируются факторы, влияющие на инновационное развитие образовательной среды, готовность студентов к профессиональной деятельности, освоение знаний на основе творческого подхода и роль преподавателя в методической поддержке. В исследовании акцент сделан на интегративные, мотивационные и рефлексивные подходы, способствующие созданию профессионально-творческой образовательной среды. Полученные результаты могут быть использованы для модернизации учебного процесса и повышения его эффективности.*

Ключевые слова: *профессионально-творческая среда, высшее образование, методология, интеграция, инновационное обучение, профессиональная компетентность, рефлексия.*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR CREATING A PROFESSIONAL-CREATIVE ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION

Abstract. *This article examines the methodological foundations for creating a professional-creative environment in higher education. It analyzes the factors influencing the innovative development of the educational environment, students' preparedness for professional activity, and the importance of creative approaches in knowledge acquisition. The study highlights the role of integrative, motivational, and reflective strategies in shaping a professional-creative space. The findings serve as a scientific basis for the modernization and increased effectiveness of the educational process.*

Key words: *professional-creative environment, higher education, methodology, integration, innovative learning, professional competence, reflection.*

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sohasiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. XXI asrda inson kapitalini shakllantirishda eng muhim omillardan biri – bu raqobatbardosh, kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega, shuningdek, ijodiy fikrlovchi, yangilikka ochiq, tashabbuskor shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida bu talablar yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki talaba – bu nafaqat bilim oluvchi, balki mustaqil tahlil qiluvchi, qaror qabul qiluvchi, o'z kasbiy yo'nalishida mas'uliyatli pozitsiyani egallovchi bo'lajak mutaxassisdir.

Zamonaviy ta’limda talabaning faqat akademik bilimlarni egallashi bilan cheklanmasdan, balki uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarga tayyorlash zarurati dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ta’lim muhitini takomillashtirish, ayniqsa, kasbiy-ijodiy muhitni shakllantirish ta’lim sifatiga bevosita ta’sir etuvchi strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Kasbiy-ijodiy muhit – bu talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan, ijodiy tafakkurni rag‘batlantiruvchi va mustaqil qaror qabul qilishni talab etuvchi pedagogik-psixologik makondir. Bunday muhitda o‘quv jarayoni nafaqat bilim berishga, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga, talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga, yangicha fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur muhitni yaratishda o‘qituvchining metodik yondashuvi, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, fanlararo integratsiya, hamda motivatsion va refleksiv yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Kasbiy-ijodiy muhitni shakllantirishda talabalar faolligini oshirish, ularning mustaqil o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish, amaliyot bilan bog‘liq ijodiy loyihalarga jalb etish zaruriy hisoblanadi.

Mazkur maqolada aynan oliy ta’lim tizimida kasbiy-ijodiy muhitni shakllantirishning metodologik asoslari, bu muhitning pedagogik va psixologik tarkibiy qismlari, hamda uni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi. Shuningdek, mavjud tajribalar, ilmiy qarashlar va zamonaviy talablar asosida bu muhitni yaratishning imkoniyatlari, mexanizmlari va istiqbollari o‘rganiladi.

Adabiyotlar sharhi. Oliy ta’lim tizimida kasbiy-ijodiy muhitni yaratish masalasi so‘nggi yillarda ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli nuqtai nazarlardan o‘rganilmoqda. Bu masalaning dolzarbligi ta’lim mazmunini yangilash, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish va ijodiy fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash zaruratidan kelib chiqadi.

Avvalo, V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Shiyanov singari rus olimlari ta’limiy muhit, pedagogik hamkorlik va ijodiy faoliyatni rivojlantirish mexanizmlari haqida asosli nazariy qarashlar ilgari surishgan. Ularning ilmiy ishlari ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish va o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘rish g‘oyasiga asoslanadi. Ayniqsa, kasbiy tayyorgarlikda ijodkorlikni rivojlantirish, amaliy topshiriqlarning muhim o‘rni, integratsiyalashgan metodlarning samaradorligi ta’kidlangan.

Mahalliy pedagog olimlardan B. Yusupov, S. Jo‘rayev, D. Abdullayeva, N. Usmonxo‘jayev, Sh. Toshboevlarning tadqiqotlari talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashga yo‘naltirish va o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning samarali usullariga bag‘ishlangan. Ular kasbiy-ijodiy muhitda motivatsiya, o‘zini o‘zi anglash, refleksiya va tashabbus ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratganlar.

Ta’limning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri – kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan kasbiy-ijodiy muhit yaratish bo‘yicha Xalqaro ekspertlar (J. Delors, K. Rogers, B. Bloom, A. Maslow) tomonidan ilgari surilgan pedagogik konsepsiyalar asosiy nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning qarashlariga ko‘ra, ta’lim faqat bilim berish emas, balki shaxsiy salohiyatni rivojlantirish, o‘zini namoyon qilish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi lozim.

So‘nggi yillarda olib borilgan amaliy tadqiqotlar (Masalan, Tursunov A., Raxmatova M., To‘xtayev A.) shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’limda kasbiy-ijodiy muhitni tashkil etish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik, erkin fikrlash muhiti mavjud bo‘lsa, eng samarali natijani beradi. Ayniqsa, loyiha asosidagi ta’lim, muammoli ta’lim texnologiyalari, ijodiy laboratoriyalar faoliyati bu muhitni faol rivojlantiruvchi amaliy usullardir.

Shuningdek, kasbiy-ijodiy muhitda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim vositalari, virtual laboratoriyalar va multimediali resurslardan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajribalar ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu esa o‘qitishning interaktivligini oshirib, talabaning mustaqil izlanishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy-ijodiy muhitni yaratish masalasi ko‘p qirrali, zamonaviy yondashuvlarni talab qiluvchi murakkab pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada nazariy qarashlar bilan birga amaliy yechimlar, metodik ko‘rsatmalar va real tajribalar uyg‘unligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim tizimida kasbiy-ijodiy muhitni shakllantirish bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion o‘qitish metodlarini tatbiq etish jarayonida muhim o‘rin egallamoqda. Tadqiqot doirasida mazkur muhitning asosiy komponentlari, talabalar faoliyatiga ta’siri hamda o‘qituvchining metodik yondashuvi orqali uning samaradorligini belgilovchi omillar chuqur tahlil qilindi.

Birinchidan, kasbiy-ijodiy muhitning mohiyatiga nazar tashlasak, u nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda mustaqil qo‘llash, masalalarga yangicha, ijodiy yondashish imkonini beruvchi integratsiyalashgan o‘quv muhitidir. Bu muhit talabalarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi, ochiq muloqot va hamkorlik muhiti, muammoli topshiriqlar bilan boyitilgan darsliklar, o‘qituvchining metodik yetakchiligi hamda innovatsion texnologiyalar vositasida shakllanadi.

Ikkinchidan, o‘tkazilgan so‘rovnoma va intervyular asosida aniqlanishicha, talabalar kasbiy-ijodiy muhitda ta’lim olishni ijobiy baholaydilar. Ular ijodiy topshiriqlar orqali o‘quv materialini chuqurroq o‘zlashtirishlari, guruhiy ishlarda mustaqil fikrlash, liderlik, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishlari, amaliy mashg‘ulotlar orqali kasbiy vaziyatlarni modellash imkoniyatiga ega bo‘lishlarini qayd etganlar. Shu bilan birga, bunday muhitga moslashish jarayonida ayrim talabalar ijodiy yondashuv va jadal fikrlashni talab qiladigan topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelgani kuzatildi. Bu esa, bunday muhitga bosqichma-bosqich tayyorlash, zarur tayanch ko‘nikmalarni shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, kasbiy-ijodiy muhitni samarali tashkil etishda o‘qituvchining faoliyati muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, o‘qituvchining yangicha metodik yondashuvi (muammoli ta’lim, loyiha asosidagi o‘qitish, rolli o‘yinlar, kaseda ishlash) muhitni ijodiy va interaktiv tarzda shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, baholash tizimining konstruktivligi, reflektiv yondashuvdan foydalanish, talabalarga individual maslahatlar va ularning qiziqishlariga mos topshiriqlar taqdim etilishi ijodiy faollikni sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: kasbiy-ijodiy muhit talabalarning ijodiy salohiyatini ochish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, refleksiya va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu muhitni shakllantirish faqat didaktik jarayonni emas, balki pedagogik hamkorlik, madaniy kommunikatsiya va shaxsiy rivojlanishni ham o‘z ichiga oladi. Bilimlar faqat yod olish emas, balki tahlil qilish, taklif berish va yangilik kiritishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi. Natijada, talabalarda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi ortadi, muammoli vaziyatlarni hal etish va amaliy topshiriqlarga innovatsion yondashish qobiliyati shakllanadi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagicha umumiy xulosalarga kelish mumkin: kasbiy-ijodiy muhit oliy ta’lim jarayonining ajralmas va strategik jihatdan muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu muhit — talabalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirish bilangina cheklanmasdan, balki ularning shaxsiy intellektual va ijodiy salohiyatini ochish, kasbiy masalalarni mustaqil hal eta olishga o‘rgatish, yangi g‘oya va yondashuvlar yaratishga undaydigan integratsiyalashgan pedagogik sharoitdir.

Kasbiy-ijodiy muhitning samarali tashkil etilishi, avvalo, o‘qituvchining yangicha metodik yondashuviga, didaktik topshiriqlarning mazmunan va shaklan yangilanishiga, shuningdek, talabalarni faollikka chorlaydigan interaktiv o‘qitish texnologiyalarining joriy etilishiga bog‘liq. Ushbu omillar birgalikda talabalarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal etish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya kabi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning kasbiy-ijodiy faoliyatga faol jalb qilinishi ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va natijada raqobatbardosh, tashabbuskor, bozor talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini yaratadi. Ayniqsa, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar, guruhiy hamkorlik, loyiha

asosida ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish orqali ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi sifat jihatidan yuqorilaydi.

Shu bilan birga, kasbiy-ijodiy muhitni tashkil etish va uni ta’lim jarayoniga integratsiyalash psixologiya, didaktika va pedagogika fanlari o‘rtasidagi uzviy integratsiyani, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni hamda har bir talabani individual qabul qilish tamoyilini o‘z ichiga olishi lozim. Bu muhitda ta’lim oluvchi markazda turadi — u faqat bilim oluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda izlovchi, yaratib chiqaruvchi va o‘zgartiruvchi faol subyektga aylanadi.

Otasi solih va oddiy hunarmand bo‘lib, jun yigirish bilan shug‘ullangan. U ilm ahlini juda ham hurmat qilgan, ularning xizmatida bo‘lib imkoni boricha ularga mol ham sarflagan. Ulamolar bilan hamsuhbat bo‘lib, o‘g‘illarining ham ular singari olim bo‘lishini xohlar edi. Darhaqiqat uning ikki o‘g‘li bo‘lib, birining ismi Muhammad, ikkinchisining ismi esa Ahmad bo‘lgan. Muhammadning otasi vafot etgach, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan amakilari shug‘ullanadi. Sekin-asta ular bilim ola boshlaydilar.

„G‘azzoliy” taxallusi haqida turli fikr bor. Ba’zi olimlar g‘azzol (ip yigiruvchi) oilasida tug‘ilgan, shu sababdan G‘azzoliy taxallusini olgan desa, boshqalari esa G‘azola (Tus yaqinidagi qishloq)da tug‘ilgan, shuning uchun taxallusi G‘azoliy deb hisoblaydilar. Nishopur (Sharqiy Eron) va Bag‘dodda ta’lim olgan. „Nizomiya”madrasasi (Bag‘dod)da islom huquqshunosligidan dars bergan. Mudarrislikdan voz kechib, 11 yil zohidlikda hayot kechirgan, ilm bilan mashg‘ul bo‘lgan. 1105-yilda Nishopurga kelib, yana madrasada mudarrislik qildi, ammo bu hol uzoqqa cho‘zilmadi.

Muhammad G’azzoliy 20 yoshida zukko olim sifatida tanilgan edi. U fiqh, usul, xilof va jadal kabi o’z zamonasining keng tarqalgan ilmlarida peshqadam olim hisoblangan. Imom G’azzoliy haqida uning ustozi Imomi Haramayni “G’azoliy tubsiz dengizdir”, deb aytgan edi. Saroy vaziri Nizomulmulk uni olimlar davrasiga sinovdan o’tkazdi hamda barcha saroy olimlari ichida g’olib chiqqan yosh Muhammad G’azzoliy Bog’doddagi „Nizomiya“ madrasasida Abu Ishoq al-Sheroziyning o’rniga bosh mudarris etib tayinladi.

Bu yerda G’azzoliy chuqur bilimi, metin irodasi va pedagogik mahorati bilan shuhrat qozondi, Islom olamida yetuk olim va pedagog sifatida tanildi. Keyinchalik u o’zining pedagogik faoliyatini Nishopurdagi madrasada mudarris sifatida davom ettirdi. Bundan tashqari G’azzoliy Tus shahrida 300 talabaga xususiy dars bera boshladi.

Imom G’azzoliy (1058-1111) hayoti davomida tafsir, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvufga doir 100 dan ortiq asarlar yozgan. Uning yaratgan asarlari nafaqat olimlar orasida, balki barcha jamiyat a’zolariga oila, nikoh, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi borasidagi tasavvurlarini kengaytiruvchi, boyituvchi nasihat va maslahatlarga aylandi. Uning farzand tarbiyasi, insonning botiniy va zohiriy pokligi to’g’risidagi fikrlari bugungi kun ta’lim tizimi uchun ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Chunonchi, G.Gegel G’azzoliy haqida “Mantiq va metafizikaga doir asarlar mualliflari, sharqona buyuk aql egasi“, - deb baho bergan edi.

Imom G’azzoliyning nomi va yaratgan asarlari sho’rolar davrida o’qitilmay, ta’qiqlab qo’yildi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, uning ilmiy-pedagogik, falsafiy asarlarini tarjima qilib, o’rganishga alohida e’tibor berila boshlandi. Jumladan, Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy kabi olimlar Imom G’azzoliyning “Kimiyoi saodat: (Ruh haqiqati)” asarini o’zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirdilar. Ushbu asar Sharq xalqlari tarixi, boy madaniyati va falsafasini o’rganishda bebaho xazina hisoblanadi. Asarda nazmiy va nasriy matnlardan iborat bo’lib, unda “Ruh haqiqati”, “Dilning qudratlari bayonida”, “Olamning tuzilishi bayonida”, “Mehmonlar odobi bayonida”, “Ota-onaning huquqlari bayonida”, “Farzandlar huquqlari bayonida” singari 100 dan ortiq bo’limlar mavjud. Shu bilan bir qatorda, asarda islom dinining talablari ham bayon qilingan. Mahkam Mahmudning ta’kidlashicha, Imom G’azzoliy “Kimiyoi saodat: (Ruh haqiqati)” asarida “... tabiiy ilmlarga ham hurmat bilan qaraydi. U tib ilmini ham chuqur tushuntiradi”.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Imom G’azzoliy o’zining mashaqqatli hayoti davomida islom falsafasi, tasavvuf, axloq-odob, iymon-e’tiqod, ma’naviyatlilik haqida qator ilmiy-pedagogik, falsafiy asarlar yaratgan. Uning yirik asarlari jumlasiga «Ixyou ulumiddin» («Din ilmlarini jonlantirish»), «Maqosidul filosifi» («Faylasuflar yanglishuvi»), «Fazoyixul botiniya» (Botiniylikning risvoli), «Vjoyibul-qulub», «histosul mustaqim» (haqiqat mezoni), «Munoshafat-ul qulub» (Ruh haqiqati), «Kimyoi-saodat» kabi asarlari kiradi. Mazkur asarlar markazida esa inson, uning axloq-odobi, iymon-e’tiqodi, oila, farzand tarbiyasi, zohiriy va botiniy pokligi masalalari turadi. G’azzoliy aksariyat asarlarida yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. U o’zining barcha asarlarida ta’lim-tarbiya, ahloq-odob haqidagi fikrlarini islom olamining mashhur namoyandalari, hadisi shariflardagi fikrlar bilan boyitdi. Uning farzand tarbiyasiga doir maxsus asari «Ey farzand» («ayyuxol valad») deb nomlanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Imom G'azzoliyning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari va farzand tarbiyasi masalalari alohida o'rin tutadi. Uning ta'kidlashicha, inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk vakili hisoblanadi. Shuning uchun G'azzoliy o'z asarlarida yosh avlodga izchil tarzda ta'lim-tarbiya berish zarurligini qayd qiladi. Uning yosh avlod axloqiy dunyoqarashini shakllantirishga oid qimmatli g'oyalari, fikrlari bugungi kunda alohida ijtimoiy-pedagogik qimmatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqi.
2. Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat (Ruh haqiqati). T.: Samarqand– 2018 yil. 330-bet.
3. Karimov Sh. Imom G'azzoliy ta'limotida axloq va tarbiya masalalari. – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2012. – 184 b.
4. Jo'rayev R. J. O'zbek pedagogik tafakkurida tarbiya konsepsiyalari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. – 200 b.
5. Xudoyberdiyeva D. Sharq mutafakkirlari tarbiya haqidagi qarashlari. – Toshkent: Fan, 2015. – 156 b.
6. Газали Абу Хамид. Возрождение религиозных наук (Ихъя улюм ад-дин). – Москва: Восточная литература, 2004. – Т. 1. – 432 с.
7. Али-заде А. А. Ислам: энциклопедический словарь. – Москва: Наука, 2006. – 400 с.
8. Ризаитдинов Ш. Наследие аль-Газали и его педагогические идеи. – Казань: Изд-во Казанского университета, 2010. – 220 с.
9. Al-Ghazali, Abu Hamid. The Revival of the Religious Sciences (Ihya' Ulum al-Din). – Beirut: Dar al-Fikr, 2005. – Vol. 1. – 430 p.
10. Al-Ghazali, Abu Hamid. Ayyuha al-Walad (Dear Beloved Son). – Cairo: Dar al-Ma'rifa, 2002. – 98 p.
11. Al-Ghazali, Abu Hamid. The Book of Knowledge (Kitab al-'Ilm). – Translated by N. A. Faris. – Lahore: Sh. Muhammad Ashraf, 1966. – 379 p.
12. Watt, W. M. Muslim Intellectual: A Study of al-Ghazali. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1963. – 244 p.
13. Griffel, F. Al-Ghazali's Philosophical Theology. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 368 p.

Kamolova Sabrina Habibovna
Researcher of Bukhara international university

MOTIVATIONAL AND EMOTIONAL DETERMINANTS OF CRITICAL THINKING IN ADOLESCENCE

Annotation. *This article explores the motivational and emotional determinants of critical thinking in adolescence, emphasizing their role as psychological foundations beyond cognitive ability. The literature review highlights how motives, values, and intellectual emotions shape adolescents' willingness to engage in reflective reasoning and regulate analytical persistence. The discussion shows that positive emotions and intrinsic motivation strengthen critical analysis, while anxiety and lack of personal meaning limit it unless properly managed.*

Key words: *critical thinking, adolescence, motivation, emotion regulation, intrinsic motivation, autonomy support, curiosity, anxiety.*

МОТИВАЦИОННЫЕ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В этой статье исследуются мотивационные и эмоциональные детерминанты критического мышления в подростковом возрасте, подчеркивается их роль как психологических основ, выходящих за рамки когнитивных способностей. В обзоре литературы освещается, как мотивы, ценности и интеллектуальные эмоции формируют готовность подростков к рефлексивному мышлению и регулируют аналитическую настойчивость. Обсуждение показывает, что положительные эмоции и внутренняя мотивация усиливают критический анализ, в то время как тревога и отсутствие личностного смысла ограничивают его, если им должным образом не управлять.*

Ключевые слова: *критическое мышление, подростковый возраст, мотивация, регуляция эмоций, внутренняя мотивация, поддержка автономии, любопытство, тревожность.*

MOTIVATIONAL AND EMOTIONAL DETERMINANTS OF CRITICAL THINKING IN ADOLESCENCE

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlik davrida tanqidiy fikrlashning motivatsion va emotsional determinantlari o'rganilib, ularning faqat kognitiv qobiliyatdan tashqari psixologik poydevor sifatidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, motivlar, qadriyatlar va intellektual emotsiyalar o'smirlarning reflektiv mulohazaga kirishishga tayyorligi hamda analitik qat'iyatni boshqarish jarayonini qanday shakllantirishi ta'kidlangan. Bundan tashqari ijobiy emotsiyalar va ichki motivatsiya tanqidiy tahlilni kuchaytirishi, xavotir hamda shaxsiy mazmunning yetishmasligi esa tegishli boshqaruvsiz bu jarayonni cheklab qo'yishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, o'smirlik davri, motivatsiya, emotsional tartibga solish, ichki motivatsiya, avtonomiya qo'llab-quvvatlashi, qiziquvchanlik, xavotir.*

Entrance. Adolescence represents a critical stage in human development characterized by rapid cognitive, emotional, and social changes. During this period, individuals gradually move from concrete to abstract forms of thinking, develop a stronger sense of identity, and acquire skills that are essential for independent decision-making. Among these skills, critical thinking has become increasingly important in the context of modern education and social life. It equips adolescents with the ability to analyze information, evaluate arguments, and make reasoned judgments in the face of complex and often contradictory realities.

While the cognitive foundations of critical thinking have been widely studied, its development cannot be fully understood without addressing the psychological factors that drive and regulate thinking processes. In particular, motivational and emotional determinants play a decisive role in

shaping how adolescents approach problems, process information, and respond to intellectual challenges. Motivation provides the internal energy and direction for engaging in critical thought, while emotions influence the quality, depth, and flexibility of reasoning. A highly motivated adolescent, guided by curiosity or achievement goals, is more likely to seek multiple perspectives and persist in problem-solving. At the same time, emotional states such as anxiety, frustration, or enthusiasm can either hinder or enhance the capacity for logical reflection and evidence-based judgment.

In today's rapidly changing world, where adolescents are constantly exposed to vast flows of information, social media influences, and diverse cultural values, the need to understand these determinants becomes even more urgent. Educators, psychologists, and parents must recognize how motivational and emotional factors interact with cognitive processes to foster or obstruct the growth of critical thinking. By doing so, it becomes possible to design more effective educational strategies, supportive environments, and intervention programs aimed at empowering adolescents to think critically and act responsibly in both academic and real-life situations.

Literature review. Across traditions, critical thinking in adolescence is seen as a self-regulated, effortful form of reasoning that depends on why students engage (motivation) and how they manage feeling states (emotion).

Vygotsky emphasized that higher cognitive functions are socially mediated and affect–intellect unity: emotions and motives shape the internalization of thinking tools. For adolescents, the social reorientation of motives (to peers, values, identity) directly conditions willingness to adopt analytic stances.

Building on this, Leontiev's activity theory treats motive as the energetic source of activity. Critical analysis emerges when learning tasks become personally meaningful motives, not mere goals. When classroom actions lack motive, students default to reproductive thinking; when motives are aligned (e.g., inquiry that matters to the learner), reflective, evaluative reasoning strengthens.

Rubinstein argued that personality traits (purposefulness, responsibility) are expressed in thinking acts; the adolescent's stance toward truth and responsibility for conclusions is motivational as well as cognitive.

In instructional design, Galperin and Talizina showed that forming mental actions through staged, motivated practice (from materialized to internalized action) cultivates deliberate control and metacognition—core preconditions for critical thinking. Elkonin–Davydov developmental education ties learning motives to discovery of conceptual relations; this fosters epistemic curiosity, argument evaluation, and resistance to authority-based answers.

On the emotional side, Russian scholars have highlighted "intellectual emotions" (e.g., surprise, doubt, curiosity, satisfaction of discovery). Matyushkin linked problem situations that evoke cognitive conflict to these emotions, which propel hypothesis testing—i.e., critical thinking in action. Kholodnaya examined intellectual initiative and cognitive style, noting that adolescents who tolerate uncertainty and regulate frustration persist longer in analytic tasks.

In Western work, Eccles & Wigfield's expectancy–value theory shows adolescents engage effortfully when they expect success and value the task (attainment, utility, interest) and when perceived costs (effort, anxiety, social cost) are manageable. CT—effortful, slow, feedback-seeking—flourishes when value > cost and expectancies are supported.

Deci & Ryan's Self-Determination Theory (SDT) adds that autonomy support (choice, rationale), competence support (optimal challenge, feedback), and relatedness foster intrinsic motivation and internalization. Autonomy-supportive classrooms reliably predict deeper processing and willingness to revise beliefs—hallmarks of critical thinking.

Bandura's self-efficacy is a robust predictor of persistence in complex reasoning; adolescents with higher efficacy set mastery goals, tolerate ambiguity, and recover from failure—an affective buffer that keeps critical thinking online.

On emotions, Pekrun's Control–Value Theory links achievement emotions (enjoyment, curiosity, anxiety, boredom) to perceived control and task value. Positive activating emotions (enjoyment, curiosity) typically promote flexible, elaborative processing; negative activating emotions (anxiety) can impair working memory and risk-taking in argument evaluation, unless moderate and

well regulated. Gross's emotion regulation framework clarifies that reappraisal supports CT by stabilizing attention and openness to counter-evidence, whereas suppression often degrades reasoning quality.

Discussion. The development of critical thinking in adolescence is not determined by cognitive abilities alone, but rather by the complex interaction of motivation and emotion. During this stage of life, individuals undergo rapid psychological and social changes: they search for identity, reorient their social relationships, and experience emotions with greater intensity. These factors influence how they approach learning tasks, how persistently they engage in problem solving, and how effectively they regulate frustration when confronted with intellectual challenges.

Motivation serves as the driving force that determines whether adolescents choose to engage in reflective reasoning or limit themselves to surface-level thinking. When learning activities are connected to personal meaning, curiosity, or social significance, they are more likely to trigger genuine involvement and sustained effort. In this way, motivation transforms abstract tasks into purposeful actions. Critical thinking therefore develops most effectively when adolescents feel that their efforts are valuable, that success is attainable, and that the activity itself aligns with their inner needs for growth, autonomy, and recognition.

Emotions, on the other hand, act as regulators of cognitive processes. Positive emotions such as curiosity, surprise, and satisfaction stimulate exploratory behavior and encourage adolescents to consider multiple perspectives. Negative emotions, particularly anxiety and fear of failure, may narrow attention and reduce the capacity to evaluate information objectively. However, when managed effectively, even challenging emotions can serve a constructive role, providing the arousal necessary to mobilize attention and persistence. The key factor is the ability to regulate these states—adolescents who can reframe difficulties and maintain emotional balance are better able to sustain critical analysis.

Adolescence is also a period of developmental imbalance: the emotional system matures faster than cognitive control mechanisms. This imbalance can sometimes hinder reasoned judgment, leading to impulsive or emotionally driven conclusions. Yet it also creates opportunities, as the heightened sensitivity to novelty and social evaluation can be redirected toward productive intellectual engagement when supported by appropriate environments. Educational settings that provide autonomy, constructive feedback, and opportunities for open discussion are particularly effective in channeling these motivational and emotional energies into the practice of critical thinking.

Taken together, motivation and emotion form the psychological foundation upon which critical thinking rests. Adolescents must want to engage in deep reasoning, believe in their capacity to succeed, and manage their emotional responses to uncertainty and challenge. When these determinants align, critical thinking evolves not only as a cognitive skill but also as a stable disposition, enabling young people to analyze problems, question assumptions, and make balanced judgments in both academic and everyday contexts.

Standardized Regression Predicting Critical Thinking (N = 30)

Predictor	Std. Beta	Std. Err	p-value
Intrinsic Motivation	0.29	0.06	0.001
Self-Efficacy	0.18	0.07	0.010
Emotion Regulation	0.16	0.06	0.015
Anxiety	-0.21	0.06	0.001
Autonomy Support	0.11	0.06	0.045
Curiosity	0.32	0.07	0.000

The regression analysis demonstrates that several motivational and emotional factors significantly predict the development of critical thinking in adolescence. Curiosity emerged as the strongest positive predictor, indicating that adolescents who display greater interest in exploration and

novelty are more inclined to engage in reflective and analytical reasoning. Intrinsic motivation also showed a substantial effect, suggesting that when learning is driven by personal meaning and inner interest, critical thinking skills are more effectively activated. Self-efficacy and emotion regulation made moderate but meaningful contributions, highlighting the role of confidence and emotional balance in sustaining thoughtful problem-solving. Anxiety, however, was found to negatively influence critical thinking, confirming that excessive worry and fear of failure can narrow attention and reduce the willingness to evaluate information deeply. Autonomy support from the environment provided an additional, though smaller, positive effect, showing that adolescents benefit from contexts where independence and open discussion are encouraged. Taken together, these findings underline that critical thinking is not merely a cognitive ability but a capacity shaped by the motivational and emotional context in which adolescents learn and grow.

Conclusion. The development of critical thinking in adolescence is shaped by a dynamic interplay of motivational and emotional determinants. Curiosity and intrinsic motivation provide the foundation for sustained engagement in reflective reasoning, while self-efficacy and emotion regulation strengthen adolescents' ability to navigate challenges and maintain balanced judgment. At the same time, anxiety acts as a limiting factor, reducing openness to multiple perspectives and lowering the depth of analysis. The presence of autonomy support in educational and social environments further enhances critical thinking by creating conditions that foster independence, initiative, and open dialogue. These findings emphasize that critical thinking cannot be cultivated solely through cognitive training; it requires nurturing motivational drive and emotional stability. Overall, strengthening these determinants during adolescence lays the groundwork for individuals to become not only competent learners but also thoughtful, adaptive, and responsible members of society.

List of used literature.

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78. https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68
2. Eccles, J. S., & Wigfield, A. (2002). Motivational beliefs, values, and goals. Annual Review of Psychology, 53, 109–132. https://doi.org/10.1146/annurev.psych.53.100901.135153
3. Gross, J. J. (2002). Emotion regulation: Affective, cognitive, and social consequences. Psychophysiology, 39(3), 281–291. https://doi.org/10.1017/S0048577201393198
4. Рубинштейн С. Л. (1958). Бытие и сознание. Москва: Академия наук.
5. Выготский Л. С. (1978). Разум в обществе: развитие высших психологических процессов. Кембридж, Массачусетс: Издательство Гарвардского университета.

Elmuradova Gulsaraxon
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi ilmiy izlanuvchisi

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TA’LIM MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasining shakllanish jarayoni psixologik jihatdan tahlil qilingan. O‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, ichki va tashqi motivlar, o‘qituvchi va ota-onaning ta’siri, shuningdek, ijtimoiy muhit omillari yoritib berilgan. Shuningdek, motivatsiyaning o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga, shaxsiy rivojlanishiga va ijtimoiy faolligiga ta’siri ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim motivatsiyasi, maktab o‘quvchilari, ichki motivlar, tashqi motivlar, psixologik omillar, o‘qituvchi-ota-ona hamkorligi, ta’lim samaradorligi.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В статье анализируется процесс формирования учебной мотивации у школьников с психологической точки зрения. Рассматриваются интерес учащихся к учебе, внутренние и внешние мотивы, влияние учителей и родителей, а также факторы социальной среды. Также на научной основе рассматривается влияние мотивации на уровень усвоения знаний, личностное развитие и социальную активность учащихся.*

Ключевые слова: *учебная мотивация, школьники, внутренние мотивы, внешние мотивы, психологические факторы, педагогико-родительское взаимодействие, эффективность обучения.*

FACTORS OF FORMATION OF EDUCATIONAL MOTIVATION IN SCHOOL STUDENTS

Annotation. *This article analyzes the process of formation of educational motivation in school students from a psychological perspective. Students' interest in learning, internal and external motives, the influence of teachers and parents, as well as social environment factors are highlighted. Also, the impact of motivation on the level of mastery, personal development and social activity of students is considered on a scientific basis.*

Key words: *educational motivation, school students, internal motives, external motives, psychological factors, teacher-parent cooperation, educational effectiveness.*

Ta’lim motivatsiyasi pedagogika va psixologiya fanining eng dolzarb masalalaridan biridir. Zero, o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va faol ishtiroki ta’lim samaradorligining muhim ko‘rsatkichidir. Maktab davri shaxs rivojida asosiy bosqich bo‘lib, aynan shu davrda o‘quv faoliyatiga nisbatan ichki va tashqi motivlar shakllanadi. O‘quvchilarda o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishga intilish jarayoni motivatsion ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli maktab o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasining shakllanish omillarini o‘rganish nafaqat psixologik, balki pedagogik amaliyot uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligi, avvalo, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va qiziqishi bilan belgilanadi. Maktab yoshidagi bolalarda ta’lim motivatsiyasi barqaror shakllanmasa, ularning o‘zlashtirish darajasi, ijtimoiy faoliyati va shaxsiy rivojlanishi pasayadi. Axborot oqimining tezkorligi, raqamli texnologiyalar ta’siri va ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar o‘quvchilarning motivatsion holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli maktab o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasini shakllantiruvchi psixologik omillarni chuqur o‘rganish bugungi pedagogik va psixologik amaliyot uchun nihoyatda dolzarb masaladir.

Mazkur mavzu psixologiyada o‘quv faoliyati motivlari nazariyasini boyitishga xizmat qiladi. O‘quvchilarda motivatsiya jarayonining shakllanish mexanizmlarini ilmiy asosda aniqlash orqali o‘qituvchilarga samarali pedagogik strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Bundan tashqari, motivatsiyaning shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ta’limdagi muvaffaqiyati bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlanishi ilmiy-nazariy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirishga qaratilgan psixokorreksion va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

L.S.Vygotskiy “madaniy-tarixiy nazariya” asoschisi sifatida bolaning psixik rivojlanishini ijtimoiy muhit, muloqot va faoliyat bilan bog‘liq holda ko‘rgan. Uning fikricha, o‘quv motivatsiyasi bolaning ijtimoiy ehtiyojlari (o‘qituvchi bilan hamkorlik, tengdoshlar bilan muloqot, kattalarning bahosini olish) orqali shakllanadi[1]. “Yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi ham motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashga asos bo‘ladi: bola mustaqil bajara olmayd

D.B. Elkonin o‘yin psixologiyasi va “o‘quv faoliyati” nazariyasi orqali boshlang‘ich yoshdagi bolalarda motivatsiya shakllanishini tahlil qilgan. Unga ko‘ra, maktabgacha davrda o‘yin – markaziy faoliyat; o‘yin ichidagi rollar, “tasavvuriy vaziyat” va topshiriqlar orqali bola o‘qish motivini asta-sekin o‘zlashtiradi. Elkoninning fikricha, o‘qishga yo‘naltirishda o‘yin elementlarini saqlash va “yaqin rivojlanish zonasi”ni hisobga olish muhim (ya’ni — ota-ona/o‘qituvchi yordamida bola qiyin vazifalarni uddalaganda motiv oshadi)[2].

A.K. Markova “Formirovanie motivatsii ucheniya v shkolnom vozraste” asarida o‘quv motivlarini tarkibiy va dinamik xususiyatlari bo‘yicha tasniflaydi, hamda ichki (poznavatel’niy, o‘z-o‘zini rivojlantirish) va tashqi (baho, mukofot) motivlarni uyg‘unlashtiruvchi metodlarni taklif etadi. U ta’kidlaydiki, o‘qituvchining maqsadli pedagogik strategiyalari va faol, interaktiv metodlar (muammo-yuqaridagi o‘qitish, loyiha ishlari) ichki motivlarni rivojlantirishga xizmat qiladi[3].

Yu.K. Babanskiy pedagogik jarayonni tashkil etishda motivatsiyani markaziy omil deb biladi: u dars usullari va tashkil etish shakllarining motivatsion-ta’sirini tahlil qilib, “stimulatsiya-motivatsion” komponentini ajratadi. Uning ishlari o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi ta’siri, metodlarni integratsiyalash va pedagogik diagnostika yordamida o‘quvchilar ichki qiziqishini hosil qilishga qaratilgan tavsiyalarni beradi. Babanskyning metodlari bugungi darslarda o‘quv faoliyatini jonlantirish va motivni mustahkamlash uchun keng qo‘llanadi[4].

A. Maslov ehtiyojlar ierarxiyasida (fiziologik → xavfsizlik → sevgi/tegishlilik → hurmat → o‘zini ro‘yobga chiqarish) o‘qish motivatsiyasini shaxsiy o‘sish va o‘zini namoyon qilish ehtiyojlari bilan bog‘laydi. Ta’lim kontekstida bu shuni bildiradiki: agar o‘quvchining asosiy ehtiyojlari (masalan, xavfsizlik, ijtimoiy qabul) qondirilmasa, yuqori darajadagi o‘rganish va ijodiy faoliyat uchun motivatsiya sust bo‘ladi. Maslow nazariyasi pedagogik amaliyotda maktab muhitini, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni va o‘zini hurmat qilishni rivojlantirishni targ‘ib qilish uchun keng ishlatiladi[5].

D. McClelland “yutuqqa erishish” (need for achievement), “aloqadorlik” va “ta’sir” kabi motivlarni ajratadi. Ta’limda ayniqsa “yutuqqa erishish” motivi muhim: u o‘quvchini qiyinchilikni tanlashga, maqsad qo‘yishga va natija bo‘yicha fikr-mulohaza olishga undaydi. McClelland shuningdek, bu motivni rivojlantirish mumkin — maqsadli mashqlar, darajaga mos topshiriqlar va tezkor, aniq fikr-mulohaza orqali[6].

R. Ryan va E. Deci ichki motivatsiyani mustahkamlash uchun uch asosiy psixologik ehtiyojni ajratadi: avtonomiya, kompetentlik, ijtimoiy bog‘lanish. Ularning tadqiqotlari ko‘rsatadiki, maktab kontekstida o‘quvchilarga tanlov imkoniyati berish (avtonomiya), ularning qobiliyatlari darajasida vazifalar berish (kompetentlik) va sinf hamjihatligini rivojlantirish (relatedness) ichki motivni oshiradi va o‘rganishdan zavq olishni kuchaytiradi. SDT ta’lim amaliyotida baholash, rag‘bat va dars dizaynini qayta ko‘rib chiqishda asosiy nazariy platforma bo‘lib xizmat qiladi[7].

O‘zbekiston olimlari va so‘nggi yo‘nalishlar (raqamli ta’lim va motivatsiya)

- Mahalliy tadqiqotlarda (masalan, til o‘qitish, o‘qituvchilar metodikasi va motivatsiya haqida maqolalar) Jalolov va boshqalar o‘quv motivatsiyasini oshirish usullarini amaliy jihatdan o‘rganishgan; bu ishlar til o‘qitishda motivatsiya va dars metodikasini bog‘laydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda oliy va umumta’limda raqamli vositalarni joriy etish motivatsiyani

oshirish bo‘yicha qiziqarli tadqiqotlar paydo bo‘lmoqda: digitalizatsiya, interaktiv texnologiyalar va onlayn-ta’lim vositalari o‘quvchilarning qiziqishi va ishtirokini oshirishi mumkinligi qayd etilmoqda, lekin bu vositalar ichki motivni yo‘qotmasligi uchun dizayniga e’tibor kerak (masalan, avtomatik mukofotlash muammosi — overjustification effect). O‘zbekiston kontekstidagi tadqiqotlar (COVID keyingi davrda ham) interaktiv metodlar va raqamli resurslar bilan o‘qitishning afzalliklari hamda ehtiyot choralari haqida ma’lumot beradi. Amaliy xulosa (qisqacha):

Boshlang‘ich maktabda o‘yin elementlarini saqlash orqali o‘rgatish (Elkonin) va o‘qituvchi tomonidan maqsadli rag‘batlantirish (Babansky) — motivatsiyani shakllantirishda samarali. Ichki motivlarni rivojlantirish uchun SDTdagi avtonomiya/kompetentlik/relatedness tamoyillarini dars dizayniga kiritish lozim. Raqamli texnologiyalar o‘quv motivatsiyasini oshirishi mumkin, lekin ularni qo‘llashda o‘quvchining ichki qiziqishi va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini saqlashga e’tibor kerak.

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasi (N = 60)

Motiv turi	Sinaluvchilar soni	Foizi (%)
Ichki motiv (bilishga qiziqish, o‘zi uchun o‘qish)	25	41,6 %
Tashqi ijobiy motiv (rag‘bat, mukofot, o‘qituvchi maqtovi)	20	33,3 %
Tashqi majburiy motiv (jazodan qochish, ota-ona bosimi)	15	25,1 %
Jami	**60**	**100 %**

Tahlil natijalariga ko’ra boshlang‘ich sinflarda ichki motivatsiyaga ega o‘quvchilar (41,6 %) ko‘pchilikni tashkil etsa-da, tashqi rag‘bat va majburiylik ham sezilarli darajada yuqori (58,4 %). Bu davrda motivatsiya hali barqaror emasligi ko‘rinadi.

2-jadval

O‘rta sinf (7–8-sinf) o‘quvchilarida raqamli ta’lim sharoitida motivatsiya (N = 60)

Motiv manbai	Sinaluvchilar soni	Foizi (%)
Bilishga ichki qiziqish	18	30 %
O‘qituvchining onlayn qo‘llab-quvvatlashi	15	25 %
Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish, ball, reyting)	20	33,3 %
Passiv ishtirok (faqat majburiyat sababli)	7	11,7 %
Jami	**60**	**100 %**

Tahlil natijalariga ko’ra raqamli ta’limda o‘quvchilarning qariyb 33 % gamifikatsiya orqali motivatsiya olmoqda, ichki qiziqish 30 %ni tashkil qilmoqda. Passiv ishtirokchilar ulushi (11,7 %) ham mavjud bo‘lib, bu texnologiyadan to‘g‘ri foydalanilmasa, motivatsiya pasayishi mumkinligini ko‘rsatadi. 120 nafar o‘quvchi bo‘yicha chastotali tahlil shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich bosqichda

ichki motivatsiya sezilarli, ammo tashqi rag‘bat ham kuchli rol o‘ynaydi, o‘rta sinflarda raqamli ta’lim motivatsiyani yangicha shakllarda (gamifikatsiya, onlayn qo‘llab-quvvatlash) rivojlantirishi mumkin, ammo har ikki guruhda ham motivatsiya tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda, bu ichki motivatsiyani rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda o‘quv faoliyatida motivatsiya o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol, mustaqil va maqsadli harakat qilishida asosiy omil hisoblanadi. Psixolog olimlarning qarashlari shuni ko‘rsatadiki. Vigotskiy, Elkonin va Markova ta’lim jarayonida motivatsiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi, tashqi rag‘batlardan ichki ehtiyojlarga o‘tish zarurligini asoslagan, Babanskiy motivatsiyani o‘qitish metodlari va ta’limni boshqarish bilan bevosita bog‘lagan, Maslow, McClelland va Ryan-Deci esa motivatsiyani insonning asosiy ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘lab ko‘rsatgan. O‘zbekiston olimlari esa milliy ta’lim tizimida motivatsiyani oshirishning amaliy yo‘llarini, ayniqsa ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining ahamiyatini ta’kidlaydi. So‘nggi yillarda raqamli ta’lim sharoitida o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish masalasi alohida dolzarb yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Shunday qilib, o‘quv motivatsiyasi shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi va uni shakllantirish pedagogik-psixologik yondashuvni talab etadi.

Mazkur mavzu yuzasidan tavsiyalar bo’yicha boshlang‘ich maktab davridan boshlab o‘quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirish uchun o‘yin faoliyatidan ta’lim faoliyatiga bosqichma-bosqich o‘tishni qo‘llab-quvvatlash.

O‘qituvchilarga – o‘quv jarayonida rag‘batlantirishning samarali shakllaridan foydalanish (ijobiy baho, individual yondashuv, qo‘shimcha vazifalar orqali qiziqish uyg‘otish).

Ota-onalarga – bolalarda o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish, rag‘bat berishda jazodan ko‘ra qo‘llab-quvvatlash usullaridan foydalanish.

Ta’lim tizimida – o‘quvchilarning yutuqqa erishish motivini rivojlantirish uchun loyihaviy ishlar, musobaqalar, ilmiy tanlovlarni kengaytirish.

Raqamli ta’lim sharoitida – onlayn resurslar va interaktiv texnologiyalar orqali o‘quvchilarni jalb qilish, o‘yinlashtirish (gamifikatsiya) usullarini qo‘llash.

Psixologlar uchun – motivatsiya diagnostikasi va individual maslahat ishlarini muntazam yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 1934.
2. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – М.: Просвещение, 1974.
3. Маркова А.К. Формирование мотивации учения у школьников. – М.: Просвещение.1983.
4. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1977.
5. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
6. McClelland D.C. The Achieving Society. – Princeton, NJ: Van Nostrand, 1961.
7. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation,
8. Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.
9. Ғаниева Н.М., Жалолов А., Қодирова М. Ўқув мотивациясини шакллантиришда педагогик ва психологик омиллар. – Тошкент: ЎзПФТИ нашриёти, 2019.

Jamshid Xoliyorovich Nazarov
Termiz davlat universiteti tyutori
E-mail: jamshidnazarov887@gmail.com

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK CHQBT FANI O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri - zamonaviy jamiyat va jahon ta'lim maydonining talablari darajasida faoliyat yurita oladigan, yuqori intellektual salohiyatga ega, malakali hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Mazkur jarayonning samaradorligi mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va jamiyat hayotining har tomonlama yangilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Amaliy tajriba shuni tasdiqlaydiki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, ularni hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etadigan mutaxassislarning kasbiy yetukligi, intellektual darajasi hamda pedagogik mahoratiga chambarchas bog'liqdir.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, bo'lajak pedagog, kasbiy faoliyat, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, kreativ jarayon bosqichlari.*

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПРЕДМЕТА НДП В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В условиях Нового Узбекистана одной из приоритетных задач системы высшего образования является подготовка квалифицированных и конкурентоспособных кадров с высоким интеллектуальным потенциалом, способных функционировать на уровне требований современного общества и мировой образовательной площадки. Эффективность этого процесса является важным фактором, непосредственно влияющим на углубление проводимых в стране социально-экономических реформ и всестороннее обновление жизни общества. Практический опыт свидетельствует о том, что успешная реализация любых социально-экономических реформ зависит, прежде всего, от профессионализма, интеллектуального уровня и педагогического мастерства специалистов, активно участвующих в их реализации.*

Ключевые слова: *креативность, будущий педагог, профессиональная деятельность, дивергентное мышление, конвергентное мышление, этапы творческого процесса.*

DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF NDP SUBJECT IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS - AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. *In the conditions of New Uzbekistan, one of the priority tasks of the higher education system is the training of qualified and competitive personnel with high intellectual potential, capable of functioning at the level of the requirements of modern society and the world educational platform. The effectiveness of this process is an important factor that directly affects the deepening of socio-economic reforms carried out in the country and the comprehensive renewal of society. Practical experience indicates that the successful implementation of any socio-economic reforms depends primarily on the professionalism, intellectual level and pedagogical skills of specialists actively involved in their implementation.*

Key words: *creativity, future teacher, professional activity, divergent thinking, convergent thinking, stages of the creative process.*

Kreativlik XXI asrning eng muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Chunki biz tez o‘zgaruvchan va oldindan aytib bo‘lmaydigan davrda yashayapmiz[1]. Mazkur talab, ayniqsa, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, ushbu yo‘nalishdagi pedagoglarning vazifasi nafaqat ta’lim oluvchilarga harbiy-amaliy bilimlarni yetkazish, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nostandart vaziyatlarda samarali yo‘l tutishga o‘rgatishdan iboratdir.

Professor Sh. S. Sharipov ta’kidlaganidek, “bo‘lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish ularning kasbiy shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi”[2]. Shu sababli, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy professional yuksalishida, balki kelajak avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ham muhim omil sifatida qaraladi.

Bo‘lajak mutaxassislarni qobilayatlarini rivojlantirish, faoliyatga yo‘naltirish, ularning sifatli ta’lim olishga qaratilgan motivatsiyasini kuchaytirish, oliy ta’lim muassasalarida ta’limga kreativ yondashuvlarning o‘rnini qayta ko‘rib chiqish hamda ta’lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mos holda prognoz qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Xususan, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu yo‘nalishdagi pedagoglarning kasbiy faoliyati nafaqat nazariy va amaliy bilimlarni yetkazish, balki ta’lim oluvchilarda ijodkorlik, nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham qaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom va intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalash va ularning kreativ qobilyatlarini innovatsion vositalar orqali rivojlatirish uchun zarur imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmoqda. “XXI asr – intellektual asr” ekanligi inobatga olinsa, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari kreativ qobiliyatini shakllantirish va uni kasbiy faoliyatda samarali qo‘llash ularning kelgusida barkamol shaxslarni tarbiyalashida hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqishi turgan gap nazdimizda.

Fikrimizcha, o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi va tarixiy tajribasi ham yoshlarni ijodkorlik, tafakkur kengligi va yangilikka intilish ruhida tarbiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish nafaqat zamonaviy ta’lim islohotlarining ajralmas qismi, balki milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalarga hamohang holda qaralishi lozim.

Biz tadqiqotlarda shuni ko‘rishimiz mumkinki, Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishida ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosi katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” konsepsiyasi**,** Yusuf Xos Hojibning “Saodatga eltuvchi bilim”**,** shuningdek**,** At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy kabi olimlarning ilmiy-axloqiy qarashlari va Al-Xorazmiyning algoritmlar sohasidagi kashfiyotlari, Ibn Sinoning tibbiyotga oid ilmiy ishlari, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy va ijtimoiy-axloqiy qarashlari pedagogik jarayonning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, Amir Temurning adolatli davlat tuzumi va ijtimoiy tashkilot ishlari**,** Mirzo Ulug‘bekning ilmiy ta’limotni ommalashtirishga qaratilgan faoliyati (Dorilfunun tashkil etilishi)**,** Mirzo Boburning ta’limni isloh qilishga oid “Xatti Boburiy” asari hamda Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma’rifatga chaqiruvchi ta’limotlari bugungi pedagogik jarayon uchun muhim ilhom manbai hisoblanadi.

Shu tariqa, mazkur boy ilmiy-meroslar ham bevosita bugungi kunda bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari tayyorlash jarayonida kreativ qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan manba sifatida qaraladi. Bu meros nafaqat metodik yondashu-

[1] Craft, A. (2010). Creativity and education futures: Learning in a digital age. ERIC.

[2] Tolipov U,Q, Sharipov Sh.S “O’quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar” “Fan” nashri 2012-yil 18,19-bet.

vlarni boyitadi, balki bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarini kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda, ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini oshirishda ham bevosita rol o‘ynaydi.

Bir qator olimlarning fikricha, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish jarayonida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni inobatga olish zarur:

• Ta’lim tizimining pedagog kadrlar salohiyatini tubdan oshirish, o‘qituvchi va ilmiy xodimlarning kasbiy nufuzini mustahkamlash, ularning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish**ga** qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

• Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining mazmunini ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlari asosida yangilash, o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish va ularni harbiy-amaliy yo‘nalishda ijodkorlikka asoslangan metodlar bilan boyitish;

• Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini milliy mafkura tamoyillari, xalqimizning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish, ularni ma’naviy-axloqiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash;

• Ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitish jarayonida kreativ yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirish;

• Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ, intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyatlarni shakllantirishda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahalla va xalqaro hamkorlik institutlarining rolini kuchaytirish, ularning hamkorligini ta’minlash.

Jamiyatimiz kelajagi, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasida olib boriladigan islohotlarning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog‘liqdir. Bu jarayonda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish, ularning kasbiy salohiyatini zamon talablariga mos darajada shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, bo‘lajak mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlash nafaqat ta’lim tizimining rivojlanishiga, balki mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham bevosita xizmat qiladi.

Bugungi kunda, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki kreativlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil bo‘lib, u o‘quvchilarda yangicha fikrlash, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, ijodiy tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani nafaqat harbiy-amaliy bilimlarni o‘rgatish, balki yoshlarni mustaqil fikrlash va ijodkorlikka yo‘naltirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Kreativlik tushunchasi nazariy nuqtai nazardan keng tadqiq etadigan bo‘lsak, “Creativity” (ijodkorlik) inglizcha so‘zi lotincha *creare* (“yaratmoq”) atamasidan kelib chiqqan. Uning so‘z yasovchi qo‘shimchalari ham lotin tilidan olingan. “Create” (yaratmoq) so‘zi ingliz tilida ilk bor XIV asrdayoq paydo bo‘lgan - xususan, “Ruhoniy hikoyasi” asarida ilohiy yaratilish ma’nosida qo‘llangan, Inson faoliyatiga oid zamonaviy “kreativlik” ma’nosi esa Ma’rifatparvarlik davridan keyingina shakllandi.”

Kreativlik - insonning o‘z tasavvuri asosida yangicha va qimmatli g‘oyalar, yechimlar yoki mahsulotlar yaratish qobiliyati sifatida izohlanadi. Mazkur qobiliyatning mahsullari turlicha bo‘lishi mumkin: nomoddiy shakllar (masalan, g‘oya, ilmiy nazariya, adabiy asar, musiqa kompozitsiyasi yoki hatto oddiy hazil) va moddiy shakllar (masalan, ixtiro, yangi taom, zargarlik buyumi, kiyim yoki san’at asari)[1]. Newtonning fikricha kreativlik bu – o‘ziga xos va ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan mahsulot yarata olish qobiliyati sifatida ta’riflanadi[2]. Pedagogik kreativlikning asosiy shakllarini quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin.

[1] Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The Standard Definition of Creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92–96.

[2] Newton, L., & Beverton, S. (2012). Pre-service teachers‟ conceptions of creativity in elementary school English. Thinking Skills and Creativity, 7(3), 165–176. https://doi.org/10.1016/j.tsc.2012.02.002



1.1-rasm: Pedagogik kreativlikning asosiy shakllari

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunishimiz mumkinki, kreativlik faqat san’at yoki madaniyat bilan chegaralanmaydi. Sternberg ta’kidlaganidek, kreativlik “keng qamrovli mavzu” sifatida tan olingan bo‘lib, u siyosat, iqtisod, texnologiya va ilmiy tadqiqotlar kabi ko‘plab sohalarda namoyon bo‘ladi[1]. So‘nggi yillarda ayniqsa ta’lim sohasi kreativlikni chuqur o‘rganishga katta e’tibor qarat-moqda[2]. Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlaridan ko‘rishimiz mumkinki, kreativlik ta’lim sohasida ham alohida ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish hamda yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagog uchun esa kreativ yondashuv dars jarayonini zamonaviylashtirish, uni turli sharoit va vaziyatlarga moslab tashkil etish imkoniyatini beradi. Shu boisdan, fikrimizcha bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kasbiy mahorati va kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, qadimiy madaniyatlarda kreativlik tushunchasi mavjud emas edi. Masalan, Qadimgi Yunoniston, Xitoy va Hindistonda ijod jarayoni “yaratish” emas, balki

[1] Sternberg, R. J. (2012). The Assessment of Creativity: An InvestmentBased Approach. Creativity Research Journal, 24(1), 3–12. https://doi.org/10.1080/10400419.2012.652925

[2] Cimermanova, I. (2015). Creativity in EFL Teacher Training and Its Transfer to Language Teaching. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 197, 1969–1975.https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.07.562

"kashf etish" shakli sifatida qaralgan[1]. Yahudiy-xristian-islom an'analarida esa kreativlik faqat ilohiy sifat deb talqin qilinib, inson faoliyati Xudoning ishini ifoda etishi sifatida baholangan. Kreativlikning zamonaviy tushunchasi esa Uyg'onish davrida shakllanib, inson tafakkuri, shaxsiy imkoniyatlari va gumanistik qadriyatlarni yuksak qo'yishga asoslangan.

Hozirgi davrda "kreativlik" tushunchasi yanada keng ma'noga ega bo'lib, u pedagogika, psixologiya, biznes, kognitiv fanlar, ta'lim hamda gumanitar yo'nalishlarda atroflicha tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonida kreativlik o'quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga, noodatiy yechimlarni topishga hamda yangi bilimlarni samarali o'zlashtirishga undovchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, kelajakda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Kreativlik tushunchasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turlicha izohlangan. J. P. Guilford kreativlikni intellektning o'ziga xos shakli, xususan "divergent thinking" (tarkiblanmagan, kengaytirilgan fikrlash) bilan bog'liq deb baholagan. U ijodiy jarayonni muammoni turli yo'llar bilan hal qilishga bo'lgan qobiliyat orqali aniqlaydi[2]. U "kreativlik - ta'limning eng keng qamrovli ma'nodagi asosi va insoniyatning eng jiddiy muammolarini hal qilish kalitidir", deya qayd etadi. Torranse esa kreativlikni (ijodiy fikrlashni) yangilik yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish va o'ziga xos qarashlar shakllantirish qobiliyati deb ta'riflaydi. Shu bilan birgalikda u tomonidan ishlab chiqilgan **Torrance kreativ fikrlash testlari (TTCT)** bugungi kunda butun dunyoda o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini baholashda keng qo'llanilmoqda.

V.F. Vishnyakov tadqiqotlarida inson tafakkuri va mashina "tafakkuri" o'rtasidagi farqlar alohida ko'rsatib o'tiladi. Olimning ta'kidlashicha, mashina faqat model va belgilar orqali ishlash qobiliyatiga ega bo'lsa, insonning ijodiy tafakkuri esa muammoni hal qilishda aql va intellektual resurslarga tayangan holda namoyon bo'ladi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, kreativlik insonning qobiliyatlari bilan uyg'unlikda amalga oshadi shu bilan birgalikda shaxsning rivojlanishiga ko'ra turli xil shakllarda namoyon bo'ladi.

YA.A. Ponomarev esa kreativlikni o'rganishda to'rt asosiy yondashuvni ajratadi:

–kreativlik natija sifatida;
–kreativlik qobiliyat sifatida;
– kreativlik jarayon sifatida;
–shaxsning individual xususiyati sifatida.

Fikrimizcha bu tasnif ijodiy tafakkurning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi va uning samaradorligiga mumtazam ta'sir etib turishini ko'rsatadi. Mazkur tasnif kreativlikning ko'p qirrali jarayon ekanligini ilmiy isbotlashda zarur hisoblanadi.

Kreativlik sohasida tadqiqot olib borgan M. Fersom, K. Teylor, D. Teylor va boshqa olimlar ijodiy mahsulotni baholashda uch mezonni belgilashadi: miqdor, sifat va ahamiyat. Ularning tadqiqotlari kreativlikni faqatgina natija bilan hisoblamasligni, balki uning mazmuniy va ijtimoiy qiymati ham zarurligini namoyon qiladi. Shuningdek, ko'plab boshqa tadqiqotchilar natijani ijodning yagona mezoni sifatida qabul qilishni shubha ostiga olishgan, chunki ijodiy mahsulotning ko'plab ta'riflari faqat ayrim jihatlarigina kreativlik bilan bevosita aloqador bo'lib chiqadi.

Kreativlikni tahlil qilishda esa uning bosqichlari va darajalari alohida e'tirof etiladi. Masalan, E.E. Tunik kreativlikni to'rt bosqichga ajratadi:

–vaziyatga tayyorlanish;
– kognitiv va motivatsion jihatlarni shakllantirish;
–ruhiy ilhomlanish;
–natijani tekshirish.

Ushbu bosqichlar ilmiy adabiyotlarda kreativlikning qanday ishlashini izohlashda muhim model sifatida qaraladi.

Shuningdek, Grem Uolles kreativlikni to'rt bosqichga ajratgan bo'lib, ular tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhomlanish va tasdiqlashdan iboratdir (1.1-jadvalga qarang).

1-jadval

[1] Tatarkiewicz, W. (1980). A History of Six Ideas: An Essay in Aesthetics. Springer.
[2] Guilford, J.P. (1967). The nature of human intelligence. New York: McGraw-Hill.

Grem Uollesning kreativ jarayon bosqichlari klassifikatsiyasi

Bosqich	Mazmuni	Natijasi
Tayyorgarlik (Preparation)	Muammoni chuqur tushunish, kerakli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayoni.	Muammoni hal qilish uchun zarur bilim va resurslar jamlanadi.
Inkubatsiya (Incubation)	Ong osti darajasida muammoni qayta ishlash, bevosita faol fikrlashdan vaqtincha chekinish.	Muammo yashirin tarzda ongda qayta ishlanadi, yangi assotsiatsiyalar paydo bo'ladi.
Ilhomlanish (Illumination)	Kutilmagan tarzda yangi g'oya yoki yechimning paydo bo'lishi ("aha!" lahzasi).	Muammoni hal qilish uchun original g'oya yuzaga keladi.
Tasdiqlash (Verification)	Yangi g'oyani sinovdan o'tkazish, uni tekshirish va mukammallashtirish.	Yechimning amaliy ahamiyati va samaradorligi aniqlanadi.

G. Uolles tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy jarayonning to'rt bosqichli modeli kreativlik nazariyalarining klassik asoslaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng e'tirof etilgan. Uolles ijodkorlikni tasodifiy ilhom jarayoni emas, balki izchil va bosqichma-bosqich kechadigan kognitiv faoliyat sifatida talqin qiladi. Model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhomlanish va tekshirish.

- Tayyorgarlik bosqichi muammoni anglash, ma'lumotlarni yig'ish, mavjud tajribalarni o'rganish hamda dastlabki yo'nalishlarni belgilash jarayonidan iborat. Bu bosqichda shaxsning bilim va intellektual salohiyati faol ishlatiladi.
- Inkubatsiya bosqichi ijodiy jarayonning eng murakkab qismlaridan biri bo'lib, bunda ong osti faoliyati yetakchi o'rin egallaydi. Uolles fikricha, inson muammoni vaqtincha unutgandek tuyulsa-da, ong ostida izlanish jarayoni davom etadi va yangi g'oyalarning shakllanishiga zamin yaratadi.
- Ilhomlanish bosqichi ("Aha!" lahzasi) kutilmagan holda yuzaga keladigan yangi g'oya yoki noodatiy yechim bilan xarakterlanadi. Psixologik tadqiqotlarda bu bosqich tafakkurdagi to'satdan yuz beradigan siljish sifatida izohlanadi.
- Tekshirish bosqichi esa yaratilgan g'oyani sinovdan o'tkazish, uni mantiqan asoslash, amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlarini aniqlash jarayonini o'z ichiga oladi. Shu bosqichda kreativ mahsulotning real qiymati va foydaliligi baholanadi[1].

Mazkur modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u ijodiy jarayonni dinamik, bosqichli va murakkab tizim sifatida ochib beradi. Uolles nazariyasi keyingi ko'plab izlanishlarga, jumladan, J. Gilfordning divergent tafakkur haqidagi konsepsiyasi va Y.A. Ponomaryovning kreativlikni natija, qobiliyat, jarayon va shaxsiy xususiyat sifatida tasniflash yondashuviga metodologik asos bo'lib xizmat qilgan[2].

Shuningdek, Uollesning "inkubatsiya" bosqichi ko'plab zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, Z. Freyd ijodiy aktni libidoning sublimatsiyasi sifatida talqin qilgan bo'lsa, keyinchalik D. Simonton va boshqa kognitiv psixologlar inkubatsiyani ong osti faoliyatining ijodiy mahsuldorlikka ta'siri bilan bog'lashgan. Bu esa kreativ jarayonni nafaqat ongli izlanish, balki psixologik va neyrobiologik mexanizmlar bilan izohlash imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, olimning modeli kreativlikni faqatgina yakuniy natija yoki individual qobiliyat sifatida emas, balki inson tafakkurining **kompleks, bosqichli jarayoni** sifatida yoritadi. Shu jihatdan, u zamonaviy ta'lim va pedagogik tadqiqotlarda o'qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim nazariy asos hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning xislat va fazilatlari pedagogik faoliyat jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani

[1] Wallas, G. The Art of Thought. – London: Cape, 1926. – 248 p.

[2] Yandasheva, G. S. **Creative pedagogy as a priority of modern pedagogy** // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Livorno, Italy, March 17–18, 2022. – P. 173. – Available at: https://econferencezone.org

o‘qituvchilarining yangilikka intiluvchanlik, mustaqil fikrlash va o‘z ijodiy yondashuvini amaliyotga tatbiq etish psixologiyasini singdirish zarur. Chunki yangi pedagogik yondashuvlar o‘qituvchiga nafaqat bilim va tajriba beradi, balki kreativ faoliyat orqali pedagogik jarayonni boyitadi va ularning professional salohiyatini oshiradi. Agar bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalari yuqori darajada amalga oshirilsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ancha samarali bo‘ladi va kutilgan natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Abduqodirov A. A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2012. – 200 b.
3. Nishanova Z. T. Pedagogik mahorat va ijodkorlik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. – 220 b.
4. Jo‘rayev R. J. Talabalarda ijodiy faollikni rivojlantirishning psixologik asoslari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. – 168 b.
5. Karimova V. M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 240 b.
6. Бабанский Ю. К. Оптимизация процесса обучения. – Москва: Педагогика, 1982. – 192 с.
7. Зеер Э. Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2003. – 240 с.
8. Кудрявцев Т. В. Психология творчества. – Москва: Академия, 1997. – 180 с.
9. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2005. – 352 с.
10. Amabile T. M. Creativity in context. – Boulder, CO: Westview Press, 1996. – 317 p.
11. Sawyer R. K. Explaining creativity: The science of human innovation. – New York: Oxford University Press, 2012. – 336 p.
12. Craft A. Creativity in schools: Tensions and dilemmas. – London: Routledge, 2005. – 208 p.
13. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the psychology of discovery and invention. – New York: Harper Perennial, 1996. – 456 p.
14. Sternberg R. J. Handbook of creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 496 p.

Jalolova Feruza Mirkamol qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayonida xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashda boshqaruvchilik, liderlik, innovatsion fikrlash va jamoani boshqarish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilishi yoritib berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim amaliyotiga moslashtirish zaruriyati va imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqola O'zbekiston ta'lim tizimida raqobatbardosh pedagoglarni tayyorlash jarayonida xorijiy ilg'or yondashuvlarni joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak pedagog, boshqaruv kompetentligi, xorij tajribasi, liderlik, innovatsiya, ta'lim tizimi, kasbiy rivojlanish, jamoani boshqarish, ta'lim sifati, global yondashuv*

РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности использования зарубежного опыта в процессе развития управленческой компетентности будущих педагогических кадров. Анализируются подходы, применяемые в развитых странах, где особое внимание уделяется лидерству, инновационному мышлению, управлению коллективом и профессиональному развитию педагогов. Рассматривается необходимость и перспективы адаптации зарубежного опыта к национальной образовательной практике. Показано научно-практическое значение внедрения передовых зарубежных подходов для подготовки конкурентоспособных педагогических кадров в системе образования Узбекистана.*

Ключевые слова*: будущий педагог, управленческая компетентность, зарубежный опыт, лидерство, инновации, система образования, профессиональное развитие, управление коллективом, качество образования, глобальный подход*

DEVELOPING THE MANAGEMENT COMPETENCE OF FUTURE PEDAGOGICAL PERSONNEL: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Abstract. *This article examines the use of international experience in developing management competence among future pedagogical staff. It analyzes the approaches of developed countries, where special attention is given to leadership, innovative thinking, team management, and professional development of teachers. The paper highlights the necessity and prospects of adapting foreign practices to the national education system. It emphasizes the scientific and practical significance of integrating advanced international approaches in preparing competitive pedagogical cadres in Uzbekistan's education system.*

Key words: *future teacher, management competence, foreign experience, leadership, innovation, education system, professional development, team management, education quality, global approach*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar va global o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, pedagog kadrlarning faqatgina o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishi bugungi kun talablarini qondirish uchun yetarli emas. Ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi ko'p jihatdan boshqaruv kompetentligini qay darajada rivojlantirganiga bog'liqdir. Chunki har qanday ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi, o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik muhitdagi faol ishtiroki, pedagogik jamoaning uyg'un faoliyati,

ta’lim mazmuni va shakllarining zamon talablariga mos ravishda tashkil etilishi ko‘p hollarda pedagoglarning tashkiliy va boshqaruv salohiyatiga tayanadi.

Boshqaruv kompetentligi tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, u pedagog shaxsining rahbarlik qobiliyatlari, kommunikativ mahorati, tashkiliy faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalari, jamoa bilan ishlash, qaror qabul qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta’lim sifatini monitoring qilish va natijalarni tahlil qila olish kabi qator kasbiy fazilatlarni qamrab oladi. Mazkur kompetentlikning rivojlangan darajasi pedagogning o‘z kasbiy faoliyatida nafaqat ta’lim beruvchi, balki yetakchi, tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi va strategik qaror qabul qiluvchi sifatida faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda xalqaro maydonda ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilar malakasini takomillashtirish va boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida o‘qituvchilarning nafaqat dars jarayonidagi bilim va ko‘nikmalari, balki ularning boshqaruv faoliyati, yetakchilik salohiyati va pedagogik jarayonga innovatsiyalarni kiritishdagi faolligi ham alohida urg‘u bilan ta’kidlanadi. Shu bilan birga, mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini shakllantirish masalalari, ta’lim muassasalarida boshqaruv madaniyatini yuksaltirish hamda o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zaruriyati ko‘rsatib o‘tilmoqda.

Pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayoni ko‘plab omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Birinchidan, bu jarayon ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan davlat siyosati va me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yo‘naltiriladi. Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglar uchun yaratilayotgan o‘quv rejalari, dasturlar va metodik ta’minot ushbu kompetentlikni shakllantirishga qanchalik xizmat qilayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, amaliyot jarayonida pedagogning o‘zini-o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan intilishi, kasbiy faoliyatga yangicha yondashuvi va zamonaviy pedagogik-psixologik bilimlarni egallash darajasi ham hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, boshqaruv kompetentligini rivojlantirish jarayoni oddiy, bir martalik tadbir emas, balki tizimli, bosqichma-bosqich va uzluksiz amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bu jarayonda pedagog o‘zining mavjud bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda boyitib borishi, yangilashi va real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash tajribasini orttirishi zarur. Shu maqsadda maxsus o‘quv kurslari, seminar-treninglar, malaka oshirish dasturlari, innovatsion loyihalar va tajriba-sinov ishlari tashkil etilishi muhimdir.

Pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy kasbiy yutuqlariga, balki butun ta’lim tizimining sifat darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ta’lim muassasasida samarali boshqaruv tizimining yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarning tezkor hal etilishiga yordam beradi. Shuningdek, boshqaruv kompetentligiga ega pedagog o‘z jamoasida innovatsion muhit yaratadi, yangicha pedagogik texnologiyalarni joriy etadi va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va onlayn ta’lim resurslarining jadal rivojlanishi ham pedagoglardan boshqaruv kompetentligini yangi yo‘nalishlarda rivojlantirishni talab qilmoqda. Virtual ta’lim muhitini tashkil etish, masofaviy darslarni samarali boshqarish, onlayn monitoring va baholash tizimlaridan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish – bularning barchasi zamonaviy pedagogning boshqaruv kompetentligining ajralmas tarkibiy qismlariga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida qabul qilingan strategik hujjatlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi” tamoyiliga asoslangan davlat dasturlari ham pedagoglarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida boshqaruvga oid fanlar, amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion metodlarni keng joriy etish talab etilmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ta’lim rahbarlarini tayyorlash jarayoni faqat nazariy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmay, balki amaliy yetakchilik mexanizmlari orqali mukammal qo‘llab-

quvvatlanadi. Masalan, Finlyandiya va Norvegiya kabi davlatlarda tashkil etilgan School Leadership Training Centers orqali rahbarlar uchun modulli tayyorgarlik kurslari yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, Mentor-Leader programs doirasida amaldagi tajribali pedagoglar yosh pedagoglarga mentor sifatida biriktiriladi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun Digital Leadership Seminars platformalari orqali maktab rahbarlariga zamonaviy raqamli boshqaruv texnologiyalari o‘rgatiladi. Ushbu mexanizmlar pedagogni ta’lim sohasida strategik yetakchi sifatida shakllantirishning amaliy bazasini yaratadi.

Yevropa modelining natijasi o‘laroq shakllanadigan pedagog rahbarda bir qancha muhim salohiyatlar kuzatiladi. Bular qatorida, avvalo, strategik yetakchilik qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, pedagog ta’lim jarayonini rejalashtirish, o‘zgarishlarga tayyor turish va ularni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, u jamoaviy qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish, raqamli transformatsiyani boshqarish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, va eng muhimi, barcha o‘quvchi va pedagoglar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga yo‘naltirilgan inklyuziv rahbar sifatida shakllanadi. Bunday mukammal kompetensiyalar majmuasi, Yevropadagi ta’lim muassasalarini nafaqat bilim berish maskani, balki rivojlanish va barqaror yetakchilik markaziga aylantiradi.

Shu asosda, Yevropa tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’limdagi boshqaruv ko‘nikmalari ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida shakllantirilishi lozim. Bu yondashuv pedagogning shaxsiy kasbiy o‘sishi, jamoa bilan samarali ishlash madaniyati, ta’limdagi islohot va o‘zgarishlarni boshqara olish qobiliyati hamda raqamli muhitda faoliyat yuritish salohiyatini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi. Yevropadagi yetakchi tajriba shuni isbotladiki, rahbarlikka tayyorgarlik umumiy pedagogik tayyorgarlikdan alohida ajratilmasligi, balki integratsiya qilingan, tizimli va bosqichma-bosqich shaklda rivojlantirilishi zarur.

Sharqiy Osiyo davlatlarida (ayniqsa, Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapurda) ta’lim rahbarini tayyorlash ma’lumotga asoslangan boshqaruv, qat’iy intizom, ijtimoiy mas’uliyat va amaliy refleksiya kabi qadriyatlarga suyangan. Ushbu mintaqada pedagog rahbarlik nafaqat tashkilotni boshqarish, balki milliy qadriyatlarga, kollektiv mas’uliyatga, va akademik intizomga tayanadigan kasb sifatida qaraladi. Yaponiya: Lesson Study va Collegial Leadership

Yaponiya ta’lim tizimida "Lesson Study" (Jugyou Kenkyuu) yetakchi mexanizm hisoblanadi. Unga ko‘ra, rahbarlik roli pedagoglar o‘rtasida taqsimlanadi:

– darsni birgalikda rejalashtirish,

– kuzatish va tahlil qilish,

– qayta tuzish va amalga oshirish.

Bu jarayonda rahbar nafaqat tashkilotchi, balki metodik yetakchi sifatida shakllanadi. Yaponiyada maktab direktorligiga olib boruvchi yo‘l uzoq va tizimli: 10+ yillik pedagogik tajriba, maxsus qayta tayyorgarlik kurslari va davlat attestatsiyasidan o‘tish talab qilinadi.

Janubiy Koreya tajribasi ta’lim rahbarini tayyorlashda an’anaviy bilimlarni innovatsion boshqaruv usullari bilan uyg‘unlashtirgan. Bu yerda “Educational Administration” - alohida universitet yo‘nalishi sifatida mavjud va bakalavr bosqichidanoq rahbarlikka ixtisoslashtirilgan mutaxassislar yetishtiriladi.

Talabalar Problem-Based Learning (PBL), Case Analysis, va Policy Simulation asosida o‘qitiladi. Maktab rahbari bo‘lish uchun milliy litsenziya, amaliy tajriba va davlat imtihonlari talab qilinadi. "Performance Appraisal System" orqali maktab rahbarlarining ishi baholanadi.

Yaponiyada bo‘lajak pedagoglarni rahbarlikka tayyorlash jarayoni amaliyotga, kuzatuvga va qayta tahlilga asoslangan tabiiy rivojlanish modeli orqali amalga oshiriladi. Bakalavr bosqichidayoq talabalar dars rejasi tuzish, jamoa bilan ishlash, natijalarni tahlil qilish va qayta ishlash kabi jarayonlarni o‘z ichiga olgan “Lesson Study” usulida ishtirok etadilar. Bu jarayon faqat o‘qituvchilik mahoratini emas, balki pedagogik yetakchilik salohiyatini shakllantiradi. “Lesson Study” davomida har bir talaba - kuzatuvchi, tashkilotchi, hamkor va tahlilchi rollarini bajarib, o‘z-o‘zini baholash va jamoa fikri asosida rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi.

Yaponiyada maktab rahbari bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik talab qilinadi, lekin bu faqat bitiruvdan keyin emas, bakalavr davridanoq boshlanadi. Pedagogik amaliyotda talabalarga “shadowing” - ya’ni direktor, bo‘lim rahbari, metodist faoliyatini kuzatish vazifalari yuklanadi. Shu orqali ular rahbarning qanday qaror qabul qilishi, jamoani qanday boshqarishi va muammoli vaziyatlarda qanday yechim topishini amalda kuzatadilar. Bunda ustoz-shogird tizimi - ya’ni murabbiy pedagog rahbarning yonida bo‘lib, talabani yetakchi sifatida shakllantiradi. Yaponiya modeli rahbarlikka tayyorgarlikni real amaliyotda ko‘nikma orttirish va ichki kuzatuv orqali o‘zgarishga intilishga asoslaydi.

Singapur ta’lim tizimida pedagog kadrlarni rahbarlikka tayyorlash jarayoni bosqichma-bosqich va institutsional yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda bakalavr darajasida ta’lim olayotgan talabalar faqat fanni o‘rganuvchi emas, balki yetakchi, tashkilotchi, va refleksiv o‘qituvchi sifatida shakllantiriladi. National Institute of Education (NIE) bakalavr dasturlari talabalarda boshqaruv kompetentligini shakllantirish maqsadida maxsus modullarni o‘qitishni nazarda tutadi: “Professional Practice and Inquiry”, “Instructional Leadership”, “Classroom Management and Collaboration”, “Educational Psychology” va “Reflective Practice” kabi fanlar orqali pedagog rahbarlikni nazariy va amaliy jihatdan o‘rgana boshlaydi. Shu bilan birga, bakalavr ta’limi jarayonida talabalar o‘rtasida “Peer Coaching”, “Micro Leadership Projects” va “Student-led Workshops” kabi faoliyatlar orqali yetakchilik salohiyati rivojlantiriladi.

Bakalavr darajasining so‘nggi bosqichida talabalar pedagogik amaliyot (practicum) doirasida nafaqat dars o‘tadi, balki ta’lim muassasasidagi ichki boshqaruv jarayonlarini kuzatadi. Bunda ular maktabdagi direktor, koordinator, yetakchi muallim faoliyatini shadowing orqali o‘rganadi, rejalashtirish, nazorat, va jamoa bilan ishlash jarayonlarini kuzatishga jalb qilinadi. Ta’lim muassasalarida talabalarni “Class Leader”, “Learning Team Facilitator” yoki “Subject Committee Assistant” sifatida vaqtinchalik rahbarlik vazifalariga tayinlash orqali ularda majburiyatni his qilish, tashkilotchilik va yetakchilik madaniyati shakllantiriladi. Bu jarayon oxirida har bir talaba refleksiv hisobot yozadi, faoliyatini tahlil qiladi va kelgusi rivojlanish uchun o‘zini baholaydi. Singapur modelining asosiy afzalligi - rahbarlikni tabiiy va metodik rivojlanish yo‘li bilan shakllantirish, barcha o‘qituvchilarda potensial yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida tahlil qilingan AQSh, Yevropa Ittifoqi va Sharqiy Osiyo davlatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur) tajribalari shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv kompetentligini rivojlantirish ta’lim jarayonining ajralmas va maqsadli tarkibiy qismi sifatida shakllantirilmoqda. Barcha davlatlarda pedagog kadrlarda yetakchilik salohiyatini rivojlantirish jarayoni bakalavr darajasidan boshlab, nazariy bilimlar, amaliy tajribalar, mentorlik, va raqamli vositalar asosida tizimlashtirilgan. AQShda Instructional Leadership modeli orqali pedagoglar ta’lim jarayonining strategiyachisi sifatida tayyorlansa, Yevropada strategik, inklyuziv va jamoaviy boshqaruv qobiliyatlariga ega rahbarlar yetishtiriladi. Sharqiy Osiyo davlatlarida esa pedagoglar qat’iy intizom, refleksiya va amaliy tajriba asosida rahbarlikka bosqichma-bosqich tayyorlanadi.

Bu tajribalar umumiy holda shuni anglatadiki, ta’limda yetakchilik va boshqaruv qobiliyati - faqat lavozim emas, balki maxsus pedagogik tayyorgarlikni talab etuvchi kasbiy funksiya hisoblanadi. Ilg‘or davlatlarda rahbarlik salohiyati o‘qituvchida dars berish jarayoni bilan bir vaqtda, tabiiy rivojlanish yo‘li orqali shakllantiriladi. Shu munosabat bilan, O‘zbekistonda ham bakalavr darajasidan boshlab pedagog kadrlarni rahbarlik vazifalariga tayyorlash bo‘yicha maxsus fanlar, amaliyotlar, va mentorlik modellarini joriy etish zarur. Bu orqali kelajakda maktablarimizda professional, yetuk, strategik fikrlovchi va raqobatbardosh rahbar pedagoglar yetishtirilishi ta’minlanadi.

Tahliliy jadval: Boshqaruv kompetentligini shakllantirish asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Xorijiy tajriba misoli	Milliy ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyati
Liderlikni rivojlantirish	AQShda pedagoglar uchun “Educational Leadership” dasturlari mavjud	Pedagoglarda maktab jamoasida yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish
Raqamli transformatsiya	Finlyandiya ta’limida raqamli boshqaruv platformalari keng qo‘llaniladi	Ta’lim jarayonida elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish

Innovatsion metodlar	Germaniya ta’lim tizimida “dual ta’lim” modeli boshqaruv va amaliyotni uyg‘un-lashtiradi	Kasbiy tayyorgarlikda nazariya va amaliyot uyg‘unligini kuchaytirish
Jamoani boshqarish	Yaponiya maktablarida o‘qituvchilar o‘zaro “lesson study” asosida ishlaydi	Pedagoglarni jamoada muammo-larni hamkorlikda hal qilishga o‘rgatish
Kasbiy rivojlanish	Buyuk Britaniyada o‘qituvchilar uchun uzluksiz professional development kurslari majburiy	Pedagoglar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini kengaytirish

Tahlil: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijiy tajriba pedagoglarni nafaqat dars beruvchi, balki jamoani boshqaruvchi, lider va innovator sifatida tayyorlashga qaratilgan. Milliy ta’lim tizimida bu yondashuvlarni moslashtirish boshqaruv kompetentligini oshiradi.

Sxema: Boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmi

Xorijiy tajriba (AQSh, Germaniya, Finlyandiya, Yaponiya)

↓

Ilg‘or yondashuvlar (liderlik, innovatsiya, raqamli transformatsiya)

↓

Moslashtirish jarayoni (milliy sharoit, ta’lim siyosati, huquqiy asoslar)


↓

Amaliy qo‘llash (ta’lim muassasalarida boshqaruv, jamoaviy ish, pedagogik faoliyat)

↓

Natija: Boshqaruv kompetentligiga ega raqobatbardosh pedagog kadrlar


Tahlil: Sxema boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajriba to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olinmasdan, balki milliy sharoitga moslashtirilishini ko‘rsatadi.



Qiyosiy jadval: Xorijiy va milliy ta’lim tizimida boshqaruv kompetentligini rivojlantirish

Ko‘rsatkich	Xorijiy tajriba	O‘zbekiston tajribasi	Takomillashtirish imkoniyati
Liderlik	AQShda maxsus “Leadership training” dasturlari	O‘qituvchilarda lid-erlik bo‘yicha maxsus kurslar kam	Pedagoglar uchun liderlik treninglarini kengaytirish
Innovatsiya	Germaniyada inno-vatsion loyihalarda pedagoglar faol ishtirok etadi	Innovatsion loyihalar mavjud, ammo keng qamrovli emas	O‘qituvchilarni inno-vatsion tashabbuslarga jalb qilish

Jamoaviy ish	Yaponiyada “Lesson study” tizimi keng tar-qalgan	Ba’zi maktablarda metodik birlashmalar mavjud	Metodik birlashmalarni tizimli va samarali qilish
Raqamli texnologiyalar	Finlyandiya ta’limida raqamli boshqaruv keng qo‘llanadi	Elektron tizimlar rivojlanmoqda, ammo to‘liq emas	Barcha ta’lim muas-sasalarida yagona boshqaruv platformasi
Kasbiy rivojlanish	Buyuk Britaniyada doimiy professional development majburiy	Malaka oshirish kurs-lari mavjud, lekin doimiy emas	Malaka oshirishni uzluksiz va majburiy qilish



Tahlil: Jadval xorijiy tajribaning kuchli tomonlari va milliy tizimdagi mavjud imkoniyatlarni solishtirish orqali takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Tahliliy ma’lumotlar

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanish asosiy shart hisoblanadi.

Milliy tizimda boshqaruv ko‘nikmalari ko‘proq rahbar kadrlar bilan bog‘lanadi, biroq xorijda bu ko‘nikmalar har bir pedagogga xos sifat sifatida qaraladi.

Raqamli transformatsiya xorijda boshqaruv samaradorligini oshirsa, O‘zbekistonda bu jarayon endi kengayib bormoqda.

Jamoaviy ish madaniyati xorijda tizimli va majburiy shaklda yo‘lga qo‘yilgan, bizda esa ko‘proq formal shaklda amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon nafaqat milliy tajribaga, balki xorijiy mamlakatlarning ilg‘or amaliyotlariga tayangan holda amalga oshirilsa, yanada samarali natijalarga erishish mumkin. Xorij tajribasi shuni anglatadiki, pedagog kadrlarni tayyorlashda ularning nafaqat o‘quv-metodik salohiyatiga, balki boshqaruvchilik, liderlik va tashabbuskorlik fazilatlariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda shakllangan model va yondashuvlar pedagog shaxsini kompleks rivojlantirishga, uni ta’lim jarayonining tashkilotchisi, yetakchisi va yangilik yaratuvchisi sifatida shakllantirishga qaratilgan. Bu esa boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning uzluksiz ta’lim, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish va innovatsion muhit yaratish orqali ta’minlanishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni milliy qadriyatlar, huquqiy asoslar va mavjud shart-sharoitlarga moslashtirish muhimdir. Chunki har

bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ta'lim an'analari va milliy madaniyati boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi.

Shu bois, bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajribadan samarali foydalanish, milliy ta'lim tizimini global standartlarga moslashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayon natijasida raqobatbardosh, boshqaruv ko'nikmalariga ega, yangicha fikrlaydigan pedagog kadrlar safi kengayadi va ta'lim sifatining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduqodirov A. A. Pedagogik menejment va innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2010. – 220 b.
2. Nishanova Z. T., Alimova G. K. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2014. – 210 b.
3. Karimova V. M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 240 b.
4. Jo'rayev R. J. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. – 176 b.
5. Бабанский Ю. К. Оптимизация процесса обучения. – Москва: Педагогика, 1982. – 192 с.
6. Зеер Э. Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2003. – 240 с.
7. Новиков А. М. Управление образованием. – Москва: Академический проект, 2005. – 288 с.
8. Сластёнин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. – Москва: Магистр, 1997. – 224 с.
9. Поляков В. А. Управление качеством образования: учебное пособие. – Москва: Академия, 2008. – 176 с.
10. Bush T. Theories of educational leadership and management. – London: Sage Publications, 2011. – 320 p.
11. Fullan M. The new meaning of educational change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 352 p.
12. Leithwood K., Day C., Sammons P., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership. – Nottingham: National College for School Leadership, 2006. – 52 p.
13. Darling-Hammond L. Teacher education and the American future. – Journal of Teacher Education, 2006. – Vol. 57, No. 3. – P. 300–314.
14. Hargreaves A., Fink D. Sustainable leadership. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006. – 352 p.
15. OECD. Improving school leadership: Policy and practice. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 192 p.

Jonpo‘lotova Manzura Jahonovna
Buxoro davlat universitet tadqiqotchisi

OTA ONALIK MUNOSABATLARINING BOLALAR QOBILIYATI VA KO‘NIKMALARIGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ota-ona munosabati bolaning shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishda o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ba’zan ilhom manbai ham ta’sir qilishi mumkin bo‘lsa-da, bu borada ota-onalar eng buyuk ta’sirga ega shaxslardir. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi ota-ona munosabatlarining bolalar iste’dodi va qobiliyatlariga ta’sirini muhokama qilishdir. Ota-onalar munosabatining xususiyatlarini tushunish bolalarning iste’dod va ko‘nikmalarining rivojlanishini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot bolalarning ota-onasidan olgan xatti-harakatlari va amaliyotlari ularning shaxsiyatini, qobiliyatlarini, o‘z-o‘zini anglashini va atrofdagilar bilan munosabatlarini shakllantirishi mumkinligini isbotladi.*

Kalit so‘zlar: *ota-ona munosabati, bola, o‘z-o‘zini namoyon qilish, qobiliyat, ko‘nikmalar.*

ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ НА СПОСОБНОСТИ И НАВЫКИ ДЕТЕЙ

Аннотация. *Родительские отношения играют решающую роль в личностном развитии ребёнка. Хотя учителя, воспитатели, а иногда и источник вдохновения, также могут влиять на реализацию человеческого потенциала, родители оказывают наибольшее влияние в этом отношении. Поэтому цель данного исследования — обсудить влияние родительских отношений на таланты и способности детей. Понимание особенностей родительских отношений помогает определить развитие талантов и навыков детей. Данное исследование доказало, что модели поведения и практики, которые дети перенимают от своих родителей, могут формировать их личность, способности, самооценку и отношения с окружающими.*

Ключевые слова: *родительские отношения, ребёнок, самовыражение, способности, навыки.*

THE INFLUENCE OF PARENTAL RELATIONSHIPS ON CHILDREN’S ABILITIES AND SKILLS

Abstract. *Parental attitudes have a very important place in the personal development of the child. While sometimes a teacher and sometimes a source of inspiration are effective in revealing the potential of people, the most effective are parents. Accordingly, the aim of the study was to discuss the effects of parental attitudes on children's abilities and skills. This conceptual study is based on the examination of research data in the literature. Knowing the characteristics of parental attitudes will help in determining the development of children's abilities and skills. It has been observed that the behaviors and practices that children see from their parents determine their personalities, abilities, self-actualization and relationships with the people around them.*

Keywords: *parental attitude, child, self-realization, ability, skills*

Kirish. Insonlar hayoti davomida turli xil o‘zgarishlar bosqichlaridan o‘tadi. Ushbu muhim davrlardan biri bo‘lgan o‘smirlik davrida odamlar ijtimoiy, psixologik va biologik sohalarda rivojlanish va o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. Bu davrda shaxslarning iqtidorlarining ochilishi ularning kasb yo‘llarini belgilashda ham, ularni tashqi dunyo va jamiyatga tayyorlashda ham muhim rol o‘ynaydi (Koch, 2004). Voyaga yetish davrida o‘smirlikning asosiy rivojlanish funktsiyasi individuallashtirish va o‘ziga xoslik tuyg‘usiga ega bo‘lishdir. Ushbu individuallashtirish jarayoni shaxsiy, jinsiy va ijtimoiy o‘ziga xoslikni shakllantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni o‘z ichiga oladi (Özdemir va Çok, 2011). Oila muhitida sevgi va hamjihatlikka asoslangan ijobiy muloqot

ko‘priklarini o‘rnatish, o‘smirlik va bolalik davridagi shaxslarning ehtiyojlarini hisobga olish shaxslarni jamiyatga tayyorlash va ularning paydo bo‘lishida hal qiluvchi omillardir. Bu jarayon davomida ota-ona tarbiyasi shaxslarning o‘smirlik va bolalik davrida avtonomiyaga ega bo‘lishiga yordam beradigan eng muhim omil hisoblanadi. Bu yerda shaxslar faqat avtonomiya olish bilan cheklanmaydi; ota-onalarning munosabati ham ularning iste’dodi va shaxsiyatini ochishda muhim rol o‘ynaydi (Demir & Karabacak, 2017). Bola tarbiyasida oiladagi muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oilaning bola tarbiyasiga ta‘siri ota-onalarning xulq-atvor uslubiga qarab farq qilishi mumkin. Yaqin atrof-muhit - bu shaxs rivojlanishining barcha sohalari shakllanadigan birinchi joy. Shaxsni shakllantirishdagi eng muhim ekologik omillardan biri bu ota-ona munosabatidir (Bahchivan-Saydam & Gençöz, 2005).

Boshqa nuqtai nazardan, ijtimoiy mavjudligi bo‘lgan shaxslar tug‘ilishdan o‘limgacha umrbod o‘rganishda bo‘ladilar. Ushbu jarayonning samaradorligi shaxsga ta’sir qiluvchi omillarga bog‘liq bo‘lsa-da, atrof-muhit bilan doimiy aloqada bo‘lgan shaxslarga ularning oilalari eng ko‘p ta’sir qiladi (Derman & Başal, 2013). Ota-ona munosabati shaxsning shaxsiyati va xususiyatlari uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, maktabda va oilada namoyon bo‘ladigan qo‘shimcha xatti-harakatlar shaxsning ta’lim olishi va ijtimoiylashuviga katta foyda keltiradi (Tösten, Han, & Anik, 2017). Ota-onalarning munosabati shaxsning malakasini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, odamlarning o‘z oilalaridan oladigan munosabati ularning o‘zini o‘zi anglashi va shaxsiyatiga bevosita ta’sir qiladi (Özkan va Tösten, 2011). Ota-onalarning munosabati va xatti-harakatlari insonning g‘amxo‘r, baxtli, sezgir yoki baxtsiz, beparvo va mas’uliyatsiz modelini aks ettiradi (Aydoğdu & Dilekmen, 2016). O‘z-o‘zini yaratish insonning butun kuch va e’tiborini o‘z potentsialini ro‘yobga chiqarishga, iste’dod va fazilatlaridan faol foydalanishga va tabiiy va faol umrbod rivojlanish tsikli sifatida tajriba orttirishga qaratilgan jarayon sifatida tavsiflanadi (Dağli va Beyazsaçlı, 2010; Ivtzan, Gardner, Bernard, Sekhon va Hart, 2013).

Maslouning (1970) fikricha, shaxslarning o‘z-o‘zini anglashidagi eng muhim unsurlar bu ularning voqelikni qanday bo‘lsa, shunday ko‘rish va idrok etish qobiliyati, o‘z-o‘zidan harakat qilishga moyilligi, muammolar oldida yechimga yo‘naltirilganligi, insoniy masalalarga qiziqishi, demokratik munosabati, mustaqillikka intilishi va ijodkorligidir. Ota-bola munosabatlari ota-onalarning munosabatlariga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot ota-onalarning munosabati bolalarning yashirin iste’dodlarini qanday ochib berishini o‘rganadi. Ba’zan o‘qituvchi yoki ilhom manbai tadqiqot doirasidagi odamlarning shaxsiy qobiliyatlari va iste’dodlarini ochib berishda samarali bo‘lsa, eng muhim omil - bu birinchi daqiqalardanoq ta’sir ko‘rsatadigan ota-onalardir.

Nazariy qisim.

Bu bo‘limda ota-ona munosabatining inson hayotiga ta’siri va ota-ona munosabati shaxsning iqtidorini rivojlantirishga qanday ta’sir qilishi haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.

Ota-onalar munosabati. Munosabat muayyan ob’ekt, shaxs yoki hodisaga nisbatan his-tuyg‘ular, e’tiqodlar va xatti-harakatlar to‘plamini anglatadi. Munosabatlar ko‘pincha tajriba yoki tarbiya natijasida odamlarning xatti-harakatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi (Ajzen, Fishbein, Lohmann, Albarracín, 2018). Ma’lumki, rivojlanish jarayonida odamlar o‘z oilalari ma’lum qoidalar bilan boshqariladigan va o‘zlari ko‘nikadigan tizimning bir qismiga aylanadi. Bu jarayonda oilalar shaxsning qaror qabul qilish mexanizmlari va shaxsiyatiga ta’sir qiladi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida odamlar avtonomiyani xohlashadi va oilaviy qoidalardan voz kechishga va turli muhitlarda vaqt o‘tkazishga intiladi. Binobarin, o‘smirlik davrida oilalarning munosabati va xulq-atvori har xil bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona nazorati va munosabatlarining turli xil ta’riflari paydo bo‘ldi (Kağıtçıbaşı, 2007). Ota-onalarning munosabati o‘qituvchilarning munosabati kabi bolaning ijodiga,qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Yuqori saviyali, aqlli va ijodiy bolalarning ota-onalari o‘z farzandlarini tasvirlashni so‘rashganda, turli xil xususiyatlarni ta’kidlaydilar. Aqlli bolalarning ota-onalari o‘z farzandlarini mehribon va mehnatsevar deb ta’riflaydilar, ijodiy bolalarning ota-onalari esa o‘z farzandlarini g‘ayratli, tajribaga ochiq va ko‘p qiziqishlarga ega deb ta’riflaydilar (Afat, 2013).

Ota-onalarga munosabat bo‘yicha empirik tadqiqotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, oilalar shaxslarni qo‘llab-quvvatlashi va o‘smirlik davrida o‘smirlarning ehtiyojlarini hisobga olishlari

kerak. Nazoratdan tashqari, ota-ona nazorati va munosabatlariga oid adabiyotlarda hokimiyat, avtoritarizm, cheklash, majburlash, me'yoriylik va hukmronlikni ham ko'ramiz. Oilalarning munosabati va xulq-atvori, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi tabiati shaxsning o'ziga xos iste'dodini yuzaga chiqarish, ularni mehnatga undash, ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalash va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalik uslublariga kelsak, bolalarni jamiyat bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari va ijtimoiy, iqtidorli, tadbirkor va o'ziga ishongan bo'lishlari uchun qo'llab-quvvatlash kerak (Aydoğdu & Dilekmen, 2016).

Shu nuqtai nazardan, oilaning tuzilishi, an'analari, urf-odatlari, madaniy o'zaro ta'siri shaxsning iste'dodining rivojlanishiga, ularning ichki kuchli tomonlari paydo bo'lishiga ta'sir qiladi, degan fikrni aytish mumkin. Ota-onalarning tarbiya uslublari nazariyotchilar orasida farq qiladi. Baumrind (1971) ga ko'ra, ota-ona tarbiya uslublariga avtoritar tarbiya, obro'li tarbiya, ruxsat beruvchi ota-ona va befarq tarbiya kabi turlarga bo'ladi.


Ota-onalar tarbiyasining ushbu uslublarini o'rganar ekanmiz, shaxslarning o'ziga xos iste'dodlarini ochib berishning eng samarali usullaridan biri bu demokrat ota-onalardir. Ushbu yondashuv doirasida ota-onalar farzandlarini qo'llab-quvvatlaydilar va hurmat qiladilar va ularni nazorat qilish va baholashga moyildirlar. Shu nuqtai nazardan, ular o'z farzandlariga nisbatan iliq va mehrli munosabatda bo'lishadi (Pellerin, 2005; Sak, Sak, Atli va Shahin, 2015). Makkobi va Martinning (1983) to'rt tomonlama tarbiya uslubi sxemasi nazorat va sezgirlikni birinchi o'ringa qo'yadigan uslublarni o'z ichiga oladi (1-jadval). Shu nuqtai nazardan, ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan sezgirligi va nazorati yangi uslublarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Jadval 1. Ota-onalarning sezgirligi va nazorati sxemasi

	Yuqori nazorat	**Past nazorat**
Yuqori sezuvchanlik	Demokrat	Ruxsat beruvchi
Past sezuvchanlik	Avtoritar	Befarq

Manba: (Makkobi va Martin, 1983)

Ota-onalar tarbiyasi uslublari shaxsning xulq-atvori, hayoti, ideallari, g'oyalari va qobiliyatlariga qay darajada ta'sir qilishini tushunish uchun uchta asosiy toifani (adolatli va demokratik, haddan tashqari himoya va aralashuvchi, haddan tashqari avtoritar va zo'ravon tarbiya uslublari) ko'rib chiqish kerak.



Shakl 1. Schaefeerning ota-onalarning xatti-harakatlari modeli

Shefeerning ota-ona xatti-harakati modelidagi 1-rasmda ko'rinib turganidek, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar turli xil psixologik o'lchovlar bo'yicha baholanadi. Liberalizm, rad

etish, qabul qilish va hukmronlik o‘lchovlari orqali ko‘rib chiqiladigan xatti-harakatlar modelida demokratik, baham ko‘rish, avtoritarizm, haddan tashqari bag‘rikenglik va ajralish kabi psixologik o‘lchovlar bolalarning rivojlanish jarayonlarini belgilovchi o‘lchovlar sifatida belgilanadi. **2.1.1**. *Egalitar va demokratik ota-ona munosabatlari:* Oilada demokratik munosabatning ahamiyati jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini bo‘lgan oila tomonidan tarbiyalangan shaxslarni jamiyatga tayyorlash va demokratik munosabatlarni barcha sohalarda tatbiq etish uchun juda muhimdir (Yilmaz, 2009).

Demokratik munosabat hukmron bo‘lgan oila muhitida bolalar to‘liq erkin emas yoki hech qanday chegaraga ega emaslar. Demokratik munosabat hukm surgan oilalarda shaxslarning xulq-atvori, burchlari, chegaralari belgilanadi. Bolalar bu chegaralar ichida erkindir (Yavuzer, 2000). Har bir oila o‘z vazifalari va majburiyatlarini belgilaydi va oila a’zolari turli yozilmagan qoidalarga rioya qilishlari kerak. Demokratik munosabatda bo‘lgan ota-onalar bolalarning o‘zlari uchun ajratilgan sinf xonalarida harakat va so‘z erkinligini ta’minlaydi. Bolalar o‘z ijodlarini rivojlantirishlari mumkin bo‘lgan boshqariladigan muhitga ega bo‘lishadi(Yörüko'g'li, 2000).

Demokratik oilalar o‘z farzandlarini o‘z-o‘zini rivojlantirish, avtonomiyaga ega bo‘lish va tadbirkorlikni rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday munosabat qo‘rqmaslik, mustaqillik va harakatchanlikni rivojlantiradi. Buning eng muhim sababi bolalarning nafaqat aqliy, balki shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlashdir. Bunday oilalarda bolalarning o‘zini namoyon qilishi, o‘z-o‘zini anglashi, ichki iste’dodini kashf etishi, tajriba to‘plashi mumkin bo‘ladi, oilalar ularni bu borada rag‘batlantiradi. Demokratik munosabatda bo‘lgan oilalarda o‘smir shaxsining rivojlanishi yanada sog‘lom bo‘ladi (Özgüven, 2001). Turli nuqtai nazardan tekshirilsa, har bir ota-ona farzand tarbiyasida turlicha munosabat va xatti-harakatlarni namoyon qiladi. Ota-onaning o‘z farzandiga nisbatan demokratik munosabati, ular o‘smirlik davrida qo‘llab-quvvatlash yoki qadr-qimmat ko‘rsatishidan qat’i nazar, farzandining shaxsi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi ota-onalar o‘z farzandlarini ko‘proq sevadilar, boshqalari esa himoya instinktini namoyon qiladilar. Shu nuqtai nazardan, ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabati, turli xil shaxsiy xususiyatlarni ko‘rsatadigan farzandlarining qobiliyatlari va ko‘nikmalarida muhim rol o‘ynaydi (Bashal, Kahraman, Derman, Kahraman, & Sümer, 2014).

Ota-onalarning haddan tashqari himoyalangan va aralashadigan munosabatlari: ota-onalardagi himoya munosabati va bolani go‘daklikdan himoya qilish zarurati instinktiv xatti-harakatlardir (Alabay, 2017). Go‘daklik va erta bolalik davrida oilalarda himoyaviy munosabat shaxsning jismoniy rivojlanishi uchun muhim va samarali bo‘lsa-da, aralashuvlar kuchayishi va shaxs erkinlikni xohlashi natijasida bu zararli ziddiyatga aylanishi mumkin. Bunday munosabat rivojlanayotgan shaxslarning mustaqillikka erishishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ota-onalar o‘z farzandlarini erkin va ijtimoiy muhit bilan ta’minlash o‘rniga, doimiy himoya qilish harakatlari bilan yanada himoyalangan, aniq belgilangan chegarani o‘rnatadilar. O‘zaro munosabatda bo‘lgan oilalar barcha oila a’zolarining birgalikda harakat qilishlariga intiladi (Cüceoğlu, 1991). Oilalar bolalarning o‘sib, shaxsga aylanib borayotganini tan olmaydilar. Bunday vaziyatda shaxslar o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarini va ijtimoiy muhitini rivojlantira olmaydilar, shuningdek, yashirin iste’dodlarini ochish imkoniyati ham bo‘lmaydi.

Nazorat qiluvchi oilada o‘sgan odamlar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ulari va fikrlarini ifoda etishda qiynaladilar va xato qilishdan qattiq qo‘rqishadi, bu esa keyinchalik hayotda muloqot muammolariga olib keladi. Haddan tashqari himoyalangan tarbiya uslubining eng katta kamchiligi shundaki, bolalar hamma narsadan qo‘rqadigan qilib tarbiyalanadi. Chunki bolalarni “yordam” bilan haddan tashqari ko‘tarish ularning muammolarni o‘z-o‘zidan hal qilish va muammolarni hal qilish zaruratini yo‘q qiladi. Haddan tashqari himoyalangan shaxslar ota-onalariga qaram bo‘lib qoladilar, tashabbus ko‘rsatmaydilar, o‘zlari qaror qabul qila olmaydilar va ota-onalardan hamma narsani talab qiladilar. O‘zini himoya qilish instinktlarini bajara olmagan bolalar muqarrar ravishda uyatchan, hamkorlik qilmaydigan, qo‘rqoq, ekspluatatsiya qiluvchi, mas’uliyatsiz bo‘lib o‘sadi (Sertöz, 2018; Aslan, 2016; Aytin, 2014; Chechen, 2008).


Ota-onalarning haddan tashqari avtoritar va repressiv munosabati: Ma’lumki, o‘smirlik - bu shaxslar o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantiradigan va o‘zlarini jismoniy va ma’naviy jihatdan kashf eta boshlagan davrdir (Dinchel va Hisli Shahin, 2006). Bu davrdagi oilalarning

Realizatsiya bosqichida boshlang‘ich sinf ona tili darslari mavzusiga muvofiq ravishda tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan dastur amalga oshiriladi. Mazkur dastur “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida imitatsion modellar asosida o‘quvchilar ijtimoiy–kommunikativ kompetentligini rivojlantirish” deb nomlangan.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida dasturda keltirib o‘tilgan imitatsion modellardan foydalanishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim:

imitatsion modellarni tanlashda o‘quvchilarning yosh va pedagogik xususiyatlari, ijtimoiy muloqotga kirishish ehtiyojlari inobatga olinishi lozim;

dasturidagi mavzularning imitatsion modelni mazmuni bilan muvofiqligini ta’minlash kerak;

darslarni texnologik jihatdan loyihalashtirish va vaqt imkoniyatlarini inobatga olish;

tanlangan mavzuning ijtimoiy muhit talablari bilan muvofiqlashtirish unga bo‘lgan qiziqishni oshiradi;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlanadigan dekoratsiya va illyustrativ materiallarning rang–barangligi, qiziqarliligi, tushunarliligiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikning rivojlanganlik mezonlari sifatida quyidagilar tanlab olindi:

1–mezon. O‘quvchilarning ijtimoiylashganligi. Ya’ni o‘quvchilarning jamoaga kirishimliligi, jamoa a’zolari bilan muloqot o‘rnata olishi, jamoada o‘zini erkin tutishi va jamoa a’zolarini bilan iliq munosabatlar o‘rnata bilishini nazarda tutadi.

2–mezon. Muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin bildira olishi. Ya’ni, o‘quvchilarning o‘z fikriga egaligi, jamoaviy munosabatlarda o‘z fikrini erkin bildira olishi, fikrida qat’iy turishi va o‘z pozitsiyasini himoya qila bilishi bilan belgilanadi.

3–mezon. Ijtimoiy muloqot madaniyatining shakllanganligi. Belgilangan muloqot madaniyati me’yorlarini egallaganligi va muloqot jarayonida ushbu madaniyat me’yorlariga amal qilishi, turli

muammoli vaziyatlarda ham o‘z–o‘zini boshqara bilishi kabi ko‘nikmalarni mazkur mezon qamrab oladi.

“Men qanday bolaman?” metodikasi orqali o‘quvchilarning ijtimoiylashganligini aniqladik;




Muloqot jarayonida fikrlarini erkin bildira olish ko‘nikmasini baholashda “O‘rtog‘imga yordam ber” metodikasidan foydalanildi;



Ijtimoiy muloqot madaniyatining shakllanganlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda “Nimani his qilayapsiz?” metodikasidan foydalanildi.

Quyida ushbu metodikalar mazmuni bilan tanishtirib o‘tamiz.

1–jadval

“Men qanday bolaman” (rasmli hikoya)

№		
	1–variant (muloqot)	**1–variant**
1.	Bu – stadion. O‘rtoqlaring o‘yin o‘ynamoqda. Sen ham o‘ynashni hoxlaysanmi? Unda qaysi o‘rtog‘ingni yonida bo‘lishni istasang o‘rtog‘ingni yoqtirgan she’rini aytib berishing kerak bo‘ladi. O‘rtog‘ing hursand bo‘lsa demak sen o‘zing ishtirokchisiga aylanasan.	
2.	**2–variant (ijodkorlik)**	**2–variant**
	Bu maktab oshxonasi. Stol atrofida hech kim yo‘q. Stol atrofida qaysi do‘stlaring bo‘lishini hoxlasang ularning yoniga borib nimani xoxlashini so‘raysan va ularning istagini bajarasan. Shunda do‘stlaring sening atrofingda o‘tirishadi.	
3	**3–variant(kommunikativlik)**	**3–variant**
	Sayohatga chiqqansan. Atrofdagi o‘rtoqlaringni qaysi biri jasur va sen qaysi biri bilan qayiqda suzishni xoxlaysan. O‘sha o‘rtog‘ingni yoniga borib jasurligini o‘ziga aytgin va u bilan faxrlanishingni bildirib qo‘y. Ana shunda u sen bilan qayiqda suzadi.	
4.	**4–variant (o‘zaro yordam)**	**4–variant**

	Havo juda issiq. Faqatgina bitta daraxt soyasi bor. Kichkinagina soya. Atrofda do‘stlaring ko‘p. Sen o‘zing bilan kimni o‘sha soyada bo‘lishini xoxlaysan. Nega?	
5.	**5–variant (qat’iylik)**	**5–variant**
	Maktab hovlisida sinfdoshlaring bir–biri bilan janjallashib qolishdi. O‘rtoqlaringdan biri yerga yiqilib qoldi. Sen qaysi o‘rtog‘ingni yonida bo‘lishni xoxlaysan? Kuchli o‘rtog‘ingnimi, yoki yig‘layotgan o‘rtog‘ingnimi? Nega?	

2–jadval “Men qanday bolaman” metodikasi

Topshiriqlarning to‘g‘ri va to‘liq bajarishiga ko‘ra, o‘quvchilar quyidagicha baholanadi:
faol (yuqori) daraja – 4–5 ta topshiriqni to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar;
o‘rta faol daraja – 2–3 ta topshiriqni to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar;
nofaol daraja – 1 ta yoki umuman bajara olmagan o‘quvchilar.
3–jadval

“O‘rtog‘imga yordam ber” metodikasi

Bosqichlar	**Metodikaning mazmuni**	**Kutiladigan natijalar**
1–bosqich	O‘quvchilarga rasmli hikoya so‘zlab beriladi. Hikoya oxirigacha nihoyalanmaydi	bolaning jamoaviy munosabatlarda shaxs sifatlarini tarkib toptirishga erishiladi; bola o‘zidagi ijodiy qobiliyatni yuzaga chiqarishga harakat qiladi; bolaning barcha harakatlari insonparvarlikka asoslanishi kafolatlanadi; bola ongida tabiatning barcha jonzotlariga shafqatli bo‘lish hissi paydo bo‘ladi; tabiatga nisbatan iliq munosabat shakllanadi.
2–bosqich	O‘quvchilar shu o‘rtog‘iga yordam berishi kerak bo‘ladi. Bunda bola o‘z ijodkorligini ishga solishi (she’r, qo‘shiq, raqs va..) talab etiladi. Har bir bola o‘rtog‘ining kayfiyatini ko‘tarish uchun astoydil harakat qilishi nazorat qilinadi	
3–bosqich	O‘qituvchi o‘quvchiga murojaat qilib, o‘rtog‘iga nisbatan har bir she’r, qo‘shiq aytganda nimalarni his qilganligini so‘zlab berishni so‘raydi.	
4–bosqich	O‘quvchilar o‘z ichki hissiyotlarini atrofdagi do‘stlari bilan o‘rtoqlashadi	
5–bosqich	O‘qituvchi rasmli hikoyaga yakun yasab, ijodkorona muloqot qilishning ijobiy	

	ta’siri haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tadi	

4–jadval “O‘rtog‘imga yordam ber” metodikasi

faol (yuqori) daraja – topshiriqni to‘liq bajargan va o‘z ichki his tuyg‘ulari haqida ochiq hamda to‘liq fikr bildira olgan o‘quvchilar;

o‘rta faol daraja – topshiriqni bajara olgan, ammo o‘z his–tuyg‘ulari haqida ma’lumot bera olmagan o‘quvchilar;

nofaol (past) daraja – topshiriqni bajarishda qiynalgan, fikrlarini bildirishga tortingan o‘quvchilar.

5–jadval

“Nimani his qilayapsiz” metodikasi

Bosqichlar	Metodikaning mazmuni	Kutiladigan natijalar
1–bosqich	O‘quvchilarning har biri o‘zining eng yaxshi va eng yomon voqeani haqida hikoya qiladi	Bolalarda moslashuv jarayoni tezlashadi. psixologik tushkunlikdan holi bo‘ladilar; ularning o‘rtoqlariga bo‘lgan qarashlari ijobiy tomonga o‘zgaradi; ishonch tuyg‘usi shakllanib, bu yo‘lda amaliy harakatlarni olib borish lozimligi to‘g‘risidagi tushuncha shakllanadi
2–bosqich	Sinfdagilar hikoya qilingan va o‘zlariga yoqqan ikkita voqeani tanlab oladilar (tish shifokoriga borish–eng yomon voqea, tug‘ilgan kunida tabiat qo‘yniga sayohatga chiqish – eng maroqli voqelik)	
3–bosqich	Sinfdagi barcha bolalardan nega aynan mana shu ikkita voqeani ajratib olganliklari haqida so‘raladi. (voqeliklar barcha bolalarda o‘xshash bo‘ladi)	
4–bosqich	Har bir bola birinchi salbiy voqelikni o‘z mimikalari bilan ko‘rsatib berishlari aytiladi: 1. Vooy, tishim og‘riyapti(yig‘lashadi) 2. Oyijoon, doktorga bormaylik!!! (oyoqlarini yerga tirashadi) 3.Qani og‘zingni och! (og‘zini mahkam yopib oladi) Ana qutilding, endi og‘rimaydi!!! (onasini quchoqlab oladi. Bunda yonidagi o‘rtog‘ini quchib oladi. O‘rtog‘i esa, boshini silaydi)	

6–jadval “Nimani his qilayapsiz” metodikasi

faol (yuqori) daraja – topshiriqni bajarishda faol ishtirok etgan, rollarni bajarishda tashabbuskor bo‘lgan o‘quvchilar;

o‘rta faol daraja – topshiriqni bajargan, ammo rollarni ijro etishda tortinchoqlik qilgan o‘quvchilar;

nofaol (past) daraja – topshiriqlarni bajarishga qiynalgan, faollik ko‘rsata olmagan o‘quvchilar.

Mazkur metodikalar o‘quvchilarda ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikning rivojlanganlik darajalarini aniqlashda foydalanildi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy–kommunikativ kompetentligi rivojlanganlik darajalarini diagnostik o‘rganishga mo‘ljallangan diagnostik metodikalar modifikatsiyalangan bo‘lib, ulardan belgilangan talablar asosida foydalanish tizimli monitoring olib borish imkonini berdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida imitatsion modellar asosida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir ishlab chiqilgan metodika ona tili o‘quv materiallari, o‘quvchilar nutqiy atvorini rivojlantiruvchi mashqlar bilan integratsiyalashganligi bilan samarador ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Zaynab Abdunazarova. (2022). Ways and methods of using role-playing games in mother tongue classes for the socialization of primary school students. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85–90.
2. Abdunazarova, Zaynab Almurod Kizi (2021). Importance of the pedagogical and psychological use of story role-plays in primary school at native language lessons. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 760-766.
3. Z.A.Abdunazarova. The plot- the essence of role-playing games and their role in teaching mother tongue lessons In Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) May, 2022/5/26 1239-1244Vol 3 No 5 (2022): wos
4. Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3707-3712.
5. Zaynab Abdunazarova. Boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlarning ta’limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati. таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали 207-212 2022/5/30
6. Abdunazarova, Z. A. Q. (2023). Jamoaviy munosabatlarda kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(TMA Conference), 69–72. OOO «Academic Research».
7. Abdunazarova, Z. A. K. (2023, December 12). Personal social-communicative competence and factors of its formation. *American Journal of Science and Learning for Development*, 2(12), 54–57. Published by inter-publishing.com.

Achilov Obid Muzrobovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri
E-mail: ochilovobid544@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning pedagogik ahamiyati, uning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil etiladi. O‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni shaxsiy xulq-atvor me’yorlariga aylantirish jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarning roli yoritilgan. Xususan, interfaol metodlar, innovatsion ta’lim yondashuvlari, tarbiyaviy o‘yinlar, hamkorlikda o‘qitish va loyihaviy faoliyat kabi metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, qadriyatli munosabatning shakllanishi o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot davomida adabiyot tahlili, pedagogik kuzatuv, taqqoslash va tajribasinov metodlari qo‘llanilib, natijalar ilmiy xulosalar bilan boyitilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, qadriyatli munosabat, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion ta’lim, tarbiyaviy o‘yinlar, shaxsiy rivojlanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется педагогическая значимость формирования ценностного отношения у младших школьников, а также его теоретические основы и практические механизмы. Особое внимание уделяется роли эффективных педагогических технологий в процессе усвоения учащимися национальных и универсальных ценностей и их превращения в нормы личного поведения. Научно обоснована эффективность таких методов, как интерактивные технологии, инновационные образовательные подходы, воспитательные игры, обучение в сотрудничестве и проектная деятельность. Кроме того, показано, что формирование ценностного отношения является важным фактором развития социальной активности учащихся, их нравственного воспитания и навыков самостоятельного мышления. В исследовании применялись методы анализа литературы, педагогического наблюдения, сравнения и экспериментально-практические методы, что позволило обогатить выводы научными результатами.*

Ключевые слова: *начальное образование, ценностное отношение, педагогические технологии, интерактивные методы, инновационное обучение, воспитательные игры, личностное развитие, национальные и универсальные ценности, социальная активность, самостоятельное мышление.*

EFFECTIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING VALUE-BASED ATTITUDES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical significance of forming value-based attitudes in primary school students, including its theoretical foundations and practical mechanisms. Special emphasis is placed on the role of effective pedagogical technologies in the process of instilling national and universal values in students and transforming them into norms of personal behavior. The effectiveness of methods such as interactive techniques, innovative educational approaches, educational games, cooperative learning, and project-based activities is scientifically substantiated. Furthermore, the formation of value-based attitudes is highlighted as a crucial factor in developing*

students' social activity, moral education, and independent thinking skills. The study employed literature review, pedagogical observation, comparison, and experimental methods, enriching the findings with scientific conclusions.

Key words: *primary education, value-based attitude, pedagogical technologies, interactive methods, innovative learning, educational games, personal development, national and universal values, social activity, independent thinking.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, unda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni ham shakllantirishni talab etadi. Xususan, boshlang'ich sinf davri inson hayotida poydevor bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etib, aynan shu davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy xatti-harakati va ma'naviy qarashlari shakllanadi. Shu boisdan, qadriyatli munosabatni tarkib toptirish nafaqat pedagogik jarayonning muhim vazifasi, balki jamiyatning barqaror ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi omil sifatida ham qaraladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, qadriyatli munosabat o'quvchining shaxsiy hayotiy tajribasini umumijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloqiy tamoyillarni o'zlashtirishni talab etadi. Bu jarayon samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishni, ya'ni interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, ta'limiy o'yinlar hamda hamkorlik asosidagi o'qitish usullarini qo'llashni zarur etadi. Zero, ta'lim jarayonida texnologik yondashuvlarning qo'llanilishi nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarni faol fikrlashga, tanqidiy yondashuvga, ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatni anglashga yo'naltiradi.

Shuningdek, qadriyatli munosabatni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida o'rganilmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarda qadriyatli qarashlarning erta bosqichda shakllanishi ularning keyingi ta'lim jarayonida, shaxsiy rivojlanishida va jamiyat hayotida faol ishtirok etishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu boisdan, ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy yo'nalishlari hamda samarali pedagogik texnologiyalari keng ilmiy tahlil etiladi.

Adabiyot tahlili va metodologiya. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish masalasi ilmiy adabiyotlarda ko'plab pedagogik, psixologik va sotsiologik tadqiqotlar doirasida yoritilgan bo'lsa-da, uning samarali pedagogik texnologiyalar asosida yo'lga qo'yilishi nisbatan yangi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Mazkur muammoning nazariy manbalari ko'proq shaxsni tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy qarashlarni rivojlantirish, o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogika fanida qadriyat kategoriyasi ko'plab mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan. Masalan, J. Dyui ta'lim jarayonida shaxsiy tajribaga asoslanishni qadriyatli rivojlanishning poydevori sifatida ko'rsatgan bo'lsa, V. Vygotskiy ijtimoiy-madaniy muhitning bolaning ongini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlaydi. Zamonaviy o'zbek olimlari (M. Ochilov, A. Ergashev, Sh. Toshpulatova va boshqalar) esa qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonida milliy an'ana va urf-odatlarning, oilaviy tarbiyaning hamda mahalla institutining rolini metodologik asos sifatida ko'rsatib o'tadilar.

Metodologik yondashuv nuqtayi nazaridan, qadriyatli munosabatni shakllantirishni quyidagi konseptual asoslarda tahlil qilish mumkin:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, uni mustaqil fikrlashga, qadriyatlarga ongli ravishda munosabat bildirishga yo'naltirish.

2. Madaniyatshunoslik yondashuvi – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy identifikatsiyani shakllantirish.

3. Faoliyatga asoslangan yondashuv – qadriyatlarni faqat nazariy tushunchalar emas, balki o'quvchilar faoliyati (o'yin, loyiha, amaliy topshiriqlar) orqali ongga singdirish.

4. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – shaxsda qadriyatli munosabatni ijtimoiy, kommunikativ va axloqiy kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalasi turli xil jihatlardan yondashishni talab qiladi. Masalan, interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni o‘z fikrini erkin ifodalashga va ijtimoiy qadriyatlarga munosabat bildirishga o‘rgatsa, muammoli ta’lim texnologiyalari esa ularda tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Loyihaviy ta’lim metodlari esa qadriyatlarni o‘quvchilar hayotiy tajribasi bilan bog‘lab, ularni amaliy faoliyatda namoyon etishga xizmat qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar alohida o‘rin egallaydi. Masalan, Yevropa va AQSh ta’lim tizimida “value-based education” (qadriyatlarga asoslangan ta’lim) konsepsiyasi keng qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvda ta’lim jarayonida faqat bilim va ko‘nikmalar emas, balki o‘quvchining axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati va madaniy identifikatsiyasi ham shakllantirilishi zarur deb qaraladi. UNESCO’ning 2021-yilda chop etilgan ma’lumotlariga ko‘ra, qadriyatlarga asoslangan ta’limni joriy etgan maktablarda ijtimoiy faol o‘quvchilar soni 27% ga oshgan.

Shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada qadriyatli munosabatni shakllantirishda kollektiv faoliyat metodlari keng qo‘llaniladi. Ularning ta’lim tizimida o‘quvchilar kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash orqali nafaqat bilim, balki bir-biriga hurmat, mas’uliyat va ijtimoiy hamjihatlikni qadrlashni o‘rganadilar. Shu bois, Yaponiya Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligining 2022-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim bosqichida guruhli loyihalardan foydalangan maktablarda ijtimoiy faollik darajasi 35% ga yuqori natija ko‘rsatgan.

Innovatsion metodlar orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham dolzarbdir. Xususan, elektron ta’lim platformalari, interaktiv simulyatsiyalar, gamifikatsiya elementlari qadriyatlarni o‘quvchi ongiga singdirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimida “digital storytelling” (raqamli hikoya qilish) usuli orqali bolalar qadriyatlarga oid turli ijtimoiy vaziyatlarni virtual muhitda o‘rganadilar va bu ularning axloqiy tafakkurini rivojlantirishda katta ta’sir ko‘rsatmoqda. 2020–2023 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra, raqamli hikoyalash metodini qo‘llagan sinflarda o‘quvchilarning empatiya darajasi 18% ga oshgan.

Metodologik jihatdan olganda, bunday texnologiyalar qadriyatlarni shakllantirishda integrativ yondashuvni ta’minlaydi. Ya’ni, bilim, ko‘nikma va munosabatlar bir butun tizim sifatida qaralib, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ularning qo‘llanilishi O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham muhim tajriba bo‘lib, milliy qadriyatlarni zamonaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, metodologik asoslarni tahlil qilishda pedagogik jarayonning uzviyligi va tizimliligi alohida o‘rin tutadi. Chunki qadriyatli munosabatni shakllantirish epizodik yoki bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz va maqsadli yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Shu ma’noda, ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, o‘qituvchi shaxsiyati va o‘quvchi faoliyatining uyg‘unlashuvi metodologik birlikni tashkil etadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish samaradorligini oshirish uchun pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatiga, balki ularning hissiy-emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham kompleks ta’sir ko‘rsatishi zarur. Shunday ekan, metodologik asoslarni chuqur o‘rganish, turli adabiyotlar tahliliga tayangan holda nazariy hamda amaliy xulosalar chiqarish mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini va amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish samaradorligi bevosita qo‘llanilgan pedagogik texnologiyalarning innovatsionligi, moslashuvchanligi va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv darajasiga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish markazi tomonidan 2022–2023 yillarda olib borilgan monitoring natijalariga ko‘ra, interfaol metodlardan foydalanilgan 1–4-sinf darslarida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi 32% ga, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari esa 24% ga oshgan.

Tadqiqot jarayonida o‘quvchilar orasida qadriyatlarga oid tushunchalarni anglash va ularni amaliy hayotda qo‘llash darajasi o‘lchandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

An’anaviy metodlardan foydalanilgan sinflarda qadriyatli munosabat darajasi o‘quvchilarning 46% ida shakllangan bo‘lsa,

Interfaol va raqamli texnologiyalar qo‘llanilgan sinflarda bu ko‘rsatkich 71% gacha ko‘tarilgan.

Xususan, “digital storytelling” (raqamli hikoya qilish) va gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga olgan darslarda o‘quvchilar o‘z nuqtayi nazarini asoslab bera olish, ijtimoiy vaziyatlarga to‘g‘ri baho berish va qadriyatlarga mos qaror qabul qilish qobiliyatlarini namoyon qildilar. Shu bilan birga, loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan hurmat, jamoaviylik va mas’uliyat hissi 28% ga yuqori natija ko‘rsatdi.

Milliy-pedagogik tajriba va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish ham samarali natijalar berdi. Masalan, xalq og‘zaki ijodi namunalarini (maqollar, ertaklar, hikmatli so‘zlar) interaktiv metodlar orqali o‘rgatilgan sinflarda qadriyatlarni amaliyotda qo‘llash darajasi boshqa sinflarga nisbatan 19% yuqori bo‘ldi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ota-ona va o‘qituvchilar bilan o‘zaro hamkorligi ham monitoring qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etilgan darslarda ota-onalarning ta’lim-tarbiyaga jalb qilinishi 36% ga oshgan. Bu esa qadriyatli munosabat faqat maktabda emas, balki oilada ham shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Umumlashtirilgan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda qadriyatli munosabatni shakllantirish uchun samarali texnologiyalarni qo‘llash:

1. O‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish imkonini bermoqda.
3. Ta’lim jarayonini faollashtirib, o‘quvchi shaxsini kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda.
4. Kelgusida ta’limda keng joriy etilganda, jamiyatda yosh avlodning axloqiy, ijtimoiy va madaniy yetukligini ta’minlay oladi.

Munozara. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida qadriyatli munosabatni shakllantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-madaniy, ma’naviy va psixologik omillar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, uning samaradorligi bevosita qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning sifatiga tayanadi. Tadqiqot natijalarida interfaol metodlar, raqamli ta’lim resurslari va milliy an’analar uyg‘unligi yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlangan bo‘lsa-da, ushbu yondashuvlarning ayrim cheklovlari ham mavjud. Masalan, o‘qituvchilarning texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli darajada bo‘lmasa, kutilgan natijalar to‘liq amalga oshmaydi.

Birinchidan, qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash uchun ularning psixologik-pedagogik asoslari chuqur o‘rganilishi lozim. Psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatlar qabul qilinishida yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy muhit omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘quvchilarning yoshga oid idrok xususiyatlari va emotsional sezgirlik darajasi hisobga olinishi talab etiladi.

Ikkinchidan, qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi masalasi muhimdir. Chunki faqat milliy an’analar doirasida qolib ketish o‘quvchining dunyoqarashini cheklab qo‘yadi, faqat umuminsoniy qadriyatlarga tayanish esa milliy identifikatsiya jarayonini sustlashtiradi. Demak, pedagogik texnologiyalar milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilishi lozim.

Uchinchidan, qadriyatli munosabatni shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari ham alohida muhokamaga loyiq. Bu borada o‘quvchilarda:

- qadriyatlarga oid bilimlar hajmi,
- ularga nisbatan shaxsiy munosabat va his-tuyg‘ular,
- qadriyatlarni amalda qo‘llashga tayyorlik darajasi

- kabi ko‘rsatkichlar asosida monitoring olib borish muhim ahamiyatga ega. Ushbu monitoring natijalari pedagogik texnologiyalarning qay darajada samarali qo‘llanilayotganini aniqlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli pedagogikaning o‘rni tobora ortib bormoqda. Virtual ta’lim platformalari, multimedia vositalari, animatsion dasturlar qadriyatlarni vizual, interfaol va emotsional tarzda o‘quvchilarga yetkazishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarni qo‘llashda mazmuniy asosning milliy va ma’naviy qadriyatlardan chetlashmasligi muhimdir.

Shuningdek, ayrim hollarda interaktiv texnologiyalarning haddan tashqari qo‘llanilishi o‘quvchilarda yuzaki qiziqish uyg‘otib, qadriyatlarning mazmunini chuqur anglashga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, pedagogik texnologiyalardan foydalanishda balansni saqlash, milliy pedagogik meros elementlarini chuqur integratsiya qilish va o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Xalqaro tajribalar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, UNESCO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar yordamida qadriyatlar asosida o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan boshlang‘ich maktablarda o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalari 34% ga oshgan. Shu bilan birga, mahalliy monitoringlarda xalq og‘zaki ijodiga asoslangan ta’limiy yondashuvlar o‘quvchilar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirishda 28% yuqori samaradorlikni ko‘rsatgan. Bu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi natijadorlikni yanada kuchaytirishi tabiiy.

Yana bir muhim jihat shundaki, qadriyatli munosabatni shakllantirish faqat maktab doirasida emas, balki oila, mahalla va keng ijtimoiy muhit bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda faqat sinf xonasiga qaramay, o‘quvchilarning oilaviy qadriyatlari va mahalla tajribalarini ham hisobga olish zarur. Bu esa “maktab–oila–jamiyat” hamkorligi konsepsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Prognoz natijalariga ko‘ra, agar boshlang‘ich ta’limda qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar tizimli ravishda tatbiq etilsa, 2030 yilga kelib yoshlarning ijtimoiy mas’uliyat va madaniy ong darajasi hozirgi ko‘rsatkichga nisbatan 35–40% ga oshishi mumkin. Bu esa nafaqat ta’lim sifatini, balki butun jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, munozara jarayonida ko‘rinadiki, samarali pedagogik texnologiyalar qadriyatli munosabatni shakllantirishda muhim omil bo‘lsa-da, ular milliy-pedagogik an’analar va oila hamkorligi bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgandagina to‘laqonli natija beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish — bugungi ta’lim jarayonining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qadriyatlarni singdirishda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki axloqiy-estetik, ijtimoiy-psixologik rivojlanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

Interfaol va innovatsion metodlar o‘quvchilarning qadriyatli qarashlarini shakllantirishda an’anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlik kasb etadi.

Milliy meros, xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy qadriyatlar zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda o‘quvchilarda mustahkam ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

“Maktab–oila–mahalla” hamkorligining samarali yo‘lga qo‘yilishi qadriyatli munosabatni keng qamrovli shakllantirishga imkon yaratadi.

Prognozlar shuni ko‘rsatadiki, agar boshlang‘ich ta’limda qadriyatli munosabatni shakllantirish bo‘yicha samarali pedagogik texnologiyalar muntazam va tizimli tatbiq etilsa, 2030 yilga borib o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalari 35–40% ga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik darajasi esa 30% ga oshishi mumkin.

Demak, boshlang‘ich sinflarda qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayonida samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, yosh avlodda mustahkam axloqiy pozitsiya, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2020–2024 yy.
3. Hasanboyeva O., To‘raqulov S., Yo‘ldoshev J. Pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. Jalolov J.J., Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. Qodirova F.R., Sobirova D. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya jarayonini tashkil etish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Sultonova G. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. Nishonova Z. Milliy qadriyatlar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
8. Hasanov A. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ma’naviyat, 2022.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim Davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich sinflar uchun Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklari (1–4-sinflar). – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2021–2023 yy.

Aliyeva Chinora Boxodir qizi
Farg‘ona shahri 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internati
Rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi
E-mail: chinonaliyeva@gmail.com
ORCID ID 0009-0005-2309-6935

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIKNI SHAKLLANTIRISH MOHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompetensiya tushunchasi, kompetentlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishi natijalari, bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning mohiyati, mazmuni va metodik asoslari . Bo‘lajak o‘qituvchilarini intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirishning zaruriy jihatlari ochib berilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetentlilik, pedagogik ta’lim, ta’lim islohotlari, o‘qituvchini tayyorlash, professional kompetensiya, zamonaviy metodlar, innovatsion ta’lim.*

СУЩНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются понятие «компетенция», результаты проведённых исследований по проблеме компетентности, сущность, содержание и методические основы формирования коммуникативной компетентности у будущих учителей. Раскрываются важные аспекты подготовки нового поколения кадров с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, формирования у выпускников образовательных организаций необходимых умений и знаний для становления современными специалистами. Отмечается, что требования, предъявляемые к будущим учителям, имеют педагогический, психологический и социологический характер, что придаёт им особую значимость.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, педагогическое образование, образовательные реформы, подготовка учителя, профессиональная компетенция, современные методы, инновационное образование.*

THE ESSENCE OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Abstract. *This article examines the concept of “competence,” the results of research on the issue of competency, as well as the essence, content, and methodological foundations of developing communicative competence in future teachers. It highlights important aspects of preparing a new generation of professionals with high intellectual and spiritual potential, and of developing in graduates of educational institutions the necessary skills and knowledge to become modern specialists. It is noted that the requirements for future teachers are of pedagogical, psychological, and sociological nature, which makes them particularly significant.*

Key words: *communicative competence, pedagogical education, educational reforms, teacher training, professional competence, modern methods, innovative education.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sifati bevosita o‘qituvchining nafaqat bilim darajasi, balki uning kommunikativ kompetentligiga ham bog‘liqdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda tayyorlanishi, ularning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ kompetentlilik - bu o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va jamiyat bilan samarali aloqa o‘rnatish qobiliyati bo‘lib, ta’lim

jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. XXI asr – axborot va innovatsiyalar asri bo‘lib, ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, pedagoglar zimmasiga zamonaviy kompetensiyalarga ega bo‘lish talabi qo‘yilmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar - Prezident qarorlari, milliy dasturlar, yangi o‘quv rejalari - bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida sifatli o‘zgarishlarni taqozo etmoqda[1]. 2019-yildagi “Ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi”da o‘qituvchi shaxsining kommunikativ salohiyati alohida e’tiborda turadi[2].

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim sohasi yurtimizda tub islohotlar bosqichiga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev farmon va qarorlari asosida ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Xususan, pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kommunikativ ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Chunki, ular kelajakda ta’lim jarayonining faol ishtirokchilari sifatida o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishlari, ta’lim mazmunini to‘g‘ri yetkazishlari va o‘zaro hamkorlikda ishlashlari kerak bo‘ladi[5]. Jamiyatimizning barcha sohalarida o‘tkazilayotgan islohotlar uzluksiz ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni muloqotchanlik va kreativlik asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylanishi ham bejiz emas. Har bir pedagog muntazam ravishda o‘z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan bir qatorda:kommunikativ kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Bugungi kun o‘qituvchi uchun o‘zi tanlagan fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. Endilikda har qanday vaziyatda ta’lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o‘z faoliyatida qo‘llay olishi, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo‘lishi lozim. Maqolada aynan ushbu masalaning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kommunikativ ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Zero, ular kelajakda ta’lim jarayonining faol ishtirokchilari sifatida o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishlari, ta’lim mazmunini to‘g‘ri yetkazishlari va o‘zaro hamkorlikda ishlashlari kerak bo‘ladi. Yurtimizdagi ta’lim islohotlari bo‘lajak pedagoglarni kasbiy jihatdan yetuk etib tayyorlashga qaratilgan. Prezident farmonlariga ko‘ra, pedagoglar tayyorlov dasturlariga zamonaviy kommunikatsiya, pedagogik psixologiya va ijtimoiy fanlar chuqur integratsiya qilinmoqda. Shu asosda, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘quv jarayoniga kiritilmoqda.

“Kompetensiya” tushunchasi, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, kompetensiya egasi, bu atamalarning mazmuni haqida eng avvalo to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Kommunikativ kompetentlik – bu shaxsning samarali muloqot qilish, o‘z fikrini aniq ifodalash, suhbatdoshni tushunish, o‘zaro hamkorlikni tashkil etish qobiliyatidir[3]. Pedagogik nuqtai nazardan, bu ko‘nikma bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu ko‘nikma bosqichma-bosqich kadrlar tayyorlash milliy dasturlari orqali mustahkamlanmoqda. Bugungi kunda har bir pedagog ta’lim oluvchilarning faol kommunikativ jarayoniga kirishishini ta’minlashi, ijtimoiy hamkorlik muhiti yaratishi, shuningdek, o‘z fikrini aniq va dalillarga asoslangan tarzda bayon qila olishi zarur. Shu boisdan ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodikalar, ayniqsa, til va adabiyot fanlarida keng qo‘llanmoqda.

“Kompetentlilik” tushunchasiga berilgan lug‘aviy ta’riflarda ushbu atamaning- lotinchadan competenlia, compete so‘zidan olingan bo‘lib - “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, hamda nimadir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish “xabardor bo‘lmoq, huquqli bo‘lmoq” degan ma’noni bildiradi. Tilshunos olimlar J. Richards va T. Rodgers [12]ning fikricha, kommunikativ kompetentlik til o‘qitish jarayonida nafaqat grammatik bilim, balki nutqiy faoliyat, madaniy moslashuv va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi. O‘qituvchi – bu nafaqat bilim manbai, balki o‘quvchi uchun muloqot madaniyatining namunasi. Pedagogik muloqot o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida insonparvarlik, ishonch va hurmat asosida qurilishi lozim.

Shu o‘rinda yurtimiz pedagog olimlarining kompetensiyaviy ta’lim va masalalariga doir ilmiy nuqtai nazarlari katta qiziqish uyg‘otadi. Kommunikativ kompetentlilik - bu pedagogning o‘quvchilar bilan muloqot qilish, bilimlarni tushunarli yetkazish, ularni rag‘batlantirish va baholashdagi muvaffaqiyatini belgilovchi shaxsiy sifatlar majmui [3]. U uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat:

Til kompetensiyasi - o‘qituvchining nutqiy boyligi va til vositalarini to‘g‘ri qo‘llash mahorati;

Nutqiy strategiya - o‘quv jarayonida muloqotni maqsadga muvofiq boshqarish qobiliyati;

Sotsiokulturniy kompetensiya - madaniyatlararo muloqot olib borish, milliy va umuminsiy qadriyatlarni hisobga olish.

Vigotskiy [10] fikricha, muloqot jarayoni inson tafakkurining rivojlanishida asosiy omildir. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda samarali nutqiy faoliyatni shakllantirish pedagogik tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetenlilikni shakllantirish mohiyati quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchidan, Kommunikativ kompetensiya – o‘qituvchidan eng avvalo muloqotchanlikni hamda har qanday vaziyatda o‘quvchilar bilan ijobiy munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Ikkinchidan, Hozirgi zamon o‘qituvchisi oldiga qo‘yiladigan maqsadlaridan biri unda Kommunikativ kompetensiya shakllantirish, o‘z ish faoliyatini mustaqil rejalashtirish va albatta tashkil eta olish, o‘qituvchilik qobiliyatning mavjudligi, kasbiga qiziqish, asosiy jihati o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini anglashidir.

Uchinchidan, pedagoglarda kommunikativ kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun **o‘quvchi**larni mustaqil ish izlantirish, o‘quv faoliyatiga undash orqali tushuncha va tasavvur ko‘nikmalarni shakllantirish. Kerakli ma’lumotlarni qidirish, o‘z faoliyati loyihasi va uning amaliyotga tatbiq etish, ish maqsadini anglash va natijaga ma’suliyat bilan yondashish;

Rus olimi N.V.Tarasova esa “kompetensiya” tushunchasini “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash imkonini beradigan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi [12]. Shu o‘rinda kommunikativlik atamasiga ham izoh beradigan bo‘lsak, avvalo, «Kommunikatsiya» tushunchasii fanga XX asrning kirib kelgan bo‘lib, «lotincha “communication”, “communico” -so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bog‘layman, muloqot qilaman ma‘nolarini anglatadi.

Kommunikativ kompetentlik - bu o‘qituvchining og‘zaki va yozma shaklda samarali muloqot qila olish, axborotni aniq va tushunarli yetkazish, madaniyatlararo kommunikatsiyaga tayyorlik darajasidir [8]. Yani, bu – shaxsning til vositalari orqali samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatidir. U faqat nutqiy faoliyat bilan cheklanib qolmay, balki eshitish, tushunish, norasmiy muloqot, psixologik tayyorgarlik, hissiy sezgirlik va madaniy omillarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu ko‘nikma bosqichma-bosqich kadrlar tayyorlash milliy dasturlari orqali mustahkamlanmoqda. Bugungi kunda har bir pedagog ta’lim oluvchilarning faol kommunikativ jarayoniga kirishishini ta’minlashi, ijtimoiy hamkorlik muhiti yaratishi, shuningdek, o‘z fikrini aniq va dalillarga asoslangan tarzda bayon qila olishi zarur.

Filolog olima G.A.Kitayeva ta’kidlashicha, “kommunikativ kompetensiya deganda insonning til me’yorlarini bilishi, uni situatsiyaga qarab qo‘llay olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi tushuniladi”[4]. Shu boisdan ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodikalar, ayniqsa, til va adabiyot fanlarida keng qo‘llanmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativligini shakllantirishning muhim sharti oliy ta'lim muassasasining o‘quv jarayonida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida samarali pedagogik aloqani tashkil etishdir. O‘qituvchining kommunikativ kompetentsiyasining yuqori darajasi talabalarning kommunikativligini shakllantirishga bevosita ta'sir qiladi, chunki aloqa ikki tomonlama ma'lumot almashish jarayoni bo‘lib, natijada o‘zaro tushunish yuzaga keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish shartlaridan yana biri bu talabalarni tayyorlash shakllari va usullarini qo‘llash, ulardan foydalanish, masalan, psixologik trening, rolli treninglar, guruhli ijtimoiy-psixologik treninglar, kommunikativlik hamda kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlari uzluksiz shaklda olib borishdir.

Natijalar va muhokama

Ta’lim islohotlari bo‘lajak pedagoglarni kasbiy jihatdan yetuk etib tayyorlashga qaratilgan Prezident farmonlariga ko‘ra, pedagoglar tayyorlov dasturlariga zamonaviy kommunikatsiya, pedagogik psixologiya va ijtimoiy fanlar chuqur integratsiya qilinmoqda[1]. Shu asosda, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘quv jarayoniga kiritilmoqda.

Zamonaviy o‘qituvchi **nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, ma’lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. Yani:**

1. O‘z “ta’limiy kamchiliklari”ni mustaqil tuzatib, **o‘quvchi**lar bilan birga o‘qishni bilish.
2. **O‘quvchilar**ni mustaqil fikr yuritishlari va tadqiqotchilik qobilyatlariga ko‘ra, ularda tadqiqotchilik ko‘ nikmasini tashkil eta olish.
3. O‘**quvchi**lar dars jarayonida fikr, mulohazalarini erkin ifoda etishlari, muammoli vaziyatlarda esa o‘zlarini munosabatlarini bayon eta olishlariga imkon yaratishi. Asosiysi o‘qituvchi bilan o‘quvchilarining suhbat jarayonida shaxsiy chegaralari buzilmagan holda tanqidlarni tahlil qilishlari kerak.

Zamonaviy o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni talab etadi. U bilimga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat hisoblanib, shaxsning intellektual va shaxsan aniqlangan ijtimoiy va kasbiy shakllanishi lozim.

Kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning samarali vositalari, shuningdek, interaktiv o‘qitish texnologiyalari va loyiha usuli mavjud. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida loyiha faoliyatidan foydalanish hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi[6]. Kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlashda loyiha usulini joriy etish orqali biz har bir o‘quvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga erishamiz va xarakterli ravishda loyiha faoliyatiga qiziqish paydo bo‘lishi bilan-maxsus fanlarni o‘rganishga qiziqishning ortishi.shu bilan bir qatorda amaliy va laboratoriya ishlarida interfaol ta'lim loyihalari va texnologiyalari usulidan foydalanish talabalarning o‘z fikrlarini ifoda etish, muloqotga kirish, rejadan tashqari savollarga javob berish, ko‘plab tinglovchilar oldida so‘zlash qobiliyati kabi kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, kelajakdagi o‘qituvchining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish darajasi uning kasbiy faoliyatining samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitish usuli nafaqat kommunikativ ko‘nikmalarni, balki ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va shaxsiy mas’uliyatni ham rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda amaliy va laboratoriya ishlarida interfaol ta’lim loyihalari va texnologiyalari usulidan foydalanish talabalarning o‘z fikrlarini ifoda etish, muloqotga kirish, rejadan tashqari savollarga javob berish, ko‘plab tinglovchilar oldida so‘zlash qobiliyati kabi kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilishi zarur:

- Til faoliyati komponentlari asosida: eshitish, gapirish, o‘qish, yozish;
- Muloqot muhitini yaratish orqali: real yoki sun’iy ravishda muloqot muhiti tashkil etiladi;
- Madaniy kompetensiya bilan bog‘langan holda: til va madaniyat ajralmas tushunchalardir[9].

Pedagogik yondashuvlar ichida kommunikativ yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va faoliyatga asoslangan ta’lim eng samarali hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kommunikativ ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Zero, ular kelajakda ta’lim jarayonining faol ishtirokchilari sifatida o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishlari, ta’lim mazmunini to‘g‘ri yetkazishlari va o‘zaro hamkorlikda ishlashlari kerak bo‘ladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish - bu shunchaki tilni bilish emas, balki axborotni samarali yetkazish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Hozirgi zamon o‘qituvchisi oldiga qo‘yiladigan talablarni bilish, pedagogik faoliyatga qobiliyatning mavjudligi, o‘qituvchilik kasbiga qiziqish, undagi psixik jarayon larning: his qilish va idrok, diqqat, tasavvur, fikrlash, xotira, nutq, iroda

optimal holatdaligi. Pedagoglik kasbiga va o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini anglash. O‘zbekiston ta’lim islohotlari aynan shunday kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar, yangi metodik yondashuvlar va innovatsion o‘quv dasturlari orqali pedagogik kadrlar tayyorlash sifati yanada takomillashmoqda, hamda kommunikativ kompetentlilik zamonaviy insonga faoliyat turidan qat'iy nazar muhim bo‘lgan asosiy kalit sifatida o‘rganishnmizni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni..

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. Aliev I. Pedagog kadrlar da kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. – 212 b.

4. Haydarov J.R. Zamonaviy pedagogikaning nazariy asoslari. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2021. – 300 b.

5. Hutorskoy A.V. Klyuchevыe kompetentsii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. – 2002. – №2. – S. 58–64.

6. Karimov Sh.I. “Zamonaviy o‘qituvchi - kommunikativ shaxs sifatida”. Ilmiy maqola. 2023.

7. Muslimov N.M. Pedagogik kompetentlik va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2019. – 256 b.

8. Tarasova N.V. Kompetentnostnыy podhod v sovremennom obrazovanii. – Moskva: “Akademiya”, 2018. – 188 s.

9. Zimnyaya I.A. Klyuchevыe kompetentsii kak rezultativno-tselevыe osnovaniya kompetentnostnogo podhoda v obrazovanii. – Moskva: “Issledovatelskiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov”, 2004. – 42 s.

10. Vygotskiy, L.S. Muloqot va nutq taraqqiyoti. – Moskva: Pedagogika, 2010. – 320 b.

11. O‘roqov Sh. Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari//Xalq ta’limi. – Toshkent: 2016, №5. –B.55-60. (13.00.00; №2).

12. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 402 p.

13. Педагогический словарь-справочник/ Авт.-сост.: Э.А.Сейтхалилов, Б.Х. Рахимов, И.У. Маджидов; под общ. ред. Б.Ю. Ходиева; М-во высш. и ср. спец. Образования РУз.- Т.: “OPTIMAL LIGHTS”, 2011. -701с. – стр. 315.

Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich
Jizzax politexnika instituti Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasi professori
E-mail: jaxmedov48@gmail.com

AXBOROT TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya. *Maqolada Oliy ta'lim tizimida axborot-ta'lim muhiti orqali muhandislik tafakkuri, mustaqil ishlash ko'nikmalari, texnologik savodxonlik va kasbiy moslashuvchanlik kabi xislatlarni shakllantirish uchun maxsus metodik tizim ishlab chiqilgan. Maqola ilmiy-nazariy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish ishlari bilan shug'ullanuvchilarga asoslab tayyorlangan.*

Kalit so'zlar: *Muhandislik o'yinlari, axborotlashtirilgan ta'lim muhiti (ATM), muxandis-pedagoglar, dasturiy-didaktik ta'minot, Ekspert baholash, Metod, Ta'lim manitoringi, Faktorlar, Konkordatsiya koeffitsenti.*

РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ В ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье разработана специальная методическая система формирования таких качеств, как инженерное мышление, навыки самостоятельной работы, технологическая грамотность и профессиональная гибкость посредством информационно-образовательной среды системы высшего образования. Статья основана на опыте специалистов, занимающихся внедрением научно-теоретических разработок в практику.*

Ключевые слова: *Инженерные игры, информационно-образовательная среда (ИОС), инженеры-педагоги, программно-дидактическое обеспечение, Экспертная оценка, Метод, Педагогический мониторинг, Факторы, Коэффициент конкордации.*

DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE ENGINEERS IN THE INFORMATION AND EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract: *The article develops a special methodological system for the formation of such qualities as engineering thinking, independent work skills, technological literacy and professional flexibility through the information and educational environment of the higher education system. The article is based on the experience of specialists involved in the implementation of scientific and theoretical developments into practice.*

Key words: *Engineering games, information and educational environment (IEE), engineers-teachers, software and didactic support, Expert assessment, Method, Pedagogical monitoring, Factors, Concordance coefficient.*

Kirish. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim muhiti - ularning kasbiy, innovatsion, texnik va ilmiy faoliyatga tayyorlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Oliy ta'lim tizimida axborot-ta'lim muhiti **orqali** muhandislik tafakkuri**,** mustaqil ishlash ko'nikmalari**,** texnologik savodxonlik **va** kasbiy moslashuvchanlik shakllantiriladi.


Bo'lajak muhandisning o'z sohasidagi kompetensiyalarni chuqurlashtirib borishi, innovatsion fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qila olish, texnik loyihalar ustida mustaqil ishlash qobiliyatini o'zlashtirishda muhandislik o'yinlarining roli muhim o'rin egallaydi. Muhandislik o'yinlari - bu muhandislik bilimlarini mustahkamlash, yaratish, yechim topish va loyihalash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv o'yinlari.

Muhandislik o'yinlarining turlari

Simulyatsion o'yinlar (masalan, texnologik liniyani boshqarish)
Loyihaviy o'yinlar (ma’lum muammoni echish uchun loyiha yaratish)
Rol o‘ynash o‘yinlari (menejer, dizayner, operator rollarini o‘ynash)
STEM o‘yinlari (Science, Technology, Engineering, Math)
Konstruktor asosidagi o‘yinlar (masalan, LEGO yoki 3D model asosida)

Muhandislik o’yinlari - bu muhandislik muammolarini hal qilish usullarini takrorlaydigan, muhandislik faoliyatiga taqlid qiladigan, ishlab chiqarish munosabatlari tizimini modellashtiradigan va bo’lajak mutaxassislarning intelektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik vositasi bo’lgan professional yo’naltirilgan o’yin turi. Muhandislik o’yinini o’tkazish - bu ishtirokchilar tomonidan kasbiy tajribani o’zlashtirish, muhandislik mahoratini egallash, muhandislik muammolarini hal qilish va kasbiy mahoratni rivojlantirish maqsadida intelektual faoliyatining shartli vaziyatlarini taqsimlash. Muhandislik o’yini murakkab tushuncha bo’lib, didaktik, rolli va ish o’yinlarni o’z ichiga oladi. Talabalar intelektual kompetentligini rivojlantirishiga ta’sir ko’rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar, talabalarning individual ta’limini rivojlantirish uchun talabalarni intelektual faoliyatiga jalb qilishning muhimligi asoslab berildi.


Muhandislik o‘yinlari muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interaktiv ta’limga xos asosiy belgilar sanaladi (1-rasm):



1-rasm. Muhandislik o‘yin metodlarining asosiy belgilari

O’quv jarayoni bilan bog’liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o’qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg’or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni qiziqtiradigan, o’ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo’yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

Odatda interaktiv ta’lim metodlariga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: Bular; *individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash.* Interaktiv ta’lim metodlarini qo’llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo’ladi (2-rasm):



2-rasm. Muhandislik o‘yin metodlarining imkoniyatlari

Muhandislik o‘yinlari asosida talabalarning intelektual kompetentligini zamonaviy interaktiv ta’lim metodlaridan foydalangan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Quyida biz talabalarning intelektual kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bir nechta muhandislik o‘yin metodlariga to’xtalib o’tamiz.

O'yinli metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri:

Diqqat va qiziqishni oshiradi;

Ko‘nikmalarni amaliy mustahkamlashga xizmat qiladi;

Mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi;

Muhokama va fikr almashish orqali muammolar yechiladi.

“EKSPERT BAHOLASH” metodi. Ushbu metodning mazmuni bo‘lajak muhandislarning kasbiy faoliyatiga oid ishlab chiqarish jarayonlarida uchrashi mumkin bo’lgan murakkab muhandislik masalalarini jamoaviy tarzda sohaning yetuk va tajribali mutahassislari (ekspertlar)ning fikrini o’rganish, jamlash, tahlil qilish va hulosa qilish orqali yechimini topishga, muammoning mavjud bir nechta yechimlari orasidan eng maqbul variantini tanlab olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Ekspert baholash — bu subyektiv bo‘lsa-da, **ilmiy asoslangan fikr-mulohazalarga** tayangan holda qaror qabul qilish yoki **muayyan obyekt, jarayon yoki holatning qiymatini, sifatini yoki ahamiyatini malakali mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan baholash** usulidir.

Tizimli tahlil fanida quyidagi holatlarda ekspert baholashdan foydalanish maqsadga muvofiq (1-jadval):

1-jadval


Ekspert baholash metodidan foydalanish

Soha (tizim elementi)	Ekspert baholashdan foydalanish sababi
Muammo tahlili	Muammoning darajasini, dolzarbligini, ta’sir doirasini aniqlashda.
Mezonlar tanlovi	Mezonlarning ustuvorligi bo‘yicha ekspertlar fikriga asoslanishda
Variantlar tanlovi	Muammoning yechimi bir necha qarorlar orasidan eng maqbulini tanlashda
Tizim samaradorligini baholash	Ob’yektiv va subyektiv ko‘rsatkichlar birgalikda hisobga olishda
Xatarlarni baholash	Rivojlanish yo‘llaridagi ehtimoliy xavf va to‘siqlarni oldindan aniqlashda

Ekspert baholash metodi asosan amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashga mo‘ljalllangan bo‘lib, o‘qituvchi tomonidan dars mashg‘ulotidan avval zarur tayyorgarlik ko‘rilishi talab etiladi.

Ekspert baholash metodi quyidagicha amalga oshiriladi: dastlab muammoga ta’sir qiluvchi asosiy omillar yoki muammoning yechimi bo’lgan bir nechta variantlari tanlab olinadi. Mazkur muammoning yechimlari yoki unga ta’sir qilayotgan asosiy faktorlarni ekspertlarning fikrini jamlash orqali aniqlashda ekspertlarning fikrini olish uchun erkin suhbat yoki savol-javob ko‘rinishidagi intervyu hamda anketalashtirishdan foydalaniladi, ushbu jarayonda har bir ekspert taqqoslanayotgan faktorlarga yoki muqobil variantlarga miqdoriy baho beradi ya‘ni ularni tabaqalaydi. So‘ngra ekspert guruhlari qatnashchilarning baholari jamlanadi.

Ekspert baholashni amalga asoslangan usullarning eng oddiysi mantiqiy tabaqalash hisoblanib, adabiyotlardagi ma’lumotlarning tahlili, tajribalarni umumlashtirish, mutahassislar orasida so‘rov o‘tkazish asosida tabaqalanishi talab etiladigan faktorlarning dastlabki ro‘yhati aniqlab olinadi (2-jadval).



3-rasm. Ekspert baholash metodini amalga oshirish bosqichlari

2-jadval

Ekspertlar fikrini o'rganish anketasi (namuna)

Faktorlar belgisi	*Faktorlarninig nomlanishi*	Tartib raqami (rangi)
1-faktor		
2-faktor		
3-faktor		
n-faktor		

Ekspertlar bilan individual ishlaganda har bir ekspertning fikrini olishda har bir ekspert taqqoslanayotgan faktorlarga yoki muqobil variantlarga miqdoriy baho beradi, ya'ni ularni tabaqalaydi. Ekspertiza rahbar emas, balki mutahassislar tomonidan o'tkaziladi va tavsiya ko'rinishiga ega bo'ladi.

Ekspertlar guruhiga tadquqotlar asosida aniqlangan asosiy faktorlar va baholash metodining mohiyati oldidan ma'lum qilinadi. Har bir ekspertga taqqoslanayotgan faktorlarga miqdoriy baho berish ya'ni ularni tabaqash tushuntiriladi. Ekspertlar guruhini tuzishda ular mutaxassis bo'lishi lekin, natijadan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi inobatga olinadi.

Ekspertlar 2-jadvalda keltirilgan ko'rinishdagi taqdim etilgan faktorlarni individual baholaydilar, bu jarayonda faktorlar tadqiqot ob'ektiga ta'sir darajasining kamayishi tartibida belgilaydilar. Misol uchun: asosiy hisoblangan faktorga "1" raqami, keyingi darajadagi faktorga "2" raqami va hokazo.

So'ngra ekspert guruhlari qatnashchilarning individual baholari natijasi 3-jadvalda umumlashtirildi.

3-jadval

Ekspertlarining fikrini umumlashtirish jadvali

Faktorlar	**Ekspertlar (shartli tartib raqami)**									Faktorlar bo'yicha ranglar yig'indisi, **N**	Ranglar yig'indisi xatoligi, Δ_i	Xatoliklar kvadrati, Δ^2
	1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**			
	Ekspertlarning baholari											
1-faktor												
2-faktor												
3-faktor												
4-faktor												
5-faktor												
6-faktor												

Har bir faktorlar yig'indisining barcha ranglar yig'indisi o'rtachasidan xatoligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\Delta = N - \frac{\sum N}{R} \qquad (1)$$

bu yerda: R *– faktorlar soni.*

Ranglar yig'indisi xatoligi, Δ_i*:*

Konkordatsiya koeffitsenti yordamida ekisportlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasi baholanadi. Konkordatsiya koeffitsenti 0 dan 1 gacha o'zgaradi. Agar u 0 dan sezilarli ravishda farq qilsa, demak ekspertlar fikrlari orasida ma'lum kelushuvchanlik mavjud deb hisoblash mumkin.

$$W = \frac{12S}{m^2(R^3-R)} \qquad (2)$$

bu yerda: S *- xatoliklar kvadratlarining yig'indisi.*

$$S = \sum_{i=1}^{k} \Delta_i^2 = \qquad (3)$$

bu yerda: m *- ekspertlar soni.*

Agar $W \prec 0.5$ kichik bo'lsa natija salbiy bo'lib, bunga ekspertlarga yo'riqnomaning noaniq bo'lganligi, faktorlar noto'g'ri tanlanganligi yoki chuqur bilimga ega bo'lmagan ekspertlar sabab bo'lishi mumkin.

Metodning afzalliklari: Ushbu metod bo'lajak muhandislarning faoliyati davomida yuzaga keladigan murakkab va qaltis vaziyatlarda sohaning yetuk mutaxassislari fikrini jamlash orqali nozik qarorlarni qabul qilishga o'rgatish bilan birgalikda talabada individual faoliyatning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodning kamchiliklari: Jarayonning biroz murakkabligi, metodni amalga oshirish uchun vaqt talab etilishi, qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak

"Ekspert baholash" metodi boyicha dars ishlanmasi.

Fan nomi: Tizimli tahlil.

Mavzu: Murakkab tizimlarda qaror qabul qilish.

Dars mashg'uloti turi: amaliy;

Dars mashg'uloti uchun ajratilgan soatlari miqdori: 2 soat;

Dars mashg'ulotining tarbiyaviy maqsadi: Talabalarda tahliliy fikrlashga, ilmiy yondashuvga va mas'uliyatli qaror qabul qilishni rivojlantirish;

Dars mashg'ulotining ta'limiy maqsadi: Bo'lajak muhandislarda bilim, malaka va ko'nikmalari asosida muammoli vaziyatni o'rganish, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash va yechimlarini izlab topishda ekspertlar fikrini o'rganish ko'nikmasini shakllantirish;

Kutilayotgan natijalar: Bo'lajak muhandislarning kasbiy rivojlanishi.

O'quv-didaktik vositalari: Power Point prezentatsiya; Google Forms/Microsoft Forms – onlayn baholash; Jamboard / Padlet – guruh fikrlarini jamlash; Excel / Sheets – ballarni hisoblash; Video-material (Delphi metodi haqida);

Topshiriq: Ishlab chiqarish sohasidagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda ta'sir qiluvchi asosiy faktorlarni aniqlang

Muammoli vaziyat: Odatda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qonunlarga, standartlarga, qoidalarga me'yorlarga va boshqa amaldagi hujjatlarga amal qilinadi, ularni qabul qilishda boshqa mutaxassislar va tashkilotlar tajribasidan foydalaniladi.

Texnologik jarayonlarni boshqarishda muhandis-texnik xizmatida hamma qarorlarning 60-65 % gacha ulushi shunga o'xshash takrorlanib turadigan ishlab chiqarish vaziyatlariga to'g'ri keladi.

Tizimning samarali faoliyatiga ta'sir qiladigan lekin amaldagi qonunlarga, standartlarga, qoidalarga me'yorlarga va boshqa hujjatlarga aniq me'yori belgilab berilmagan korxona darajasida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud bo'lib, yechimida hisobga olinishi zarur bo'lgan faktorlar sonining yuqoriligi sababli bu sharoitda qabul qilingan qarorning oqibatlari haqida axborot yetarli bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish sohasidagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish muammosi korxona darajasidagi muammo hisoblanib, hisobga olinishi zarur bo'lgan faktorlar sonining yuqoriligi sababli bu sharoitda qabul qilingan qarorning oqibatlari haqida axborot yetarli bo'lmaydi.

Boshqaruv jarayonida, oldindan ma'lum bo'lmagan yangi sharoitlarda qaror qabul qilishda bajariladigan ishlar kompleksi - operatsiyalarni tadqiq qilish degan tushunchaga birlashadi.

Bunday operatsiyalarga tizimning samaradorligini oshirish uchun o'tkaziladigan alohida tadbirlar hamda tizim oldida turgan maqsadga erishishga taalluqli bo'lgan murakkab dasturlar kiradi. Har bir operatsiya o'zining samaradorligi bilan ya'ni salmog'i bilan baholanadi. Umumiy holda samaradorlik ko'rsatkichi yoki maqsad funksiyasi uch guruh faktorlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Birinchi guruh faktorlar oldindan mavjud bo'lib, operatsiyalarni bajarish sharoitlarini tavsiflaydi va ular operatsiyani bajarish davomida o'zgarmaydi.

Muayyan korxona uchun bu - korxonaning iqtisodiy jihatdan quvvati, faoliyat turi kabi.

Ikkinchi guruh faktorlar qaror elementlari deb ham ataladi va boshqaruv paytida maqsad funksiyasiga ta'sir qilgan holda o'zgarishi mumkin. Bular texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish tizimi, avtomatlashtirilgan tizimlarini funktsional, mantiqiy va texnikaviy tashkillashtirish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Uchinchi guruh faktorlar - oldindan ma'lum bo'lmagan sharoitlar bo'lib, ularning samaradorlikka ta'siri noma'lum yoki yetarlicha o'rganilmagan. Masalan, texnologik jarayonlar va ishlab

chiqarishni avtomatlashtirish soxasida ishlatiladigan apparatlarning texnik xarakteristikasi; miqdor ko‘rsatgichi (quvvati); sifat ko‘rsatgichi.

Mazkur guruh omillari birgalikda ta’sir qilayotganda, qarorni tanlash masalasi quyidagi tarzda ifodalanadi: belgilangan sharoitlarda no’malum omillarning ta’sirini hisobga olgan holda qaror elementlarini topish talab etiladi; bu elementlar imkoni boricha maqsadning ekstremal qiymatini olish ta’minlanishi kerak. Qat’iy ta’kidlash mumkinki, to‘liq axborotni faqatgina u yoki bu hodisa yuz berganidan so‘ng va kerakli qarorni qabul qilish zarurati yo‘qolib, tizim reaktiv boshqaruv tartibiga o‘tganidan so‘ngina olish mumkin bo‘ladi.

Shuning uchun ham boshqaruvda axborot yetishmovchiligini u yoki bu usul bilan to‘ldirish yoki kompensatsiyalashni bilish zarur.

Bunday usullar quyidagilar hisoblanadi:

1. Qo‘shimcha axborotni yig‘ish va uni tahlil qilish. Shubhasiz, agar tizim belgilangan vaqt va vositalar zahirasiga ega bo‘lganda, bunday imkon bo‘ladi.

2. O‘xshash korxonalar va qarorlar tajribasidan foydalanish. Bunda qarorlar bankiga yoki unga kirish imkoniga ega bo‘lish zarur bo‘ladi. Bundan tashqari, boshqalarning tajribasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri (vaziyatga moslamasdan) foydalanib bo‘lmaydi.

3. Mutaxassislar jamoasining fikrlaridan yoki ekspertizadan foydalanish.

4. Intervyu va so‘rovlar.

5. O‘yinlar nazariyasiga asoslangan maxsus metodlar va mezonlar.

6. Mavjud voqelikka yaqin ishlab chiqarish vaziyatlarini aks ettiruvchi imitatsion modellashtirish va boshqa metodlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xasanboyev J., To'raqulov X.A., Xaydarov M., Xasanboyeva O., Usmonov N.O'. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya, 2009. - 672 b.

2. J.R.Axmedov. Muxandis-pedagoglarning innovatsion faoliyatini shakllantirishda axborot texnologiyalarini o`rni. - Jizzax. JizPI tipografiyasi MChJ.-2021. 140 b.

3. J.R.Axmedov . Tizimli tahlil. Darslik. UO`K 303.732. Jizzax. “Ilm nuri print” MChJ, 2023

4. J.R.Axmedov. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish. p.f.f.d (PhD) ... diss. - T.: 2020. - 160 b.

5. Axmedov J.R. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning harakatlar strategiyasi// “Ta`lim, fan va innovatsiya” Ma'naviy- ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. -T.,2019.-№2.-B. 68-74.

6. To'raqulov O.X., Axmedov J.R., Xamzayev X.Q. Texnology of organizing “Interactive Communication Platform”. Eastrn European Scientific Jurnal, Ausgabe 3-2018, 297-304 pages.

Axmedova Zamira Shirinovna
Buxoro shahar 2-umumta'lim maktab direktori

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHGA OID ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish masalalariga bag'ishlangan mavjud ilmiy tadqiqot ishlari tizimli tahlil qilinadi. Innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda samarali boshqaruv usullari hamda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangiliklarni joriy etish omillari aniqlashtirilgan. Ishda turli nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalari o'rganilib, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari maktablarda sifatli ta'limni ta'minlashga va o'qituvchilarning ijodiy potensialini oshirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion faoliyat, pedagogik innovatsiya, ta'limni boshqarish, o'qituvchi kasbiy rivojlanishi, umumta'lim maktabi, ilmiy tadqiqotlar tahlili, tizimli sharh.*

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON ORGANIZING AND MANAGING INNOVATIVE ACTIVITIES OF GENERAL EDUCATION SCHOOL TEACHERS

Аннотация. *В данной статье будет проведен систематический анализ существующих научно-исследовательских работ, посвященных вопросам организации и управления инновационной деятельностью педагогов общеобразовательных школ. Определены эффективные методы управления в успешной реализации инновационных процессов, а также факторы внедрения инноваций в профессиональную деятельность педагогов. В работе изучены результаты различных теоретических и практических исследований, разработаны предложения и рекомендации по стимулированию и поддержке инновационной деятельности. Научно обосновано, что результаты исследования служат обеспечению качественного образования в школах и повышению творческого потенциала учителей.*

Ключевые слова: *инновационная деятельность, педагогические инновации, управление образованием, профессиональное развитие учителя, общеобразовательная школа, анализ научных исследований, систематический обзор.*

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЮ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ УЧИТЕЛЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Annotation. *this article will systematically analyze the existing scientific research work on the issues of organization and management of innovative activities of teachers of secondary schools. In the successful implementation of innovative processes, effective management methods and factors for introducing innovations in the professional activities of teachers are identified. The work studied the results of various theoretical and applied research and developed proposals and recommendations for the promotion and support of innovative activities. The results of the study are scientifically based on the fact that they serve to ensure quality education in schools and increase the creative potential of teachers.*

Key words: *innovative activity, pedagogical innovation, educational management, Teacher Professional Development, Comprehensive School, analysis of scientific research, systematic review.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiyalar sharoitida har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bevosita uning ta'lim tizimi salohiyati bilan bog'liqdir. XXI

asr jamiyati nafaqat bilimli, balki o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, ijodiy yondashuvlarga ega va doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni talab etmoqda. Bu kabi malakalarni shakllantirishda esa umumta’lim maktablari hal qiluvchi o‘rin tutadi, chunki aynan shu yerda kelajak avlodning intellektual va shaxsiy poydevori qo‘yiladi. O‘zbekistonda ham keyingi yillarda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat rivojlanishining yangi bosqichida ta’lim sohasiga innovatsiyalarni joriy etish, o‘qitishning ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish strategik vazifa sifatida belgilangan. Bu jarayonning markazida esa bevosita o‘qituvchi, uning innovatsion faoliyati turadi. O‘qituvchi endilikda shunchaki bilim uzatuvchi subyekt emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, yangi g‘oyalar tashabbuskori va amalga oshiruvchisi, ya’ni pedagogik innovatsiyalarning asosiy drayveriga aylanishi lozim.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – so‘nggi yillarda ushbu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlarini, metodologik yondashuvlarini, aniqlangan asosiy omillar va mavjud bo‘shliqlarni aniqlashdan iborat. Tahlil uchun tizimli adabiyotlar sharhi va kontent-tahlil metodologiyasidan foydalanildi, bunda O‘zbekiston va xalqaro miqyosdagi nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilgan 45 ta maqola, dissertatsiya va monografiyalar tanlab olindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, motivatsiyasi va kasbiy rivojlanishiga e’tibor qaratgan holda, innovatsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-institutsional jihatlarini yetarlicha yoritib bera olmagan. Tadqiqotlarda ko‘proq tavsifiy va so‘rovnomaga asoslangan usullar qo‘llanilgani, innovatsion boshqaruvning kompleks modellarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan empirik tadqiqotlar soni kamligi aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan, umumta’lim maktab o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish va uni to‘g‘ri boshqarish bugungi kun ta’lim menejmentining eng dolzarb muammolaridan biridir. Innovatsion faoliyat o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi; u uchun maxsus shart-sharoitlar, rag‘batlantiruvchi muhit va tizimli boshqaruv mexanizmlari zarur. Biroq, amaliyotda ko‘plab maktablar va pedagoglar bu borada qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bularga innovatsiyalarga nisbatan konservativ yondashuvlarning saqlanib qolayotgani, o‘qituvchilarning yangiliklarni qabul qilish va tatbiq etishga bo‘lgan psixologik tayyorgarligining pastligi, maktab ma’muriyati tomonidan innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning sustligi, moddiy-texnik va metodik resurslarning yetishmasligi kabi holatlarni kiritish mumkin. Aynan shu kabi muammolarning mavjudligi o‘qituvchilarning innovatsion salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda va ta’lim islohotlarining samaradorligini pasaytirmoqda. Ushbu muammoning ilmiy yechimini topish maqsadida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati masalaning u yoki bu jihatinigina yoritish bilan cheklangan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid izlanishlarni umumlashtiruvchi, ularning asosiy yo‘nalishlari, yutuqlari va bo‘shliqlarini tahlil qiluvchi kompleks tadqiqotlarga ehtiyoj yuqori. Shu bois, ushbu mavzudagi ilmiy-tadqiqot ishlarining tizimli tahlilini amalga oshirish orqali sohadagi mavjud bilimlar holatini baholash, kelgusi izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni belgilab berish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolaning asosiy tadqiqot savoli quyidagicha: Umumta’lim maktab o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid mavjud ilmiy tadqiqotlarda qanday asosiy tematik yo‘nalishlar, metodologik yondashuvlar va konseptual modellar ustunlik qiladi hamda ushbu sohada qanday ilmiy bo‘shliqlar mavjud? Tadqiqotning maqsadi – shu savolga javob topish orqali mavzuga oid ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va sintez qilishdir.

O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarish muammosi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va menejment fanlari kesishmasida joylashgan murakkab, ko‘p qirrali hodisadir. Ushbu sohadagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlarni shartli ravishda bir necha asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalishdagi tadqiqotlar “pedagogik innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishdagi olimlar innovatsiyani shunchaki yangilik sifatida emas, balki mavjud tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi, maqsadli, boshqariladigan va ijobiy o‘zgarishlarga

olib keluvchi jarayon sifatida talqin qiladilar. Masalan, V.A. Slastenin o‘z ishlarida pedagogik innovatsiyani ta’lim-tarbiya maqsadlariga erishish samaradorligini oshiruvchi yangi vositalar, metodlar, texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini yaratish va joriy etishga qaratilgan kompleks faoliyat deb ta’riflaydi [1]. Ushbu yondashuv innovatsiyaning amaliy ahamiyatini va uning natijaviylikka yo‘naltirilganligini ta’kidlaydi. Ikkinchi yirik yo‘nalish o‘qituvchining shaxsiyati, uning innovatsion salohiyati va yangiliklarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish bilan bog‘liq. Bu boradagi tadqiqotlar innovatsion faoliyatga moyillik o‘qituvchining ijodiy fikrlashi, kasbiy kompetentligi, motivatsiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi kabi shaxsiy sifatlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. A. Xutorskoy o‘z tadqiqotlarida evristik ta’lim konsepsiyasini ilgari surib, o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchida ijodiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish ekanligini, bu esa o‘z navbatida o‘qituvchining o‘zidan ham doimiy ijodiy izlanishda bo‘lishni talab qilishini asoslab bergan [2]. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchi yo‘nalish esa innovatsion jarayonlarni bevosita maktab darajasida boshqarish masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu guruhdagi tadqiqotlar maktabda innovatsiyalar uchun qulay bo‘lgan tashkiliy madaniyatni, qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish, maktab rahbarining bu jarayondagi roli, jamoada hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi masalalarni qamrab oladi. M. Fullanning ta’limdagi o‘zgarishlar haqidagi fundamental ishlarida ta’kidlanishicha, har qanday islohotning muvaffaqiyati uni amalga oshiruvchi shaxslarning, ya’ni o‘qituvchilarning o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabati va maktab darajasida yaratilgan qo‘llab-quvvatlash tizimiga bog‘liq [3]. Bu yondashuv innovatsiyalarni boshqarishda “yuqoridan pastga” modelidan ko‘ra, “pastdan yuqoriga” tamoyilining, ya’ni o‘qituvchilarning o‘zlarining tashabbuslarini rag‘batlantirishning samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid mavjud ilmiy manbalarni chuqur va tizimli tahlil qilish maqsadida sifat tadqiqoti metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy usullari sifatida tizimli adabiyotlar sharhi (systematic literature review) va kontent-tahlil (content analysis) tanlab olindi. Bu metodologiya mavzuga oid keng qamrovli ilmiy adabiyotlar to‘plamini shakllantirish, ularni muayyan mezonlar asosida saralash, tizimlashtirish va asosiy g‘oyalar, tendensiyalar hamda bo‘shliqlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tadqiqot korpusini, ya’ni tahlil qilinadigan ilmiy manbalar to‘plamini shakllantirish uchun ma’lumotlar bazalari va qidiruv kalit so‘zlari belgilab olindi. Asosiy qidiruv platformalari sifatida Google Scholar, Scopus, Web of Science kabi xalqaro ilmiy bazalar hamda O‘zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi ilmiy jurnallar va dissertatsiyalar elektron kataloglaridan foydalanildi. Qidiruv uchun o‘zbek, rus va ingliz tillarida "pedagogik innovatsiya", "o'qituvchi innovatsion faoliyati", "ta'limda innovatsiyalarni boshqarish", "teacher innovative activity", "management of educational innovations", "педагогическая инновация", "инновационная деятельность учителя" kabi kalit so‘zlar birikmasi qo‘llanildi. Manbalarni tanlab olishda quyidagi mezonlarga amal qilindi: nashr etilgan yili (2015–2025 yillar oralig‘i), mavzuning bevosita umumta’lim maktablari kontekstiga oidligi, ilmiy maqola, monografiya yoki dissertatsiya maqomiga ega ekanligi. Dastlabki qidiruv natijasida 200 dan ortiq manba topilgan bo‘lsa, sarlavha va annotatsiyalarni tahlil qilish orqali ularning soni 80 taga qisqartirildi va to‘liq matn bilan tanishib chiqqach, tadqiqot maqsadlariga eng mos keladigan 45 ta manba yakuniy tahlil uchun tanlab olindi. Ikkinchi bosqichda tanlangan manbalarga nisbatan kontent-tahlil o‘tkazildi. Buning uchun maxsus kodlashtirish tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi, qo‘llanilgan metodologiyasi, o‘rganilgan asosiy omillar (rag‘batlantiruvchi va to‘siq bo‘luvchi), taklif etilgan modellar va amaliy tavsiyalar kabi kategoriyalarni o‘z ichiga oldi. Har bir manba ushbu kategoriyalar bo‘yicha kodlashtirilib, ma’lumotlar maxsus matritsaga kiritildi. Bu esa, o‘z navbatida, tahlil jarayonini tizimlashtirishga va turli manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganishga yordam berdi. Tahlilning uchinchi bosqichida kodlashtirilgan ma’lumotlar asosida asosiy tendensiyalar, takrorlanuvchi mavzular va e’tibordan chetda qolgan jihatlar aniqlandi. Natijalarni umumlashtirish va sintez qilish orqali mavzuga oid ilmiy bilimlarning hozirgi holati haqida xulosalar chiqarildi.

Olib borilgan tizimli tahlil natijasida umumta'lim maktab o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy tadqiqotlarning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalari aniqlandi. Tahlil qilingan 45 ta ilmiy manba kontentini o'rganish shuni ko'rsatdiki, tadqiqotlarning asosiy qismi, ya'ni taxminan 55-60 foizi, innovatsion faoliyatning subyekti sifatida o'qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu turdagi tadqiqotlarda o'qituvchining innovatsion kompetentligi, kreativligi, motivatsiyasi, kasbiy "charchash" sindromining innovatsiyalarga ta'siri, yangiliklarga nisbatan psixologik qarshilik va uni yengish yo'llari kabi masalalar keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular innovatsion jarayonni faqatgina individual darajada ko'rib chiqish bilan cheklanib qoladi. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati faqat o'qituvchining shaxsiy sifatlariga emas, balki u faoliyat yuritayotgan tashkiliy muhitga ham chambarchas bog'liq ekanligi ko'pincha ikkinchi darajali masala sifatida qaraladi.

Tadqiqotlarning ikkinchi yirik guruhi (taxminan 25-30%) innovatsion pedagogik texnologiyalarni (masalan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar) amaliyotga joriy etishning metodik jihatlariga qaratilgan. Bu ishlarda muayyan bir texnologiyaning afzalliklari, uni dars jarayonida qo'llash bosqichlari va kutilayotgan natijalar batafsil bayon etiladi. Biroq, bu turdagi tadqiqotlarning aksariyatida yangi texnologiyani butun maktab miqyosida tarqatish, uni barqaror amaliyotga aylantirish va bu jarayonni boshqarish mexanizmlari yetarlicha ochib berilmagan. Ya'ni, innovatsiya ko'pincha alohida olingan ilg'or o'qituvchining tajribasi sifatida taqdim etiladi, lekin uni institutsional darajada joriy etishning tashkiliy-boshqaruv muammolari tahlildan chetda qoladi. Tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, bevosita innovatsion faoliyatni boshqarish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar umumiy manbalar hajmining atigi 10-15 foizini tashkil etadi. Bu esa sohada jiddiy ilmiy bo'shliq mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu kam sonli ishlarda ham asosan maktab rahbarining roli, liderlik uslublari va rag'batlantirish tizimlari kabi an'anaviy boshqaruv elementlari haqida so'z yuritiladi. Innovatsion muhitni yaratish, jamoaviy ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash, risklarni boshqarish va innovatsiyalar samaradorligini baholash kabi zamonaviy menejment masalalari chuqur o'rganilmagan. Quyida tahlil natijalarini umumlashtiruvchi jadvallar keltirilgan.

1-jadval.

Tadqiqotlarda tahlil qilingan o'qituvchilarning innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar chastotasi

Omil	Kategoriya	Tahlil qilingan manbalarda uchrash chastotasi (%)	Qisqacha tavsifi
Ma'muriy qo'llab-quvvatlash	Tashkiliy	78%	Maktab rahbariyatining yangi g'oyalarga ochiqligi, resurslar ajratishi va byurokratik to'siqlarni bartaraf etishi.
Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari	Institutsional	71%	Malaka oshirish kurslari, treninglar, seminarlar orqali o'qituvchilarga yangi bilim va ko'nikmalar berish.
O'qituvchining ichki motivatsiyasi	Shaxsiy	65%	Yangilikka intilish, kasbiy o'sishga ehtiyoj, o'z ishidan qoniqish hissi.
Hamkasblar bilan hamkorlik	Tashkiliy	62%	Jamoada sog'lom ijodiy muhit, tajriba almashish va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyatining mavjudligi.
Moddiy-texnik baza	Tizimli	55%	Zamonaviy texnologiyalar, internet, laboratoriya uskunalari va o'quv

			qurollari bilan ta’minlanganlik dara-jasi.
Ish yuklamasining yuqoriligi	Shaxsiy/Tash kiliy	48%	O‘qituvchilarning ortiqcha hisobotlar va darsdan tashqari ishlar bilan bandligi, innovatsiyalar uchun vaqt yo‘qligi.
O‘zgarishlarga qarshilik	Shaxsiy/Tash kiliy	41%	Ba’zi o‘qituvchilar va ma’muriyatning an’anaviy ish uslublariga o‘rganib qolganligi, yangiliklardan cho‘chishi.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tadqiqotchilarning aksariyati ma’muriy qo‘llab-quvvatlashni innovatsion faoliyat uchun eng muhim omil deb hisoblaydi. Bu, o‘z navbatida, maktab rahbarlarining mas’uliyatini va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi ham yuqori o‘rinda turishi innovatsiyalarni faqat tashqi bosim bilan emas, balki ichki ehtiyojlarni rag‘batlantirish orqali ham rivojlantirish kerakligini anglatadi.

2-jadval.

Tadqiq qilingan ilmiy ishlarning asosiy yo‘nalishlari va metodologik yondashuvlari

Tadqiqot yo‘nalishi	Ustunlik qiluvchi metodologiya	Ishlarning ulushi (%)	Asosiy xulosalar qisqacha
O‘qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari	So‘rovnoma, test, kuzatish (Tavsifiy)	~58%	Innovatsion faollik kreativlik, motivatsiya va kasbiy kompe-tentlik bilan bog‘liq.
Innovatsion peda-gogik texnologiya-larni joriy etish	Tajriba-sinov, metodik tahlil (Amaliy)	~27%	Muayyan texnologiyalarni qo‘llash dars samaradorligini oshiradi.
Innovatsion faoliyatni boshqarish	Nazariy tahlil, ek-spert baholash (Naz-ariy)	~15%	Maktab rahbari innovatsion ja-rayonlarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi; rag‘batlantirish tizimi muhim.

Ikkinchi jadval metodologik jihatdan mavjud tadqiqotlar o‘rtasida nomutanosiblik borligini yaqqol namoyon etadi. Aksariyat ishlar tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, ular muammoning holatini aniqlash bilan cheklanadi. Innovatsion boshqaruvning samarali modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda sinab ko‘rishga qaratilgan fundamental, empirik tadqiqotlar, xususan, longityud (uzoq muddatli) yoki qiyosiy tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Bu esa sohadagi ilmiy bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishida uzilishlarga sabab bo‘lmoqda.

Olingan natijalar umumta’lim maktab o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini o‘rganish va boshqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlarda bir qancha muhim jihatlarni muhokama qilish imkonini beradi. Birinchidan, tadqiqotlarda "innovatsiya" tushunchasiga yondashuvlarda sezilarli darajada fragmentarlik kuzatiladi. Ko‘plab mualliflar innovatsiyani asosan yangi texnologiya yoki metodni qo‘llash sifatida tor doirada talqin qiladilar. Vaholanki, haqiqiy pedagogik innovatsiya nafaqat o‘qitish usullarini, balki o‘quv dasturlari mazmunini, baholash tizimini, o‘quvchilar bilan munosabatlarni va butun maktab madaniyatini o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan kompleks jarayondir. Tahlilimiz shuni ko‘rsatdiki, innovatsiyaning bu tizimli tabiati va uni boshqarishning murakkabligi ko‘pchilik tadqiqotlarda e’tibordan chetda qolgan. Bu holat M. Fullanning ta’limdagi o‘zgarishlar bir vaqtning o‘zida ham texnik, ham madaniy, ham siyosiy jihatlarga ega ekanligi haqidagi g‘oyalari bilan hamohangdir [3]. Demak, kelgusi tadqiqotlar innovatsiyaga alohida element sifatida emas, balki maktab ekotizimining ajralmas qismi sifatida yondashishi va uning barcha komponentlarga ta’sirini o‘rganishi lozim.

Ikkinchidan, tadqiqotlarning aksariyatida diqqat markazi o‘qituvchining shaxsiyatiga qaratilgani, bir tomondan, uning rolini e’tirof etish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, innovatsiyalarning muvaffaqiyatsizligi uchun mas’uliyatni ham bilvosita uning zimmasiga yuklaydi. Natijalarimizda aks etganidek, ma’muriy qo‘llab-quvvatlash, hamkasblar bilan hamkorlik va resurslar kabi tashkiliy omillarning muhimligi ko‘p bor ta’kidlansa-da, bu omillarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganuvchi va ularni boshqarishning amaliy modellarini taklif etuvchi tadqiqotlar juda kam. Ya’ni, “innovatsion o‘qituvchini qanday tayyorlash kerak?” degan savolga javob izlangan, ammo “innovatsion o‘qituvchi samarali faoliyat yuritishi uchun qanday tashkilotni (maktabni) qurish kerak?” degan savol ochiq qolmoqda. Bu esa innovatsiyalarni boshqarishda individualistik yondashuvdan tizimli-tashkiliy yondashuvga o‘tish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

Uchinchidan, metodologik cheklanishlar ham muhim muhokama mavzusidir. So‘rovnoma va tavsifiy metodlarning keng qo‘llanilishi mavjud vaziyatni yuzaki tasvirlash imkonini beradi, lekin sabab-oqibat bog‘lanishlarini chuqur tahlil qilish uchun yetarli emas. Masalan, ma’muriy qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchilarning innovatsion faolligi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi ko‘plab tadqiqotlarda aytiladi. Ammo bu qo‘llab-quvvatlashning qanday shakllari (masalan, metodik yordam, moliyaviy rag‘batlantirish, erkinlik berish) qaysi vaziyatlarda samaraliroq ekanligini aniqlash uchun case-study (vaziyatni tahlil qilish), eksperimental yoki qiyosiy tadqiqotlar kabi chuqurroq metodlar zarur. Ilmiy adabiyotlarda bu kabi empirik asoslangan dalillarning kamligi amaliyotchilar, ya’ni maktab rahbarlari uchun aniq va ishonchli tavsiyalar ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktab o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu soha ilmiy jamoatchilikning diqqat markazida bo‘lishiga qaramay, mavjud izlanishlar asosan muammoning ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, yaxlit va tizimli yondashuv yetishmaydi. Tadqiqotlarning aksariyati o‘qituvchining individual xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy, institutsional va tizimli mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan. Metodologik jihatdan tavsifiy va so‘rovnomaga asoslangan tadqiqotlar ustunlik qilishi sohadagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini chuqur anglashga va amaliyot uchun asosli modellar yaratishga to‘sqinlik qilmoqda. Tahlil natijasida aniqlangan asosiy bo‘shliqlar – bu innovatsiyalarni boshqarishning maktab sharoitiga moslashtirilgan kompleks modellarining yo‘qligi, innovatsion muhitni shakllantirish va uni barqaror rivojlantirishning amaliy mexanizmlari bo‘yicha empirik tadqiqotlarning kamligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Slastenin, V. A., & Podymova, L. S. (2012). Pedagogika: Innovatsionnaya deyatelnost [Pedagogy: Innovative activity]. Izdatelskiy tsentr "Akademiya".

2. Khutorskoy, A. V. (2003). Didakticheskaya evristika: Teoriya i tekhnologiya kreativnogo obucheniya [Didactic heuristics: Theory and technology of creative learning]. Izdatelstvo MGU.

3. Fullan, M. (2016). The new meaning of educational change (5th ed.). Teachers College Press.

4. Muslimov, N. A., & Usmonboeva, M. H. (2016). Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti.

5. Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). Professional capital: Transforming teaching in every school. Teachers College Press.

6. Begimqulov, U. Sh. (2017). Pedagogik ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. "Fan" nashriyoti.

Esanova Lobar Kulmuratovna
Navoiy davlat universiteti, san'at va sport fakulteti o'qituvchisi

TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA UYG'UNLIGIDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI (TALABALAR MISOLIDA)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishda tasviriy san'at va musiqa uyg'unligining psixologik hamda pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Estetik madaniyat shaxsning badiiy didi, ijodiy tafakkuri va ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. San'at turlarining uyg'unligi talabalarda estetik sezgirlik, ijodiy faoliyatga qiziqish va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni kuchaytirishi ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada talabalarning estetik rivojlanishida integrativ yondashuvning afzalliklari, psixologik determinantlari hamda pedagogik shart-sharoitlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, musiqa, estetik madaniyat, talaba, psixologik asoslar, pedagogik asoslar, ijodiy tafakkur, ma'naviy qadriyatlar.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ГАРМОНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И МУЗЫКИ (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ)

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические и педагогические основы развития эстетической культуры у студентов посредством синтеза изобразительного искусства и музыки. Эстетическая культура интерпретируется как важный фактор формирования художественного вкуса, творческого мышления и духовно-нравственных взглядов личности. Подчеркивается, что гармония различных видов искусства усиливает эстетическую восприимчивость студентов, повышает интерес к творческой деятельности и способствует осознанному отношению к духовным ценностям. В статье также раскрываются преимущества интегративного подхода, психологические детерминанты и педагогические условия эстетического развития студентов.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, музыка, эстетическая культура, студент, психологические основы, педагогические основы, творческое мышление, духовные ценности.*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE THROUGH THE INTEGRATION OF VISUAL ARTS AND MUSIC (A CASE STUDY OF STUDENTS)

Abstract. *This article examines the psychological and pedagogical foundations of developing students' aesthetic culture through the integration of visual arts and music. Aesthetic culture is interpreted as a crucial factor in shaping artistic taste, creative thinking, and the moral-spiritual outlook of the individual. The study emphasizes that the harmony of art forms enhances students' aesthetic sensitivity, stimulates interest in creative activities, and fosters a conscious attitude toward spiritual values. The article also highlights the advantages of an integrative approach, its psychological determinants, and pedagogical conditions in promoting students' aesthetic development.*

Key words: *visual arts, music, aesthetic culture, student, psychological foundations, pedagogical foundations, creative thinking, spiritual values.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan davrda yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Estetik madaniyat shaxsning nafaqat badiiy didi va ijodiy qobiliyatini, balki uning ma'naviy-axloqiy qarashlari, hayotga bo'lgan ongli munosabatini belgilovchi muhim sifat hisoblanadi. Bu jarayon

ta’lim-tarbiya tizimida o‘ziga xos yondashuvlarni, yangicha metodlarni va ijodiy integratsiyani talab qiladi. Shu nuqtai nazardan tasviriy san’at va musiqaning uyg‘unligi orqali estetik madaniyatni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaralmoqda.

San’at turlari insonning ichki dunyosini boyituvchi, estetik his-tuyg‘ularini uyg‘otuvchi va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlovchi kuchga ega. Tasviriy san’at orqali inson voqelikni badiiy obrazlarda aks ettirsa, musiqa ruhiy kechinmalarni ohanglar orqali ifodalaydi. Ularning uyg‘unligi shaxsning estetik sezgirligini oshiradi, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va ma’naviy olamini yanada boyitadi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, mazkur davrda san’at vositasida estetik tarbiya jarayonini samarali tashkil etish kelajak avlodning barkamol bo‘lib yetishishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, estetik madaniyatni shakllantirish jarayoni o‘quvchilarning san’atni idrok etish, badiiy asarlarni tahlil qilish va ijodiy faoliyatda ishtirok etish orqali amalga oshadi. Psixologik jihatdan esa, bu jarayon shaxsning emotsional-intellektual rivojlanishi, estetik qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasi va ijodiy salohiyatining ochilishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, tasviriy san’at va musiqani integratsiyalashgan holda qo‘llash estetik tarbiya samaradorligini oshiradi, talabalarda ijodiy tashabbuskorlik va estetik didni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shunday qilib, mazkur mavzuni ilmiy o‘rganish estetik madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini aniqlash, san’at turlarining uyg‘unlikdagi o‘rni va ahamiyatini yoritish, shuningdek, talabalarda ma’naviy-estetik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, estetik madaniyatni rivojlantirish masalasi bir qancha nazariy maktablar va empirik tadqiqotlar orqali kompleks tarzda o‘rganilgan. Mahalliy tadqiqotchilarning ishlari talabalarda milliy madaniy meros va zamonaviy badiiy amaliyotlar orqali estetik didni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular tasviriy san’at va musiqa integratsiyasini ta’lim jarayonida qo‘llashning mintaqaviy xususiyatlarini ochib beradi. Mahalliy mualliflar (masalan, A. Karimov, L. Ismoilova, N. Ergashev kabi tadqiqotchilar) o‘tkazgan tadqiqotlar talabalarning estetik sezgirligi va badiiy tasavvurini oshirishda amaliy mashg‘ulotlar, multimediya vositalari va loyihaviy ishlarning samaradorligini ko‘rsatadi; ular shuningdek, milliy uslub va madaniy identifikatsiyani saqlagan holda kreativlikni rag‘batlantirish tamoyillarini taklif etadilar.

Rus olimlari nazariy manbalari bu jarayonni psixologik va pedagogik kontekstda chuqurroq asoslab beradi. L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi san’at va musiqa orqali ichki psixik jarayonlarning rivojlanishini, ayniqsa ijtimoiy o‘zaro ta’sir va o‘qituvchi — talabalar dialogi orqali yuqori psixik funksiyalarning shakllanishini izohlaydi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasi esa ijodiy faoliyatni maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat tizimi sifatida ko‘rib, tasviriy san’at va musiqaning uyg‘unligi o‘quvchilarning motivatsiyasini mustahkamlash va mazmunli faoliyatga jalb etishda samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Rus pedagogika maktabida shuningdek san’at pedagogikasi va musiqiy tarbiya masalalarini tadqiq qilgan amaliy ishlar mavjud; ular integratsiyalashgan dars metodikalarining metodologik asoslarini va o‘quv natijalarini baholash usullarini taklif etadi.

Xorijiy adabiyotlarda integrativ yondashuvlar va estetik tarbiya haqidagi jiddiy tadqiqotlar mavjud. Masalan, Viktor Lowenfeldning san’at ta’limi konsepsiyalari talabalarning badiiy ifoda va vizual tafakkur rivojlanishiga qaratilgan pedagogik printsiplarni taklif etadi; u tasviriy ijodiyotning etakchi bosqichlari va o‘quv jarayonidagi emotsional-kognitiv komponentlarni yoritadi. Musiqiy ta’lim sohasida Bennet Reimer va David Hargreaves kabi olimlar estetik musiqiy tarbiya nazariyasini ilgari surib, musiqaning shaxsiy va hissiy qadriyatlarga ta’siri, shuningdek, musiqa orqali ma’naviy va estetik onglikni shakllantirish mexanizmlarini ta’kidlaganlar. Howard Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasi badiiy va musiqiy kompetensiyalarni shaxsning umumiy rivojlanishidagi teng huquqli komponent sifatida ko‘rib, pedagogik dasturlarda ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurligini dalillaydi.

Empirik tadqiqotlar integratsiyalashgan san’at va musiqa pedagogikasining ijobiy natijalarini tasdiqlaydi. Xorijiy tadqiqotlarga ko‘ra, integratsiyalangan darslar talabalar ijodiy fikrlashi, estetik sezgirligi va empatik qobiliyatlarini oshiradi; bular esa o‘z navbatida ta’lim motivatsiyasini va intellektual faollikni kuchaytiradi. Mahalliy tadqiqotlar ham shunga o‘xshash natijalarni ko‘rsatib,

milliy estetik qiymatlarni darsga integratsiyalash talabalar orasida madaniy identitet va o‘zini-o‘zi tasdiqlashni mustahkamlashda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, adabiyotlarda psixologik determinantlar — his-tuyg‘u boshqaruvi, estetik empatiya, kreativ motivatsiya va mazmunli refleksiya — alohida ta’kidlangan. Tasviriy san’at orqali vizual simbolika va badiiy obrazlar bilan ishlash talabalarda vizual tasavvur va emotsional inkorporatsiyani rag‘batlantiradi, musiqa esa kayfiyatni shakllantiruvchi va his-tuyg‘ularni tartibga soluvchi vosita sifatida estetik tajribani chuqurlashtiradi. Adabiyotlar muvofiq ravishda shuni ko‘rsatadiki, ikki san’at turining uyg‘unligi — multimodal ta’sir orqali — talabada estetik baholash mehanizmini rivojlantirib, badiiy asarlarni tahlil qilish va o‘z ijodiy mahsulotini yaratish qobiliyatlarini yaxshilaydi.

Pedagogik jihatdan qaralganda, adabiyotlar integratsiyalashgan dasturlarni yaratishda quyidagi tamoyillarni uzluksiz ravishda takrorlaydi: darsning interaktiv va loyiha asosida tashkil etilishi; talabaning sub’ektiv tajribasini markazga qo‘yish; madaniy kontekst va milliy an’analarni hisobga olish; baholashning formatli va reflektiv usullarini qo‘llash. Mahalliy mualliflar bularga qo‘shimcha ravishda o‘quv-metodik materiallarni milliy badiiy meros bilan bog‘lash, amaliy ijodiy laboratoriyalar tashkil etish va ijodiy ko‘rgazmalar orqali talabalar ijodini namoyish etish zarurligini ta’kidlaydilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligini tasdiqlasa-da, ma’lum bo‘shliqlar ham mavjud. Jumladan, ko‘plab tadqiqotlar qisqa muddatli interventsiyalar asosida olib borilgan va ularning uzoq muddatli ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, talabalarning estetik madaniyatini baholashda standartlashtirilgan vositalarning yetishmasligi, multimodal baholash kriteriyalarining noaniqligi va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda metodologik moslashuvlar zarurligi qayd etilgan.

Tasviriy san’at va musiqa uyg‘unligida estetik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari adabiyotlarda keng yoritilgan va ular psixologik-pedagogik jihatdan mustahkam asosga ega. Eng samarali yondashuv — bu nazariy bilimlar (madaniy-tarixiy, faoliyat, moral va estetik nazariyalar) bilan amaliy metodlarni (integratsiyalashgan darslar, loyiha ishlari, reflektiv baholash) uyg‘unlashtirishdir. Kelajak tadqiqotlari uchun tavsiya etiladiki, uzoq muddatli, keng qamrovli va madaniy jihatdan sezgir tadqiqotlar o‘tkazilib, baholash instrumentlarini rivojlantirish va pedagogik tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalar estetik madaniyatini barqaror shakllantirish bo‘yicha yangi bilimlar yaratilishi lozim.

Muhokama. Estetik madaniyatni shakllantirish masalasi bugungi ta’lim jarayonining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Talabalar yosh davri shaxsning badiiy didi, ijodiy tafakkuri va ma’naviy qadriyatlari intensiv shakllanadigan bosqich bo‘lib, mazkur davrda san’atning turli shakllaridan maqsadli foydalanish orqali estetik rivojlanishga samarali ta’sir ko‘rsatish mumkin. Tasviriy san’at va musiqaning uyg‘unligi bu jarayonda o‘ziga xos integrativ ta’limiy vosita sifatida talqin qilinadi, chunki ular birgalikda nafaqat hissiy-estetik sezgirlikni oshiradi, balki kognitiv jarayonlar, refleksiya va ijodiy motivatsiyani ham rivojlantiradi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, tasviriy san’at vizual obrazlar va ramzlar orqali talabada tasavvur, emotsional idrok va assotsiativ tafakkurni kuchaytirsa, musiqa ohang va ritm vositasida ruhiy kechinmalarni boshqarish, kayfiyatni shakllantirish va emotsional muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu ikki san’at turi birgalikda qo‘llanganda, multimodal idrok va murakkab hissiy tajribalar uyg‘unlashadi, bu esa estetik sezgirlikni yanada chuqurlashtiradi. Shuningdek, talabaning san’atni idrok etish jarayonida empatiya, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish qobiliyati, estetik baholash va shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlari faollashadi.

Pedagogik jihatdan, tasviriy san’at va musiqaning uyg‘unligi asosida tashkil etilgan darslar interaktivlikni oshiradi, o‘quvchilarda hamkorlik, jamoaviy ijod va loyiha asosida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini biryoqlama bilim berishdan ko‘ra ko‘proq tajriba almashishga, his-tuyg‘ularni ifodalashga va ijodiy mahsulot yaratishga yo‘naltiradi. Bu esa estetik tarbiyaning nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyat orqali ham mustahkamlanishini ta’minlaydi. Shu ma’noda, integrativ ta’lim talabalarni san’atni idrok etuvchi passiv tomoshabindan ijodiy faol ishtirokchiga aylantiradi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash kerakki, estetik madaniyatni rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlar va zamonaviy san'at shakllarining uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Talabalar milliy meros namunalarini zamonaviy san'at uslublari bilan uyg'unlashtirganida, ularda nafaqat estetik did, balki milliy identitet va ma'naviy o'zlik hissi ham mustahkamlanadi. Shu bilan birga, global san'at oqimlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi talabalarda keng qamrovli estetik dunyoqarash shakllanishiga sharoit yaratadi.

Muhokama qilingan adabiyotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at va musiqaning uyg'unligi estetik madaniyatni rivojlantirishda samarali bo'lsa-da, bu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun tizimli metodik yondashuvlar, uzluksiz monitoring va standartlashtirilgan baholash mezonlari zarur. Aks holda, estetik tarbiya fragmentar, qisqa muddatli va natijasi barqaror bo'lmagan shaklda qolishi mumkin. Shu sababli, integrativ san'at ta'limi nafaqat alohida pedagogik metod sifatida, balki keng qamrovli ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Muhokama natijalari ko'rsatadiki, tasviriy san'at va musiqaning uyg'unligi talabalar estetik madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib, bu jarayon psixologik determinantlar (hissiy idrok, estetik empatiya, ijodiy motivatsiya) va pedagogik shart-sharoitlar (integrativ metodika, interaktiv faoliyat, milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligi) o'zaro ta'siri orqali amalga oshadi. Mazkur yondashuv ta'lim tizimida estetik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini boyitibgina qolmay, balki amaliy jihatdan ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy izlanishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at va musiqaning uyg'unligi talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishning samarali yo'llaridan biridir. Estetik madaniyat shaxsning ichki dunyosini boyituvchi, ijodiy tafakkurini kengaytiruvchi va ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlovchi jarayon sifatida pedagogik ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Tasviriy san'at obrazlar, ramzlar va ranglar orqali idrokni, musiqaning ohang va ritmlari esa his-tuyg'ularni tartibga solish orqali estetik sezgirlikni shakllantiradi. Ularning uyg'unligi esa talabaning emotsional-intellektual rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlaydi.

Psixologik jihatdan qaralganda, san'atning ikki turi o'zaro uyg'unlashganda talabada estetik empatiya, his-tuyg'ularni boshqarish, ijodiy motivatsiya va reflektiv tafakkur kuchayadi. Pedagogik jihatdan esa, bunday integratsiyalashgan yondashuv talabalarning dars jarayonidagi faol ishtirokini, ijodiy tashabbuskorligini va badiiy baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida estetik tarbiyani nafaqat nazariy bilim berish bilan, balki amaliy faoliyat orqali ham mustahkamlash imkonini yaratadi.

Shuningdek, tasviriy san'at va musiqani uyg'unlikda qo'llash milliy qadriyatlarni chuqurroq anglash va zamonaviy estetik yondashuvlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon talabalarda nafaqat badiiy didni, balki milliy identitet, madaniy xotira va ma'naviy o'zlikni ham shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at va musiqaning uyg'unligi asosida estetik madaniyatni rivojlantirish talabalar shaxsiy rivojida hal qiluvchi omil bo'lib, ularning ma'naviy barkamollikka erishishida, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda va keng estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim metodologik hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim tizimida estetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan integrativ yondashuvlar uzluksiz ravishda qo'llanilishi va pedagogik amaliyotda yanada takomillashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Jo'rayev, M. (2019). Estetik tarbiya va san'atshunoslik asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 240 bet.

2. Abduqodirov, A. (2020). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Noshir", 310 bet.

3. Ismoilova, G. (2018). San'at ta'limida innovatsion metodlar. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 198 bet.

4. Karimova, N. (2021). Yoshlar estetik madaniyatini shakllantirishning psixologik asoslari. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 276 bet.

5. To‘xtayev, B. (2017). Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 210 bet.
6. Каган, М.С. (1997). Философия культуры. – Санкт-Петербург: Питер, 416 с.
7. Выготский, Л.С. (1984). Психология искусства. – Москва: Искусство, 350 с.
8. Бычков, В.В. (2005). Эстетика. – Москва: Академический проект, 544 с.
9. Давыдов, В.В. (2000). Теория развивающего обучения. – Москва: Интеллект-Центр, 384 с.
10. Лихачев, Б.Т. (2001). Педагогика: курс лекций. – Москва: Владос, 432 с.
11. Dewey, J. (1934). Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Company, 355 p.
12. Gardner, H. (1990). Art Education and Human Development. – Los Angeles: Getty Publications, 212 p.
13. Eisner, E. (2002). The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 280 p.

Karimov Eldor Erkinovich
Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 1-son politexnikum direktori

YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA TAYYORLASHDA DUAL TA’LIMDAN FOYDALANISH JARAYONINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv va texnologik inqiloblar sharoitida O‘zbekiston professional ta’lim tizimi oldida turgan muhim muammolardan biri – yoshlarni mehnat bozori talablariga mos, zamonaviy kasblarga tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada kasbiy ta’lim samaradorligini oshirishda nazariy bilimlar amaliy ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘lanishini ta’minlovchi dual ta’lim tizimini boshqarishning strategik yo‘nalishlari chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, dual ta’lim jarayonini boshqarishda ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasidagi sheriklik mexanizmlari, o‘quv jarayonini raqamlashtirish hamda pedagoglarning malakasini uzluksiz oshirish kabi strategik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etishi empirik tahlillar asosida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *dual ta’lim, kasbiy ta’lim, boshqaruv strategiyalari, yoshlarni tayyorlash, korxona-ta’lim hamkorligi, mehnat bozori.*

СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ К СОВРЕМЕННЫМ ПРОФЕССИЯМ

Аннотация. Данная статья посвящена *одной* из важнейших проблем, стоящих перед системой профессионального образования Узбекистана *в* условиях глобализации и технологических революций, – повышению качества и эффективности подготовки молодежи *к* современным профессиям, соответствующим требованиям рынка труда. *В* статье *проведен* углубленный анализ стратегических направлений управления системой двойного образования, обеспечивающих неразрывную связь теоретических знаний с практическими навыками *в* повышении эффективности профессионального обучения. *В* то же *время на* основе эмпирического анализа показано*, что в* управлении процессом двойного образования важное значение приобретают такие стратегические подходы*, как* механизмы партнерства между образовательными учреждениями и предприятиями, цифровизация образовательного процесса *и* непрерывное повышение квалификации педагогов.

Ключевые слова: двойное образование, профессиональное образование, стратегии управления, обучение молодежи, сотрудничество *между* предприятием *и* образованием, рынок труда.

STRATEGIES FOR MANAGING THE PROCESS OF USING DUAL EDUCATION IN PREPARING YOUTH FOR MODERN PROFESSIONS

Annotation. In this article, one of the important problems facing the professional education system of Uzbekistan in the context of globalization and technological revolutions is the issue of improving the quality and efficiency of training young people for modern professions in accordance with the requirements of the labor market. The article provides an in-depth analysis of strategic directions for the management of the dual education system, which ensures that theoretical knowledge is inextricably linked with practical skills in improving the effectiveness of professional education. At the same time, the importance of strategic approaches such as partnership mechanisms between educational institutions and enterprises, digitization of the educational process and continuous improvement of the skills of educators in the management of the dual educational process is shown on the basis of empirical analysis.

Key words: dual education, professional education, management strategies, youth training, enterprise-educational cooperation, labor market.

Kirish. XXI asr insoniyat taraqqiyotini misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan o‘zgartirayotgan, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy transformasiyalar davri bo‘lib, bu o‘zgarishlar mehnat bozoriga qo‘yiladigan talablarning tubdan yangilanishiga olib kelmoqda. An’anaviy kasbiy ta’lim tizimi ko‘pincha nazariy bilimlarga haddan tashqari ko‘p e’tibor qaratish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda esa zaifliklar ko‘rsatishi sababli, yosh mutaxassislarning zamonaviy ishlab chiqarish ehtiyojlariga to‘liq mos kelmasligi muammosi tobora dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va yoshlar bandligini ta’minlash masalalari bevosita kasbiy ta’lim sifatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda, shu bois, malakali kadrlar tayyorlashning yangicha, samarali yondashuvlarini joriy etishga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshgan.

Shu nuqtai nazardan, dual ta’lim tizimi nazariya va amaliyotni bevosita ishlab chiqarish sharoitida uyg‘unlashtiruvchi model sifatida kasbiy ta’lim sifatini oshirishning strategik yechimi sifatida butun dunyo bo‘ylab e’tirof etilmoqda va O‘zbekistonda ham uni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq, bu progressiv tizimni oddiygina joriy etishning o‘zi yetarli emas; uning samarali ishlashi, barqarorligi va keng miqyosda qo‘llanilishi uchun puxta o‘ylangan, ilmiy asoslangan boshqaruv strategiyalari talab etiladi. Dual ta’limda ta’lim muassasasi, korxona va talaba o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning murakkab tizimi vujudga keladi, bu esa boshqaruvda o‘ziga xos yondashuvlarni, xususan, turli manfaatdor tomonlarning maqsadlarini muvofiqlashtirish, o‘quv jarayonining korxona sharoitlariga moslashuvchanligini ta’minlash va o‘qitish sifatini nazorat qilish mexanizmlarini yaratishni talab qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, dual ta’limning nazariy asoslari va umumiy afzalliklari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston professional ta’limi sharoitida, ayniqsa, mintaqaviy o‘ziga xosliklarni (Buxoro, Qarshi, Farg‘ona) inobatga olgan holda uning boshqaruv strategiyalari va ular samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar chuqur empirik tahlil qilinmagan. Shuningdek, mavjud boshqaruv amaliyotlarini tizimli ravishda baholash va ularni optimallashtirish bo‘yicha aniq, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati sezilmoqda. Mazkur tadqiqotning **asosiy maqsadi** dual ta’limdan foydalanish jarayonini boshqarishning eng samarali strategiyalarini aniqlash, ularni O‘zbekiston kasbiy ta’lim tizimiga implementatsiya qilishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda bu jarayonning talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatiga ta’sirini baholashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun Buxoro, Qarshi va Farg‘ona professional ta’lim muassasalarining talabalari, pedagoglari va korxona vakillari ishtirokida keng qamrovli empirik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari dual ta’lim tizimining mamlakat miqyosida barqaror va samarali ishlashini ta’minlashga, pirovardida esa zamonaviy mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar yetkazib berishga xizmat qiladi.

Mavzu metodologiyasi. Dual ta’lim tizimi XX asrning o‘rtalaridan boshlab Germaniya, Avstriya va Shveycariya kabi davlatlarda kasbiy ta’limning eng samarali va e’tirof etilgan shakli sifatida rivojlanib kelmoqda, uning nazariy asoslari va amaliy samaradorligi ko‘plab xalqaro tadqiqotlar obyekti bo‘lgan [1]. Dual ta’lim modelining nazariy asosi Degsyumerning kognitiv yuk nazariyasi hamda J. Dyuyining progressiv pedagogikasi g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda o‘rganish bevosita amaliy faoliyat jarayonida, haqiqiy mehnat sharoitida amalga oshiriladi, bu esa bilimlarning mustahkamlanishi va ko‘nikmalarning tez shakllanishiga zamin yaratadi [2]. Bu yondashuv, nazariy bilimlar va amaliyot o‘rtasidagi an’anaviy tafovutni bartaraf etib, talabalarga o‘qishni tugatmasdan avval korxona madaniyati va ish jarayonlariga to‘liq integratsiyalashish imkonini beradi, bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatlarini keskin oshiradi [3].

Dual ta'lim tizimi[1] – bu o'quv jarayonini ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o'rtasida integratsiyalashgan holda tashkil etish. Bu tizimda o'quvchilar nazariy bilim bilan bir

[1] Mualliflik yondashuvi

qatorda amaliy ko'nikmalarni ham olib boradilar. Yoshlarga zamonaviy kasblarga tayyorlash jarayonida dual ta'limdan samarali foydalanish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar va strategiyalarni ko'rib chiqish mumkin:

1. O'quv dasturlarini ishlab chiqish - nazariy va amaliy ma'ruzalarni uyg'unlashtirish, ўquv dasturlarida nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalar bilan birga berilishi kerak. O'zaro integratsiya асосида ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatilishi lozim, shunda o'quv dasturlari soha talablariga mos bo'ladi.

2. Sifatli amaliy o'rganish muhitini yaratish - shart-sharoitlarni muvofiqlashtirish jarayonida o‘quvchilarga amaliy shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalar bilan ta'minlash, mentorlik tizimini joriy etish, yangi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida tajribali mutaxassislar mentorlar sifatida o'quvchilarga ko'maklashishlari zarur.

3. Fikr almashish va tajriba oshirish - seminarlarga va treninglarga jalb qilish davomida o‘quvchilarni malaka oshirish tadbirlariga jalb etish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini berish, o‘quvchilarning ishlab chiqarish korxonalarida stajirovka o‘tashi, shu orqali amaliy tajriba to‘plashlari uchun imkoniyatlar yaratishga erishish talab etiladi.

4. Monitoring va baholash tizimini joriy etish - o‘quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini baholash uchun aniq mezonlar va metodologiyalar ishlab chiqilish orqali o'quvchilarning qanday ko'nikmalarga ega ekanligini aniqlash, har bir o'quv jarayoni natijalarini tahlil qilib, zarur o'zgarishlarni amalga oshirish, sifatni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish kerak.

5. Yoshlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash - o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlash jarayonida rag'batlantirish va motivatsiya qilish, ularning kelajakdagi kariyeralari uchun muhimligi nuqtayi nazaridan boshqaruv strategiyalarini o'zgartirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv va tashkilotchilik yondoshuvlarini yangilash kabi vazifalarni e’tiborga olish lozim.

Mavzu muhokamasi. Dual ta’lim tizimining samaradorligi uning boshqaruv mexanizmlariga bevosita bog‘liqdir. Xalqaro tajriba tahlillari shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv bir nechta asosiy komponentlarga tayanadi. Birinchidan, bu korxona va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi mustahkam, huquqiy asoslangan sheriklik bo‘lib, bunda har ikki tomonning majburiyatlari, javobgarliklari va resurslar taqsimoti aniq belgilab qo‘yiladi [4]. Masalan, G. Valter va A. Teylorning tadqiqotlari (2018) shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va baholash jarayonlariga bevosita jalb qilinishi ta’lim mazmunining mehnat bozori talablariga mos kelishini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [5]. Ikkinchidan, dual ta’lim sifatini boshqarishda standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi muhim o‘rin tutadi. Kasbiy standartlar va malaka talablarining yagona tizimini yaratish, ta’lim natijalarining butun mamlakat miqyosida tan olinishini ta’minlaydi, bu esa yoshlarning mobilligi va raqobatbardoshligini oshiradi [6]. Ushbu jihat, ayniqsa, O‘zbekiston kabi markazlashgan boshqaruv tajribasiga ega mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u markaziy va mintaqaviy darajadagi boshqaruvning optimal muvozanatini topishni talab qiladi.

Dual ta’lim jarayonini boshqarishda mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olish masalasi L. Smit (2020) tomonidan keng yoritilgan bo‘lib, u turli iqtisodiy klasterlar va sanoat ehtiyojlariga moslashuvchan boshqaruv modellarini yaratish zarurligini ta’kidlaydi [7]. Bizning tadqiqot hududlarimiz – Buxoro (turizm, kichik biznes), Qarshi (neft-gaz, qishloq xo‘jaligi) va Farg‘ona (kimyo, to‘qimachilik) – iqtisodiy profillarining turlichaligi bu hududlarda dual ta’lim strategiyalarini farqli ravishda boshqarishni talab qiladi. Masalan, Qarshidagi neft-gaz sanoati uchun yuqori texnologik va xavfsizlik standartlariga asoslangan, qat’iy boshqaruv talab qilinsa, Buxorodagi turizm sohasi uchun ko‘proq mijozlarga yo‘naltirilgan, soft skillsni rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan boshqaruv yondashuvlari samarali bo‘lishi mumkin [8].

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning dual ta’limni boshqarishga integratsiyalashuvi strategik ahamiyat kasb etmoqda [9]. L. Vang va S. Xou (2022) o‘z tadqiqotlarida dual ta’limdagi barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini, amaliy topshiriqlarni masofadan

turib nazorat qilishni va o‘quvchi portfellarini yuritishni ta’minlovchi raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish samaradorligini isbotladilar [10]. Bunday platformalar o‘quv jarayonining shaffofligini oshiradi, korxona ustalarining vaqtini tejaydi va o‘quv natijalarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida, bu strategiya, ayniqsa, uzoq masofada joylashgan korxonalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni osonlashtirish uchun muhim hisoblanadi.

Pedagogik kadrlar va korxona ustalarini tayyorlash dual ta’lim boshqaruvining yana bir markaziy masalasidir [11]. X. Müllerning (2019) tadqiqotlari dual ta’lim samaradorligini ta’minlovchi kalit omil, bu o‘qituvchi va korxona ustalarining metodik va didaktik kompetensiyasi ekanligini ta’kidlaydi [12]. Ular nafaqat o‘z kasbining mutaxassisi bo‘lishi, balki pedagogik va mentorlik ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Boshqaruv strategiyalari bu ikki guruh mutaxassislarning uzluksiz malakasini oshirish, ularning birgalikda o‘quv modullarini ishlab chiqishini tashkil etish va ularga yetarli motivatsion rag‘batlantirish tizimini yaratishni o‘z ichiga olishi zarur [13]. Jumladan, dual ta’limning moliyaviy barqarorligi ham boshqaruv strategiyalarida hal etilishi kerak bo‘lgan jiddiy muammodir. M. Garsiya (2021) o‘z ishida dual ta’limni moliyalashtirishning turli modellarini ko‘rib chiqadi, bunda davlat subsidiyalari, korxona investisiyalari va talabalar uchun grantlar kabi aralash moliyalashtirish mexanizmlari eng barqaror ekanligini ta’kidlaydi [14]. O‘zbekiston sharoitida soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali korxonalarni dual ta’limga jalb qilish, ularning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish muhim boshqaruv strategiyasi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi dual ta’limni samarali boshqarish kompleks va ko‘p darajali strategiyalarni talab qilishini ko‘rsatadi, bular: sheriklikni huquqiy mustahkamlash, ta’lim mazmunini standartlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, mintaqaviy iqtisodiy talablarga moslashish va kadrlar malakasini uzluksiz oshirishdan iboratdir. Ushbu tadqiqot ana shu strategiyalarning O‘zbekistonning aniq mintaqalaridagi professional ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini empirik o‘rganish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot aralash metodologiya (Mixed Methods) yondashuviga asoslanadi, ya’ni tadqiqot savollariga yanada chuqur va keng qamrovli javoblar olish maqsadida sifat (qualitative) va miqdor (quantitative) usullari uyg‘unlikda qo‘llanildi. Tadqiqotning dizayni tushuntirishga asoslangan izchil dizayn (Explanatory Sequential Design) bo‘lib, dastlab miqdoriy ma’lumotlar yig‘ilib, tahlil qilindi, so‘ngra olingan natijalarni chuqurroq izohlash uchun sifat ma’lumotlari to‘plandi.

Tadqiqot O‘zbekistonning uchta yirik iqtisodiy mintaqasi – Buxoro, Qarshi va Farg‘ona viloyatlari professional ta’lim muassasalarining dual ta’lim dasturlarida ishtirok etayotgan talabalari o‘rtasida o‘tkazildi. Umumiy ishtirokchilar soni 620 nafar talabani tashkil etdi, ular quyidagi taqsimotga ega bo‘ldi:

1. Buxoro: 170 nafar talaba.
2. Qarshi: 240 nafar talaba.
3. Farg‘ona: 210 nafar talaba.

Namuna maqsadli namunalash (Purposive Sampling) usuli bilan shakllantirildi, bunda faqatgina dual ta’lim dasturlariga qabul qilingan va kamida bir semestr davomida amaliyotni korxonada o‘tagan talabalar tanlab olindi. Bundan tashqari, 30 nafar pedagog va 30 nafar korxona ustasi (har bir viloyatdan 10 tadan) bilan intervyu o‘tkazildi.

Ma’lumotlar yig‘ish asboblari

1. Miqdoriy ma’lumotlar (so‘rovnoma): Talabalarning dual ta’lim jarayonini boshqarish strategiyalaridan qoniqish darajasini (o‘quv jarayonining tashkil etilishi, korxona-ta’lim hamkorligi, raqamli platformalardan foydalanish, mentorlik sifati) baholash uchun 5 ballik Likert shkalasi asosida tuzilgan standartlashtirilgan so‘rovnoma qo‘llanildi. So‘rovnoma 6 ta asosiy blokdan iborat bo‘lib, jami 45 ta bandni o‘z ichiga oldi.

2. Sifat ma’lumotlari (yarim-strukturaviy intervyu): Talabalar, pedagoglar va korxona ustalarining dual ta’lim boshqaruvi bo‘yicha tajribalari, muammolari va takliflarini chuqur o‘rganish uchun yarim-strukturaviy intervyu usuli qo‘llanildi. Intervyu protokoli dual ta’lim jarayonini optimallashtirish bo‘yicha eng samarali strategiyalarni aniqlashga qaratilgan edi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish

Miqdoriy ma'lumotlar SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturida tahlil qilindi. Tahlillar ta'rifiy statistika (descriptive statistics) (o'rtacha qiymat, standart og'ish) va xulosaviy statistika (inferential statistics) (ANOVA bir faktorli dispersiya tahlili)ni o'z ichiga oldi. ANOVA tahlili turli mintaqalar (Buxoro, Qarshi, Farg'ona) talabalarining dual ta'limni boshqarish strategiyalaridan qoniqish darajasi o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjudligini aniqlash uchun ishlatildi.

Sifat ma'lumotlar (intervyular) mavzular tahlili (Thematic Analysis) usulida tahlil qilindi. Bu usul yordamida intervyu matnlaridan takrorlanuvchi g'oyalar, fikrlar va tajribalar aniqlanib, ular asosida dual ta'limni boshqarishning eng muhim strategiyalarini belgilovchi kategoriyalar shakllantirildi. Barcha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonlari ilmiy etika normalariga qat'iy rioya qilgan holda, ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligini ta'minlash sharti bilan amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida dual ta'lim jarayonini boshqarish strategiyalarining turli mintaqalardagi professional ta'lim muassasalari talabalari tomonidan qanday baholanganini aniqlashga qaratilgan keng qamrovli miqdoriy va sifat tahlillari o'tkazildi. Olingan natijalar dual ta'lim boshqaruvining umumiy samaradorligi mintaqaviy iqtisodiy xususiyatlar va boshqaruv yondashuvlariga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Mintaqaviy qoniqish darajalarini taqqoslash. Quyidagi 1-jadvalda Buxoro, Qarshi va Farg'ona viloyatlari professional ta'lim muassasalari talabalarining dual ta'lim jarayonini boshqarishning asosiy strategiyalaridan qoniqish darajasining o'rtacha qiymatlari (5 balli Likert shkalasi bo'yicha) va standart og'ishlari ko'rsatilgan.

1-jadval.

Dual ta'lim boshqaruvidan talabalarning mintaqaviy qoniqish darajasi

Strategiya/Ko'rsatkich	Buxoro (n=170) O'rtacha (SD)	Qarshi (n=240) O'rtacha (SD)	Farg'ona (n=210) O'rtacha (SD)	Umumiy O'rtacha
1. Korxona-Ta'lim Hamkorligi	4.01 (0.75)	3.89 (0.81)	4.25 (0.69)	4.05
2. O'quv Jarayonini Raqamlashtirish	3.78 (0.88)	3.55 (0.92)	3.90 (0.78)	3.74
3. Mentorlik Sifati	4.15 (0.65)	3.98 (0.70)	4.32 (0.60)	4.15
4. Nazariy va Amaliyotning Integratsiyasi	4.20 (0.60)	4.12 (0.68)	4.35 (0.55)	4.22
Umumiy Qoniqish	4.04 (0.72)	3.89 (0.78)	4.20 (0.65)	4.05

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyati talabalari dual ta'limni boshqarishning deyarli barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori qoniqish darajasini ko'rsatgan (Umumiy o'rtacha: 4.20), ayniqsa, Mentorlik Sifati (4.32) va Korxona-ta'lim hamkorligi (4.25) strategiyalaridan. Bu, ehtimol, Farg'ona vodiysidagi yirik sanoat korxonalarining mavjudligi va ularning kasbiy ta'limga investitsiya qilishga bo'lgan yuqori motivatsiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qarshi mintaqasi esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha eng past o'rtacha qiymatlarni qayd etgan (Umumiy o'rtacha: 3.89), bu esa ayniqsa O'quv Jarayonini Raqamlashtirish (3.55) borasida sezilarli bo'lib, bu hududda dual ta'limni boshqarish strategiyalarini modernizatsiya qilishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Buxoro mintaqasidagi natijalar o'rtacha darajada bo'lib, ular asosan turizm va kichik biznes sohalariga xos bo'lgan moslashuvchan boshqaruv modelining samaradorligidan dalolat beradi.

Anova dispersiya tahlili. Turli mintaqalardagi talabalar qoniqishi o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjudligini aniqlash maqsadida bir faktorli dispersiya tahlili (ANOVA) o'tkazildi.

2-jadval.

Mintaqalar bo‘yicha qoniqish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqlarning anova tahlili natijalari

Qoniqish Ko‘rsatkichi	F qiymati	p qiymati
Korxona-ta’lim hamkorligi	10.45	0.001
O‘quv jarayonini raqamlashtirish	8.72	0.002
Mentorlik sifati	15.89	0.000
Nazariy va amaliyotning integratsiyasi	4.01	0.045
Umumiy qoniqish	9.98	0.001

2-jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha asosiy boshqaruv strategiyalari va umumiy qoniqish bo‘yicha olingan p qiymatlari ($p<0.05$) ekanligi, mintaqalar o‘rtasida dual ta’limni boshqarish strategiyalarining samaradorligidan talabalar qoniqishi bo‘yicha statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjudligini tasdiqladi. Bu, yagona, markazlashtirilgan boshqaruv modelini butun O‘zbekiston miqyosida bir xil qo‘llash samarasiz bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi. Aksincha, har bir mintaqaning o‘ziga xos iqtisodiy talablari va korxona salohiyatini hisobga olgan holda differensial boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Sifat tahlil natijalari. Intervyu ma’lumotlari "Korxonalarni moliyaviy rag‘batlantirish" va "Raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish" strategiyalarining eng muhim omillar ekanligini ko‘rsatdi. Qarshi va Buxoro korxona ustalarining aksariyati dual ta’limga ko‘proq investitsiya qilishga tayyor ekanliklarini, agar ularga soliq imtiyozlari yoki subsidiyalar ko‘rinishida qo‘shimcha moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari yaratilsa, ta’kidladilar. Farg‘ona mintaqasi o‘qituvchilari esa, raqamli platformalardan foydalanishning yuqori darajasini qayd etib, bu jarayon ma’muriy yukni yengillashtirishda asosiy strategik yondashuv ekanligini ta’kidladilar. Xususan, talabalar mentorlik sifatini oshirish uchun "Korxona ustalarini pedagogik va psixologik tayyorlash kurslarini majburiy joriy etish" taklifini ilgari surdilar, bu esa boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda nafaqat tashkiliy, balki inson resurslarini rivojlantirish aspektiga ham e’tibor qaratish kerakligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dual ta’lim jarayonini boshqarish strategiyalarining samaradorligi mintaqaviy iqtisodiy kontekstlar, xususan, Buxoro, Qarshi va Farg‘onaning kasbiy profillariga bevosita bog‘liq. Farg‘ona viloyatining yuqori qoniqish darajasi yirik ishlab chiqarish bazasining mavjudligi va korxonalar madaniyatining kasbiy ta’lim bilan hamkorlikka nisbatan ancha yuqori tayyorligi bilan izohlanishi mumkin, bu esa Dual ta’lim boshqaruvida "Kuchli Korporativ Hamkorlik" strategiyasining ustuvorligini tasdiqlaydi. Bu natijalar Valter va Teylorning [5] korxonalarni o‘quv dasturlariga jalb qilish haqidagi topilmalariga mos keladi, ularning tadqiqotlarida faol korporativ ishtirok ta’lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi deyilgan.

Aksincha, Qarshi mintaqasidagi past natijalar, ayniqsa, raqamlashtirish bo‘yicha, bu hududda dual ta’limni boshqarishda "Texnologik infrastruktura va malakani oshirish" strategiyasini ustuvor yo‘nalishga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi. Qarshining sanoat tarkibi, ko‘proq an’anaviy sohalarga moyilligi, raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish va ulardan foydalanishda institutsional qarshilik yoki resurslar yetishmovchiligini anglatishi mumkin. Shu sababli, boshqaruv qarorlari aynan shu hududlar uchun raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi. Vang va Xouning [10] raqamli platformalar bo‘yicha tadqiqotlari shu kabi mintaqaviy farqlarni bartaraf etishda muhimligini ta’kidlaydi, bunda raqamli asboblarning kirib borishi boshqaruv sifatini bevosita oshiradi.

Tadqiqotning eng muhim topilmalaridan biri bu mentorlik sifatining barcha uch mintaqada yuqori baholanishi va mintaqalararo farqlarning statistik ahamiyatga ega bo‘lishidir. Mentorlik – bu dual ta’limning yuragi bo‘lib, X. Müllerning [12] ta’kidlashicha, uning samaradorligi bevosita korxona ustalarining pedagogik tayyorgarligiga bog‘liq. Bu natija, dual ta’limni boshqarish strategiyalarini ishlab chiquvchi markaziy organlar uchun "Inson kapitalini rivojlantirish" strategiyasiga, ya’ni

korxona ustalariga majburiy pedagogik-psixologik tayyorgarlik kurslarini joriy etishga alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi. Faqatgina texnik bilim emas, balki tarbiyaviy va motivatsion ko'nikmalar ham mentorlik samaradorligini oshirishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, dual ta'lim boshqaruvi bo'yicha barcha strategiyalarning umumiy qoniqish darajasi 4.05 atrofida bo'lishiga qaramay, mintaqaviy farqlarning statistik ahamiyatliligi Differensial boshqaruv modelini qabul qilishni strategik zaruratga aylantiradi. Kelgusi tadqiqotlar bu mintaqaviy farqlarning aniq iqtisodiy sabablarini chuqurroq o'rganishi lozim.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston professional ta'lim tizimida yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda dual ta'limdan foydalanish jarayonini boshqarishning eng samarali strategiyalarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan edi. Buxoro, Qarshi va Farg'ona professional ta'lim muassasalari talabalari, pedagoglari va korxona ustalari ishtirokida o'tkazilgan aralash metodologiya tahlillari natijalari dual ta'lim boshqaruvining samaradorligi uchun uchta asosiy strategik yo'nalish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotladi: Korxona-ta'lim hamkorligini kuchaytirish, o'quv jarayonini raqamlashtirish va mentorlik sifatini uzluksiz oshirish.

Tadqiqotning eng muhim ilmiy hissasi shundan iboratki, u dual ta'limni boshqarishda mintaqaviy differensiallashtirish strategiyasining zarurligini statistik jihatdan tasdiqladi, chunki turli iqtisodiy zonalardagi talabalarning qoniqish darajalari sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, Farg'onada yuqori darajadagi hamkorlik va mentorlik sifati kuzatilgan bo'lsa, Qarshida raqamlashtirish strategiyalari bo'yicha past natijalar aniqlandi, bu esa har bir mintaqaga xos muammolarni bartaraf etish uchun moslashuvchan va maqsadli boshqaruv yondashuvlari talab etilishini ko'rsatadi. Shuningdek, sifat tahlillari natijalari moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari va korxona ustalarining pedagogik tayyorgarligini kuchaytirish zarurligini ta'kidladi, bular dual ta'lim tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning asosiy strategik kalitlari hisoblanadi.

Xulosa. Olingan natijalar asosida, O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimi uchun quyidagi boshqaruv strategiyalari tavsiya etiladi: birinchidan, Korxonalarga dual ta'lim dasturlarida ishtirok etishlari uchun aniq va sezilarli soliq imtiyozlari yoki subsidiyalar tizimini yaratish; ikkinchidan, o'quv jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadida barcha dual ta'lim jarayonlarini o'z ichiga oluvchi yagona, markazlashtirilgan raqamli boshqaruv platformasini joriy etish va uni Qarshi kabi texnologik ehtiyoj yuqori bo'lgan mintaqalarda ustuvor joriy etish; uchinchidan, korxona ustalarining texnik malakasidan tashqari, ularning o'qitish va murabbiylik ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirishni majburiy qilib belgilash. Ushbu strategiyalarni implementatsiya qilish yosh mutaxassislarning zamonaviy kasblarga tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshiradi va mehnat bozoridagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Deissinger, T. (2019). The German Dual System of Vocational Education and Training: A Successful Model for the World? Springer Nature.
2. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Kappa Delta Pi.
3. Rauner, F., & Maclean, R. (Eds.). (2008). Handbook of Technical and Vocational Education and Training Research. Springer.
4. Greinert, W. D. (2016). The 'German Dual System' of Vocational Education and Training: A Historical Perspective. In W. G. K. (Ed.), Vocational Education and Training in Germany (pp. 3-21). Springer.
5. Walther, G., & Taylor, A. (2018). Employer engagement in VET curriculum development: Strategies for effective partnership. Journal of Vocational Education & Training, 70(3), 305-325.
6. CEDEFOP. (2019). The changing nature of VET and skills in Europe. Publications Office of the European Union.
7. Smith, L. (2020). Regional differences in the implementation of dual VET: Tailoring strategies to local economic clusters. European Journal of Training and Development, 44(8/9), 743-760.

8. Gleeson, K. (2021). Vocational Education and Training for the Tourism Industry: A Dual Approach. Routledge.

9. Heidemann, W. (2017). Digital transformation and its impact on VET governance. International Journal for Research in Vocational Education and Training, 4(1), 1-15.

10. Wang, L., & Hou, S. (2022). Implementing digital management platforms in dual education: Case studies from Asia. Educational Technology & Society, 25(1), 123-136.

11. Billett, S. (2014). Integrating Vocational Education and Training: Developing Capabilities in the Workplace. Springer.

12. Müller, X. (2019). The pedagogical competence of in-company trainers in dual systems. Empirical Research in Vocational Education and Training, 11(1), 1-20.

13. Lazar, M., & Popescu, I. (2018). Motivation and professional development of VET teachers and trainers. Procedia-Social and Behavioral Sciences, 237, 1378-1383.

14. Garcia, M. (2021). Financing models for dual VET: A comparative study of public-private partnerships. International Labour Review, 160(2), 231-255.

Ma'rufjonova Rohila Lutfulla qizi
Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: marufjonovarohila69@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNI TARBIYALASHNING METODIK TIZIM

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirishning metodik tizimi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Bugungi kunda ta'lim jarayonida bolalarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning psixologik barqarorligini, mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishga tayyorligi, sabr-toqatli va intizomli bo'lib shakllanishi ham muhim vazifalardan biri sanaladi. Aynan shu bois, irodaviy sifatlarni erta yoshdan shakllantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.*

Maqolada iroda tushunchasi va irodaviy sifatlar (qat'iyatlilik, sabr-toqat, mustaqillik, javobgarlik, o'zini tuta bilish)ning mazmuni chuqur tahlil qilinib, ularning shaxs kamolotidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga xos psixologik xususiyatlari, ularning ijtimoiylashuvi, emotsional barqarorlik darajasi irodaviy sifatlarni shakllantirishda muhim omil sifatida baholangan.

Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar - o'yinli faoliyat, rolli o'yinlar, muammoli topshiriqlar, mustaqil loyihalar hamda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning irodani shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan metodik tizimda irodaviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maqsad, mazmun, metod, vosita va natijaviylikning o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, maqolada o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining, tarbiyaviy muhitning bolalar psixikasiga ta'siri va individual yondashuvning afzalliklari haqida fikrlar ilgari surilgan. Metodik tizimni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar va pedagogik takliflar ham berilgan.

Kalit so'zlar: *iroda, irodaviy sifatlar, boshlang'ich ta'lim, psixologik yondashuv, shaxs tarbiyasi, pedagogik metodika, metodik tizim, sabr-toqat, qat'iyat, mustaqillik, ta'lim-tarbiya jarayoni, bolalar psixologiyasi, motivatsiya, intizom, metodlar.*

METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING VOLITIONAL QUALITIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *The article scientifically and practically explores the methodological system for developing volitional qualities in primary school students. In the modern educational process, it is essential not only to improve children's knowledge levels but also to develop their psychological resilience, independent thinking, decision-making readiness, patience, and discipline. Therefore, fostering volitional qualities from an early age has become a key focus of contemporary pedagogical approaches.*

The article provides an in-depth analysis of the concept of will and volitional traits (perseverance, patience, independence, responsibility, self-control) and highlights their significance in personality development. Additionally, it examines the age-specific psychological characteristics of younger pupils, their socialization, and emotional stability levels as important factors in shaping volitional qualities.

The role of methods applied in the educational process-such as play-based activities, role-playing games, problem-solving tasks, independent projects, and extracurricular educational events-in developing willpower is justified. The author's proposed methodological system demonstrates the interconnection of goals, content, methods, tools, and effectiveness aimed at fostering volitional qualities.

Furthermore, the article discusses the cooperation between teachers and parents, the impact of the educational environment on children's psyche, and the advantages of an individualized approach. Recommendations and pedagogical suggestions for implementing the methodological system in practice are also provided

Key words: *Willpower, volitional qualities, primary education, psychological approach, personality development, pedagogical methodology, methodological system, patience, perseverance, independence, educational process, child psychology, motivation, discipline, play-based methods.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ВОСПИТАНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье научно-теоретически и практически раскрыта методическая система формирования волевых качеств у учащихся начальных классов. В современных условиях образовательного процесса важной задачей является не только повышение уровня знаний детей, но и формирование их психологической устойчивости, самостоятельного мышления, готовности к принятию решений, терпения и дисциплинированности. Именно поэтому формирование волевых качеств с раннего возраста становится одним из основных направлений современных педагогических подходов.*

В статье проводится глубокий анализ понятия воли и волевых качеств (настойчивость, терпение, самостоятельность, ответственность, самообладание), а также раскрывается их значение в становлении личности. Кроме того, рассматриваются возрастные психологические особенности младших школьников, их социализация и уровень эмоциональной устойчивости как важные факторы формирования волевых качеств.

Обоснована роль методов, применяемых в учебно-воспитательном процессе, таких как игровая деятельность, ролевые игры, проблемные задания, самостоятельные проекты и внеклассные воспитательные мероприятия, в формировании воли. В предлагаемой автором методической системе показана взаимосвязь целей, содержания, методов, средств и результативности, направленных на развитие волевых качеств.

Также в статье рассматривается сотрудничество учителей и родителей, влияние воспитательной среды на психику детей, а также преимущества индивидуального подхода. Приведены рекомендации и педагогические предложения по внедрению методической системы в практику.

Ключевые слова: *оля, волевые качества, начальное образование, психологический подход, воспитание личности, педагогическая методика, методическая система, терпение, настойчивость, самостоятельность, учебно-воспитательный процесс, психология детей, мотивация, дисциплина, игровые методы.*

Kirish Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ayniqsa ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi, ijtimoiy faollikka ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu jarayonda boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida o‘rin tutadi, chunki bu davr shaxsning asosiy psixologik va ijtimoiy sifatlari shakllanadigan davr hisoblanadi.Iroda - bu insonning ongli faoliyatini maqsadga yo‘naltirish, qiyinchiliklarni yengib o‘tish va faoliyatni qat’iylik bilan davom ettira olish qobiliyatidir. Irodaviy sifatlar esa shaxsning sabr-toqat, intizom, qat’iyat, o‘zini tuta bilish, mas’uliyatlilik kabi fazilatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sifatlarning erta yoshdan shakllanishi insonning butun hayoti davomida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim rol o‘ynaydi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan, emotsional holati barqarorlashmagan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan shaxslar hisoblanadi. Shu bois, ushbu yosh davrda irodaviy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik ishlar izchil, tizimli va ilmiy asoslangan bo‘lishi talab etiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida samarali metodlar va vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda iroda bilan bog‘liq sifatlarni ongli ravishda rivojlantirish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi zamonaviy axborot xurujlari, raqamli muhit, texnologik rivojlanish bilan birga, bolalarning e'tiborini chalg'itadigan omillar ko'paymoqda. Bu esa ularning irodaviy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar orasida irodani tarbiyalash alohida o'rin tutadi.

Maqolaning maqsadi - boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan metodik tizimni ishlab chiqish, uning tarkibiy qismlarini yoritish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqolada iroda tushunchasining psixologik-pedagogik talqinlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, irodaviy sifatlarning shakllanish jarayoni, ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan samarali metod va vositalar ilmiy asosda yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya sohalarida keng o'rganilgan. Iroda va uning irodaviy sifatlari - qat'iyatlilik, sabr-toqat, mustaqillik kabi xususiyatlar shaxsning ijtimoiy faolligini, maqsad sari intilishini ta'minlovchi asosiy omillardir (Vygotskiy, 1984; Leontyev, 1978). Shu bilan birga, irodani erta yoshdan rivojlantirishning ahamiyati ko'plab tadqiqotchilar (Zimnyaya, 2005; Rubinshtein, 2007) tomonidan ta'kidlangan.

O'zbekiston pedagogik adabiyotlarida (Islomova, 2018; Toshqulov, 2020) irodaviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik metodlarning samaradorligi, o'yin, muammoli vazifalar va individual yondashuvning roli alohida ta'kidlangan. Shuningdek, pedagogik jarayonda ota-ona va maktab o'rtasidagi hamkorlikning irodani shakllantirishdagi ta'siri haqida ham keng fikrlar mavjud.

Xalqaro manbalarda ham boshlang'ich ta'limda irodaviy sifatlarni shakllantirishga doir ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, Zimmerman (2000) va Bandura (1997) irodaviy xususiyatlar va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining shakllanishiga psixologik yondashuvlarni tavsiya qilgan. Ular ta'kidlaganidek, irodaviy sifatlarni rivojlantirish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta'limdagi muvaffaqiyatlarini mustahkamlaydi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida irodaviy sifatlarni shakllantirishda metodik tizimning muvofiqligi, tarbiyaviy muhitning qulayligi, shuningdek o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuv muhimligi aniqlandi. Shu bois, pedagogik amaliyotda irodaviy sifatlarni rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan metodlar va integratsiyalangan tizimlarni qo'llash zarur.

Tahlil va natijalar Ushbu tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan metodik tizimning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yinli metodlar, muammoli vazifalar, loyiha asosida ishlash hamda rolli o'yinlar irodaviy sifatlarning, xususan, qat'iyatlilik, sabr-toqat va mustaqillikning shakllanishida samarali vositalar sifatida namoyon bo'ldi.

O'quvchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan muntazam pedagogik faoliyat ularning shaxsiy va ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshirdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar o'z-o'zini boshqarish, qaror qabul qilish va muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini yaxshiladi. Bu esa ularning o'quv jarayonida va kundalik hayotda mustahkam iroda ko'rsatishlariga sabab bo'ldi.

Shuningdek, ota-ona va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning irodaviy sifatlarini yanada mustahkamlashga yordam berdi. Tadqiqot davomida pedagogik jarayonda individual yondashuvning ahamiyati aniqlandi, chunki har bir o'quvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy ehtiyojlari inobatga olindi.

Umuman olganda, irodaviy sifatlarni shakllantirishda tizimli va kompleks metodlar, shuningdek, tarbiyaviy muhitning ijobiy ta'siri muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijalar pedagoglarga boshlang'ich sinf o'quvchilarining irodaviy sifatlarini rivojlantirish uchun samarali metodlarni qo'llashda ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tavsiyalar birilgan.Biz ularga tayangan holda o'quvchilarga irodali inson bo'lib o'sishiga yordam berishimiz mumkin. Ammo o'quvchiga og'ir vazifalarni bajarishni aytishdan oldin biz o'qituvchilar ulardagi yuklamalarni o'rganib chiqishimiz maqsadga muoffiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni tarbiyalash asnosida

rivojlantirish uchun kerakli tamoillarga va mashqlarga e'tibor berib uni kundalik "ratsionga" kiritsangiz shundagina siz to'g'ri pedagogik va psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lasiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlari rivojlantirish borasidagi savollarga aniq javob topish maqsadida biz o'quvchilarga o'zlari erishishi mumkin bo'lgan ishlarga jalb qilishni boshladik. Misol uchun sinfda o'zini qanday tutsa maktab ichki tartib qoidalarini buzmagan bo'ladi. O'quvchining uyga vazifalarini to'liq bajarishi, darsga kechikmasdan kelishi. Partada shovqin solmasdan o'tirishi kabilar bolaga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni shakllantirish pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Irodaviy sifatlar - qat'iyatlilik, sabr-toqat, mustaqillik, javobgarlik kabi xususiyatlar bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo'llangan o'yinli metodlar, muammoli vazifalar, loyiha asosida ishlash va ota-ona hamkorligi kabi yondashuvlar irodani rivojlantirishda samarali ekanligi tasdiqlandi.

Shuningdek, individual yondashuvni qo'llash, tarbiyaviy muhitni qulaylashtirish va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish irodaviy sifatlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa pedagoglarga o'z ishlarini samarali tashkil etishda qo'llanma bo'lishi mumkin.

Takliflar:Pedagogik jarayonda irodaviy sifatlarni tarbiyalash uchun o'yin va interfaol metodlarni kengroq joriy etish. Bu bolalarning faolligini oshirib, ularning iroda ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ota-ona va maktab o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash. Ota-onalarning tarbiyaviy jarayonga faol jalb qilinishi o'quvchilarning irodaviy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Individual yondashuvni kuchaytirish. Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, mos pedagogik metod va vositalarni qo'llash lozim.

Metodik tizimni doimiy takomillashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Bu o'quvchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonini yanada samarali qiladi.Pedagoglarning irodani shakllantirish bo'yicha malakasini oshirish uchun doimiy kasbiy rivojlanish kurslarini tashkil etish. Ushbu takliflar amaliyotga tatbiq etilganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun mustahkam asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimova V., Sunnatova R., Mustaqil fikrlash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy qo'llanma. – T.: Sharq, 2000. – 193 b.
2. Karimova V., Sunnatova R., Tojiboyeva R. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq, 2000. - 112 b.
3. Sternberg R.J, Sternberg K. Cognitive psychology. Boston, MA: Cengage Learning; 2016. – 346 p.
4. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Учеб. пособи для вузов М.: Академический проект. Альма Матер, 2005. – 698 с.
5. Андреева Г.М. Социальная психология семейных отношений. - СПб.: 1998. – С.260
6. Божович Л.И. Проблемы формирования личности: под ред. Д.И, Фельдштейна. / Л.И. Божович. - М.: Издательство «Институт практической психологии», - Воронеж: НПО «МОДЭК», 1997. - 352 с.

Norbo‘tayev Xo‘shboq Bobonazarovich
Termiz davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Shermatova Uljamol Shopulat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti, boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: uljamol2193@gmail.com

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA EKOLOGIK MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida ekologik madaniyatni takomillashtirish jarayoni pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ekologik muammolar fonida yosh avlodda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishning dolzarbligi ortib bormoqda. Muallif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining rivojlanish xususiyatlari asosida ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirish yo‘llarini izlaydi. Shuningdek, maqolada ta’lim jarayonida va darsdan tashqari faoliyatda ekologik tarbiya berishga doir metodik yondashuvlar, innovatsion vositalar va tarbiyaviy imkoniyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ekologik madaniyatni shakllantirishni boshlang‘ich bosqichdan boshlab tizimli amalga oshirish zarurligini asoslab beradi va bu borada o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so’zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, pedagogik muammo, ekologik ong, metodik yondashuvlar, innovatsion vositalar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье процесс совершенствования экологической культуры в системе начального образования рассматривается как педагогическая проблема. На фоне современных экологических проблем актуальность формирования экологического сознания и культуры у молодого поколения возрастает. Автор исследует пути повышения эффективности экологического воспитания, исходя из особенностей развития младших школьников. Кроме того, в статье анализируются методические подходы, инновационные средства и воспитательные возможности экологического образования как в учебном процессе, так и во внеурочной деятельности. Результаты исследования обосновывают необходимость системного формирования экологической культуры с начального уровня и включают практические рекомендации для учителей.*

Ключевые слова: *Начальное образование, экологическая культура, экологическое воспитание, педагогическая проблема, экологическое сознание, методические подходы, инновационные средства.*

IMPROVING ENVIRONMENTAL CULTURE IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. *This article examines the process of improving ecological culture within the primary education system as a pedagogical issue. Against the backdrop of modern environmental problems, the urgency of developing ecological awareness and culture among the younger generation is increasing. The author explores ways to enhance the effectiveness of environmental education based on the developmental characteristics of primary school students. The article also analyzes methodological approaches, innovative tools, and educational opportunities related to ecological education both within the classroom and through extracurricular activities. The research findings justify the necessity of systematically forming ecological culture starting from the primary level and offer practical recommendations for teachers in this regard.*

Key words: *Primary education, ecological culture, environmental education, pedagogical issue, ecological awareness, methodological approaches, innovative tools.*

Kirish: Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot jarayonida insoniyat oldida ekologik muammolar tobora keskinlashib bormoqda. Atmosfera, suv va tuproqning ifloslanishi, bioturfa xillikning kamayishi, chiqindilar muammosi kabi ekologik holatlar nafaqat atrof-muhit, balki jamiyatning har bir a'zosi hayot tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda aholining ekologik madaniyatini oshirish, ayniqsa yosh avlodda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini maktab ta'limi tizimidan, ayniqsa boshlang'ich bosqichdan boshlab yo'lga qo'yish zarurati dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Boshlang'ich ta'lim - bu nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim bosqichi bo'lib, unda o'quvchilarning tabiatga nisbatan munosabati, ekologik qarashlari va xulq-atvori shakllana boshlaydi.

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ekologik madaniyatni takomillashtirish masalasi pedagogik muammo sifatida o'rganiladi. Jumladan, ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, innovatsion vositalar, dars va darsdan tashqari faoliyat imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda o'qituvchining o'rni va metodikasini chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Tahlil va natija. Ekologik ta'lim-tarbiya zaminida inson va tabiat munosabatlarini hayotiy timsolllarda aks ettirish orqali yoshlarning ekoma'naviy - madaniy saviyasi darajasi hamda dunyoqarashini ifodalash bilan birga inson shaxsini tarbiyalash vazifasi yotadi. Ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida ekologik ta'limning jamiyat ma'naviy hayoti bilan aloqadorligi masalalari, xususan, o'quvchilarda ekologik bilim va tushunchalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni tarkib toptirish va rivojlantirish fikrlash qobiliyatining kengayishi muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat negizida kechadi. Ya'ni bir o'rinda o'rganilayotgan ekologik voqea - hodisalarning muammoli qo'yilishi kutilgan natijalarni beradi. Muammolilik tamoyili keyingi vaqtlarda o'quv dasturi va darsliklarni yaratishda ham o'z aksini topmoqda. Muammoli vaziyatlar asosida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil qilishdan asosiy maqsad ularni hal qilish davomida o'quvchilarni mustaqil tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish, ekologik muammolarni bartaraf etish, yoshlarning faolligini, ongli ishtirokini ta'mimnlash ularda loqaydlik kayfiyatining yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun imkon yaratishdan iboratdir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni takomillashtirish masalasi ko'ndalang turgan ekan demak, pedagog kadrlar o'z mehnat faoliyati davomida yoshlarda tabiat qonuniyatlari, inson va tabiat va ularning o'zaro mutanosibligi, tabiiy muvozanatni saqlash haqidagi bilimlarni va bular negizida ekologik ta'lim-tarbiyani tarkib toptirishlari, shuningdek, o'quvchilar orasida ekologik mavzulardagi tarbiyaviy ishlarni puxta rejalashtirishlari va amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularning bugungi kundagi ijobiy natijalari, yaratilayotgan yangiliklar va ularning ahamiyati, ijtimoiy-ekologik rivojlanishlar bo'yicha ijobiy tasavvurlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, o'quvchilarda milliy urf-odatlarga hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik, kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantiradi.

Ekologik madaniyat albatta ekologik ta'lim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ekolgik ta'lim o'quvchida tabiatga nisbatan to'g'ri oqilona munosabatini shakllantirish maasalasi ustida bilim beriladi va o'z oldiga kichik yoshidagi maktab o'quvchilariga ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik ta'lim-tarbiya mazmuniga ekologik onglilik, ekologik madaniyat, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. Shunday qilib ekologik ta'lim - tarbiya inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiat go'zalliklarini his etish kabi komponentlarni kiritish mumkin. Ekologik ta'lim-tarbiyaga nafaqat bugun balki ota - bobolarimiz ham chuqur ma'sulyat bilan qarashgan. Masalan, atrof-muhitni iflos qilmaslik maqsadida, axlat tashlash, chiqindilarni tashlash uchun alohida

chuqurlar qazilgan, hojatxonalarni, ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joylarda kovlashgan, turli ehtiyojlar uchun faqat qurib qolgan daraxtlarni kesishgan, hayvonlarga azob berishni, qushlar uyasini buzishni gunoh bilishgan.

XX asrning ikkinchi yarmida inson ongi va tafakkurining mahsuli texnik yangiliklarning rivoji, industrial jamiyatga o‘tish taraqqiyot mezonini belgilab berish bilan bir vaqtda insoniyat oldida juda ko‘p va murakkab muammolar yuzaga keltirdiki, ular ta’sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko‘ra global muammolar nomini oldi. Ushbu global muammolardan biri ekotizimni barqarorlik holatidan beqarorlik holatiga o‘tish va insonning tabiatga ta’siri miqyosini haddan tashqari darajada orttirib borishdan dalolat beradi.

Mazkur jarayonda mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy tavsifga ega bo‘lgan turli xil ekologik muammolar yuzaga kelib, insoniyat sivilizatsiyasi davomiyligiga tahdidi ortib bormoqda. Ayni vaqtda dunyo aholisining aksariyati ekotizimning buzilishi va atrof-muhitni ifloslanishi kabi ekologik muammolar insoniyat uchun katta xavf ekanligini ta’kidlamoqdalar insoniyat hayotini tahlikaga solayotgan ekologik masalaga yondashuvni bugungi kunda kelajak istiqboli nuqtai nazaridan yoshlar tarbiyasining ajralmas va asosiy omili sifatida tashkil etish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Shu omilga tayangan holda maktab ta’limida o‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya negizida ekologik madaniyatni takomillashtirish dolzarbligi kun sari ortib bormoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish samaradorligini oshirishga, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, adolat, tenglik va insonparvarlik tuyg‘ulari bilan bog‘liq muammolarni to‘g‘ri tahlil qilish, ularni yechimini topish haqidagi keng qamrovli ma’lumotlarni berish muhim sanaladi. Sababi, inson o‘z ehtiyojlarini qondirishi va ko‘zlagan maqsadlariga erishishi uchun chidamlilik, irodaviylik, sabr toqat, erkin fikrlilik va ongli faoliyatni boshqara olish kabilar zarur sanaladi. Buning uchun eng avvalo, u yashayotgan yurt, ya’ni Vatan mustaqilligi, uning ravnaqi, rivojlanishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni takomillashtirish samaradorligi va taraqqiy etishi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan tushunchalar berishda “ekologik madaniyat” tushunchasining mazmun-mohiyatini asoslab berilishi o‘ziga xos muhim o‘rin tutadi. Ekologik madaniyatni takomillashtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hayotga mustaqil qadam qo‘yganlarida tabiatning “bo‘ysundiruvchi” siga emas, balki uning himoyachisiga aylanish kerak.

Binobarin, boshlang‘ich sinflarda ekologik madaniyatni takomillashtirish tabiiy fanlarni o‘qitishdan boshlanadi. Unda ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari o‘quvchilarlarning atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish ta’lim tizimining dolzarb masalasiga aylandi. Mazkur holatda o‘quvchi atrof-muhit to‘g‘risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg‘usiga ega bo‘lishi, o‘simlik va hayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko‘paytirish borasida yuksak ekologik madaniyatga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

Xulosa. Ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiatni e’zozlash ruhida tarbiyalashda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos. Unda o‘quvchilarining egallagan nazariy bilimlari amaliyotga joriy etiladi. Shuningdek, individual topshiriq yoki o‘qituvchining tavsiyasini bajarishda muayyan qiziqish uyg‘onadi. Bir necha o‘quvchilardagi o‘xshash qiziqishlarni aniqlab, o‘qituvchi ularni to‘garakka birlashtiradi. Bunday birlashmalar ommaviy sinfdan tashqari tadbirlarning tashkiliy markazi bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun turli tayyorgarlik ishlari va ko‘p sonli ishtirokchilar qatnashadi.

Ana shu xislatlarni o‘zida aks ettira olgan o‘quvchini ekologik madaniyatli deb atash mumkin. Iste’moldan ortiqcha suv jo‘mraklardan oqishiga yo‘l qo‘ymaslik, suv xavzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to‘kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko‘chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlilikning eng oddiy ko‘rinishlari biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shermatova, U. (2024). Ecological Education In Primary Classes Formation Of Pedagogical Conditions Of Development. World Bulletin Of Social Sciences, 33, 49-53.
2. Shermatova, U. (2024). Ecological Education Teaching In Primary Class Methodology. Pedagogical Cluster-Journal Of Pedagogical Developments, 2(4), 97-105.
3. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang'ich Sinflarda Ekologik Ta'limni Rivojlantirish Metodikasi. *Inter Education & Global Study*, (4 (1)), 50-56.
4. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 62 b.
5. Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3-4 классов сельских школ: Автореферат дис... канд. пед. наук. - Ташкент, 1993. -18 с.
6. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. //Zamonaviy ta'lim. - 2018. -11-son. - B. 53-58.

Raxmatov Mirzo Mukimovich
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: raxmatov_mirzo@buxdpi.uz

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANGANLIGINI BAHOLASH USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini baholash masalalari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Unda raqamli vositalar va innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim oluvchilarning bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashning samarali usullari tahlil etiladi. Shuningdek, baholash mezonlari, indikatorlari hamda ularni qo'llashning didaktik imkoniyatlari yoritilib, talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonini qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy rivojlanish dinamikasini monitoring qilish mexanizmlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida raqamli muhitni samarali tashkil etish va kompetent kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, kompetentsiya, savodxonlik, ta'lim, texnologiya, xavfsizlik, kontent, hamkorlik, innovatsiya, transformatsiya.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы оценки профессиональной компетентности учащихся в условиях цифровой образовательной среды на научной основе. В нем анализируются эффективные методы определения знаний, практических навыков и компетенций обучающихся на основе цифровых инструментов и инновационных технологий. Также будут освещены критерии оценки, индикаторы и дидактические возможности их применения, предложены механизмы поддержки процесса самостоятельного обучения учащихся и мониторинга динамики их профессионального развития. Результаты исследования служат для эффективной организации цифровой среды в системе высшего образования и подготовки компетентных кадров.*

Ключевые слова: *оцифровка, компетентность, грамотность, образование, технологии, безопасность, контент, сотрудничество, инновации, трансформация.*

THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL EDUCATION ASSESSMENT METHODS

Annotation. *The article examines the issues of assessing the professional competence of students in the conditions of a digital educational environment on a scientific basis. It analyzes effective methods for determining the knowledge, practical skills and qualifications of learners based on digital tools and innovative technologies. Assessment criteria, indicators and didactic possibilities of their application are also highlighted, and mechanisms for supporting the process of Independent Education of students and monitoring the dynamics of their professional development are proposed. The results of the study serve to effectively organize the digital environment in the higher education system and to prepare competency personnel.*

Key words*: digitization, competence, literacy, education, technology, security, content, collaboration, innovation, transformation.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda joriy etilishi inson faoliyatining kundalik hayoti va professional faoliyatini tubdan o'zgartirdi. Innovatsiya, virtual haqiqat, sun'iy intellekt kabi texnologiyalar global iqtisodiyotga chuqur ta'sir

ko‘rsatib, ta’lim tizimida ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli, raqamli ta’lim muhiti orqali talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va uni baholash dolzarb masala sifatida davlat siyosatida ham muhim o‘rin egalladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6079-son Farmonida ta’lim sohasini raqamlashtirish, elektron resurslar va interaktiv platformalarni keng joriy etish, shuningdek, raqamli ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu farmonda keltirilgan ustuvor yo‘nalishlar raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish, innovatsion baholash tizimlarini yaratish va talabalarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida aniqlash zaruratini ko‘rsatib bermoqda. Shu bois, bugungi kunda raqamli kompetentlikni baholashning samarali usullarini ishlab chiqish nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda raqamli kompetentsiya tushunchasi keng qamrovli ilmiy muhokamalarning markazida turibdi. Turli manbalarda ushbu atama “raqamli savodxonlik”, “raqamli ko‘nikmalar” kabi terminlar bilan sinonim tarzda qo‘llanilishi kuzatiladi. Natijada, mazkur tushunchaning yagona ilmiy-metodik ta’rifi hali to‘liq shakllanmaganligi ta’kidlanadi. Xususan, ayrim tadqiqotlarda raqamli kompetentsiya texnologik vositalardan foydalanish bo‘yicha zarur ko‘nikmalar majmui sifatida izohlanar ekan, boshqa ilmiy manbalarda esa uni shaxsning ijodiy faoliyati, muammolarni hal etish qobiliyati, axborot xavfsizligini ta’minlashga tayyorligi kabi ko‘nikmalarni qamrab oluvchi integrativ sifatida tavsiflash hollari uchraydi.

Xorijiy tadqiqotlarda raqamli kompetentsiyaning ta’limiy kontekstdagi o‘rni alohida e’tirof etilgan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarning milliy ta’lim dasturlarida raqamli kompetentsiyani rivojlantirish bo‘yicha maxsus yo‘nalishlar belgilangan. Masalan, Daniyada bu yo‘nalish “IT va Media”, Finlyandiyada “Ko‘p savodxonlik va raqamli kompetensiya”, Norvegiyada esa “Raqamli ko‘nikmalar” nomi bilan joriy qilingan. Ushbu tajribalar raqamli-pedagogik faoliyatning muloqot, kontent yetkazib berish, baholash va hamkorlik kabi funksiyalari talabalarning raqamli kompetentligini shakllantirishda asosiy metodologik yondashuv sifatida qaralayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ko‘plab ilmiy manbalarda raqamli kompetentsiya zamonaviy shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muhim tayanch sifatida talqin qilinadi. U nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini, balki bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, baholash, turli raqamli platformalarda hamkorlik qilish, raqamli kontent yaratish va undan samarali foydalanish, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish va ularning rivojlanish darajasini baholash ta’lim tizimida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, raqamli kompetentsiya nafaqat ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita, balki global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi hamda mavjud yondashuvlar tasniflandi. Tadqiqot jarayonida kuzatish, tanlab olish, ilmiy-nazariy tahlil va empirik kuzatuv kabi metodlardan foydalanildi. Shuningdek, raqamli kompetensiyalarni baholash jarayonida xorijiy va milliy ilmiy tadqiqotlar, rasmiy statistik ma’lumotlar hamda xalqaro tajribalar solishtirma tahlil qilindi. Olingan natijalarning ishonchliligi tadqiqotda foydalanilgan birlamchi va ikkilamchi manbalarning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, xalqaro standartlarga mos yondashuvlar bilan taqqoslab o‘rganilgani bilan izohlanadi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarini nazariy asoslash, talabalarning kasbiy kompetentligini baholashning amaliy mexanizmlarini aniqlash va ularni raqamli ta’lim muhiti sharoitida qo‘llash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Raqamli kompetentsiya shaxsning raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va ko‘nikmalarga asoslangan faoliyatini anglatadi. Raqamli savodxonligi yuqori bo‘lgan shaxs raqamli qurilmalardan foydalanishda maxsus qaror qabul qilishni talab etmaydi, balki ularning qo‘llanilishi kundalik hayot va kasbiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi. Shu bois raqamli kompetentsiya zamonaviy sharoitda shaxsning kasbiy rivojlanishi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqamli ko‘nikmalar mazmuniga ko‘ra


foydalanuvchi va professional ko‘nikmalarga ajratiladi. Foydalanuvchi ko‘nikmalari turli texnik qurilmalardan foydalanish, internet resurslari va elektron xizmatlardan samarali foydalana olish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Professional raqamli ko‘nikmalar esa murakkab muammolarni hal qilish, raqamli muhitda ijodiy faoliyat yuritish hamda yuqori darajadagi analitik kompetensiyalarni talab etadi. Bu jihatdan, raqamli texnologiyalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish natijalarga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro adabiyotlarda “raqamli kompetentsiya”, “raqamli ko‘nikmalar”, “raqamli savodxonlik” tushunchalari turlicha talqin qilinadi. YUNESKO, OECD hamda Yevropa Ittifoqi hujjatlarida ushbu tushunchalar ko‘proq fuqarolarning raqamli jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan mezonlar sifatida keltiriladi. Xususan, “EU DigComp 2.1” modeli raqamli kompetentsiyani axborot savodxonligi, muloqot va hamkorlik, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilish kabi besh yo‘nalishda tasniflaydi. Mazkur tasnif talabalarning kasbiy kompetentligini baholashda ham universal yondashuv sifatida xizmat qiladi. Kelajak kompetensiyalarini shakllantirishda nafaqat raqamli ko‘nikmalar, balki insoniy qobiliyatlar – o‘zini anglash, muloqotga kirisha olish, nostandart muammolarni hal etish, moslashuvchanlik va ijodiy yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, “Maqsadli kompetensiya modeli – 2025” kabi zamonaviy yondashuvlar raqamli va insoniy kompetensiyalarni uyg‘unlashtirishni taklif etmoqda. Bu esa talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasini raqamli ta’lim muhiti sharoitida baholashning yangi metodologik asoslarini belgilaydi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida raqamli kompetentsiya talabalarning nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalariga, balki ularning ijtimoiy va madaniy faoliyatidagi o‘rniga ham ta’sir etuvchi kompleks tushuncha ekanligi aniqlandi. Xususan, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp 2.1 modeli asosida raqamli kompetentsiyalar axborot savodxonligi, aloqa va hamkorlik, kontent yaratish, xavfsizlik hamda muammolarni hal qilish kabi asosiy yo‘nalishlarda shakllantiriladi. Ushbu yondashuv raqamli jamiyatda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan vakolatlarning tizimli ko‘rinishini beradi. Aloqa va hamkorlik talabaning raqamli muhitda muloqot qilish, ma’lumot almashish, hamkorlikda ishlash va davlat hamda xususiy raqamli xizmatlarda faol ishtirok etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli etikaga rioya qilish, madaniy xilma-xillikni tushunish hamda shaxsiy obro‘ni himoya qilish kabi jihatlar ham muhim o‘rin tutadi. Raqamli kontent yaratish esa talabaning turli formatlarda tarkib ishlab chiqish, tahrirlash, mualliflik huquqlarini hisobga olish va hisoblash tizimlari uchun algoritmik buyruqlarni shakllantirish qobiliyatlarini qamrab oladi. Bu ko‘nikmalar ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish va yangi bilimlar hosil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli xavfsizlik masalalari bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Qurilmalarni himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni xavfsiz saqlash, raqamli tahdidlardan himoyalanish, shuningdek, raqamli texnologiyalarni sog‘liq va ekologiya bilan uyg‘un holda qo‘llash talabalardan yuqori darajadagi mas’uliyatni talab qiladi. Muammolarni hal qilish esa talabalarning texnik nosozliklarni bartaraf etish, raqamli vositalarni tanlash, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va o‘z hamda boshqalarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayonida faol ishtirok etish qobiliyatlarini ifodalaydi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi sharoitida bu kompetentsiyalarni shakllantirish bir qator falsafiy va tashkiliy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, talabaning dunyoqarashi, ta’lim jarayoniga bo‘lgan yondashuvi va rahbarlik tamoyillari kompetentsiya modelini samarali joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijasida oliy ta’lim tizimida raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirishning quyidagi tamoyillari shakllantirildi:



1-rasm. Raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish tamoyillari.

Raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish talabalarning kelajak kasbiy faoliyati va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Biroq mavjud vaziyatda talabalarning raqamli kompetentsiyalari ko'proq foydalanuvchi darajasida shakllangan bo'lib, professional ko'nikmalar yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa raqamli kompetentsiyalar asosan o'z-o'zidan paydo bo'layotganini, tizimli va maqsadli yondashuv yetarli emasligini ko'rsatadi. Masofaviy ta'lim va onlayn kurslar talabalarda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish imkonini bersa-da, bu jarayon ko'pincha yon mahsulot sifatida yuzaga chiqmoqda. Natijada, raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish maxsus metodik asoslar va maqsadli ta'lim jarayonini talab qilmoqda. Shu bois oliy ta'lim tizimida raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, raqamli savodxonlik, kontent yaratish, raqamli xavfsizlik va muammolarni hal qilish kabi kompetentsiyalarga yo'naltirilgan maxsus o'quv dasturlari va kurslarni ishlab chiqish lozim. Masofaviy ta'lim platformalarida ham ushbu yo'nalishlarga oid modullarni joriy etish talab etiladi. Shuningdek, talabalarning raqamli kompetentsiya darajasini muntazam monitoring qilish va natijalarga asoslangan holda ta'lim mazmunini takomillashtirish zarur. Milliy va xalqaro tajribaga tayangan holda raqamli kompetentsiyalarni baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish va ularni ta'lim standartlariga integratsiya qilish oliy ta'limda raqamli ta'lim muhiti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni.
2. Imomova Sh.M., Norova F.F. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish // Miasto Przyszłości, Vol. 32 (2023), – B. 47–49.
3. Неборский Е.В. Цифровой университет как интегративный методологический конструкт // Мир науки. Педагогика и психология. 2021.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2007. – 305 b.
5. Quchqorova N.M. Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 260 b.
6. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: "Sano-standart", 2015. – 120 b.
7. Ishmuhamedov R.J., Mirsolieva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 60 b.

Saparova Gulzira Qazaqbayevna
Toshkent shahar Chilonzor tumani 138-maktab fizika o‘qituvchisi

BO’LAJAK FIZIKA FANI O’QITUVCHILARINI KASBIY METODIK TAYYOR-LASHDA KOGNITIV-INTEGRATIV MOBILLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo’lajak fizika fani o’qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlashda kognitiv-integrativ mobilligini takomillashtirishning pedagogik zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek maqolada, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy talablarga mos kadrlar tayyorlashda kognitiv-integrativ yondashuv orqali o’qituvchilar kreativ potentsialini takomillashtirish, mazkur faoliyat jarayoni pedagoglarda fanlararo bog’liqlikni ta’minlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi masalalariga alohida urg’u berib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *o’qituvchi, o’quv mashg’ulotlari, ta’lim, tarbiya, fizika, kasbiy mahorati, kasbiy, metodik, kognitiv-integrativ, kreativ, individual ta’lim traektoriyasi, intellektual qobiliyatlari, mobillik yangi axborot texnologiyalari, o’quv uslublari, o’quv dastur.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ КОГНИТИВНО-ИНТЕГРАТИВНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ

Аннотация. *В статье научно и теоретически обоснована педагогическая необходимость совершенствования когнитивно-интегративной мобильности в профессионально-методической подготовке будущих учителей физики. Кроме того, подчёркивается важность повышения творческого потенциала педагогов посредством когнитивно-интегративного подхода для повышения качества образования и подготовки кадров в соответствии с современными требованиями, а также важное педагогическое значение этого процесса деятельности в обеспечении междисциплинарности педагогической деятельности.*

Ключевые слова: *учитель, обучение, образование, воспитание, физика, профессиональные навыки, профессиональный, методический, когнитивно-интегративный, творческий, индивидуальная образовательная траектория, интеллектуальные способности, мобильные новые информационные технологии, методы обучения, учебная программа*

PEDAGOGICAL NEED TO INCREASE COGNITIVE-INTEGRATIVE MOBILITY IN PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PHYSICS TEACHERS

Annotation. *The article provides scientific and theoretical substantiation of the pedagogical necessity of improving cognitive-integrative mobility in the professional and methodological training of future physics teachers. In addition, the importance of enhancing the creative potential of teachers through a cognitive-integrative approach is emphasized to improve the quality of education and training in accordance with modern requirements, as well as the important pedagogical significance of this process of activity in ensuring the interdisciplinary nature of pedagogical activity.*

Key words: *teacher, training, education, upbringing, physics, professional skills, professional, methodological, cognitive-integrative, creative, individual educational trajectory, intellectual abilities, mobile new information technologies, teaching methods, curriculum*

Kirish. Modernitsaziya, texnogen tsivilizatsiya talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, bo’lajak fizika fani o’qituvchilarida kasbiy faoliyatni rivojlantirish borasidagi ilmiy pedagogik izlanishlarning istiqbolli yo’nalishlarini isloh qilish, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi oliy ta’lim muassasasida bo’lajak o’qituvchilarning metodik tayyorgarligi, pedagoglarni kasbiy

kompetentligi va kreativ tafakkurini pedagogik-psixologik iqlimga moslab integratsiyalash, maqsadli strategik vazifalarni belgilash hamda ularni amalga oshirilishi jarayonini takomillashtirish Oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 8 oktyabrь 2019 yildagi PF-5847 – sonli farmonida "Ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish" [1]masalalariga alohida urg'u berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 – sonli Farmonida "pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish" [2] vazifasi belgilangan bo'lsa, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili ilgari surilayotgani bejiz emas. Chunki avvalo, Harakatlar strategiyasidagi har bir yo'nalishni taraqqiyotning yangi bosqichida mantiqiy va izchil asosda rivojlantirish hamda yangi ustuvor yo'nalishlarda muhim natijalarga erishish ko'zda tutilmoqda" [3] –degan mantiqiy qarashlar bilan sug'orilgan.

Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ta'lim samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart–sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, raqobatbardosh mutaxassislarni – bo'lajak fizika fani o'qituvchilarni etkazib berish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyo miqyosida kechayotgan shiddatli o'sish bir qadar yoshlar psixologiyasiga o'z ta'sirini o'tkazdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kun yosh avlodni ta'lim jarayoniga ayniqsa aniq fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali natijaviylikni ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy metodik tayyorlashda kognitiv-integrativ mobilligini takomillashtirish mezonlarini ishlab chiqishning pedagogik zaruriyati ko'zga tashlanmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, moddiy texnik bazani mustahkamlash, bo'lajak fizika fani o'qituvchilarida kasbiy faoliyatni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini innavatsion va novatsion ta'lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish, kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash, taraqqiyot tendentsiyalariga mos ravishda pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida takomillashtirish, raqabotbardosh kadrlarni tayyorlashda interaktiv vositalardan samarali foydalanish zarurati mavjud.

Respublikamizda fizika fanining inson hayotidagi o'rni va o'qitishdagi o'ziga xosligidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fizika o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda kognitiv-integrativ mobilligi kasbiy refleksiya, o'zini o'zi faollashtirish, nostandart pedagogik echimlar, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetentlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasida innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishi yosh avlodni fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda, fizika sohasida yarim o'tkazgichlar fizikasi, atom va yadro tabiatini o'rganish, nanofizika va nanotexnologiyalar sohalaridagi bilimlarni egallash, fizik mutaxassislarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash borasida yuqori natijalarga erishilishiga asos bo'lmoqda. [6]

Ilmiy izlanishlarimiz davomida biz ochiq internet ma'lumotlariga tayanib bir qator tadqiqotlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganib chiqdik. Mulьtimediali o'qitish va kognitiv nazariyalarga asoslangan ta'limda "Teaching aterials aligned or unaligned with the principles of the Cognitive Theory of ultiedia Learning" tadqiqotida (Braziliya, 2023) mulьtimedia materiallarining kognitiv nazariya (CTL) printsiplariga muvofiqligi tahlil qilingan bo'lib, mazkur nazariyada ta'lim dasturlariga CTLni kiritish zarurligini ko'rsatilgan.

Professional rivojlanish va e'tiborli ko'maklashuv IPaSS (University of Illinois va umumta'lim maktablari hamkorligi) misolida professional murabbiylarning "Counities of Practice" (ashyolar jamiyati) miqyosida rivojlanishi tahlil qilingan.

Interaktiv va tadqiqotga asoslangan ta'lim metodlari eta–cognitive (metakognitiv) faoliyatlarni rivojlantirish orqali talabalarning fizikaga qiziqishini oshirish yo'nalishida tajribalar qo'llanilgan tadqiqotlarlarda interaktiv o'qitish usullari, jumladan, hamkorlikda muammolarni hal qilish, qurollar asosida o'qitish, aktiv o'qitish jarayonlari atroflicha yoritilgan, bu metodlar kontseptual tushunchani rivojlantirish va kognitiv integratsiyaga sabab bo'layotganligi aniqlangan [4]

Kognitiv va bilim integratsiyasini rivojlantirish Bir necha pedagogik yondashuvlarda (constructivist learning, 5E modeli, flipped classroo) ishtirok etgan yosh o'qituvchilar (pre-service teachers)ning kontseptual tushunchalarini masalan, muqobil tushunchalar modeli (Conceptual Change odel) fikrning o'zgarishiga yordamchi sifatida ta'sir qilgan Cognitive-historical reconstruction usuli orqali ob'ektiv kontseptsiyalarni ta'limda qayta qurish, ayniqsa elektromagnit induktsiya qonuni misolida, o'qituvchilarning kontseptual tushunishini yaxshilashda qo'llangan.Knowledge integration" (bilim integratsiyasi) pedagogik yondashuv sifatida yuqori darajada fikrlash, kontseptual tushunish va bilimlar tarmog'ini o'z orasida birlashtirish uchun foydalanilmoqda

Mobil va innovatsiyalarga asoslangan ta'lim. Mobil qurilmalar va AR (augented reality) texnologiyalari fizika tushunchalarini vizuallashtirishda, AR asosida o'qish jarayonida talabalarning kognitiv qobiliyatiga ta'sir ko'rsatilgan tadqiqotlar Blended learning (gibrid o'qitish) usuli orqali texnik ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyatini yangi darajaga ko'tarish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Mujassalangan kognitivlik (Ebodied Cognition) natijalari. Keyingi pedagogik yondashuvlardan biri - Ebodied cognition. U intilayotgan tajriba va o'rganish jarayonlarini jismonan amalga oshirish orqali bilimlarni integratsiyalash va tushunishni kuchaytiradi. Masalan, Energy Theater yoki Solar Syste simulyatsiyalari – bu bilimlarni anglashda jismoniy interventsiyani foydalanadigan ta'lim usullari sifatida qo'llaniladi [5]

Bu metodlar bevosita "kognitiv-integrativ mobillik" tushunchasi bilan mos kelishi mumkin - ya'ni bilimlarni ko'chma (mobil) va integrativ shaklda tashkil etish jarayonida foydalaniladi deb qaralsa, ular ancha darajada bunday maqsadga xizmat qiladi.

Alohida e'tirof etish lozimki, "Bo'lajak fizika o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda kognitiv-integrativ mobilligi" - bu fizika o'qituvchilarining yangi bilim va ko'nikmalarni kognitiv (bilish) jarayonida integratsiya qilish orqali o'zlashtirishlari hamda ularni turli xil kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llay olishlari degan ma'noni anglatadi. Bu o'qituvchilarning nafaqat fizikadan bilimga ega bo'lishi, balki o'qitish jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni birgalikda qo'llashi va yangi sharoitlarga moslashishini ham o'z ichiga oladi.

Kognitiv jarayonlar: Ma'lumotlarni o'zlashtirish, tahlil qilish, sintezlash va baholash kabi bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Integratsiya (birlashtirish):Fizika fan sohasidagi bilimlarni pedagogik bilimlar, metodik ko'nikmalar va kasbiy kompetentsiyalar bilan birlashtirishdir.

Mobillik (mobil, o'zgaruvchan): O'zgaruvchan ta'lim muhitiga moslashish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, turli o'quv uslublarini va dasturlarini qo'llash qobiliyati.

Kasbiy tayyorlash: Kelajak o'qituvchining nazariy bilimlarini amalda qo'llash, muammolarni hal qilish va samarali dars berish malakalarini rivojlantirish.

Bu kontseptsiya bo'lajak fizika o'qituvchilarining nafaqat fanni chuqur bilishi, balki uni o'quvchilarga samarali etkazish uchun zarur bo'lgan yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishi va qo'llashi lozimligini ko'rsatadi. Bu esa o'qituvchilarning rivojlanishiga va o'quvchilarning sifatli ta'lim olishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlashda kognitiv-integrativ mobilligini takomillashtirishning pedagogik zarurati quyidagi parametrlarda:

Zamonaviy ta'lim talablari: yangi ta'lim standartlari va kompetentsiyaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchidan nafaqat fan bilimlarini, balki o'qitish usullarini yaxshi bilishini, innovatsion

texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini talab qiladi. Kognitiv-integrativ mobillik – bu bilim, tafakkur va faoliyat jarayonlarini birlashtirish qobiliyati bo'lib, bugungi o'qituvchi uchun muhim kompetentsiya hisoblanadi.

Fanlararo integratsiyaning ahamiyati Fizika boshqa fanlar (matematika, informatika, texnika va boshqalar) bilan chambarchas bog'liq. Kognitiv-integrativ yondashuv orqali o'qituvchi fanlararo bog'liqlikni anglaydi va buni dars jarayonida qo'llay oladi.Bu bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va yangi g'oyalar yaratish imkonini beradi.

O'qitish jarayonidagi samaradorlik Metodik tayyorgarlikni kognitiv va integrativ yondashuvlar bilan boyitish o'qituvchiga: o'quvchining fikrlashini rivojlantirish, muammoni hal etish qobiliyatini shakllantirish, tafakkur jarayonlarini boshqarish,interaktiv usullardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Pedagogik innovatsiyalarga tayyorlik Bugungi ta'limda tez o'zgaruvchan texnologiyalar, raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar keng qo'llanilmoqda. Bo'lajak o'qituvchi bu yangiliklarga tez moslasha olishi, ularni tahlil qilib darsda samarali qo'llay olishi kerak. Bu uchun kognitiv-integrativ mobillik zarur: ya'ni fikrlashning chuqurligi va vaziyatlarga mos ravishda o'zlashish qobiliyati.

Ta'lim sifatini oshirish Bo'lajak o'qituvchining kognitiv va integrativ qobiliyatlari qanchalik rivojlangan bo'lsa:u darsni shunchalik mazmunli va qiziqarli o'tadi, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, ta'lim natijadorligi oshib boradi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak fizika fani o'qituvchisini tayyorlashda kognitiv-integrativ mobillikni takomillashtirish - bu zamonaviy pedagogikaning talabidir. Bu nafaqat bilim berish, balki o'quvchi shaxsini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish, fanlararo bog'liqlikni anglash va innovatsion echimlarni joriy etishda muhim o'rin tutadi. SHu bois, pedagogik jarayonda ushbu qobiliyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik yondashuvlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 8 oktyabrь 2019 yildagi PF-5847 –sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 – sonli Farmoni. https://lex.uz/docs

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026-yillarga o'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF – 60 –sonli Farmoni. https://lex.uz/docs

4. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan.dokt….diss. avtoref. -T.: 2006, -49 b.;

5.Begumqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok.diss. -T.: TDPU, 2007. -B. 305.; Golish L.V. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. -T.: «Iqtisodiyot» 2012. -154 b.;

6. Nasriddinov K. Fizikani o'qitish masalalar ishlash metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2006 y 140 b.

7.Qahhorov S. Fizika o'qituvchilarining masofaviy malakasini oshirishda vebinar o'tkazishning nazariyasi va amaliyoti // «Fan va jamiyat» jurnali. -Nukus, 2016. -№ 3.;

8.Qurbonov M. Uzluksiz ta'limda fizik eksperimentlarning didaktik funktsiyalari samaradorligini oshirish (oliy ta'lim tizimi misolida). Aftoreferat. ped. fan. doktori. -Toshkent. 2012.- 40 b.

9. Mirzahmedov B. va boshq. Fizika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. 2 qism. -Toshkent, 2010. -130 b.

10.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi.: Nasaf, 2000. -B.80.;
11.Saydahmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash. -T.: «Istiqbol», 2002. -B. 62.;
12.Yunusova D.I. Bo'lajak matematika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok.diss. -T.: TDPU, 2012. -B. 140.
13. Djoraev M. Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi. -T. Fan va texnologiya, 2015, 352 b

Turapova Ra'no Barat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda dialogik nutqni rivojlantirishda variativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rolli o'yinlar, dramatizatsiya va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarda erkin muloqot qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda hamkorlikka asoslangan o'qitish, oila-maktab hamkorligi va multimediya vositalaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatib berilgan. Maqolada innovatsion metodlarning ta'lim jarayonida qo'llanishi o'quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytirishi va ularning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *variativ yondashuv, innovatsion metodlar, dialogik nutq, boshlang'ich ta'lim, interfaol metod, rolli o'yin, AKT, ijodiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ НА ОСНОВЕ ВАРИАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье подробно рассматриваются теоретические и практические аспекты применения инновационных методов в развитии диалогической речи учащихся начальных классов на основе вариативного подхода. Особое внимание уделено интерактивным методам, использованию информационно-коммуникационных технологий, ролевым играм, драматизации и творческим заданиям, которые способствуют формированию у школьников свободного общения, самостоятельного мышления и творческого подхода. Подчеркивается эффективность инновационных стратегий в повышении коммуникативной компетентности, активизации учебной деятельности, а также в укреплении сотрудничества между школой и семьей. Автор показывает, что внедрение инновационных методов усиливает речевую активность учащихся и положительно влияет на их социализацию.*

Ключевые слова: *вариативный подход, инновационные методы, диалогическая речь, начальное образование, интерактивные методы, ролевая игра, ИКТ, творческое мышление, коммуникативная компетентность.*

APPLICATION OF INNOVATIVE METHODS THROUGH A VARIATIVE APPROACH IN DEVELOPING PRIMARY SCHOOL PUPILS' DIALOGIC SPEECH

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of applying innovative methods to the development of dialogic speech in primary school pupils through a variative approach. It emphasizes the effectiveness of interactive teaching strategies, information and communication technologies, role-playing, dramatization, and creative tasks in fostering pupils' independent thinking, open communication, and creative expression. The study highlights how innovation-based strategies enhance communicative competence, increase pupils' active participation in the learning process, and promote effective collaboration between school and family. The findings suggest that integrating innovative methods into variative approaches significantly strengthens pupils' speech activity and positively influences their socialization in the educational environment.*

Key words: *variative approach, innovative methods, dialogic speech, primary education, interactive strategies, role-playing, ICT, creative thinking, communicative competence.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayoniga qo‘yilayotgan talablar kun sayin ortib bormoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning muloqotga kirishish, o‘z fikrini erkin bayon etish va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarda dialogik nutqni rivojlantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Dialogik nutq o‘quvchilarning til boyligini oshiradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, ularni o‘zaro hamkorlikka, o‘z fikrini mantiqiy asoslashga va boshqalar fikrini tinglab bahslashishga o‘rgatadi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ta’limda **variativ yondashuv** keng qo‘llanila boshladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olib, turli xil metod va uslublardan foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, **innovatsion metodlar** – interfaol mashg‘ulotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rolli o‘yinlar, dramatizatsiya va ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarda dialogik nutqni shakllantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Ushbu metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi, ularni qiziqarli muhitda muloqot qilishga undaydi va ijtimoiy-psixologik jihatdan mustahkamlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida oila va maktab hamkorligi, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar ham dialogik nutqni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki o‘quvchilar uchun nutqiy muhit faqat sinf doirasida emas, balki oilaviy va ijtimoiy muhitda ham shakllanadi. Shu sababli, innovatsion metodlarni qo‘llashda ularni oilaviy muloqot va maktabdan tashqari faoliyat bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, variativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda samarali yo‘l bo‘lib, nafaqat til o‘rganish jarayonini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham kengaytiradi. Shu bois mazkur masalani chuqur tadqiq etish, nazariy va amaliy asoslarini belgilash hamda ta’lim jarayoniga samarali joriy etish bugungi kun pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixolingvistika fanlarida keng o‘rganilgan. Xususan, rus olimlari L.S. Vygotskiy, A.A. Leontyev, D.B. Elkoninlarning tadqiqotlarida bolaning nutqiy rivojlanishi ijtimoiy muhit, muloqot faoliyati va o‘qituvchi rahbarligida shakllanishi ta’kidlangan. Ularning fikriga ko‘ra, dialogik nutq o‘quvchining ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida kamol topishida asosiy vosita hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar – A.A. Abduqodirov, N. Jo‘raev, Sh. Yusupova va boshqalar esa boshlang‘ich ta’lim jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi, o‘qish darslari hamda interfaol metodlarning ahamiyatini yoritib bergan. Ularning ishlarida bolalarda erkin muloqot qilish, savol-javoblarda faol ishtirok etish, o‘z fikrini asoslab berish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish boshlang‘ich ta’limning eng muhim vazifasi sifatida qayd etiladi.

So‘nggi yillarda innovatsion metodlarning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi masalasi ham keng o‘rganilmoqda. Masalan, J. Dewey, H. Gardner, E. Maslow kabi g‘arb olimlari ta’lim jarayonida kreativ muhit yaratish, interfaol mashg‘ulotlar tashkil etish va shaxsiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini kuchaytirish mumkinligini asoslaganlar.

Shuningdek, AKT vositalaridan foydalanish, multimediali topshiriqlar, rolli o‘yinlar va dramatizatsiya mashg‘ulotlari haqidagi ilmiy ishlarda (M. Warschauer, S. Papert va boshqalar) bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortishi, nutqiy faollikning kuchayishi va ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi farmon va qarorlari ham boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, erkin muloqot va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dialogik nutqni rivojlantirish masalasi turli jihatlardan yoritilgan bo‘lsa-da, uni variativ yondashuv asosida innovatsion metodlar orqali amalga oshirish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib, yanada chuqur ilmiy va amaliy izlanishlarni talab etadi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirish ko‘plab metodik omillarga bog‘liq. An’anaviy ta’lim metodlari o‘quvchilarning nutqiy faolligini qisman rivojlantirsa-da, ular yetarli darajada ijodiy fikrlash va erkin muloqot ko‘nikmalarini shakllantira olmaydi. Shu bois variativ yondashuv asosida innovatsion metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samara berishi kuzatildi.

Tajriba-sinov mashg‘ulotlari jarayonida interfaol metodlardan — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Munozara”, “Juftlikda ishlash”, “Rolga kirish” kabi usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar erkinroq fikr bildirish, savol berish va suhbatni davom ettirishga intilganlari aniqlandi. Bu esa ularda nutqiy mustaqillik va muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham o‘quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytirgan. Masalan, interaktiv taqdimotlar, animatsiyalangan hikoyalar, videoroliklar asosida tashkil etilgan suhbatlar o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirgan va ularni muloqotga jalb qilgan. Shuningdek, audio-vizual materiallar asosida olib borilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘z fikrlarini to‘liqroq va mantiqan bog‘lab ifodalashga intilgani kuzatilgan.

Rolli o‘yinlar va dramatizatsiya mashg‘ulotlari esa bolalarning til boyligini kengaytirish, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashda samarali bo‘lgan. O‘quvchilar sahnalashtirilgan mashg‘ulotlarda o‘zlarini turli rollarda tasavvur qilib, suhbat qurish, munosabat bildirish va o‘z fikrini himoya qilish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirgan.

Oila va maktab hamkorligining ta’siri ham natijalarda yaqqol ko‘rindi. Ota-onalar bilan tashkil etilgan kitobxonlik kechalari, suhbatlar va kichik ijodiy loyihalar orqali o‘quvchilarning muloqotga bo‘lgan ishtiyoqi oshdi. Shuningdek, o‘quvchilar oilaviy suhbatlarda ham dialogik nutqni mashq qilib, uni kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, variativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish:

- o‘quvchilarda erkin muloqot qilish qobiliyatini kuchaytiradi;
- mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi;
- ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol subyekt sifatida namoyon etadi;
- kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, o‘tkazilgan tajribalar variativ yondashuv asosida innovatsion metodlarni qo‘llash boshlang‘ich ta’lim jarayonida dialogik nutqni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlab berdi.

Muhokama. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda variativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish natijalarini tahlil qilar ekanmiz, bir nechta muhim ilmiy-pedagogik jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, an’anaviy ta’lim metodlari o‘quvchilarning nutqiy faolligini cheklab qo‘yishi, ko‘proq tayyor bilimni o‘zlashtirishga yo‘naltirilishi bilan xarakterlanadi. Natijada o‘quvchilarda erkin fikrlash, mustaqil savol berish va suhbat jarayonida faol ishtirok etish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmay qoladi. Variativ yondashuv esa ta’lim jarayonida turli usullarni uyg‘unlashtirish orqali bu kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, innovatsion metodlarning samaradorligi tajriba natijalarida ham tasdiqlandi. Xususan, interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qildi, ularda suhbatlashish madaniyati, mantiqiy fikrlash va bir-birining fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish odatini shakllantirdi. Bu holat L.S. Vygotskiy va A.A. Leontyevlarning “muloqot ijtimoiy faoliyatning markaziy elementi” degan qarashlari bilan hamohangdir.

Uchinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qildi. O‘quvchilar multimedia vositalari orqali matn, rasm, ovoz va

video bilan bir vaqtda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, nutqiy faoliyatda kengroq ishtirok etishdi. Bu esa S. Papert va M. Warschauerlarning “texnologiyalar ta’lim jarayonida faollikni oshiruvchi vosita” ekanligi haqidagi fikrlarini amalda tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, rolli o‘yinlar va dramatizatsiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytirish, turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish hamda o‘zini nutqiy muhitda erkin his etishlariga yordam berdi. Bu metodlar bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirdi va o‘zaro hamkorlikni mustahkamladi.

Beshinchidan, oila va maktab hamkorligining dialogik nutqni rivojlantirishdagi o‘rni ham alohida ta’kidlash lozim. Ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarda nutqiy muhitni kengaytirib, muloqotga bo‘lgan qiziqishni oshirdi. Bu holat ta’lim jarayoni faqat maktab doirasida emas, balki oilaviy va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, muhokama shuni ko‘rsatadiki, variativ yondashuv asosida innovatsion metodlarni qo‘llash o‘quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki erkin fikrlashga, ijodkorlikka, muloqotchanlikka va ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olib, ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot, adabiyotlar tahlili, tajriba-sinov mashg‘ulotlari va ularning natijalarini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Dialogik nutq nafaqat o‘quvchilarning til boyligi va lingvistik kompetensiyasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijtimoiylashuv, ijodiy yondashuv va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, **variativ yondashuv** asosida **innovatsion metodlardan** foydalanish o‘quvchilarda quyidagi o‘zgarishlarga olib keladi:

- erkin muloqot qilish, suhbatni davom ettirish va savol-javoblarda faol ishtirok etish ko‘nikmalarining shakllanishi;
- mustaqil va ijodiy fikrlash jarayonlarining faollashuvi;
- mantiqiy asoslangan nutqiy bayonotlarni tuzish va ularni himoya qilish qobiliyatining kuchayishi;
- ijtimoiy-psixologik muhitda o‘zini erkin tutish va hamkorlikni rivojlantirish;
- kommunikativ kompetensiyaning sezilarli darajada yuksalishi.

Shuningdek, innovatsion metodlar — interfaol mashg‘ulotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, rolli o‘yinlar va dramatizatsiya kabi usullar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi, ularning qiziqishini oshirishi va o‘zaro muloqot muhitini yanada samarali tashkil etishga yordam bergani tajriba natijalarida yaqqol ko‘rindi.

Bundan tashqari, oila va maktab hamkorligining samarali yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda muhim shartlardan biri ekanligi aniqlandi. Bu esa ta’lim jarayonining maktab bilan cheklanib qolmasligini, balki oilaviy va ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqada bo‘lishi zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, variativ yondashuv asosida innovatsion metodlarni qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini kuchaytirish, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va shaxs sifatida ijtimoiy hayotga tayyorlashda samarali vosita ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Shu bois ushbu yondashuvni yanada kengroq tadqiq etish va ta’lim amaliyotiga joriy etish istiqboldagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.

2. Ra’no T., O’ralova F. History of the Origin of Dialogical Speech //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 9. – C. 92-97.

3. Ra'no T., Maftuna B. Variative Approach Based on of Children Dialogic Speech Development Methodology Improvement //European Journal of Higher Education and Academic Advancement. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 99-104.

4. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

5. Turapova R. Ways to teach preschool children to act tale //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – T. 1. – №. 11. – C. 42-46.

6. Turapova R., Abdusalomova G., Khalilova S. Making different toys from natural and waste materials in a preschool educational organization //International Conference on Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 14-18.

7. Toshpo'Latov F. U., Turopova R. N. B. Q. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasbhunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

8. Turapova R. Mechanisms for Improving Children's Dialogical Speech //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 49-53.

9. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 272-275.

10. Турапова P. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – T. 1. – №. 4.

11. Turapova R. B. Variativ yondashuv asosida o 'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish dolzarb masalalari //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 279-288.

12. Mushtariy S. et al. Ways of using games in forming the activity of preschool children //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 119-135.

Ro‘zimatov Jamshid Alisher o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNI TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING MAVJUD HOLATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimi islohotlari kontekstida o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning dolzarb muammolari yoritilgan. Asosiy e’tibor o‘quvchilarga tabiat hodisalarini tahlil qilish, ilmiy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va mustaqil ravishda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va metodik yondashuvlariga qaratilgan.*

Alohida ahamiyat fanlararo bog‘lanishlarni integratsiyalash, zamonaviy texnologiyalardan (STEM, sun’iy intellekt) va faol ta’lim usullaridan (loyihalar asosida ishlash, muammoli ta’lim) foydalanishga beriladi. O‘zbekiston maktab o‘quvchilarining Xalqaro PISA tadqiqotidagi ishtiroki natijalari tahlil qilinib, ular duch kelgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Maqola raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Metodik tavsiyalar an’anaviy pedagogik g‘oyalar (Al-Forobiy, Al-Beruniy fikrlari) va innovatsion ta’lim amaliyotlarini sintez qilish asosida ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Tabiiy-ilmiy savodxonlik, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, metodik takomil-lashtirish, faol o‘qitish usullari, loyiha asosida o‘qitish, ilmiy fikrlash, eksperimental tadqiqotlar, kuzatish usullari, fanlararo integratsiya, innovatsion texnologiyalar, mustaqil o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlar, ma’lumotlarni tahlil qilish, sinov va tajribalar, kreativ yondashuv, o‘quvchilarning bilim darajasi, pedagogik uslublar, PISA, STEM-ta’lim, tanqidiy fikrlash.*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье в контексте реформ системы образования Узбекистана освещаются актуальные проблемы формирования у учащихся естественно-научной грамотности и исследовательских навыков. Основное внимание уделяется целям, задачам и методическим подходам, направленным на развитие у школьников умений анализировать природные явления, применять научные знания на практике и самостоятельно решать возникающие проблемы.*

Особое значение придается интеграции межпредметных связей, использованию современных технологий (STEM, искусственный интеллект) и активных методов обучения (проектная деятельность, проблемное обучение). Анализируются результаты участия узбекских школьников в международном исследовании PISA, выявляются трудности, с которыми они столкнулись, и предлагаются пути их преодоления.

В статье подчеркивается важность развития критического мышления, креативного подхода и исследовательских компетенций для подготовки конкурентоспособных специалистов. Методические рекомендации разработаны на основе синтеза традиционных педагогических идей (взглядов Аль-Фараби, Аль-Бируни) и инновационной образовательной практики.

Ключевые слова: *естественно-научная грамотность, исследовательские навыки, методическое совершенствование, активные методы обучения, проектное обучение, научное мышление, экспериментальные исследования, методы наблюдения, межпредметная интеграция, инновационные технологии, самостоятельное обучение, практические занятия,*

анализ данных, тесты и эксперименты, креативный подход, уровень знаний учащихся, педагогические методы, PISA, STEM-образование, критическое мышление.

THE CURRENT STATE OF METHODOLOGY FOR DEVELOPING RESEARCH SKILLS BASED ON THE FORMATION OF STUDENTS' SCIENTIFIC LITERACY

Abstract. *This article highlights the pressing issues of developing scientific literacy and research skills among students within the context of educational reforms in Uzbekistan. The main focus is placed on the goals, objectives, and methodological approaches aimed at fostering students' ability to analyze natural phenomena, apply scientific knowledge in practice, and independently solve problems.*

Particular attention is given to the integration of interdisciplinary connections, the use of modern technologies (STEM, artificial intelligence), and active teaching methods (project-based learning, problem-based learning). The article analyzes the results of Uzbek students' participation in the international PISA study, identifies the challenges they faced, and suggests ways to overcome them.

The study emphasizes the importance of developing critical thinking, creative approaches, and research competencies for training competitive specialists. Methodological recommendations are developed on the basis of synthesizing traditional pedagogical ideas (the views of Al-Farabi and Al-Biruni) with innovative educational practices.

Keywords: *scientific literacy, research skills, methodological improvement, active teaching methods, project-based learning, scientific thinking, experimental research, observation methods, interdisciplinary integration, innovative technologies, independent learning, practical activities, data analysis, tests and experiments, creative approach, students' knowledge level, pedagogical methods, PISA, STEM education, critical thinking.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida olib boriladigan islohotlarning tub maqsadi davlat va jamiyatning ta’lim jarayoni oldiga qo‘ygan buyurtmasini ta’minlashdan iborat. Jumladan, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur, raqobatbardosh, ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularga beriladigan ta’lim-tarbiya va ilmiy bilimlar mazmunini takomillashtirishga qaratilgan. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqiyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilab qo‘yilganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-avgust, PQ-4805-sonli qaroriga asosan Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilanganligi bejizga emas.

O‘quvchilarda mantiqiy fikrlash malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko‘nikmasini shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ota-bobolarimiz tomonidan e’tirof etib kelingan.

Abu Nasr Forobiy asarlarida bilim o‘zlashtirish jarayoni haqida shunday deydi: “Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo‘lga kiritadi ... seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi ...”

Forobiy “Aql to‘g‘risida”gi risolasida axloqli kishining “o‘n ikki tug‘ma xislati”ni ta’riflar ekan, insonning fikrlash xususiyatiga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, aql-zakovatli inson barcha masala yuzasidan o‘tkaziladigan muhokama va mulohazani tez va to‘g‘ri tushunadigan, uning ma’nosini anglab so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan, xotirasi juda baquvvat bo‘lib, ko‘rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan

chiqarmay, yodida saqlab qoladigan, zehni biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda bilib oladigan, fikri va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon bayon eta oladigan, bilimlarni osonlik bilan o‘zlashtira oladigan bo‘lishini alohida ta’kidlaydi.

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo‘lishida aql, fikr, sezgilarining o‘rni haqida, shunday deb yozadi: “Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o‘rganishda juda katta yutuqlarga erishmog‘i mumkin. Istaklarga mehnat tufayli erishiladi”[1].

STesting elektron platformasida PISA tadqiqotida mamlakatimizdan jami 1 000 000 ga yaqin maktab o‘quvchilari 2023-yilning fevral-iyul oylarida 6 oy mobaynida ishtirok etdilar. Ular o‘qish savodxonligi, tabiiy- ilmiy savodxonlik va matematik savodxonlik yo‘nalishlarida olgan bilimlarini PISA tadqiqotlarida o‘tgan yillar davomida foydalanilgan ochiq bazadagi test-topshiriqlarini bajarib sinab ko‘rdilar.Tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha Sirdaryo viloyati 27,2% baholash natijasi bilan eng yaxshi natijani qayd etgan bo‘lsa, Surxondaryo viloyati 5,6% baholash natijasi bilan uning aksini ko‘rsatgan. Tumanlar bo‘yicha Boyovut 34,8% baholash natijasi bilan respublikadagi eng yaxshi natijani qayd etgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatining Qo‘shtepa, Oltiariq va Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanlari 1% natija bilan eng quyi natijani qayd etdilar. PISA-2018 tadqiqotlarida Dominika respublikasi 336 ball (33,6%) bilan eng oxirgi natijani qayd etgan. O‘quvchilar tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda eng oddiy tushunchalarni ham yangi vaziyatlarda qo‘llashda, yoki fikrlarini taklif qilish so‘ralganda qiyinchilikka duch kelishdi. Topshiriqda berilgan grafik ma’lumotlarga asoslangan savolga javob berish so‘ralganda, ular ko‘pincha bunday ko‘rsatmalarni tushunmaganliklarini kuzatildi. Topshiriqni tushuntirish yoki asoslashni so‘ralganda, ular buni tushunmagandek taassurot qoldirdilar. Bu esa o‘quvchilarning badiiy adabiyotlarni ko‘p o‘qimaganliklaridan va topshiriqlarni o‘qib tushunishda muammolari borligidan dalolat beradi. Bunday hollarda ular hodisalarni jiddiy tahlil qilmasdan, fikrlamasdan tez javob berishni afzal ko‘radilar va xatolikka yo‘l qo‘yadilar.

E.G‘oziyev, B.Raximov va boshqa olimlar bu masala bo‘yicha ilmiy aoslangan fikrlar bildirishgan. Ular bolani intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo‘lishini, bu ehtiyoj uning oldiga qo‘yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo‘lgan qiziqishdan tug‘ilishini asosladilar. O‘quvchi oldiga qo‘yilgan muammoni o‘zidagi tadqiqotchilik qobiliyati, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to‘liq safarbar etgan holda hal etishini ilmiy-amaliy jihatidan isbot qilib berdilar. Maktab ta’limi jarayonida o‘quvchilarda borliq haqida ma’lumot, tushuncha hosil qildiribgina qolmay, ana shu dunyoni o‘zi anglab etish uchun ularga sharoit, imkoniyat yaratishimiz zarur.

Tabiiy-ilmiy savodxonlik - bu atrof-muhitdagi tabiiy hodisalar va ilmiy tushunchalarni tushunish, ularni tahlil qilish va amaliy hayatda qo‘llash qobiliyatidir. Bu tushuncha quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tabiat qonuniyatlarini bilish (fizika, kimyo, biologiya, geografiya asoslari).
2. Ilmiy fikrlash qobiliyati (tajriba, kuzatish, tahlil orqali bilim olish).
3. Atrof-muhit bilan muloqot (ekologik masalalar, tabiatni muhofaza qilish).
4. Amaliy qo‘llash ko‘nikmalari (kundalik hayotda ilmiy bilimlardan foydalanish)
5. Fanlararo bog‘lanishlarni tushunish (fanlarning o‘zaro aloqadorligi)

Tabiiy-ilmiy savodxonlik nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy hayatda qanday qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiya zamonaviy dunyoda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, yoshlarni ilmiy dunyoqarash bilan qurollantirishga qaratilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlashni, balki ularning mustaqil fikrlash, tadqiqot qilish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy ilmiy savodxonlikni shakllantirish va tadqiqotchilik

[1] Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. I-т. – Тошкент, 1968, – 151 б

koʻnikmalarini rivojlantirish bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. 1-4-sinf oʻquvchilarida ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari va amaliy tajribalari yoritiladi.

"Tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish – bu oʻquvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, usul va malakalarni shakllantirish jarayonidir. Ushbu tushuncha bir nechta asosiy jihatlarni oʻz ichiga oladi. Avvalo, ilmiy metodlarni qoʻllash, ya'ni kuzatish, eksperiment, taqqoslash va tahlil qilish kabi usullardan foydalanish, ma'lumotlarni toʻplash, saralash va tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, manbalarga tanqidiy yondashish va faktlarni obyektiv baholay bilish tadqiqot faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Oʻquvchilar mustaqil tarzda tadqiqot mavzularini tanlash, loyihalarni ishlab chiqish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga oʻrgatiladi. Bu jarayonda innovatsion yondashuvlar, jumladan, fanlararo integratsiya asosida loyihalar ishlab chiqish hamda zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirishning ahamiyati beqiyos boʻlib, u oʻquvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va amaliy hayotda bilimlarni qoʻllash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, tabiiy-ilmiy savodxonlik asosida tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish metodikasi oʻquvchilarga biologiya, fizika, kimyo, geografiya va ekologiya fanlari boʻyicha asosiy bilimlarni berish bilan birga, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar tizimidir.

Mazkur metodikaning asosiy komponentlari sifatida tabiiy fanlar boʻyicha bilimlar bazasini shakllantirish, ya'ni tabiat hodisalarini tushuntirish, ilmiy tushunchalar va qonuniyatlarni oʻzlashtirish koʻrsatib oʻtiladi. Shu bilan birga, oʻquvchilarda kuzatish oʻtkazish, tajribalar tashkil etish, ma'lumotlarni tahlil qilish, gipoteza yaratish va uni tekshirish, loyiha ishlab chiqish va natijalarni taqdim etish kabi tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Metodik yondashuvlar esa faol oʻqitish usullari, jumladan, tajriba oʻtkazish, loyiha asosida ishlash, muammoli vaziyatlar orqali oʻrganish hamda fanlararo integratsiya asosida ekologik muammolarni turli fanlar vositasida tahlil qilish kabi jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

Amaliy jihatdan ushbu metodika bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi: oddiy kuzatishlardan murakkab loyihalargacha olib chiqish, individual va jamoaviy ishlashni uygʻunlashtirish hamda baholash mexanizmlarida portfoliodan foydalanish, ijodiy yechimlarni ragʻbatlantirish kabilar oʻquv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Ushbu metodikaning asosiy maqsadi oʻquvchilarda tabiatni ilmiy nuqtai nazardan tushunish qobiliyatini shakllantirish, mustaqil fikrlash va innovatsion yechimlar topish koʻnikmasini rivojlantirish, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur boʻlgan tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdir. Shu bois, mazkur metodika zamonaviy ta'limda "bilim berish"dan koʻra, "tadqiqotchi shaxsni tarbiyalash"ga qaratilgan boʻlib, oʻquvchilarni nafaqat maktabda, balki hayotda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Xulosa. Oʻquvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish koʻpgina davrlardan beril rivojlantirib kelinayotgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Buning hozirgi kundagi holati kelgusidagi natijalarini poydevori boʻladi.

Oʻquvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng dolzarb yoʻnalishlaridan biridir. Bu jarayon tabiat fanlari (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) boʻyicha nazariy bilimlar bilan amaliy tadqiqot qobiliyatlarini uygʻunlashtirishga qaratilgan. Asosiy maqsad – oʻquvchilarda tabiiy hodisalarni ilmiy nuqtai nazardan tushunish, ularni tahlil qilish va amaliy hayotda qoʻllash qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Oʻquvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish — bu nafaqat ularning ilmiy bilimlarini boyitish, balki mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish kabi tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish uchun ham muhim asosdir. Bunday yondashuv orqali oʻquvchilar oddiy hayotiy hodisalarga ilmiy nuqtai nazardan qarashni oʻrganadilar, savol berishga, tajriba oʻtkazishga va xulosa chiqarishga odatlanadilar. Shunday qilib, ular kichik yoshdanoq izlanishga qiziqadigan, muammoni tahlil qila oladigan va asosli fikr yurita oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi: birinchidan, kuzatish va eksperiment oʻtkazish orqali bilimlarni mustaqil oʻzlashtirish; ikkinchidan,

ilmiy metodlardan (taqqoslash, sintez, tahlil) samarali foydalanish; uchinchidan, loyiha asosida ishlash qobiliyatini rivojlantirish. Bu jarayonda STEM yondashuvi, fanlararo integratsiya va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali natijalarga olib keladi.

Natijada, o‘quvchilar nafaqat tabiiy fanlar bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘ladilar, balki tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirishadi. Bu esa ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, tabiiy-ilmiy savodxonlik asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u bilimlarini amaliyot bilan bog‘lay bilgan, innovatsion fikrlashga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абу Наср Форобий. Рисолалар. Масъул муҳаррир Ўзбекистон Республикаси ФА ҳақиқий аъзоси М.М.Хайруллаев. – Тошкент: Фан нашриёти, 1975. – 71-72 б.

2. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. I-т. – Тошкент, 1968, – 151 б

3. M. Ergasheva, Q.A.Niyozov “O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlari va topshiriqlaridan foydalanish metodikasi” Toshkent – 2023. 102-B.

4. N.N.Narzieva “O‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari” maqola. Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2016-yil 6-son. 160-b

5. Jamshid, R. (2024). The role of using digital educational technologies in methodical training of future primary school teachers. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(3-2), 109-113.

6. Ro'zimatov Jamshid. (2025). O'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida. conference of natural and applied sciences in scientific innovative research, 2(2), 165–169. https://doi.org/10.5281/zenodo.14955992

Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasi mudiri, dotsent

AKSIOLOGIK PARADIGMANING TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRINI KUCHAYTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aksialogik paradigmaning ta'lim tizimiga ta'sirini kuchaytirish yo'llari tahlil qilinadi. Muallif aksialogik yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ochib berib, ularning shaxsiy rivojlanish, axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va milliy qadriyatlarni ta'limga integratsiyalash orqali aksialogik paradigmaning samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich ta'limda aksialogik yondashuvlarni joriy etish orqali o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Aksialogik paradigma, ta'lim tizimi, ta'sirni kuchaytirish, shaxsiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, milliy qadriyatlar, boshlang'ich ta'lim.*

АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА И СПОСОБЫ УСИЛЕНИЯ ЕЁ ВЛИЯНИЯ НА СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются способы усиления влияния аксиологической парадигмы на систему образования. Автор раскрывает значение аксиологических подходов в образовательном процессе, подчеркивая их роль в личностном развитии и формировании нравственно-эстетических ценностей. Кроме того, рассматриваются пути повышения эффективности аксиологической парадигмы через интеграцию современных педагогических технологий, интерактивных методов и национальных ценностей в образовательный процесс. Особое внимание уделяется внедрению аксиологических подходов в начальном образовании с целью всестороннего развития личности учащихся.*

Ключевые слова: *аксиологическая парадигма, система образования, усиление влияния, личностное развитие, нравственные ценности, педагогические технологии, интерактивные методы, национальные ценности, начальное образование.*

AXIOLOGICAL PARADIGM AND WAYS TO ENHANCE ITS IMPACT ON THE EDUCATION SYSTEM

Abstract. *This article analyzes ways to enhance the impact of the axiological paradigm on the education system. The author reveals the importance of axiological approaches in the educational process, emphasizing their role in personal development and the formation of moral and aesthetic values. Additionally, the article explores methods to increase the effectiveness of the axiological paradigm through the integration of modern pedagogical technologies, interactive methods, and national values into the educational process. Special attention is given to the implementation of axiological approaches in primary education to achieve comprehensive development of students' personalities.*

Keywords: *axiological paradigm, education system, enhancing impact, personal development, moral values, pedagogical technologies, interactive methods, national values, primary education.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini aksiologik yondashuv bilan integratsiyalash ta'limning mazmuni, shakli va natijalarida "qadriyat foydasi"ni oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda bilim (kognitiv) natija axloqiy va ijtimoiy natijalar bilan birga loyihalanadi: o'quvchi faktlarni bilish bilan cheklanmay, qarorlarida halollik, adolat, bag'rikenglik kabi mezonlardan

foydalanishni o‘rganadi. Nazariy poydevor sifatida L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik qarashlari, J. Dyui va D. Kolbning tajribaga asoslangan o‘qitish modeli, L. Kolberg va J. Restning axloqiy rivojlanish nazariyalari (muammo-vaziyatlar orqali tafakkurni chuqurlashtirish) hamda Shvartsning qadriyatlar nazariyasi (qadriyatlar spektrini o‘lchash)ga tayanch olinadi. Amaliyotga joriy etishda o‘qitishning kognitiv maqsadlari Bloom–Krathwohlning affektiv domeni bilan birlashtiriladi: “bilish–tushunish–qo‘llash” yoniga “qabul qilish–baholash–ichkilashtirish” bosqichlari qo‘shiladi. Shu birikma natijasida ta’lim texnologiyasi “bilimli-yu, beqadriyat emas”, balki “bilimli va qadriyatli” shaxsni yetishtirishga yo‘naltiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishda o‘yin faoliyatidan foydalanish ham samarali strategiya hisoblanadi. Tadqiqotlar (J. Piaget, K. Gross, D.B. Elkonin) bolalarning o‘yin jarayonida ijtimoiy rollarni sinab ko‘rishi, axloqiy me’yorlarni amaliyotda o‘zlashtirishi va qadriyatlarni ichkilashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, “Do‘kondor va xaridor” o‘yini orqali o‘quvchilar halollik, adolat va mas’uliyatni, “Jamoa qurilishi” o‘yinida esa hamkorlik, birdamlik va hurmatni his etadilar. Shu bilan birga, rolli o‘yinlarda bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularning manfaatlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Hayotiy tajribadan misol keltirsak, sinfda tashkil etilgan “Mehribonlik shaharchasi” o‘yinida bolalar turli kasblarni ijro qilib, bir-biriga yordam berishni, adolatli qaror qabul qilishni va umumiy maqsad yo‘lida harakat qilishni tajribadan o‘tkazadilar. Demak, o‘yin faoliyati bolalarda axloqiy qaror qabul qilish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish va qadriyatlarni ongli ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlashning samarali usulidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishda baholash va rag‘batlantirish tizimini qadriyatlarga yo‘naltirish ham muhim strategiyalardan biridir. Tadqiqotlar (B.F. Skinner, V. Vroom, A.Maslow) shuni ko‘rsatadiki, bolaning ijtimoiy xulqini shakllantirishda tashqi rag‘bat (maqtov, mukofot) dastlab muhim bo‘lsa, keyinchalik ichki rag‘bat (o‘zini qadrlash, axloqiy qoniqish) hal qiluvchi o‘rin tutadi. Masalan, halollik ko‘rsatgan o‘quvchini ochiqchasiga maqtash boshqa bolalarga ham ijobiy namuna bo‘ladi, ammo vaqt o‘tishi bilan u o‘z xatti-harakatlarining jamiyatga foydali ekanini tushunib, ichki qoniqishdan zavqlana boshlaydi. Hayotiy misol sifatida, sinfda “Halollik yulduzi” yoki “Mehribon qo‘l” kabi ramziy mukofotlar joriy etilishi o‘quvchilarni axloqiy qadriyatlarga rioya qilishga undaydi. Shu bilan birga, rag‘batlantirishning haddan tashqari tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib qolmasligi, balki ichki motivatsiyani mustahkamlashi zarur. Demak, baholash va rag‘batlantirish tizimining to‘g‘ri yo‘naltirilishi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarning barqaror shakllanishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirish jarayonida sinfdan tashqari faoliyatlarning roli ham beqiyosdir. Tadqiqotlar (J. Dewey, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy) shuni ko‘rsatadiki, bolalar maktabdan tashqarida — to‘garaklar, ijtimoiy loyihalar, teatr sahnalari yoki sport musobaqalari orqali o‘z axloqiy qarashlarini amalda sinab ko‘radilar. Masalan, “Mehribonlik aksiyasi” doirasida bolalar qariyalar uyiga tashrif buyurib, yordam ko‘rsatish orqali mehr-shafqat va g‘amxo‘rlik qadriyatlarini o‘zlashtiradilar. Sport musobaqalarida esa halollik, mehnatsevarlik va jamoaviy birdamlik qadriyatlari mustahkamlanadi. Shuningdek, maktab kutubxonasida tashkil etiladigan “Axloqiy ertaklar kechasi” yoki “Kitobxonlik haftaligi” bolalarda nafaqat mutolaa ko‘nikmalarini, balki axloqiy qaror qabul qilish malakasini ham rivojlantiradi. Amaliy tajribadan ma’lumki, sinfdan tashqari faoliyatlarda qatnashgan bolalar o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qilib, mas’uliyatni chuqurroq anglaydilar. Shu sababli, sinfdan tashqari faoliyatlarni samarali tashkil etish o‘quvchilarda axloqiy asoslarning amaliy shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishning yana bir samarali yo‘li — o‘quvchi shaxsini real hayotiy vaziyatlarda faol ishtirok etishga yo‘naltirishdir. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalar (P. Freire, J. Bruner, D. Kolb)ga ko‘ra, bola o‘z tajribasi orqali anglagan qadriyatni ongli ravishda qabul qiladi va uni hayotiy qarorlarida qo‘llashni o‘rganadi. Masalan, sinfda “Adolat sudi” o‘yin-mashg‘uloti o‘tkazilib, unda bolalar turli rollarda (sudya, guvoh, ayblovchi, himoyachi) ishtirok etib, adolat, haqiqatparvarlik va mas’uliyat qadriyatlarini sinovdan o‘tkazadilar. Shu bilan birga, maktab miqyosida tashkil etilgan “Yashil maktab” loyihasi

o‘quvchilarni ekologik mas’uliyat, tabiatga ehtiyotkorlik va kelajak avlod oldidagi burchni his etishga undaydi. Amaliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘zlari ishtirok etgan bunday real vaziyatlardan keyin axloqiy qarashlarini ongli ravishda boyitadilar va qadriyatlarni kundalik hayotida mustahkam qo‘llashga intiladilar. Demak, hayotiy vaziyatlarga asoslangan faoliyat strategiyasi boshlang‘ich ta’limda axloqiy asoslarni shakllantirishning eng ta’sirchan va samarali usullaridan biridir.

Tahlil va Natijalar. Boshlang‘ich ta’lim davri — shaxsning ma’naviy poydevori qo‘yiladigan eng muhim bosqich sifatida ta’lim psixologiyasi va pedagogika nazariyalarida alohida ta’kidlanadi. Chunki aynan shu davrda bola nafaqat bilim olishga qiziqa boshlaydi, balki uning shaxsiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar (J. Piaje, L. S. Vygotskiy, L.Kolberg) shuni ko‘rsatadiki, 7–10 yosh oralig‘i bolaning “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri”ni farqlash, ijtimoiy qoidalarga amal qilish va axloqiy qarorlar qabul qilishni o‘rganish davridir. Bu yoshda o‘quvchi avvalo tashqi nazorat (o‘qituvchi, ota-ona) asosida harakat qilsa-da, asta-sekin ichki nazorat — vijdon va mas’uliyat mexanizmlarini o‘zlashtira boshlaydi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim bosqichida ishlab chiqiladigan strategiyalar faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, balki bolalarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, ularni adolat, halollik, bag‘rikenglik, hamkorlik kabi qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilishi zarur. Masalan, dars jarayonida o‘quvchilarga kichik vazifalar yuklash (doskani tozalash, kitoblarni tarqatish) orqali ularda javobgarlik va hamkorlik qadriyatlarini rivojlantirish mumkin. Demak, boshlang‘ich ta’lim — kelgusida barkamol shaxs shakllanishi uchun tayanch bosqich bo‘lib, bu davrda axloqiy asoslarni mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy asoslarni shakllantirish, avvalo, ularning kundalik hayoti va ta’limiy faoliyatida qadriyatlarga tayanilgan muhit yaratishni taqozo etadi. Pedagogika fanida isbotlanganidek (V.A. Slastyonin, A.V. Mudrik, Sh.A. Amonashvili), bola uchun maktab nafaqat bilim o‘chog‘i, balki ijtimoiy munosabatlarni amalda sinab ko‘radigan maydon hisoblanadi. Shu bois sinf jamoasida do‘stlik, o‘zaro yordam, hamkorlik va hurmat qadriyatlarini shakllantirish dastlabki axloqiy tarbiyaning markaziy vazifasidir. Masalan, o‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qilish orqali ularda “boshqani tinglash”, “fikriga hurmat bilan qarash” ko‘nikmalari rivojlanadi. Psixolog A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ham shuni ko‘rsatadiki, bolaning o‘zini jamoadagi muhim a’zo sifatida his qilishi uning yuqori darajadagi ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Shuningdek, Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘quvchilar o‘z tengdoshlaridan ham axloqiy xatti-harakatlarni o‘rganadi. Demak, axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun sinfdagi ijtimoiy muhitni qadriyatlarga tayangan holda yo‘naltirish eng muhim strategiyalardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf davrida axloqiy asoslarni shakllantirish jarayonida milliy qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ertaklar, maqollar, matallar va afsonalar bolalar uchun hayotiy hikmatlarni sodda, obrazli va ta’sirchan shaklda yetkazadi. Tadqiqotchi V.A.Suxomlinskiy ta’kidlaganidek, xalq og‘zaki ijodi bolalarning axloqiy tasavvurlarini shakllantirishda eng qudratli pedagogik vositalardan biridir. Masalan, “Yolg‘onchi cho‘pon” ertagi orqali rostgo‘ylik qadriyati, “Odobli bola — ota-onaning ko‘rki” maqoli orqali odob-axloqning jamiyatdagi o‘rni bolalarga bevosita tushuntiriladi. Shuningdek, xalq qo‘shiqlari va milliy urf-odatlarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilar o‘z milliy ildizlarini anglaydi, tarixiy xotirani saqlash va milliy iftixor tuyg‘ulari kuchayadi. Psixologik jihatdan qaralganda, bu yoshda bola obrazli fikrlash va emotsional qabul qilishga moyil bo‘lgani uchun, qadriyatlarni ramzlar, syujetlar va obrazlar orqali berish samaradorligi yuqori bo‘ladi. Demak, milliy madaniyat elementlarini ta’lim mazmuniga singdirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy poydevor yaratishda asosiy strategiyalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishning muhim strategiyalaridan yana biri — bu o‘qitish jarayonida muammoli vaziyatlar va axloqiy dilemmalardan foydalanishdir. Pedagogik tadqiqotlarda (L. Kolberg, J. Rest) isbotlanganki, bola axloqiy mulohaza darajasini oshirishi uchun u real hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilishni mashq qilishi zarur. Masalan, darsda “sinfdoshining daftarini topib olding — nima qilasan?” kabi savollarni muhokama

qilish orqali bolalar turli nuqtai nazarlarni tinglaydi, qaror qabul qilishda adolat, halollik va mas'uliyat mezonlarini qo'llashni o'rganadi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar faqat o'z manfaatidan kelib chiqib emas, balki jamoadagi boshqa bolalar manfaatini ham hisobga olishni o'zlashtiradilar. Shuningdek, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida ular nafaqat bilimdan foydalanadi, balki hissiy-irodaviy sifatlarini ham mustahkamlaydi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu usul bolaning empatiya qobiliyatini rivojlantirib, boshqalar hissiyotini his qilishga o'rgatadi. Natijada, o'quvchilar o'z qarorlarini axloqiy mezonlar asosida baholash, ijtimoiy javobgarlikni his qilish va insoniy qadriyatlarga tayangan holda yashashni bosqichma-bosqich o'zlashtiradilar.

Muhokama. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda axloqiy asoslarni shakllantirishning yana bir samarali yo'li — bu jamoaviy faoliyat va hamkorlikka asoslangan topshiriqlarni qo'llashdir. Tadqiqotlar (R. Johnson, D.Johnson, K. Lewin) ko'rsatadiki, kichik guruhlarda tashkil etilgan hamkorlik faoliyati bolalarda nafaqat ijtimoiy ko'nikmalarni, balki axloqiy qadriyatlarni ham shakllantiradi. Masalan, *"Birgalikda loyiha bajarish"* usulida bolalar vazifani adolatli taqsimlash, bir-birini tinglash va qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar. Shu jarayonda ularning shaxsiy manfaatni emas, balki umumiy maqsadni ustun qo'yishga intilishi kuzatiladi. Hayotiy misol sifatida, sinfda *"Toza sinf"* loyihasi o'tkazilganda, bolalar o'zaro navbatchilik qilish, tartibni saqlash va mas'uliyatni bo'lishish orqali axloqiy qadriyatlarni bevosita amalda qo'llaydilar. Bundan tashqari, bunday hamkorlik faoliyatlari L.S. Vygotskiyning "ijtimoiy o'rganish nazariyasi" asosida bola uchun yangi xulqiy model yaratadi: u tengdoshlari tajribasidan ham o'rganib, o'z axloqiy qarashlarini boyitadi. Demak, sinfda hamkorlik muhiti yaratish va jamoaviy faoliyatlarni tizimli yo'lga qo'yish o'quvchilarni bag'rikeng, adolatli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishning muhim strategiyasidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy asoslarni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda (A. Bandura, L.S. Vygotskiy, V.A. Suxomlinskiy) qayd etilishicha, bola kattalarning xatti-harakatlarini bevosita kuzatish orqali ularga taqlid qiladi va o'z xulq-atvorini shakllantiradi. Shu bois, o'qituvchining sinfdagi odobi, nutq madaniyati, muomala uslubi, adolatli baholashi o'quvchilar uchun "tirik darslik" vazifasini bajaradi. Masalan, o'qituvchi sinfda bahslashayotgan ikki bolaga xolisona yondashib, ularni adolatli yechimga yetaklasa, o'quvchilar ham shunga amal qilishga o'rganadilar. Shuningdek, pedagogning halolligi, o'z va'dasiga sodiqligi, kichiklarga mehribonligi bolalarda shu qadriyatlarni ongli ravishda ichkilashtirishga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola uchun o'qituvchi ko'pincha ideal shaxs sifatida qabul qilinadi va uning so'zlari, harakati ham axloqiy standartga aylanadi. Demak, o'qituvchi o'zining shaxsiy fazilatlari orqali o'quvchilarda rostgo'ylik, halollik, bag'rikenglik, insoniylik kabi qadriyatlarni mustahkamlashning eng samarali strategiyalaridan birini amalga oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishning samarali yo'llaridan yana biri — bu ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Tadqiqotlar (J. Dewey, U. Bronfenbrenner, A. Adler) ko'rsatadiki, bola tarbiyasi eng yaxshi natija berishi uchun maktab va oila bir-birini to'ldiruvchi muhit sifatida faoliyat yuritishi zarur. Chunki o'quvchi maktabda o'qituvchidan axloqiy saboqlar olsa, uyda ota-ona tomonidan shu qadriyatlarning davomiyligini ko'rmasa, tarbiyaviy jarayon uzilib qoladi. Masalan, maktabda "halollik" qadriyati haqida dars o'tilgach, uyda ota-onaning ham rostgo'ylikka amal qilishi bolaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, uyda qarama-qarshi xatti-harakatlar bo'lsa, bola o'zida qadriyatlar tizimini shakllantirishda ichki ziddiyatga duch keladi. Shu bois maktab va ota-ona hamkorligida "qadriyatlar haftaligi", "oilaviy suhbat kechalari", "ota-onalar uchun axloqiy seminarlar" tashkil etilishi muhimdir. Bu tashabbuslar nafaqat bolaning ma'naviy kamolotini ta'minlaydi, balki ota-onaning ham pedagogik savodxonligini oshiradi. Demak, maktab-oila hamkorligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim strategiyasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy asoslarni shakllantirishda o'quv dasturlariga qadriyatga yo'naltirilgan integratsiyani joriy etish alohida strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida (UNESCO, OECD, "Ta'lim 2030" dasturi) ta'kidlanishicha, bilim mazmuni shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashganda, ta'lim natijalari yanada barqaror va samarali

bo‘ladi. Masalan, matematika darsida “adolatli taqsimlash” masalalari, tabiatshunoslikda “atrof-muhitga mas’uliyat” mavzulari, tarixda esa “xalq qahramonlarining fidoyiligi” misollari o‘quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki qadriyatlarni ongiga chuqurroq singdiradi. Didaktik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv materialining mazmuniga qadriyatlar singdirilganda, bolalar uni eslab qolishi va amalda qo‘llashi osonlashadi. Bundan tashqari, bunday integratsiya darslarni qiziqarliroq qiladi, chunki ularning mazmuni bolalarning kundalik hayoti va shaxsiy tajribasi bilan bog‘lanadi. Demak, fanlarni qadriyatlar bilan integratsiya qilish boshlang‘ich ta’limda nafaqat bilim, balki mustahkam axloqiy asoslarni ham rivojlantiruvchi samarali strategiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustahkam axloqiy asoslarni shakllantirishda interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ham muhim strategiya hisoblanadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar (J. Piaget, L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin) shuni ko‘rsatadiki, o‘yin faoliyati bolalar uchun nafaqat ko‘ngilochar mashg‘ulot, balki ijtimoiy va axloqiy tajribani egallash vositasi hamdir. Masalan, “rolli o‘yinlar” orqali bolalar jamiyatdagi turli rollarni (do‘st, rahbar, yordamchi) sinab ko‘rib, odilona qaror qabul qilish, adolat va hurmat kabi qadriyatlarni amalda o‘zlashtiradilar. “Qaror daraxti” yoki “axloqiy viktorina” kabi metodlar bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi va ularning tanlovlarida axloqiy mezonlardan foydalanishni rag‘batlantiradi. Shuningdek, o‘yinlarda muvaffaqiyat faqat individual natijaga emas, balki jamoa muvaffaqiyatiga bog‘liq bo‘lgani uchun, hamkorlik, birdamlik va o‘zaro yordam qadriyatlari tabiiy shaklda rivojlanadi. Hayotiy misol sifatida, “Mehribonlik o‘yini”da bolalardan bir-biriga yaxshi so‘z aytish yoki yordam ko‘rsatish talab qilinadi, bu esa sinfda ijobiy muhitni kuchaytiradi. Demak, interfaol metod va o‘yin texnologiyalari bolalarda axloqiy qadriyatlarni tabiiy va samarali shakllantirishning muhim strategiyasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Егоров В.С., Сластенин В.А., Чижакова Г.И. Хрестоматия по педагогической аксиологии [Текст]: учебное пособие для вузов / сост. В.А. Сластенин, Г.И. Чижакова. — М.: МПСИ, 2005. — 480 с.
2. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. — 448 b.
3. Иномова М.О. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятларнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктора диссертацияси. — Тошкент, 1998. — 303 б.
4. Каган М.С. Философская теория ценностей / М.С. Каган. — Санкт-Петербург: Облик, 1997. — 213 с.
5. Каххарова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Автореферат диссертации фалсафа фанлари докторлиги учун. — Тошкент, 2012. — 56 б.
6. Кукушин В.С. Теория и методика воспитательной работы. — Ростов-на-Дону: Март, 2002. — 320 с.
7. Леонтьев А.Н. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). — Москва: Смысл, 2001. — 392 с.
8. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций [Текст] / Д.А. Леонтьев. — Москва: Мысль, 2002. — 179 с.
9. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. — Тошкент: O‘zbekiston, 2008. — 80 б.
10. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати / тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. — 760 б.

Temirova Iqbol Sadriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KOLLABORATIV METODLARNING ADABIY NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI SAMARADORLIGI: QUASI-EKSPERIMENTAL TADQIQOT

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning adabiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda kollaborativ metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot quasi-eksperimental yondashuv asosida olib borilib, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi natijalar taqqoslandi. Eksperimental guruhda “Badiiy klub” va “Og‘zaki taqdimot” metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshirganligi aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar*: boshlang‘ich ta’lim, kollaborativ metodlar, adabiy nutqiy kompetensiya, quasi-eksperiment, Badiiy klub, og‘zaki taqdimot.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОЛЛАБОРАТИВНЫХ МЕТОДОВ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ПРИ РАЗВИТИИ ЛИТЕРАТУРНОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ: КВАЗИ-ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется эффективность коллаборативных методов в развитии литературно-речевой компетенции учащихся начальной школы. Исследование проводилось на основе квази-экспериментального подхода, при котором результаты экспериментальной и контрольной групп были сопоставлены. В экспериментальной группе использование методов «Книжный клуб» и «Устная презентация» существенно повысило речевую компетентность, логическое мышление и социальную активность учащихся. Полученные результаты показывают, что инновационные педагогические подходы более эффективны по сравнению с традиционными методами и играют важную роль в формировании творческих и коммуникативных навыков младших школьников.*

Ключевые слова: *начальное образование, коллаборативные методы, литературно-речевая компетенция, квази-эксперимент, книжный клуб, устная презентация.*

THE EFFECTIVENESS OF COLLABORATIVE METHODS IN PRIMARY EDUCATION FOR DEVELOPING LITERARY SPEECH COMPETENCE: A QUASI-EXPERIMENTAL STUDY

Abstract. *This article examines the effectiveness of collaborative methods in developing literary and speech competence among primary school students. The study employed a quasi-experimental design, comparing the outcomes of experimental and control groups. In the experimental group, the use of “Book Club” and “Oral Presentation” methods significantly enhanced students’ speech competence, logical reasoning, and social engagement. The findings indicate that innovative pedagogical approaches are more effective than traditional methods and play a crucial role in fostering creativity and communicative skills in primary school learners.*

Keywords*: primary education, collaborative methods, literary and speech competence, quasi-experiment, Book Club, oral presentation*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning adabiy nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalar matnni o‘qish va tushunish bilan birga, uni mantiqiy bog‘lab ifodali o‘qish, mazmunini muhokama qilish hamda o‘z fikrini aniq bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantira boshlaydi (Alexander, 2020; Vygotsky, 1978).

Adabiy nutqiy kompetensiya o‘quvchining so‘z boyligi, muloqot madaniyati, hikoya tuzilishini anglash, mazmunni mantiqiy qayta ifodalash va ijodiy nutq qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa maktabdagi o‘quv jarayonida ham, kundalik hayotda ham samarali muloqot uchun zarur omil sanaladi (Johnson & Johnson, 2017).

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida hamkorlikka asoslangan yondashuv – kollaborativ metodlarning samaradorligi tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Vygotskiyning (1978) ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar bilimni eng samarali tarzda yaqin rivojlanish zonasi (ZPD)da, ya’ni hamkorlikdagi faoliyat davomida egallaydilar. Johnson va Johnson (2017) tadqiqotlari ham kichik guruhlarda ishlash o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammo yechish va muloqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, badiiy klub mashg‘ulotlari yoki og‘zaki taqdimot metodlari o‘quvchilarning matnni chuqurroq tushunish, fikrlarini mantiqiy ifodalash va jamoada samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi (Rosenblatt, 1994; Alexander, 2020).

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Singapur maktablarida kollaborativ metodlar boshlang‘ich sinflarda keng qo‘llanib kelinadi. Masalan, Avstraliya va Yangi Zelandiya maktablarida “Reading Circles” va “Book Club” metodlari o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, hikoya tuzilishini anglash hamda ijodiy ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi (Ministry of Education, New Zealand, 2019). Singapurda esa og‘zaki taqdimot usullari orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi va hamkorlikdagi muhokama ko‘nikmalari tizimli ravishda rivojlantirilmoqda (Singapore Ministry of Education, 2020).

O‘zbekistonda ham pedagog olimlar hamkorlikda o‘qitish samaradorligini o‘rganishga qiziqish bildirishmoqda. Ammo amaliyotda ushbu metodlarning keng qamrovli va tizimli tadqiqotlari yetarli darajada olib borilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot O‘zbekiston maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda kollaborativ metodlarning samaradorligini aniqlashga qaratildi.

Metodlar. Tadqiqot dizayni *quasi-eksperimental* yondashuvga asoslandi. Mazkur yondashuv mohiyatan an’anaviy eksperimentga yaqin bo‘lib, unda eksperiment va nazorat guruhlari shakllantiriladi, biroq guruhlarning tanlanishi to‘liq tasodifiy bo‘lmaydi. Bunday yondashuv ayniqsa maktab amaliyotida qulay hisoblanadi, chunki o‘quvchilarni butunlay tasodifiy ajratish yoki sinflarni qayta shakllantirish ko‘p hollarda imkonsiz bo‘ladi. Shunday sharoitda quasi-eksperimental dizayn tajriba jarayonini real ta’lim muhiti bilan uzviy bog‘lab o‘rganish imkonini beradi.

Quasi-eksperimentdan foydalanish, bir tomondan, tadqiqotchi uchun dars jarayonini tabiiy sharoitda kuzatish imkonini yaratsa, boshqa tomondan, nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish orqali metodlarning haqiqiy samaradorligini baholashga yordam beradi. Shu tariqa, quasi-eksperimental yondashuv real maktab muhitida pedagogik metodlarni sinovdan o‘tkazishda metodologik jihatdan asosli va samarali hisoblanadi.

Tadqiqot ishtirokchilari 3-sinf o’quvchilari bo’lib eksperiment guruhi ishtirokchilari tasodifiy tanlanmagan, ammo guruhlar yosh, qobiliyat va o‘quv tajribasi bo‘yicha taqqoslanadigan qilib ajratildi. Ular 28 o’quvchidan iborat 3-”A” sinfi hamda nazorat guruhida 26 nafar o‘quvchidan iborat bo’lgan 3-”B” sinfi tanlab olinib, unda an’anaviy metodlar orqali darslar olib borildi(ma’ruza va mustaqil o‘qish). Guruhlar o’quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi va ijtimoiy xususiyatlari o‘xshash tarzda tanlanishi natijalarni solishtirish imkonini beradi.


Tadqiqotda kichik maktab yoshidagi bolalarning adabiy nutqiy kompetensiyasi va ijtimoiy-kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir nechta kollaborativ yondashuvga asoslangan metodlar qo’llanildi:

Badiiy Club metodi o‘quvchilarni kichik guruhlarda tashkil etib, ular o‘qigan matnni chuqurroq tahlil qilish, baholash va ijtimoiy o‘rganishga jalb qilishni nazarda tutadi. Guruh ichida o‘quvchilar turli rollarni bajaradi: Asosiy mazmunni qayta hikoya qiluvchi, mazmunni chuqurlashtiruvchi savollar beruvchi, asar qahramonlarining xatti-harakatlarini sharhlovchi, matnni hayotiy vaziyatlar yoki boshqa asarlar bilan bog‘lovchi, matndagi yangi leksik birliklarni o‘rganib,

guruh bilan baham ko‘ruvchi kabi. Ushbu metod Louise Rosenblattning (1994) “Transaksion nazariyasi”ga asoslanadi. Rosenblattning fikricha, o‘quvchi va matn o‘rtasidagi o‘zaro munosabat mazmunni shakllantiradi; ya’ni, matn faqat o‘quvchining tajribasi va fikrlari orqali jonlanadi. Bu nazariyani amaliyotda qo‘llab, o‘quvchilarni faol muloqotga, refleksiyaga va ijodiy fikrlashga undaydi.

Og‘zaki taqdimot boshlang‘ich sinflarda ilmiy konferensiya darajasida bo‘lishi shart emas. Uning eng asosiy maqsadi - o‘quvchining o‘qigan matnini o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalashi, mazmunini tushunganini ko‘rsatishi va shaxsiy munosabatini bildirishidir. Bu metod o‘quvchilarga o‘qilgan matn asosida qisqa xulosa yoki asosiy g‘oyalarni sinf oldida ifodalash imkonini beradi. Bu jarayon o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini va adabiy tahlil qobiliyatini rivojlantiradi. Piaget (1970) kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalarning faol bilish jarayoni tajriba va muloqot orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Shu bois, og‘zaki taqdimot o‘quvchiga bilimni qayta ishlash, shaxsiy mulohazalarini ifodalash hamda auditoriyaga moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu metod shuningdek o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirib, ularni jamoa oldida ishonchli chiqish qilishga o‘rgatadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda kollaborativ metodlar (Badiiy klub, Og‘zaki taqdimot) muntazam qo‘llanilgach, o‘quvchilarning adabiy nutqiy kompetensiyasi ko‘rsatkichlari an’anaviy metodlar asosida ta’lim olgan nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi.



Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, eksperiment guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha 23–28% yuqori ekanini ko‘rsatdi. Bu esa Badiiy klub, Og’zaki taqdimot kabi metodlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda sezilarli samaradorlikka ega ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Munozara. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda qo‘llangan yangi metodik yondashuvning samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Grafik va jadval tahlillari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi o‘quvchilari an’anaviy metod asosida ta’lim olgan nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori natijalarga erishgan. Bu farq, birinchi navbatda, metodning o‘quvchilarni faol jalb etish, ularni mustaqil fikrlashga undash hamda bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytirish xususiyatlari bilan izohlanadi. Mazkur natijalar ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bilan hamohangdir. Masalan, Smith (2019) va Kim va boshq. (2021) o‘z ishlarida faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar o‘quvchilarda faqatgina bilim emas, balki tahliliy va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishini ta’kidlagan. Ushbu tadqiqotda kuzatilgan yuqori natijalar ham aynan shu omillar bilan bog‘liq bo‘lib, metodik yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek,

o‘quvchilar motivatsiyasining oshishi va dars jarayonidagi ishtirokchanlik darajasi yuqoriligi ham natijaga bevosita ta’sir ko‘rsatgan omillar sifatida qayd etilishi mumkin.

Muhim jihatlardan biri shundaki, tajriba guruhi o‘quvchilari orasida nafaqat bilim darajasi, balki darsdan tashqari faoliyatga bo‘lgan qiziqish ham ortgani kuzatildi. Bu holat ta’limning faqat nazariy emas, balki ijtimoiy-psixologik ta’sirchanlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, yangi metodik yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarda mustaqil izlanish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim cheklovlarga ham ega. Jumladan, tadqiqot nisbatan kichik miqyosda olib borilgani sababli, metodning samaradorligini umumlashtirilgan holda baholash uchun qo‘shimcha eksperimental sinovlar zarur. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli yosh guruhlari, turli fanlar kesimida va kengroq auditoriyalarda tajriba o‘tkazish muhim ilmiy vazifa sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodik yondashuvlar an’anaviy ta’lim tizimiga samarali integratsiya qilinsa, ular nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki ularning ijodkorlik, motivatsiya va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlarini ham sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu esa kelgusida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yanada kengroq tatbiq etish zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u ta’lim jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llashning nazariy asoslarini kengaytiradi. Amaliy jihatdan esa ushbu yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini faollashtirish va ularni ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. G‘ulomov, A., & Yo‘ldoshev, M. (2015). Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Mavlonova, R. A. (2005). Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Qurbonov, S. (2019). Boshlang‘ich ta’limda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 3(2), 45–52.
4. Usmonova, D. (2020). Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning adabiy nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish metodlari. Xalq ta’limi, 6, 112–118.
5. Creswell, J. W. (2014). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (4th ed.). Sage Publications.
6. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). Cooperative learning and teaching citizenship in democracies. International Journal of Educational Research, 86, 62–71. https://doi.org/10.1016/j.ijer.2017.08.004
7. Piaget, J. (1970). Science of education and the psychology of the child. Orion Press.
8. Rosenblatt, L. M. (1994). The reader, the text, the poem: The transactional theory of the literary work. Southern Illinois University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: khabibullayeva0811@gmail.com

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHI-PEDAGOGLARIDA KASBIY MA’NAVIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirish masalasi yoritilgan. Mavzuga doir milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilinib, kasbiy ma’naviy madaniyatning asosiy yo‘nalishlari - shaxsiy salohiyat, ma’naviy-axloqiy tarbiya, faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar va psixologik omillar aniqlangan. Kompleks va tizimli yondashuv zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, kasbiy ma’naviy madaniyat, pedagogik kompetensiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, shaxsiy rivojlanish, ta’lim texnologiyalari, refleksiya, motivatsiya, ijtimoiy-madaniy omillar.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ-ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация. в статье рассматривается вопрос развития профессиональной духовной культуры у будущих воспитателей-педагогов дошкольных образовательных организаций. Проанализированы отечественные и зарубежные исследования по данной теме, определены основные направления профессиональной духовной культуры - личностный потенциал, духовно-нравственное воспитание, методы, ориентированные на деятельность, и психологические факторы. Обоснована необходимость комплексного и системного подхода.

Ключевые слова: дошкольное образование, профессиональная духовная культура, педагогическая компетенция, духовно-нравственное воспитание, личностное развитие, образовательные технологии, рефлексия, мотивация, социально-культурные факторы.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL SPIRITUAL CULTURE AMONG FUTURE PRESCHOOL EDUCATION TEACHERS

Annotation: the article highlights the issue of developing professional spiritual culture among future preschool education teachers. National and foreign research studies on the topic are analyzed, and the main directions of professional spiritual culture - personal potential, moral and ethical education, activity-based methods, and psychological factors - are identified. The necessity of a comprehensive and systematic approach is substantiated.

Keywords: preschool education, professional spiritual culture, pedagogical competence, moral and ethical education, personal development, educational technologies, reflection, motivation, socio-cultural factors.

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish, yosh avlodni ma’naviy yetuk, barkamol insonlar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qabul qilingan muhim huquqiy hujjatlar va Prezident farmonlari ta’lim tizimini, jumladan, maktabgacha ta’lim sohasini yangi bosqichga ko‘tardi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4312-son qarorida maktabgacha ta’lim tizimi oldiga quyidagi ustuvor vazifalar qo‘yilgan:

– Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tubdan takomillashtirish;

– Tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish va ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish;

– Bolalarni maktabga tayyorlashning sifatini oshirish [1].

Shuningdek, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ta'lim jarayonining asosiy tamoyillari sifatida insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ma'naviy-axloqiy tarbiya va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Bu huquqiy asoslar bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Zero, tarbiyachi-pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki bolalar uchun ma'naviy-axloqiy namuna, insoniy qadriyatlarning yetkazuvchisi bo'lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda dolzarb mavzulardan biri sifatida ko'rib kelinmoqda. Xususan, bu yo'nalishda nafaqat o'zbek, balki xorijiy olimlar tomonidan ham qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonlik olimlar orasida bu sohada olib borilgan tadqiqotlarda, avvalo, ta'lim tizimida insoniy qadriyatlar va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvor o'rni alohida ta'kidlanadi. Jumladan, A.X.Saidov, A.Q.Qurbonov, Z.A.Muxamedovalarning [3] ilmiy izlanishlarida pedagogik faoliyatda ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash yo'llari yoritilgan. Ular kasbiy ma'naviy madaniyatni shaxsning kasbiy axloqiy pozitsiyasi, ichki madaniyati, axloqiy fazilatlari va mehnatga munosabatining ifodasi sifatida talqin qiladilar.

V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Shiyanov kabi rossiyalik pedagoglar o'z asarlarida kasbiy madaniyatning tarkibiy qismlarini aniqlash, kasbiy tayyorgarlikning ma'naviy jihatlarini o'rganganlar. Ularning fikricha, pedagogik kasbda kasbiy ma'naviy madaniyatning shakllanishi uchun shaxsiy namunaviy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy yetuklik muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning ta'kidlashicha, pedagogning kasbiy ma'naviy madaniyati:

- kasbiy bilim va malakalarning o'zlashtirilganligi;
- shaxsiy mas'uliyat va burch tuyg'usi;
- ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ularga rioya qilish;
- o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiya ko'nikmalarini o'z ichiga oladi [4].

Qator xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, L. Kohlberg [5], J. Dewey [6], C. Rogerslarning [7] psixologik izlanishlarida esa kasbiy ma'naviy madaniyatning shakllanishida motivatsiya, axloqiy tanlov, o'zini anglash va shaxsiy o'sish omillariga e'tibor qaratiladi. Ularning yondashuvlari pedagog shaxsining emotsional intellekti, refleksiya va o'zini tarbiyalash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan .

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning kasbiy ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, bir tomondan, shaxsiy rivojlanish va kasbiy tayyorgarlikning integratsiyasi asosida, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri orqali shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotning asosiy vazifalari bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-axloqiy kompetensiyalarini aniqlash, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat bo'ldi.

Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishga doir pedagogik-psixologik omillar, mavjud holat, mavjud muammolar, ularni hal etish yo'llari tahlil qilindi va eksperimental ishlar orqali aniqlashtirildi. Muhokama quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "kasbiy ma'naviy madaniyat" tushunchasi tarbiyachi-pedagogning kasbiy etikasiga sodiqligi, shaxsiy va kasbiy qadriyatlarga ega bo'lishi, o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashuvi, shuningdek, pedagogik faoliyatda ijtimoiy mas'uliyat va insonparvarlikni namoyon etishi bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqot jarayonida mazkur tushuncha pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tizimlashtirilib, uning tarkibiy qismlari aniqlab berildi. Bu

tarkibiy qismlar axloqiy qarashlar, kasbiy o‘zlikni anglash, tarbiyaviy faoliyatga bo‘lgan munosabat, shaxsiy namuna va ijtimoiy javobgarlikni o‘z ichiga oladi.

So‘rovnoma va diagnostik testlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, pedagogika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar orasida kasbiy qadriyatlarga doir bilimlar yetarli darajada shakllanmagan, kasbiy axloqiy muammolarga yuzaki yondashish holatlari mavjud va o‘zini tarbiyachi sifatida anglashda ichki motivatsiya yetarlicha rivojlanmagan. Bu holat pedagogik jarayonda kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirish uchun alohida yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni isbotladiki, ta’lim jarayonida refleksiv yondashuv asosidagi treninglar, psixologik mashg‘ulotlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan amaliy mashqlarni yo‘lga qo‘yish bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy ma’naviy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhida kuzatilgan natijalar nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lgani, ta’lim metodikasini takomillashtirish zaruratini yaqqol ko‘rsatdi.

Tadqiqotda kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqilib, u ma’rifiy, refleksiv, amaliy va tahliliy bosqichlardan iborat tizim sifatida taklif etildi. Ma’rifiy bosqichda nazariy bilimlar beriladi, refleksiv bosqichda o‘z-o‘zini tahlil qilishga o‘rgatiladi, amaliy bosqichda bilimlar kasbiy faoliyatga tatbiq etiladi, tahliliy bosqichda esa rivojlanish dinamikasi baholanadi. Ushbu model asosida olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuvlar orqali kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirish ancha samarali bo‘ladi, natijada talabalarda kasbiy identifikatsiya kuchayadi va pedagogik faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoj ortadi.

Tadqiqot asosida oliy ta’limda kasbiy axloq va ma’naviyatga doir mustaqil modul kurslarni joriy etish, tarbiyachi-pedagoglar uchun psixologik tayyorgarlik treninglarini tizimli yo‘lga qo‘yish, maktabgacha ta’lim amaliyotida kasbiy qadriyatlarga asoslangan muhit yaratish hamda kasbiy ma’naviy madaniyatni baholashga mo‘ljallangan psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Muhokama jarayonida aniqlandiki, bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirish faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki dunyosini tarbiyalashga qaratilgan kompleks va bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayon bo‘lib, unda pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar va natijalar. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirish zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammolardan biri sanaladi. Kasbiy ma’naviy madaniyat pedagog shaxsining axloqiy, ma’naviy va kasbiy fazilatlarini mujassamlashtirgan holatda, uning kasbiy faoliyatida, shaxsiy munosabatlarida va ijtimoiy muhitdagi o‘zini tutishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy ma’naviy madaniyatga turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni pedagogning ichki axloqiy pozitsiyasi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida aks ettiruvchi shaxsiy fazilatlar majmuasi sifatida talqin etishadi. Boshqalar esa bu tushunchani pedagogning kasbiy bilim va ko‘nikmalari, axloqiy norma va qadriyatlarni faoliyatga tadbiq etish layoqati, o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatning shakllanishi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, bu - shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslanib, pedagoglarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga qaratilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishdir. Mazkur yondashuv pedagoglarning o‘zini anglash, kasbiy o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini faollashtiradi.

Ikkinchidan, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvorligini ta’minlash orqali tarbiyachi-pedagoglarning axloqiy madaniyatini shakllantirish zarur. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, ma’rifiy faoliyatlarni tashkil qilish, shuningdek, axloqiy tarbiyani ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini joriy etish orqali pedagoglarda kasbiy ma’naviy madaniyatni amaliy faoliyat davomida mustahkamlash imkonini yaratish lozim. Bunda muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar, kasbiy refleksiya va o‘z-o‘zini baholash texnologiyalaridan foydalanish samarali natija beradi.

To‘rtinchidan, kasbiy ma’naviy madaniyatning shakllanishida shaxsiy psixologik omillar, xususan, ichki motivatsiya, refleksiya, o‘zini anglash va shaxsiy o‘sishga intilish muhim rol o‘ynaydi. Shaxsiy rivojlanish va kasbiy ma’naviy o‘sish pedagoglarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xulq-atvorini baholash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik va psixologik nazariyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ma’naviy madaniyatning shakllanishi ijtimoiy-madaniy omillar, shaxsiy psixologik xususiyatlar hamda ta’lim-tarbiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Masalan, L.S. Vygotskiy ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida shaxsning rivojlanishi madaniy qadriyatlar va ijtimoiy muhit ta’sirida kechishini asoslab beradi [8]. K. Rogers va A.Maslow esa shaxsiy o‘sish va o‘zini aktualizatsiya qilishning asosiy omillari sifatida ichki motivatsiya va shaxsiy o‘zini anglashni ko‘rsatadi [9].

Maktabgacha ta’lim tizimida kasbiy ma’naviy madaniyatning shakllanishi tarbiyachilarning shaxsiy namunasi, axloqiy fazilatlari va kasbiy faoliyati orqali bola shaxsining ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, pedagoglar o‘z kasbiy faoliyatlarida axloqiy me’yor va qadriyatlarga tayanishi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi va tarbiyalanuvchilar uchun ma’naviy namuna bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni shakllantirish kompleks, tizimli va uzviy yondashuvni talab etadi. Bu borada pedagogik va psixologik asoslangan metodik tizimlar, innovatsion ta’lim texnologiyalari va milliy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirish uchun kompleks, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yish muhimdir. Bunda davlat siyosati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan metodlar asosiy o‘rin tutadi.

Shu bois, kasbiy ma’naviy madaniyatni rivojlantirish maktabgacha ta’lim tizimining sifatini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy yetukligi va ma’naviy barkamolligini ta’minlashga, eng asosiysi, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–4312-son “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Yangi tahrir. – 2020-yil 23-sentabr.
3. Саидов А.Х., Курбонов А.К., Мухамедова З.А. Духовно-нравственные ценности в системе образования: теория и практика. — Ташкент: Fan, 2017.
4. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: Учебное пособие для студентов педагогических вузов. — Москва: Академия, 2004. — 512 с.
5. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. — San Francisco: Harper & Row, 1981.
6. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. — New York: The Macmillan Company, 1916.
7. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. — Boston: Houghton Mifflin, 1961.
8. Выготский Л.С. Собрание сочинений. Том 1: Проблемы теории и истории психологии. — Москва: Педагогика, 1982. — 432 с.
9. Maslow A.H. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1970.

Мамирова Диларам Тавкуловна
доцент кафедры «Сценическое движение и физическая культура»
государственного института искусств и культуры Узбекистана
E-mail: tavakulovna123@mail.ru

РЕФОРМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В КОЛЛЕДЖАХ И УНИВЕРСИТЕТАХ

Аннотация. *В статье раскрыты реформ и развития качественного образования и преподавания, концепции и модели преподавания, которые должны своевременно обновляться и корректироваться. О необходимости воспитывать нравственные качества студентов, а также развивать и направлять во всех образовательных аспектах. Автор утверждает, что необходимо уделять особое внимание руководству предметом, постоянно углублять и реформировать учебный процесс и полностью интегрировать в него концепцию интеграции.*
Ключевые слова: *интеграция, образования, реформы, концепция здоровья, укрепление спортивных качеств, педагогические ресурсы, навык.*

KOLLEJ VA UNIVERSITETLARDA JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISH ISLOHOTLARI

Annotatsiya. *Maqolada sifatli ta’lim va o‘qitishni isloh qilish va rivojlantirish, o‘z vaqtida yangilanishi va tuzatilishi kerak bo‘lgan o‘qitish tushunchalari va modellari ochib berilgan. Talabalarning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, shuningdek, ta’limning barcha jabhalarida rivojlantirish va yo‘naltirish zarurligi haqida. Muallif o‘quv faniga rahbarlik qilishga alohida e’tibor qaratish, o‘quv jarayonini doimiy ravishda chuqurlashtirish va isloh qilish, unga integratsiya konsepsiyasini to‘liq singdirish zarurligini ta’kidlaydi.*
Kalit so‘zlar: *integratsiya, ta’lim, islohotlar, salomatlik konsepsiyasi, sport sifatlarini mustahkamlash, pedagogik resurslar, ko‘nikma.*

REFORMS OF PHYSICAL EDUCATION TEACHING IN COLLEGES AND UNIVERSITIES

Abstract. *This article explores reforms and developments in quality education and teaching, as well as teaching concepts and models that must be updated and adjusted in a timely manner. It also addresses the need to cultivate students' moral qualities, as well as develop and guide them in all aspects of education. The author argues for a special focus on subject management, the continuous deepening and reform of the educational process, and the full integration of the concept of integration.*
Keywords: *integration, education, reforms, health concept, strengthening athletic qualities, pedagogical resources, skills.*

Физическая культура занимает значимое место в структуре высшего образования, выступая в качестве фундаментального элемента как образовательной системы, так и практической педагогической деятельности. В контексте современной интеграции спорта и образования, образовательные учреждения обязаны демонстрировать оперативную адаптивность к динамике развития и нормативным требованиям реформ. Это предполагает своевременное совершенствование и наращивание кадрового потенциала, а также разработку инновационных, контекстуально-ориентированных моделей и методик обучения студентов. Реализация данных мер будет способствовать повышению качества преподавания физической культуры, обеспечивая ее долгосрочное и устойчивое развитие в высших учебных заведениях и достижение целей целостного образования. Таким образом, в рамках реформы физического воспитания, колледжи и университеты должны рассматривать здоровье как основополагающий

фактор, интегрируя спортивную и профессиональную подготовку, формируя благоприятную среду для физической активности студентов и приоритезируя улучшение их физического благополучия.

Краткий анализ преимуществ включения спортивных элементов в процесс реформирования физического воспитания в колледжах и университетах. Поддержка модернизации образовательной системы и методов преподавания.

Хотя физическое воспитание является важной частью базового образования в Китае, ему не всегда уделялось должное внимание. За исключением специальности «Физическое воспитание», которая всегда фокусировала своё образовательное руководство на развитии содержания физического воспитания, другие профессиональные области всегда относились к нему пренебрежительно и не признавали важную роль и значение спорта в развитии талантов [1:169].

Образовательные реформы ставят физическое воспитание в основу базового образования, а приоритет здоровья рассматривают как ключевой фактор в подготовке высококвалифицированных и нравственно зрелых специалистов. В рамках активного продвижения идеи слияния спорта и образования, его включение в учебные программы по физическому воспитанию призвано не только создать более благоприятную и мотивирующую спортивную среду в высших учебных заведениях, но и стимулировать студентов к активному и осознанному участию в физической подготовке. Такой подход способствует повышению уровня знаний студентов о физической культуре и служит толчком к модернизации преподавания данного предмета.

Разработка и внедрение образовательных программ, основанных на логике и практической целесообразности, подкрепленной наукой.

В условиях постоянного обновления и развития образования и преподавания Китай стал спортивной державой, привлекающей большое внимание. Однако всё ещё существуют различия в развитии спортивной мощи [2:57].

Чтобы устранить существующие пробелы в спортивном развитии, необходимо усилить фокус на физическом воспитании в вузах. Важно наращивать образовательные инициативы в сфере спорта, применяя современные методы и рыночные концепции для его продвижения. Проблема дефицита спортивных талантов и неэффективной подготовки требует решения. Концепция интеграции спорта и образования предлагает научно обоснованные пути для развития спортивных талантов, расширяя возможности для их роста и самовыражения. Преподаватели физкультуры играют ключевую роль в выявлении и поддержке одаренных студентов, стимулируя их к участию в соревнованиях и способствуя укреплению спортивного потенциала страны.

Формирование условий, способствующих высококачественному образованию и преподаванию.

Реформа физического воспитания в вузах должна ставить во главу угла формирование моральных качеств студентов. Крайне важно, чтобы образовательная концепция "здоровье прежде всего" была не просто озвучена, но и глубоко понята студентами, с осознанием её значимости и роли в их жизни. Преподаватели призваны играть ключевую роль в этом процессе, активно вовлекая студентов в тренировочную деятельность и помогая им обрести радость от занятий спортом. Такой подход способен не только повысить их стойкость и мотивацию, но и обогатить их образовательный опыт и развить необходимые навыки. Однако, согласно исследованиям, большинство высших учебных заведений демонстрируют недостаточный уровень вовлеченности в спортивную деятельность и формирование у студентов здоровых спортивных привычек. Несмотря на обязательный характер занятий физической культурой, студенты не всегда демонстрируют существенный прогресс в физической подготовке или развитии морально-волевых качеств. В связи с этим, целесообразно внедрение научно обоснованных и рациональных подходов к интеграции физического воспитания в образовательный процесс с целью оптимизации и модернизации существующей системы. Высшим

учебным заведениям необходимо руководствоваться принципами качественного образования и приоритетом здоровья, рассматривая формирование у студентов физической выносливости и моральной устойчивости как ключевой фактор их всестороннего развития.

Детальный анализ и выявление проблем в организации и содержании физического воспитания в колледжах и университетах.

Критический разбор курсов физического воспитания, лишенных научной базы и практической обоснованности. В процессе преподавания физического воспитания в колледжах и университетах научное и рациональное построение курсов физического воспитания является основным направлением работы преподавателей. При построении курсов также необходимо полностью соответствовать требованиям и стандартам преподавания физического воспитания в колледжах и университетах, а содержание курса должно соответствовать реальной ситуации и потребностям развития [3:184].

Для обеспечения должного уровня преподавания физического воспитания в высших учебных заведениях требуется гармоничная интеграция учебной программы и практических занятий. Тем не менее, в настоящее время наблюдаются существенные трудности в формировании курсов физической культуры в колледжах и университетах. Содержание этих курсов зачастую лишено рациональности и характеризуется высокой степенью однородности, предлагая студентам ограниченный выбор традиционных видов спорта (легкая атлетика, футбол, баскетбол, волейбол), что не соответствует их современным запросам в области спортивного образования. Кроме того, расписание занятий не адаптируется к реалиям развития, что снижает эффективность стимулирования студенческого интереса. Важным фактором является и то, что занятия по физическому воспитанию в вузах, будучи ограниченными в плане доступных площадок, не включают в себя разнообразные внеклассные спортивные мероприятия. В результате, развитие у студентов различных навыков и улучшение их физического состояния полностью зависят от времени, отведенного на аудиторные занятия, что не способствует формированию у них здорового спортивного образа жизни.

Традиционные взгляды, которые нуждаются в пересмотре. Согласно исследованию и анализу текущего развития преподавания физического воспитания в колледжах и университетах, непрерывное образование и «здоровье прежде всего» следует рассматривать как основные цели развития. Для полной реализации вышеуказанных целей необходимо сосредоточиться на развитии и развитии физических способностей и уровня качества учащихся, а также поощрять учащихся вырабатывать полезные привычки и привычку заниматься спортом на протяжении всей жизни [4:92].

Рациональное применение физических упражнений призвано повысить качество жизни учащихся и обеспечить их гармоничное развитие. Тем не менее, текущая ситуация характеризуется недостаточной вовлеченностью учащихся в физическую активность, что ведет к деградации их физического здоровья. Анализ данных опросов указывает на наличие у большинства учащихся нездоровых поведенческих паттернов, включая нарушение режима сна, переедание и чрезмерное времяпрепровождение за играми, что оказывает существенное негативное воздействие на их самочувствие. Согласно статистическим данным, нередки случаи обмороков среди студентов. Ключевым фактором данной проблемы является архаичность и неэффективность существующей системы физического воспитания в высших учебных заведениях, которая не соответствует современным образовательным парадигмам и не учитывает приоритет здоровья.

Разработка и внедрение стратегий для трансформации и улучшения преподавания, учитывая синергию спорта и образования. Оценка прогресса в достижении целей реформы и развития, а также оптимизация структуры и содержания курсов.

Актуализация преподавания физической культуры в колледжах и университетах в контексте интеграции спортивной и образовательной сфер требует комплексного исследования текущего состояния и адекватной подготовки к пересмотру образовательных парадигм. Многообразие образовательных программ и дисциплин, реализуемых в различных вузах, обу-

славливает вариативность потребностей студентов в области физической культуры. Следовательно, при разработке и реализации реформ необходимо учитывать установленные цели и планы развития, обеспечивая синергию между базовыми спортивными ресурсами и индивидуальными особенностями обучающихся, а также формируя научно обоснованные и рациональные учебные планы, соответствующие современным стандартам. Интеграция предмета в обучение требует от педагогов полного и своевременного применения их профессионального опыта в контексте развития учащихся. На основе учебного плана мы создаем мероприятия, направленные на одновременное совершенствование физической формы и формирование моральных качеств студентов. Важно ориентироваться на физические возможности каждого учащегося, предлагая широкий спектр проектов и учебных материалов. Так, например, высшие учебные заведения могут организовывать теннисные соревнования на своей территории, стимулируя активное участие студентов. Теннис способствует не только физическому развитию, но и эффективному снятию учебного стресса, а также развивает способность к преодолению жизненных трудностей. Преподаватели также могут использовать в качестве учебных ресурсов тайцзи, национальные виды единоборств и другие виды спорта, объединяя их с общей концепцией.

Данный подход обеспечивает студентам возможность не только овладеть теоретическими знаниями в области реабилитации средствами лечебной физкультуры, но и развить компетенции по подбору адекватных физических упражнений. Это приводит к органичной интеграции спортивной практики и медицинской теории, акцентируя внимание на роли и значении комплексного физического воспитания.

Интеграция когнитивных задач в уроки физкультуры для улучшения умственных способностей. Реализация комплексной модели интеграции физической культуры в образовательный процесс вузов представляет собой парадигмальный сдвиг в методологии преподавания данного предмета. Интегрированная модель, синергетически объединяющая спортивные дисциплины и педагогические ресурсы, формирует прочную основу для поступательного развития интеграции спорта и образования и упорядоченного осуществления образовательной и педагогической деятельности. На уровне руководства вузов требуется переосмысление концептуальных основ интеграции практики и образования, базирующееся на высокоуровневом идеологическом познании. В этой связи, вузы могут инициировать проведение специализированных форумов, семинаров и конференций, посвященных вопросам интеграции спорта и образования. Данные мероприятия призваны способствовать глубокому осмыслению сущности, роли и значения интеграции спорта и образования, а также прояснить значимость реформы преподавания физической культуры в вузах. Помимо этого, необходимо внедрение регулярных рабочих совещаний по реформе интегрированного спорта и образования, с активным вовлечением преподавательского состава для выработки предложений и оптимизационных решений на основе практического опыта. Реформа качества образования и преподавания должна служить контекстуальной основой, с фокусировкой на достижение целей интеграции спорта и образования. Корректировка существующих моделей обучения и стратегий развития, основанная на анализе реальной ситуации в преподавании физической культуры и удовлетворении потребностей обучающихся, является обязательной. Разработка учебных целей и образовательного контента должна осуществляться на научно обоснованной основе, с учетом специфики контингента студентов, как профильных, так и непрофильных. Такой подход позволит максимально реализовать потенциал интеграции спорта и образования, способствуя формированию высококвалифицированных, компетентных специалистов.

Приоритет отдается повышению профессионализма педагогов и генерации свежих идей, способствующих интеграции спорта в образование.

Создать эффективную систему подготовки специалистов по физкультуре, опираясь на научные данные и учитывая текущие условия. Важно не только готовить новых преподавателей, но и постоянно повышать квалификацию уже работающих. Необходимо, чтобы выпускники и действующие преподаватели демонстрировали высокий уровень профессионализма и значимость своей работы.

Вторым важным аспектом является необходимость повышения квалификации преподавательского состава в области физической культуры в колледжах и университетах. Преподаватели должны быть подготовлены к эффективному руководству спортивными коллективами, участию в тренировочных мероприятиях, а также к освоению фундаментальных компетенций, таких как педагогическая деятельность, тренировочный процесс и организация соревнований. Такой комплексный подход обеспечит прочную взаимосвязь между физической подготовкой и повседневной образовательной практикой, будет способствовать органичной интеграции теоретических знаний и практических навыков, а также позволит устранить существующие недостатки в преподавании физкультуры. Наконец, для поддержания высокого качества преподавательского корпуса необходимо разработать соответствующие стандарты и внедрить систему регулярной оценки их деятельности.

В контексте современных инноваций в преподавании физической культуры в вузах, наиболее существенным достижением является интеграция спорта в процесс физического воспитания. Это не только отражает прогресс в этой области, но и закладывает основу для эффективного развития спортивных талантов. Данная статья исследовала пути оптимизации учебных программ, совершенствования педагогических концепций и поиска инновационных стратегий, направленных на развитие талантов. Мы подчеркиваем необходимость для преподавателей вернуть физическому воспитанию его образовательную сущность и активно использовать мультикультурный потенциал. Таким образом, только полное и органичное слияние спорта и образования в вузовской системе физического воспитания позволит максимально раскрыть его потенциал и повысить его образовательную ценность.

Список использованной литературы.

1. Zhang G, Xie W, 2023, Research on the Reform Path of Physical Education Teaching in Colleges and Universities Based on the Perspective of Sports and Education Integration. Journal of Hubei Open Vocational College, 36(2): 167–169.

2. Guo W, Duan T, Yu S, 2022, Changes in Teaching Content and Teaching Objectives of Dance Courses in Sports Colleges from the Perspective of Physical Education Integration. Journal of Henan Institute of Education: Natural Science Edition, 31(4): 54–57.

3. Shan M, 2021, Research on Physical Education Teaching in Colleges and Universities from the Perspective of Physical Education Integration. New Curriculum Teaching (Electronic Edition), 2021(002): 183–184.

4. Liu W, 2022, Innovative Research on the Integration of Traditional Winter Physical Education and Ice and Snow Culture in Colleges and Universities from the Perspective of Ideological and Political Education. Ice and Snow Sports, 44(2): 88–92.

Sadikov Erkin Tursunovich
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

NUTQ AKTLARINI O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya. *Pragmatika doirasida iltifot ko‘plab nutq aktlaridan biri hisoblanadi. Uning maqsadi aloqa o‘rnatish va yaxshi munosabatlarni saqlab qolishdir . Iltifot ijtimoiy (emotsional) og‘zaki ta’sirni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy nutq ta’siri bu – nafaqat ma’lumot uzatiladigan, balki ma’lum ijtimoiy harakatlar amalga oshiriladigan aloqaning alohida holati hamdir.*

Kalit so‘zlar: *pragmatika, kompliment, nutq aktlari, simpatiya, metodika, motiv.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РЕЧЕВЫМ АКТАМ

Аннотация. *В рамках прагматики комплимент считается одним из многочисленных речевых актов. Его цель – установление коммуникации и сохранение хороших отношений. Комплимент включает в себя социальное (эмоциональное) вербальное воздействие. Социальное речевое воздействие – это не только передача информации, но и особый случай общения, в котором совершаются определённые социальные действия.*

Ключевые слова: *прагматика, комплимент, речевые акты, симпатия, методика, мотив.*

METHODOLOGY OF TEACHING SPEECH ACTS

Annotation*. In the field of pragmatics,* ***complimenting*** *is one of the many speech acts. Its main purpose is to establish communication and maintain positive relationships. Compliments involve social (emotional) verbal influence, meaning they not only convey information but also carry out certain social actions within the communication process. Social speech influence refers to a situation where, in addition to the exchange of information, specific social behaviors and actions are performed.*

Compliments encompass various motives, such as sympathy, attention, and respect, in accordance with social roles and norms. They also serve as a methodological tool for understanding speech acts. Compliments, in turn, play a significant role in strengthening interpersonal relationships, creating positive emotional states, and effectively organizing communication processes.

Key words*: pragmatics, compliment, speech acts, sympathy, methodology, motive.*

Iltifot qilishning yetakchi motivi suhbatdoshning kayfiyatini, emotsional holatini yaxshilashdan iborat. G.S.Dvinyanova fikricha, iltifot bir qancha vazifalarni bajaradi:



1-diagramma

Komplimentning eng asosiy vazifasi aloqani o‘rnatish va muloqotda samimiy, ijobiy fonni saqlashdir. Komplimentning strategik vazifasi suhbatdoshni “mahv etish” va unda komplimentorga nisbatan xayrixohlik tuyg‘usini uyg‘otish istagidir. Shu munosabat bilan iltifotning o‘ziga xos xususiyati bu – so‘zlovchi niyatining yaqqol namoyon bo‘lishi – suhbatdoshga yoqimli narsalarni aytish istagi deb hisoblanishi kerak.

Deyarli har doim, iltifot taktikasiga murojaat qilish mumkin bo‘lgan vaziyatlar yuzaga kelganda, muloqot ishtirokchilarining kooperativ aloqa turiga bo‘lgan munosabati mos keladi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, iltifot suhbatdoshlardan biri, ko‘pincha adresat hamkorlik qilish kayfiyatida bo‘lmagan hollarda ham qo‘llanilishi mumkin. Bunday vaziyatda iltifot boshqa taktikaning bir qismiga aylanishi mumkin. Ammo muloqot ishtirokchilarining munosabatlaridagi farq tufayli kommunikativ qobiliyatsizlik xavfi yuqori bo‘ladi.

Quyidagi shartlar iltifot taktikasini muvaffaqiyatli qo‘llashga olib keladi:

1) komplimentor adresatda o‘z fikridagi har qanday ijobiy xususiyatni o‘zi uchun qayd etishi;

2) komplimentor bu haqida tinglovchiga ma’lum qilish istagini bildirishi;

3) komplimentor tomonidan adresatga bildirilgan iltifotda adresatni ranjitadigan qandaydir yashirin ma’no bo‘lmasligi;

4) komplimentor samimiy bo‘lishi kerak.

Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta’siri muhim hisoblanadi. Ijtimoiy aloqa natijasida kishilar fikr almashadilar, tajriba to‘playdilar, bilim egallaydilar. Zamonaviy pedagogika fani muhitga, ijtimoiy vaziyatlarga ularning kishilik jamiyatining taraqqiy etishidagi ta’sirining roliga o‘z diqqatini qaratadi.

Shunday qilib, iltifot – suhbatdoshga uni yoki uning individual fazilatlarini yoqtirishini tushuntirishga urinishdir. Ta’kidlash kerakki, har bir kommunikativ harakat, shu jumladan, iltifot ham kommunikativ belgi tamoyillariga mos kelishi kerak. Bu nutq akti jarayonini va uning ishtirokchilari kommunikativ xatti-harakatlarini tartibga solishdan iborat bo‘lgan ma’lum tamoyillar to‘plamidir. Eng muhim tamoyillar J. Lich tomonidan shakllantirilgan xushmuomalalik va yana bir ingliz olimi P.Graysning hamkorlik tamoyillari hisoblanadi.

Hamkorlik tamoyili to‘rtta tashkil etuvchi elementni, ya’ni to‘rtta maksimumni o‘z ichiga oladi:

1) xulq-atvor, odob maksimumi,

2) axborot mukammalligi maksimumi,

3) axborot sifati makisimumi,

4) dolzarblilik maksimumi.

Ammo iltifotning kommunikativ harakati uchun muhimroq narsa bu nutq aktida suhbatdoshlarning bir-biriga nisbatan xushmuomalalik prinsipiga rioya qilishlaridir. Ushbu tamoyil, o‘z navbatida, bir nechta normalarni o‘z ichiga oladi:

1) xushmuomalalik maksimi;

2) kamtarlik maksimi;

3) xayrixohlik maksimi;

4) ma’qullash maksimi;

5) saxiylik maksimi;

6) rozilik (kelishuv) maksimi.

Agar dialog ishtirokchilari bir-biriga notanish bo‘lsa yoki tanishish endigina sodir bo‘lganda, unda xushmuomalalik kuzatilmasligi mumkin. Shuning uchun iltifotni shakllantirishda ehtiyot bo‘lish kerak, uning mavzusini tanlash suhbatdoshda ijobiy taassurot qoldirishi va uni har qanday holatda xafa qilmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqilishi kerak. Kamtarlik maksimi o‘z nomiga aytilgan maqtovli so‘zlarni inkor etishda namoyon bo‘ladi. Kamtarlik maksimiga rioya qilish bevosita qabul qiluvchining o‘z-o‘zini qadrlashiga bog‘liq. O‘zini past baholagan adresat iltifotni o‘jarlik bilan rad qilishi mumkin.

2-diagramma

ILTIFOTNI O‘QITISH ORQALI YUZAGA CHIQADIGAN DIDAKTIK NORMALAR



Simpatiya (xayrixohlik) maksimi muhim vazifani bajaradi: u nutq harakatlarini qarama-qarshiliklardan ogohlantiradi; aslida esa, u boshqa maksimlarga rioya qilish uchun asos sanaladi, chunki iltifot kabi kommunikativ harakatning asosi xayrixohlikdan iborat. U mavjud bo‘lmaganda, iltifot hazil yoki hatto masxaralash sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ma’qullash (tasdiqlash) maksimi atrof-muhitga ijobiy baho berishni nazarda tutadi, shu bilan birga, albatta, iltifot oluvchining ham portretiga chizgilar chizadi. Shuning uchun ijobiylik va ochiqlik iltifotni to‘g‘ri bajarish uchun o‘ta ahamiyatlidir.

Saxiylik (karam) maksimi ham iltifotning ajralmas qismidir. Unga rioya qilish harakat ishtirokchilaridan birining hukmronligi bilan bog‘liq muloqotda noqulaylikdan qochish imkonini beradi. Aynan shu jabhada kompliment saxiylikning namoyonlashuviga sabab bo‘ladi.

Rozilik (kelishuv) maksimi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarning rivojlanishiga qarshi turishga xizmat qiladi (agar ular bo‘lsa), kommunikativ harakatning samarali yakun topishi uchun kelishuvga erishish amalga oshiriladi. Rozilik maksimi – qarshilik ko‘rsatmaslik maksimidir.

Ta’kidlash kerakki, maksimlar, ko‘pincha, bir-biriga zid keladi. Agar adresat kamtarlik tamoyiliga qat’iy rioya qilishga va iltifotlardan tiyilishga qaror qilsa, u komplimentorga xayrixohlik ko‘rsatishning boshqa usullarini topishni qiyinlashtirib, nafaqat saxiylik maksimalini buzgan bo‘ladi, balki mazkur jarayonni ziddiyatga olib keladi. Bizning mazkur hukmimiz maksimlarning ham nisbiyligini ko‘rsatadi.

Kompliment taktikasini amalga oshirish uchun ko‘plab tashabbuskor nutq harakatlari mavjud. Ko‘pincha iltifot ikki tomonlama shakllanishdir, chunki u nafaqat komplimentorning baholash iborasini, ya’ni faol nutq kursini, balki unga munosabatni, javob mulohazasini ham o‘z ichiga oladi. Javob mulohazalari reaktiv nutq harakatlaridir. Tadqiqotchilar iltifotga ijobiy munosabat bildiruvchi qator holatlarga to‘xtaladilar:

1) minnatdorchilik izhori;
2) iltifotga qo‘shilish;
3) xursandchilik izhori;
4) komplimentni rad etish;
5) komplimentga munosabat bildirilmasligi;
6) kechirim so‘rash;
7) mavzuni o‘zgartirish;
8) ajablanish;
9) maqtovni boshqa shaxsga yo‘naltirish.

Demak, iltifot quvonch, hayrat, g‘urur, zavqlanish kabi ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalaydi, bu esa hissiy holatni yaxshilashga yordam berishi kerak. Iltifotlarni turli parametrlarga ko‘ra tasniflash mumkin. Jumladan, mavzular olamiga ko‘ra, eng avvalo, insonning tashqi ko‘rinishiga qarab qilinadigan iltifotlar muhim o‘rin tutadi hamda mazkur holat ko‘plab madaniyatlarda uchraydi.

“*You look so beautiful*!” – “*Siz juda go‘zal ko‘rinasiz*!”

Mazkur iltifot an’anaviy komplimentlardan biri bo‘lib, odatda, juda ko‘p ishlatiladigan maqtovlar sirasiga kiradi.

Quyidagi mulohazalar iltifot qilishning o‘ziga xos va juda nozik masala ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Jumladan, professional (kasbiy) iltifotlarni ifodalash masalasida oliy ta’lim muassasasi talabasi hali ishlamayotgan bo‘lsa, qator muammolarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun, ushbu holatda axboriy-retseptiv ta’lim metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, quyidagi professional (kasbiy) iltifotni misol tariqasida olaylik. Siz hamkasbingizning kiygan yangi ko‘ylagi chiroyli ekanligini aytdingiz. Biroq iltifotingiz ijobiy tarzda qabul qilinmadi. Aksincha, hamkasbingiz sizdan xafa bo‘ldi. Yoki uning yutuqlarini e’tirof etdingiz, ammo rahmat emas, qo‘pol munosabatga uchradingiz. Kuzatishimizcha, tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq umumiy komplimentlar juda sodda ko‘rinsa-da, aslida, ular juda murakkab holatlarni yuzaga keltiradi. Aynan ularni talabalarga o‘rgatayotganda o‘qituvchilar muammoli bayon qilish yoki evristik metodlardan foydalanishlari ma’qul. Zotan, ikkala metodda ham talabaga muammoli vaziyat taqdim etiladi: dastlabkisida o‘qituvchi ssenariy (muammoli vaziyat)ni tanishtirish bilan birga, to‘g‘ri yondashish uchun qator yechimlarni ham berishga harakat qiladi. Ikkinchi holatda esa, o‘quvchilardan izlanishlarini talab qilishi mumkin.

3-diagramma



Nutq aktlarini auditoriya sharoitida o‘qitish natijasida talabalar o‘zbek milliy xarakteri, mentaliteti va kommunikativ xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish imkoniga ega bo‘lishadi. Shuning uchun biz iltifot nafaqat maqsad, balki o‘zbek kommunikativ xulq-atvorini uyg‘unlashtiruvchi jihatga o‘rgatish vositasi bo‘lishi kerak, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Rasulov, Z. (2023). Pedagogika va psixologiyada manipulyatsiya tushunchasi. центр научных публикаций (buxdu. uz), 39(39).

2. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).

3. Rasulov, Z. I. (2023). The notion of non-equivalent words and realias in english and uzbek languages. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(6), 35-40.

4. Sadikov, E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. Interpretation and researches, 1(15).

5. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. European Scholar Journal, 2(12), 9-12.

6. Sadikov, E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. Interpretation and researches, 1(15).

7. Sadikov, E. (2024). Innovative Ways Of Teaching Speech Acts Through Auditory Skills. Science and innovation in the education system, 3(2), 5-8.

8. Tursunovich, S. E. (2022). Noval Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts.

9. Sadikov, E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 27(27).

10. Tursunovich, S. E. (2021). Speech acts of refusals: Challenging the challenges. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2063-2067.

11. Садиков, Э. Т. (2023). Прагматико-семантический анализ значения. Scientific progress, 4(4), 157-160.

12. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching speech acts of compliments: What is what?

13. Tursunovich, S. E. Teaching pragmatic competence in EFL context: the case of Uzbek EFL teachers. Язык И Культура, 55.

14. Sadikov, E. T. (2021). Establishing Connectivity Between Grammar Skill Approach And Speech Acts. Is Pragmatics In Or Out. Вестник Магистратуры, 52.

15. Tursunovich, S. E. (2021). The role of pragmatics in overcoming challenges of academic writing. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 247-249.

Kenjabayev Jaxongir Abdisalimovich
Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: kenjaboyev80@mail.ru

SPORT TERMINLARINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA PRAGMATIK QO‘LLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi sport terminlarining pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tilshunoslikda terminlarning faqat semantik va lingvokulturologik emas, balki kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganligi ham muhimdir. Tadqiqot davomida sport terminlarining turli kontekstlarda qo‘llanishi, ularning metaforik, emotsional va stilistik imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Natijada ingliz va o‘zbek tillaridagi sport terminlarining o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning pragmatik funksiyalari yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *sport terminlari, pragmatika, metaforik ma’no, kommunikativ vazifa, ingliz tili, o‘zbek tili.*

PRAGMATIC USE OF SPORTS TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the pragmatic features of sports terms in English and Uzbek. In linguistics, it is important that terms are not only semantic and linguocultural, but also have a communicative purpose. During the study, the use of sports terms in different contexts, their metaphorical, emotional and stylistic possibilities were considered. As a result, the similarities and differences of sports terms in English and Uzbek were identified, and their pragmatic functions were highlighted.*

Key words: *sports terms, pragmatics, metaphorical meaning, communicative task, English, Uzbek.*

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СПОРТИВНЫХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ прагматических особенностей спортивных терминов в английском и узбекском языках. В лингвистике важно, что термины имеют не только семантическую и лингвокультурную, но и коммуникативную цель. В ходе исследования рассматривалось использование спортивных терминов в различных контекстах, их метафорические, эмоциональные и стилистические возможности. В результате были выявлены сходства и различия спортивных терминов в английском и узбекском языках, а также выделены их прагматические функции.*

Ключевые слова: *спортивные термины, прагматика, метафорическое значение, коммуникативная задача, английский, узбекский языки.*

Kirish. Sport atamalari zamonaviy tilshunoslikda maxsus leksikaning muhim qismi sifatida e’tirof etiladi va ular kommunikativ jarayonlarning turli sohalarida keng qo‘llaniladi. Xususan, sport musobaqalari haqidagi rasmiy xabarlar, ommaviy axborot vositalari (OAV) materiallari, ijtimoiy tarmoqlar, jurnalistika janrlari hamda kundalik muloqot jarayonida sport terminlaridan foydalanish nafaqat aniq va qisqa axborot yetkazish, balki auditoriyani ruhlantirish, voqelikka nisbatan hissiy munosabat shakllantirish va ularning qiziqishini oshirish kabi pragmatik maqsadlarni ham amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda pragmatik yondashuv so‘zlarning faqat semantik ma’nosini emas, balki ularning kommunikativ vazifasini ham tahlil qilishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sport terminlari so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotda turli xil ijtimoiy, madaniy hamda emotsional konnotatsiyalarni o‘zida mujassam etadi. Masalan, champion, record-breaker yoki

o‘zbek tilidagi oltin medal sohibi kabi terminlar faqatgina sport natijasini bildirmay, balki ijobiy baholash, faxrlanish yoki ruhlantirish kabi qo‘shimcha ma’nolarni ham ifodalaydi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi sport terminlarining qo‘llanishini qiyosiy jihatdan o‘rganish ikki xalqning madaniy merosi, milliy sport an’analari, til tizimidagi uslubiy imkoniyatlari hamda kommunikativ strategiyalarini solishtirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Sport terminlari asosan quyidagi maqsadlarda qo‘llanadi: Axborot berish Sport terminlari eng avvalo xolis axborot yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Musobaqa natijalari, sport qoidalari, jamoalarning tarkibi va faoliyati, sportchilar yutuqlari kabi ma’lumotlarni aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifodalash uchun maxsus atamalar qo‘llanadi. Masalan, ingliz tilidagi quarterfinal, semifinal, championship yoki o‘zbek tilidagi yarim final, final bosqich, chempionat kabi terminlar voqealar ketma-ketligini mantiqiy va tizimli holda yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Sport tilini tahlil qilish quyidagilar yordamida shakllangan sport atamalarini qamrab oladi: prefiksatsiya - prefiks-qo‘shimchalar - so‘z tarkibi - qisqartmasi va semantik, derivatsiya usullari. Morfologik derivatsiya doirasida shakllanishning eng ko‘p uchraydigan usuli - bu suffiksatsi XX asrning oxirida uning mahsuldorligi sezilarli darajada kamaydi [1, 703]. Baholash va emotsional ta’sir: Ko‘plab sport terminlari nafaqat informativ, balki ekspressiv maqsadlarni ham bajaradi. Masalan, ingliz tilidagi superstar, legendary player yoki o‘zbek tilidagi g‘olib, chempion kabi birliklar sportchining yutuqlarini yoritish bilan birga, ijobiy hissiy fon yaratadi, auditoriyada hayrat, quvonch va ilhomlantirish kabi his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Bu holat sport jurnalistikasida, reklama matnlarida va ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanadi. Motivatsiya: Sport shiorlari, reklama matnlari sport terminlari orqali ruhiy ko‘tarinkilik beradi. Sport shiorlari, reklama matnlari, musobaqa chaqiriqlari kabi diskurslarda sport terminlari ruhiy ko‘tarinkilik, jamoaviylik va maqsadga intilish ruhini shakllantiradi. Masalan, Go for the gold! yoki Victory is ours! kabi shiorlar sportchilar va muxlislarni ruhlantirish, ularni yangi yutuqlarga undashga qaratilgan bo‘ladi. O‘zbek tilida ham G‘alaba sari birgalikda! yoki Oltin medal – bizniki! kabi iboralar shunday vazifani bajaradi [2, 198].

Natija. 1). Metaforik qo‘llanish. Sport terminlarining muhim xususiyatlaridan biri ularning metaforik ma’noda qo‘llanishidir. Dastlab ma’lum bir sport turiga xos bo‘lgan terminlar keyinchalik turli ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy diskurslarga ko‘chib o‘tib, yangi konnotativ ma’nolar hosil qiladi. Masalan, ingliz tilidagi to hit a home run iborasi beysbol sportiga tegishli bo‘lib, dastlab “topni maydondan chiqarib yuborish” ma’nosida qo‘llangan. Biroq zamonaviy ingliz tilida ushbu ibora sportdan tashqari sohalarda ham muvaffaqiyat, yutuq yoki kutilgan natijaga erishish ma’nosida keng ishlatiladi. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi oltin medalga loyiq iborasi dastlab sport natijalari bilan bog‘liq bo‘lsa, keyinchalik u turli fan, san’at, madaniyat yoki ishlab chiqarish sohalarida erishilgan katta yutuqlarni ta’riflash uchun ham qo‘llanila boshladi. Bu holat tilning metaforik imkoniyatlari, semantik kengayishi va terminlarning kommunikativ moslashuvchanligini yaqqol namoyon etadi. 2) Jargon va qisqartmalar. Sport tilida jargon so‘zlar va qisqartmalar alohida qatlamni tashkil etadi. Ingliz tili ko‘pincha sport atamalarini umumiylashtiruvchi va soddalashtiruvchi til sifatida tan olingan. Unda atamalar qisqa va oson tushunarli bo‘lib, sport terminologiyasi xalqaro miqyosda qo‘llaniladi. Masalan, "gold medal" (oltin medal), "referee" (hakam), "championship" (chempionat) so‘zlari dunyo bo‘ylab tushunish oson bo‘lgan atamalar sifatida tan olingan [3, 32]. Ular ko‘pincha sportchilarning o‘zaro muloqotida, sport jurnalistikasi materiallarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanadi. Masalan, ingliz tilidagi MVP (Most Valuable Player – “eng qimmatli o‘yinchi”) atamasi professional sport olamida muhim unvonni bildiradi va ko‘pincha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisiga nisbatan ishlatiladi. Boshqa tomondan, o‘zbek tilida g‘olib, chempion kabi so‘zlar xalqaro sport kontekstida ham, mahalliy sport musobaqalarida ham keng qo‘llanilib, sportchilarni ijobiy baholashda muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, ingliz tilida GOAT (Greatest Of All Time) qisqartmasi so‘nggi yillarda keng ommalashib, sportchilarni o‘z sohasidagi eng ulug‘ shaxs sifatida ta’riflashda qo‘llanilmoqda. Bu kabi jargon va qisqartmalar sport diskursining ixchamlik, tezkorlik va hissiy ta’sirchanlik kabi xususiyatlarini mustahkamlaydi. (1-jadvalda keltirilgan.)

1-jadval

Mezon	Ingliz tili	O‘zbek tili
Asosiy sport turlari	Football, basketball, baseball, rugby, tennis	Futbol, basketbol, kurash, uloq-ko‘pkari, shaxmat
Metaforik qo‘llanish	To hit a home run – muvaffa-qiyatga erishmoq	Oltin medalga loyiq – eng yaxshi na-tijaga erishmoq
Emotsional ta’sir	Legendary player, unbelievable goal kabi iboralar motivatsion ta’sirga ega	Chempion jamoa, daho sportchi kabi iboralar ko‘proq ijobiy baholash be-radi
Jargon va qisqartmalar	MVP (Most Valuable Player), GOAT (Greatest Of All Time)	“G‘olib”, “Chempion”, “Final bos-qich” kabi aniq so‘zlar ko‘p ishlati-ladi
Madaniy xususiyatlar	Global sport turlari va tijoratlashuv bilan bog‘liq terminlar keng tarqal-gan	Milliy sport turlariga oid terminlar ko‘proq ishlatiladi
Kommunikativ vazifa	Reklama, marketing, motivatsiya va OAVda keng qo‘llanadi	Axborot yetkazish, sport natijalarini tushuntirish ko‘proq uchraydi
Stilistik boylik	So‘z o‘yinlari va metaforalar keng tarqalgan	O‘zbek tilida badiiy ifodalar, maqol va matallar ham uchraydi

Ingliz va o‘zbek tillaridagi sport terminlarining pragmatik qo‘llanishi bo‘yicha taqqoslovchi jadval

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport terminlari faqatgina texnik tushun-chalarni ifodalovchi maxsus leksika doirasida qolib ketmay, balki ular murakkab kommunikativ, emotsional va madaniy yuklama kasb etuvchi ko‘p qirrali til birliklari sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi sport terminlarining semantik yadrosi bir qator umumiyliklarga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish konteksti, uslubiy imkoniyatlari va madaniy-milliy xususiyatlari ma’lum darajada farqlanadi.

Ayniqsa, metaforik qo‘llanish, jargon va qisqartmalar tizimi, shuningdek, motivatsion va emotsional ta’sirchanlikka ega bo‘lgan sport terminlari tilning pragmatik potentsialini yanada boyit-adi. Ingliz tilida global sport turlari bilan bog‘liq terminlar xalqaro kommunikatsiya va ommaviy madaniyat diskursida ustunlik qilsa, o‘zbek tilida milliy sport an’analari bilan bog‘liq atamalar madaniy meros va tarixiy identifikatsiyaning muhim elementi sifatida saqlanib qolmoqda.

Shu bois sport terminlarining pragmatik qo‘llanilishini qiyosiy tahlil qilish tilshunoslikda ter-minologiya rivoji, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi, tarjimashunoslik va chet tilini o‘qit-ish metodikasi uchun yangi ilmiy imkoniyatlarni ochib beradi. Bu boradagi tadqiqotlar lingvistik birliklarning nafaqat semantik, balki pragmatik va sotsiokultural jihatlarini ham yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Nodir Nasriyevich G‘Afforov (2022). O‘zbek tilining umumiy lug‘atlarida sport termin-larining ifodalanishi. Oriental Art and Culture, 3 (2), 702-707.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopedi-yasi, 2020. – B. 379.

3. Jaxongir Abdisalimovich Kenjabayev (2024). Ingliz va o‘zbek tilida olimpiada sport tur-lariga oid leksikaning umumiy tavsifi. Academic research in educational sciences, 5 (10), 30-33.

4. Kenjabaev, J. A. (2024). Modern Teaching Methods in Teaching English. International Journal of Scientific Trends, 3(1), 52-56.

Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ollaberganovadilnoza88@gmail.com,
https://orcid.org/0009-0002-2826-6786

XOLID HUSAYNIY VA MALALA YUSUFZOY ASARLARIDA MUSULMON AYOLINING BADIIY TASVIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Afg‘on-Amerika va Pokiston-Britaniya diaspora adabiyotida musulmon ayolining badiiy tasviri atroflicha yoritilgan. Jumladan, Malala Yusufzoy va Holid Xusayniy asarlari tahlilga tortilgan hamda u yerda asosiy e’tibor musulmon jamiyatidagi ayol taqdiri, ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasiga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *diaspora, adabiyot, diaspora adabiyoti, ayol, musulmon.*

THE ARTISTIC PORTRAYAL OF THE MUSLIM WOMAN IN THE WORKS OF KHALED HOSSEINI AND MALALA YOUSAFZAI

Abstract. *In this article, the literary portrayal of Muslim women in Afghan-American and Pakistani-British diaspora literature is thoroughly examined. In particular, the works of Malala Yousafzai and Khaled Hosseini are analyzed, with special attention given to the artistic depiction of women's fate and their emotional experiences within Muslim societies.*

Key words: *diaspora, literature, diaspora literature, woman, Muslim.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ МУСУЛЬМАНСКОЙ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ХАЛИДА ХОССЕЙНИ И МАЛАЛЫ ЮСУФЗАЙ

Аннотация. *В данной статье подробно освещается художественное изображение мусульманской женщины в афгано-американской и пакистано-британской диаспоральной литературе. В частности, были проанализированы произведения Малалы Юсуфзай и Халеда Хоссейни, и основное внимание было уделено художественному выражению женской судьбы и душевных переживаний в мусульманском обществе.*

Ключевые слова: *диаспора, литература, литература диаспоры, женщина, мусульманин.*

Kirish. Musulmon jamiyatlaridagi gender munosabatlarida qabilaviy tuzilmalar va qarindosh-urug‘chilikka asoslangan tizim saqlanib qolinganligi sababli patriarxiya (grekcha “*ota hokimiyati*”) hali hamon hukmronlik kasb etib kelmoqda. Qabilaviy tuzilma patriarxal tashkilotning yangicha ko‘rinishi bo‘lib, arab mamlakatlari, shu jumladan, Eron, Afg‘oniston va Pokistonning ba’zi hududlarida hozirgi kungacha saqlanib qolgan [2: 149]. Afg‘onistonda “qavm” deya yuritiluvchi qabila o‘zaro qon-qarindoshlikka asoslangan birlashma bo‘lib, unda boshqaruv to‘liq erkaklar nazorati ostida bo‘ladi. Ayollarning hayotiy tanlovlari erkaklarning foydasini nazarda tutuvchi patriarxal mezonlar doirasidan chetga chiqa olmaydi. Bu o‘z navbatida ayollarning yoppasiga savodsiz bo‘lib qolishlari, aholi sonining shiddat bilan oshib borishi, onalar o‘limining o‘sishi va ayollar ishchi kuchining yetishmasligi sababli iqtisodiy soha qoloqligicha qolishiga sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Afg‘oniston va Pokistonning uzoq tarixiga nazar solsak, afg‘on va pushtunlarning ayollarni hamisha e’zozlab kelganiga guvoh bo‘lamiz. 1447-1457-yillarda Gavharshod ismli malika Hirotdan turib mamlakatni boshqargan. 1880-yilda xalq qahramoni Malalay ro‘molini yechib, Mayvanddagi inglizlarga qarshi jangga qo‘shinni boshlab ketgan. Surayyo ismli boshqa bir malika esa 1921-yilda “Irshodi Nisvon” (“Ayollar uchun ko‘rsatmalar”) nomli ilk ayollar jurnaliga asos solgan. Qolaversa, u Afg‘onistondagi ilk ayollar shifoxonasi va qizlar maktabini ham tashkil etgan hisoblanadi.

Pushtunlar (ba'zi manbalarda "paxtular" yoki "puxtolar") Afg'oniston va Pokistonda yashovchi va pushtun tilida gapiruvchi xalqlar bo'lib, dunyo bo'yicha ularning soni 38 milliondan oshadi. Afg'oniston aholisining katta qismi va Pokistonning qariyb 90 foiz aholisining ona tili pushtun tili sanaladi. Shuningdek, pushtun diasporasi Eron, Karachi, Belujiston singari boshqa bir qancha hududlarga ham muayyan darajada tarqalgan [5: 260]. Lomotey va Chachuning fikriga ko'ra, himoyachi – erkak, degan mafkura asosiga qurilgan pushtun jamiyatida genderlar rollari haqidagi qarashlar avloddan avlodga o'zgarmasdan o'tib kelgan [4: 69]. Ayollar tarixan zaif, bevafo va mo'rt sifatida tasvirlangan bo'lsa, erkaklar kuch va hukmronlikni o'zida mujassam etgan. Bu bora-bora ayollar tomonidan erkaklarning jismoniy kuchi, obro'si va nazorati bilan solishtirganda o'zlarining zaif tomonlari ko'pligini qabul qilishiga olib kelgan. Pushtunlar islom dini tamoyillari asosida yashasalar-da, ko'pincha ayollarning mulkiy huquqlarini tan olishmaydi, aksincha, ularning vakolatlarini cheklovchi madaniy me'yorlarga sodiq bo'lib kelishgan. Adabiyot va san'at namunalari, hattoki maqol va matallarda ham ayollar hamisha zaif, aqliy jihatdan uncha yetuk bo'lmagan va bo'ysunishga majbur insonlar sifatida gavdalantirilib, patriarxal jamiyatda ikkilamchi darajali ekanliklari pesh qilingan. Ayollar erlariga bo'ysunishmasa, oiladagi totuvlik yo'qolishi haqida bot-bot ogohlantirilgan. Ayollar erlarining istaklarini ro'yobga chiqarish uchun tirishishgan, vaholanki, erkaklar rafiqalari bilan muhim mavzularda muhokama yuritishdan tiyilishgan. Pushtun qadriyatlarida ayollar asosan ovqat tayyorlashdan iborat ro'zg'ordagi ishlar bilan band bo'lishi, erkaklar esa moddiy jihatdan ta'minotchi bo'lishi nazarda tutilgan [3: 6].

Natijalar. An'anaviy pushtun madaniyatida erkaklar qizning hayotiga u hali juda yosh paytidan boshlab ta'sir o'tkaza boshlashadi, ya'ni ta'lim olishidan tortib turmush o'rtoq tanlashgacha bo'lgan masalalarda ularning tanlovi muhim ahamiyat kasb etgan. Turmushga chiqqanidan so'ng ayolning hayoti ustidan eri va qaynonasi nazorat o'rnatib olishadi, ayolning nechta farzand ko'rishi, jamiyatdagi roli qanday bo'lishi, ta'lim va mehnat faoliyati borasida qanday cheklovlar mavjudligini ular hal qilishgan. Pushtun jamiyatida eng nozik masalalar bo'lgan ayollarning iffati va or-nomusining markaziy o'rinda turishi bunday qarorlar qabul qilishda yetakchilik qilgan. Ayol sha'nining toptalishi qabilaviy rishtalarga asoslangan jamiyat uchun halokatli oqibatlarga olib kelgan. Ayolning fe'l-atvori va xatti-harakatlari butun oilaning mavqei va sha'nini aks ettirgan. Har bir oilaning o'ziga xos chegaralari mavjud bo'lgan. Inson tomonidan yaratilgan bunday an'analar va me'yorlar erkak va ayol maqomi o'rtasidagi aniq tafovutlar negiziga qurilgan patriarxal jamiyatning eng ashaddiy shaklidir. Erkakning g'ururi faol, tajovuzkor va zo'ravon xatti-harakatlar orqali namoyon bo'lsa, ayollar uchun esa sharaf passiv, itoatkor va sharmandalikdan qochish, deb bilingan. Pushtun ayoli hukmron ijtimoiy normalar, madaniy qadriyatlar va qabila qonun-qoidalariga muvofiq tarzda yashashi shart bo'lgan. Shu bilan birga, pushtun jamiyatida onaga hissiy ta'sir o'tkazuvchi muqaddas siymo sifatida qaralgan. Onalik martabasi "Pushtunvali"da yuksak obro'ga ega bo'lgan, shuning uchun ham onalik maqomi e'zozlangan va hurmat qilingan [1: 48]. U uydagi kundalik ishlarda va qarorlar qabul qilishda faol ishtirokchi bo'lgan. Pokistonning Peshovar viloyatidagi qochoqlar boshpanalaridagi pushtun ayollarining rolini tadqiq etar ekan, A.Ahmed an'anaviy nofundamental sharoitlarda keksa ayollarga ehtirom bilan munosabat ko'rsatilishini, oiladagi to'ng'ich qiz otaning sevimli farzandi bo'lishini keltirib o'tgan. Pushtun ayolining oiladagi obro'si va qadr-qimmati merosxo'rlar (asosan, o'g'il farzand) tug'ib tarbiyalashiga bog'liq bo'lgan. Holbuki, onalikka berilgan bunday yuksak ijtimoiy ahamiyatga qaramasdan pushtun ayolining hayoti qiyinchiliklar va madaniy me'yorlarga shartsiz bo'ysunishdan iborat bo'lib kelgan.

Muhokama. Pokistonda ayollarning huquqlari va gender tengligini himoya qilishga qaratilgan ko'plab xalqaro va mahalliy idoralar bo'lsa-da, ularning aksariyati jamiyatning yuqori tabaqasigagina ta'sir o'tkaza oluvchi oliynasab ayollar tomonidan boshqariladi. Pushtunlar yashovchi qishloqlarda ayollarning aksar qismi qat'iy qabilaviy qonunlar ostida yashashadi, madaniy me'yorlarga nisbatan sodiqlik va mustahkam ildiz otgan patriarxal tizim ayollarning shaxsiy rivojlanishlari uchun juda kam imkoniyatlarni mujassam etadi. Pushtunlarning hayot tarzini belgilab beruvchi "Pushtunvali" nomli qonunlar to'plamidagi qoidalarga rioya qilishni pushtunlar ijtimoiy tuzilmaning eng muhim jihati, deb bilishadi. Ayollarning joyi yo uyda, yo go'rda bo'lishi kerak,

degan qarash hukmron bo‘lgan. Pushtunlar ayollarning qiyofasi va shaxsiyatiga juda jiddiy qarashgan, ba’zan boshqa erkaklarning nazari tushmasin, deb hattoki rafiqalarini kasalxonaga ham olib borishmagan. Adabiyotshunos olim Gull pushtunlar ayollarining ismlarini jamoat joylarida aytishni xush ko‘rmasliklarini, davlat idoralarida yoki kasalxonalarda rafiqasining, qizining ismini aytishga to‘g‘ri kelib qolsa ham avvaliga yon-atrofiga qarab olib, pushtun erkak uni eshitmayotganligiga ishonch hosil qilib olishadi. Ayol haqidagi tushuncha Afg‘oniston va Pokistonda istiqomat qiluvchi pushtun xalqida “Pushtunvali” qoidalar to‘plami va diniy talqinlar asosida shakllangan. Malala asarida pushtunlar uchun eng muhim qoida mehmondo‘stlik va inson sha’nini himoya qilish bo‘lsa, eng yomon ish – bu sharmandalik, yuzning yerga qarashidir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Afg‘oniston va Pokistondagi pushtun ayollari kutilmaganda butun dunyo bo‘ylab e’tibor markaziga tusha boshladi. Shu paytdan boshlab, G‘arbning, ayniqsa, AQSHning ommaviy axborot vositalarida pushtun ayollari qiyofasining namoyon bo‘lishi ko‘plab olimlarning diqqatini tortgan. Pushtun ayoli o‘zgalar nazdida G‘arbning harbiy kuchi orqaligina ozodlikka chiqishi mumkin bo‘lgan, urushlar va zo‘ravonliklarning passiv jabrdiydasi qiyofasida kasb etilgan bo‘lsa-da, diaspora adabiyoti vakillari bo‘lmish Xolid Husayniy va Malala Yusufzoylarning o‘z asarlari orqali ilgari surgan g‘oyalari mazmunida buning aksini ko‘rishimiz mumkin. Garchi pushtun ayollarining G‘arb olamida shakllangan qiyofasi bilan ular yaratgan obrazlar o‘rtasida qator o‘xshashliklar kuzatilsa-da, ikkala yozuvchi ham aynan ushbu bosma qolipli qarashlarni buzgan holda yangicha fikrlaydigan, ta’limni eng ustuvor maqsad deb biladigan zamonaviy ayol qiyofasini yarata olganliklari bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ahmed A.S. Pukhtun economy and society: Traditional structure and economic development in a tribal society. – London: Routledge and Kegan Paul, 1980. – P.48-52.
2. Eickelman D. *The Middle East: An Anthropological Approach, Second Edition.* Humboldt Journal of Social Relations. Vol. 16, No. 2 (1991), pp. 149-153 (5 pages). Department of Sociology, Humboldt State University.
3. Lashkari M.A. Oulasi mataluna [Popular Proverbs]. –Peshawar: Zeb Art Publishers, 2005. – P.6-10.
4. Lomotey B.A., Chachu S. Gender ideologies and power relations in proverbs: A cross-cultural study. Journal of Pragmatics, No.168, 2020. – P.69–80.
5. Rahmanullah, S. Controversial Portrayal of Women in Pashto Proverbs. Qlantic Journal of Social Sciences and Humanities. Vol.4, No.4, 2023. – P.260-261.

Yusupova Omina Muxammadzoir qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: yusupovaomina77@gmail.com

INGLIZ ERTAKLARINING TASNIFI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz ertaklarining tasnifi hamda o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. Unda ingliz ertaklari mavzu va qahramonlariga ko‘ra turlarga ajratilga holda tahlil qilinadi. Shuningdek, ertaklar tasnifi yuzasidan ko‘plab folklorshunos va ertakshunoslarning tadqiqotlari ko‘rsatib berilgan. Bundan tashqari, mazkur maqola ingliz folklori va uning madaniy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Ingliz ertaklari, folklor, ertaklar tasnifi, sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, realistik ertaklar, ingliz madaniyati, xalq og‘zaki ijodi.*

КЛАССИФИКАЦИЯ И УНИКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация. *Данная исследовательская работа посвящена классификации и уникальным особенностям английских сказок. В ней английские сказки анализируются по типам в зависимости от их тематики и персонажей. В работе также представлены исследования многих фольклористов и сказковедов по классификации сказок. Кроме того, данная статья помогает понять английский фольклор и его культурное значение.*

Ключевые слова: *Английские сказки, фольклор, классификация сказок, волшебные сказки, сказки о животных, реалистические сказки, английская культура, устное народное творчество.*

CLASSIFICATION AND UNIQUE CHARACTERISTICS OF ENGLISH FOLK TALES

Abstract*. This article is dedicated to the classification and unique characteristics of English fairy tales. It analyzes English tales by dividing them into different types according to their themes and characters. The article also presents the research of numerous folklorists and fairy tale scholars on the classification of these tales. Furthermore, this research helps to understand English folklore and its cultural significance.*

Keywords: *English fairy tales, folklore, fairy tale classification, magical tales, animal tales, realistic tales, English culture, oral folklore.*

Kirish. Aytish joizki, ingliz ertaklari boy tarixga ega bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan hamda sevib o‘qiladi. Bu ertaklar avloddan avlodga o‘tib, ingliz xalqining madaniyati, qadriyatlari va hayot tarzini aks ettiradi. Ertaklar, asosan, og‘zaki ijoddan kelib chiqqan hamda keyinchalik to‘plamlar shaklida nashr etilgan. Ingliz ertaklari nafaqat bolalar uchun qiziqarli, balki butun dunyo folklori tadqiqotchilari uchun ham muhim manbadir. Ular ingliz tilini o‘rganishga yordam berib, ushbu xalqning boy madaniyatini ham chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Ingliz ertaklari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning qahramonlari oddiy odamlar yoki turli kasb egalari – dehqonlar, duradgorlar, sotuvchilardir. Bunday personajlar o‘z yutuqlariga aqli, jasorati va mehnatsevarligi tufayli erishadi. Qolaversa, ingliz ertaklari kuchli hazil va satira elementlariga ega bo‘lib, ko‘pincha boy, zodagon yoki qirol kabi jamiyatning yuqori tabaqasi ustidan kuladi. Ingliz ertaklarini mavzu va qahramonlariga ko‘ra bir necha asosiy turlarga bo‘lish mumkin. Bu tasnif ertaklarning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ta’kidlash joizki, inglizlar ham barcha xalqlar qatori azaldan ertaklarni qadrlab, ularni to‘plash va nashr etishga alohida e’tibor qaratgan. *“English Fairy*

Tales" nomli asar muallifi Jozef Jeykobs bo‘lib, uning ingliz ertaklari rivojidagi o‘rni salmoqlidir. J.Jeykobs 140 dan ortiq ingliz xalq ertaklarini to‘plagan va ularni *"Celtic Fairy Tales", "More Celtic Fairy Tales", "English Fairy Tales and More English Fairy Tales"* nomlari bilan nashr ettirgan. U o‘z ertak to‘plamlarini quyidagi jumla bilan boshlaydi: "Who says that English folk have no fairy-tales of their own?" [2], ya'ni "Kim ingliz xalqining o‘z ertaklari yo‘q deb aytadi?".

Ertaklarning shakllanishida Jek Zipesning ham o‘rni beqiyosdir. U *"The Irresistable Fairy Tale", "The Golden Age of Folk and Fairy tales", "The Changing Function of the Fairy Tale"* kabi asarlar muallifi hisoblanadi. J.Zipes ertak janriga ta'rif berar ekan, uni butun dunyoga tarqalgan poligenetik madaniy artifakt deb ataydi [8]. Uning ertaklarga bag‘ishlangan *"Orzular ro‘yobga chiqqanda: mumtoz ertaklar va an'analar"* asarida ertakning XVI asrdan XXI asrgacha bo‘lgan ijtimoiy hayoti tasvirlanadi. Ushbu kitobda ertaklar mazmunli ijtimoiy funksiyani bajarishi hamda jamiyatdagi haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi tafovutlarni ochib bera olishi ta'kidlab o‘tilgan [9]. Qolaversa, J.Zipes ertakning paydo bo‘lishi, tarqalishi va uning janr sifatida rivojlanishi haqida nazariy fikrlarni bayon qilgan.

Xalq ertaklari yig‘uvchisi sifatida tanilgan, *"Custom and Myth", "Yellow Fairy Book", "Blue Fairy Book", "Prince Prigio"* kabi folklor, mifologiya va dinga oid asarlar muallifi shotlandiyalik Endryu Lengdir. U ingliz va boshqa xalq ertaklarini jamlab, o‘zining ertak to‘plamlarini yaratgan hamda ingliz ertaklari rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Ingliz ertakshunosligining yana bir buyuk namoyondasi Edvin Sidni Hartlend bo‘lib, uning ingliz folklori va ertaklari shakllanishida alohida o‘rni bor. Uning *"English Fairy and other Folk Tales"* hamda *"The Science of Fairy Tales: Inquiry into the Fairy Mythology"* nomli nashrlari ingliz folklorshunosligida katta ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama.

Ingliz ertaklari bir necha asosiy turlarga bo‘linadi. Bunda ertaklarning mavzusi, qahramonlari va syujetiga asoslanadi. Ta'kidlsh joizki, ingliz ertakshunosi Edvin Sidney Hartland o‘zining "English Fairy and other Folk Tales" nomli kitobida ertaklar yoki an'anaviy rivoyatlarni 5 guruhga, ya'ni *sagalar, bolalar hikoyalari, drollar, masallar (apaloglar) va rivojlanib boruvchi hikoya* kabilarga bo‘lish mumkinligini qayd etgan [3]:

1. *Sagalar* – haqiqat deb hisoblangan an'anaviy rivoyatlar bo‘lib, odatda, o‘tmishdagi ma'lum tarixiy shaxs, biror hududda istiqomat qilgan real insonlar haqidagi ertaklardir. Shu o‘rinda ta'kidlash joizki, *sagalar* skandinaviyalik hamda irlandlarning qahramonlik dostoni sanalib, ilk marta qadimgi Kelt qabilalarida yaratilgan. "Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati"da sagalarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Skandinaviya adabiyotida sagalar asosan X-XIV asrlarda yaratilgan. Hozirgi vaqtda island va norveg adabiyotida tarixiy yoki qahramonlik mavzusidagi povest, hikoya, ertaklar *saga* deb yuritiladi. Bunday sagalar, asosan, nasrda yoziladi, lekin ularda she'riy parchalar ham uchrab turadi" [7]. Demak, sagalar, asosan, o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealarni ifodalovchi haqiqatga asoslangan hikoya yoki ertaklar hisoblanib, ingliz xalqlarining sevimli folklor janrlaridan biridir.

Rivoyatlar esa xalq og‘zaki ijodini epik turiga kirgan ommaviy janrlardandir. Ular afsonalardan farqli o‘laroq hayotda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqea-hodisa asosida yaratiladi. Rivoyatlar mazmuniga ko‘ra tarixiy va toponimik (o‘rin-joy nomlari izohi) turlarga bo‘linadi [4]. Aytish joizki, xalq og‘zaki ijodining bu janri odatda voqeaga guvoh bo‘lgan shaxslar tomonidan yozib qoldirilishi yoki avloddan avlodga og‘zaki tarzda yetkazilishi mumkin.

2. *Bolalar hikoyalari* (nursery tales) – haqiqatga asoslanmaydigan hikoyalar bo‘lib, ularning qahramonlari tarixga mutlaqo noma'lum bo‘ladi. Bunday ertaklarda voqealar qachon, qayerda sodir bo‘lgani ma'lum emas. Shu sababli, bu ertaklar "Once upon a time in a certain village" (Qadim o‘tgan zamonda qaysidir qishloqda) deb boshlanadi. S.Hartland bu ikki turdagi ertaklar haqida to‘xtalib o‘tar ekan, *nursery tales* (bolalar ertaklari yoki *marchen*) boshqa mamlakatlarda topilgan hikoyalarning katta qismini tashkil qilsa-da, Angliyada yozilganlari juda oz miqdorda ekanligi, Uelsda esa birorta ham bolalar ertaklari (nursery tales) topilmaganini ta'kidlaydi. Muallif bu ikki tur o‘rtasida biroz farq borligini ta'kidlab, ko‘p hollarda sagalar Angliya va Uels ertaklarida uchrashi, bunga sabab esa sagalarda aniq shaxs va joylar keltirilganligi, deb hisoblaydi. Shuningdek, muallif

ba'zi hikoyalarni o'xshash tarzda – saga shaklida ham, bolalar ertaklari ko'rinishida ham uchratish mumkinligini ta'kidlaydi.

3. *"Drollar" (drolls)* deb nomlanuvchi uchinchi turdagi hikoyalar qisqa, yumoristik xarakterga ega hikoyalar bo'lib, ular ham ingliz xalq folklor ertaklari sirasiga kiradi. Bular xalqning dono fikr va o'y-qarashlarini qisqa, yumoristik yo'l bilan ifodalash maqsadini ko'zda tutadi.

4. *"Apologlar"*, ya'ni masallarda insonlarga xos xususiyatlar hayvonlarga ko'chirilgan holda hikoya qilinadi va undan axloqiy saboq olish ko'zda tutiladi.

5. So'nggi tur *"cumulative tales"* deb nomlanib, ular zanjirli ertaklar deb ham ataladi. Rivojlanib boruvchi hikoyalarda ertak davom etar ekan, harakat yoki dialog takrorlanadi va ma'lum bir tarzda shakllanadi [3].

Fin folklorshunoslik maktabining asoschilaridan biri A.Arne dunyo xalqlari ertaklarini *"motivlar silsilasidan tashkil topgan syujet"*lar asosida tasniflagan hamda o'zining "Ertak tiplarining ko'rsatkichi" va "Qiyosiy ertakshunoslik asoslari" kabi mashhur asarlarida bu haqida batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Arne, asosan, Yevropa xalqlari ertaklarini tahlil qilib, ularni quyidagi tiplarga ajratadi: "Birinchi guruhga "hayvonlar haqidagi ertaklar", ikkinchi guruhga esa "sof ertaklar" kiritilgan. *"Sof ertaklar"* o'z o'rnida *sehrli, afsonaviy, novellistik, laqma shayton (yoki "pahlavon") haqidagi ertaklar*ga ajratilgan. "Latifalar" deb nomlanuvchi so'nggi guruhga mansub ertaklar mavzu tiplari bo'yicha tavsiflangan". Har bir ertak turi o'zining tartib raqamiga ega. Aytish joizki, A.Arne "hayvonlar haqidagi ertaklar"ni 1-299, "sof ertaklar"ni 300-1199, "latifalar"ni esa 1200-1999 raqamlari bilan belgilab chiqqan". U "The Types of the Folktale" kitobining kirish qismida ko'plab xalq ertaklari to'plamlari mazkur turlar asosida tuzilganligini alohida qayd etadi [1].

V.Propp o'zining *"Sehrli ertaklar morfologiyasi"* asarida bunday tasniflashga alohida to'xtalib, hayvonlar haqidagi ertaklar ham sehrli ertaklar turiga kirishini va A.Arne keltirib o'tgan toifalarning bir nechtasi bitta ertakda mujassam bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan. Olim syujetga asoslangan tasniflarga qo'shilmaydi hamda ular aniq bir prinsipga ega emasligini ta'kidlaydi. Uning *"Sehrli ertaklar morfologiyasi"* hamda *"Sehrli ertaklarning tarixiy ildizlari"* asarlarida ertaklarni tasniflashda keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar hajman ko'p bo'lsa-da, mukammal emasligini qayd etib, ko'plab olimlarning ertaklar tasnifiga to'xtalib o'tgan. Jumladan, V.Propp ertaklarning eng ko'p tarqalgan tasnifi V.Miller tomonidan amalga oshirilgani, u ertaklarni *sehrli*, *maishiy* va *hayvonlar haqidagi ertaklar*ga ajratgani haqidagi ma'lumotlarni keltirgan [5].

Amerikalik folklorshunos S.Tompson xalq ertaklarini turlari bo'yicha indekslagan hamda o'zining *"The Folktale"* asarida ertaklarni *hayvonlar haqidagi ertaklar, oddiy xalq ertaklari* va *kulgili ertaklar* kabi uchta asosiy guruhga bo'lgan. Ertaklarning eng katta guruhi, *oddiy xalq ertaklari* sehrli yoki mo'jizaviy ertaklar, diniy hikoyalar, romantik hikoyalar va ahmoq Ogre bilan bog'liq hikoyalarga bo'linadi. Sehr-jodu ertaklarida har doim qandaydir g'ayritabiiy omil topiladi va odatda ular diniy bo'ladi. Romantik hikoyalar esa butunlay boshqa ko'rinishlarga ega. Ahmoq Ogre ertaklari uchun tasniflar turlicha bo'lib, kulguli ertaklarga yaqinligi sababli oddiy xalq ertaklarining so'nggi guruhi sifatida hajviy latifalar sirasiga kiradi. Sehr-jodu ertaklarini bo'limlarga ajratishda hayrat, g'ayritabiiylik elementining mustahkamligi yaqqol namoyon bo'ladi. Uchinchi guruh ertaklar, hazillar va latifalar hisoblanib, bu guruh vaqt o'tishi bilan hayvonlar haqidagi ertaklarga yoki oddiy xalq ertaklariga qaraganda ko'proq qo'shimcha raqamlarga ega bo'ladi. Keyingi qism "er-xotinlar", "ayol" yoki "erkak" nomlari bilan bog'liq ertaklarni tashkil etadi. Oxirgi, ko'p sonli guruh aqlli odam, omadli baxtsiz hodisalar, ahmoq odam haqidagi ertaklarga bo'linadi. Hajviy latifalarning oxirgi guruhi "Yolg'on ertaklar" deb nomlanib, ularga ov ertaklari, ulkan hayvonlar haqidagi hikoyalar kiradi [6].

Aytish joizki, ertaklarni turlarga ajratishda S.Tompson hamda A.Arnelarning xizmatlari beqiyos bo'lib, ularning tasnifidan boshqa xalqlar ham ertaklarni turlarga ajratishda foydalanganlar hamda tasniflashdagi qiyinchiliklar soni sezilarli darajada qisqargan.

Xulosa. Ingliz ertaklari faqatgina bolalar uchun mo'ljallangan hikoyalar emas, balki ingliz xalqining madaniyati va qadriyatlarini aks ettiruvchi boy manba hisoblanadi. Ular oddiy qahramonlarning jasorati, aql-idroki va mehnatsevarligini ulug'laydi, shu bilan birga yumor hamda satira orqali ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qiladi. Ertaklarning turlarga bo'linishi ularning turli mavzularga

boy ekanligini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ingliz ertaklari nafaqat ko‘ngilochar, balki hayotiy saboqlar beruvchi, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meros sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Aarne A., Thompson S. The Types of the Folktale. A Classification and Bibliography. – Indiana University. 1961. – P.3.
2. Jacobs J. English fairy tales. – Pennsylvania: Pennsylvania State University, 2005. – P.5.
3. Hartland E.S. English fairy and other folk tales. – London: W.Scott, 1906. – P.IX.
4. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi: Akademik litseylar uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.56.
5. Пропп В.Я. Морфология «волшебной» сказки. Исторические корни волшебной сказки. Комментарии Мелетинского Е.М., Рафаевой А.В. Составление, научная редакция, текстологический комментарий. Пешкова И.В – М.: Лабиринт, 1998. – С.11.
6. Thompson S. The Folktale. – New York: Dryden press, 1946. – P.415
7. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati: umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik listey o‘quvchilari, filolog talabalar hamda o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B.139.
8. Zipes J. Why Fairy Tales Stick. The Evolution and Relevance of a Jenre. – New York: Routeledge, 2007. – P.15.
9. Zipes J. When Dreams Came True: Classical Fairy Tales and Their Tradition. – Routledge, 1999. – P.29.

Usmonova Shahodat Abdurahimovna
O‘zbekiston Davlat jahon tillar universiteti dotsent,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sh.usmonova@uzswlu.uz
ORCID iD: 0009-0002-7154-5492

KOLMNIST VA SHARHLOVCHILAR MATERIALIARI TARJIMASINING MANTIQIY IZCHILLIGI: PRAGMATIK ARGUMENTATSIYA VA SOTSIAl IMIDJ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kolumnist va sharhlovchilar materiallarining tarjimasida mantiqiy izchillikni ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi. Pragmatik argumentatsiya va sotsial imidjning tarjima jarayonidagi roli tahlil etiladi. Tadqiqotda jurnalistik matnlarning pragmatik xususiyatlari, tarjimonning mantiqiy izchillikni saqlash usullari va sotsial imidjning ta'siri o'rganiladi. Natijada, tarjima jarayonida pragmatik argumentatsiyani saqlash orqali asl matnning ta'sirini kuchaytirish va sotsial imidjni buzmaslik bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kolumnist, sharhlovchi, tarjima, mantiqiy izchillik, pragmatik argumentatsiya, sotsial imidj, jurnalistika, pragmatika, matn tahlili, tarjima nazariyasi.*

ЛОГИЧЕСКАЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ В ПЕРЕВОДЕ МАТЕРИАЛОВ КОЛОННИСТОВ И КОММЕНТАТОРОВ: ПРАГМАТИЧЕСКАЯ АРГУМЕНТАЦИЯ И СОЦИАЛЬНЫЙ ИМИДЖ

Аннотация. *В этой статье рассматриваются вопросы обеспечения логической последовательности в переводе материалов колоннистов и комментаторов. Анализируется роль прагматической аргументации и социального имиджа в процессе перевода. В исследовании изучаются прагматические особенности журналистских текстов, методы сохранения логической последовательности переводчиком и влияние социального имиджа. В результате даются рекомендации по усилению воздействия оригинального текста через сохранение прагматической аргументации в переводе и избежание искажения социального имиджа.*

Ключевые слова: *колоннист, комментатор, перевод, логическая последовательность, прагматическая аргументация, социальный имидж, журналистика, прагматика, анализ текста, теория перевода.*

LOGICAL CONSISTENCY IN THE TRANSLATION OF COLUMNISTS AND COMMENTATORS' MATERIALS: PRAGMATIC ARGUMENTATION AND SOCIAL IMAGE

Abstract. *This article examines the issues of ensuring logical consistency in the translation of columnists and commentators' materials. The role of pragmatic argumentation and social image in the translation process is analyzed. The study explores the pragmatic features of journalistic texts, methods for maintaining logical consistency by the translator, and the impact of social image. As a result, recommendations are provided for enhancing the impact of the original text through preserving pragmatic argumentation in translation and avoiding distortion of social image.*

Key words: *columnist, commentator, translation, logical consistency, pragmatic argumentation, social image, journalism, pragmatics, text analysis, translation theory.*

Kirish. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida kolumnist va sharhlovchilar qalamiga mansub materiallar alohida o‘rin egallaydi. Ular nafaqat dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarni sharhlab beradi, balki auditoriyaga muammolarga yangicha nigoh va baholash mezonlarini ham taqdim etadi. Shu bois bunday matnlarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayoni yuqori darajadagi lingvistik va pragmatik mas’uliyatni talab etadi. Xususan, tarjimada matnning mantiqiy izchilligini saqlash, argumentativ-pragmatik qatlamini to‘g‘ri yetkazish hamda muallifning sotsial imidjini buzmasdan aks

ettirish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur jihatlar tarjima nazariyasi va amaliyotida globalizatsiya sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki xalqaro axborot maydonida media matnlar tezkorlik bilan boshqa tillarga ko‘chirilmoqda.

So‘nggi yillarda tarjima lingvistikasi sohasida pragmatika va ijtimoiy imidj muammolari bo‘yicha tadqiqotlar faollashgani kuzatiladi. Masalan, Van Deyk jurnalistik matnlarda argumentatsiyaning pragmatik asoslarini o‘rgangan bo‘lsa[1], Feyrklou matnlarning ijtimoiy-diskursiv ta’sirini tahlil etgan[2]. Biroq kolumnist va sharhlovchilar materiallarini tarjima qilish jarayonida mantiqiy izchillik hamda sotsial imidjning o‘zaro uzviy bog‘lanishi ilmiy izlanishlarda yetarlicha yoritilmagan. Shu bois ushbu masalani chuqur tahlil qilish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, media matnlar tarjimasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kolumnist va sharhlovchilar materiallarining tarjimasida mantiqiy izchillik, pragmatik argumentatsiya va sotsial imidj masalalari tarjima nazariyasi hamda jurnalistika pragmatikasining kesishgan nuqtasida joylashadi. So‘nggi 10–15 yillik tadqiqotlarda jurnalistik tarjima ko‘pincha ekvivalensiya tamoyilidan chetga chiqib, matnni qayta kontekstlashtirish va transformatsiya sifatida talqin etilmoqda.

Frank jurnalistik tarjima jarayonida qayta tuzilish, qisqartirish va kuchaytirish kabi pragmatik o‘zgarishlarni ko‘rsatib, ularning matnning mantiqiy izchilligi va auditoriyaga ta’siriga ta’sirini tahlil qiladi[3;4]. U, xususan, omissiya va qo‘shimchalarning keng tarqalganini, bu esa argumentatsiyaning izchilligini buzishi mumkinligini ta’kidlaydi. Hau, Kadar va Terkourafi tarjimaning pragmatikasini qayta kontekstlashtirish nazariyasi asosida tushuntirib, madaniy filtrlarning qo‘llanishi muallif imidjiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadilar[5]. Volkova va Zubenina esa tarjima jarayonida pragmatik va sotsiokultural adaptatsiyani ajratib, ularning mantiqiy izchillikni saqlashdagi rolini ko‘rsatadi[10]. Shu bilan birga, ularning modeli ko‘proq ta’limiy matnlarga qaratilgan bo‘lib, jurnalistik materiallarga to‘liq tadbiq qilinmagan.

Tipton va Desilla (2019) jurnalistik tarjimani ekvivalensiyadan ko‘ra transformatsiya sifatida ko‘rib, lokalizatsiya, glossing va transediting strategiyalari orqali matn ramkasining o‘zgarishini tahlil qiladilar. Ularning fikricha, bunday o‘zgarishlar pragmatik argumentatsiyani zaiflashtirishi va sotsial imidjni stereotiplashtirish orqali buzishi mumkin. Bundan tashqari, Van Deyk va Feyrklou ishlarida jurnalistik matnlarda diskurs, kuch va ijtimoiy ta’sir omillari keng yoritilgan.

Mavjud adabiyotlarda jurnalistik tarjimaning pragmatik va madaniy jihatlari yetarlicha tahlil qilingan bo‘lsa-da, kolumnist va sharhlovchilar materiallarida mantiqiy izchillik va sotsial imidjning o‘zaro bog‘lanishi kam o‘rganilgan. Frank , Hau va boshqalar pragmatik o‘zgarishlarni yoritadi, biroq muallifning sotsial imidjining tarjimada kuchayishi yoki zaiflashishi masalasiga yetarli e’tibor qaratilmagan.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlardan foydalanildi. Avvalo, matnlardagi argumentatsiya tuzilishini aniqlash maqsadida pragmatik tahlil qo‘llanib, Toulmin modeli asosida argument, dalil va xulosa elementlari ajratib ko‘rsatildi. Shuningdek, tarjima va asl matn o‘rtasidagi semantik uyg‘unlikni aniqlash uchun mantiqiy izchillik tahlili amalga oshirildi. Muallifning sotsial imidjini baholash maqsadida esa diskursiv tahlil**dan** (Feyrklou modeli asosida) foydalanilib, tarjima jarayonida imidj qanday o‘zgarishi ko‘rsatib berildi.

Muhokama. Kolumnist va sharhlovchilar materiallarining tarjimasida mantiqiy izchillikning buzilishi, avvalo, pragmatik argumentatsiyaning noto‘g‘ri yetkazilishi bilan bog‘liq. Masalan, Krugmanning maqolalarida kuzatilgan ironik elementlarning tarjimada yo‘qolishi[8] Frank tomonidan qayd etilgan pragmatik o‘zgarishlar (omissiya va qo‘shimchalar) bilan bevosita mos keladi[4]. Bunday o‘zgarishlar kolumnistlarning shaxsiy uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, muallifning sotsial imidjini zaiflashtirishi aniqlangan [4,1].

Natijalar, shuningdek, Hau va boshqalarning qayta kontekstlashtirish (re-contextualization) nazariyasini tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, tarjima jarayonida madaniy filtrlarning qo‘llanishi mantiqiy bog‘lanishni buzmasdan, muallifning sotsial imidjini muayyan darajada saqlab qolishga yordam beradi. Sharhlovchilar materiallarida esa imidjga bo‘lgan ta’sir kuchliroq: 40% hollarda tarjima orqali “ekspert” imidji sezilarli darajada zaiflashgani qayd etildi. Masalan, Krushchev va Karterga oid misollarda yuzaga kelgan noto‘g‘ri tarjima (mistranslation)lar jurnalistik matnlarda imidj buzilishiga

olib kelgan bo‘lib[6;7], bu holat Feyrklou tomonidan ilgari surilgan tanqidiy diskurs tahlili yondashuviga mos keladi[2]. Tadqiqotimizda aniqlanishicha, bunday zaiflashish ko‘pincha pragmatik elementlarning (hedges va boosters) tarjimada yo‘qolishi bilan izohlanadi, bu esa Van Deykning diskurs va kuch munosabatlari haqidagi nazariyasini amaliy jihatdan kengaytiradi.

Volkova va Zubeninaning pragmatik adaptatsiya modelini qo‘llash orqali biz mantiqiy izchillikni yaxshilash imkonini beruvchi bir qator tarjima strategiyalarini (masalan, explicitness change va transediting) sinovdan o‘tkazdik[10]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu strategiyalar tarjimalarda izchillikni o‘rtacha 20–30% ga yaxshilashi mumkin.

Natijalar. Kolumnist matnlarida 65% hollarda mantiqiy izchillikning buzilishi qayd etildi, bu **e**sa ironiya, sarkazm va metaforik ifodalar kabi uslubiy-pragmatik vositalarning tarjimada yo‘qolishi bilan bog‘liq. Masalan, Paul Krugmanning *“The Political Failure of Trickle-Down Economics”* [8] maqolasidagi *“trickle-down economics on steroids”* iborasi o‘zbek tiliga *“tomchi-tomchi iqtisodiyotining steroidli varianti”* tarzida tarjima qilinganda, asl matndagi ironik va tanqidiy ohang sezilmay qolgan. Bu esa argumentatsiyaning mantiqiy izchilligini zaiflashtirgan holda, matnning umumiy ta’sirchanligini kamaytirgan. Ushbu holat Frank tomonidan qayd etilgan **pragmatik o‘zgarishlar** (reinforcement va reduction) jarayonlarini tasdiqlaydi, chunki ironiyaning omissiyasi matnning ritorik kuchini pasaytirgan [4, 1].

Sharhlovchilar materiallarida sotsial imidjning ta’siri yanada sezilarli bo‘lib, 40% hollarda muallifning “ekspert” imidji tarjima orqali zaiflashgani aniqlangan. Masalan, Nikita Krushchevning mashhur *“We will bury you”*[6] iborasi o‘zbek tiliga *“Sizni ko‘mib qo‘yamiz”* tarzida so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, asl ma’no - “kommunizm kapitalizm ustidan g‘alaba qozonadi” degan ideologik mazmun - yo‘qolib, ibora qo‘rqitish va tajovuz sifatida talqin qilingan. Natijada, jurnalistik diskursda (masalan, *Time* jurnalida) Krushchevning siyosiy imidji salbiy tus olgan va matnning mantiqiy izchilligi buzilgan.

Shu kabi, Jimmi Karterning Polshada aytgan *“I wanted to learn about the Polish people's desires for the future”* [7] jumlasi tarjima xatosi sababli jinsiy ma’noga ega qilib yetkazilgan, bu esa jurnalistik narrativlarda Karterning siyosiy imidjini masxara qilishga olib kelgan va argumentatsiyaning izchilligini butunlay yo‘qotgan . Ushbu misollar Tipton va Desilla tomonidan ilgari surilgan translation shifts (o‘zgarishlar) haqidagi nazariyani tasdiqlaydi, chunki tarjima jarayonidagi refreyming pragmatik elementlarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga sabab bo‘lgan[9].

Tarjimonning asosiy vazifasi nafaqat semantik ekvivalentlikni ta’minlash, balki pragmatik elementlarning izchilligini saqlashdan iborat. Xususan, mantiqiy operatorlar (*chunki, natijada, ammo*) va deiktik elementlar (*bu, shu, o‘sha*)ni to‘g‘ri qo‘llash argumentatsiyaning uzluksizligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, sotsial imidjni saqlash uchun muallifning shaxsiy uslubiy vositalari - ironik ohang, sarkazm, metafora va ritorik savollar - imkon qadar aniq yetkazilishi zarur. Bu yondashuv Volkova va Zubenina tomonidan taklif etilgan pragmatik adaptatsiya modeli bilan uyg‘un bo‘lib, tarjimada explicitness change va transediting strategiyalaridan foydalanish natijadorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi [10;23].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, jurnalistik matnlarni tarjima qilish jarayonida pragmatik argumentatsiyani saqlash va sotsial imidjni to‘g‘ri yetkazish mantiqiy izchillikni ta’minlashning asosiy omillari hisoblanadi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot nafaqat tarjima nazariyasi, balki amaliy tarjima jarayoni uchun ham dolzarb tavsiyalar beradi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, tarjima jarayonida pragmatik elementlarni - xususan, hedges (ehtiyotkorlik bildiruvchi birliklar) va boosters (kuchaytiruvchi birliklar)ni saqlash orqali asl matnning ta’sirchanligi hamda argumentativ kuchi mustahkamlanadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, mantiqiy buzilishlarni 20–30% gacha kamaytirish imkonini beradi.

Keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, mistranslation va deictic shifts tarjimaning eng jiddiy xatolari sirasiga kiradi. Bunday xatolar nafaqat matnning mantiqiy izchilligini buzadi, balki muallifning ijtimoiy va siyosiy imidjini zaiflashtiradi ham. Natijada, jurnalistik matnning ishonchlilik darajasi pasayib, o‘quvchida muallifga nisbatan shakllanadigan ijtimoiy qabul ham o‘zgaradi. Shu bois tarjimon nafaqat til darajasidagi ekvivalentlikni, balki pragmatik izchillik va sotsial imidjni himoya qilish masalasini ham inobatga olishi zarur.

Ushbu tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, taklif etilayotgan metodlar - pragmatik tahlil va diskursiv yondashuv - tarjima amaliyotini yanada mukammallashtirish imkonini beradi. Xususan, Frank tomonidan ilgari surilgan pragmatik o‘zgarishlar nazariyasi hamda Hau va hamkorlarining re-contextualization yondashuvi ushbu natijalar orqali amaliy jihatdan kengaytirilmoqda.

Kelgusidagi izlanishlarda mazkur masalani ko‘p tilli korpuslar asosida, jumladan, mashina tarjimasi bilan integratsiya qilgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv Haus[11] tomonidan taklif etilgan translation quality assessment metodikasini qo‘llash imkonini beradi hamda tarjima sifatini tizimli baholashni yanada samarali qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jurnalistik tarjimaning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, u nazariy yondashuvlarni boyitish va amaliy tarjima jarayonini takomillashtirish uchun muhim metodologik tavsiyalarni ilgari suradi. Shu tariqa, ushbu maqola tarjima lingvistikasi, diskurs tahlili va media tadqiqotlar kesishgan nuqtada ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Dijk, T. A. van (2015). *Discourse and Power: Contributions to Critical Discourse Studies*. London: Palgrave Macmillan.
2. Fairclough, N. (2018). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. London: Routledge.
3. Franck, D. (2014). “Pragmatic Transformations in Journalistic Translation: Omission, Addition, and Reinforcement.” *Journal of Translation Studies*, 12(3), pp. 55–72.
4. Franck, D. (2017). *Translation and Pragmatics in Media Discourse*. Berlin: De Gruyter.
5. Haugh, M., Kádár, D., & Terkourafi, M. (2021). *The Pragmatics of Translation and Re-Contextualization*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Khrushchev, N. (1956). *Speech at the Reception for Polish Delegation*. Moscow.
7. Carter, J. (1977). *Speech in Poland: On Polish People’s Desires for the Future*. Warsaw.
8. Krugman, P. (2017). “The Political Failure of Trickle-Down Economics.” *The New York Times*, December 19.
9. Tipton, R., & Desilla, L. (2019). *The Routledge Handbook of Translation and Pragmatics*. London: Routledge.
10. Volkova, T., & Zubenina, N. (2015). “Pragmatic Adaptation in Translation: A Model for Preserving Logical Consistency.” *Translation and Interpreting Studies*, 10(2), pp. 19–34.
11. House, J. (2015). *Translation Quality Assessment: Past and Present*. London: Routledge.

Ismoilova Diloromhon Rustamjon kizi
Renessans ta'lim universiteti,
Xorijiy filologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: d.r.ismoilova@mail.ru

THEORETICAL FOUNDATION OF LINGUOPOETICS

Annotation. *The article discusses the foundations and development of linguopoetics as an interdisciplinary field that studies the aesthetic function of language in literary texts. Beginning with F. de Saussure's systemic approach to language and his distinction between langue and parole, the study emphasizes how linguistic creativity in literature is tied to the writer's idiolect and stylistic choices. It focuses on the role of sound devices such as alliteration, assonance, and onomatopoeia in shaping poetic effects, while also drawing on R. Jakobson's model of communication to stress the predominance of the poetic function in art. Further, the article reviews theoretical contributions from major scholars: Ronald Carter on the sociocultural turn in linguopoetics, Richard Cureton on expanding its scope beyond literature, Donald Davy on the classification of poetic syntax, and Josephine Miles on the statistical study of poetic lexicon. Through these findings, it is proven that linguopoetic research integrates linguistic, pragmatic, and cultural dimensions, revealing how artistic meaning is created through the interplay of form, content, and stylistic innovation.*

Key words: *linguopoetics, pragmatics, culture, alliteration, assonance, form, content, lexicon.*

LINGVOPOETIKANING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada tilning badiiy matnlardagi estetik vazifasini o'rganuvchi fanlararo soha sifatida lingvopoetikaning asoslari va rivojlanishi muhokama qilinadi. F. de Sossyurning tilga tizimli yondashishi va uning til va nutq o'rtasidagi farqidan boshlab, tadqiqot adabiyotdagi lingvistik ijodning yozuvchining idiolekti va stilistik tanlovi bilan qanday bog'langanligiga urg'u beradi. Maqolada she'riy effektlarni shakllantirishda alliteratsiya, assonans, onomatopeya kabi tovush vositalarining roliga e'tibor qaratildi, shu bilan birga, R.Jakobsonning muloqot modeliga asoslanib, san'atda she'riy funktsiyaning ustunligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada yirik olimlarning nazariy hissalari ko'rib chiqiladi. Xususan, Ronald Karter lingvopoetikadagi ijtimoiy-madaniy burilish haqida, Richard Kureton uning qamrovini badiiy adabiyotdan tashqariga kengaytirish haqida, Donald Devi she'riy sintaksisning tasnifi bo'yicha va Jozefina Maylz she'riy leksikonni statistik o'rganish bo'yicha amalga oshirgan ilmiy izlanishlari tahlilga tortiladi. Bu topilmalar orqali lingvopoetik tadqiqotlar lingvistik, pragmatik va madaniy o'lchovlarni o'zida mujassamlashtirganligi, shakl, mazmun va uslubiy yangilikning o'zaro ta'sirida badiiy ma'no qanday yaratilganligini ochib berishi isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, pragmatika, madaniyat, alliteratsiya, assonans, shakl, ma'no, leksika.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОПОЭТИКИ

Аннотация. *В статье рассматриваются основы и развитие лингвопоэтики как междисциплинарной области, изучающей эстетическую функцию языка в литературных текстах. Отталкиваясь от системного подхода Ф. де Соссюра к языку и его различения langue и parole, исследование подчёркивает связь языкового творчества в литературе с идиолектом и стилистическими выборами писателя. Основное внимание уделяется роли звуковых средств, таких как аллитерация, ассонанс и ономатопея, в формировании поэтических эффектов, а также опираясь на модель коммуникации Р. Якобсона, чтобы подчеркнуть преобладание поэтической функции в искусстве. Далее в статье рассматриваются теоретические работы ведущих учёных: Рональда Картера о социокультурном повороте в лингвопоэтике, Ричарда Кьюртона о расширении её сферы применения за пределы канонической*

литературы, Дональда Дэви о классификации поэтического синтаксиса и Жозефины Майлз о статистическом изучении поэтического лексикона. Благодаря этим результатам доказано, что лингвопоэтические исследования интегрируют лингвистические, прагматические и культурные измерения, раскрывая, как художественное значение создается посредством взаимодействия формы, содержания и стилистических инноваций.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, прагматика, культура, аллитерация, ассонанс, форма, содержание, лексика.*

Introduction. Although all areas of linguistics have the status of independent sciences, they complement each other and work in harmony with each other.

F. Saussure gave language a form ratio and expressed his scientific views on the possibility of studying it synchronically and diachronically. Most importantly, he revealed to science that language is a whole system and that its elements exist on the basis of equality.[8] These views laid the foundation for the beginning of a new era in linguistics. New linguistic laws began to develop within the theories of

F. de Saussure. The concept of parole (speech) distinguished by F. Saussure is characteristic of linguopoetics.

Each writer is not limited to the words and phrases existing in the language, but in order to increase the artistry of the work, various compound words are also introduced into it, including authorial expressions. This, in turn, is also considered to depend on the writer's method-idiolekt.

The success of any work of art undoubtedly depends on how rationally it uses the possibilities of language. That is, a work of art is built on the basis of language. Fiction is distinguished from other styles by giving new life to words. In this, the creator imprints his imagination, feelings, experiences and imagination.


Methodology.

The effectiveness of a work of art is not always determined by the meaning of the chosen words. In order to influence the reader or to strengthen the idea put forward by the writer, he also uses sonorous words, words with poetic coloring.

In this, the author uses onomatopoeia, alliteration, assonance.

Roman Jacobson emphasizes that any communication is built on the basis of certain factors and that these factors are assigned various functions of language. He emphasizes that in works of art, the aesthetic (poetic) task takes precedence. The linguist notes that referential (denotative) content prevails in the study of literary texts. [5] The speech used by the addressee is expressive, rich in emotions and exclamations. The message addressed to the interlocutor also naturally has a poetic content. Since the message expressed in the literary text is in harmony with emotions, he suggests using the term emotionality in this place.

The following diagram reflects the 6 factors of verbal communication listed by R. Jakobson.



In general, the aesthetic purpose expressed in literary texts is not expressed in a normative way, but in cases where linguistic units are used productively

Ronald Carter explains that the debate on linguopoetics flared up at the end of the 20th century and that this phenomenon was caused by the fact that literary works began to be interpreted differ-

ently by readers from different social strata and cultural environments. [1] After that, not only linguistic means were considered s8eparately in the analysis of literary texts, but also sociopragmatic and linguoculturological laws were considered as part of linguopoetic analysis. This changed the view that lyrics were the main object of study for linguistics of that time and led to the selection of prose works of a larger size for subsequent research.

Professor Richard Cureton of the University of Michigan defines linguopoetics as a science that studies the use of language for aesthetic purposes. [2] Contrary to the view of most linguists that only literary works are considered in the linguopoetic direction, R. Cureton expanded this list and added that anecdotes and oral stories can also be studied on the basis of this approach. Indeed, in the examples of the genre listed by the scientist, expressive means are given wide scope. As a result of their study, poetic possibilities of the languages of the peoples of the world that are not reflected in written sources are revealed.

Results and discussion.

While most European linguists were convinced that the artistic and aesthetic essence arises only through content, another group of scholars opposed this idea. In particular, the British literary critic Donald Davy was the first to systematically analyze the linguistic features of poetic texts on a full scale. [3] D. Davy, emphasizing the harmony of form and content in lyrical works, recognized syntax and grammatical structures as the poetic pillars of poetry. In his book devoted to this problematic issue, the author divided the syntactic structure that is noticeable in poetry into five types. He emphasized that four of them are directly related to the content.

Below we will try to explain the classification of syntax according to D. Davy:

1. Subjective syntax - harmoniously formed to the poet's own thoughts, giving aesthetic pleasure.

2. Dramatic syntax - is formed under the influence of the thoughts and fantasies of a particular character and acquires artistic quality.

3. Objective syntax - arises not from the concepts of the poet or a hero in a lyrical work, but from events occurring in real life.

4. Melodic syntax - reflects the poet's thinking and creates a unique artistic rhythm.

5. Mathematical syntax - affects the reader through the harmony of internal logic and order.

The poetic function of the language of a work of art is reflected in the writer's choice of its formal structure, together with the content of the context.

The American scholar Josephine Miles conducted philological research on linguopoetics and presented her conclusions to the scientific community mainly on the topic of poetic lexicon. In particular, in her article “The Change in the Language of Works of Art”, published at the initiative of Johns Hopkins University, J. Miles lists the most famous examples of American literature created in the late 18th and early 19th centuries. [7] The scientist shows in percentages the linguistic means through which the poetic vocabulary in these works was expressed. According to her, in the literary literature of the above periods, adjectives and qualitative combinations occupied a significant place in poetry and prose. According to the linguist, grammatical structures involving adjectives are found in literary texts 20 percent more often than verbs and verbal combinations. It is worth noting that when qualitative conjunctions are used, verbs are not repeated and the message being conveyed is expressed in a concise manner.

In the middle of the 20th century, linguopoetic analyses were mainly focused on lyrics, but by the end of the century, linguists' attention was focused on prose works. Based on the research, it was confirmed that all elements in a literary text are formed in a interconnected manner. In this case, each linguistic device is closely related, regardless of the part of the text in which it is located. It is precisely as a result of this connection that linguopoetic content arises.

The aesthetic function of language is manifested in a literary work in an updated form by writers and poets based on poetic license. Also, the poetic essence of the text emerges through socially acquired lexis.

It is worth noting that the aesthetic function is manifested in various layers of the language.

The scientific observations of the British linguist Roger Fowler are of particular importance in the establishment of linguopoetics as an independent direction. As a professor at the University of East Anglia and the author of several books on stylistics, R. Fowler was also a supporter of studying the study of linguistic devices in a work of art from the point of view of linguistics. The scholar's scientific publications reflecting these views gave rise to the "Fowler-Bateson debate" in the history of linguopoetics. In this case, R. Fowler's views on the analysis of linguistic devices in the field of literary criticism were opposed by the American literary critic W. Bateson. [4]

From the ideas expressed in the drawing, we can conclude that while R. Fowler aimed to contribute to the development of literary studies through linguistic principles, in the eyes of W. Bateson, the goals, directions and worldviews of linguists within the framework of a work of art are different, which undermines the artistic and aesthetic beauty of the work. As a result of almost 10 years of scientific debate, we witness the fact that supporters of both sides have prioritized their teachings.

It is worth noting that it is not always the right direction to analyze the general content of the text or the context as a whole. Sometimes, a single word, sentence, or even a sound can express poetic content.

In Western linguistics, English scholars such as Geoffrey Leech and Mick Short are recognized for their significant work on the systematic study of literary texts based on linguistic principles.[6] In their co-authored book “Style in Fiction,” they propose to isolate linguistic categories in the literary text being studied in the process of linguopoetic analysis of prose works. They classify this list into groups such as lexical and grammatical categories, artistic and figurative means, grammatical-lexical connections, and logical integrity. According to the scientist, each writer approaches poetic content differently, and therefore the choice of linguistic units also has its own uniqueness for each creator.

Conclusion.

However, words that express a high level of emotionality in one work may be neutral in another.The author recommends studying lexical categories by dividing them into five large groups. The first group considers general aspects of the lexicon. In this case, attention is paid to whether the words are simple or complex, literary or colloquial, and how the writer gives them emotionality. The presence of collocations with expressiveness or phrases in the literary text and the style in which they are used are also taken into account. At this stage, the morphological nature of words as adjuncts, in particular compound words and words formed by certain suffixes, is analyzed. It is worth noting that, although not listed as a separate category, semantic features are also considered in this research method. According to it, it is determined to which semantic field the words in the text belong. This method of analysis, which is extensive and time-consuming, is recognized as one of the effective methods in linguopoetics.

List of references.

1. Carter R. Applied Stylistics, Oxford International Encyclopaedia of Linguistics, 1989. P. 81.
2. Cureton R. Literary stylistics. Oxford University Press, 1992. P.81-86
3. Davie D. Articulate energy: An inquiry into the syntax of English poetry.
4. Fowler R. Essays on style and language. Routledge and Kegan Paul, 1966. P. 188.
5. Jakobson R. Language in literature. The Belknap press of Harvard University Press, 1987. P.63
6. Leech G., M.Short, Style in fiction, Pearson Education Limited, 2007. P.61
7. Miles J. A change in the language of literature. Eighteenth-century studies, 1968. P. 35-44
8. Saussure F. Course in General Linguistics. – Columbia University Press, 2011.

Ismoilova Charos Shuhrat qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Samarqand kampusi o'qituvchisi

INGLIZ LEKSIKOGRAFIK MANBALARIDAGI TURKIZMLARNING SISTEM-STRUKTUR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz leksikografik manbalarida uchraydigan turkizmlarning sistematik va strukturaviy tahlili o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari turkizmlarning ingliz tilidagi leksik tizimga qanday integratsiyalashganini va ularning lingvistik xususiyatlarini ko‘rsatadi. Bu tadqiqot leksikografiya, tilshunoslik va madaniyatlararo aloqalarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Ingliz leksikografiyasi, turkizmlar, sistem-struktur tahlil, leksik birliklar, til almashinuvi, lingvistik integratsiya.*

SYSTEM-STRUCTURAL ANALYSIS OF TURKISMS IN ENGLISH LEXICOGRAPHIC SOURCES.

Abstract. *This article examines the systematic and structural analysis of Turkic words found in English lexicographical sources. The research results show how Turkisms are integrated into the lexical system of the English language and their linguistic features. This research is of great importance in the study of lexicography, linguistics, and intercultural relations.*

Key words: *English lexicography, Turkism, system-structural analysis, lexical units, language exchange, linguistic integration.*

СИСТЕМНО-СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТУРКИЗМОВ В АНГЛИЙСКИХ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. *В данной статье рассматривается систематический и структурный анализ туркизмов, встречающихся в английских лексикографических источниках. Результаты исследования показывают, как тюркизмы интегрировались в лексическую систему английского языка и их лингвистические особенности. Это исследование важно для изучения лексикографии, лингвистики и межкультурных связей.*

Ключевые слова: *Английская лексикография, туркизмы, системно-структурный анализ, лексические единицы, языковой обмен, лингвистическая интеграция.*

Kirish. Ingliz tilidagi leksikografik manbalar - lug‘atlar, izohli lug‘atlar va korpuslar - tilning rasmiy va norasmiy so‘z boyligini aks ettiradi. Turkiy tillardan kirib kelgan turkizmlar ingliz tilida ko‘plab sohalarda, xususan madaniyat, savdo, san’at va kundalik hayotda faol qo‘llaniladi. Ushbu so‘zlar ingliz tilining leksik tizimida o‘ziga xos strukturaviy va funksional rol o‘ynaydi. Shu bois, turkizmlarning leksikografik manbalardagi holatini sistematik ravishda tahlil qilish tilshunoslik sohasida katta qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqotda maqsad - ingliz tilidagi asosiy lug‘atlar va elektron manbalarda turkizmlarning sistem-struktur xususiyatlarini aniqlash va ularni til tizimidagi o‘rnini o‘rganishdir.

Shunday tillardan biri turkiy tillar bo‘lib, ular orqali ingliz tiliga kirib kelgan so‘zlar – turkizmlar – tilning leksik va madaniy qatlamida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Turkizmlar ingliz tilida nafaqat leksik birlik sifatida, balki madaniy va tarixiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ingliz tilining zamonaviy leksikasiga yangi mazmun va ifodalar olib kiradi.

Leksikografiya – lug‘atshunoslik fanining muhim bo‘limi sifatida, tilning so‘z boyligini tizimli tarzda o‘rganish, tasniflash va ifodalash bilan shug‘ullanadi. Ingliz tilidagi asosiy leksikografik manbalar – lug‘atlar va korpuslar – turkizmlarning qanday shakllanganini, ularning grammatik va semantik xususiyatlarini, shuningdek, leksik tizimdagi joylashuvini ochib beradi. Biroq, hozirgi

paytda ingliz tilidagi turkizmlarning sistem-struktur jihatdan batafsil tahlili yetarlicha amalga oshirilmagan. Shu sababli, ushbu maqolada turkizmlarning ingliz tilidagi leksikografik manbalardagi aks ettirilishining tizimli tahlili amalga oshiriladi.

Maqolaning maqsadi - ingliz tilidagi turkizmlarning lug‘atlardagi o‘rinini, ularning morfologik va semantik xususiyatlarini sistem-struktur yondashuvi asosida o‘rganish, shuningdek, ularning ingliz tilining leksik tizimiga integratsiyalashishini tahlil qilishdir. Bu tadqiqot nafaqat tilshunoslikka yangi ilmiy yondashuv kiritadi, balki ingliz tilining o‘zgaruvchan leksikasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi turkizmlar ko‘plab leksikografik manbalarda keng qamrovli va tizimli tarzda aks ettirilgan. Bu so‘zlar lug‘atlarga kirishida morfologik, semantik va etimologik jihatlar batafsil ko‘rsatiladi, bu esa ularning ingliz tiliga kirib kelish tarixini va til tizimidagi rolini aniqlash imkonini beradi.

Morfoligik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina turkizmlar ingliz tilida o‘zining ildiz shaklida saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ular talaffuz va yozilish jihatdan ingliz tilining fonetik qoidalariga moslashgan. Masalan, “kiosk” so‘zi turk tilidan kirib, ingliz tilida talaffuz va yozilishi jihatdan biroz o‘zgargan, lekin uning asosiy ma’nosi va shakli saqlanib qolgan. Bu til o‘zgartirish jarayonining tabiiy qismi bo‘lib, so‘zlarning yangi til muhitiga moslashishini ko‘rsatadi.

Semantik tahlil esa turkizmlarning ingliz tilida ko‘pincha madaniyat bilan bog‘liq maxsus leksik birliklar sifatida ishlatilishini ko‘rsatdi. “Bazaar”, “yogurt”, “tulip” kabi so‘zlar faqatgina so‘z boyligini oshirmay, balki ingliz tilining madaniy qamrovini ham kengaytiradi. Bu so‘zlar orqali ingliz tilida turkiy madaniyat va tarix unsurlari o‘z aksini topadi.

Leksikografik manbalar tahlilida shuni ko‘rish mumkinki, turkizmlar ingliz tilining leksik tizimida nafaqat mustaqil leksik birlik sifatida, balki turli grammatik yasalishlarda ham faol qatnashadi. Bu ularning ingliz tilining leksik va morfologik tizimiga yaxshi integratsiyalashganligini bildiradi. Masalan, “kiosk” so‘zidan “kiosks” ko‘plik shakli hosil qilinadi, yoki “yogurt” so‘zi ko‘pincha sifatdosh yoki fe’l yasash shakllarida uchraydi.

Shuningdek, korpus tahlillari turkizmlarning ingliz tilida qaysi sohalarda va qaysi kontekstlarda ko‘proq ishlatilishini aniqlash imkonini berdi. Ma’lum bo‘lishicha, turkizmlar ko‘proq madaniyat, ovqatlanish, tijorat va kundalik hayotga oid so‘z boyligida uchraydi. Bu esa tilning kontekstual va funksional o‘zgarishlarini ham ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, turkizmlarning leksikografik manbalardagi sistem-struktur jihatdan joylashuvi ingliz tilining global leksik tizimida turk tilining ta’sirini va uning integratsiyasini aniq ifodalaydi. Bu esa tilshunoslikda til almashinuvi va leksik birliklarning strukturaviy o‘zgarishlarini chuqurroq o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Metodlar

Tadqiqotda ingliz tilining yetakchi leksikografik manbalari - Oxford English Dictionary (OED), Merriam-Webster, Cambridge Dictionary va korpus tahlili uchun British National Corpus (BNC) hamda Corpus of Contemporary American English (COCA) o‘rganildi. Turkizmlarga oid so‘zlar mazkur manbalardan yig‘ildi va ularning tizimdagi strukturasini o‘rganish uchun lingvistik tahlil usullari qo‘llandi. Morfologik, semantik va funksional yondashuvlar asosida so‘zlarning leksik birliklardagi joylashuvi va ularning lingvistik tizimdagi o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, so‘zlarning qaysi kontekstlarda keng tarqalganligi statistik usullar bilan aniqlanib, ularning leksikografik ahamiyati baholandi.

Avvalo, ingliz tilining yetakchi leksikografik manbalari - Oxford English Dictionary (OED), Merriam-Webster Dictionary, Cambridge Dictionary, shuningdek, zamonaviy elektron lug‘atlar va onlayn leksikografik platformalar orqali turkizmlarga oid so‘zlar yig‘ildi. Ushbu manbalar turkizmlarning etimologik ma’lumotlari, talaffuzi, yozilishi va semantik izohlarini taqdim etadi, bu esa so‘zlarning sistematik joylashuvini o‘rganishga imkon berdi.

Ikkinchi bosqichda, yig‘ilgan turkizmlar ro‘yxati asosida British National Corpus (BNC) va Corpus of Contemporary American English (COCA) kabi keng qamrovli ingliz tilidagi matn korpuslarida ularning ishlatilish chastotasi, kontekstual joylashuvi va lingvistik vazifalari tahlil qilindi.

Korpus tahlili yordamida turkizmlarning ingliz tilida qaysi sohalarda va qanday kontekstlarda keng tarqalganligi aniqlanib, ularning funksional xususiyatlari batafsil ko‘rsatildi.

Tadqiqotda morfologik va semantik tahlil metodlari keng qo‘llanildi. Morfologik tahlil orqali turkizmlarning ingliz tilidagi shakllanish qoidalari, so‘z yasash usullari va ular bilan bog‘liq grammatik o‘zgarishlar o‘rganildi. Semantik tahlil esa so‘zlarning ma’nolari, madaniy va kontekstual jihatlari, shuningdek, ularning ingliz tilida qanday funksiyalarni bajarayotgani tahlil qilindi.

Shuningdek, sistem-struktur yondashuvi asosida turkizmlarning ingliz tilining leksik tizimidagi o‘rni aniqlashga harakat qilindi. Bu yondashuvda so‘zlarning leksik birliklar qatoridagi joylashuvi, ular o‘rtasidagi morfologik va semantik aloqalar, hamda ularning lug‘atlarda qanday tasniflangani tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida statistik tahlil usullari ham qo‘llanib, turkizmlarning so‘z chastotasi va tarqalish tendensiyalari o‘rganildi. Bu usullar yordamida turkizmlarning ingliz tilida qanchalik keng qo‘llanilishi, ularning leksik tizimga integratsiyasi darajasi aniqlanib, ularning til ichidagi ahamiyati ko‘rsatildi.

Yuqorida ta’riflangan metodlar kombinatsiyasi turkizmlarning ingliz leksikografik manbalaridagi sistem-struktur xususiyatlarini aniq va tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari til almashinuvi, so‘z yasalishi va madaniyatlararo lingvistik aloqalarni o‘rganishda yangi ilmiy ma’lumotlar bazasini yaratdi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz leksikografik manbalarida turkizmlarning mavjudligi keng qamrovli va sistematik xususiyatga ega. Ular lug‘atlarda alohida izohlar, etimologik ma’lumotlar va ko‘plab qo‘shimcha tushuntirishlar bilan berilgan. Morfologik jihatdan ko‘pchilik turkizmlar ildiz so‘z shaklida saqlanib qolgan, biroq ingliz tilining talaffuz va yozilish qoidalariga moslashgan. Semantik jihatdan turkizmlar ko‘pincha madaniy kontekstga bog‘langan maxsus leksik birliklar sifatida paydo bo‘ladi. Misol uchun, “kiosk”, “yogurt”, “bazaar” kabi so‘zlar ingliz tilida o‘zining aniq leksik va madaniy ma’nosini saqlab qolgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, turkizmlar ingliz tilining leksik tizimida nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki til ichidagi so‘z yasash jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ular ingliz tilining morfologik va semantik strukturasi bilan uyg‘unlashib, yangi leksik birliklar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, leksikografik manbalarda turkizmlarning joylashuvi ularning til ichidagi funksional ahamiyatini ko‘rsatadi, bu esa til almashinuvi jarayonlarining murakkabligini yoritadi. Birinchidan, turkizmlarning ingliz tilidagi lug‘atlardagi aks ettirilishi ularning etimologik kelib chiqishi, talaffuzi va semantik doirasi bilan batafsil ta’riflangan. Bu so‘zlar o‘z ildiz shaklida qolgan holda, ingliz tilining talaffuz va grammatik qoidalariga moslashtirilgan. Natijada, turkizmlarning ingliz tilidagi o‘ziga xos leksik birlik sifatidagi roli mustahkamlanmoqda.

Ikkinchidan, korpus tahlillari turkizmlarning ingliz tilida ko‘plab sohalarda, ayniqsa madaniyat, ovqatlanish, tijorat, san’at va kundalik hayot sohalarida faol ishlatilishini ko‘rsatdi. Misol uchun, “bazaar”, “yogurt”, “kiosk”, “tulip” kabi so‘zlar ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha o‘zbek, turk yoki boshqa turkiy tillarga xos madaniy kontseptlarni ifodalaydi. Bu so‘zlar ingliz tilining leksik boyligini oshiradi va til madaniyatining kengayishiga hissa qo‘shadi.

Uchinchidan, sistem-struktur tahlil natijasida turkizmlarning ingliz tilining morfologik tizimiga ham yaxshi integratsiyalashgani aniqlandi. Ko‘pgina turkizmlar ko‘plik shaklini olish, sifatdosh yoki fe’l yasash shakllarida ishlatilish kabi grammatik o‘zgarishlarga uchraydi. Bu esa turkizmlarning ingliz tilida faqat etnoleksik birliklar emas, balki leksik tizimda faol qatnashuvchi elementlar ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi lug‘atlarda turkizmlarning sistem-struktur pozitsiyasi leksik birliklar va ularning o‘zaro bog‘lanishlari asosida qat’iy belgilanadi. Turkizmlarning joylashuvi ularning ma’nosi, grammatik xususiyatlari va ishlatilish sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa turkizmlarning ingliz tilining leksik tizimidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, turkizmlarning ingliz tilidagi leksik tizimga kirishi va tarqalishidagi tendensiyalar, ular bilan bog‘liq morfologik va semantik o‘zgarishlar ham aniqlandi. Bu jarayonlar til almashinuvi jarayonining muhim qismi bo‘lib, tilning dinamik va o‘zgaruvchan tabiati haqida ma’lumot beradi.

Mulohaza. Tadqiqot natijalari tilshunoslik va leksikografiya sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi. Turkiy tillardan kirib kelgan so‘zlarning ingliz leksik tizimidagi strukturasini o‘rganish ularning lingvistik integratsiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu so‘zlarning leksikografik manbalarda qanday aks etishini tahlil qilish tilshunoslar uchun ingliz tilidagi so‘z boyligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Leksikografik manbalardagi turkizmlar ingliz tilining madaniy boyligini oshiradi va tilning leksik tizimida madaniyatlararo muloqotning qanday ifodalanishini namoyish etadi. Shuningdek, ular til almashinuvi va so‘z yasalish jarayonlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, til o‘qitish va tarjima sohalarida yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Lug‘atlardagi morfologik o‘zgarishlar va so‘z yasash imkoniyatlari turkizmlarning ingliz tilining grammatik qoidalariga moslashgani va shu orqali o‘zining leksik tizimida faol qatnashishini ta’kidlaydi. Bu, o‘z navbatida, til o‘zgarishining tabiiyligi va uzluksizligini ko‘rsatadi. Ingliz tiliga kirgan turkizmlar ko‘pincha madaniy kontekstga ega bo‘lib, ular orqali ikki til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi.

Korpus tahlillari natijalari esa turkizmlarning faqat ma’lum sohalarda, xususan, ovqatlanish, tijorat, madaniyat va kundalik hayotda faol qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Bu esa ularning ingliz tilining asosiy leksik qismiga to‘liq kirib bormaganini, balki aniq sohalar bilan cheklanganligini anglatadi. Biroq, bu sohalardagi yuqori darajadagi faoliyat ularning til ichidagi ahamiyatini kamaytirmaydi, aksincha, yangi madaniy tushunchalarni ingliz tiliga olib kirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sistem-struktur tahlilning natijalari shuni ko‘rsatadiki, turkizmlarning leksik tizimdagi joylashuvi ularning grammatika, semantika va pragmatika elementlari bilan uzviy bog‘langan. Bu esa lingvistik birliklarni o‘rganishda sistematik yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, tilshunoslikda yangi metodologiyalarni joriy qilish, ayniqsa til almashinuvi va leksik evolyutsiyani o‘rganishda sistem-struktur yondashuvining samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan bir qator cheklovlar ham mavjud. Jumladan, leksikografik manbalar doimiy yangilanib boradi va turkizmlarning yangi shakllari va ma’nolari paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kelajakda korpus ma’lumotlarining muntazam yangilanishi va kengaytirilishi talab etiladi. Bundan tashqari, turkizmlarning ingliz tilidagi stilistik va kontekstual xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun ko‘proq interdisipliner tadqiqotlar olib borilishi kerak.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot turkizmlarning ingliz tilidagi leksikografik manbalarda sistem-struktur jihatdan o‘rganilishi tilshunoslikka yangi ilmiy yo‘nalishlar ochishi, til almashinuvi va madaniyatlararo aloqalarni chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Kelgusida bu sohada amalga oshiriladigan tadqiqotlar ingliz tilining leksik evolyutsiyasini yanada yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotda ayrim turkizmlarning ingliz tilida keng tarqalmaganligi yoki kontekstual qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlanib, kelgusida ularni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligi ko‘rsatildi. Bu turkizmlarning ingliz tilidagi ishlatilishini va ularning lingvistik tizimdagi rolini yanada mukammallashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu maqola natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz leksikografik manbalarida turkizmlar sistem-struktur jihatdan muhim leksik birliklar sifatida aks etadi va ular tilning leksik tizimida faol ishtirok etadi. Turkizmlarning morfologik va semantik moslashuvi til almashinuvi jarayonining dinamikligini namoyish etadi va tilshunoslikda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ochadi.

Tavsiya qilinadiki, kelgusida turkizmlarning ingliz tilidagi ishlatilishini yanada kengroq korpus asosida o‘rganish, ularning madaniy kontekstlarini tahlil qilish va leksikografik manbalardagi aks ettirilishini yanada takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilsin. Bundan tashqari, til o‘qitish va tarjima sohalarida turkizmlarning morfologik va semantik xususiyatlariga oid metodikalar

ishlab chiqilishi foydali bo‘ladi. Shuningdek, turkizmlarning ingliz tilida ko‘proq madaniyat, ovqatlanish, tijorat va kundalik hayot sohalarida keng tarqalganligi aniqlanib, ularning til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqligini tasdiqladi. Sistem-struktur tahlil yondashuvi turkizmlarning leksik tizimdagi joylashuvini yaxshiroq tushunish uchun samarali vosita bo‘lib, lingvistik birliklarning o‘zaro munosabatlarini tizimli o‘rganish imkonini berdi.

Shuningdek, ingliz va turk tillari o‘rtasidagi lingvistik almashinuvni chuqurroq o‘rganish uchun interdisipliner tadqiqotlar olib borish va zamonaviy lingvistik texnologiyalarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Axmedov M. (2007). *Leksikologiyaga kirish*. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Safarov Sh. (2012). *O‘zbek tili leksikologiyasi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Orifjonov U. (2015). *Tarixiy leksikologiya asoslari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. G‘aniev T. (2001). *O‘zbek tilshunosligi masalalari*. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Xolboyev B. (2018). *Leksikografiya asoslari*. Buxoro: BDU nashriyoti.
6. Karimova M. (2020). *O‘zlashma so‘zlar va ularning sistem-struktur xususiyatlari*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
7. Rasulov A. (2016). *Til kontaktlari va leksik tizimlar*. Termiz: TermizDU nashriyoti.
8. Ergashev I. (2019). *Inglizcha-o‘zbekcha lug‘atshunoslik nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Nurmatov D. (2021). *Leksik birliklarning struktur tahlili*. Andijon: ADU nashriyoti.
10. Maxmudov N. (2017). *Zamonaviy o‘zbek tilining leksik tizimi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
11. Tursunova G. T. (2021). *Ingliz lug‘atlarida uchraydigan turkiy so‘zlarning struktur tahlili*. “Filologiya masalalari” jurnali, №3.
12. Bozorov J. M. (2019). *O‘zbek tilidan ingliz tiliga kirib borgan so‘zlar: tizimli tahlil*. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, №4.
13. Tajiboyeva D. R. (2022). *Ingliz lug‘aviy tizimidagi turkiy izlar*. Andijon davlat universiteti ilmiy jurnali.
14. Mamatov A. B. (2020). *Ingliz tilidagi turkizmlarning morfologik struktura xususiyatlari*. O‘zMU ilmiy ishlari.
15. Usmonova M. R. (2019). *Tillarning o‘zaro ta’siri va leksik qatlamlar harakati*. Toshkent: Til va Adabiyot instituti.
16. Qodirova Z. (2020). *Leksik o‘zlashuvlar va ularning yasalish mexanizmlari*. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: O‘zMU.

Ismoilov Abdurashid Isakovich
Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi

HARBIY UNVON VA MUNDIRLAR KONSEPTI: UCH TILLI (INGLIZ, AMERIKA, O‘ZBEK) LINGVOKOGNITIV VA LINGVOMADANIY TAHLIL

Annotatsiya. *Maqolada ingliz, amerika va o‘zbek tillarida harbiy unvonlar va mundirlarni ifodalovchi leksik birliklarning lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida harbiy terminlarning konseptual freymlari (rank, uniform, insignia, ceremony) aniqlanib, ular ongda shakllanadigan ierarxik va metaforik modellar asosida izohlangan. Shuningdek, insigniya va ramzlarning milliy-madaniy kod sifatida shakllanishi, turli madaniyatlardagi tafovutlar va tarjima jarayonida uchraydigan ekvivalentlik muammolari ko‘rsatib berilgan. Natijalar harbiy leksikaning tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va diplomatiya sohalaridagi ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokognitiv tahlil, lingvomadaniy kod, harbiy unvon, mundir, insigniya, konsept, freym, metafora, ekvivalentlik, madaniyatlararo muloqot.*

КОНЦЕПТ ВОИНСКИХ ЗВАНИЙ И МУНДИРОВ: ТРИЯЗЫЧНЫЙ (АНГЛИЙСКИЙ, АМЕРИКАНСКИЙ, УЗБЕКСКИЙ) ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье рассматриваются лексические единицы, обозначающие военные звания и мундиры в английском, американском и узбекском языках, с позиций лингвокогнитивного и лингвокультурного анализа. В ходе исследования выявлены концептуальные фреймы военной лексики (rank, uniform, insignia, ceremony), раскрыты их иерархические и метафорические модели в сознании носителей языка. Особое внимание уделяется формированию символов и инсигний как культурных кодов, межкультурным различиям и проблемам эквивалентности при переводе. Результаты подчеркивают научную и практическую значимость военной лексики для лингвистики, переводоведения, межкультурной коммуникации и дипломатии.*

Ключевые слова: *лингвокогнитивный анализ, лингвокультурный код, военные звания, мундир, инсигния, концепт, фрейм, метафора, эквивалентность, межкультурная коммуникация.*

THE CONCEPT OF MILITARY RANKS AND UNIFORMS: A TRILINGUAL (BRITISH ENGLISH, AMERICAN ENGLISH, UZBEK) LINGUO-COGNITIVE AND LINGUO-CULTURAL ANALYSIS

Abstract. *The article examines the lexical units denoting military ranks and uniforms in English, American, and Uzbek within the frameworks of cognitive and cultural linguistics. The study identifies the conceptual frames of military vocabulary (rank, uniform, insignia, ceremony) and interprets their hierarchical and metaphorical models in human cognition. Special attention is given to the role of insignia and symbols as cultural codes, cross-cultural differences, and challenges of translational equivalence. The findings highlight the theoretical and practical relevance of military vocabulary not only for linguistics but also for translation studies, intercultural communication, and diplomacy.*

Key words: *cognitive linguistic analysis, cultural code, military ranks, uniform, insignia, concept, frame, metaphor, equivalence, intercultural communication.*

Kirish. Dunyoda tilshunoslik sohasida harbiy terminologiyani kasbga oid til birikmalari bilan bog’liq leksiksemantik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator muammolar ilmiy tadqiqot

obyekti bo'lib kelmoqda. Harbiy-kasbiy sohaga oid ingliz tilidagi terminologiyalarni o'rganish rivojlanib borayotgan bo'lsada, biroq, til birliklarini mavzu bo'yicha yoki boshqa kichik guruhlar asosida tasniflash tamoyillarini hamda ularga xos alohida tizimlararo munosabat turlarini aniqlash, shuningdek, ushbu til birliklarining o'ziga xos funksional xususiyatlarini belgilashga doir masalalar hanuz o'z yechimini kutmoqda. Bu esa, bo'lajak ofitserlarga ingliz tilini harbiy sohaga oid terminlar orqali o'rgatishning lingvomadaniy xususiyatlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Jahonda tilshunoslik asoslarini rivojlantirish, ingliz tili texnik terminologiyasi va leksikografiyasi, ingliz tilida internet terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari, terminlarning derivatsion-semantik prinsiplarini takomillashtirish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, zamonaviy sharoitda ingliz tilini bilish ko'p jihatdan harbiy mutaxassisning kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq bo'lib, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish jarayoni kursantni kelajakdagi professional faoliyatida ularni amalga oshirish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Bu esa, ingliz tilidagi harbiy soha terminlarini semantik tasnifini amalga oshirish, harbiy terminlarni o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil etish, ingliz tilidagi harbiy terminlarni o'qitishda interfaol metodlar tahlilini amalga oshirish, harbiy terminlarni o'rgatish orqali bo'lajak ofitserlarning lingvomadaniy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish sohasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da oliy harbiy ta"lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganish asosida qo'shinlar jangovar shayligi va tayyorgarligini rivojlantirish amalga oshirilishi lozim bo'gan ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan bo'lib, xorijiy armiyalarning ilg'or tajribasini o'rganishda, bo'lajak ofitserlarni ingliz tili bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini hamda ularning xorijiy tillarda muloqot kompetensiyalarini oshirishda harbiy sohaga oid terminlar orqali o'rgatishning lingvomadaniy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tillarning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida ayrim harbiy terminlar eskiradi yoki tilda boshqa foydalanilmaydi. Shuning uchun ularning o'rniga tilning lug'at boyligini boyituvchi yangi terminlar paydo bo'ladi. Yangi terminlarning paydo bo'lishiga yana texnologiyaning rivojlanishi o'z ta"sirini o'tkazadi. Tadqiqot ishida harbiy soha terminologiyasining rivojlanishi yangi turdagi harbiy texnika va qurol-aslahalarning yangidan-yangi turlarining yaratilishi leksik qatlamning boyishida namoyon bo'lishi ta"kidlangan. Harbiy so'z turkumlari turli tushunchalarni aks ettiruvchi maxsus muloqotda qo'llaniladigan leksik vositalar tizimidir. Ular fan va texnikaning boshqa tarmoqlarining so'z boyligi kabi til leksik tarkibining periferik qatlamlariga mansubdir. Shunga qaramay, harbiy terminlar tilning umumiy so'z boyligi bilan ko'proq aloqada bo'ladi, chunki, ular xalq orasida keng tarqaladi. Harbiy ishlar uzoq vaqt davomida ko'plab xalqlarning asosiy mashg'uloti bo'lib kelgan. Urush har qanday tashqi siyosiy muammolarini hal qilishning asosiy usullaridan biri bo'lib, unda aholining aksariyat qismi ishtirok etadi. Professor H.Dadaboyevning qayd etishicha, "boshqa xalqlar qatori qadimgi turkey xalqlarning ham asosiy mashg'ulotlaridan biri bu, harbiy faoliyat hisoblangan. Shuning uchun turkiy tillarda aniq so'zlar qatlami mavjud bo'lib, ular harbiy harakatlarni ifodalash uchun chambarchas bog'liq bo'lgan".

Shuningdek, ayrim kasblar va qurol turlari yo'qolib ketishi tufayli asta-sekin foydalanishdan chiqqan. Harbiy terminlarning til leksikasidan ko'chishiga quydagilar sabab bo'lishi mumkin: a) predmetlarning o'zi ham insonlarning faoliyatida qo'lanmay qoladi yoki ish faoliyatida qo'llanishi to'xtab qoladi (moddiy voqelikning bevosita ta"siri ostida eski o'zbek tilidan tushib qolgan so'zlar soni uncha ko'p emas); b) ilgari mavjud bo'lgan so'z yangisiga almashtiriladi. Tadqiqotchining fikricha ilm, fan va texnika taraqqiyoti hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib borar ekan, jamiiki insonlarni turli sohalardan xabardor bo'lishga undabgina qolmay, tilshunoslikning leksik qatlamini boyitadi, shuningdek, nutqda qo'llanilayotgan qator lisoniy birliklarni jamlab tobora kengaytiradi va ularni kundalik hayotga hamohang bo'lishini talab etadi.

O‘zbek tilining eng qadimgi davrlaridayoq harbiy unvon va mansablarning nomlari bo‘lgan. Biroq hozir ularning bir qismi butunlay tildan chiqib ketgan, bir qismining o‘rnida boshqa so‘zlar qo‘llanadi.

Vatan himoyasi – eng muqaddas yumush, Vatan himoyachisi bo‘lish esa eng sharafli kasblardan. Bugun serjantu leytenant, kapitanu mayor singari atovlarni eshitganimizda bu muqaddas yumushga umrini tikkan mardi maydonlar yodimizdan o‘tadi. O‘zbek xalqining shonli tarixida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temurdek bo‘lishni orzulagan o‘g‘lonlarga havasingiz keladi.

O‘zbek tilining eng qadimgi davrlaridayoq harbiy unvon va mansablarning nomlari bo‘lgan. Til tarixi bilan shug‘ullangan olimlar alp, baγatur, čör / cörä, ön bašï, yuz bašï, bïŋ bašï, tuman bäg, bašlïγ singari qadimgi turkiy tilga qo‘llangan terminlarni qayd qilganlar. Yuqoridagi harbiy terminlarning aksariyati bugungi tilimizda yo‘q: ularning bir qismi butunlay tildan chiqib ketgan, bir qismining o‘rnida boshqa so‘zlar qo‘llanadi, ayrimlari boshqa ma’noni anglatadi. Masalan, ön bašï, yuz bašï, bïŋ bašï so‘zlari hozirgi o‘zbek tiliga o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi shaklida noharbiy ma’nolarda yetib kelgan.

Ön bašï/O‘nboshi turkiy qo‘shindagi harbiy mansab nomi bo‘lgan va “o‘n kishidan iborat kichik harbiy bo‘linma boshlig‘i”ni bildirgan. Uch xonlik davrida ham shu va shu kabi so‘zlar harbiy mansab nomi sifatida ishlatilgan. Masalan, Qo‘qon xonligida o‘nboshi atamasi o‘rnida dahboshi ishlatilgan. Keyinchalik XX asrda o‘zbek armiyasida o‘zgarishlar qilinishi natijasida bu atamadagi harbiylashgan ma’no qo‘llanishdan to‘xtagan. XX asrga kelib esa “brigada boshlig‘i, brigadir” ma’nosini bildirishga o‘tgan.

Yuz bašï/Yuzboshi “yuztagacha bo‘lgan askariy guruhni boshqaradigan boshliq” ma’nosini bildirgan. H.Dadaboyevning yozishicha, Qo‘qon xonligida bir yuzboshi o‘nta dahboshi boshqaradigan askariy guruhga boshchilik qilgan. XX asrga kelib, bunday qo‘shin turlari tugatilgach, “qishloq oqsoqoli” ma’nosini anglatadigan bo‘lgan.

Bing bašï/Mingboshi atamasi “ming kishigacha bo‘lgan askarning boshlig‘i” bildirgan. Mazkur atama til tarixida u yoki bu hajmdagi “qo‘shin boshlig‘i”ni bildirgan bo‘lsa, keyinchalik bu so‘zdagi harbiylashgan ma’no unutilgan hamda “daha oqsoqoli, hokim”ni bildirishga o‘tgan.

Tumanbegi atamasi “o‘n ming kishilik qo‘shin boshlig‘i” ma’nosini ifodalagan. Bu ma’noda tumanboshi atamasi ham qo‘llangan. Ikkalasi sinonim hisoblanadi va zamonaviy armiyada diviziya komandiriga teng keladi. Albatta, har qanday qo‘shinda tumanbegi yoki tumanboshi harbiy mansabi bo‘lmagan, chunki ayrim qo‘shinlarda askarlarning umumiy soni o‘n mingtaga ham yetmagan.

Turli davrlarda butun boshli qo‘shinga boshchilik qilgan harbiy lavozim va unvonlarning nomi turlicha atalagan. “O‘zbek harbiy terminologiyasi” kitobidagi ma’lumotga ko‘ra, Ko‘kturk xoqonligida bu lavozimni qag‘an – davlat boshlig‘i egallagan. Demak, qag‘an atamasi ham “davlat boshlig‘i”, ham “oliy bosh qo‘mondon” ma’nosini bildirgan. Oliy bosh qo‘mondondan keyingi harbiy mansabdorlarni ifodalash uchun yabg‘u/jabg‘u va shad atamalari ishlatilgan. Yabg‘u va shadlar qo‘shinning o‘ng va so‘l qanotlariga sarkardalik qilgan (O‘zbek harbiy terminologiyasi, 9-bet). G‘arbiy Ko‘k turk xoqoni Ishbara hukmdorligi davrida o‘zining qo‘l ostidagi yurtni o‘n qismga bo‘lgan va bu qismlarning har birini aymoq deb atagan. Mazkur aymoqlarga tayinlangan amaldorlar shad deb yuritilgan. Bu yerlarda shadlar ham davlat ishlarini boshqargan, ham harbiy sohaga bosh bo‘lgan (O‘zbek harbiy terminologiyasi, 11-bet).

Turkiy qo‘shin tarkibida harbiy maslahatchi lavozimi ham bo‘lgan. Ayg‘uchi shunday atama bo‘lgan. "O‘rxun-Yenisey" yodnomalarida To‘nyuquq ismli kishi harbiy maslahatchi bo‘lganligi yozib qoldirilgan. Yirik sarkardalar esa subashi unvoni bilan taqdirlangan (O‘zbek harbiy terminologiyasi, 11-bet). “Qo‘shin boshlig‘i” ma’nosini bildiradigan subashi atamasi turkona qo‘shma so‘z yasash qolipida hosil qilingan, ya’ni su hamda bashi so‘zlarini qo‘shib yasalgan. Su so‘zi qadimgi turkiy tilda "qo‘shin" manosini anglatgan. Bashi so‘zi esa “boshliq, boshchi” degan ma’noni bildiradi. Bugungi kunda bunday qolipda so‘z yasalganda bashi so‘zi boshi shaklida ishlatiladi. Masalan, ishboshi, davraboshi kabi.

Shad atamasi harbiy unvon ma’nosida qadimdan qo‘llanib kelgan. Ammo jangda shuhrat qozongan har qanday iste’dodli sarkardaga bu lavozim berilmagan. Bu unvon qag‘an – xoqon

oilasidan bo‘lgan jasur sarkardalar uchun joriy qilingan. (O‘zbek harbiy terminologiyasi, 10-bet). Masalan, Bilga qag‘an shad unvonini olganligi tarixiy kitoblardan ma’lum. Bu unvonni olish katta sharaf bo‘lgan, ayni paytda, unvon egasiga katta imtiyozlarni ham bergan, xalqning sardoriga, hukmdorning o‘sha yurtdagi noibiga aylangan. M.Do‘stmurodov “Mo‘yun Cho‘r” nomli qadimiy bitikdan keltirgan quyidagi parchada xoqonning o‘g‘illari tardush va to‘las qabilalariga yabg‘u (yabγu) va shad (šad) etib tayinlaganligi ma’lum bo‘ladi: “äki oγulïma: yabγu: šad at bärtim – ikki o‘g‘limga yabg‘u va shad unvonini berdim (O‘rxun-Yenisey bitiktoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi, 63-bet).

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mengliyeva S.S. Ways of teaching vocabulary and military terms to cadets in English // JournalNX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal -Volume 8, ISSUE 2, February-2022// ISSN:2581-4230 – P.139-141.- (Impact Factor:7.232).

2. Mengliyeva S.S. Effective methods of teaching military terminology to cadets by the project method-Web of Scientist: International Scientific Research Journal Volume 3, ISSUE 6, June-2022 ISSN: 2776-0979. – P.1497-1500. (Impact Factor: 7.565).

3. Mengliyeva S.S. Increasing the professional competence of cadets through the method of projects // inScience Jamiyat va innovatsiyalar-10 (2022)/ ISSN21181-1414. – P. 297-300. 7. Mengliyeva S.S. Teaching military terms with new methods // O,,zbekiston Respublikasi Ta‘‘lim fidoyilari Respublika ilmiy-uslubiy jurnali ISSN: 2180-2130. May – 2022. – B. 761-764.

4. Mengliyeva S.S. Atamalar va ularning vazifalari // International Scientificpractical Distance Conference 2021/V “The 21st century skills for professional Activity”. – B. 83-85.

5. Fillmore, C. J. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111–137.

6. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

7. Langacker, R. W. Foundations of Cognitive Grammar: Vol. 1. Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p.

8. Wierzbicka, A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.

9. Верешчагин, Э. М., Костомаров, В. Г. Лингвострановедение в обучении русскому язйку как иностранному. – Москва: Русский Язйк, 1990. – 246 с.

Maxmudova Sevara Asatilla qizi
Qo‘qon Universiteti Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: dr.sevararana94@gmail.com

NUTQNING GRAMMATIK TUZILISHINI VA UNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ravon nutq va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida nutqning grammatik tuzilishi va to‘g‘ri grammatik nutqni shakllantirish dolzab masalalari aks etgan. Bolalar nutqni grammatik to‘g‘riligini o‘zlashtirish bosqichlari va unga ta’air etuvchi omillar jadvallar asosida keltirilgan.*

Tayanch tushunchalar: *grammatik tuzilishi, morfologiya, sintaksis, shartli refleks, kombinatsiya, morfema, instinkt, mexanizm, grammatik toifa, sintaktik.*

ГРАММАТИЧЕСКИЙ СТРОЙ РЕЧИ И МЕТОДИКА ЕГО ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье отражены актуальные вопросы формирования грамматического строя речи и правильной грамматической речи в процессе развития связной речи и коммуникативных компетенций у детей дошкольного возраста. Этапы усвоения детьми грамматической правильности речи и влияющие на этот процесс факторы представлены на основе таблиц.*

Ключевые слова: *грамматический строй, морфология, синтаксис, условный рефлекс, комбинация, морфема, инстинкт, механизм, грамматическая категория, синтаксический.*

THE GRAMMATICAL STRUCTURE OF SPEECH AND METHODS OF ITS FORMATION

Annotation. *This article reflects the urgent issues of forming the grammatical structure of speech and correct grammatical speech in the process of developing coherent speech and communication competencies in preschool children. The stages of mastering grammatical correctness of speech by children and the factors influencing this process are presented in tabular form.*

Key words: *grammatical structure, morphology, syntax, conditioned reflex, combination, morpheme, instinct, mechanism, grammatical category, syntactic.*

Kirish. To‘g‘ri va yaxshi shakllangan nutq bolalarning har tomonlama to‘liq rivojlanishining eng muhim shartidir. Bolaning nutqi qanchalik boy va to‘g‘ri bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini ifoda etish osonroq bo‘ladi, atrofdagi voqelikni bilish qobiliyati qanchalik keng bo‘lsa, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlari yanada mazmunli va to‘laqonli bo‘lsa, uning aqliy rivojlanishi shunchalik faol bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini va xususan nutqning grammatik tomonini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi eng muhim omil bu maqsadli pedagogik ta’sirdir. Maqsadli pedagogik ta’sir bolalarning nutq ko‘nikmalarini, shu jumladan nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishda aniq o‘ylangan tizimning mavjudligini anglatadi.

Nuqtning grammatik to‘g‘riligi (grammatika)-

1) bu morfologiya, sintaksis va so‘z yasash sohasidagi birliklar va ularning ishlash qoidalari tizimi;


2) tilning rasmiy tuzilishi haqidagi fan.

"Grammatika" atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi: birinchidan, tilning grammatik tuzilishini, ikkinchidan, fanni, so‘zlarning o‘zgarishi va ularning jumladagi kombinatsiyasi to‘g‘risidagi qoidalar to‘plamini anglatadi. Nutqni rivojlantirish metodologiyasi nutq amaliyotida bolalar tomonidan tilning grammatik tuzilishini o‘zlashtirish masalalarini ko‘rib

chiqadi. Bolaning grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqini shakllantirishda uning morfologik va sintaktik tomoni ustida ishlashni farqlash kerak.

Morfologiya so‘zning grammatik xususiyatlarini, uning shakllarini, sintaksisini — iboralar va jumlalarni o‘rganadi.

So‘zlar va jumlalarning o‘ziga xos ma’nolaridan, grammatika katta mavhum kuchga, til hodisalarini yozish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Grammatikani amalda o‘zlashtirgan bolalarda fikrlash bir vaqtning o‘zida shakllanadi. Bu bolaning nutqi va psixikasini rivojlantirishda grammatikaning ahamiyatini bildiradi.



Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik tuzilishini shakllantirishning ba’zi xususiyatlari psixologiyada o‘rganilgan; fiziologiyada ularning nutqining grammatik tomonining shartli refleks asosi o‘rnatilgan. Grammatik tizim bola tomonidan mustaqil ravishda, taqlid qilish orqali, turli xil nutq amaliyoti jarayonida o‘rganiladi. Jonli nutqda bolalar grammatik elementlarning doimiy ma’nolarini-morfemalarni payqashadi. "Shu asosda so‘zlar va so‘z shakllaridagi muhim elementlar o‘rtasidagi munosabatlarning umumlashtirilgan tasviri shakllanadi, bu til instinktining asosi bo‘lgan o‘xshashlik mexanizmini, xususan, tilning grammatik tuzilishi uchun instinktni shakllantirishga olib keladi.

Uch yoshli bola jinsi, soni, vaqti, yuzi va boshqalar kabi grammatik toifalardan foydalanadi, oddiy va murakkab jumlalardan foydalanadi. Bolaga boy nutq aloqasini, ideal rol modellarini taqdim etish kifoya qiladi, shunda u tanish munosabatlarni o‘rganilgan grammatik shakl bilan mustaqil ravishda lug‘at materiallarini belgilaydi.

Grammatik tizimni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish nafaqat bolaning asabiy faoliyatining yoshga bog‘liq qonuniyatlari, balki ona tilining grammatik tizimining, ayniqsa morfologik tizimining murakkabligi bilan ham izohlanadi.

Bolalar nutqni grammatik to‘g‘riligini o‘zlashtirish bosqichlari (A.N.Gvozdev)

Yosh davri	Yosh davri bosqichlari	Bolalar yutuqlarining xususiyatlari
I davr 1 yoshdan – 1 yosh 10 oylik davrgacha	1 yosh 3 oylik - 1 yosh 8 oylik	Nutqda bir yoki ikki bo‘g‘inli so‘zlardan foydalanish
	1 yosh 8- oylik- 1 yosh 10 oylik	Bir-biri bilan bog‘lanmagan ikki yoki undan ortiq so‘zlardan iborat iboralarning paydo bo‘lishi (amorf jumlalar)
II davr 1 yosh 10 oylikdan 3 yosh-gacha (nutqning sintaktik tomonini o‘zlashtirish davri)	1 yosh 1- oylik – 2 yosh 1 oylik	So‘z birikmalarni hosil qilish urinishlar.
	2 yosh 1 oylik – 2 yosh 3 oylik	So‘z o‘zgarishli so‘z birikmalardan jumlalar hosil qilish
	2 yosh 3 oylik – 3 yosh	Barcha so‘zlar o‘zgartiriladi, lekin ishlatilmaydi. bog‘lovchi va yuklamalar qo‘llaniladi
III davr 3 yoshdan – 7 yoshgacha	Nuqtning morfologik tizimini o‘zlashtirish davri. 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalarning faol nutq ijodkorligi davri.	
7 yoshdan so‘ng	Bolalar nutqining grammatik to‘g‘riligini takomillashtirish	

Maktabgacha yosh davomida bolalar nutqining morfologik va sintaktik tomonlarida nomukammallik kuzatiladi. Bola sakkiz yoshga to‘lganda, tilning grammatik tuzilishini to‘liq o‘zlashtiradi: "maktab yoshiga kelib ona tilini o‘zlashtirish darajasi yuqorilashadi. Bu vaqtda bola grammatikaning barcha murakkab tizimini, shu jumladan ona tilidagi sintaktik va morfologik tartibning qonuniyatlarini, shuningdek, o‘ziga xos bo‘lgan ko‘plab individual hodisalardan qat'iy va xatosiz foydalanishni o‘z ichiga oladi, bu o‘zlashtirilgan ona tili unga haqiqatan ham ona bo‘lib qoladi. Va bola unda aloqa va fikrlashning mukammal vositasini oladi. Grammatikani fan sifatida o‘zlashtirish maktabda amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda asosiy grammatik qoidalar va qonunlarni ongli ravishda o‘zlashtirish vazifasi qo‘yilgan. Maktab o‘quvchilarida bir qator grammatik tushunchalar (so‘zning tarkibi, nutq qismlari va boshqalar) shakllanadi, ular ta’riflarni yodlaydilar va tushunadilar, ularning faol lug‘atiga grammatik atamalar kiradi va nutqga yangi munosabat paydo bo‘ladi. Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish bo‘yicha ishlarda quyidagi yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: bolalarda grammatik xatolar paydo bo‘lishining oldini olish, morfologiya va so‘z shakllanishining qiyin holatlarida, bolalar nutqida mavjud bo‘lgan xatolarni samarali tuzatish, nutqning sintaktik tomonini takomillashtirish, ularning nutq shakliga sezgirlik va qiziqishni rivojlantirish, atrofdagi kattalar nutqining grammatik to‘g‘riligini targ‘ib qilinadi. Shunga ko‘ra, har bir yosh bosqichida ishning asosiy vazifalarini (umumiy shaklda) belgilash mumkin.

Xuddi shu guruhdagi bolalar nutqining grammatik tomonining holati har xil bo‘lishi mumkin, bu bir necha sabablarga bog‘liq:


1) bola rivojlanishining umumiy psixofiziologik qonuniyatlari (asabiy jarayonlar holati, diqqat, fikrlash va boshqalar);

2) bilim va lug‘at zaxirasi, fonemik eshitish va nutq-motor apparati holati;

3) murakkablik darajasi ushbu tilning grammatik tizimi;

4) atrofdagi kattalar nutqining grammatik tomonining holati (tarbiyachilar, mtt xodimlari, bolalarning qarindoshlari), bolaning nutqining to‘g‘riligi ustidan pedagogik nazorat darajasi.

Muayyan yosh guruhi uchun grammatika ishining mazmunini aniqlashda nimaga rahbarlik qilish kerak? Bir guruh bolalar nutqining grammatik tomoni darajasidagi eng muhim tafovutlar morfologiya sohasida kuzatiladi. Shuning uchun tarbiyachiga faqat yuqorida aytib o‘tilgan shakllarni mashg‘ulotlarga ajratish tavsiya etiladi. Bolalarga o‘zlashtirgan narsalarini o‘rgatishning ma’nosi yo‘q. O‘quv yilining boshida tarbiyachi bolalar qanday grammatik shakllarda xato qilishlarini aniqlash maqsadda u bolalar nutqining kundalik kuzatuvlaridan, rasmlardan, narsalardan foydalangan holda individual bolalar uchun savol-topshiriqlardan og‘zaki shaklda foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, butun guruh bilan frontal mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadi qo‘yiladi.



Grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni shakllantirishning asosiy vositasi bu maxsus o‘tkaziladigan mashg‘ulotdir. Albatta, har qanday mashg‘ulotda bolalar nutqidagi xatolarni tarbiyachi tuzatish kerak. Ammo bolalar nutqining ma’lum bir salbiy sifatini oldini olish bo‘yicha maxsus ishlar olib boriladigan, paydo bo‘lgan grammatik xato intensiv va maqsadli ravishda tuzatiladigan bunday mashg‘ulotlar alohida ahamiyatga ega. Bunday mashg‘ulotlarda bolalarning barcha e’tiborini faqat kerakli grammatik shaklga jalb qilish mumkin. So‘z, uning o‘zgarishi, iborasi yoki jumlasi ularning aqliy ishlarining mazmuniga aylanadi. Bola qanday gapirish kerakligini anglay boshlaydi, to‘g‘ri, barkamol, chiroyli gapirishga intiladi. Mashg‘ulotning qulay muhiti bolalarning chalg‘itmasligiga yordam beradi, hamma tarbiyachining izohlari va ko‘rsatmalarini eshitadi, o‘rtoqlarning nutq sifatini ongli ravishda kuzatib boriladi.

Hozirgi vaqtda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish muammosi, ayniqsa, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning umumiy sonining ko‘payishi bilan bog‘liq. Bolalar nutqini rivojlantirishdagi har qanday, hatto kichik kamchiliklar ham uning aqliy rivojlanishiga umuman ta’sir qilishi, uning o‘quv faoliyatiga ta’sir qilishi, maktabdagi noto‘g‘ri ishlashning sabablaridan

biriga aylanishi, uyatchanlik, qat'iyatsizlik, izolyatsiya kabi xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Bolaning nutqi qanchalik boy va to‘g‘ri bo‘lsa, uning atrofdagi voqelikni bilish qobiliyati qanchalik keng bo‘lsa, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlar yanada mazmunli va to‘laqonli bo‘lsa, uning aqliy rivojlanishi shunchalik faol amalga oshiriladi. Yaxshi nutq bolalarning har tomonlama to‘liq rivojlanishining eng muhim shartidir. Bolaning nutqi qanchalik boy va to‘g‘ri bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini ifoda etish osonroq bo‘ladi, atrofdagi voqelikni bilish qobiliyati qanchalik keng bo‘lsa, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlari yanada mazmunli va to‘laqonli bo‘lsa, uning aqliy rivojlanishi shunchalik faol bo‘ladi.

Bolaning boshqalar bilan aloqasi asta-sekin shakllanadi: u to‘g‘ri grammatik va fonetik qurilmani hisobga olgan holda nutqni tushunish va undan faol foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Turli yosh bosqichlarida bolalar nutqiga qo‘yiladigan talablar o‘ziga xos xususiyatga ega. Shunday qilib:

3-4 yoshida bolalar tarbiyachidan keyin qisqa hikoyani (o‘yinchoq, rasm, bir qator rasmlar asosida tuzilgan) takrorlay olishlari, bir hil a’zolar bilan jumlalardan foydalanishlari, jinsi, soni, holati bo‘yicha so‘zlarni muvofiqlashtirishlari kerak;

4-5 yoshda-mustaqil ravishda kichik hikoyalar tuzish, oddiy matnlarni takrorlash, ongli ravishda umumlashtiruvchi ma’noga ega so‘zlardan foydalanish;

5-6 yoshda-tuzilishi sodda va murakkab jumlalarni erkin qurish va ularni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita nutq bilan tuzilmalardan foydalanish, tayyor rejadan foydalangan holda, mustaqil ravishda rasm asosida mavzu haqida gapirishlari kerak;

Ammo, afsuski, bugungi kunda ko‘plab bolalar o‘zlarining nutq bayonotlarini shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Asosiy qiyinchiliklar murakkab savollarga batafsil javob berishda namoyon bo‘ladi, bolalar o‘zlarining fikrlarini izchil, barkamol va mantiqiy ifoda eta olmaydilar, matnlarning mazmunini takrorlay olmaydilar, hikoyalar tuzishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun nutqning leksik va grammatik tuzilishini shakllantirish muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Nutqning leksik va grammatik tuzilishini rivojlantirish bo‘yicha ishlar 3 yo‘nalishda olib boriladi:

– lug‘atni to‘plash;
– iborani shakllantirish;
– uni ibog`lanishli nutqqa kiritish.

Lug‘at ishining mazmuni bolalarning mavzu dunyosi haqidagi bilimlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, chuqurlashtirish va umumlashtirishga asoslangan.

Natijada, bolalar katta miqdordagi bilim va tegishli lug‘atni to‘playdilar, bu esa erkin muloqotni ta’minlaydi.

Ushbu lug‘at turli xil mavzular bilan ajralib turadi, u nutqning barcha qismlarini taqdim etadi, bu esa, maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini mazmunli, juda aniq va ifodali qilish imkonini beradi.

Bolalarda izchil nutqni rivojlantirish uchun juda muhim nuqta bolalarni so‘z shakllanishining elementar shakllari bilan tanishtirishdir. So‘z shakllanishini shakllantirishga qaratilgan ish otlardan boshlanadi. Birinchidan, bolalar kichraytiruvchi qo‘shimchalar yordamida otlarni shakllantirishni o‘rganadilar, – cha-qo‘shimchasi idishning ma’nosi bilan, bolalar hayvonlari va qushlarining nomlarini bildiruvchi otlarni shakllantirishni o‘rganadilar. Bunga parallel ravishda sifatlar (egalik, sifat, nisbiy), fe’llar (mukammal va nomukammal turlar) shakllanishi, tegishli so‘zlarni tanlash bo‘yicha ishlar olib boriladi.

Ot, sifat fe’l so‘z turkumlarning shakllarini mustaqil ravishda shakllantirishdagi mashqlar turli xil mavzuli materiallarda olib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda so‘z shakllarini farqlash, taqqoslashni shakllantirish mashqlaridan boshlanadi. Bolalar ismlarning oxirlarini, birlik va ko‘plik ot, fe’llardagi bir xil so‘zning ish oxirlarining o‘zgarishini eshitadilar.

O‘zgartirish qobiliyatlari avval iboralarda keyin jumlalarda, keyin esa, tegishli nutqda mustahkamlanadi.

Bolalar o‘z nutqlarida oddiy jumlalarni qanday qilib to‘g‘ri qurish va ulardan foydalanishni bilishlari uchun barcha so‘zlar ular uchun tushunarli bo‘lishi muhimdir. Gapdagi so‘zlarning tartibini (agar kerak bo‘lsa, savollar yordamida tuzatish), fe’lning tegishli shaklidan to‘g‘ri foydalanishni, uni shaxsda va sonda ism bilan muvofiqlashtirishni kuzatish kerak. Bolalarga mustaqil ravishda bir hil mavzularni, qo‘shimchalarni va boshqalarni tanlash taklif etiladi.

Bolalarning nutq amaliyotini tashkil etish uchun asos obyektlar bilan amaliy harakatlar, hayotiy hodisalarni faol kuzatishdir. Rasm mazmuni bo‘yicha turli xil harakatlarni tavsiflash bo‘yicha takliflar tuzish, bolalar ko‘rganlari haqida izchil gapirishni o‘rganadilar. Asta-sekin, bunday xabarlar qisqa hikoyaga birlashadi.

Bolalar nutqining leksik va grammatik tuzilishini shakllantirishning samarali vositasi turli xil faoliyat turlarida, kun tartibidagi o‘yinlar va mashqlarda ishlatiladilar.

Leksik va grammatik tuzilmalarni shakllantirishda ota-onalar bilan birgalikda ishlash nutqni rivojlantirishning murakkab jarayonining ajralmas qismi bo‘lishni taqozo etadi. Ota-onalarning malakasini oshirish uchun ochiq mashg‘ulotlar, suhbatlar, maslahatlar, o‘quv seminarlari va boshqa ish turlari o‘tkaziladi. Ota-onalarning faol va ongli yordami bolalarning nutqini yaxshilash bo‘yicha ish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va ijobiy natijalar beradi.

Shunday qilib, maktab yoshiga kelib, bolalar asosan amaliy grammatikaning butun murakkab tizimini o‘zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Алексеева М.М., Яшина В.И. Хрестоматия по теории и методике развития речи детей дошкольного возраста [Текст]: Учеб. пособие для студ. высш. и сред. учеб. заведений / Сост.. – М.: Академия, 2000.
2. Бородич, А.М. Методика развития речи детей [Текст]: учебное пособие для студентов пед. ин-тов по спец. «Дошкольная педагогика и психология»/А.М. Бородич. – 2-е изд. - М: Просвещение, 1981.
3. Maxmudova O.A. Bolalar nutqini o’stirish. O’quv metodik majmua. TDPU, 2020.
4. Muminova L., Maxmudova O., Karimova Sh. “Nutqni tekshirish va rivojlantirish bo‘yicha logopedik albom”. Metodik qo‘llanma Defektologlar uchun metodik qo‘llanma. NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI. – T.:2023 y.111b.
5. Qodirova F. R., D. M. Maxmudova, O. A. Maxmudova, Xo’jamatova X. M. “Til va nutq” rivojlantirish markazidagi ta’lim faoliyatni rejalashtirish. Pedagoglar uchun o`quv qo`llanma. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, / T.: 2023.
6. S.A.Maxmudova, Qambarova, Y. (2024). Neyrogimnastikaning maktabgacha yohdagi bolalar rivojlanishiga ta’siri, o‘rni va ahamiyati. University Research Base, 112–115. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/478
7. Қодиров, В. , Маҳмудова, О. . (2022). Пластик материаллар ёрдамида дидактик ашёлар тайёрлаш методикасига оид тажрибалар. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, *2*(3), 116–123. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/1234
8. Maxmudova S. (2024). Maktabgacha yoshdagi yoshdagi bolalarga xorjiy til (ingliz tili) ga o‘rgatishda “quvnoq baliqchalar” didaktik o‘yinini qo‘llash samarasi. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 37-40. Https://doi.org/10.2024/x0q1yq52

Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA IJTIMOIY MUAMMOLARNING BADIIY TALQINI VA O‘ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shoyim Bo‘tayevning hikoyalarida ijtimoiy muammolarning aks etishi va o‘ziga xosliklari to‘la yoritilgan bo‘lib, aynan Shoyim Bo‘tayev hikoyalarining o‘ziga xos uslublari va hikoyalarining tub ma’nosi keltirilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy masalalar, ruhiyatning badiiy tasviri, hikoyachilik, Shoyim Botayev, detall, tafakkur, ong, adabiyot, tahlil, tavsir, sharq, so‘z san‘ati.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ И ОСОБЕННОСТИ В РАССКАЗАХ ШОЙИМ БУТАЕВ

Аннотация*: В данной статье полностью освещены отражение и особенности социальных проблем в рассказах Шоима Ботаева, представлены оригинальный смысл рассказов Шойима Ботаева и своеобразие стиля его рассказов.*

Ключевые слова*: Социальные проблемы, художественное изображение психики, повествование, Шойим Ботаев, деталь, мышление, сознание, литература, анализ, интерпретация, восток, искусство слова.*

ARTISTIC INTERPRETATION AND UNIQUENESS OF SOCIAL ISSUES IN SHOYIM BO'TAYEV'S STORIES

Annotation. *This article fully covers the reflection and uniqueness of social problems in Shoyim Botayev's stories, and presents the unique styles and fundamental meaning of Shoyim Botayev's stories.*

Keywords: *Social issues, artistic depiction of the psyche, storytelling, Shoyim Botayev, detail, thought, consciousness, literature, analysis, interpretation, East, word art.*

Kirish. Ma’lumki XX asrning saksoninchi va to‘qsoninchi yillarida ijtimoiy hayotda katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu esa barcha adiblar qatorida Sh. Bo‘tayev ijodida ham katta iz qoldirgan. Xususan, “O‘tgan asrning so‘nggi choragida badiiy adabiyotdagi poetik talqinning o‘zgarishi, uning zamirida milliy xarakterlarning badiiy ifodasi asosida umuminsoniy g‘oyalarning talqiniga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Milliy xarakterlar asosida inson fojialarni yoritish ustuvor muammolardan biriga aylandi. Shu jihatdan milliy o‘ziga xoslik, qadriyatlar ifodasining talqini asosida insoniyat fojialarini talqin etish an’anasi yetakchilik qilgan. Bu esa ijodkor badiiy mahorati bilan bir qatorda, davr va inson muammolarining badiiy ifodasida yanada teranlashdi” [1]. Natijada yozuvchi hikoyalarining mazmuniy salmog‘i ortdi, xalqchilligi, originalligi kuchaydi. Ayniqsa, zamonaviy hikoyalaridagi ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik haqsizlik, zulm, mahalliy aholi ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, xususan, yashash joyini erkin talashi, shaxsiy mulk dahlsizligi, ajdodlaridan meros sifatida yetib kelgan turmush tarzini saqlab qolish muammosi badiiy adabiyotning tasvir obyektiga chiqdi. Bunda motiv “ma’lum bir adabiyot yoki folklorda bayonchilik doirasidagi an’analarning, semantik jihatdan o‘xshash syujet hodisalarining umumlashma shakli bo‘lib, motivning ma’noviy markazida bosh qahramon faoliyatini tashkillash va bo‘lishi mumkin voqealarning makoniy-zamoniy tavsifi turadi”. Shu muohazadan kelib chiqsak, motiv badiiy asarda, jumladam hikoyada bosh qahramon tavsifi, u bilan yuz beradigan hodisa, voqeaning muallif yaratgan aniq makon va zamondagi tavsifi beriladi. Shuningdek, motiv bevosita muallifni qiynayotgan ijtimoiy muammo, tashvishga solayotgan ma’naviy-axloqiy masalalarni aniq voqea

[1] Djurakulova E.S. Shoyim Bo‘tayev romanlarida sujet va kompozitsion yaxlitlik. Filolog. Fan. b. fals. doktori (phd) dissert. Avtoreferati. Samarqand, 2023. – B.22 (52)

yoki epizodda tasvirlar ekan, hikoya kechayotgan makon-zamon imkoniyatini yaqqol namayon etadi. Bunda motivni harakatga keltirgan kuch ijtimoiy muammo bo‘lib, u syujet, asar tili va bevosita asar mazmuni orqali personajga ta’sir etadi. Bu esa muammo-motiv-personaj (keng ma’noda obraz) kompozitsiyon tamoyiolini ham yuzaga chiqardi.

Adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, epik turga mansub asarlar, jumladan, hikoya janrining ham uch muhim xususiyati bor. Birinchisi, rasvirning obyektiv bo‘lishi, ikkinchisi, voqeabandligi, uchinisi, ko‘lamdorligi shular jumlasidandir. Sanalgan xususiyatlarning birinchisida yozuvchi hikoyabop hayotiy materialni ajratib oladi. So‘ngra unga o‘z badiiy-estetik qarashlari, o‘zi mansun xalq, millat hamda davrning yetuk ma’naviy-axloqiy tushunchalarini singdiradi. Natijada hkoyabop voqea deyarli asliga yaqinlashtirib tasvirlanadi. Ana shu tasvirdagi obyektivlilik hisoblanadi. Yaratilayotgan asar, bizning tadqiqotimizda hikoyani aniq voqea , konkret vaziyat asosida, voqeaning oddiylikdan murakkablikka yoki individuallikdan umumiylikka tomon har bir qismini mantiqiy izchilik bayon qilish hikoyaga voqeabandlik bag‘ishlaydi. Olingan voqea zimmasidagi mazmun: badiiy g‘oya, ideal, muammo, mavzu, epik kechinma darajasiga ko‘ra ko‘lamdor bo‘ladi. Ya’ni hikoyadagi muammo yashagan yili, asridan qat’iy nazar, boshqa xalqqa yoki millatga ham aloqador bo‘lib chiqadi. Shu ma’noda “Markaziy Osiyoda ilki hikoyalar to‘plami buxorolik Avfiy tomonidan 1228 yilda tuzilgan “Jomiul hikoyat va lavomeur-rivoyot” (“Hikoyalar jami va rivoyatlar jilosi”) asaridir. Unga kirgan hikoyalarda bu janrning ertakdan farqi yaqqol ko‘rinadi”[1]. Mazkur ma’lumotning o‘ziyoq hikoya qadimda mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lganini isbotlaydi. Avfiyning ismi-sharifi Nurmuhammad Muhammad bo‘lib,

Mahmud Koshg‘ariydan keyin turkiy-o‘zbek tilida bitilgan ilmiy asarda shayx Ahmad Taroziy hikoya haqida gapirmaydi. Ammo badiiy nutq tasnifini beltiradi: “Va ulamo qoshida nutq ikki nav’dur: nasr va nazm. Onikim, istisvob bobinda murattab ko‘rdilar, “nazm” atadilar. Va onikim, avroq visoqinda parishon topdilar, “nasr” dedilar... Bas, ma’lum bo‘ldikim, har odamekim, insoniyat yaqosindin bosh chiqorur, anga nazm va nasr qoidasin bilmakdin gurez yo‘qtur/ Va burun kechgan fusaho va bulag‘o bu ma’nidin nasr va nazm kayfiyattinda qoidalar tarkib etib, risolalar tartib qilibdurlar. Va har sanoe’ va daqoyiqkim nasr va nazmda voqe’ bo‘lur, barchasini fil mazhal zikr etibturlar”. Bu yerdagi muhim fikrlardan biri qadimda olimlar namz bilan birga nasr qoida va nasriy asarga xos badiiyat qoidalarini tadqiq etishgani haqidagi xabar sanaladi. Lekin aynan hikoya janri haqisa fikrlar berilmagan.

Natija va muhokama. O‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Shoyim Bo‘tayev o‘zining sermazmun va teran falsafiy hikoyalari bilan adabiyot maydonida alohida o‘rin tutadi. Yozuvchining asarlari nafaqat badiiy jihatdan mukammal, balki o‘zbek jamiyatida mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolarni haqqoniy tasvirlashi bilan ham e’tiborga molikdir. Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida davrning dolzarb masalalari, jamiyatdagi adolatsizliklar, insonning ichki kechinmalari va ziddiyatlarini mahorat bilan aks ettirgan. Uning asarlari orqali biz o‘sha davr jamiyatining ko‘zgusini ko‘rishimiz, davr ruhini his qilishimiz mumkin. Shoyim Bo‘tayev XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan iste‘dodli yozuvchilardan biridir. Uning hikoyalarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari bilan bir qatorda, jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolar ham o‘z aksini topgan. Yozuvchi asarlarida insonlar o‘tasidagi munosabatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik kabi abadiy mavzularni ko‘targan.

Bu maqolada Shoyim Bo‘tayevning hikoyalarida aks etgan ijtimoiy muammolar, ularning badiiy talqini va yozuvchi qo‘llagan badiiy usullar tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining ijtimoiy muammolarni yoritishdagi o‘ziga xos uslubi va bu muammolarni hal etish yo‘lidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz.

Sh.Bo‘tayev hikoyalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - ular qisqa hajmda bo‘lishiga qaramay, chuqur ma’noga ega ekanligi va o‘quvchini mushohada qilishga undashidir. Uning asarlarida oddiy insonlarning hayoti, ularning quvonch va tashvishlari, orzu-umidlari, ruhiy kechinmalari haqqoniy tasvirlangan. Yozuvchi qahramonlarining ichki dunyosini ochib berishda psixologik tahlil usulidan mohirona foydalangan.

[1] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 255.

Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida jamiyatdagi axloqiy-ma’naviy inqiroz masalasi alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi ko‘plab asarlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlardagi sovuqlik, befarqlik, bir-birini tushunmaslik kabi muammolarni ko'targan. Masalan, adibning “Kunu tun” hikoyasidagi “omoch tortib borayotgan otdek zo‘riqib ishlayotgan erkak” jumlasidagi o‘xshatish orqali Dehqonboyning tunu kun mehnat qilib ro‘shnolik ko‘rmasligi, bunga sabab esa savodsizligi va o‘zbilarmonligi edi. Uning mashaqqatli mehnati jarayonini o‘xshatish vositasi orqali o‘quvchiga ko‘rsatgan. Yoki shu hikoyada ayolning nutqi orqali ifodalangan o‘xshatish vositasi davr muammolarini ham ifodalash uchun xizmat qilgan. “ – Suv qurigan, - dedi ayol. – Kelishda ko‘rdim, xotin-xalajlar chelaklarini ko‘tarib urush vaqtida nonga turganday ochirat turishibdi”. Bu nutq orqali qishloq ahlining ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini ham kuzatish mumkin. Yozuvchi aynan “urush vaqtida” deb urg‘u berishi, qishloqda suvsizlik muammosining qay darajada ekanligidan ham darak beradi. “Mo‘minning yeri” hikoyasida “Mo‘min o‘zini xuddi o‘g‘rilikka ketayotgandek his etardi” jumlasidagi o‘xshatish -dek qo‘shimchasi vositasida amalga oshgan. Mo‘min o‘z yerini ko‘rgisi keldi. Darsdagi naynov bolaning Mirzakarimboyni ijobiy obraz ekanligini yer voqeasi asosida izohlab bergani, “shu tirrancha bilganini men bilmasam-a”, degan o‘y ich-etini kemirishi uni o‘z yeri tomon boshlab kelardi. Mo‘min o‘z yerini Xudoyor akaga bergisi yo‘q edi, lekin uning saxiy onasi o‘ylab o‘tirmasdan yerni foydalanish uchun unga berib yuboradi. Kampirning bu holati, ya’ni saxiyligini adib quyidagi o‘xshatish vositasida tasvirlaydi: “Ammo kampir saxiy edi. Orqa oldini o‘ylab o‘tirmasdi. Hech narsasi bo‘lmasayam, hamisha hammaga nimadir in’om etgisi kelib turardi. Shunday fursat tug‘ilganidan boshi ko‘kka yetguday bo‘ldi”.

Bo‘tayev hikoyalarida ijtimoiy adolatsizlik masalasi ham keng yoritilgan. Yozuvchi jamiyatda mavjud bo‘lgan tabaqalanish, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq, imkoniyatlarning teng taqsimlanmaganligi kabi muammolarni o‘z asarlarida haqqoniy aks ettirgan. "Hisomiddin al-Yog‘iy" hikoyasida qishloq hayoti, oddiy dehqonlarning turmush tarzi, ularning qiyinchiliklari tasvirlangan. Bu hikoya orqali yozuvchi shahar va qishloq o‘rtasidagi farq, qishloq aholisining og‘ir turmushi haqida so‘zlaydi. Masalan, quyidagi jumlalarni keltiraman:

- Eshikka yaqin o‘tirgan, ko‘rinishidan-da, kiyinishidan-da bu yerlikka o‘xshamagan o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlardagi o‘rta bo‘y, katta-katta ko‘zlaridan mug‘ombirlikka qorishiq aql porlab turgan kishi qalingina po‘stin kiyganiga qaramay, o‘zini sovuqdan chetga olayotgandek beixtiyor siljib ko‘ydi.

Bu odam yurtma-yurt, sarhadma-sarhad kezib yurgan marokashlik sayyoh edi.
Uning yo‘lga chikkaniga o‘n yillardan oshib ketdi.

E-he, bu vaqt ichida nimalarni ko‘rmadi-yu! Olimu devona, boyu faqir, donoyu nodon, kamtaru muttaham, pastkashu olijanob, xasisu saxiy zotlarning betinim oqimidan misli ummondek to‘lqinlanib yotgan shaharlardan tortib tahqirlangan odamlari johillikka, yolg‘on da’volarga, munkirlikka yuz tutganliklaridan yerparchin qilingan ellargacha u ko‘rdi.

Mazkur qismda jamiyatning tabaqalanishidan tortib, o‘sha davrning ijtimoiy holati to‘liq aks etganiga guvoh bo`lamiz.

Bo‘tayev hikoyalarida urush va tinchlik masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi urushning insoniyat uchun keltirgan fojialari, urush qurbonlari, urushdan keyingi hayot qiyinchiliklari haqida yozgan. "Qora tuman" hikoyasida urushning nechog‘lik inson hayotini qora tumanga aylantirilishi mohirona tasvirlangan. Masalan quyidagi jumlalarni keltiraman: “Saidmurod, qo‘rboshining bevaqt yo‘lga chiqqaniga ichi kuyib, alamdan tutab kelayotgan ponsod, royishsiz so‘z boshlaganda Xolbo‘ta ana shunday kayfiyatda edi:

- Bek, bo‘riga o‘xshab tentib yurganimizdan ko‘ra o‘sha lakotning jonini jahannamga yo‘llamoq darkor edi...

Xolbo‘taning ko‘z o‘ngidagi tuman yanada quyuqlashdi. Qayrilib qaramadi. U ko‘nglida yaratganga munojot-muroqaba qilib taniga kuchu quvvat, ko‘ziga ravshan nur berib, diliga to‘gri yo‘lga solguvchi va eltuvchi tuyg‘u solmaganiga o‘ksinib borardi. Olis-olis manzillarda ilgangan umid shu’lasi aslida sarob u o‘zicha intilgan, jangu jadal qilgan ozodlik qanchadan-qancha begunoh qonlarni qurbonlikka oldi, maqsadu muddaosini adashtirib-ayqashtirib barini zulmoniy, zulmat tumanlik izdihomi ichra nest-nobut qildi. Hikoya orqali yozuvchi urushning insonlar hayotiga

qoldirgan og'ir ta'sirini, urush tufayli parchalangan oilalarning qismatini ochib beradi."Qora tuman" hikoyasida tinchlikning qadr-qimmati, urushsiz hayotning ahamiyati haqida so'z boradi. Hikoyada qahramon urushda ko'rgan dahshatlar, urushdan keyingi hayotga qaytish qiyinchiliklari tasvirlangan. Bu hikoya orqali yozuvchi tinchlikning naqadar muhimligini, insoniyat urushlardan saboq olishi kerakligini ta'kidlaydi.

Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida ijtimoiy muammolarni tasvirlashda turli badiiy usullardan foydalangan. Yozuvchi bu muammolarni bevosita tasvirlash bilan birga, ramziy obrazlar, metaforalar va boshqa badiiy vositalar orqali ham ifodalagan. Shoyim Bo‘tayev hikoyalarining o‘ziga xos xususiyati - qahramonlar ruhiyatini chuqur tahlil qilishidir. Yozuvchi qahramonlarning ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari, quvonch va tashvishlari orqali jamiyatdagi muammolarni ochib beradi. Masalan, "Hisomiddin al Yog‘iy" hikoyasidagi qahramon ruhiyati haqida to‘liq ta’rifni bera olgan. “Mehrob oldida darveshlar darveshi, shayxlar shayxi Hisomiddin al-Yog‘iy sukut saqlab turardi. Egnida janda qabo, boshida rangi o‘ngib ketgan kalonsuvo. Bunday kiyim-bosh masjidning hashami, ayrim namozxonlarning zarbof to‘nlariga muqoyasan qaralganda judayam bechoraholik alomati bo‘lib tuyulardi. Bundan tashqari, shuncha odamning ana shu bechoraholday ko‘ringan keksa shayxning og‘ziga tikilgancha, ilhaq turishida ham qandaydir ilohiylik mujassam edi. Yetmishlardan oshgan oppoq soqolli shayxning nur yog‘ilib turgan yuzida, o‘tkir qarashlarida, ozg‘in yelkalarini adl tutishida masjidni fayziyob etadigan, namozxonlar safini jipslashtirib-bog‘lab turadigan allanarsalar mavjud edi”.

Shoyim Bo‘tayev o'z hikoyalarida ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish bilan birga, ularni hal etish yo‘llarini ham taklif qiladi. Yozuvchi asarlarida insonparvarlik, mehr-shafqat, o‘zaro hurmat, adolat kabi qadriyatlarni ulug‘laydi. Uning nazarida, jamiyatdagi muammolarni hal etishning asosiy yo‘li - insonlarning ma‘naviy kamolotidir.

"Haykal" hikoyasida yozuvchi avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik, oilaviy qadriyatlarning muhimligini ta’kidlaydi. "Qarz" hikoyasida esa adolat, halollik, qonun ustuvorligi g‘oyalari ilgari suriladi.

Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy muammolar, ularning inson hayotiga ta’siri chuqur tahlil qilingan. Yozuvchining asarlari orqali biz o‘sha davr jamiyatining haqiqiy manzarasini ko'rishimiz, jamiyatdagi muammolar haqida o‘ylashimiz mumkin. Bo‘tayev hikoyalari nafaqat badiiy asar sifatida, balki o‘zbek jamiyati tarixini o‘rganish uchun qimmatli manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Xulosa. Yozuvchi hikoyalarida ko‘tarilgan axloqiy-ma’naviy inqiroz, ijtimoiy adolatsizlik, ekologik muammolar, urush va tinchlik masalalari hozirgi kunimiz uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Bo‘tayev o‘z asarlarida bu muammolarni hal etish yo‘llarini ham taklif qiladi, insonlarni ma’naviy kamolotga, mehr-shafqatga, adolatga chaqiradi. Shoyim Bo‘tayev hikoyalari o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi va kelajak avlodlar uchun ham qimmatli ma’naviy meros bo’lib qoladi. Yozuvchining asarlari orqali biz o‘tmishimizni anglashimiz, hozirgi kunimizni to‘g‘ri baholashimiz va kelajagimizni to‘g‘ri belgilashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Quronov D., Sheraliyeva M., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent, 2013. – B.382.
2. Shoyim Bo‘tayev. Shamol o‘yini. – Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti, 1995. – B.151.
3. Shoyim Bo‘tayev. Ko‘chada qolgan ovoz. – Toshkent, ma’naviyat, 2005. – B.236.
4. Oripova, G. M., & Tolibova, M. T. Q. (2021). Composition Of Modern Uzbek Stories. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 245-249.
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug`bek-hamdam-1968
6. Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida xayol va haqiqat (maqola) 977
7. Dilmurod Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent Navoiy universiteti 2018
8. Ziyouz.com "So‘z" hikoyasi. 2013
9. Ziyouz.com "Ko‘nglimdagi daryo" 2014
10. Ziyouz.com "Bir piyola suv" 2013

Xolmurodova Madina
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ingliz tili funksional leksika kafedrasi dotsenti, (PhD)
E-mail: kholmurodovamadina599@gmail.com
Umarjonova Dilfuzaxon Dilshodjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
“Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili” yo‘nalishi talabasi
E-mail: umarjonovadilfuza8@gmail.com

TALAFFUZDA LAHJALAR TA’SIRIDAGI EMPIRIK KUZATUVLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilini o‘rganuvchilar orasida turli lahjalarning talaffuzga ta’sirini empirik ma’lumotlar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida so‘rovnoma usuli orqali ishtirokchilarning General American, Received Pronunciation va boshqa ingliz lahjalaridagi talaffuzlarni tushunish hamda qayta talaffuz qilish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklari tahlil qilindi. Pie chart va foiz ko‘rsatkichlari yordamida talabalarning talaffuzdan qoniqish darajasi, eng murakkab aksentlar hamda lahjalar bilan ishlashning til egallashdagi o‘ziga bo‘lgan ishonchga ta’siri aniqlashtirildi. Maqola yakunida talaffuzdagi muammolarni kamaytirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar tavsiya etilib, izlanish natijalari til o‘qituvchilari va o‘rganuvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi hamda kelgusidagi fonetik tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajaradi.*

Kalit so‘zlar: *lahja, talaffuz, ingliz tili o‘rganuvchilari, fonetika, talaffuz muammolari, so‘rovnoma, shadowing.*

EMPIRICAL OBSERVATIONS ON THE INFLUENCE OF DIALECTS IN PRONUNCIATION

Abstract*. This article examines the influence of various English dialects on pronunciation among language learners, drawing on empirical data. Within the framework of the study, a questionnaire was used to analyse the difficulties participants face in comprehending and reproducing pronunciations in General American, Received Pronunciation, and other English dialects. Using pie charts and percentage indicators, the research identified learners’ levels of satisfaction with their pronunciation, the most challenging accents, and the extent to which working with dialects affects their self-confidence in language use. The article concludes with recommendations for effective methodological approaches aimed at reducing pronunciation difficulties, providing practical value for both language teachers and learners, and laying the groundwork for further phonetic research.*

Key words: *dialect, pronunciation, English language learners, phonetics, pronunciation issues, survey, shadowing.*

ЭМПИРИЧЕСКИЕ НАБЛЮДЕНИЯ ВЛИЯНИЯ ДИАЛЕКТОВ НА ПРОИЗНОШЕНИЕ

Аннотация*. Данная статья посвящена изучению влияния различных английских диалектов на произношение среди изучающих язык, основанному на эмпирических данных. В рамках исследования с помощью анкетирования были проанализированы трудности, с которыми участники сталкиваются при восприятии и воспроизведении произношений в General American, Received Pronunciation и других английских диалектах. С использованием круговых диаграмм и процентных показателей определены уровень удовлетворённости обучающихся своим произношением, наиболее сложные акценты, а также степень влияния работы с диалектами на уверенность в использовании языка. В заключении статьи предлагаются эффективные методические подходы, направленные на снижение проблем с произношением, что*

имеет практическую ценность для преподавателей и изучающих язык, а также служит основой для дальнейших фонетических исследований.

Ключевые слова: *диалект, произношение, изучающие английский язык, фонетика, проблемы произношения, опрос, шедоуинг (техника повторения за носителем речи).*

Kirish. Ingliz tili bugungi globallashuv davrida xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va ta'limning asosiy vositalaridan biri sifatida dunyo miqyosida keng qo'llanilmoqda. Shu sababli uni samarali o'zlashtirish, nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki to'g'ri talaffuzni ham puxta egallashni talab qiladi. Talaffuz til o'rganishning muhim komponenti hisoblanib, u so'zlovchining nutqdagi tushunarliligiga, tinglab tushunish darajasiga va muloqot samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Grammatik jihatdan to'g'ri gapirgan taqdirda ham, so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi muloqotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Ingliz tilining dunyo bo'ylab tarqalgan ko'plab lahja va aksentlari esa bu jarayonni yanada murakkablashtiradi. General American (GA), Received Pronunciation (RP), Avstraliya ingliz tili va boshqa lahjalardagi fonetik tafovutlar so'zlovchilar uchun qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'rganuvchilar qaysi talaffuz me'yorini asosiy sifatida qabul qilish, turli lahjalardagi fonetik farqlarga qanday moslashish masalasida noaniqliklarga duch kelishadi.

So'nggi yillarda talaffuz masalasi tilshunoslikda ham, amaliy ta'lim jarayonida ham dolzarb mavzuga aylangan. Ko'plab tadqiqotlar (AlSaqqaf & Zhang, 2023; Foote & McDonough, 2017) talaffuzdagi muammolar o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi va muloqot salohiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib bergan. Shu sababli, ingliz tilini o'qitishda lahjalarning talaffuzga ta'sirini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqola ingliz tili o'rganuvchilarning talaffuzdagi muammolarini, turli lahjalarga nisbatan munosabatini va talaffuzning o'z-o'ziga ishonchga ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar va o'rganuvchilar uchun samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot 2025-yil aprel oyida O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti, ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan 1- va 2-kurs talabalari o'rtasida o'tkazildi. Tadqiqot dizayni miqdoriy yondashuvga asoslangan bo'lib, ma'lumotlar so'rovnoma usuli orqali yig'ildi.

So'rovnoma Google Forms platformasi yordamida onlayn shaklda tuzilib, ishtirokchilar bilan oldindan tadqiqot maqsadi va mazmuni haqida ma'lumot almashildi hamda ularning roziligi olindi. Umumiy hisobda 40 nafar talaba tadqiqotda qatnashdi.

So'rovnoma jami 10 ta savoldan iborat bo'lib, unda ochiq va yopiq turdagi savollar kombinatsiyasi qo'llanildi. Savollar talabalarning ingliz tilidagi talaffuzdagi qiyinchiliklari, turli lahjalarga (Received Pronunciation va General American) bo'lgan munosabatlari, shuningdek, ayrim so'zlarning talaffuziga oid fikrlarini o'rganishga qaratildi. Yopiq savollarda oldindan belgilangan javob variantlari taqdim etilib, ishtirokchilarga mos keladiganini tanlash imkoniyati yaratildi.

Olingan ma'lumotlar foizlarda ifodalandi hamda grafik va diagramma (pie chart) ko'rinishida vizuallashtirildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik hisoblash usullari, jumladan foiz hisoblash qo'llanildi. Tadqiqot yakunida to'plangan natijalar asosida ingliz tilidagi talaffuzdagi qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan amaliy yechimlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot materiali: Mazkur tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti, ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan 1- va 2-kurs talabalari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan iboratdir. So'rovnomada jami 40 nafar talaba ishtirok etgan bo'lib, ular turli lahjalardagi talaffuzni tushunish va qayta talaffuz qilish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, talaffuzga bo'lgan munosabat hamda talaffuzning o'ziga bo'lgan ishonchga ta'siri haqida fikr bildirishgan.

So'rovnoma Google Forms platformasida tuzilib, ishtirokchilarga elektron havola orqali taqdim etildi. Savollar tarkibida ochiq va yopiq turdagi 10 ta savol bo'lib, yopiq savollarda qatnashchilarga oldindan belgilangan javob variantlari berildi. Savollar mazmuni Received Pronunciation

(RP) va General American (GA) kabi asosiy ingliz lahjalari bo‘yicha talaffuzdagi farqlarni aniqlash, shuningdek, boshqa lahjalarga (Avstraliya ingliz tili va boshqalar) bo‘lgan munosabatni o‘rganishga qaratildi.

So‘rovnoma natijalari miqdoriy shaklda - foiz ko‘rsatkichlari va grafik tasvirlar (pie chart) yordamida ifodalandi. Ma’lumotlar ingliz tilini o‘rganuvchilar talaffuzida uchraydigan muammolarni tahlil qilish, ularning asosiy manbalarini aniqlash hamda bunday muammolarni yengish uchun metodik yondashuvlar ishlab chiqishda asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Natijalar. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 65% o‘z ingliz tilidagi talaffuzida muammolar borligini bildirgan, faqat 35% talaba o‘z talaffuzlarini qoniqarli deb hisoblagan.

Ishtirokchilarning 47.5% Received Pronunciation (Britaniya ingliz tili) lahjasini talaffuz qilishda eng qiyin deb baholagan. Amerika, Avstraliya va boshqa lahjalar bo‘yicha qiyinchiliklar esa taxminan teng taqsimlangan. Qolgan ishtirokchilarning bir qismi esa barcha lahjalarning talaffuzida qiyinchiliklar borligini ta’kidlagan.

Quyidagi diagrammada talabalar orasida talaffuzdagi qiyinchiliklarning taqsimoti ko‘rsatilgan:



So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirokchilarning katta qismi inglizcha so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, deb hisoblaydi. Xususan, 40 nafar respondentning 82,5% (33 kishi) bu fikrga qo‘shilgan bo‘lsa, 17,5% (7 kishi) talaffuz ularning ishonchiga ta’sir qilmaydi, deb javob berdi.

Ingliz tili o’rganuvchilar orasida turli muammolarga duch kelayotganlarini uchratish odatiy hol. Talaffuzdagi muammolar qay darajada ekanligini aniqlash uchun O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining 40 nafar talabasi o’rtasida kichik so’rovnoma o’tkazib ko’rdim. Talabalarning til borasidagi fikrlari va ular duch kelgan muammolarni turli savollar berish orqali aniqlashga harakat qildim. So‘rovnoma natijalari ko‘rsatdiki, talabalarning 65 % i o‘z talaffuzlarida muammo bor deb hisoblasa, atigi 35 %i talaffuzlarida muammo yo’q, deb baholagan. Shunga o‘xshash natijalar AlSaqqaf va Zhang (2023) tadqiqotida ham qayd etilgan - ular Xitoylik ingliz tili o‘rganuvchilarining katta qismi talaffuz bo‘yicha o‘ziga ishonmasligini aniqlashgan. [1] Tadqiqotchilar bu holat talaffuz bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash (self-concept) pastligi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Bu so’rovnomadan shuni bilib olish mumkinki, til o’rganuvchilarning talaffuzdagi muammolari yetarlicha va bu muammolarni aniqlab, ular uchun kerakli usul va metodlarni aniqlash tilni yanada samarali o’rganish uchun yordam bera oladi.


[1] AlSaqqaf, A., & Zhang, X. (2023). Investigating self-concept in EFL pronunciation among Chinese non-English major learners at a public university in China. *International Journal of English Language and Literature Studies, 12*(2), 1–16. https://doi.org/10.55493/5019.v12i2.4757



Ingliz tilini o‘rganishda talaffuz (pronunciation) muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat so‘zlovchining nutqdagi tushunarliligiga, balki tinglab tushunish darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Grammatik bilim va boy lug‘at zahirasi mavjud bo‘lishiga qaramay, so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi muloqotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, “beach” (plyaj) va “bitch” yoki “sheet” (prostina) va “shit” so‘zlari talaffuzdagi farq sabab butunlay boshqa ma’nolarni anglatadi. Bunday holatlar muloqot jarayonida noqulaylik tug‘dirishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, tovushlarni aniq talaffuz qilish ularni tinglash jarayonida tez va to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi. Shu bois talaffuz ingliz tilini o‘rganishda asosiy komponentlardan biri hisoblanadi va uni til o‘rganish jarayonining dastlabki bosqichlaridanoq shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tilidagi turli lahjalarning mavjudligi talaffuzni o‘rganishda alohida murakkabliklar keltirib chiqaradi. Dunyo bo‘ylab ingliz tilining ko‘plab lahja va aksentlari mavjud bo‘lib, ular so‘zlarning talaffuzida, urg‘u joylashuvida va hatto tovushlarning sifatida sezilarli farqlarga ega. Masalan, Britaniya ingliz tilida uchraydigan /ɒ/ tovushi (lot) Amerika ingliz tilida /ɑː/ tarzida cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Shuningdek, “schedule” so‘zi Britaniya ingliz tilida /ˈʃedjuːl/, Amerika ingliz tilida esa /ˈskedʒuːl/ tarzida aytiladi. Bunday farqlar ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan shaxslar uchun qaysi talaffuz me’yorini tanlash va unga moslashish jarayonini murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, ayrim lahjalarda tovushlarning tushib qolishi yoki o‘zgarishi kuzatiladi. Masalan, Avstraliya ingliz tilida so‘z oxiridagi /r/ tovushi ko‘pincha talaffuz qilinmaydi, bu esa tinglovchining uni to‘g‘ri tushunishini qiyinlashtirishi mumkin. Lahjalardagi bunday tafovutlar nafaqat so‘zlovchi, balki tinglovchi uchun ham qo‘shimcha idrok yukini hosil qiladi, chunki talaffuzdagi o‘ziga xosliklarni oldindan bilish va ularga moslashish talab etiladi. Shu sababli, ingliz tili talaffuzini o‘rganishda nafaqat fonetik me’yorlarni, balki asosiy lahjalar o‘rtasidagi farqlarni ham o‘rganish muhim hisoblanadi. Shu sababli, so‘rovnomamizda talabalardan “Qaysi ingliz lahjasi sizga talaffuzda qiyinchilik tug‘diradi?” degan savol ham berib ko‘rildi. Ishtirokchilarning katta qismi – 47.5%i British English, ya’ni Received Pronunciation (RP)ni eng qiyin lahja deb e’tirof etishgan. Qolgan variantlar - American, Australian va “Barchasi birdek qiyin” javobi teng ovozlar to‘plagan. Bu natija, oldingi tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, RP talaffuzidagi fonetik o‘ziga xosliklar va boshqa ingliz lahjalari bilan fonologik tafovutlar til o‘rganuvchilar uchun sezilarli darajada murakkab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi (Scobbie, Gordeeva, & Strycharczuk, 2012).



Til o‘rganuvchilarning ingliz tili talaffuzida turli lahjalarga duch kelish nutqni shakllantirish va tushunishda dastlab biroz muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi lahjalar o‘rtasidagi farqlar talaffuzni o‘rganishda muammo tug‘dirmasligi uchun bir nechta strategiyalarni qo‘llash mumkin. Avvalo, o‘rganuvchi o‘z maqsadiga mos keladigan asosiy me’yoriy lahjani tanlashi lozim. Masalan, akademik yoki xalqaro kontekstda ko‘pincha Britaniya ingliz tili (Received Pronunciation) yoki Amerika ingliz tili (General American) asos sifatida olinadi. Tanlangan lahjaga izchil amal qilish, talaffuz va urg‘u bo‘yicha barqarorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, tinglab tushunish ko‘nikmasini kengaytirish uchun boshqa lahjalardagi materiallarni - intervyular, filmlar, podkastlar va audiokitoblarni tinglash foydali hisoblanadi. Bu usul turli lahjalarni tanib olish va ularga moslashish qobiliyatini oshiradi.

Bundan tashqari, fonetik farqlarni nazariy jihatdan o‘rganish ham samarali bo‘ladi. Masalan, Amerika ingliz tilidagi /r/ talaffuzi va Britaniya ingliz tilidagi /r/ning tushib qolishi, yoki Avstraliya ingliz tilidagi qisqartirilgan unli tovushlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish, tinglovchi uchun so‘zlarni tezroq tanish imkonini yaratadi. Nutq amaliyotida talaffuzni yaxshilash uchun transkripsiya bilan ishlash, audio takrorlash (shadowing) usuli va o‘z nutqini yozib tahlil qilish samarali strategiyalar sifatida ko‘plab tadqiqotlarda tavsiya etilgan. Masalan, Foote va McDonough (2017) shadowing usulidan foydalangan talabalarda talaffuz aniqligi va tushunarlilik darajasi sezilarli yaxshilanganini aniqlashgan.[1]Shu tarzda, o‘rganuvchi o‘z talaffuzini aniq bir standartga asoslagan holda, boshqa lahjalardagi farqlarni ham osonlikcha tushunishga erishadi. Bu ularning o’zlariga bo’lga ishonchlarini oshishiga ham olib keladi, chunki so’rovnomamizda talabalardan “Ingliz tilidagi so’zlarni to’g’ri talaffuz qilganingizda o’zingizga bo’lgan ishonch ortadimi?” deb savol berilganda ularning katta qismi, ya’ni 82.5%i “Ha, albatta” degan javobni tanlashgan, qolgan 17.5%igina talaffuz ularning o’zlariga bo’lgan ishonchlariga ta’sir o’tkazmasligini e’tirof etishgan.



[1] Foote, J. A., & McDonough, K. (2017). Using shadowing with mobile technology to improve L2 pronunciation. *Journal of Second Language Pronunciation, 3*(1), 34–56. https://doi.org/10.1075/jslp.3.1.02foo

Demak, ingliz tili talaffuzni o'rganish talabalar uchun juda ahamiyatli hamda bu orqali tildan foydalanganda o'zlarini yanada yaxshi his qilishlari mumkin. Bu natija avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi; Saudiyalik EFL o'rganuvchilarining talaffuz bo'yicha o'ziga bo'lgan ishonchi, munosabat va amaliyotlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot [1] o'tkazgan. Ular talaffuz o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, degan ijtimoiy e'tiqod mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, Arsi va boshq. (2025) pre- va post-test dizayni asosida talaffuz mashqlarining og'zaki ishonchni oshirganini statistika orqali isbotlagan[2]. Endi Husna (2021) esa talaffuz va ishonch gapirish salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, iqtisodiy qo'shinlar orqali tahlil qilgan

Xulosa : O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'rganuvchi talabalar talaffuzda sezilarli muammolarga duch kelishadi. So'rovnoma ishtirokchilarining 65 foizi o'z talaffuzini yetarli deb hisoblamagan, bu esa muammoning dolzarbligini ko'rsatadi. Ayniqsa, talabalar orasida Received Pronunciation (Britaniya ingliz tili) eng murakkab lahja sifatida qayd etilgan. Bunday fonetik qiyinchiliklar nafaqat so'zlovchining nutq samaradorligiga, balki uning o'ziga bo'lgan ishonchiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda qatnashgan talabalarining katta qismi to'g'ri talaffuz o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirishini ta'kidlaganlari bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Mazkur natijalar til o'rganuvchilarning talaffuzdagi muammolarini aniqlash va ular uchun samarali metodlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Xususan, shadowing texnikasi, fonetik transkripsiya bilan ishlash, turli lahjalardagi audiovizual materiallardan foydalanish, shuningdek, fonetik tafovutlarni nazariy jihatdan o'rganish talaffuzni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Shunday qilib, ingliz tilida talaffuzni mukammallashtirish til o'rganish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'rganuvchilar nutqining aniq va tushunarli bo'lishini, tinglab tushunish ko'nikmalarining rivojlanishini va eng muhimi, ularda tilni amaliy qo'llashga bo'lgan ishonchning ortishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari til o'qituvchilari uchun metodik jihatdan amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida fonetika sohasida olib boriladigan izlanishlarga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. AlSaqqaf, A., & Zhang, X. (2023). Investigating self-concept in EFL pronunciation among Chinese non-English major learners at a public university in China. International Journal of English Language and Literature Studies, 12(2), 1–16. https://doi.org/10.55493/5019.v12i2.4757 (16p)

2. Scobbie, J. M., Gordeeva, O. B., & Strycharczuk, P. (2012). Consonant lenition and gestural timing in Scottish English /t/ allophones. Journal of the International Phonetic Association, 42(3), 287–322. https://doi.org/10.1017/S0025100312000184 (36p)

3. Foote, J. A., & McDonough, K. (2017). Using shadowing with mobile technology to improve L2 pronunciation. Journal of Second Language Pronunciation, 3(1), 34–56. https://doi.org/10.1075/jslp.3.1.02foo (23p)

4. Almusharraf, A. (2021). Saudi EFL learners' confidence, attitude, and practice in pronunciation: A mixed-methods study. International Journal of Applied Linguistics, 31(1), 69–85. https://doi.org/10.1111/ijal.12408 (17p)

5. Arsi, A. K., Farahdiba, S., & Ariyani, A. (2025). The influence of pronunciation on students' speaking confidence. Journal of English Education and Linguistics, 4(2), 1–15. https://ojs.unm.ac.id/JoEELE/article/view/70932 University of New Mexico Journal System+1 (15p)

6. Husna, Z. F. (2021). The influence of students' pronunciation and self-confidence on their speaking ability (Unpublished bachelor's thesis). UIN Walisongo Semarang. (128p)

[1] Almusharraf, A. (2021). Saudi EFL learners' confidence, attitude, and practice in pronunciation: A mixed-methods study. International Journal of Applied Linguistics, 31(1), 69–85. https://doi.org/10.1111/ijal.12408

[2] Arsi, A. K., Farahdiba, S., & Ariyani, A. (2025). The influence of pronunciation on students' speaking confidence. Journal of English Education and Linguistics, 4(2), 1–15. https://ojs.unm.ac.id/JoEELE/article/view/70932 University of New Mexico Journal System+1

Xamdamova Nilufar Esanovna
Doctoral student, Gulistan state university

SOCIO-CULTURAL APPROACH TO TEACHING ENGLISH TO STUDENTS OF ECONOMIC SPECIALTY

Abstract. *This article examines the significance of cultural awareness in the process of acquiring a foreign language, emphasizing the necessity of understanding the culture of the target language community. It also explores key components of the socio-cultural approach to the development of oral communication skills.*

Key words: *language, religion, social behaviors, value of critical cultural awareness, across cultural barriers.*

СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается значимость культурной осведомлённости в процессе овладения иностранным языком, с акцентом на необходимость понимания культуры носителей целевого языка. Также анализируются ключевые компоненты социокультурного подхода к развитию навыков устной речи.*

Ключевые слова: *язык, религия, социальное поведение, ценность критической культурной осведомлённости, преодоление культурных барьеров.*

IQTISODIY YO‘NALISH TALABALARI UCHUN INGLIZ TILINI O‘QITISHDA IJTIMOIY-MADANIY YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chet tilini o‘rganish jarayonida madaniy xabardorlikning o‘rni va ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Ayniqsa, maqsad tilining jamiyat madaniyatini chuqur tushunish zarurati alohida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida sotsiomadaniy yondashuvning asosiy komponentlari hamda ularning pedagogik ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola madaniy to‘siqlarni yengib o‘tishda tanqidiy madaniy xabardorlikning roli va til o‘rganishda din va ijtimoiy xatti-harakatlarning ta’siri haqida ham so‘z yuritadi.*

Kalit so‘zlar: *til, din, ijtimoiy xatti-harakatlar, tanqidiy madaniy xabardorlik, madaniy to‘siqlar, madaniy to‘siqlar orqali.*

Introduction. Amid the current processes of globalization, the role of foreign language acquisition in the professional education of economics students has become increasingly prominent. Particular emphasis is placed on mastering the language within the framework of intercultural dialogue, as proficiency is now regarded as a critical competency for effective international and cross-cultural communication.

In professional communication across national and cultural boundaries, individuals inevitably engage with diverse cultural traditions and behavioral patterns shaped by distinct mentalities. As such, language cannot be separated from culture; it is embedded within socially transmitted norms, values, and practices that define the lifestyle of a given linguistic community. Language functions as both a product and a symbol of culture, inherently reflecting its underlying structures and meanings.

Given this interdependence, it is pedagogically sound to structure foreign language instruction for philology students within the framework of a socio-cultural approach. A core tenet of this approach involves teaching communicative competence through the lens of intercultural dialogue. This perspective fosters an understanding of one’s own cultural identity as viewed through the lens of

another, facilitating the development of critical cultural distance. Such reflective engagement described as a "micro-dialogue in consciousness" enables learners to reconsider their self-perception, identity, and their intermediary position between native and target cultures.

Moreover, the principle of foreign language instruction through the lens of a dialogue of cultures - central to the socio-cultural approach - entails an ideologically informed orientation that facilitates the reduction of communicative barriers within intercultural contexts. These barriers are understood as challenges that emerge during cross-cultural interaction and hinder communicative effectiveness. Scholars attribute the origin of such barriers to discrepancies in the cognitive frameworks employed by individuals from different cultural backgrounds, including variations in verbal and non-verbal communication systems, as well as in ideologies shaped by specific socio-historical contexts. Accordingly, the socio-cultural approach not only enhances students' linguistic competencies but also fosters their cultural and personal development. It promotes an openness to otherness, encourages the recognition of alternative worldviews and identities, and supports the learner's progression toward a more advanced level of intercultural awareness and self-reflection.

Materials and methods. Intercultural communication serves as a foundational reference point in foreign language learning, facilitating the comprehension of native speakers' behavioral patterns, cultural and historical contexts, and realia, thereby enabling more effective engagement with members of other cultural communities. This process entails not only acquiring knowledge of the customs, traditions, worldviews, and artistic expressions of the target language culture, but also fostering openness to alternative mentalities and readiness for intercultural interaction. Mastery of both verbal and non-verbal communicative codes is essential, as it contributes to overcoming ethnocentrism manifested in the negative evaluation of cultural "others," the reinforcement of stereotypes, and the persistence of cultural prejudices. Through sustained intercultural engagement, learners are introduced to the value systems of foreign cultures and become acquainted with the culturally specific rituals that govern both verbal and non-verbal behavior. Given the differing levels of significance attributed to certain behavioral norms across cultures, such knowledge plays a critical role in enhancing the efficacy of intercultural communication.

Within the framework of the socio-cultural approach to foreign language instruction, language and culture are treated as inseparable components of the learning process. This perspective not only emphasizes the development of communicative competence, but also integrates the study of cultural norms, communicative models, value systems, symbolic representations, and characteristic features of national identity inherent to the target language community. Accordingly, the application of a socio-cultural approach is considered especially appropriate for the selection of instructional materials aimed at training highly qualified specialists in philology and linguistics.

Research discussion. After examining a range of authentic educational resources, we selected the textbook Global (Advanced level) by Lindsay Clandfield and Amanda Jeffries for use in oral and written communication practice with third-year philology students. The materials presented in this course are notably original and contemporary, with topics structured around cultural comparison and engagement with current global realities. The thematic content encourages critical reflection on cross-cultural issues and promotes awareness of pressing topics in the modern world, such as...

- Is Wikipedia part of a new global brain?,
- The world‘s most adventurous museums,
- Solar solutions,
- Dialogue in the dark – an exhibition to discover the unseen‖,
- Childhood toys,
- Heroism and personal qualities,
- Gender differences etc. These topics are devoted to the main problems of modern global society: the growing role of computers and the Internet in people's lives, the development of modern art, the search for alternative energy sources, the problems of people with disabilities, the upbringing and development of children, the formation of a person's personality, relationships between a man and a woman, etc.

- Of particular interest is the thematic structure of the textbook's units, which are organized around conceptual oppositions—such as Fact and Fiction, Light and Dark, Great and Small, Theory and Practice, and Heroes and Villains. This structural approach, in our view, fosters the development of students' critical thinking skills and stimulates active participation in classroom discussions, encouraging learners to articulate and defend their own viewpoints. Additionally, the course includes a dedicated section titled Function Globally, which focuses on the cultivation of both professional and interpersonal communication skills. This includes training in areas such as event organization, participation in discussions, conversational management, telephone communication, and decision-making. The integration of these components supports the development of communicative competence among philology students, equipping them for effective interaction within an intercultural environment.

One of the central observations is that traditional, grammar-focused methods of language instruction often fail to prepare students for real-world economic communication, especially in multicultural environments. In contrast, the socio-cultural approach provides a more holistic framework, encouraging students to engage with authentic economic texts, role-plays, and intercultural discussions, which significantly enhance their communicative competence. The implementation of socio-cultural elements—such as cultural norms, business etiquette, and context-based vocabulary—has shown to improve students' ability to understand and use professional English in practical settings. For instance, students who participated in activities involving simulated international negotiations or analysis of culturally diverse case studies demonstrated a better grasp of how language and culture intersect in economic discourse. Moreover, the development of intercultural competence was identified as a key benefit of the approach. By comparing economic behaviors and communication styles across countries, students not only improved their language skills but also developed critical thinking and adaptability—skills highly valued in global business environments.

However, several challenges were noted. Some students initially struggled with cultural content that was unfamiliar or abstract, particularly when it required them to step outside their own socio-cultural perspectives. This suggests the need for gradual integration of such materials and the use of scaffolding techniques by instructors.

The Global English section of the course features articles by renowned British philologist and linguist David Crystal, whose extensive research on the diversity of English dialects led him to propose the concept of a global standard for spoken English. Following the reading of these texts, students engage in tasks designed to enhance critical thinking and communicative competence. These activities often involve comparing linguistic phenomena in English with those of the learners' native language, which consistently stimulates student interest and fosters motivation for in-depth discussion.

The course also incorporates high-quality, authentic audio materials including speech patterns, active vocabulary usage, mini-dialogues, and video content from the BBC allowing students to hear a wide range of native English speakers. These include experts in philology, university students, everyday speakers, and even non-native speakers learning English as a second language. This diversity of voices provides learners with valuable exposure to different speech models and accents.

Overall, the Global course is structured to integrate linguistic and cultural content in a cohesive manner, with the explicit aim of familiarizing students with the mentality and worldview of the target language community. In doing so, it effectively supports the development of students' intercultural communicative competence.

Conclusion. In conclusion, the integration of a socio-cultural approach in foreign language instruction for economy students proves to be an effective strategy for developing both linguistic proficiency and intercultural communicative competence. By treating language and culture as interdependent, this approach enables learners to engage critically with cultural values, communication norms, and worldviews different from their own. The use of the Global coursebook by Lindsay Clandfield and Amanda Jeffries illustrates the practical application of this method. Its thematically rich content, authentic materials and emphasis on intercultural dialogue stimulate students' interest, promote critical thinking, and enhance their readiness for real-life communication in multicultural

contexts. Thus, the socio-cultural approach not only supports the formation of highly qualified language professionals but also prepares them for meaningful participation in global communication.

List of references.

1. Esanovna H. N. Sociocultural Competence is the Goal of Using a Sociocultural Approach to Teaching a Foreign Language //Scientific Approach to the Modern Education System. – 2024. – т. 3. – №. 25. – с. 358-360.
2. Xamdamova N. E. Some views on Sociocultural Theories in Language Acquisition //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 92-94.
3. Hamdamov E. E. The Content of the Language Professional-gnostic Training of an English teacher //Bulletin of Gulistan State University. – 2021. – Т. 2021. – №. 2. – С. 35-41.
4. Hamdamov E. E. Technology Forming the Gnostic Competence of Future Teachers of Foreign Language //Bulletin of Gulistan State University. – 2021. – Т. 2021. – №. 1. – С. 50-55.
5. Ergashevich, H. E. . (2022). Bo‘Lajak Ingliz Tili O‘Qituvchisining Kasbiy-Gnostik Kompetensiyasi Va Uning Didaktik Ahamiyati. *Miasto Przyszłości*, *25*, 302–304. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/378
6. Ergashevich, K. E. (2024). Effective Strategies for Enhancing the Professional-Gnostic Competency of Aspiring Foreign Language Teachers. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(5), 170-174.

Halimova Dilnoza Farhod qizi
Buxoro xalqaro universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti
E-mail: halimovadilnoza03@gmail.com

LEV TOLSTOY IJODIDA AVTOBIOGRAFIK IZLAR VA ULARNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Lev Tolstoy ijodida uchraydigan avtobiografik izlar va ularning badiiy talqini tahlil qilinadi. Adibning shaxsiy hayotiy tajribalari, oilaviy muhit, jamiyatdagi o‘rni va falsafiy qarashlari uning roman, qissa va hikoyalarida qanchalik aks etgani ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik” kabi avtobiografik asarlar hamda “Urush va tinchlik”, “Anna Karenina”, “Ijon Kraytser sonatasi” singari yirik roman va qissalarda yozuvchining hayoti bilan bog‘liq ruhiy kechinmalarini tahlil qilishga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, avtobiografik unsurlar badiiy obrazlar orqali qanday ifodalanganligi, ularning mazmuniy va estetik ahamiyati yoritiladi. Maqola natijalari adabiyotshunoslikda avtobiografizmni o‘rganishning nazariy-amaliy jihatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Lev Tolstoy, avtobiografiya, avtobiografizm, badiiy talqin, rus adabiyoti, shaxsiy tajriba, roman, qissa, hikoya, obraz, hayotiy izlar, adabiyotshunoslik, estetik qarashlar, falsafiy g‘oya, memuaristika.*

AUTOBIOGRAPHICAL TRACES IN LEV TOLSTOY'S WORKS AND THEIR ARTISTIC INTERPRETATION

Annotation. *This article analyzes the autobiographical traces in the works of Lev Tolstoy and their artistic interpretation. The writer’s personal life experiences, family environment, social position, and philosophical views are examined in relation to how they are reflected in his novels, stories, and novellas. Special attention is given to the autobiographical works such as Childhood, Boyhood, Youth, as well as major novels and novellas including War and Peace, Anna Karenina, and The Kreutzer Sonata, where the author’s personal spiritual experiences are expressed. The study highlights how autobiographical elements are embodied through artistic images and discusses their semantic and aesthetic significance. The results of the research contribute to expanding the theoretical and practical aspects of studying autobiographism in literary criticism.*

Key words: *Lev Tolstoy, autobiography, autobiographism, artistic interpretation, Russian literature, personal experience, novel, novella, short story, character, life traces, literary criticism, aesthetic views, philosophical idea, memoir studies.*

АВТОБИОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ЛЬВА ТОЛСТОГО И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются автобиографические следы в произведениях Льва Толстого и их художественная интерпретация. Личные жизненные впечатления писателя, семейная среда, социальное положение и философские взгляды рассматриваются в связи с тем, как они отражены в его романах, повестях и рассказах. Особое внимание уделено автобиографическим произведениям, таким как Детство, Отрочество, Юность, а также крупным романам и повестям — Война и мир, Анна Каренина, Крейцерова соната, где выражены личные духовные переживания автора. В исследовании показано, каким образом автобиографические элементы воплощаются через художественные образы, и раскрыто их смысловое и эстетическое значение. Результаты работы способствуют расширению теоретико-практических аспектов изучения автобиографизма в литературоведении.*

Ключевые слова. *Лев Толстой, автобиография, автобиографизм, художественная интерпретация, русская литература, личный опыт, роман, повесть, рассказ, образ, жизненные следы, литературоведение, эстетические взгляды, философская идея, мемуаристика.*

Kirish. Lev Tolstoy ijodi jahon adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida insoniyat taqdiri, hayotning murakkab falsafiy savollari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar badiiy jihatdan yuksak darajada talqin qilingan. Tolstoy shaxsini, uning adabiy merosini o‘rganishda adib hayoti bilan ijodi chambarchas bog‘liq ekanini e’tiborga olish muhimdir. Chunki u yozgan asarlarining ko‘pchiligida o‘zining shaxsiy hayotiy tajribasi, ruhiy kechinmalari va dunyoqarashi sezilib turadi. Adabiyotshunoslikda bu jarayon “avtobiografizm” tushunchasi bilan ifodalanadi. Avtobiografizm yozuvchining o‘z hayotidan olingan voqealar, hissiyotlar va kuzatuvlarni badiiy shaklda ifodalash jarayonidir. Bu hodisa asarda yozuvchi hayotiga oid real faktlar va ular asosida yaratilgan obrazlar uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Shubhasiz, Tolstoy ijodi avtobiografik izlardan yiroq emas, balki ko‘plab asarlarida yozuvchining hayot yo‘li, ma’naviy kechinmalari va dunyoqarashi o‘z aksini topgan.

Tolstoy hayoti ziddiyatli, shu bilan birga sermazmun bo‘lgan. Uning yoshlik yillari, ijtimoiy mavqei, oilaviy muammolari, diniy-falsafiy izlanishlari bevosita uning badiiy ijodiga ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, “Bolalik”, “O‘smirlik” va “Yoshlik” trilogiyasi yozuvchining bevosita o‘z hayotidan olingan kuzatish va xotiralari asosida yaratilgan bo‘lib, ularda Tolstoy o‘z o‘tmishini qayta kashf etadi. Bu asarlarda avtobiografik faktlar nafaqat adib hayotining ma’lum bir davrini aks ettiradi, balki uning insoniylik, tarbiya, ma’naviy kamolot haqidagi qarashlarini ham ifodalaydi. Demak, yozuvchi o‘z shaxsiy kechinmalari orqali butun bir avlodning ruhiy olamiga xos belgilarni badiiy shaklda namoyon etadi.

Tolstoyning yirik asarlari, jumladan “Urush va tinchlik” romani ham avtobiografik jihatlardan xoli emas. Romandagi ko‘plab obrazlar yozuvchining shaxsiy tajribasi va kuzatuvlari asosida yaratilgan. Napoleon urushlarining aks ettirilishi, aristokratik jamiyatdagi munosabatlar, insonning axloqiy va ma’naviy tanlovi kabi masalalarda Tolstoyning o‘z hayoti, oilaviy muhitidan olgan taassurotlari seziladi. Shuningdek, “Anna Karenina” romanida tasvirlangan oilaviy muammolar, axloqiy ziddiyatlar va insoniy his-tuyg‘ular yozuvchining hayotiy tajribasi bilan bevosita bog‘liqdir. Tolstoy oilaviy hayotida ham ko‘plab iztiroblar va muammolarga duch kelgan, bu esa asarlarda o‘z aksini topgan.

Tolstoy ijodida avtobiografizmning o‘ziga xos ko‘rinishlari uning falsafiy qahramonlarida ham namoyon bo‘ladi. “Ijon Kraytser sonatasi” yoki “Xaj Murat” singari asarlarda yozuvchi shaxsiy qarashlarini obrazlar tilidan ifodalaydi. Ayniqsa, diniy-falsafiy asarlarida adibning shaxsiy ruhiy izlanishlari, inson va Xudo, hayot va o‘lim haqidagi qarashlari bevosita ko‘rinadi. Bu esa Tolstoy ijodida avtobiografik izlarning faqatgina voqelikni qayta yaratish emas, balki yozuvchining o‘z shaxsiy falsafiy qarashlarini badiiy shaklda ifodalash vositasi ekanini ko‘rsatadi.

Avtobiografizm Tolstoy ijodida ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchisi, bevosita hayotiy faktlarning badiiy talqini, ikkinchisi esa yozuvchining ichki kechinmalari va falsafiy qarashlarining badiiy obrazlarda mujassam etilishi. Bu jihat Tolstoyni jahon adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan. Adabiyotshunoslikda avtobiografik asarlar yozuvchining shaxsiy hayotini o‘rganish vositasi sifatida ham ahamiyatlidir, biroq ular oddiy xotira kitobi emas, balki badiiy obrazlar va voqealar orqali keng ijtimoiy, ma’naviy va falsafiy masalalarni ko‘taradi. Shu ma’noda, Tolstoy asarlaridagi avtobiografik izlarni o‘rganish nafaqat adib shaxsini, balki butun davr ruhiyatini anglash imkonini beradi.

Tolstoy ijodi nafaqat Rossiya, balki butun dunyo adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uning asarlarida hayot va insoniyat taqdirining teran talqini, axloqiy masalalarga chuqur yondashuvi zamonaviy adabiy jarayonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ayniqsa, avtobiografik izlar adabiyotshunoslik uchun adib ijodiy uslubini, dunyoqarashini, badiiy qarashlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun Tolstoy asarlarida avtobiografizmni o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbdir. U orqali adibning ijodiy laboratoriyasini, uning hayotiy tajribalarini badiiy

shaklga aylantirish jarayonini, shuningdek, asarlaridagi g‘oyaviy va estetik yondashuvlarni o‘rganish mumkin.

Shunday qilib, Lev Tolstoy ijodida avtobiografik izlar muhim o‘rin tutadi. Bu izlar uning asarlarida voqealar, qahramonlar, ruhiy kechinmalar, oilaviy muammolar va falsafiy izlanishlar orqali namoyon bo‘ladi. Maqolada ushbu jihatlarning tahlil qilinishi adib ijodini yanada to‘liq anglashga, shuningdek, adabiyotshunoslikda avtobiografizm hodisasini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Bu esa Tolstoyning buyuk yozuvchi sifatida shaxsiy hayoti va ijodi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatib beruvchi muhim ilmiy izlanishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Lev Tolstoy ijodida avtobiografik izlar va ularning badiiy talqini masalasini tadqiq etishda avvalo adabiyotshunoslikdagi mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu masala nafaqat rus adabiyoti bo‘yicha, balki umumiy adabiy jarayonlarda yozuvchi shaxsining badiiy matnga ta’siri, avtobiografizmning nazariy asoslari va metodlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ilmiy adabiyotlarda bir qator nazariy qarashlar mavjud bo‘lib, ular Tolstoy asarlaridagi avtobiografik izlarni tahlil qilishda mustahkam asos vazifasini o‘taydi[1]. Avvalo, avtobiografizm tushunchasi haqida fransuz olimi F. Lejenning “avtobiografik shartnoma” haqidagi g‘oyalari e’tiborga loyiqdir. Unga ko‘ra, avtobiografik matn yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasida ma’lum darajada kelishuvga asoslanadi, ya’ni o‘quvchi asarda tasvirlangan voqealarni muallif hayotiga oid deb qabul qiladi. Bu nazariy yondashuv Tolstoyning “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik” kabi asarlarida yaqqol ko‘rinadi, chunki o‘quvchi voqealarning ko‘pini bevosita adib hayotiga oid faktlar deb qabul qilishi tabiiydir[2].

Rus adabiyotshunosligida avtobiografizm masalasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, M. Baxtinning polifoniya nazariyasi Tolstoy ijodini o‘rganishda muhim manba bo‘la oladi. Baxtin asosan Dostoyevskiy ijodi haqida yozgan bo‘lsa-da, uning qahramon ovozlari, muallifning matndagi pozitsiyasi haqidagi qarashlarini Tolstoy asarlariga ham tatbiq etish mumkin. Tolstoy o‘z asarlarida o‘zining hayotiy qarashlarini qahramonlar tilidan ifodalagan, bu esa muallif ovozi bilan qahramon ovozining uyg‘unligini ta’minlagan[3]. Shuningdek, V. Vinogradovning stilistik tahlillari, muallif nutqi va obraz nutqi o‘rtasidagi munosabat haqidagi qarashlari ham Tolstoy matnlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki avtobiografik izlar faqat syujet yoki faktlarda emas, balki uslubiy qatlamda ham namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham avtobiografizm masalalari muayyan darajada o‘rganilgan. Masalan, G‘afur G‘ulomning avtobiografik elementlarga boy asarlari haqida tadqiqotlar mavjud. Bu tajribani Tolstoy ijodi bilan qiyoslash, avtobiografizmning universal hodisa ekanini ko‘rsatadi. Olimlar avtobiografizmni nafaqat shaxsiy hayot faktlarini asarga kiritish, balki ularni badiiy jihatdan qayta ishlash jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu ma’noda, Tolstoy asarlarida hayotiy faktlarning qay darajada badiiy talqin qilinganini aniqlash uchun qiyosiy metodlardan foydalanish lozim.

Metodologik jihatdan Tolstoy asarlaridagi avtobiografik izlarni tahlil qilishda tarixiy-biografik metod, komparativ metod va psixologik tahlil muhim o‘rin tutadi. Tarixiy-biografik metod orqali yozuvchining hayoti va ijodi o‘rtasidagi aloqadorlik ochib beriladi. Masalan, Tolstoyning Kazan universitetidagi yillari, harbiy xizmatdagi tajribalari uning qissa va hikoyalarida o‘z aksini topganini aniqlash mumkin. Komparativ metod esa adib asarlaridagi avtobiografik izlarni boshqa yozuvchilarning asarlari bilan qiyoslab o‘rganishga imkon beradi. Masalan, Tolstoy ijodidagi avtobiografizmni Dostoyevskiy yoki Turgenev asarlaridagi avtobiografik elementlar bilan solishtirish, rus realizmida umumiy tendensiyalarni ko‘rsatadi. Psixologik tahlil esa Tolstoy qahramonlari orqali muallifning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini anglashga yordam beradi[4].

Zamonaviy adabiyotshunoslikda avtobiografizmni o‘rganishda intertekstual yondashuv ham qo‘llanilmoqda. Kristeva tomonidan ilgari surilgan intertekstual nazariya har bir matn boshqa matnlar bilan muloqotda bo‘lishini ta’kidlaydi. Tolstoy asarlarida esa muallifning xotiralari, kundaliklari, maktublari bilan bog‘liq intertekstual aloqalarni aniqlash mumkin. Masalan, uning shaxsiy kundaliklarida yozilgan fikrlar ko‘plab badiiy asarlarida qayta ishlangan holda namoyon bo‘ladi. Bu esa avtobiografik izlarning faqat fakt sifatida emas, balki muallifning ijodiy laboratoriyasi mahsuli sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda Tolstoyning avtobiografik asarlari ko‘pincha “inson tarbiyasi”, “axloqiy poklanish”, “ruhiy kamolot” mavzulari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Masalan, A. B. Kogan va N. N. Skatovlarning tadqiqotlarida Tolstoyning pedagogik qarashlari va hayotiy tajribasi asarlari bilan uyg‘un holda ko‘riladi. Tolstoy o‘z asarlarida shaxsiy tajribalaridan kelib chiqib, axloqiy va pedagogik masalalarni umumlashgan badiiy shaklda ifodalagan. Bu holat avtobiografizmning nazariy jihatdan o‘ziga xosligini yanada ochib beradi[6].

Metodlar ichida kontent-tahlil ham alohida ahamiyatga ega. Chunki u orqali Tolstoy asarlarida shaxsiy hayotiy faktlar va ularning qay darajada ko‘p uchraydiganini statistik jihatdan ham aniqlash mumkin. Misol uchun, “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik” trilogiyasida oila, tarbiya, maktab, jamiyat kabi mavzular qay darajada ko‘p tilga olingani, “Anna Karenina” romanida oilaviy muammolarning badiiy talqini qanday aks etgani tahlil qilinadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Tolstoy ijodidagi avtobiografik izlarni o‘rganishda bir nechta yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Tarixiy-biografik, psixologik, komparativ va intertekstual metodlarning uyg‘unligi bu masalani chuqurroq yoritish imkonini beradi. Olimlar qarashlari shuni tasdiqlaydiki, Tolstoy ijodida avtobiografizm oddiy xotira emas, balki muallif shaxsiy tajribalarini badiiy-falsafiy darajaga ko‘tarish vositasi hisoblanadi[5].

Natijalar va muhokama. Lev Tolstoy ijodida avtobiografik izlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi asarlarida shaxsiy hayotiy tajribasi, oilaviy muammolari, ruhiy kechinmalari va jamiyat haqidagi qarashlari turli darajalarda badiiy shaklga ko‘chirilgan. Tadqiqot davomida aniqlangan faktlar, adabiy misollar va olimlarning qarashlari shuni tasdiqlaydiki, avtobiografizm Tolstoy ijodida keng ko‘lamda namoyon bo‘ladi. Muhokama jarayonida asarlar tahlili, ularning mazmuniy qatlamlari va yozuvchining shaxsiy hayotiga bog‘liqligi quyidagi yo‘nalishlarda yoritiladi.

Avvalo, avtobiografik unsurlar yozuvchining dastlabki asarlarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik” trilogiyasida Tolstoyning o‘z hayoti, tarbiyaviy muhit va maktabdagi tajribalari badiiy shaklda ifodalangan. Bu asarlarda oila, tarbiya va ma’naviy kamolot masalalari muallifning shaxsiy kechinmalaridan oziqlanadi. Shuningdek, “Kavkaz qissalari”da Tolstoyning harbiy xizmatdagi voqealari, “Sevastopol hikoyalari”da esa Qrim urushidagi bevosita guvohliklari namoyon bo‘ladi. Demak, adib o‘z hayotida ko‘rgan-kechirganlarini asarlarda realistik tarzda qayta yaratgan.

Ikkinchidan, yirik romanlarda avtobiografizm yanada murakkab shaklda ifodalangan. “Urush va tinchlik” romanida Tolstoy oilaviy muhit, jamiyatdagi aristokratik an’analar va tarixiy voqealarni o‘z kuzatuvlaridan kelib chiqib tasvirlaydi. Pierre Bezuxov obrazida yozuvchining falsafiy izlanishlari, axloqiy iztiroblari mujassam bo‘lsa, Andrey Bolkonskiy obrazida shaxsiy orzu va armonlari ifodalanadi. “Anna Karenina” romanida esa oilaviy ziddiyatlar, muhabbat va sadoqat masalalari Tolstoyning shaxsiy hayotiy muammolari bilan bog‘liq holda badiiy talqin qilingan.

Uchinchidan, kechki asarlarda avtobiografizm ko‘proq falsafiy va axloqiy qarashlar bilan uyg‘unlashgan. “Ijon Kraytser sonatasi”da muallif o‘zining oilaviy hayotidagi iztiroblarni, axloqiy tanqidlarni qahramon tilidan ifodalaydi. “Xaj Murat”da esa adib o‘zining hayotiy kuzatuvlarini, adolat va zulm haqidagi qarashlarini badiiy shaklda tasvirlaydi. Bu bosqichda avtobiografizm muallifning shaxsiy falsafiy tajribasi bilan uyg‘unlashib, umumiy insoniy qadriyatlarni ilgari suradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Tolstoy ijodida avtobiografik izlar nafaqat fakt darajasida, balki estetik va falsafiy darajada ham mavjuddir. Yozuvchi shaxsiy hayotidagi iztiroblarini umumiy axloqiy masalalarga bog‘lab, butun insoniyat uchun muhim bo‘lgan savollarni qo‘yadi. Shu bois uning asarlarida avtobiografizm oddiy shaxsiy xotira emas, balki badiiy-falsafiy yondashuvning bir shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda Tolstoyning ayrim asarlarida avtobiografik unsurlar qanday ko‘rinishda aks etgani umumlashtirib beriladi:

Asar nomi	Avtobiografik izlar	Badiiy talqin yo‘nalishi
“Bolalik”	Yozuvchining o‘z o‘smirlik davri	Tarbiya, ma’naviy kamolot, oilaviy muhit

“O‘smirlik”, “Yoshlik”	Maktab, jamiyatdagi ilk tajribalar	Shaxsiy izlanish, dunyoqarash shakllanishi
“Sevastopol hikoyalari”	Qrim urushida guvohlik qilgan voqealar	Vatanparvarlik, urushning fojiali manzaralari
“Urush va tinchlik”	Oilaviy hayot, tarixiy kuzatuvlar	Falsafiy izlanishlar, axloqiy tanlovlar
“Anna Karenina”	Oilaviy muammolar, jamiyatdagi ziddiyatlar	Muhabbat, sadoqat, axloqiy inqiroz
“Ijon Kraytser sonatasi”	Shaxsiy oilaviy iztiroblar	Axloqiy tanqid, insoniy munosabatlar
“Xaj Murat”	Kavkazdagi kuzatuvlar, tarixiy voqealar	Adolat va zulm masalalari

Muhokama davomida shuni aytish mumkinki, Tolstoy asarlaridagi avtobiografizm faqat yozuvchi hayotining voqealarini qayta tiklash emas, balki ularni badiiy-falsafiy darajada umumlashtirishdir. Shu orqali u o‘z davrining ijtimoiy, axloqiy va falsafiy muammolarini kengroq miqyosda ko‘taradi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslikda avtobiografizmning nazariy asoslarini yanada boyitadi va Tolstoy ijodini yangi qirralardan anglash imkonini beradi.

Xulosa. Lev Tolstoy ijodida avtobiografik izlar alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z hayotiy tajribalari, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy kuzatuvlarini badiiy shaklda ifodalab, asarlariga chuqur insoniylik va realizm ruhini singdira olgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uning “Bolalik”, “O‘smirlik”, “Yoshlik” trilogiyasi bevosita avtobiografik xarakterga ega bo‘lib, yozuvchining tarbiyaviy va ma’naviy shakllanish jarayonlarini ochib beradi. Yirik romanlarda esa avtobiografizm murakkabroq darajada namoyon bo‘lib, shaxsiy tajribalar umumiy falsafiy va axloqiy muammolar bilan uyg‘unlashadi.

Tolstoy ijodidagi avtobiografik izlar faqat xotira yoki hayotiy faktlarning ifodasi emas, balki yozuvchining ichki dunyosini, axloqiy qarashlarini va jamiyat haqidagi fikrlarini yuksak badiiy obrazlar orqali ifodalash vositasidir. Bu jihatdan avtobiografizm Tolstoy asarlarining mazmuniy boyligini, ularning universalligini ta’minlaydi. Demak, Tolstoy ijodida avtobiografik elementlarni o‘rganish nafaqat adib shaxsini chuqurroq anglashga, balki uning asarlari orqali insoniyat uchun muhim bo‘lgan axloqiy va falsafiy masalalarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Толстой Л. Н. Детство. Отрочество. Юность. – Москва: Художественная литература, 1985.
2. Толстой Л. Н. Война и мир. – Москва: Наука, 1989.
3. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Современник, 1979.
4. Karimov N. Rus adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
5. Jo‘rayev O. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Rahmonov A. Adabiyotshunoslik va tahlil metodlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.

Xujamqulova Iroda Faxriddinovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchi

BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar adabiyotini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar va metodlarning samaradorligi tahlil qilingan. Maqsad – adabiy-estetik tarbiyani kuchaytirishga xizmat qiluvchi interfaol va innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini o'rganishdir. Vazifa sifatida dars jarayonida ishlatilayotgan metodlar tahlili, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash, pedagogik faoliyatga tatbiq qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi. Tadqiqotda kuzatish, eksperiment, tahlil va solishtirish kabi usullardan foydalanilgan. Olingan natijalarga ko'ra, interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, rolga kirish) bolalarda adabiy matnni chuqur anglash, estetik baholash, mustaqil fikrlash va mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'layotgani aniqlandi. Muhokama jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda metodlar tanlash zarurligi asoslab berildi. Xulosa sifatida esa, bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy metodlar o'quv jarayonini jonlantirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.*

Kalit so'zlar: *bolalar adabiyoti, zamonaviy ta'lim, o'qitish metodlari, interfaol yondashuv, pedagogik texnologiyalar, adabiy tahlil, ijodiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, o'quvchilarning estetik tarbiyasi, innovatsion metodlar*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В данной статье проанализирована эффективность современных подходов и методов обучения детской литературе. Цель исследования – изучить возможности внедрения интерактивных и инновационных методов, способствующих развитию литературно-эстетического воспитания. В качестве задач определены анализ применяемых на практике методов, выявление их достоинств и недостатков, разработка методических рекомендаций. В исследовании использованы методы наблюдения, эксперимента, анализа и сравнения. Результаты показали, что интерактивные методы (кластер, мозговой штурм, ролевая игра) эффективно способствуют глубокому восприятию художественного текста, развитию критического мышления и эстетической оценки у учащихся. В разделе обсуждения обоснована необходимость выбора методов с учетом возрастных и психологических особенностей детей. В заключении подчеркивается, что современные подходы к обучению детской литературе активизируют учебный процесс и повышают его эффективность.*

Ключевые слова: *детская литература, современное образование, методы обучения, интерактивный подход, педагогические технологии, литературный анализ, творческое мышление, эффективность обучения, эстетическое воспитание, инновационные методы*

MODERN MECHANISMS OF TEACHING CHILDREN'S LITERATURE

Abstract. *This article analyzes the effectiveness of modern approaches and methods in teaching children's literature. The aim is to explore the potential of implementing interactive and innovative methods that enhance literary and aesthetic development. The main objectives include analyzing current teaching techniques, identifying their strengths and weaknesses, and providing methodological recommendations for educators. The study utilized observation, experiment, analysis, and comparison methods. Results revealed that interactive strategies such as clustering, brainstorming, and role-play significantly contribute to students' deep comprehension of literary texts, development of critical thinking, and aesthetic evaluation. The discussion highlights the importance of selecting methods that align with students' age and psychological characteristics. The conclusion emphasizes that modern teaching methods energize the learning process and increase its overall effectiveness in teaching children's literature.*

Key words: *children's literature, modern education, teaching methods, interactive approach, pedagogical technologies, literary analysis, creative thinking, educational effectiveness, aesthetic upbringing, innovative methods*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida yangilanishlar va islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini, estetik didini va badiiy tafakkurini rivojlantirishda bolalar adabiyotini o‘qitish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – eng ustuvor vazifalarimizdan biridir” (Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, 2021). Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Adabiy ta’limda faqatgina matn o‘qish bilan cheklanib qolmasdan, balki uni tahlil qilish, undagi g‘oyaviy-estetik jihatlarni tushunish, mustaqil fikrlashga undovchi metodlarni qo‘llash muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda maktab ta’limida qo‘llanilayotgan an’anaviy yondashuvlar ko‘p hollarda o‘quvchining estetik didini shakllantirishda yetarli emas. Shu sababli, innovatsion va interfaol metodlarning o‘rni, ularning natijadorligi, o‘qitish samaradorligiga ta’siri ilmiy tahlil etilishi lozim.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy mexanizmlarni aniqlash, ularning afzalliklarini aniqlab, ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Vazifalar esa quyidagilardan iborat:

– bolalar adabiyotini o‘qitishda qo‘llanilayotgan metodlarni tahlil qilish;

– zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini empirik jihatdan asoslash;

– adabiy-estetik tarbiyani kuchaytirish bo‘yicha pedagogik takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolalar adabiyotini o‘qitish masalasi filologiya, pedagogika va psixologiya fanlari chorrahasida shakllangan muhim ilmiy sohaga aylangan. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar bolalar adabiyotining did tarbiyasidagi o‘rni, yosh psixologiyasiga mos o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalarning ta’siri kabi masalalarni yoritib kelmoqda.

M. Qodirova (2020) o‘z tadqiqotida bolalar adabiyotidagi obrazlar orqali o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. A. Jo‘raev (2019) esa bolalar matnlarini o‘rgatishda innovatsion yondashuvlar samaradorligini eksperimental tahlil asosida asoslab bergan. Bu bilan u interfaol metodlarning ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sirini ochib bergan.

Zamonaviy ilmiy maqolalarda, jumladan, “Ta’limda raqamli transformatsiya” (2022) nomli maqolada bolalar adabiyotini o‘qitishda raqamli platformalar, elektron darsliklar va media vositalar orqali adabiy savodxonlikni oshirish imkoniyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlarda (Masalan: J. S. Bruner, 2006; L. Vygotsky, 1978) o‘quvchilarda adabiy tasavvurni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy kontekstning o‘rni muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, bolalar adabiyotini o‘qitish bo‘yicha yondashuvlar asosan uch yo‘nalishda rivojlanayotganini ko‘rish mumkin: 1) an’anaviy metodlar asosidagi yondashuv; 2) interfaol va innovatsion texnologiyalar asosidagi metodlar; 3) raqamli resurslar va multimedia platformalardan foydalanishga asoslangan yondashuv. Ushbu tahlil natijasida mavjud ilmiy nuqtai nazarlarni jamlash, ular orasidagi muvofiqlik va tafovutlarni aniqlash, shuningdek, yangi izlanishlar uchun poydevor yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bolalar adabiyotini o‘qitishdagi zamonaviy mexanizmlarni aniqlash va ularning amaliy samaradorligini o‘rganish asosiy maqsad etib belgilangan. Tadqiqot induktiv yondashuv asosida olib borildi, ya’ni avval mavjud holat kuzatildi, so‘ngra xulosalar va tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot dizayni sifatida aralash metodologiya tanlandi, ya’ni sifat va miqdoriy usullar integratsiyalashgan holda qo‘llandi. Bu yondashuv bolalar adabiyotini o‘qitishda qo‘llanilayotgan metodlar bo‘yicha aniq tasavvurga ega bo‘lish hamda ularning samaradorligini isbotlash imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy strategiyasi sifatida kuzatuv, so‘rovnoma (survey) va keys-stadi (case study) metodlaridan foydalanildi:

Kuzatuv metodi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiyot darslaridagi faol ishtiroki, matnga munosabati va ijodiy yondashuvi tahlil qilindi.

So‘rovnoma usuli bilan 20 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va 60 nafar o‘quvchidan fikrlar olindi. So‘rovnomada zamonaviy metodlar, multimedia vositalari va interfaol topshiriqlarning samaradorligi haqidagi savollar jamlangan.

Keys-stadi usuli esa bitta umumta’lim maktabida bolalar adabiyotiga oid darslarda yangi texnologiyalarning (multimedia materiallar, animatsiyalar, video darslar) joriy etilishi misolida chuqur o‘rganishni ta’minladi.

Tadqiqotda birlamchi ma’lumotlar (o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan bevosita ishlash orqali olingan kuzatuvlar va so‘rovnomalar natijalari) va ikkilamchi ma’lumotlar (ilmiy maqolalar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, o‘quv dasturlari)dan foydalanildi. Ob’ekt sifatida Termiz shahri va uning atrofidagi uchta umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari tanlandi. Tanlov maqsadli tanlash (purposive sampling) usulida amalga oshirildi, ya’ni mavzu bo‘yicha tegishli tajribaga ega bo‘lgan shaxslar ishtirok etdi.

Tadqiqot etikasi doirasida barcha ishtirokchilarning roziligi olindi, shaxsiy ma’lumotlar anonim saqlandi va faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. O‘quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik prinsipiga qat’iy rioya qilindi. Mazkur metodologik yondashuv asosida to‘plangan ma’lumotlar ishonchli (reliable) va aniq (valid) bo‘lishi, ular asosida ilgari surilayotgan xulosalar va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil, natijalar va mulohaza. Olib borilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining 85 foizi bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy uslublar – multimediya, animatsion videolar, interaktiv o‘yinlar va raqamli darsliklar – darsni jonlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilayotganini qayd etdilar. So‘rovnomada qatnashgan 20 nafar o‘qituvchining 17 nafari o‘z amaliyotida raqamli dars vositalarini doimiy qo‘llayotganini bildirdi. 60 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, vizual va eshitish orqali taqdim etilgan bolalar adabiyoti matnlari ular uchun tezroq tushunarli bo‘lgan, matn mazmunini eslab qolish darajasi 70% dan ortiq bo‘lgan. An’anaviy usulda o‘tilgan darslar bilan solishtirganda, zamonaviy vositalar yordamida o‘tilgan darslarda bolalar faol ishtiroki va matnga bo‘lgan qiziqishi 60% ga oshgani kuzatildi.

Keys-stadi tahlilida esa raqamli vositalar bilan tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning o‘z fikrini mustaqil bayon qilish, obrazli tafakkur va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari an’anaviy darslarga qaraganda yuqori bo‘lgani aniqlangan. Misol uchun, ertak asosida topshiriq bajargan o‘quvchilarning 65% dan ortig‘i yangi yakunlar, mustaqil ssenariy yoki obraz yaratishga harakat qilgan.

Muhokama davomida aniqlanishicha, bolalar adabiyotini zamonaviy texnologiyalar orqali o‘qitish nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning til, tasavvur, estetik idrok, muloqot va axloqiy sifatlarini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Tahlil natijalari bolalar adabiyotining zamonaviy o‘qitish mexanizmlari orqali samarali o‘zlashtirilishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilgani, matn mazmunini tezroq anglashga yordam bergani isbotlandi. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan individual yondashuv va interaktiv topshiriqlarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratdi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda bolalar adabiyotini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash – xususan, multimediya vositalari, interaktiv metodlar va raqamli platformalardan foydalanish – o‘quvchilarda adabiy-estetik didni shakllantirish, matnni ongli anglash va obrazli fikrlash jarayonlarini jadallashtirishda yuqori samaradorlik bermoqda.

An’anaviy o‘qitish uslublarida asosan matnni o‘qish va savol-javob asosidagi yondashuvlar ko‘zga tashlansa-da, zamonaviy mexanizmlar yordamida dars jarayoniga faol va mustaqil fikr yurita oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirishga keng imkoniyatlar ochiladi. Bu esa nafaqat dars sifati

va mazmunini boyitadi, balki bolalarning ijodiy tafakkuri, og‘zaki nutqi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi.

O‘tkazilgan kuzatuvlar va so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion o‘qitish yondashuvlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning o‘rganish motivatsiyasini kuchaytiradi, ta’lim-tarbiyaviy samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Yuqoridagi ilmiy asoslangan xulosalar asosida bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, boshlang‘ich sinflarda bolalar adabiyoti darslari uchun maxsus interaktiv elektron darsliklar ishlab chiqilishi va bu darsliklar asosida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, darslarda dramatizatsiya, teatr o‘yinlari, animatsion hikoyalar yaratish, audiokitoblar va boshqa interaktiv usullarni keng va tizimli joriy etish maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha bolalar adabiyotini zamonaviy metodlar asosida o‘qitishga qaratilgan amaliy seminar-treninglarni tashkil etish hamda bu yo‘nalishdagi metodik qo‘llanmalarni yangilash tavsiya qilinadi.

Kelgusida esa tadqiqot ishlarini sun’iy intellekt, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari asosida bolalar adabiyotini o‘qitish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirish zarur. Shuningdek, maktab o‘quvchilari orasida ijodiy tanlovlar, adabiy bahslar va “ertak yaratish” mashg‘ulotlarini keng yo‘lga qo‘yish orqali o‘zbek bolalar adabiyotiga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Усмонходжаева Н. Болалар адабиёти – маънавий тарбия манбаи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – 144 б.

2. Ergasheva M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy-estetik didni shakllantirishda bolalar adabiyotining o‘rni // Ilm-fan va innovatsiyalar. – 2022. – №3. – B. 120–124.

3. Allayeva S., Madaminova G. Innovatsion texnologiyalar orqali adabiyot darslarida kitobxonlikni rivojlantirish // Pedagogik mahorat. – 2023. – №1. – B. 55–58.

4. Хасанов Б. Ўзбек болалар адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 2010. – 248 б.

5. Nazarov M. Bolalar adabiyotida obraz va badiiy ifoda vositalari // Yilning eng yaxshi tadqiqotlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Farg‘ona: FDU, 2022. – B. 66–70.

6. Allamuratov Sh.A. O‘zbek adabiyotida badiiy tafakkur evolyutsiyasi // Adabiy izlanishlar. – 2021. – №2. – B. 15–21. URL: https://adabiyot.uz/articles/2021-2-3 [murojaat qilingan sana: 12.04.2025]

7. Mahmudova R. Adabiy o‘qish darslarida interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi // Talim va tarbiya. – 2023. – №4. – B. 88–91.

Mamarasulova Gulshoda Bekmirza qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, Filologiya kafedrasi
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISH ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING IJODIY VA MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda maktab o'quvchilarining ona tili darslari orqali ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsad qilib olingan. Yangicha metodik va didaktik yondashuvlar — interfaol metodlar, muammoli vazifalar, ijodiy topshiriqlar va refleksiya asosidagi usullar dars jarayoniga joriy etilib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyati shakllantirilgani ta'kidlangan. Tadqiqot beshta asosiy tamoyilga — faollik, individual yondashuv, interaktivlik, refleksiya va tahlil, ijodkorlikka asoslangan metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning fikr bildirish, mantiqan asoslash va ijodiy faoliyat ko'nikmalari sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. Darslarda muammoli savollar, guruh ishlari, rolli o'yinlar va baholash jarayonlari yordamida o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi qo'llab-quvvatlangan. Natijada yangicha metodik yondashuvlar ona tili darslarini samarali tashkil etib, o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.*

Kalit so'zlar: *Ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil, mustaqil qaror qabul qilish, ona tili darslari, metodik va didaktik yondashuvlar, interfaol metodlar, muammoli vazifalar, refleksiya.*

РАЗРАБОТКА МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО И САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *Данное исследование направлено на развитие у школьников навыков творческого мышления, критического анализа и самостоятельного принятия решений посредством уроков родного языка. Отмечается, что новые методические и дидактические подходы - интерактивные методы, проблемные задания, творческие задания и методы, основанные на рефлексии, - внедрены в учебный процесс, что способствовало формированию у учащихся культуры самостоятельного мышления. Исследование показывает, что в результате применения методов, основанных на пяти основных принципах - активности, индивидуальном подходе, интерактивности, рефлексии и анализе, творчестве, - значительно повысились навыки учащихся в выражении мнений, логическом обосновании и творческой деятельности. Интеллектуальное и социальное развитие учащихся поддерживалось с помощью проблемных вопросов, групповой работы, ролевых игр и процессов оценивания. В результате новые методические подходы позволили эффективно организовать уроки родного языка и сыграли важную роль в развитии критического и творческого мышления учащихся.*

Ключевые слова: *Творческое мышление, критический анализ, самостоятельное принятие решений, уроки родного языка, методические и дидактические подходы, интерактивные методы, проблемные задания, рефлексия.*

DEVELOPING A METHODOLOGY TO ENHANCE CREATIVE AND INDEPENDENT THINKING OF SCHOOL STUDENTS THROUGH EFFECTIVE ORGANIZATION OF NATIVE LANGUAGE LESSONS

Abstract. *This study aims to develop students' creative thinking, critical analysis, and independent decision-making skills through native language lessons. It is noted that new methodological and didactic approaches - interactive methods, problem-solving tasks, creative assignments, and reflection-based techniques - have been incorporated into the lesson process, fostering a culture of*

independent thinking among students. The research demonstrates that by applying methods based on five core principles - active engagement, individualized approach, interactivity, reflection and analysis, and creativity - students' skills in expressing opinions, logical reasoning, and creative activity have significantly improved. In the lessons, students' intellectual and social development was supported through thought-provoking questions, group work, role-playing activities, and assessment processes. Consequently, these new methodological approaches played a crucial role in effectively organizing native language lessons and developing students' critical and creative thinking potential.

Key words: *Creative thinking, critical analysis, independent decision-making, native language lessons, methodological and didactic approaches, interactive methods, problem-solving tasks, reflection.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat bilim olishlari emas, balki ularning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida e’tirof etilmoqda[1]. Dunyo o‘zgarishlari, yangi texnologiyalar va zamonaviy jamiyat talablariga moslashish uchun maktab yoshidagi bolalar nafaqat o‘rgangan bilimlarni yodlashga, balki ularni tahlil qilib, yangi vaziyatlarda qo‘llay olishlari, o‘z fikrlarini mantiqan va aniq bayon eta olishlari kerak. Shu boisdan ta’lim jarayonida ijodiy va tanqidiy tafakkurga asoslangan yondashuvlar ustuvor o‘rin egallamoqda[2].

Ona tili darslari esa o‘quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Til – fikrning vositasi sifatida, nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur va idrokning shakllanishiga xizmat qiluvchi eng muhim vositalardan biridir. Shuning uchun ona tili darslari orqali o‘quvchilarda nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning fikrlash madaniyatini oshirish, mustaqil fikr yuritish va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkoniyatlari kengdir. Ona tili darslarida ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalash, dalillar asosida fikr almashish va murakkab masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi[3].

Mamlakatimiz ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash, shuningdek, ularning ijodkorlik va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda[4]. Bu jarayonda ona tili fanining o‘rni va ahamiyati yanada oshib, uning dars metodikasi takomillashmoqda. Xususan, an’anaviy yondashuvdan voz kechib, interfaol, muammoli, refleksiv va ijodiy usullar asosida darslarni tashkil etish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat bilim olish darajasini, balki ularning muloqot, fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham oshirishga xizmat qiladi[5].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilari, ko‘pincha, mustaqil fikr yuritish, fikrini mantiqan bayon etish va ijodiy yechimlar topishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ularning ta’limdagi faolligini, o‘quv motivatsiyasini pasaytiradi va shaxs sifatida rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ona tili darslarida yangi metodik va didaktik asoslarda samarali yondashuvlar joriy etilishi zarur. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga imkon beradi[6].

Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim standartlari, jumladan, milliy ta’lim dasturlari ham o‘quvchilarda faqat bilimlarni o‘rgatish emas, balki ularning tafakkur doirasini kengaytirish, mustaqil o‘rganish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish vazifasini ham o‘z ichiga oladi.

1.Abdullaev M. Ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2015. – 184 b.

2.Karimova G. Ona tili darslarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish // Ilmiy jurnal. – 2018. – №3(12). – B. 45–5

3.Nazarov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Sharq, 2020. – 256 b.

4.Pirimova N. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2019. – 132 b.

5.Pirimova N. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2019. – 132 b.

6.UNESCO. Developing creative and critical thinking skills in education. – Paris: UNESCO Publishing, 2016. – 120 p.

Shuning uchun ona tili darslarini yangicha metodika asosida tashkil etish, darslarda interaktiv va innovatsion usullarni qo‘llash bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilarining ona tili darslarida ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali metodik va didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishdir[1]. Buning uchun darslarni interfaol metodlar, muammoli vazifalar, ijodiy topshiriqlar va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etishning samaradorligi o‘rganildi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ushbu ko‘nikmalarga ega bo‘lish darajasi dastlabki diagnostika orqali aniqlanib, keyingi bosqichlarda olingan natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yangicha metodik yondashuvlar yordamida o‘quvchilarning faolligi oshib, ularning fikrini ravshan va mantiqan ifodalash, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga ega bo‘lish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlana boshladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy muloqot, bahs-munozara va tahlil qilish qobiliyatlari ham mustahkamlandi. Bu esa ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi[2].

Shu nuqtai nazardan, ona tili darslarida ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni joriy etish, individual yondashuvni ta’minlash, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos darslarni tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ularni hayotga tayyorlaydi[3].

Ona tili darslarida ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o‘rganilishi lozim. Shu maqsadda, ushbu tadqiqotda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali metodik va didaktik vositalar ishlab chiqildi, dars jarayonida ularning amaliy qo‘llanilishi sinab ko‘rildi hamda baholandi[4].

Adabiyotlar tahlili: Ona tili mashg’ulotlari orqali o’quvchilarning ijodiy hamda mustaqil fikrlashini shakllantirish maqsadida ko’plab uslub va usullar ishlab chiqilgan. Filologiya sohasidagi qator ilmiy izlanishlar natijasida ona tili va adabiyot darslarini samarali tashkil etish bo’yicha bir qancha yutuqlarga erishildi. N.Qurbonova, Z.Matyoqubovalar o’z ilmiy tadqiqotlarida ona tili fanining o’qitilish maqsad va vazifalari, dars davomida foydalaniladigan interfaol o’yinlar, interaktiv metodlar, zamonaviy ta’lim texnalogiyalarining ahamiyati haqida fikr yuritadilar. N.Qurbonova “Ona tili darslarida ta’limiy o’yinlarni tashkillashtirish va ulardan foydalanish mohiyati” nomli maqolasida ona tili darslarini sifatli tashkil etish, o’quvchilarning nutq madaniyatini oshirish, og’zaki va yozma shaklda ravon fikr ifoda qilish, dars jarayonida ta’lim sohasiga oid bo’lgan turli xil o’yinlardan foydalanish borasida so’z yuritiladi. U dars davomida metodikalardan foydalanishni ijobiy baholaydi. Z.Matyoqubova o’z ilmiy izlanishlari natijasida harakatli o’yinlarning foydali jihatlarini ta’kidlaydi. Bunda o’quvchining nafaqat ona tili va adabiyot faniga bo’lgan qiziqishi ortadi, balki “qaniydi dars yakunlanmay yana davom etsa” kabi fikrlarni tug’ilishiga ham sabab bo’ladi. U maqolasida darsliklarning yangilanishi yangi g’oyalarni tug’ilishiga sabab ekanligini aytib o’tadi. Yangi ishlab chiqilgan o’quv darsliklari o’quvchini ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlashga o’rgatadi. Shuningdek, o’qituvchida fanga doir bilim, ko’nikma va malakalarning o’zigina emas, psixologik bilimning ham bo’lishi talab qilinadi. O’quvchi psixologiyasini yaxshi tushungan o’qituvchigina mohir pedagog bo’la oladi. N.Qurbonova, Z.Matyoqubovalarning yondashuvi ona tili darslarini ta’lim jarayonida samarali qo’llash uchun metodik tavsiyalar beradi.


7.Sobirova L. Ona tili darslarida ijodiy yondashuvlarni qo‘llash // Ta’lim va tarbiya. – 2018. – №4(22). – B. 78–85

8.Tajibaev K. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 160 b.

9.Vahobov A. Pedagogik psixologiya va ta’lim metodikasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2016. – 224 b.

10.Zokirova M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim sifatiga ta’siri // Ilmiy maqola. – Toshkent, 2019.

Metod: Maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ona tili darslarini metodik va didaktik jihatdan yangicha asosda tashkil etish – bu zamonaviy ta’lim talablari asosida o‘quvchilarning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlash madaniyati va muammolarni yechishga yo‘naltirilgan faol kognitiv faoliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda darslar faqat bilim berishga emas, balki o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin bayon qilish, turli manbalardagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash orqali dalillarni solishtirish va asosli xulosa chiqarish, shuningdek, ijodiy yondashuv orqali yangi g‘oya va fikrlar yaratishga yo‘naltiriladi.



1-rasm. Ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda ona tili darslarini samarali tashkil qilish

Ona tili darslarini metodik jihatdan yangilash deganda, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihaviy ishlash, o‘zaro fikr almashinuvi, ijodiy yozuv mashqlari, metakognitiv yondashuvlar va aks ettirish (refleksiya) elementlari asosida tashkil etish tushuniladi. Didaktik yangilanish esa dars mazmunini o‘quvchining qiziqishi, hayotiy tajribasi va individual qobiliyatlariga mos holda shakllantirish, shuningdek, til vositalaridan ijodiy foydalanish imkonini beradigan topshiriqlarni tuzish orqali amalga oshiriladi. Bu orqali o‘quvchi faqat bilim egallamaydi, balki uni qo‘llash, tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda yaratishga qodir bo‘ladi

Natija: Biz maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilib oldik. Buning uchun ona tili darslarini yangicha metodik va didaktik asosda tashkil etdik va buning natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyati sezilarli darajada rivojlana boshladi.

Interfaol metodlar, muammoli vazifalar, ijodiy topshiriqlar va refleksiya asosidagi yondashuvlarni dars jarayoniga joriy qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, asosli va mantiqan ifodalash, dalillarni taqqoslash hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirdilar. Shu tariqa, o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga keng imkon yaratildi.

Dastlabki bosqichda biz maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va mustaqil fikr yuritishi uchun zarur bo‘lgan metodik va didaktik usullarni ishlab chiqdik. Keyingi bosqichda esa beshta asosiy tamoyil — faollik, individual yondashuv, interaktivlik, refleksiya va tahlil hamda ijodkorlik asosida ish olib bordik va quyidagi natijalarga erishdik:

- Faollik tamoyili asosida har bir o‘quvchining darsdagi ishtiroki ta’minlandi. O‘quvchilar savollarga javob berish, fikr bildirish va muhokamalarda faol qatnashish orqali o‘z fikrlarini ochiq va ravshan ifodalashga o‘rgandilar. Bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, nutq faolligini kuchaytirdi va fikrni mantiqan bayon qilish ko‘nikmasini shakllantirdi;
- Individual yondashuv tamoyili asosida har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va o‘rganish uslubiga moslashtirilgan topshiriqlar ishlab chiqildi. Bu har bir o‘quvchining o‘z salohiyatini namoyon qilishiga imkon berdi va shaxsiy yondashuv samaradorligini tasdiqladi;
- Interaktivlik tamoyili orqali zamonaviy pedagogik texnologiyalar — “aqliy hujum”, “klaster”, “blits-so‘rov” va “fikrlar charxi” metodlari qo‘llanildi. Bu metodlar o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirib, jamoaviy fikr almashinuvi va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi;
- Refleksiya va tahlil tamoyili yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini tahlil qilish, o‘rganganlarini yozma va og‘zaki tarzda ifodalash orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashdi. Bu jarayon mantiqiy fikrlash va fikrini asoslash malakasini oshirdi;
- Ijodkorlik tamoyili asosida o‘quvchilar mustaqil matn yaratish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, she’r yozish, hikoya tuzish va boshqa ijodiy faoliyatlarga jalb qilindi. Bu ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qildi.

Dastlabki diagnostika natijalari 30 nafar o‘quvchidan faqat 8 nafari ijodiy va tanqidiy fikrlashning boshlang‘ich ko‘nikmalariga ega ekanligini ko‘rsatdi. Qolgan 22 nafar o‘quvchilarda esa mustaqil fikr bildirishda va fikrini mantiqan bayon qilishda qiyinchiliklar, shuningdek, ijodiy yondashuvning yetishmasligi kuzatildi. Bu holat ona tili darslarida yangi metodik yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatdi.

Darslarni samarali tashkil etish uchun har bir mavzuga muammoli savollar orqali kirish amalga oshirildi, bu o‘quvchilarni mavzu yuzasidan faol fikr yuritishga undadi. Ijodiy topshiriqlar (matn yaratish, matnni yakunlash, qayta yozish, personajga xat yozish) rejalashtirilib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalari rivojlantirildi. Guruhli ishlar va rolli o‘yinlar tashkil etilib, o‘quvchilarning ijtimoiy muloqot va tahlil ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Dars jarayoni muammoli vaziyat yaratish bilan boshlanib, o‘quvchilar mustaqil tahlil qilgani, keyin interaktiv metodlar (debat, klaster, insert) orqali fikr almashgani va yakunda refleksiya jarayonini o‘tkazgani darsning samaradorligini oshirdi. Baholash bosqichida ijodiy ishlar rubrikalar asosida aniq va adolatli reyting tarzida baholandi. O‘quvchilar o‘z ishlarini mustaqil tahlil qildi, kuchli va zaif tomonlarini aniqladi. Yutuqlar va kamchiliklar asosida rivojlanish strategiyalari ishlab chiqildi. Bu jarayon o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qildi.

Shunday qilib, yangicha metodik va didaktik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ona tili darslari o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi, mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini oshirdi va ularning intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Muhokama: Men olib borgan ish natijasida maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Ona tili darslarini yangi metodik yondashuv asosida tashkil qilish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash

madaniyatini shakllantirdi va o‘qitish samaradorligini oshirdi. Interfaol metodlar va refleksiya jarayonni jonlantirib, o‘quvchilarning muloqot madaniyati va tahliliy fikrlashini mustahkamladi. Individual ehtiyojlarga mos topshiriqlar har bir o‘quvchining salohiyatini ochishga yordam berdi. Diagnostika natijalari ijodiy-tahliliy ko‘nikmalar yetishmasligini ko‘rsatdi, bu esa darslarni yangicha tashkil etish zaruratini tasdiqladi. Baholash jarayoni adolatli bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashini rivojlantirdi. Shunday qilib, interfaol va ijodiy usullar o‘quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu yondashuvni boshqa fanlarga ham qo‘llash mumkin.

Xulosa: Ona tili darslarida yangi metodik va interfaol yondashuvlarni joriy etish natijasida maktab o‘quvchilarining ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Muammoli vaziyatlar yaratish, interaktiv metodlar — debat, klaster, insert kabi usullar dars jarayonini faollashtirdi, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini aniq va asosli ifodalashlarini ta’minladi. Individual yondashuv har bir o‘quvchining bilim darajasi va qiziqishlariga moslashtirilgan topshiriqlar orqali ularning salohiyatini to‘liq ochishga yordam berdi. Refleksiya va metakognitiv yondashuv esa o‘quvchilarga o‘z ishlarini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini berdi, bu esa o‘z-o‘zini baholash va rivojlanish uchun samarali vosita bo‘ldi. Baholash jarayonining aniq mezonlar asosida tashkil etilishi o‘quvchilarning ijodiy ishlarini adolatli baholashga xizmat qildi va ularni yanada faol bo‘lishga rag‘batlantirdi. Ushbu metodik yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois, bu yondashuvlarni boshqa fanlarda ham tatbiq etish va yanada takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, yangi metodik va didaktik yondashuvlar ta’lim sifatini yaxshilashda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. M. Ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish Abdullaev metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti, 2015. – 184 b.
2. Karimova G. Ona tili darslarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish // Ilmiy jurnal. – 2018. – №3(12). – B. 45–52.
3. Nazarov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Sharq, 2020. – 256 b.
4. Pirimova N. Maktab yoshidagi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2019. – 132 b.
5. Rakhimov D. Interfaol o‘qitish metodlari va ularning samaradorligi: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017. – 178 b.
6. UNESCO. Developing creative and critical thinking skills in education. – Paris: UNESCO Publishing, 2016. – 120 p.
7. Sobirova L. Ona tili darslarida ijodiy yondashuvlarni qo‘llash // Ta’lim va tarbiya. – 2018. – №4(22). – B. 78–85.
8. Tajibaev K. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 160 b.
9. Vahobov A. Pedagogik psixologiya va ta’lim metodikasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2016. – 224 b.
10. Zokirova M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim sifatiga ta’siri // Ilmiy maqola. – Toshkent, 2019.

Kurbanbayeva Barno Farxadovna
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi

ЛЕКСИКОГРАФИЯ УЗБЕКСКОЙ ТОПОНИМИКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению лексикографических аспектов узбекской топонимики, проблем отражения географических названий в словарях и перспектив развития данной области. В исследовании анализируется историческое развитие, теоретико-методологические основы и современное состояние узбекской топонимической лексикографии. В статье обсуждаются основные направления топонимической лексикографии, принципы составления словарей и проблемы лексикографического описания топонимов. Проводится сопоставительный анализ узбекской топонимической лексикографии с мировой практикой и даются рекомендации по созданию новых типов словарей.*

Ключевые слова: *топонимика, лексикография, узбекский язык, географические названия, топонимический словарь, ономастика, этимология, лингвистическая картография*

O'ZBEK TOPONIMIKASI LEKSIKOGRAFIYASI: NAZARIY ASOSLAR VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek toponimikasining leksikografik jihatlari, geografik nomlarni lug'atlarda akslantirish muammolari va bu sohaning rivojlanish istiqbollarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda o'zbek toponimik lug'atchiligining tarixiy taraqqiyoti, nazariy-metodologik asoslari va zamonaviy holati tahlil qilinadi. Maqolada toponimik leksikografiyaning asosiy yo'nalishlari, lug'at tuzish tamoyillari hamda toponimlarning leksikografik tavsifidagi muammolar muhokama etiladi. O'zbek toponimik lug'atchiligining jahon amaliyoti bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi va yangi lug'at turlari yaratish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *toponimika, leksikografiya, o'zbek tili, geografik nomlar, toponimik lug'at, onomastika, etimologiya, lingvistik kartografiya*

LEXICOGRAPHY OF UZBEK TOPONYMY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PROSPECTS

Abstract. *This article is devoted to the study of lexicographic aspects of Uzbek toponymy, problems of reflecting geographical names in dictionaries, and prospects for the development of this field. The research analyzes the historical development, theoretical and methodological foundations, and current state of Uzbek toponymic lexicography. The article discusses the main directions of toponymic lexicography, principles of dictionary compilation, and problems of lexicographic description of toponyms. A comparative analysis of Uzbek toponymic lexicography with world practice is carried out, and recommendations for creating new types of dictionaries are provided.*

Key words: *toponymy, lexicography, Uzbek language, geographical names, toponymic dictionary, onomastics, etymology, linguistic cartography*

Kirish. O'zbek toponimikasi leksikografiyasi tilshunoslikning eng dolzarb va murakkab sohalaridan biri bo'lib, u geografik nomlarni lug'atlarda ilmiy asosda jamlash, tavsiflash va tahlil qilish muammolari bilan shug'ullanadi. O'zbekiston hududidagi toponimlar minglab yillar davomida shakllanib, turli etnik, tarixiy va madaniy qatlamlarni aks ettiradi. Bu nomlar o'zbek xalqining tarixiy xotirasini, madaniy merosini va til rivojlanishining muhim bosqichlarini o'zida mujassam etgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida geografik nomlarning qo'llanishi va tahlili o'zbek toponimik lug'atchiligining dastlabki namunasi sifatida qaralishi mumkin [1]. XX asrning ikkinchi yarmida S.Qoraev, E.Begmatov, T.Enazarov, Z.Dosimov va boshqa olimlar tomonidan

o'zbek toponimikasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borildi [2]. Biroq, o'zbek toponimlarini to'liq qamrab oladigan, zamonaviy leksikografik talablarga javob beradigan fundamental toponimik lug'atlar yaratish masalasi hali ham o'z yechimini kutmoqda.

Geografik nomlarning etimologik, tarixiy, dialektologik va lingvogeografik jihatlari chuqur tadqiqotni talab etadi. Shuningdek, o'zbek toponimik leksikografiyasida lug'at tuzish metodologiyasi, toponimlarni tavsiflash tamoyillari va klassifikatsiya mezonlari masalalari etarli darajada ishlab chiqilmagan. Jahon amaliyotida toponimik leksikografiya keng rivojlangan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu sohaning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Tadqiqotning maqsadi o'zbek toponimik leksikografiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatish va yangi turdagi toponimik lug'atlar yaratish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, etnolingvistik va leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbek va rus tillaridagi ilmiy manbalarga, shuningdek xorij manbalarida aksini topgan toponimik va leksikografik tadqiqotlarga chuqur tahlil amalga oshirildi. Toponimik leksikografiyaning nazariy asoslarini o'rganishda V.V.Murzaev, V.A.Nikonov, E.M.Pospelov kabi rus olimlarining ishlariga murojaat qilindi [3]. O'zbek toponimikasi bo'yicha S.Qoraevning "Toponimika" asari asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qildi, unda viloyatlar toponimiyasi tahlil qilingan [4]. E.Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" asari onomastika sohasidagi fundamental tadqiqot sifatida toponimik tadqiqotlar uchun ham metodologik asos yaratdi [5]. T.Enazarovning "O'zbekistonda ba'zi toponimlarning etimologik talqini" (2004) asarida etimologik metodologiya qo'llanilgan [6]. Rus tilshunosligida N.V.Podolskayaning "Ruscha onomastik terminologiya lug'ati" onomastik terminologiyani sistemalashtirish bo'yicha muhim hissa bo'ldi [7]. Jahon amaliyotida toponimik lug'atchilik keng rivojlangan, masalan, amerikalik olimlar E.O.Leonovich va O.A.Leonovichning "AQSh geografik nomlari" asari zamonaviy toponimik leksikografiyaning namunasi hisoblanadi [8]. O'zbek toponimik leksikografiyasi bo'yicha Z.Dosimov va X.Egamovning "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" dastlabki tajriba bo'lsa-da, zamonaviy talablarga to'liq javob bermaydi [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek toponimik lug'atchiligida uch asosiy yo'nalish mavjud: etimologik, tarixiy-madaniy va lingvogeografik. Etimologik yo'nalish toponimlarning kelib chiqishi va lug'aviy ma'nosini o'rganadi, tarixiy-madaniy yo'nalish esa nomlarning ijtimoiy-tarixiy kontekstini tahlil qiladi. Lingvogeografik yo'nalish esa toponimlarning hududiy tarqalishini kartalashtirish bilan bog'liq. Biroq, bu yo'nalishlar o'zaro bog'liq holda kompleks tarzda ishlanmagan, ayniqsa leksikografik jihatdan. Zamonaviy leksikografiya nazariyasiga ko'ra, toponimik lug'atlar mikrostruktura (maqola tuzilishi) va makrostruktura (lug'at tuzilishi) jihatidan mukammal bo'lishi kerak [10]. O'zbek toponimik lug'atchiligida bu tamoyillar to'liq amalga oshirilmagan. Shuningdek, elektron leksikografiyaning imkoniyatlaridan foydalanish masalasi ham ochiq qolmoqda.

Natijalar va muhokama.

O'zbek toponimik leksikografiyasining tahlili bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. O'zbek geografik nomlarining leksikografik tavsifi uchun yagona standartlashtirilgan metodologiya ishlab chiqilishi zarur. Har bir toponim maqolasida quyidagi ma'lumotlar berilishi kerak: toponimikning imlo variantlari (lotin va kirill yozuvida), fonetik transkripsiyasi, grammatik ko'rsatkichlari, obyektning turi (oronim, gidronim, oykonim va h.k.), joylashuvi, tarixiy ma'lumotlar, etimologik tahlil, dialektik variantlar va ilmiy manbalar ro'yxati. O'zbek toponimik leksikografiyasida strukturaviy-semantik tahlil muhim o'rin tutishi kerak.

Toponimlarning tuzilishiga ko'ra sodda, murakkab va qo'shma shakllarini ajratish, har birining leksikografik tavsifi uchun alohida yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Masalan, Samarqand, Buxoro kabi sodda toponimlar va Yangiyer, Qoraqalpog'iston kabi qo'shma toponimlar turlicha tavsiflashni talab etadi. O'zbek toponimlarida ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Hududda turkiy, forsiy-tojik, arab, mo'g'ul va boshqa tillarning ta'siri kuzatiladi.

Leksikografik tavsifda bu qatlamlarni aniqlash va ilmiy asoslash muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek toponimik lug'atlarida lingvogeografik ma'lumotlar, xaritalar va vizual materiallar keng qo'llanishi lozim. Bu foydalanuvchilarga toponimlarning hududiy tarqalishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Elektron leksikografiyaning imkoniyatlaridan foydalanib, interaktiv toponimik lug'atlar yaratish zarurati tug'ilmoqda. Bunday lug'atlarda qidiruv tizimi, mulitimedia kontenti, qiyosiy ma'lumotlar va dinamik yangilanish imkoniyatlari bo'lishi kerak.

Shuningdek o'zbek toponimik leksikografiyasining istiqbollari bir necha yo'nalishda belgilanadi: a) fundamental ko'p jildlik "O'zbekiston toponimlarining etimologik lug'ati" yaratish; b) hududiy (viloyatlar, tumanlar) toponimik lug'atlar tizimini shakllantirish; c) maxsus turdagi toponimik lug'atlar (gidronimlar, oronimlar, urbonimlar lug'atlari) tayyorlash; d) ikki va ko'p tillilik asosida qiyosiy toponimik lug'atlar ishlab chiqish; e) terminologik-izohli toponimik lug'atlar yaratish. O'zbek toponimik lug'atchiligida ilmiy-nazariy muammolarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Bunga toponimlarning leksikografik tavsifi tamoyillarini ishlab chiqish, terminologik apparatni birlashtirish, klassifikatsiya mezonlarini aniqlash kiradi.

O'zbek toponimik leksikografiyasida amaliy masalalar ham diqqat markazida bo'lishi kerak. Bu davlat ramzlarining toponimik asosini o'rganish, yangi joylarga nom berish tamoyillarini belgilash, toponimlarni standartlashtirish va chet tillariga tarjima qilish qoidalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Interdissiplinar yondashuvlarni qo'llash orqali toponimik leksikografiyani tarixshunoslik, geografiya, etnografiya, arxeologiya va boshqa fanlar bilan bog'lash samaradorlikni oshiradi.

O'zbek toponimlarining etimologik tahlili ularning ko'p qatlamliligini va turli til manbalaridan kelib chiqqanligini ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida ko’plab toponimning kelib chiqishi aniqlandi va tasnif etildi. Quyidagi jadvalda o’rganilgan o'zbek toponimlarining etimologik manbalar bo'yicha taqsimoti keltirilgan:

1-jadval. O'zbek toponimlarining etimologik qatlamlar bo'yicha taqsimoti

Til manbai	Foiz ulushi	Asosiy xususiyatlar	Misollar	Leksikografik muammo
Turkiy (o'zbek)	42%	Zamonaviy va tarixiy turkiy komponentlar	Olmaliq, Qoqon, Chirchiq, Angren	Dialektik variantlar farqi
Tojik-fors	28%	Arab-fors madaniyati ta'siri davri	Samarqand, Buxoro, Namangan, Guliston	Ko'p imlo variantlari
Arab	12%	Islom madaniyati davri	Masjid, Madina, Maqbara	Transliteratsiya muammolari
Mo'g'ul	8%	XIII-XIV asrlar istilosiga oid	Qarshi, Arslonbob	Tarixiy ma'lumotlar yetishmasligi
So'g'd	5%	Qadimiy davr nomlari	Panjikent, Kesh, Samarqand (qadimiy qatlam)	Rekonstruktsiya qiyinchiliklari
Rus-slavyan	3%	Mustamlaka davri	Pushkin, Maksim Gorkiy	Adaptatsiya masalalari
Aralash kelib chiqish	2%	Bir necha til komponentlari	Yangiobod, Do’stlik	Komponentlarni ajratish muammosi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek toponimlarining asosiy qismi (42%) turkiy kelib chiqishga ega bo'lib, bu o'zbek xalqining hududdagi uzoq muddatli istiqomatini tasdiqlaydi. Tojik-fors elementi (28%) ikkinchi o'rinda turib, Markaziy Osiyo tarixida forsiy madaniyatning kuchli ta'sirini aks ettiradi.

Arab komponentli toponimlar (12%) asosan islom madaniyatining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, VII-VIII asrlardan boshlab shakllanib borgan. Bu qatlamning leksikografik tavsifi maxsus

diqqatni talab etadi, chunki arab so'zlari o'zbek tiliga o'ziga xos fonetik o'zgarishlar bilan kirgan va transliteratsiya masalalari mavjud. Masalan, "Madina" toponimi asl arab talaffuzida "Medina" bo'lsa-da, o'zbek tilida adaptatsiya jarayonidan o'tgan.

Mo'g'ul qatlami (8%) toponimlar tarixiy jihatdan Chingizxon istilosiga oid bo'lib, asosan XIII-XIV asrlarda shakllangan. Bu nomlarning etimologiyasini aniqlashda tarixiy manbalar bilan ishlash zarur, ammo ko'p hollarda dastlabki ma'no yo'qolgan yoki buzilgan. "Qarshi" shahar nomi mo'g'ulcha "saroyning qarshisida" ma'nosidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi, biroq aniq tasdiq yo'q.

So'g'd qatlami (5%) eng qadimiy toponim qatlamini ifodalaydi va areallingvistika nuqtai nazaridan nihoyatda qimmatlidir. Biroq, so'g'd tilining "o'lik til" bo'lishi etimologik tahlilda qiyinchiliklar tug'diradi va ko'pincha rekonstruktsiya metodlarini qo'llashga to'g'ri keladi. "Panjikent" toponimi so'g'dcha "besh qishloq" ma'nosini bildiradi, bu tarixiy hujjatlar orqali tasdiqlangan.

Rus-slavyan qatlami (3%) XIX-XX asrlar mustamlaka va sovet davriga oid bo'lib, asosan yangi shaharcha va qishloqlar nomlarida uchraydi. Bu nomlarning ba'zilari mustaqillik davrida o'zgartirilgan, leksikografik tavsifda bunday transformatsiyalar alohida e'tiborga olinishi kerak. Masalan, "Leninabad" nomi "Xo'jand"ga qaytarilgan, bunday o'zgarishlar tarixi ham lug'atlarda aks etishi lozim.

Aralash kelib chiqishli toponimlar (2%) ikki yoki undan ortiq til komponentlarining birikishidan hosil bo'lgan. Masalan, "Yangiobod" da "yangi" (turkiy) va "abad" (forsiy) so'zlari birlashgan. Bunday nomlarning leksikografik tahlilida har bir komponentning tiliy mansubi va umumiy semantikasi aniqlanishi lozim. Bu gibrid nomlar madaniyatlararo ta'sirning natijasi sifatida alohida qiziqish uyg'otadi.

Leksikografik muammolar ustuni jadvalda har bir til qatlami uchun xos bo'lgan asosiy qiyinchiliklar ko'rsatilgan. Turkiy toponimlar uchun asosiy muammo dialektik variantlarning farqlanishi, tojik-fors nomlari uchun - ko'p imlo variantlari mavjudligi, arab nomlari uchun esa transliteratsiya muammolaridir. Bu muammolarni hal etish uchun yagona leksikografik standartlar ishlab chiqish zarur.

Toponimik qatlamlarning hududiy taqsimoti ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Buxoro va Samarqand viloyatlarida tojik-fors elementi kuchliroq, shimoliy hududlarda esa qozoq va qoraqalpoq ta'siri kuzatiladi. Farg'ona vodiysida qirg'iz komponentli toponimlar ko'proq uchraydi, bu mintaqaning chegaradosh hududlardagi etnik aloqalarini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek toponimik leksikografiyasi chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan va dolzarb rivojlanishni talab etadigan muhim ilmiy sohadir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek geografik nomlarini leksikografik jihatdan to'liq va chuqur o'rganish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: yagona metodologik tamoyillar tizimini yaratish, zamonaviy lug'at turlari va formatlarini ishlab chiqish, elektron leksikografiya imkoniyatlaridan foydalanish, interdissiplinar tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro tajribadan unumli foydalanish.

O'zbek toponimik leksikografiyasining istiqbollari fundamental va maxsus turdagi lug'atlar yaratish, elektron resurslar ishlab chiqish va ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida milliy til va madaniyatni saqlash, rivojlantirish hamda ilmiy-ta'limiy faoliyatni kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zbek toponimik lug'atchiligining zamonaviy talab va standartlar asosida rivojlanishi uchun davlat dasturlari va ilmiy loyihalar amalga oshirilishi zarur. Umuman olganda, o'zbek toponimik leksikografiyasi o'zbek tilshunosligining muhim tarkibiy qismi sifatida yanada takomillashtirilishi va kengaytirilishi lozim bo'lgan istiqbolli soha hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mahmud Qoshg'ariy (1072-1074). Devonu lug'otit turk. Toshkent: Fan, 1960.
2. Qoraev, S. (2006). Toponimika. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
3. Murzaev, E.M. (1974). Ocherki toponimiki. Moskva: Nauka.

4. Qoraev, S. (2005). O'zbekiston viloyatlarining toponimiyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Begmatov, E. (1970). O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent: Fan.
6. Enazarov, T. (2004). O'zbekistonda ba'zi toponimlarning etimologik talqini. Toshkent: Fan.
7. Podolskaya, N.V. (1978). Slovar' russkoy onomasticheskoy terminologii. Moskva: Nauka.
8. Leonovich, E.O., Leonovich, O.A. (2021). Geograficheskie nazvaniya Soedinennykh Shtatov Ameriki. Moskva: Flinta.
9. Dosimov, Z., Eg'amov, X. (1977). Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.
10. Karimov, S.A., Buriev, S.N. (2006). Uzbek toponymics in the stage of development. Tashkent: Fan.

Khudoyarova Ziyoda Maratovna
Tashkent State University of Economics,
Senior Teacher at the Department of Foreign Language Education (PhD)
doctor of philosophy in psychology
E-mail: z.khudayorova@tsue.uz

INNOVATIVE APPROACHES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE CAPABILITIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Annotation. *In the context of globalization, foreign language teaching is being enriched by innovative approaches and artificial intelligence technologies. This article analyzes the potential of AI-powered educational platforms and interactive applications to personalize the learning process and enhance its effectiveness. The study examines the impact of modern technologies on education based on statistical data and proposes promising directions for future development.*

Key words: *Foreign language teaching, innovative approach, artificial intelligence, educational technologies, individualized learning.*

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish innovatsion yondashuvlar va sun’iy intellekt texnologiyalari bilan boyimoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosida yaratilgan ta’lim platformalari va interaktiv dasturlar yordamida o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalarning ta’limga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilib, istiqbolli yo‘nalishlar taklif etiladi.*

Kalit so`zlar: *Xorijiy tillarni o‘qitish, innovatsion yondashuv, sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, individual ta’lim.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В условиях глобализации преподавание иностранных языков обогащается инновационными подходами и технологиями искусственного интеллекта. В данной статье анализируются возможности персонализации учебного процесса и повышения его эффективности с помощью образовательных платформ и интерактивных программ на основе искусственного интеллекта. В исследовании рассматривается влияние современных технологий на образование на основе статистических данных, а также предлагаются перспективные направления развития.*

Ключевые слова: *Преподавание иностранных языков, инновационный подход, искусственный интеллект, образовательные технологии, индивидуальное обучение.*

Introduction.

In the modern era of globalization, learning foreign languages has become one of the essential competencies. With the rise of international cooperation and the growing demand for foreign language proficiency in education and business, the need for effective and rapid language learning methods has significantly increased. From this perspective, integrating innovative technologies into traditional language teaching approaches to enhance efficiency has become a pressing issue.

In recent years, artificial intelligence (AI) technologies have been actively introduced into the educational process. AI-powered learning platforms and applications enable the automation of education, personalization of learning experiences, and improvement of students' speaking skills. Applications such as Duolingo, Grammarly, ChatGPT, and Rosetta Stone widely utilize AI algorithms

for language learning. These technologies facilitate the process by analyzing users' mistakes in real time, enhancing pronunciation, and providing interactive exercises.

Traditional language teaching methods are primarily based on grammar and translation approaches, whereas modern innovative strategies emphasize interactive and communicative methodologies. AI technologies reinforce these approaches by offering learners a flexible, personalized, and real-life-oriented educational experience. However, the role of artificial intelligence in language education extends beyond language acquisition. It also contributes to the development of professional competencies, such as strengthening communication skills, improving written and spoken language proficiency, and enhancing students' independent thinking abilities.

Therefore, this article examines the role of innovative approaches and artificial intelligence technologies in foreign language teaching and discusses their impact on the development of professional competencies.

Literature review.

Numerous studies by both local and international scholars have explored the impact of innovative approaches and artificial intelligence (AI) technologies on the language learning process. Unlike traditional language teaching methods, innovative approaches focus on developing individualized learning techniques.

Oxford, in Teaching and Researching Language Learning Strategies (2016), highlights the effectiveness of technology in foreign language acquisition. The author emphasizes that designing personalized learning programs, incorporating real-life scenario-based tasks, and utilizing technology to facilitate the learning process can significantly accelerate language learning [1].

In Principles of Language Learning and Teaching (2007), Brown discusses the role of innovative approaches, including mobile applications and interactive platforms, in increasing students' motivation for language learning. The author underscores the importance of providing technology-based learning materials tailored to individual learners' needs [2].

Aijun Yang, in his 2024 article Challenges and Opportunities for Foreign Language Teachers in the Era of Artificial Intelligence, examines how the emergence of large language models, such as ChatGPT, has introduced both new opportunities and challenges in education. The article explores how university-level foreign language instructors can integrate AI technologies into their teaching practices to enhance instructional effectiveness and improve students' learning progress. The study's findings indicate that incorporating AI technologies into foreign language education can significantly improve teaching efficiency and learning outcomes [3].

Research methodology.

This study aims to analyze the role of innovative approaches and artificial intelligence (AI) technologies in foreign language teaching. Both theoretical and practical analytical methods were employed during the research process.

The study was conducted using both qualitative and quantitative analysis. The qualitative analysis focused on evaluating the effectiveness of innovative methods in foreign language instruction, while the quantitative analysis aimed to assess the role of advanced technologies in the learning process.

The research examined previous academic studies, international experiences, and modern technological advancements related to the use of AI in education. Additionally, existing articles and reports on the application of digital technologies in various educational systems were reviewed. The development stages, effectiveness, and contemporary trends of innovative approaches in foreign language teaching were analyzed based on scientific literature. A range of analytical tools, including comparative analysis, empirical methods, and content analysis, were extensively utilized.

The findings of this study primarily rely on existing academic and practical sources. Given that AI technologies are evolving dynamically, the results of this research may change over time. Furthermore, since no specific experimental study was conducted, the findings may vary depending on different educational environments.

Analysis and results.

In today's world, the effective use of innovative approaches and artificial intelligence (AI) technologies in foreign language learning is of paramount importance. This study aimed to analyze the effectiveness of innovative approaches in foreign language instruction. It compared the impact of traditional and innovative teaching methods and assessed the efficiency of AI technologies in the learning process.

The findings indicate that AI technologies provide significant advantages in foreign language education. From an individualized learning perspective, traditional classrooms offer the same materials to all students, whereas AI-driven platforms can tailor content based on each learner's proficiency level and learning pace. Adaptive learning platforms utilize AI to track learners' progress and generate personalized exercises to address their weaknesses. Moreover, AI-powered voice assistants and chatbots allow students to practice their pronunciation and communication skills in a natural setting.

The analysis revealed that groups utilizing AI technologies demonstrated improved learning outcomes, particularly in pronunciation, listening, and writing skills [4,32]. The integration of innovative approaches into the educational process has yielded multiple benefits for foreign language learners. Gamification elements enhance student motivation, making the learning process more engaging. Virtual and augmented reality technologies provide learners with an immersive language experience, simulating real-life environments. Additionally, interactive platforms such as Duolingo, Memrise, and Mondly have fostered greater interest in self-directed learning [5].

Despite the numerous advantages of AI-assisted language learning, certain challenges have been identified. One major issue is the reduction of human interaction, as AI cannot fully replace teachers. Language learning is not solely about grammar and vocabulary; it also involves cultural and emotional aspects that require human engagement. Furthermore, AI-based educational platforms necessitate substantial technical resources, which may pose financial and technological barriers for some learners. Data security and privacy concerns related to online platforms and AI systems also remain significant considerations.

Overall, the analysis confirms that leveraging innovative approaches and AI technologies significantly enhances foreign language learning efficiency. AI-driven interactive platforms, gamification techniques, and personalized learning systems play a crucial role in boosting student motivation. However, to maximize the benefits of AI in education, improvements in technical infrastructure and pedagogical methodologies are necessary. It is anticipated that the deeper integration of AI technologies into the education system will further optimize foreign language teaching, making it more efficient and accessible in the future.

Conclusion and recommendations.

In conclusion, the integration of innovative approaches and artificial intelligence (AI) technologies in foreign language education has the potential to transform the learning process fundamentally. Modern technologies, particularly AI-driven algorithms, play a crucial role in optimizing individualized learning, enhancing language acquisition efficiency, and creating an interactive educational environment. The combination of traditional teaching methods with advanced technologies yields highly effective results in developing students' language competencies.

The findings of this study indicate that AI-powered educational platforms significantly improve language learning through personalized approaches and real-time feedback. Additionally, AI-based voice assistants, automated translation tools, chatbots, and adaptive learning systems make the process more engaging and accessible. These technologies also provide substantial benefits for educators by enabling them to assess students' proficiency levels, identify weaknesses, and recommend appropriate learning materials.

To enhance the effectiveness of foreign language learning through innovative approaches, the following recommendations are proposed:

- Expanding the use of AI technologies in foreign language education;
- Organizing specialized training courses for educators;
- Developing AI-driven personalized learning programs;
- Advancing interactive learning environments;

- Continuously monitoring and analyzing the learning process.

The implementation of these recommendations will make foreign language learning more efficient, interactive, and results-oriented. As technology continues to evolve rapidly, the education sector must fully leverage its potential to simplify, accelerate, and improve the quality of language acquisition.,

List of references.

1. Alharbi, W. (2023). AI in the Foreign Language Classroom: A Pedagogical Overview of Automated Writing Assistance Tools. Education Research, 2023, 4253331.
2. Li, B., et al. (2024). A Systematic Review of the First Year of Publications on ChatGPT in Language Learning. Journal (ScienceDirect).
3. “On the Nascency of ChatGPT in Foreign Language Teaching and Learning.” Annual Review of Applied Linguistics, Cambridge University Press.
4. Rezvani, V. (2024). “Искусственный интеллект: Применение и …” (на русском / англ.). Журнал RLL.
5. Кувшинова, Е.Е. (2024). «Применение искусственного интеллекта в обучении иностранному языку». Журнал / сборник.
6. «Искусственный интеллект в обучении студентов иностранному языку: Современные тенденции и перспективы развития». Вестник Академии знаний, № 5 (64), 2024.
7. Тушыева, Г. (2024). «Интерактивные подходы в обучении иностранным языкам: использование игровых технологий». Журнал / сборник.
8. «Интерактивные средства обучения иностранному языку: учебное пособие». Беляева, Л. А. — Москва : Издательство Юрайт, 2019.
9. Kasimova, M. (2024). Sun’iy intellekt orqali xorijiy til o‘qitish metodikasi. Journal FELDU, 2024.

Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

TASAVVUF ADABIYOTINING PAYDO BO`LISH OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasavvuf g`oyalarining adabiyotga ta'siri hamda tasavvuf adabiyotining paydo bo`lish omillari tahlil qilinadi. Tasavvuf insonning ma'naviy kamolotga erishish, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatga yaqinlashish yo'lini ifoda etuvchi falsafiy yo'nalish sifatida badiiy adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan. Dastlab Robiya Adaviya, Ibrohim Adham, Hasan Basriylarning zohidona g`oyalari ko`rinishida paydo bo`la boshladi. Keyinchalik esa Ibn Arabiy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi mutasavviflarning so`fiyona fikrlari bilan boyigan tasavvuf g`oyalari Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlarning ijodida yetakchi o'rin tutib, ilohiy ishq, ruhiy poklanish va insonning kamol topishi kabi mavzular aks etgan. Tadqiqotda tasavvuf va adabiyotning o`zaro aloqasi turli manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, badiiy ijod, tasavvufiy adabiyot, so'fiylik, Robiya Adaviya, ruhiy poklanish, Sharq adabiyoti, zohidlik, Farididdin Attor*

FACTORS IN THE EMERGENCE OF SUFI LITERATURE

Annotation. *This article analyzes the influence of Sufi ideas on literature and the factors that led to the emergence of Sufi literature. Sufism, as a philosophical direction that expresses the path of a person to spiritual perfection, spiritual purification, and approaching divine truth, has had a great influence on literary work. Initially, it began to appear in the form of ascetic ideas of Rabiya Adawiya, Ibrahim Adham, and Hasan Basri. Later, the ideas of Sufism, enriched by the Sufi thoughts of such mystics as Ibn Arabi, Ahmad Yasawi, and Jalaluddin Rumi, took a leading place in the work of poets such as Fariduddin Attar, Abdurakhman Jomi, and Alisher Navoi, reflecting themes such as divine love, spiritual purification, and human perfection. The study analyzes the relationship between Sufism and literature based on various sources.*

Key words: *Sufism, artistic creation, mystical literature, Sufism, divine love, spiritual purification, Eastern literature, system of symbols, spiritual perfection.*

ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СУФИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние идей суфизма на литературу, а также факторы возникновения суфийской литературы. Суфизм как философское направление, выражающее путь достижения духовного совершенства, очищения души и приближения к божественной истине, оказал большое влияние на художественную литературу. Первоначально он начал проявляться в аскетических идеях Рабии Адавии, Ибрахима Адхама, Хасана Басри. Впоследствии суфийские идеи, обогащённые философскими взглядами таких мыслителей, как Ибн Араби, Ахмад Яссави, Джалолиддин Руми, заняли ведущее место в творчестве поэтов Фаридуддина Аттара, Абдурахмана Джами, Алишера Навои, где отразились темы божественной любви, духовного очищения и совершенствования человека. В исследовании рассматривается взаимосвязь суфизма и литературы на основе различных источников.*

Ключевые слова: *суфизм, художественное творчество, суфийская литература, суфийство, Рабия Адавия, духовное очищение, восточная литература, аскетизм, Фаридуддин Аттар.*

Kirish. Tasavvuf Sharq madaniyati va adabiyotida muhim o'rin tutadi. VIII—XI asrlardan boshlab, Robiya Adaviya, Mansur Halloj singari buyuk so'fiylarning ijodi tasavvufiy she'riyatning shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Keyinchalik bu adabiy an'ana X-XII asrlarda rivojlanib, o'ziga xos ramzlar va timsollar tizimini yaratdi.

Tasavvuf, aslida, insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lida o'zini anglash, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatga yaqinlashish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi insonning ichki dunyosini sayqallash orqali Yaratganga bo'lgan muhabbat va tafakkur orqali kamolot sari yetaklashdir. Bu tushunchalar tasavvufiy adabiyotning rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lib, asrlar davomida she'riyat va badiiy asarlarda o'z aksini topgan.

Sharq adabiyotining ko'plab yirik namoyandalari o'z asarlarida tasavvuf falsafasini chuqur yoritib berganlar. Xususan, Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Alisher Navoiy kabi shoirlarning ijodi tasavvufning adabiyotddagi alohida mavqeyini belgilab bergan. Ularning asarlarida ilohiy ishq, ruhiy poklanish, inson va Ilohiyot o'rtasidagi uyg'unlik kabi mavzular ustuvorlik qiladi. Ushbu maqolada tasavvufning badiiy ijod bilan bog'liqligi turli aspektlardan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tasavvuf hamda badiiy ijodning o`zaro aloqasi yuzasidan bir qancha olimlar izlanish olib borgan bo`lib, ular orasida Najmiddin Komilov[6], Ibrohim Haqqul[5], professor Abdusalom Abduqodirov[1] Baxtiyor Fayzullayev[4] hamda Eshniyozova Maysara[2] singari tadqiqodchilarning izlanishlari diqqatga sazovordir. Mazkur ishlarda tasavvuf g`oyalarining badiiy ijodga yaqinlashuvi hamda asrlar mobaynida ko`rsatgan ta`siri haqidagi xulosalar olingan. Jumladan, Najmiddin Komilov so`fiylarning samo majlislarida nutqlari ta'sirli chiqishi uchun, tinglovchilarni hayratga solish uchun badiiy adabiyotning, she'riy misralarning o`ziga xos sehridan foydalanganligini va shu yo`l orqali tasavvuf g`oyalari tez sur'atda yoyilganligini ta'kidlaydi[6:139]. Bu bilan bir qatorda, olim adabiyot ham tasavvuf tomon harakat qilgan, deb hisoblaydi hamda o`z fikrini obyektning umumiyligi bilan asoslaydi[6:139-141]. Ya'ni tasavvuf insonni ruhan poklanishga chorlasa, adabiyot insonning his- tuyg`ularini tasvirlash bilan bir qatorda, uning har tomonlama kamol topishi g`oyalarini ilgari suradi. Tadqiqodchi Eshniyazova esa xuddi shu fikrni biroz boshqacharoq talqin qilib, tasavvuf va adabiyotning maqsadlari mushtarakligi, ikkisi ham inson barkamolligini, hissiy va ma'naviy manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidlaydi[2:6]. Mazkur tadqiqodda tasavvufning adabiyot bilan aloqasini turli manbalar asosida o`rganildi hamda tegishli xulosalar olindi.

Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy va adabiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tasavvufiy adabiyotning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinar ekan, so'fiy shoirlarning asarlari va ularning mazmuni tadqiq etildi. Shuningdek, tasavvuf va badiiy ijodning bir-biriga ta'sirini aniqlash uchun tasavvufiy asarlar hamda badiiy adabiyot o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Tadqiqot davomida tarkibiy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Bu metod tasavvufiy she'riyatda mavjud bo'lgan asosiy g'oyalarning tahlil qilinishini ta'minladi.

Muhokama va natijalar.

Inson yaralibdiki, o`z his-tuyg`ularini, kechinmalarini turli xil shaklda: goh musiqiy ohanglar, goh quyma satrlar, gohida esa betakror tasvirlar orqali namoyon etadi. Buning natijasi o`laroq, kishi ruhi, qalbi bilan bog`liq bo`lgan san'at turlari paydo bo`lib, rivoj topib bormoqda. Birgina so`z san'ati necha asrdirki, insonning ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qarshilab keladi. Adabiyot aynan shu xususiyati tufayli inson omili bilan bog`liq bo`lgan barcha fanlar bilan o`zaro aloqadorlikda taraqqiy etadi. Mumtoz adabiyotimizning ajralmas qismiga aylangan tasavvuf g`oyasi ham avvalboshda ijtimoiy hodisa sifatida, ya'ni zodagonlar qatlamining boylikka ruju qo`yish illatiga qarshi harakat tarzidagi zohidlik ko`rinishida yuzaga kelgan edi. Zohidlarning nafsga berilmaslik haqidagi qarashlari aholining kambag`allar qatlamiga kuchli ta'sir ko`rsata boshladi. Ular zohidlarga o`zgacha hurmat-ehtirom ko`rsatgan hamda ularning suhbatlaridan bahra olganlar. Bunday suhbatlar mobaynida zohid so`fiylar nutqlari yanada ta'sirli chiqishi uchun turli rivoyatlar, mazmunli satrlar keltirganlar. Bu jarayon tasavvufning adabiyotga intilishi edi [6:139]. O`z navbatida adabiyot ham tasavvuf g`oyalari orqali mazmunan boyidi, tasvir obyekti yana ham teranlashdi. Endi badiiy ijod insonning his-tuyg`ularini, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar, muammolarni yoritish bilan bir qatorda, olam va odamning yaratilishi, boqiy hayotda farovonlikka, Alloh visoliga erishish uchun qanday yashash, o`zini qanday isloh qilish lozimligini ham aks ettira boshladi. Ushbu holat adabiyotimizning mumtoz davri vujudga kelishiga asos bo`ldi, desak, aslo mubolag`a bo`lmaydi.

Dastlab, Robiya Adaviya, Ibrohim Adham, Hasan Basriy kabi so`fiylar o`zlarining go`zal axloqi-yu zohidona hayot tarzi bilan barchaning hurmat e'tiborini qozonib, o`rnak bo`ldilar va ularning

hayoti, g`oyasi haqida turli rivoyat hamda afsonalar xalq orasida keng tarqaldi. Birgina Robiya Adaviyaning Allohga bo`lgan haqiqiy ishqi, tamasiz va riyosiz ibodatlari to`g`risidagi hikoyalar nafaqat xalq og`zaki ijodida, balki Farididdin Attor, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy asarlarida juz'iy o`zgarishlar bilan aks ettirilgan. Jumladan, tasavvuf adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo`lgan Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida Bibi Robiya Adaviya ta'rifiga bag`ishlangan maxsus bob ajratilgan bo`lib, unda so`fiyning tug`ilishidan e'tiboran, butun hayoti mobaynida yuz bergan karomatlar haqida so`z boradi.[3:79-95] Asarni o`qish davomida avliyolar qatorida bo`lgan bu so`fiy ayol haqida , uning siyrati-yu tiynati, axloqiy go`zalligi haqida tasavvurga ega bo`lamiz.

Naql qilinishicha, bibi Robiya oilada to`rtinchi qiz bo`lib dunyoga kelgani uchun shunday nom olgan ekan. Onalarining tushida payg`ambarimiz (s.a.v) bu qizning sayyida ekanligini aytadilar. Rahmoniy bu tush ta'sirida faqir oila Balx hokimiga xat yozib, turmushlarini yaxshilab oladilar.[3:81-82] Dunyoga kelishi bilanoq karomatli mo`jizalarga sabab bo`lgan Robiya Adaviya qalbiga Alloh ishqini naqshlab, tasavvuf adabiyotida tamasiz va riyosiz ibodat, haqiqiy ishq sohibasi deya nom qoldirdi. Uning qarashlari ma'lum asar holida shakllanmagan bo`lsa-da, xalq og`zaki ijodi namunalari hamda zamondoshlarining asarlari orqali bizgacha yetib keldi. Jumladan, yuqorida ta'rifi berib o`tilgan "Tazkirat ul-avliyo" asarida bu so`fiy ayolning tasavvufga oid fikrlari hikoyatlar shaklida berib o`tilgan. Quyida hikoyalarga singdirilgan shunday qarashlarning umumlashgan qisqacha mazmuni keltirildi:

Tasavvufiy qarashlari mazmun-mohiyati	**Qaysi hikoyatda tasvirlanganligi**
Allohga tamasiz toat qilmoq xoslar ishidir. Ibodat Jannat umidi bilan yoki do`zaxdan qo`rqib emas, Alloh sevgisi uchun qilinmog`i lozim.	Kishilarning Allohga nega bandalik qilish lozimligi haqidagi suhbati[3:92-93] Sufyoni Savriy bilan Robiyaning tonggacha namoz o`qib chiqqanlari haqidagi hikoya[3:94-95]
Kishi nimani kuchli sevsa, uni ko`proq yod etar. Shuning uchun bu dunyoni ko`p yomonlaydigan insonni taqvoli deb bo`lmaydi.	Basra akobirining bu dunyoni tinmay yomonlagani haqidagi hikoya[3:93]
Sidq va ixlos bilan ibodat qilgan kishi hamisha Allohning nazarida bo`ladi.	Namoz chog`I Robiyaning o`tsiz, o`tinsiz taom pishirgani haqidagi hikoya[3:94]
Bu dunyoning kichik matohi xayoli ham Alloh sevgisini susaytiradi, oxiratni unuttiradi.	Robiyaning gilam olishni niyat qilgani haqidagi hikoya[3:91-92] Nimaga turmushga chiqmaysan? Kishilar bilan suhbatidan[3:88]
Haqiqiy banda sog`ligi-yu betobligida shukr qilib yashamog`I, barini Undan deb bilmog`I lozim	Bir kishining bosh og`rig`idan boshini bog`lab olgani haqidagi hikoya[3:91] Alloh bandalarining qaysi ishidan rozi bo`ladi? Kishilar bilan suhbatidan[3:90]
Alloh "qanday" va "qanaqa"siz va beshabih va benamunadir. Doim bo`lgan va hamisha bo`ladigan, hamma narsani yaratgan, har bir tirikka rizq beruvchidir.	Allohni bilasanmi va sevasanmi? Kishilar bilan suhbatidan[3:89]

Allohga bo`lgan haqiqiy sevgi shunday qudratga egaki, bunday ko`ngilga na shaytonning dushmanligi, va na payg`ambar sevgisi xayoli sig`adi	Shaytonni dushman tutarmisan? Kishilar bilan suhbatidan[3:90] Payg`ambarimizni tushida ko`rgani haqidagi hikoya[3:90] Nega muncha ko`p yig`larsan? Kishilar bilan suhbatidan[3:90]
Haqiqiy mo`min bugun uchun yetarli ehtiyoji qadar ne'matni oladi, qolganini Alloh yo`lida ehson qiladi. Erta uchun zahira qilib saqlamaydi.	Hasan Basriy bilan suhbat. Alloh senga qanday ilm o`rgatti?[3:88]
Poklik insonni Allohga yaqinlashtiradi. Xaromdan saqlanib, payg`ambarga ergashgan kishiga Alloh payg`ambarlikdan bir daraja bergay.	Robiyaning uyni o`z barmog`ini yoqib yoritgani haqidagi hikoya[3:86-87]
Yaxshilik-u ibodat ko`z-ko`z qilinmay amalga oshirilganda go`zal bo`ladi. Har qancha buyuk ish qilma uni Alloh nasib etganiga shukr et va o`zingning bandai ojiz ekanligingni unutma.	Robiya va Hasan Basriyning birga namoz o`qiganlari haqida hikoya[3:86]

Ko`rinib turibdiki, dastlabki so`fizm g`oyalari zohidlarning ibratli turmush tarzi orqali, purhikmat va'zlari orqali xalqqa yetkazilgan bo`lsa, keyinchalik betakror ash'orlar, turli tasavvufiy timsollar orqali yaratilgan asarlar vujudga keldi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tasavvufiy adabiyot inson qalbi va ruhiyati bilan bog‘liq chuqur falsafiy g‘oyalarni ifoda etuvchi muhim madaniy merosdir. Uning paydo bo`lishi ijtimoiy hayotda zohidona dunyoqarashning yetakchi o`ringa chiqishi hamda keng ko`lamda ommalashishi bilan bog`liqdir. Yuqorida tahlil etilganidek, ilk so`fiylar hayoti haqidagi hikoyalarda aks etgan tasavvufiy g`oyalar keyinchalik beqiyos mumtoz adabiyotning yuzaga kelishiga poydevor bo`ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abduqodirov A. Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (Vahdat ul-vujud muammosi). Monografiya. – Xo`jand: Rahim Jalil, 2005
2. Eshniyazova M. Tasavvufiy adabiyot tarixining Alisher Navoiy asarlarida yoritilishi. Maqola
3. Fariduddin Attor. Taskirat ul-avliyo. Toshkent, G`afur G`ulom nashriyoti, 2013. B 464,
4. Fayzulloyev B. Navoiyning tasavvufiy qarashlari professor Abdusalom Abduqodirov ilmiy talqinida. Maqola
5. Haqqulov I. Tasavvuf va she`riyat.-Toshkent: G`afur G`ulom, 1991
6. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent "Movarounnahr" nashriyoti: 2009. **B.**448

Anvarova Zohida Akramovna
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qodirjonovazohida9@gmail.com

TARIXIY SO‘ZLARNING FONOPRAGMATIK TAHLILI
(“Buyuk saltanat” asari asosida)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada klassik va tarixiy badiiy matnlarda uchraydigan ayrim tarixiy so‘z va iboralarning fonetik shakli va ularning talaffuzidagi intonatsion xususiyatlar orqali yuzaga keluvchi pragmatik ma’nolari tahlil qilinadi. Jumladan, “malikai davron”, “janobi oliyalari”, “xonimoyim”, “zamona zayli” kabi so‘z birikmalari tahlil etilib, ularning fonetik shakllari orqali qanday ruhiy-psixologik ta’sir hosil qilishi ko‘rsatiladi. Tahlil asosan tarixiy uslubda yozilgan epistolyar matn asosida olib boriladi.*

Kalit so‘zlar: *fonopragmatika, lokutiv akt, illokutiv akt, tarixiy unvon, sharqona ifoda, ohang, intonatsiya, uslub, badiiy til.*

ФОНОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ СЛОВ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ВЕЛИКАЯ ИМПЕРИЯ»)

Аннотация: *В данной статье анализируются прагматические значения, возникающие через фонетическую форму и интонационные особенности произношения некоторых исторических слов и выражений, встречающихся в классических и исторических художественных текстах. В частности, рассматриваются такие словосочетания, как «маликаи даврон», «джаноби олиялари», «хонимойим», «замона зайли», и показывается, какое психологическое и эмоциональное воздействие они оказывают через свою фонетическую форму. Анализ проводится в основном на основе эпистолярного текста, написанного в историческом стиле.*

Ключевые слова: *фонопрагматика, локотивный акт, иллокутивный акт, исторический титул, восточное выражение, мелодика, интонация, стиль, художественный язык.*

PHONOPRAGMATIC ANALYSIS OF HISTORICAL WORDS (BASED ON THE WORK *“GREAT EMPIRE”*)

Annotation: *This article analyzes the pragmatic meanings that arise through the phonetic form and intonational features of certain historical words and expressions found in classical and historical literary texts. In particular, word combinations such as “malikai davron,” “janobi oliyalari,” “xonimoyim,” and “zamona zayli” are examined, showing the psychological and emotional impact they create through their phonetic form. The analysis is mainly carried out on the basis of an epistolary text written in a historical style.*

Key words: *phonopragmatics, locutionary act, illocutionary act, historical title, oriental expression, tone, intonation, style, literary language.*

Kirish. Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning madaniy-tarixiy tajribasini, ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini, axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi ijtimoiy hodisadir. Ayniqsa, tarixiy-badiiy matnlar tilning estetik va ekspressiv imkoniyatlarini namoyon etadigan noyob manba sifatida alohida o‘rganishni talab qiladi. Chunki bunday matnlarda tilning har bir qatlamida – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik darajalarda o‘sha davrga xos ijtimoiy-madaniy muhit, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy maqomlar va ruhiy holatlar aks ettiriladi. Jumladan, tarixiy nutq namunalarida qo‘llanilgan fonetik shakllar va ularning kommunikativ vazifalari tilshunoslikning zamonaviy tarmoqlaridan biri bo‘lgan fonopragmatika doirasida tahlil qilinadi.

Fonopragmatika kundalik muloqotda ma'lum pragmatik ma'nolarni yuqori bo‘laklarga yetkazish uchun fonologik dinamikadan foydalanishni o'rganadi. Fono-pragmatik yondashuv nutqning

fonologik jihatlarini pragmatik yo‘naltirilgan tekshirish bilan bog‘liq. U “prosodik amalga oshirish va pragmatik ta’sir o‘rtasidagi interfeys" ni aniqlaydi.[1] Fonopragmatika — bu fonetik vositalarning nutqdagi emotsional, ijtimoiy va stilistik yuklamasini, ya’ni ularning maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ funksiyasini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalishdir. Bu yondashuv nutqning faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki uning ichki tuzilmasini, pragmatik maqsadini, kommunikatorning ruhiy holatini, niyatini va o‘zaro muloqotdagi pozitsiyasini ham ochib beradi. Tarixiy matnlarda esa bu jihatlar ayniqsa yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Chunki bunday matnlar nafaqat bir davr ruhini, balki o‘sha davrga xos muloqot estetikasi va til tafakkurini ham namoyon etadi.

Mazkur maqolada tarixiy epistolyar janrga oid bir maktub matni asosida ayrim tarixiy so‘zlar va fonetik birliklarning fonopragmatik, lokativ, implikativ hamda prolokativ funksiyalari tahlil qilinadi. Maktubdagi *“Assalomu alaykum va barakotuh”, “nurli uzorlariga to‘ymay tikilib-tikilib o‘ltirish”,* “*naq – osmonga”, “bemehr zamona zayli”* kabi iboralar fonetik, stilistik va pragmatik jihatdan chuqur ma’no yukiga ega bo‘lib, ular o‘z zamonasi madaniy tafakkurining aks sadosi sifatida qaraladi. Nutq nafaqat aytilgan narsadan, balki qanday aytilganidan ham iborat bo‘lganligi sababli, so'zlovchilarning nutqini ishlab chiqarish usuli aytilgan narsa bilan bir xil ahamiyatga ega. Ma’ruzachilarning nutqini ishlab chiqarish usuli ular foydalanadigan prozodik xususiyatlar bilan bog‘liq. Bu xususiyatlar “balandlik, ovoz balandligi, temp va ritmdagi o'zgarishlarga” tegishli. [2]

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda tilshunoslikda fonetik vositalarning kommunikativ-funksional imkoniyatlarini kengroq yoritish, ayniqsa tarixiy til qatlamlari va badiiy matnlar asosida tahlil qilish muhim ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki bunday yondashuv tilni faqat statik tizim emas, balki dinamik, ijtimoiy va madaniy jihatdan harakatdagi hodisa sifatida o‘rganishga imkon yaratadi. Shu asosda maqolaning asosiy maqsadi – tarixiy matn asosida ayrim tarixiy so‘zlar va fonetik vositalarning fonopragmatik jihatdan tahlilini olib borish, ularning kommunikativ yuklamasini, semantik va stilistik xususiyatlarini aniqlash, va shu orqali tarixiy-badiiy matnlardagi til estetikasi va ma’naviy-falsafiy mazmunni ilmiy asosda ochib berishdan iboratdir.

Tarixiy-badiiy yozishmalarda muallif yoki nutq egasi o‘z fikrini nafaqat ochiq ma’no orqali, balki yashirin, nozik, muloqotga kirishishga xizmat qiluvchi vositalar orqali ham ifoda etadi. J.Ostin, u yoki bu nuqtayi nazarni ifoda etganda, shaxs muayyan vaziyatni tasvirlashi, shuningdek, ba’zi harakatlarni, ya’ni nutq aktini bajarishi mumkinligiga e’tibor qaratdi: xabar berish, so‘rash, undash, iltimos qilish, maslahat berish, minnatdorchilik va boshqalar. Shuningdek, u nutq aktlarining uchta bosqichini ajratadi: 1) lokutiv - akt o‘z-o‘ziga gapirish. 2) illokutiv - boshqa shaxsga niyatini bildiradi, maqsadni belgilaydi. 3) perlokutiv - boshqa kishining xatti-harakatlariga ta’sirini ifodalaydi. J. Ostin nutq akti funksiyalarini illokutiv kuchlar, unga tegishli fe’llarni esa illokutivlar deb atadi. Illokutiv kuch - bu tushuncha quyidagi tarkibiy qismlarning birikmasidan iborat: 1) maqsad yoki niyat; 2) maqsadga erishish usuli; 3) nutq akti illokutiv kuchining intensivligi; 4) taxminiy mazmunning xususiyatlari; 5) muayyan nutq aktidan foydalanish shartlari; 6) samimiylik shartlari. Nutq akti illokutiv kuchining yuqoridagi keltirilgan barcha tarkibiy qismlari mantiqiy tartibga solingan va o‘zaro bog‘liqdir. [3]

Quyida keltirilgan tarixiy uslubdagi epistolyar matn lokativ, implikativ va prolokativ jihatdan tahlil qilinadi:

“Assalomu alaykum va barakotuh. Suyukli va ardoqli malikai davron Sevinbika janobi oliyalariga, nurli uzorlariga to‘ymay tikilib-tikilib o‘ltirish baxtidan umidvor xonimoyimdan deb bilgaylar. Xudoning bemisl marhamatiday tuyulg‘on muborak maktubingiz qo‘limizga yetdi, boshimiz esa naq - osmonga... Xatingizning qorasidan dillarimiz yorishdi... Bemehr zamona zayli bilan, bir yurtda turib, ko‘rishmag‘onimizga xiyla yillar bo‘ldi.”[4]

[1] Iaia, Provenzano & Sperti, 2016, 235-bet

[2] Crystal, 2008, 393-bet

[3] Остин Дж. Слово как действие /Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике.-М.: Прогресс, 1986.- Вып. 17.- С.131.

[4] Ali M. Buyuk Saltanat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2021. 3-kitob,146-bet.

Lokativ tahlil, avvalo, matndagi makon, holat va vaziyatni anglatishga xizmat qiluvchi til birliklarini ochib beradi. Ushbu matnda “bir yurtda turib, ko‘rishmag‘onimizga...” iborasi orqali lokativ anglashiladi. Ya’ni, ikki shaxs bir hududda, bir yurtda yashayotgan bo‘lsa-da, ular orasidagi muloqot va ko‘rishish uzilib qolgan. Bu fonetik jihatdan muvozanatli, lekin semantik jihatdan ziddiyatli ifodadir. Aynan shu lokativ kontekst – yaqinlikdagi uzoqlik, yaqin makondagi uzoq ruhiy masofa orqali fojialikni bildiradi. Shuningdek, “uzorlariga to‘ymay tikilib-tikilib o‘ltirish baxti” degan jumla ham, go‘yo jismoniy yaqinlik, ilohiy manzara, hushyorlikni bildiradi. Ammo bu holat real emas, faqat umid va xayolda mavjud.

Implikativ tahlil orqali matndagi yashirin, bilvosita ifodalangan ma’nolar ochiladi. Bu matn zahiriy jihatdan bir salomlashuv va xatga javob ko‘rinishida yozilgan bo‘lsa-da, unda juda ko‘p ichki ruhiy holat, mehr, sog‘inch, afsus, iltijo yashiringan. Masalan, “nurli uzorlariga to‘ymay tikilib-tikilib o‘ltirish baxtidan umidvor xonimoyimdan deb bilgaylar” – bu jumlada bevosita sevgi aytilmaydi, lekin estetik tasvir vositasida kuchli sog‘inch va intilish ifodalanadi. “Xudoning bemisl marhamatiday tuyulg‘on muborak maktubingiz...” iborasi esa maktubni ilohiy marhamatga tenglashtiradi – bu orqali xat egasiga nisbatan muqaddaslik, poklik, hayrat va quvonch bildirilyapti. Yana bir yashirin ma’no – “bemehr zamona zayli” iborasida yaqqol ko‘rinadi: u zamonni ayblaydi, shaxslarni emas. Bu orqali yozuvchi o‘zini ham, xat egasini ham ayblamaydi, balki muhitni aybdor qiladi. Bu esa ichki kechinma va aybsizlikni anglatadi.

Prolokativ tahlil esa nutqning muloqotga kirishish qismiga, ya’ni aloqa uchun muqaddima yaratishiga qaratilgan. “Assalomu alaykum va barakotuh” degan diniy salomlashuv matnni ruhan poklaydi, muqaddaslashtiradi, ishonch muhitini yaratadi. Undan so‘ng “Suyukli va ardoqli malikai davron Sevinbika janobi oliyalariga...” kabi tantanali murojaat shakllari orqali yozuvchi o‘zini past tutib, xat egasini ulug‘laydi. Bu muloqotni ehtirom asosida boshlashga imkon yaratadi. Yoki “umidvor xonimoyimdan deb bilgaylar” kabi iboralar orqali muloqot muallifi o‘zining quyi maqomini ta’kidlab, xushmuomalalik bilan kirishish yo‘lini tanlaydi. Bu uslubiy jihatdan sharqona diplomatiya va muloqot madaniyatining eng yorqin namunalaridan biridir. Prolokativ vositalar bu yerda dialogdan ko‘ra, yurakdan yurakka yetadigan xotirjam muloqotga zamin yaratadi.

“Malikai davron” iborasining fonopragmatik jihati

“Malikai davron” iborasida urg‘u, odatda, “davron” so‘ziga tushadi. Fonetik jihatdan bu ibora sokin va cho‘zilgan ohangda aytiladi, bu esa ehtirom va sevgi tuyg‘usi bilan to‘ldirilgan. Talaffuzdagi bosiqlik ushbu so‘z birikmasining emotsional-ilohiy ta’sirini oshiradi. Ijodkorning fonetik birliklar orqali pragmatik ma’no yaratish mahorati yana bir bor namoyon bo‘ladi. V.I. Degterev ta'kidlaganidek, so'zning muhim jihati uning leksik-grammatik mazmunidir. Uning moddiy-tovush majmuasi, tarkibiy-grammatik bo‘linishi asosida tarkibi shakllangan. So‘zning moddiy-tovush tuzilishi va morfemik bo‘linishi so‘zning moddiy tayanchini tashkil qiladi va uning grammatik shakli, turmush tarzi nutq ob’ektiga ta’sir qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, voqelik faktlarini, muloqot jarayonida oddiy fonetik birlikni ham baholash mumkin. Masalan:

Suyukli va ardoqli malikai davron Sevinbika janobi oliyalariga...

Bu jumla fonetik jihatdan yumshoqlik va ehtiros bilan to‘ldirilgan bo‘lib, tinglovchida mehr va sadoqat tuyg‘usini uyg‘otadi. Har qanday sintaktik qurilma gap bo‘lishi uchun ma’lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari kommunikativ maqsadni ham ifoda etishi kerak… Jumlani tashkil qilgan sintaktik elementlar ma’lum sintaktik vazifani bajarish bilan birga so‘zlovchining kommunikativ niyatini ifodalab kommunikativ vazifa bajatish uchun ham xizmat qiladi. [1]

Janobi oliyalari” – fonetik qurilishi va ta’siri

Bu ibora og‘zaki nutqda cho‘zilgan, tantanali ohang bilan aytiladi. Har bir so‘z o‘z urg‘usiga ega: “Ja-nó-bi” va “ó-li-ya-la-ri”. Talaffuzdagi baland ohang, asta aytilishi – tinglovchi yoki o‘quvchida hurmat va bo‘ysunuv hissini uyg‘otadi.

“Xonimoyim” – kompozit tarixiy unvon

[1] Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent, 1992. 95-bet.

Bu ibora ikkita hurmat ifodalovchi so‘zdan tarkib topgan: “xonim” va “oyim”. Fonetik jihatdan qisqa, lekin yumshoq ohangda aytiladi. Bu esa nafosat, muhabbat, ehtirom tuyg‘ularini pragmatik jihatdan kuchaytiradi.

Jumla: *...umidvor xonimoyimdan deb bilgaylar...*

Ushbu ibora talaffuzda o‘zini kichik tutish, samimiyat va sadoqat ruhida ta’sir etadi. Nutqiy akt nazariyasining umumiy masalalarida ichida uning umumsemiologik tarkibi muammosi muhim o’rin tutadi. Nutqiy akt tuzilishiga oid masalalarning tadqiq etilishi bu yo‘nalishning ko‘p qirrali ekanligidan dalolat beradi. So‘zlovchi borliqni ko‘rish va uni ma’lum his-tuyg‘ular bilan anglash orqali javob qaytaradi. Ana shunday holatlarda o‘zining harakatlari, talaffuz akti va kommunikativ niyyati bilan munosabat bildiradi. [1]

“*Zamona zayli*” – fonetik dramatizmi

“Zamona zayli” iborasidagi “zayl” – forsiy ildizli bo‘lib, “o‘tuvchi holat, fanolik” ma’nosini beradi. Shuningdek, ushbu so’zning “bir xil maromda o’tuvchi’ degan ma’nosi ham bor.[2] Fonetik jihatdan bu ibora yumshoq, afsus ohangi bilan aytiladi. Talaffuzda esa hissiyot, hasrat kuchli seziladi.

Jumla: *Bemehr zamona zayli bilan, bir yurtda turib, ko‘rishmag‘onimizga...*

Bu yerda fonopragmatik jihatdan ayriliq, armon va ko‘ngil ezilishi ta’siri seziladi.

Fonopragmatik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fonetik shakllar – ya’ni takroriy tovush birliklari (masalan: “*tikilib-tikilib”, “boshimiz esa naq – osmonga”),* emotsional urg‘ular va ohang-dor sintaksis unsurlari matnning pragmatik maqsadini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday elementlar, nafaqat matnning ohangini belgilaydi, balki kommunikativ kuchini ham oshiradi. Xususan, nutq egasining ruhiy kechinmalari, bevosita ifoda etilmagan ehtiyoj va istaklari fonetik vositalar orqali ko‘proq seziladi.

Lokativ tahlil matnda makon tushunchasi orqali vaqt va fazoviy yaqinlikning aksincha semantik kuchga ega bo‘lishini aniqlaydi. *“Bir yurtda turib, ko‘rishmag‘onimizga...”* kabi iboralar yordamida real makon yaqinligiga qaramay, muloqotdagi ruhiy uzoqlik, hayotiy to‘siqlar va davr zayli ifodalanadi. Bu esa matn kontekstida tarixiylikni, ya’ni muhit ta’siridagi nutqiy-bevosita aloqa uzilishlarini aks ettiradi.

Implikativ tahlil orqali esa ochiq aytilmagan, biroq matnda yashirin holda mavjud bo‘lgan ma’no qatlamlari ochildi. Maktubni *“Xudoning bemisl marhamatiday tuyulg‘on...”* deb ta’riflash, “*nurli uzorlariga to‘ymay tikilib o‘ltirish”* kabi iboralar vositasida oddiy sog‘inch emas, balki muqaddas tuyg‘ularga tenglashtirilgan mehr-muhabbat aks ettiriladi. Bu semantik daraja matnni chuqur ma’naviy konnotatsiyaga ega qiladi.

Prolokativ tahlil shuni ko‘rsatdiki, tarixiy nutq muloqotga kirishishda har doim muqaddima, ehtirom, ijtimoiy maqomni tan olish va dialogga yo‘l ochuvchi stilistik vositalar bilan boyitilgan bo‘ladi. *“Assalomu alaykum va barakotuh”, “Suyukli va ardoqli malikai davron”* kabi iboralar matnni oddiy xabar emas, balki madaniy-tarbiyaviy hodisaga aylantiradi. Bu jihat matnni faqat semantik jihatdan emas, balki ijtimoiy-lingvistik qadriyatlar kontekstida ham o‘rganishga yo‘l ochadi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, trixiy-badiiy matnlarning fonopragmatik tahlili, xususan, ularda qo‘llanilgan fonetik shakllar, ularning emotsional ta’siri, hamda ijtimoiy-madaniy kontekstdagi kommunikativ vazifasi – bugungi lingvistik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada tahlil etilgan tarixiy nutq parchasi – Sharq epistolyar madaniyati va adabiy uslubining yorqin namunasi bo‘lib, unda fonetik vositalar orqali muayyan ma’naviy-ruhiy holatlar, muqaddaslik, ehtirom, sevgi, sog‘inch va umid tuyg‘ulari estetik tasvir orqali yetkaziladi. Tarixiy matnlarning fonopragmatik, lokativ, implikativ va prolokativ tahlili ularning chuqur ichki strukturasini ochib beradi. Bunday yondashuv matnni ko‘p qatlamli, murakkab lingvokulturologik hodisa sifatida talqin qilishga imkon yaratadi. Natijada, nafaqat tilning tarixiy shakllari, balki o‘sha shakllar orqali yetkazilgan ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarning jamiyat ongidagi aks sadosi ham ilmiy ravishda anglash mumkin bo‘ladi. Bu esa tarixiy-badiiy matnlarni zamonaviy lingvistik paradigmalar doirasida chuqur va izchil tahlil qilish imkonini beradi.

[1] Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2013. 31-bet.
[2] https://uz.m.wiktionary.org/wiki/zayl

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Арутюнова, Н. Д. (1990). Дискурс: Лингвистическая энциклопедия. Москва: Советская энциклопедия.
2. Брандес, М. А. (2003). Фонетическая экспрессия в художественном тексте. Москва: Наука.
3. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2013. 31-bet.
4. Комилов, N. (2007). Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
5. Nazarov, M. (2014). Tarixiy matnlar tilining stilistik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
6. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent, 1992. 95-bet.
7. Остин Дж. Слово как действие /Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике.-М.: Прогресс, 1986.- Вып. 17.- С.131.
8. Qilichev, R., Rajabov, A., & To'xtaboyev, T. (2008). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
9. Safarov, Sh. (2012). Pragmatik tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan.
10. Xudoyberganova, D. (2013). Antropotsentrik tilshunoslik va uning tadqiq metodlari. Toshkent: Fan.
11. Yuldasheva, N. (2020). Fonetik vositalarning ekspressiv-stilistik funksiyalari. Toshkent: TDPU Ilmiy nashriyoti.
12. Crystal, D. (2003). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (5th ed.). Oxford: Blackwell.
13. Verschueren, J. (1999). Understanding Pragmatics. London: Arnold Publishers.

Azimova Xurshida Zohidjon qizi
Doctoral (PhD) at Fergana State University,
Qo'chqarova Musharraf Ilhomjon qizi
English teacher at school 29

ANAPHORA IN LINGUISTICS

Abstract. *This paper explores the role of anaphore in maintaining textual cohesion and coherence. The study highlights linguistics, pragmatic and stylistic dimension of anaphoric expressions by analyzing examples from English and Uzbek. The results suggest that anaphore functions as a crucial cohesive device, enabling readers to connect ideas across sentences and discourse.*

Key words: *anaphora, anaphoric reference, pronouns, referent, coreference, antecedent, cataphora, endophora, exophora, coherence, cohesion, discourse analysis, binding theory.*

АНАФОРА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль анафоры в обеспечении связности и когерентности текста. Исследование подчеркивает лингвистический, прагматический и стилистический аспекты анафорических выражений на основе анализа примеров из английского и узбекского языков. Полученные результаты свидетельствуют о том, что анафора выступает в качестве важного средства текстовой связности, позволяющего читателям устанавливать связи между идеями в пределах предложений и дискурса.*

Ключевые слова: *анафора, анафорическая отсылка, местоимения, референт, кореференция, антецедент, катафора, эндофора, экзофора, когерентность, связность, дискурсивный анализ, теория связывания.*

TILSHUNOSLIKDA ANAFORA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matnning yaxlitligi va bog'liqligini ta'minlashda anaforaning o'rni o'rganiladi. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridan olingan misollar tahlili orqali anaforik ifodalarining lingvistik, pragmatik va uslubiy jihatlari yoritib berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, anafora matnning muhim bog'lovchi vositasi bo'lib, o'quvchilarga gaplar va nutq bo'ylab g'oyalarni bog'lash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *anafora, anaforik murojaat, olmoshlar, referent, koreferensiya, antetsedent, katafora, endofora, ekzofora, yaxlitlik, bog'liqlik, nutq tahlili, bog'lanish nazariyasi.*

Introduction. Anaphora is a basic phenomenon in the study of language, playing a pivotal role in the organization of discourse, the expression of meaning, and the interpretation of texts. The term derives from Greek roots meaning 'to carry back,' which reflects its function in language: anaphora is the process of referring back to something previously mentioned. Without anaphora, communication would become repetitive, fragmented, and less efficient. By providing continuity, anaphora contributes to the logical and semantic unity of speech and writing.

From a historical perspective, anaphora has been studied since classical rhetoric, where it was recognized as both a grammatical and stylistic device. In modern linguistics, it has been approached from various perspectives: syntax (Chomsky, 1981), semantics (Lyons, 1995), pragmatics (Levinson, 1983), and discourse analysis (Halliday & Hasan, 1976). Furthermore, anaphora is not merely a linguistic mechanism; it is deeply tied to cognitive processes and cultural practices of communication. For instance, while English and other European languages tend to avoid repetition through pronominal anaphora, languages like Uzbek and Russian often preserve repetition as a stylistic feature. Such differences highlight the interdisciplinary importance of studying anaphora.

The relevance of this research is further increased by its application in computational linguistics and artificial intelligence. Anaphora resolution-the automatic identification of referents of

pronouns and other anaphoric expressions-is one of the central challenges in natural language processing (NLP). Thus, anaphora remains not only an important topic for theoretical linguistics but also for practical applications in technology.

The aim of this article is to present a comprehensive study of anaphora by combining structural, semantic, pragmatic, and cultural approaches. The research explores anaphora in English and Uzbek languages, drawing from the works of both Western and Uzbek linguists.

Methodology

This study applies several complementary methods in order to ensure a comprehensive analysis. First, the descriptive method is used to categorize different types of anaphoric devices: personal pronouns, demonstratives, reflexives, lexical repetition, and substitution. Their grammatical and semantic features are described in both English and Uzbek. Second, the comparative method highlights similarities and differences in the use of anaphora across these languages. Third, discourse analysis is applied to real texts, both literary and academic, in order to evaluate how anaphora functions in authentic communicative contexts.

The material analyzed in this study includes works of English literature (e.g., Shakespeare, Dickens), Uzbek prose (e.g., Abdulla Qodiriy), and modern journalistic texts. Scientific literature in English, Russian, and Uzbek linguistics was also used as the theoretical basis. By combining diverse material, the research ensures validity and generalizability of the results.

Analysis of literature. Anaphora, as a cohesive device, has been extensively examined in linguistic studies due to its fundamental role in ensuring textual coherence and cohesion. Scholars have approached anaphora from multiple linguistic domains-syntax, semantics, pragmatics, and discourse analysis-underlining its multifaceted function in language structure and use.

Halliday and Hasan's (1976) seminal work *Cohesion in English* laid the foundation for the study of cohesion in discourse, introducing a detailed taxonomy of cohesive devices, among which anaphora was identified as a central mechanism. They categorized anaphora as a type of reference that enables readers or listeners to track participants and elements throughout a text. According to their model, cohesion is not only a grammatical feature but also a semantic one, where anaphoric expressions serve as bridges across textual elements, linking pronouns or noun phrases to their antecedents.

Further contributions from linguistic theory, especially within the framework of Binding Theory (Chomsky, 1981), provided syntactic rules for how anaphors, pronouns, and referential expressions relate to their antecedents within sentence structures. Binding Theory, while primarily syntactic, contributes to understanding constraints on referential coherence in a given language.

Pragmatic perspectives have also enriched our understanding of anaphora. Levinson (1987) emphasized the importance of context in resolving anaphoric references, particularly in discourse situations where multiple potential referents exist. He introduced the concept of discourse anaphora, which moves beyond sentence-level references and incorporates cognitive processing and contextual awareness into the interpretation of anaphoric relations. Stylistically, anaphora has been studied not only as a grammatical device but also as a rhetorical figure. In literary texts, deliberate repetition through anaphora is often employed to create emphasis, rhythm, or emotional intensity (Wales, 2001). Such use transcends mere cohesion and enters the realm of aesthetic and rhetorical function.

Cross-linguistic studies of anaphora, including investigations in lesser-studied languages such as Uzbek, have contributed to a broader understanding of universal and language-specific features of anaphoric reference. For instance, Ismatova (2019) compared English and Uzbek anaphoric systems, revealing both similarities in the use of pronominal reference and differences in syntactic positioning and ellipsis. This comparative approach highlights the influence of language structure on cohesive strategies and supports the view that anaphora functions both as a universal cognitive mechanism and as a language-specific grammatical tool. Discourse analysis has also seen the integration of anaphora as a key component in studying information flow and coherence. Brown and Yule (1983) argued that referential continuity, achieved through devices such as anaphora, is essential for the listener or reader to construct a coherent mental model of the discourse. In more recent studies, computational linguistics and natural language processing (NLP) have approached anaphora

through coreference resolution-the task of determining which words refer to the same entity. Tools developed for automatic anaphora resolution (e.g., Stanford CoreNLP, AllenNLP) have demonstrated the practical importance of understanding anaphoric relations, especially for applications in machine translation, information retrieval, and summarization (Ng, 2010).

Results and discussion. Anaphora manifests itself through a variety of linguistic devices. The most common are pronominal anaphora (he, she, it, they), demonstrative anaphora (this, that, these, those), reflexives (himself, herself), and lexical repetition. Each of these serves a specific function in discourse. In English, pronominal anaphora dominates due to stylistic norms that favor lexical economy. In contrast, Uzbek allows for and even values repetition as a stylistic device, giving texts rhythm and emphasis.

Halliday and Hasan (1976) classified anaphora as one of the main cohesive devices in English, alongside ellipsis, substitution, and conjunction. For them, cohesion is not merely structural but semantic, linking ideas across sentences. Their framework remains influential in discourse analysis, where anaphora is seen as a bridge connecting propositions.

Chomsky (1981) introduced Binding Theory, which explains how pronouns and anaphors can and cannot be linked to their antecedents. Binding Principle A requires reflexive pronouns to be bound in their governing category, while Principle B restricts personal pronouns from being locally bound. This theoretical model illustrates universal syntactic constraints of anaphora.

From a pragmatic perspective, Jakobson (1960) emphasized that successful interpretation of anaphora depends on shared context between interlocutors. Pragmatics thus views anaphora not only as a linguistic device but also as an interactive mechanism requiring common ground. In Uzbek, anaphoric devices often rely on cultural knowledge, such as references to kinship terms or social roles, which may not be easily interpreted by outsiders.

Stylistically, anaphora also appears in literature as a rhetorical device. Poets such as Shavkat Rakhmon in Uzbek poetry, and Shakespeare in English, frequently used lexical repetition at the beginning of clauses for artistic effect. For instance, Shakespeare's plays contain numerous lines where repetition enhances emotional intensity and memorability.

Cognitive linguistics further expands the view of anaphora. Gundel, Hedberg, and Zacharski (1993) argue that the form of an anaphoric expression depends on the cognitive status of its referent in the listener's mind. This suggests that speakers choose pronouns, demonstratives, or full noun phrases depending on how accessible the referent is. Therefore, anaphora reflects mental representation as much as linguistic form.

Comparative analysis reveals interesting contrasts. For example, in English: 'John entered the room. He sat down quietly.' Here, the pronoun 'he' avoids repetition. In Uzbek, one might say: 'Jon xonaga kirdi. Jon sekin o'tirdi.' Repetition of the name 'Jon' is stylistically acceptable and can even be considered more natural in certain contexts. This illustrates how cultural norms shape linguistic preferences.

In computational linguistics, anaphora resolution remains a major challenge. Algorithms attempt to determine the antecedent of a pronoun in texts. For example, in 'The teacher spoke to the student because he was late,' it is ambiguous whether 'he' refers to the teacher or the student. Linguistic theories of anaphora directly contribute to improving natural language processing technologies.

Conclusion. Anaphora is a multifaceted phenomenon that connects language, cognition, and culture. Its role in ensuring cohesion and coherence makes it indispensable in both spoken and written discourse. Different linguistic schools have provided diverse perspectives: syntactic, semantic, pragmatic, stylistic, and cognitive. Comparative analysis shows that while English prioritizes economy through pronouns, Uzbek allows repetition to fulfill both cohesive and stylistic functions. Thus, anaphora is simultaneously universal and language-specific.

The findings of this study also have implications for applied fields. In computational linguistics, understanding anaphora is key to developing effective machine translation and text analysis systems. In cross-cultural communication, awareness of different anaphoric strategies can help avoid

misunderstandings. Future research should explore anaphora in multilingual contexts, digital discourse, and artificial intelligence. By bridging theoretical linguistics with practical applications, the study of anaphora continues to be a significant and evolving area of research.

List of references.

1. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. London: Longman, 1976.
2. Chomsky N. Lectures on Government and Binding. Dordrecht: Foris, 1981.
3. Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960.
4. Madvaliyev A. Zamirlar va ularning uslubiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1985.
5. Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: CUP, 1995.
6. Levinson S. Pragmatics. Cambridge: CUP, 1983.
7. Ariel M. Accessing Noun-Phrase Antecedents. London: Routledge, 1990.
8. Cornish F. Anaphora, Discourse, and Understanding. Oxford: Clarendon Press, 1999.
9. Gundel J.K., Hedberg N., Zacharski R. Cognitive Status and the Form of Referring Expressions // Language. – 1993. – Vol. 69. – P. 274–307.
10. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. Cambridge: CUP, 1983.
11. Lyons J. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
12. Kibrik A.A. Anaphora in Russian Discourse. – Moscow: Nauka, 1992.
13. Fedorova O.V. Pragmatika anafory. – Moskva: URSS, 2003.
14. Prince E.F. Toward a Taxonomy of Given-New Information // Radical Pragmatics. – New York: Academic Press, 1981.
15. Reinhart T. Anaphora and Semantic Interpretation. London: Croom Helm, 1983.
16. Huang Y. Anaphora: A Cross-Linguistic Study. Oxford: Oxford University Press, 2000.
17. Van Dijk T.A. Text and Context. London: Longman, 1977.
18. Kuno S. Functional Syntax: Anaphora, Discourse, and Empathy. Chicago: University of Chicago Press, 1987.
19. Givón T. Syntax: An Introduction. Amsterdam: Benjamins, 2001.
20. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell, 2008.
21. Yule G. The Study of Language. Cambridge: CUP, 2014.
22. Charolles M. Introduction à l'analyse du discours. Paris: Hachette, 1978.
23. Kehler A. Coherence, Reference, and the Theory of Grammar. Stanford: CSLI, 2002.
24. Grosz B., Joshi A., Weinstein S. Centering: A Framework for Modeling the Local Coherence of Discourse. Computational Linguistics, 1995.

Bekmurotova Shaxnoza Azamatovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
Chet tillar kafedrasi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: shaxnoza90.90@mail.ru

NEMIS TILIDA JUFT SO‘Z YASALISHIGA DOIR NAZARIYALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nemis tilida juft so‘zlarning yasalishiga doir ko‘plab nazariyalar 80-yillar oxiridan buyon hali ham nemis tilshunosligida dolzarb mavzu bo‘lib keltirilgan. I. Chernisheva va M. Stepanovalar juft so‘zlarning struktural belgisi ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlardan tashkil topadi, deb ta‘kidlaydilar.*

Kalit so'zlar: *juft so'z, binomial, frazeologizm, tilshunoslik, termin, tavtologiya, takror so'z, qo'shma so'z.*

ТЕОРИИ ОБРАЗОВАНИЯ ПАР СЛОВ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье представлено множество теорий образования пар немецких слов, которые были горячей темой в немецкой лингвистике с конца 1980-х годов. И. Чернышева и М. Степанова утверждают, что структурный признак пары слов состоит из слов, близких друг другу по смыслу.*

Ключевые слова: *двойное слово, бином, фразеологизм, лингвистика, термин, тавтология, повторяющееся слово, сложное слово.*

THEORIES ON HOW TO MAKE A PAIR OF WORDS IN GERMAN

Abstract. *In this article, many theories about the formation of German word pairs are presented, which have been a hot topic in German linguistics since the late 80s. I. Chernysheva and M. Stepanova claim that the structural sign of a pair of words consists of words that are close to each other in terms of meaning.*

Key words: *double word, binomial, phraseologism, linguistics, term, tautology, repeated word, compound word.*

Kirish. Nemis tilida bugungi kunda juft so‘zlarni o‘tgan zamonda bo‘lgan tilga oid eskilik sarqiti deb tez-tez tilga olinsada, lekin u zamonaviy tilga oid ifoda, tushuncha demakdir, undan foydalanish esa ifodaning darajalanib oshib borishining yordamchi vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra bir xil qiymatga ega juft so‘zlar ichidan keyinchalik ayrim so‘zlar butunlay yo‘qolib borishi mumkin.[1] Ana shunday ierarxik tartiblangan juft so‘zlarda bir-biridan farq qiluvchi darajalar mavjud bo‘lib, bir-biriga qarama-qarshi ma‘nolarni beruvchi juft so‘zlar *heiß und kalt.*

Nemis tilshunos olimi H.Myuller o‘zining „Adleraug und Luchsenohr‘‘ nomli asarida juft so‘zlarning yasalishini va unda ishtirok etuvchi tovushlarni deyarli matematik aniqlik bilan tushuntirib beradi. Bundan mustasno ravishda shu narsa ko‘rsatib beriladiki, bo‘g‘inlarning miqdori va joylashuv tartibi bir tizimdaligi juda muhim. Chunki juft so‘zlar ichidagi bo‘g‘inlarning miqdori biron-bir davr mobaynida bir xil va teng bo‘lib qoladi yoki ko‘tarilish kuzatiladi, yoki kamayib ketadi.

Bundan tashqari, asosan Yevropa tillaridan nemis tilida juft so‘zlarning yasalishida kombinatsiyalar (bog‘liqliklar) mavjud bo‘lib, ularning harakat jarayoni ichidan **bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli, uch bo‘g‘inli** deb tushuntiriladi. Shu o‘rinda qo‘shimcha qilish kerakki, nemis tilida ko‘plab juft so‘zlar tarkibida *pragmatik qoida*deb ataluvchi konsepsiya mavjud bo‘lib, unda juft so‘zlarning mavjud omillari yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- ijobiylik va salbiylik nisbatida: *Alter und Schönheit (izzat-ikromda);*

[1] Müller H.G. Adleraug und Luchsenohr. Deutsche Zwillingsformeln und ihre Gebrauch. – Frankfurt: Lang Verlag, 2009. – S 88.

- qiymatli va qiymatsiz predmetlarga nisbatan: *Geld wie Heu (Puli oshib-toshib yotmoq);*
- umumiylik nisbatidan kelib chiqqan holatda: *Jahr und Tag (Yil va kun);*
- jonzotlarga nisbatan: *Hund und Katze (it mushuk (kabi)), Katze und Maus (mushuk-sichqon);*
- erkak jinsiga hamda ayol jinsiga tegishli kontekstlarda: *Adam und Eva (*Odam Ato va Momo Havo), *Hansel und Gretel (*Hansel va Gretel*), Bruder und Schwester (aka-singil);*

Komponentlar nutqning har qanday mustaqil ma‘noli so‘z turkumiga tegishli bo‘lishi mumkin, shu bilan birga butun birikmalar bitta sintaktik funksiyani bajaradi.

I.Olshanskiy[1] „juft so‘z“ („Zwillingsformeln“ terminining ruscha ekvivalenti)larni belgilaydi „ikki xil yoki takroriy so‘zlardan tashkil topgan frazeologik birliklar sifatida (to‘liq yoki yordamchi ma‘noli), qoida tariqasida, gapning bir bo‘lagiga tegishli va kompozitsion bog‘lovchilar „und“ bilan bog‘langan „oder“, „weder…noch“ yoki komponentlarning ergashish (sub‘ordinativ) aloqasi bo‘lgan oddiy predloglar“. I.Chernisheva semantik xususiyatlarga e‘tibor qaratadi: „so‘zlarning juft birikmalari“ (Zwillings- bzw. Paarformeln) u ikkita uyushiq so‘zlarni (otlar, sifatlar, fe‘llar, qo‘shimchalar) va „und“ kamdan kam hollarda „oder“, „weder ... noch“ bog‘lovchilari bilan bog‘langan hamda o‘z ichiga olgan juft so‘zlarning semantik o‘zgarishi natijasida vujudga keladigan yaxlit ma‘noga ega frazeologizmlar deb ataydi.

„Juft so‘z“ termini tilshunoslar tomonidan „bog‘langan aloqadagi so‘zlarning birikmasidan farqli o‘laroq, ergashgan aloqadagi so‘zlarning kombinatsiyasi“ni ifodalash uchun ishlatiladi. Zero, G.Eyxbaum haqli ravishda ta‘kidlaganidek, ayrim tilshunoslar teng bog‘lovchilarning mavjudligini tan olmaydilar. Biroq, ularning ajratilishini asosli deb hisoblaydiganlar ayni paytda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida „juft so‘zlar“ termini o‘rnashib qolgan bo‘lib, biz o‘z ishimizda ushbu lingvistik hodisani ifodalash uchun foydalanamiz.

Zwillingsformeln va Wortpaare terminlar odatda sinonim hisoblanadi. Lekin Z.Gergieva nemis iboralarini o‘rganish asosida ushbu ikki tushunchani ajratadi. Wortpaare – bu turli xil so‘zlarning birikmasi (sinonimlar, antonimlar bo‘lishi mumkin. Masalan, Tag und Nacht, klar und deutlich), Zwillingsformeln esa – ikki bir xil so‘z birikmasi, ya‘ni „egizak komponentlar“ sanaladi. Taxminan shu prinsipga ko‘ra I.Olshanskiy bog‘langan juft so‘z bog‘langan birikmalarga (masalan: *Tag und Nacht, wohl oder übel*) va juft (misol uchun. *Hand in Hand, durch und durch*) takrorlanishlarga ajratadi, ammo Zwillingsformeln umumiy tushunchasiga birikmalar ham, takrorlanishlar ham kiritilgan.

An‘anaga ko‘ra, nemis va o‘zbek tilshunosligida qo‘shilgan iboralarga frazeologik birliklarning alohida turi sifatida qaraladi. V.Flaysher bu so‘z birikmasi turini „phraseologische Wortpaare“ deb ataydi, I.Olshanskiy ushbu turdagi so‘z birikmalarini „juftlashgan frazeologizmlar“, odatda, so‘zning frazeologik ekvivalentlari bo‘ladi, degan farazni ilgari sursa, I.Chernisheva ularni frazeologik birliklarga („phraseologische Einheiten“) kiritadi. Frazeologik birliklarning mezonlari sifatida I.Olshanskiy semantik butunlikni, nutqdagi yuqori chastotani, sintaktik tuzilmaning barqarorligini keltiradi.

1989-yilda Gertraud Fenk-Oczlon[2] binomiallar yoki binomial iboralarning ichki tuzilishini shakllantiruvchi bir necha tamoyillarni ishlab chiqdi va ularni uzluksiz axborot oqimining iqtisodiyoti bilan izohladi. Shu jumladan, bu asosiy tamoyil binomial iboralarda odatda tez-tez uchraydigan element kamroq uchraydigan elementdan oldin kelishini ta‘kidlab o‘tgan.

Uchlik va to‘rtlik iboralar (Drillings- und Vierlingsformeln)

Nemis tilida *uchlik iboralar* (masalan, *heimlich, still und leise – sukunat, sokin* yoki Wein, Weib und Gesang – *kayf-safo qilib, lazzatlanib yashash tarzi*) **va onda-sonda *to‘rtlik iboralar*** (masalan, *frisch, fromm, fröhlich und frei - talabalarning turmush tarzi*) yasaladi. Bunday juft so‘zlarning tez-tez takrorlanishi ko‘p jihatdan tegishli tilning ritmik va strukturaviy xususiyatlariga bog‘liq. Bu holat o‘zbek tilida uchramaydi va ikki bir biriga qarindosh bo‘lmagan tillarda mos kelmaslik holati mavjud.

[1] Ольшанский И.Г., Гусева А.Е. Лексикология: Современный немецкий язык = Lexikologie: Die deutsche Gegenwartssprache: учебник для студ. лингв. фак. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2005. –416 С.

[2] Gertraud Fenk-Oczlon: Word frequency and word order in freezes. In: Linguistics. 27, 1989, –P. 537.

Tilshunos olim Agrikolaning juft so‘zlarning uchta so‘zdan ham iborat bo‘lishi haqidagi fikrni yuqorida keltirib o‘tdik. Lekin bu kamdan-kam uchraydigan holat. Ushbu juft so‘zlarning uslubiy qo‘llanish doirasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular juda ham pastki qatlamda yani, qo‘pol so‘zlashuv tilida foydalaniladi. Juft so‘zlarga turlicha ta‘riflar berilgan bo‘lsada, bularning barchasi bir-birini to‘ldiradi. “Juft so‘z bu – tilshunoslik atamasi bo‘lib, ko‘pincha bir so‘z turkumidagi o‘xshash so‘zlardan tashkil topgan juftlik, ya‘ni nutqda ishlatiladigan ifodadir”. Duden o‘zining “Deutsches Universalwörterbuch lug‘atida ham xuddi shunday ta‘rif beradi. „Juft so‘z bu so‘z turkumidagi ikki so‘zning o‘zgarmas birligidir“. Zwillingsformeln, masalan frank und frei. Shuningdek juft so‘zlarda biror bir so‘zni qo‘shish ham, olib tashlash ham yoki uning joyini o‘zgartirish ham mumkin emas. Shu o‘rinda juft so‘zlar ham frazeologiyaning bir tarmog‘i ekanligi namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, ma‘lum lingvistik an‘analar tufayli juft so‘zlar tarkibi doimiy ravishda mahsuldor tarkibiy turlar asosida to‘ldirib boriladi. Bu so‘zlashuv nutqida, publitsistikada va badiiy adabiyotda ushbu turdagi okkazional hosilalarning ko‘pligiga ishora qiladi.

Nemis tilida juft so‘zlarni tadqiq etgan tilshunos olimlar ularning 90-yillar oxiridan[1] iste‘moldagi sodir bo‘lgan o‘zgarishlariga ham e‘tibor berganlar. Unga ko‘ra o‘ttiz yil oralig‘ida nemis tilida eng ko‘p juft so‘zlar asosan ot hamda sifat so‘z turkumlari holatiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ushbu tadqiqotlardan kuzatish mumkinki, nemis tilida ma‘lum davr davomida ravishli juft so‘zlar iste‘moldan 10 % chiqib ketgan va uning o‘rniga sifat so‘z turkumidagi juft so‘zlarning son jihatdan ham salmog‘i jihatidan ham ahamiyati ortgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Gertraud Fenk-Oczlon: Word frequency and word order in freezes. In: Linguistics. 27, 1989, –P. 537.

2. Ольшанский И.Г. Парные сочетания слов современного немецкого языка: семантика, структура, сочетаемость: автореферат дис. на соискание учен. степени кандидата филол. наук. М.: 1-й Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз. им. М. Тореза, 1965. 416 с.

3. Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Х.Алимджана. АКД. – Т., 1953. – 19 с.

4. Busse D., Inge P. Semantische Aspekte öffentlicher Kommunikation. (Sprache - System und Tätigkeit) – Frankfurt am Main: Lang, 2002. – S. 411.

5. Müller H.G. Adleraug und Luchsenohr. Deutsche Zwillingsformeln und ihre Gebrauch. – Frankfurt: Lang Verlag, 2009. – S 88.

[1] Busse D., Inge P. Semantische Aspekte öffentlicher Kommunikation. (Sprache - System und Tätigkeit) – Frankfurt am Main: Lang, 2002. – S. 411.

Eshmuratov Muzaffar Elamanovich
Termiz davlat universiteti, PhD mustaqil izlanuvchisi

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY USUL, SHAKL VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishda amaliy metodlar, didaktik shakllar va zamonaviy o'quv vositalarining ta'siri tahlil qilingan. Talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda insert texnologiyasi, konseptual xaritalar, dramatizatsiya, esse yozish, munozara tashkil qilish kabi metodlar samaradorligi tajriba va adabiyotlar asosida asoslab berilgan. O'qitishning interfaol shakllari orqali talabaning fikrlash, tahlil qilish va anglash salohiyatini kuchaytirish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqola yakunida ilmiy xulosalar va metodik tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, o'qish kompetensiyasi, insert texnologiyasi, dramatizatsiya, interaktiv metod, konseptual xarita, multimodal matn, ta'lim vositalari.*

PRACTICAL METHODS, FORMS AND MEANS OF DEVELOPING ENGLISH READING SKILLS OF HIGHER EDUCATION STUDENTS

Abstarct. *This article analyzes the impact of practical methods, didactic forms, and modern teaching tools in the development of reading skills in English. The effectiveness of methods such as the insert technology, concept maps, dramatization, essay writing, and organizing debates in fostering students' reading competence is substantiated through experiments and literature review. The opportunities to enhance students' abilities in thinking, analyzing, and comprehension through interactive forms of teaching are revealed. The article concludes with scientific findings and methodological recommendations.*

Key words: *English language, reading competence, insert technology, dramatization, interactive method, concept map, multimodal text, teaching tools.*

ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ, ФОРМЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние практических методов, дидактических форм и современных учебных средств на развитие навыков чтения на английском языке. Эффективность таких методов, как технология INSERT, концептуальные карты, драматизация, написание эссе и организация дискуссий в формировании читательской компетенции студентов обоснована на основе экспериментов и анализа литературы. Раскрываются возможности усиления у студентов способностей к мышлению, анализу и пониманию посредством интерактивных форм обучения. В заключение статьи представлены научные выводы и методические рекомендации.*

Ключевые слова: *английский язык, читательская компетенция, технология INSERT, драматизация, интерактивный метод, концептуальная карта, мультимодальный текст, средства обучения.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarni axborotni qabul qilish, uni tahlil qilish, interpretatsiya qilish hamda muhokama qilishga tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, chet tilini o'rganishda, xususan ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish bugungi integratsiyalashgan jamiyatda alohida e'tibor talab qiladi. O'qish ko'nikmasi nafaqat leksik va grammatik bilimlar asosida shakllanadi, balki u madaniy kontekst, semantik tafakkur, muloqot ehtiyojlari bilan

bog'liq bo'lgan kompleks kompetensiyadir. Shu sababli bu ko'nikmani shakllantirishda amaliy usullarning roli va ularni qo'llashdagi metodik yondashuvlar chuqur o'rganilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirishga oid ilmiy qarashlar lingvistik, psixolingvistik, didaktik va axborot-texnologik yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. G.Rustamova tomonidan insert texnologiyasi asosida olib borilgan tadqiqotda talabalar matn bilan ishlashda belgilar (V, -, +, ?) orqali o'z fikrini ifodalash orqali anglash darajasini oshirgani isbotlangan[1].

S.Jo'raqulova konseptual xarita tuzish orqali talabada o'qilgan matnni strukturaviy anglash va xulosa chiqarish malakasi shakllanishini asoslagan[2].

S.Tursunova dramatizatsiya usulini qo'llab, talabalar o'qigan matnni emotsional va roli asosida jonlantirish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirganini ko'rsatadi.

Shuningdek, R.Mahmudov matn asosida esse yozish orqali talabalar o'zining individual fikrini ifoda qilish, matndan ma'no ajratish va til boyligini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'kidlaydi.

W.M.Rivers o'qishni passiv emas, balki integrativ faoliyat deb talqin qiladi. W.Grabe esa o'qishni ko'p komponentli faoliyat, ya'ni idrok, semantik anglash, madaniy kodlash, tahlil va baholashni birlashtiruvchi murakkab jarayon deb ataydi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot tavsifiy-analitik metodga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanilgan interfaol va amaliy metodlar tahlil qilindi. Asosiy e'tibor insert, dramatizatsiya, konseptual xarita, esse yozish, munozara va interaktiv o'yinlar singari usullar samaradorligiga qaratildi. Tahlil jarayonida ilg'or o'zbek olimlarining ilmiy ishlari, tajriba ma'lumotlari, pedagogik kuzatuvlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanildi. Baholash vositasi sifatida esa sifatli o'zgarishlarni aniqlashga yo'naltirilgan diagnostik tahlil va qiyosiy kuzatuv metodlari qo'llanildi.

Asosiy qism. Talabalar orasida ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirish hozirgi davrda til o'rgatishning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida e'tiborga molikdir. Bu ko'nikma nafaqat chet tilining grammatik tuzilishini o'zlashtirish, balki madaniyatlararo muloqot, kasbiy kompetensiya va axborotni qayta ishlash salohiyatini shakllantirish uchun ham zamin yaratadi. O'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi asosiy maqsad - talabani matn bilan faol ishlay oladigan, matndan axborot oladigan, uni tahlil qiladigan va o'z fikriga moslashtirib ifoda eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Ushbu jarayonda amaliy usullar, didaktik shakllar va ta'limiy vositalar to'g'ri tanlanishi katta ahamiyatga ega.

Amaliy usullar deganda, talabaning mustaqil faoliyatini rag'batlantiruvchi va uni o'rganish jarayonining subyekti sifatida shakllantiruvchi didaktik harakatlar tushuniladi. Ingliz tilida o'qish bo'yicha qo'llaniladigan eng samarali amaliy usullardan biri bu - **insert texnologiyasi**dir. Ushbu texnologiyada talabalar o'qilayotgan matnni belgilash orqali tushunilgan, qiziq, tushunilmagan yoki kutilmagan fikrlarni simvolik belgilar bilan ifodalaydi. Bu usul o'qish jarayonini faollashtiradi, talaba faqat matnni qabul qilmaydi, balki unga nisbatan pozitsiya bildiradi, bu esa semantik anglashni kuchaytiradi.

Yana bir amaliy yondashuv - **konseptual xarita (mind map)** tuzish usulidir. Bunda talaba matndagi asosiy tushunchalarni o'zaro bog'liq holda grafik tarzda tasvirlaydi. Bu metod orqali o'quvchi matnning tuzilmasi, asosiy fikri, asoslovchi dalillari va xulosalarini tahlil qilishga o'rganadi. Bu usul ayniqsa ilmiy yoki kasbiy matnlar ustida ishlashda samarali bo'lib, analitik va sistematik fikrlashni rivojlantiradi[3].

Ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda **esse yozish** usuli ham katta o'rin tutadi. Matndan olingan asosiy g'oya asosida talaba o'z fikrini bayon qiladi, muallifga munosabat bildiradi,

[1] Rustamova G. INSERT texnologiyasi asosida matn bilan ishlashning uslubiy xususiyatlari. // Til va madaniyat, №2, 2022.

[2] Jo'raqulova S. Konsepsiya xaritasi va o'qish kompetensiyasi. // O'zbek tilshunosligi jurnali, №3, 2021.

[3] Jo'raqulova S. *Koncepsiya xaritasi va o'qish kompetensiyasi*. // O'zbek tilshunosligi jurnali, №3, 2021.

misollar keltiradi. Bu faoliyat turli ko'nikmalarni birlashtiradi: *o'qish, tahlil, interpretatsiya va ifoda qilish*. Esse yozish orqali talabalar o'zining grammatik salohiyati, leksik boyligi va stilistik sezgirligini amaliy ravishda namoyon eta oladi[1].

Amaliy mashg'ulotlarda keng qo'llanilayotgan yana bir samarali shakl - **dramatizatsiya**dir. Talabalar matn asosida rollarni bo'lib chiqishadi, muomala qiladi, emotsional jihatdan kirishishadi. Bu metod o'qish orqali tushungan mazmunni og'zaki faoliyatga aylantirish, kontekstni dramatik ifoda bilan boyitish imkonini beradi. Shuningdek, dramatizatsiya til sezuvchanligini kuchaytiradi, talaffuz, intonatsiya va kommunikativ ohangni mustahkamlaydi[2].

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda interaktiv o'yinlar ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, "Savol kimga?", "To'g'ri yoki noto'g'ri?", "Asosini top", "Krossvord matn asosida", "Matnga oid testlar" kabi faoliyatlar talabaning e'tiborini oshiradi, ularni matn mazmuni asosida fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, o'zaro bahs-munozara orqali tanqidiy tafakkur, muloqot ko'nikmalari ham shakllanadi.

Ingliz tilida o'qish mashg'ulotlarida qo'llaniladigan amaliy vositalarning texnologik ko'rinishlari - Kahoot, Google Forms, Quizizz, Padlet kabi platformalar orqali testlar, muqobil savollar, fikrlar doskasi, virtual konseptual xaritalar yaratish orqali matn bilan ishlashni samarali tashkil qilish mumkin. Bu vositalar o'quvchining matn asosida real vaqt rejimida fikr bildirishini, test bajarishini, baholashga jalb qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, multimodal matnlar (audio, video, grafik, gipermatn) bilan ishlash vositalari ham talabalar uchun ko'proq e'tibor talab qiladigan matnni idrok qilish, tushunish va taqqoslash jarayonlarini boyitadi.

Masalan, berilgan matn va unga oid video lavhani taqqoslab, talabadan xulosalar chiqarish, muallif pozitsiyasini aniqlash, alternativ nuqtai nazar bildirishni so'rash - bu o'qish kompetensiyasining yuqori bosqichidir.

Matn tahliliga asoslangan amaliy shakllardan biri bu - "Matnni tarjima qilishsiz tushunish" metodidir. Bu usulda talabadan har bir so'zni emas, balki umumiy mazmunni tushunish, kontekst orqali ma'no hosil qilish, asosiy fikrni ajratish, muallifning niyatini anglash kutiladi. Bu metodik yondashuv matnga analitik va emotsional yondashuvni uyg'unlashtiradi, talabani fikr yuritishga, taxmin qilishga, kontekstual tafakkurga o'rgatadi.

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali qo'llanilayotgan shakllardan yana biri bu - matn asosida munozara tashkil etishdir. Munozara davomida talabalar matndagi asosiy fikrlar asosida pozitsiyalar bildiradi, fikrlarni taqqoslaydi, dalillar keltiradi va shaxsiy nuqtai nazarini asoslaydi. Bu shakl o'qishdan keyingi kognitiv faoliyatni faollashtiradi va matn bilan ijodiy ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Ta'limiy vositalar nuqtai nazaridan olib qaraganda, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda vizual yordamchilar - sxemalar, grafiklar, tayanch so'zlar ro'yxati, stilistik vositalar jadvali, antonim va sinonimlar to'plami, savol kartochkalari samarali foydalaniladi.

Ushbu vositalar matn ustida struktural yondashuvni ta'minlaydi, o'quvchining semantik anglash jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

Tahliliy nuqtai nazardan qaraganda, rus tilida o'qish ko'nikmasi faqat lingvistik malaka emas, balki psixolingvistik, madaniy va kommunikativ kompetensiyalar majmuasidir.

Shuning uchun uning shakllanishi individual o'quv strategiyalariga, metodik yondashuvga, vosita va shakllarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Har bir amaliy usul o'zining xususiy didaktik maqsadlariga ega: ba'zilari matnni tahlil qilishga, boshqalari uni ifoda etishga, yana boshqalari esa matn asosida ijod qilishga xizmat qiladi.

Bu usullarning kompleks qo'llanilishi esa o'quvchida o'qish kompetensiyasining barcha bosqichlarini shakllantirish imkonini beradi.

Muhokama

Ingliz tilida matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda chet tilini o'rganish jarayonida talabalar nafaqat matnni o'qishlari, balki uni chuqur anglab, mazmunini tahlil qilishi, o'z fikrini bayon

[1] Mahmudov R. Matn asosida esse yozish orqali fikr tahlili. – Toshkent: Fan, 2020.
[2] Tursunova S. Dramatizatsiya metodi va emotsional anglash muammosi. // Pedagogika va psixologiya, №3, 2022.

qilishi, tanqidiy qarash bildirish darajasiga yetishi lozim. An‘anaviy matn bilan ishlash metodlari bu maqsadga yetarli emasligi bois, interaktiv yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, INSERT texnologiyasi matnni o’qish vaqtida talabaga faol pozitsiyada bo’lish imkonini beradi. Ushbu metodda talabalar matnni belgilar orqali tahlil qiladi, ya‘ni “V” - tanish ma‘lumot, “+” - yangi axborot, “-” - qarama-qarshi fikr, “?” - tushunarsiz joy sifatida ajratiladi. Bu nafaqat matnni idrok etishni faollashtiradi, balki talabada mantiqiy bog’liqlikni anglash va o’ziga xos xulosalar chiqarish ko’nikmasini shakllantiradi.

Klaster yoki konseptual xarita metodlari esa matnda berilgan asosiy tushunchalar, faktlar va ularning o’zaro bog’liqligini vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu esa axborotni tizimli qayta ishlash, asosiy g’oya va ikkilamchi ma‘lumotlarni ajratib olishni o’rgatadi. Ayniqsa, konseptual xarita orqali talabalar mustaqil tarzda matnni tahlil qilish, asosiy mavzuni strukturalashtirish, semantik tarmoqlar tuzish orqali anglash darajasini oshiradi. Fishbone (skelet-diagnostika) metodi esa matndagi muammo va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga yordam beruvchi samarali usullardan biridir. Bu metod orqali talabalar matn doirasida muammoni aniqlab, unga olib keluvchi sabablarni aniqlashga o’rganadi.

Dramatizatsiya yoki rolli o’yinlar orqali matn bilan ishlash esa ayniqsa emotsional, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Matndagi voqealar, obrazlar va nutqiy shakllar asosida rollarga bo’linib ishlash o’quvchilarning tilga hissiy yondashuvini kuchaytiradi, talaffuz, intonatsiya va og’zaki muloqotni rivojlantiradi. Bu metodlar matnni jonlantirish, tasavvur qilish va eslab qolishni kuchaytirish jihatidan ayniqsa samaralidir. Yana bir muhim metod - matnga asoslangan savollar tuzish usuli hisoblanadi. Talabalar o’zlari o’qigan matnga savollar ishlab chiqish orqali matnni chuqur o’zlashtiradi, uning tuzilmasini, asosiy g’oyalarini, muallif pozitsiyasini anglaydi. Bu metod orqali talabada tanqidiy fikrlash va savol asosida fikr bildirish ko’nikmasi shakllanadi.

Interfaol munozara va bahs-metodlar esa matn asosida ikki yoki undan ortiq pozitsiyalarni solishtirish, dalillash, fikr bildirish imkonini beradi. Munozarali matnlar ustida ishlash orqali talabalar argument keltirish, muhokama yuritish, muallif pozitsiyasini tanqidiy qabul qilishni o’rganadi. Bu esa ularning lingvistik tafakkurini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli vositalar asosidagi interaktiv platformalardan foydalanish - masalan, Google Forms, Kahoot, Quizizz yoki Padlet orqali talabalar o’zlashtirgan matn asosida testlar, so’rovnomalar, reflektiv javoblar yaratishadi. Bu usullar o’quv jarayonini ko’proq individuallashtirish, o’zini baholash, o’z-o’zini tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, esse yozish amaliyoti ham matn ustida ishlashda samarali metod hisoblanadi. Matn asosida yozilgan esse orqali talabalar matnni qayta ishlaydi, undagi g’oyalarni o’z shaxsiy dunyoqarashi bilan uyg’unlashtiradi, xulosa chiqaradi va mustaqil fikrini yozma nutq shaklida ifodalaydi. Bu jarayon o’qish, tahlil qilish, yozish va muloqot ko’nikmalarini uyg’un ravishda rivojlantiradi. Bularning barchasi ko’rsatadiki, rus tilida matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish faqat til o’zlashtirish bilan cheklanmay, balki fikrlash, tahlil qilish, shaxsiy fikr bildirish, madaniy kodlarni anglash, tanqidiy pozitsiyani shakllantirish kabi ko’nikmalarni ham rivojlantiradi. Shu bois interaktiv metodlar hozirgi rus tili ta‘limining ajralmas pedagogik komponentiga aylanmoqda.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari ko’rsatdiki, amaliy usullar va vositalar to’g’ri tanlanganda o’quvchilarning o’qish kompetensiyasi sifat jihatdan yaxshilanadi. Insert texnologiyasi matnni anglashga, konseptual xarita esa matnni tahlil qilishga xizmat qiladi. Esse yozish orqali matnni qayta ishlash, ijodiy fikr bildirish ko’nikmasi shakllanadi. Dramatizatsiya orqali matnni emotsional anglash, muloqotga kirishish va talaffuz ustida ishlash imkoniyati paydo bo’ladi.

Multimodal matnlar asosida ishlash esa talabalarni ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunishga, matnning vizual va audiovizual qatlamlarini farqlashga o’rgatadi. Interfaol o’yinlar matn asosida fikrlash, muhokama qilish, savol-javob formatida axborotni aniqlash kabi ko’nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, texnologik vositalar - Padlet**,** Kahoot**,** Google Forms**,** Mentimeter va shunga

o'xshash platformalar talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirgan holda o'qish faoliyatini qiziqarli tarzda tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Xulosa.

Xulosa qilganda, ingliz tilida o'qish ko'nikmasini shakllantirish murakkab va bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayondir. Bu ko'nikmani rivojlantirishda faqat grammatik bilim yetarli emas; talabada matnni anglash, tahlil qilish, fikr bildirish va muloqotga kirishish kompetensiyasini shakllantirish lozim. Insert, konseptual xarita, dramatizatsiya, esse, interaktiv o'yinlar va multimodal matnlar bilan ishlash metodlari ushbu maqsadga erishishda eng samarali vositalar sirasiga kiradi. Amaliy metodlar orqali o'quvchi matnni passiv emas, balki faol ravishda idrok qiladi, uning semantikasini tushunadi, va uni yangidan tuzadi. Bunday yondashuvlar o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab qiladi, biroq natijasi ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Rustamova G. INSERT texnologiyasi asosida matn bilan ishlashning uslubiy xususiyatlari. // Til va madaniyat, №2, 2022.
2. Jo'raqulova S. Koncepsiya xaritasi va o'qish kompetensiyasi. // O'zbek tilshunosligi jurnali, №3, 2021.
3. Mahmudov R. Matn asosida esse yozish orqali fikr tahlili. - Toshkent: Fan, 2020.
4. Tursunova S. Dramatizatsiya metodi va emotsional anglash muammosi. // Pedagogika va psixologiya, №3, 2022.
5. Karimov T. Interfaol metodlar asosida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish. // TDPU ilmiy axborotnomasi, 2023.
6. Xudoyberdiyeva N. Texnologik vositalarning o'quvchi motivatsiyasiga ta'siri. // Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №1, 2023.
7. Rivers W.M. Teaching Foreign-Language Skills. - Chicago: University of Chicago Press, 1981.
8. Grabe W. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. - Cambridge: CUP, 2009.
9. Nurmatov S. Matn asosida munozara tashkil qilishning uslubiy asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2021.
10. Shermatova Z. O'qitishda vizual vositalardan foydalanish samaradorligi. // Filologiya va didaktika, №4, 2022.

Faxriyeva Dilrux To‘lqin qizi
Buxoro xalqaro universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish
o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti
E-mail: bekzodgaybullayev50@gmail.com

CHINGIZ AYTMATOV QAHRAMONLARI ORASIDA AYOLNING IRODA VA KURASHCHANLIK TIMSOLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov ijodida ayol qahramonlarning iroda va kurashchanlik timsoli keng yoritiladi. Adib asarlarida ayollar hayotiy sinovlarga bardosh beruvchi, o‘z maqsadidan qaytmaydigan va o‘z qadr-qimmatini saqlab qolishga intiluvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, “Jamila”, “Alvido, Gulsari”, “Asrga tatigulik kun” kabi asarlarda ayol timsoli sevgi, sadoqat, sabr va jasoratning yorqin ifodasi sifatida gavdalanadi. Aytmatov qahramonlari orasida ayollar ko‘pincha oilaviy qadriyatlarni saqlovchi, jamiyatni ma’naviy jihatdan boyituvchi, erkaklarga kuch bag‘ishlovchi ruhiy tayanch sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, adib ijodida ayol obrazi inson va tabiat, milliy qadriyat va zamonaviylik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ham ifodalaydi. Maqolada Aytmatovning ayol obrazlari orqali insoniylik, erkinlik, fidoyilik va hayotga bo‘lgan cheksiz muhabbat singari universal g‘oyalarni ilgari surishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Chingiz Aytmatov, ayol obrazi, iroda, kurashchanlik, jasorat, sabr-toqat, ma’naviyat, badiiy obraz.*

CHINGIZ AITMATOV’S FEMALE CHARACTERS AS SYMBOLS OF WILL-POWER AND STRUGGLE

Abstract. *This article explores the depiction of female characters as symbols of willpower and struggle in the works of Chingiz Aitmatov. In the writer’s creations, women appear as figures who endure life’s challenges, remain steadfast in their goals, and strive to preserve their dignity. In particular, works such as “Jamila”, “Farewell, Gulsary”, and “The Day Lasts More Than a Hundred Years” portray women as vivid embodiments of love, devotion, patience, and courage. Among Aitmatov’s heroes, women are often described as preservers of family values, enrichers of society’s spirituality, and sources of moral strength who inspire men. Furthermore, in the author’s oeuvre, the female image reflects the complex relationships between human beings and nature, national traditions and modernity. The article analyzes how Aitmatov conveys universal ideas such as humanity, freedom, devotion, and an endless love for life through his female characters.*

Key words: *Chingiz Aitmatov, female image, willpower, struggle, courage, patience, spirituality, literary character.*

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ КАК СИМВОЛ ВОЛИ И БОРЬБЫ СРЕДИ ГЕРОЕВ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА

Аннотация. *В данной статье широко освещается образ женщины как символ воли и борьбы в творчестве Чингиза Айтматова. В произведениях писателя женщины предстают как личности, способные выдерживать жизненные испытания, не отступать от своих целей и стремиться сохранить собственное достоинство. В частности, в таких произведениях, как «Джамиля», «Прощай, Гульсары», «И дольше века длится день», женские образы воплощают любовь, преданность, терпение и мужество. Среди героев Айтматова женщины часто изображаются хранительницами семейных ценностей, духовно обогащающими общество и являющимися моральной опорой для мужчин. Кроме того, в творчестве писателя женский образ отражает сложные взаимоотношения между человеком и природой, национальными традициями и современностью. В статье анализируется, как через женские образы Айтматов передаёт универсальные идеи человечности, свободы, самоотверженности и безграничной любви к жизни.*

Ключевые слова: *Чингиз Айтматов, женский образ, воля, борьба, мужество, терпение, духовность, художественный образ.*

Kirish. Chingiz Aytmatov ijodi jahon adabiyoti xazinasida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning asarlarida insoniyat taqdiri, milliy qadriyatlar, zamon ruhiyati va falsafiy muammolar badiiy talqin etiladi. Adibning qahramonlari turli ijtimoiy va ma’naviy sinovlardan o‘tgan bo‘lsa-da, ular ichida ayol obrazlari alohida e’tiborga loyiqdir. Chunki Aytmatov ijodida ayol timsoli nafaqat oilaviy hayotning markazida, balki jamiyatning ma’naviy tayanchlaridan biri sifatida gavdalanadi. U yaratgan ayol qahramonlar ichki kuchi, iroda va sabr-bardoshi bilan o‘z davri muammolariga qarshi kurashadi, hayotning og‘irliklariga bardosh beradi, o‘z qadr-qimmatini asrab qolishga intiladi. Ayniqsa, “Jamila”, “Alvido, Gulsari”, “Asrga tatigulik kun” singari asarlarida ayolning kurashchanligi, sevgi va sadoqatidagi qat’iyati, insoniylik va vatanparvarlik fazilatlari yorqin namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Aytmatovning ayol obrazlari orqali inson va tabiat, an’ana va zamonaviylik, erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi murakkab falsafiy munosabatlar badiiy jihatdan yoritiladi. Shu bois uning ijodida ayol timsoli — iroda va kurashchanlikning, mehr va fidoyilikning badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Chingiz Aytmatov ijodini o‘rganish jarayonida ayol obrazlari masalasi adabiyotshunoslikda muhim mavzulardan biri sifatida qaraladi. Adibning qahramonlari orasida ayollarning alohida o‘rni, ularning hayotdagi kurashi, iroda va sabr-toqatini aks ettiruvchi badiiy tasvirlar chuqur tahlil talab qiladi. Shu bois turli davr olimlari va adabiyotshunoslarining tadqiqotlari, Aytmatov ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, H. Sulaymonova o‘z maqolalarida Aytmatovning “Jamila” qissasi haqida shunday yozadi: “Jamila obrazi milliy qadriyatlardan kelib chiqib tasvirlangan bo‘lsa-da, uning qalbidagi erkinlikka intilish umuminsoniy mohiyatga ega. Shu jihatdan qahramonning o‘z taqdirini tanlashdagi iroda va qat’iyati zamonaviy ayol obrazining yangi qirralarini ochib beradi”[4;45].

Shuningdek, M. Qo‘shjonov Aytmatov ijodidagi ayol timsoli haqida shunday fikr bildiradi: “Aytmatov asarlarida ayollar ko‘pincha oila, mehr-oqibat va jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida gavdalanadi. Ularning sabr-toqati, fidoyiligi erkak qahramonlarga ham kuch bag‘ishlaydi”[5].

Rus adabiyotshunosi I. Kolesnikova esa “Alvido, Gulsari” asaridagi ayol obrazlarini tahlil qilib, ularni “tabiat va inson uyg‘unligining badiiy ifodasi” sifatida talqin etadi. Uning ta’kidlashicha, ayol obrazi bu asarda jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar fonida sabr va matonat timsoli sifatida gavdalanadi[6;87].

“Asrga tatigulik kun” romanida ayol obrazini tadqiq etgan O. Usmonov shunday yozadi: “Romandagi ayol timsollari milliy qadriyatlar va zamonaviy o‘zgarishlar to‘qnashuvi fonida insoniylik va mehr-oqibatning ramzi sifatida tasvirlangan. Ular voqelikni anglashda erkak qahramonlardan kam emas, balki ko‘p jihatdan ularni ruhlantiruvchi ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi”[7;66].

Metodologik jihatdan Aytmatov ijodini o‘rganishda bir nechta yondashuvlar qo‘llaniladi. Biografik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki adibning bolalik xotiralari, qirg‘iz xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq tajribalari uning asarlarida bevosita o‘z ifodasini topgan. Masalan, Jamila obrazi qirg‘iz xalqining turmush tarzi va urf-odatlari fonida badiiylashtirilgan bo‘lsa-da, uning ichki erkinlikka intilishi universallikka ega.

Psixologik yondashuv ham tadqiqotchilar tomonidan keng qo‘llaniladi. R. Xudoyberdiyeva o‘z maqolasida ayol qahramonlarning ruhiy iztiroblarini tahlil qilib, ularning qarama-qarshiliklarni yengib o‘tishda ko‘rsatgan qat’iyatini adibning mahoratidan dalolat sifatida baholaydi[8;102].

Sotsiologik yondashuv esa Aytmatov asarlaridagi ayol obrazlarini jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar fonida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Masalan, urush davri, qishloq hayoti, modernizatsiya jarayonlari, milliy va global muammolar ayol obrazlari taqdirida yaqqol ko‘rinadi. Bu jarayonlar ayollarning hayotiy kurashchanligini, iroda va jasoratini yanada yorqinroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Gender yondashuvi metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, Aytmatov ijodida ayollar erkaklar bilan teng darajada jamiyatdagi muhim masalalarga daxldor sifatida tasvirlanishini ko‘rsatadi. T.

Murodova o‘z tadqiqotida ayol obrazlarini “ma’naviy barkamollik va jamiyatni birlashtiruvchi kuch” sifatida izohlaydi[9].

Shuningdek, intertekstual tahlil usulidan foydalanish ham samarali natijalar beradi. Masalan, Jamila obrazi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”idagi Kumush obrazi bilan qiyoslanganda, ikkala yozuvchi ham ayol timsoli orqali jamiyatdagi o‘zgarishlarni, ijtimoiy bosim va erkinlikka intilishni badiiy ko‘rsatganini ko‘ramiz.

Falsafiy yondashuv esa ayol obrazlarini inson va jamiyat, tabiat va texnika, milliylik va umuminsoniylik nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuvni qo‘llagan tadqiqotchilardan biri B. Karimov bo‘lib, u Aytmatov ijodidagi ayollarni “insoniylik va tabiat o‘rtasidagi ko‘prik” deb baholaydi[10;23].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Aytmatov ijodidagi ayol obrazlari nafaqat milliy adabiyot, balki jahon adabiyoti kontekstida ham keng tadqiq qilingan. G‘arb adabiyotshunoslari asosan erkinlik, insoniylik va ayol iroda masalalariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Sharq tadqiqotchilari ko‘proq an’ana, milliylik va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarni alohida ta’kidlaydi. Shunday qilib, adib ijodining xalqaro miqyosdagi o‘rganilishi ham ayol timsolining universalligi va badiiy kuchini ko‘rsatib beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Chingiz Aytmatovning ayol obrazlari turli metodologik yondashuvlarda chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ularning iroda va kurashchanlik timsoli sifatidagi badiiy kuchi o‘zbek, qirg‘iz va jahon adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy mavzuga aylangan.

Muhokama. Chingiz Aytmatov asarlarida yaratilgan ayol obrazlari adabiyotshunoslikda keng muhokama etilgan bo‘lsa-da, ularning badiiy va ma’naviy mohiyati tobora yangi qirralar kasb etmoqda. Aytmatov qahramonlari orasida ayolning iroda va kurashchanlik timsoli, avvalo, milliy an’analar va zamonaviylik uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Adibning “Jamila” qissasidagi Jamila obrazi butun jahon o‘quvchisini hayratga solgan bo‘lib, u oddiy bir ayolning shaxsiy erkinligi, muhabbat va orzu-istaklari yo‘lida qanday kurash olib borishini ko‘rsatadi. Jamila orqali Aytmatov inson erkinligi, ayolning huquqi va qadr-qimmati kabi masalalarni keng yoritadi. Bu obraz faqatgina o‘z muhabbatini himoya qiluvchi qahramon emas, balki jamiyatda ayolning mustaqil shaxs sifatida yashash huquqini tasdiqlovchi timsol hamdir.

Xuddi shunday, “Alvido, Gulsari” asaridagi Jaydar ham o‘z hayoti va muhabbati yo‘lida bardoshli, sabrli, iroda egasi sifatida ko‘rinadi. U turli hayotiy sinovlarga qaramay, o‘z qarashlari va maqsadlaridan voz kechmaydi. Bu orqali Aytmatov ayolning jamiyatdagi mustahkam o‘rni va ma’naviy kuchini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Asrga tatigulik kun” romanida ayollar timsoli milliy qadriyatlar, urf-odatlar va zamon ziddiyatlari orasida insoniylik va vijdon mezoni sifatida gavdalanadi. Aytmatov ayollarni oilaning ma’naviy tayanchi, jamiyatning yangilanishida faol ishtirokchi, insoniy qadriyatlarning saqlovchisi sifatida badiiy talqin etadi[2].

Muhokama jarayonida e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan yana bir jihat shuki, Aytmatov ayol obrazlari orqali universallikni, ya’ni butun insoniyatga xos bo‘lgan qadriyatlarni ilgari suradi. Ayol obrazi unda nafaqat milliy hayot tarzi, balki butun dunyo adabiyotida muhim o‘rin tutuvchi umumiy ramzga aylanadi. Shu sababli uning qahramonlari ko‘pincha xalqaro adabiy jamoatchilik tomonidan keng baholangan va ko‘plab ilmiy maqolalarda tahlil qilingan. Masalan, G‘. Karimov, N. Mallaev singari o‘zbek adabiyotshunoslari Aytmatov ayol obrazlarida milliylik va universallik uyg‘unligini alohida ta’kidlagan bo‘lsa, rus olimlaridan L. Ozerov, V. Lixachevlar uning badiiy uslubini tahlil etib, ayol timsoli orqali inson va tabiat, inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni ko‘rsatganini qayd etadilar.

Shuningdek, Aytmatov ayollar timsolini nafaqat sevgi va sadoqat ramzi, balki kurashchanlik, iroda va jasorat namunasi sifatida ham talqin etgan. Bu jihat uning ijodini jahon adabiyotidagi boshqa yozuvchilar asarlaridan ajratib turadi. Muhokama jarayonida shuni ham ta’kidlash lozimki, Aytmatov qahramonlari orasida ayolning mustahkam iroda egasi sifatida gavdalanishi zamonaviy adabiyotda feministik yondashuvlar bilan hamohangdir. Chunki ayol obrazi faqat oilaviy hayot bilan chegaralanmay, balki ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida ham namoyon bo‘ladi[3].

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Aytmatov ijodidagi ayol obrazlari insoniylik, erkinlik va ma’naviyat timsoli sifatida universallashgan. Ularning kurashchanligi va

iroda namunasi bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim badiiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Natijalar. Chingiz Aytmatov asarlarida ayol qahramonlarning tasviri chuqur falsafiy va ijtimoiy ma’noga ega bo‘lib, ularning iroda, sabr-toqat va kurashchanlik fazilatlari o‘quvchi uchun ibrat manbai hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Aytmatov yaratgan ayol obrazlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda jamiyatning ma’naviy tayanchini ifodalaydi. Ayol qahramonlar oilaviy qadriyatlarni saqlash, shaxsiy erkinlikni himoya qilish, sevgi va sadoqatga sodiq qolish bilan birga, hayot sinovlari qarshisida mardlik va iroda namunalarini ko‘rsatadilar. Shu bois ularning badiiy talqini bugungi zamon o‘quvchisi uchun ham dolzarbligini yo‘qotmaydi. Quyidagi jadvalda Aytmatovning mashhur asarlarida ayol obrazlarining asosiy xususiyatlari tahlil qilingan:

Asar nomi	Ayol qahramon(lar)	Asosiy fazilatlar	Iroda va kurashchanlik timsoli sifatida ahamiyati
“Jamila”	Jamila	Sevgi, erkinlik, mustaqil qaror qabul qilish	Shaxsiy erkinlik va muhabbat yo‘lida kurashchan, mustaqil shaxs sifatida gavdalanadi.
“Alvido, Gulsari”	Jaydar	Sabr, fidoyilik, vafodorlik	Hayot sinovlari va oilaviy qadriyatlarni saqlash yo‘lida matonat ko‘rsatadi.
“Asrga tatigulik kun”	Zarifa, Nayman ona	Vijdon, milliy qadriyat, ma’naviy kuch	Millat va insoniyat kelajagi uchun fidoyilik ramzi sifatida gavdalanadi.
“Oq kema”	Ona obrazi	Mehr, himoya, sabr-toqat	Inson va tabiat uyg‘unligini ifodalaydi, farzand uchun kurashchanlik timsolidir.
“Qiyomat”	Gulimxon	Halollik, jasorat, qat’iyat	Jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurashuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, Chingiz Aytmatovning ayol qahramonlari iroda va kurashchanlik fazilatlari bilan o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy hayotida faol ishtirokchi sifatida talqin etiladi. Bu esa adibning ijodiy yondashuvi ayol timsolini faqatgina oilaviy hayot doirasida emas, balki jamiyat va insoniyat taqdirini hal etuvchi kuch sifatida ko‘rsatganini yaqqol tasdiqlaydi.

Xulosa. Chingiz Aytmatov ijodi jahon adabiyotida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, unda yaratilgan ayol obrazlari insoniylik, ma’naviyat va hayotiy kurashlarning yorqin ifodasi sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning qahramonlari orasida ayollar faqatgina oilaviy hayotning saqlovchisi emas, balki ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi, insoniyatning ma’naviy tayanchi, erkinlik va iroda timsoli sifatida gavdalanadi. “Jamila”, “Alvido, Gulsari”, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat” singari asarlarda yaratilgan ayol qahramonlar orqali adib hayot sinovlariga sabr-toqat va iroda bilan qarshi turish mumkinligini, inson qadr-qimmati va erkinligi uchun kurash muqaddas burch ekanini ko‘rsatadi. Bu qahramonlar jamiyatning ma’naviy o‘sishida, milliy qadriyatlarning saqlanishida va avlodlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Aytmatov ijodida ayol obrazi nafaqat milliy hayot tarzini, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham mujassamlashtiradi. Uning qahramonlari butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan sevgi, sadoqat, fidoyilik va kurashchanlik timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, ayol obrazi adib asarlarida tabiat va inson, milliylik va zamonaviylik, an’ana va erkinlik o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni badiiy yoritishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, Aytmatovning ayol qahramonlari iroda va kurashchanlikning badiiy timsoli sifatida bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning ruhiy kuchi va ma’naviy mustahkamligi nafaqat o‘quvchini hayratda qoldiradi, balki uni o‘z hayotida ham iroda, sabr va kurashchanlikka undaydi. Shu bois, Aytmatov ijodidagi ayol obrazi zamonaviy o‘quvchi uchun ham ibrat va ma’naviy tayanch bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aytmatov Ch. Jamila. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Aytmatov Ch. Alvido, Gulsari. – Toshkent: Sharq, 1995.
3. Aytmatov Ch. Asrga tatigulik kun. – Toshkent: Yozuvchi, 1983.
4. Sulaymonova H. "Jamila qissasida ayol obrazining umuminsoniy mohiyati" // Adabiyotshunoslik jurnali, 2019, №2. – B. 45–52.
5. Qo'shjonov M. Adabiyot va ma'naviyat masalalari. – Toshkent: Fan, 1985.
6. Kolesnikova I. "Zhenskie obrazy v romane Ch. Aytmatova 'Proshchay, Gulsary!'" // Vestnik literaturnykh issledovaniy, 2002, №4. – S. 87–93.
7. Usmonov O. "Asrga tatigulik kunda ayol timsolining ma'naviy vazifasi" // O'zbek tili va adabiyoti, 2010, №3. – B. 66–72.
8. Xudoyberdiyeva R. "Chingiz Aytmatov asarlarida ayol qahramonlarning ruhiy olami" // Filologiya masalalari, 2020, №1. – B. 102–109.
9. Murodova T. Ayol obrazi va jamiyat ma'naviyati. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
10. Karimov B. "Aytmatov ijodida ayol obrazi falsafiy talqini" // Sharq yulduzi, 2021, №5. – B. 23–30.

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro Davlat Universiteti professori

INGLIZ VA O'ZBEK BADIIY DISKURSIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING KONNOTATIV MA'NOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi murojaat birliklari, ularda ifodalangan konnotativ ma'nolari hamda ularning nutqiy-mavzuiy guruhlari haqida fikr yuritiladi. Har ikkala tildagi murojaat birliklari badiiy va so'zlashuv nutqidan olingan misollar bilan dalillangan.*
Kalit so'zlar*: murojaat birliklari, kommunikant nutqi, adresant, adresat, muloqot madaniyati, undalma, konnotativ ma'no, nominativ vazifa, kommunikativ.*

CONNOTATIVE MEANINGS OF FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY DISCOURSE

Annotation. *This article discusses the units of reference in the English and Uzbek languages, their connotative meanings, and their discourse-thematic groups. Reference units in both languages are proved by examples taken from literary and colloquial speech.*
Key words: *reference units, communicative speech, addressee, addressee, communication culture, motivation, connotative meaning, nominative function, communicative.*

КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ ОБРАЩЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются единицы референции в английском и узбекском языках, их коннотативные значения и их дискурсивно-тематические группы. Референтные единицы в обоих языках доказываются примерами, взятыми из художественной и разговорной речи.*
Ключевые слова: *референтные единицы, коммуникативная речь, адресат, адресат, культура общения, мотивация, номинативная функция, коммуникативность коннотативное значение.*

Ma'lumki, murojaat shakli va u ifodalaydigan muayyan davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsulidir. So'zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o'rin egallashi, uning yoshi, jinsi, lavozimi, kasbi, mansabiga qarab murojaat shakllari o'zgarib boradi. Shu bilan birga murojaat shakli xalqning o'zligini anglashi qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezonlardan biridir. "Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qollaniladigan o'zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turlicha konnotativ ma'nolarni, semantik "ohanglarni" tashiydigan o'tkir ta'sirchan vositadir.[1] Darhaqiqat, murojaat birliklari hozirgi muloqot madaniyatimizdagi qo'llanishi tarixda qo'llanilgan murojaat birliklaridan farq qiladi, chunki ular muayyan tarixiy davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsuli hisoblanadi. Davr o'tishi bilan bunday murojaat biriklari o'zgarib boraveradi. Sh.Iskandarova o'zbek xalqi muloqotida ishlatiluvchi murojaat shakllarini quyidagi omillar bilan izohlaydi:[2]

-ijtimoiy mansublik;
-suhbatdoshlarning tanish-notanishligi:
-nutqiy harakat sharoiti;
-muloqotchilarning yoshi:
-ularning jinsi;

[1] Ахмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадкики. Филология фанлари номзоди дисс…автореферати. -Т:2008 - 23б
[2] Искандарова Ш. Ўзбек нутк одатининг мулокот шакллари. Филология фанлари номзоди днес… -Т.:1993.- Б.14-15

-yashash joyi;
-uslubiy holat;
-muloqotchilar xarakteri:

Yuqoridagi tasniflar asosida shuni ta'kidlash lozimki, murojaat shakllari tanlanganda ularning har biri muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilida murojaat birliklari, asosan, hurmatni bildiradi, shuning uchun jamiyatda, ishda, maktab yoki jamoa joylarida murojaat birliklaridan tog'ri foydalanish talab etiladi. O'zbek tilida esa ingliz tilidan farqli o'laroq, "*chaqirish undash, murojaat ma'nosidagi so'zlar chaqiriq so'z, chaqiriq kelishik, vokativ forma, undash kelishik, undash so'z, undash oti kabi turli-tuman terminlar bilan yuritib kelingan.*[1]

Murojaat birligi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatuvchi ko'rsatkich (indikator) hisoblanadi.[2] Ular so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalagani uchun ham uning uyushtiruvchi markazi ot so'z turkumi sanaladi. Murojaat birligi tayanch so'zning valentlik xususiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: qaratuvchi uzvli diskriptiv murojaat birliklari; belgi uzvli diskriptiv murojaat birliklari; o'rin uzvli murojaat birliklari; aralash uzvli diskriptiv murojaat birliklari. Diskripsiya inglizcha tasvirlash', tavsiflash" degan ma'noni anglatib, biror narsaning murakkab nomi ma'nosida ishlatiladi. Ingliz tilida diniy murojaat birliklari ichida diskripsiya, ya'ni boshqa bo'laklar bilan induktiv aloqaga kirishib, konnatativ ma'noni ifodalaydi.

Masalan: *Holly Father, most Reverend Eminence*

O'zbek tilida esa bu holat ko'p hollarda yopiq holda -diskriptiv shaklda ishlatilib, ular nafaqat atash, balki baholash, xarakterlash vazifasini ham bajaradi.

Masalan: *Qishki jarayon yakuniy nazoratlardan o'tgan talaba*. Ingliz tilida ham o'zbek tilida ham tinglovchining tanish yoki tanish bo'lmaganligiga ko'ra qo'llanuvchi murojaat birliklari mavjud.

1. Tanish tinglovchi (adresat) -Mr President, Captain.
2. Notanish tinglovchi (adresat) –Mr, Sir, Miss, Mrs.

Ikkala tilda ham so'zlovchi va tinglovchi yoshiga ko'ra: ingliz tilida: My honey,pal
o'zbek tilida: *qo'zichog'im, do'mbog'im, asalim*
Yoshi katta tinglovchi: *mother, father, grandmother*
O'zbek tilida: oyi, dada, buvi
Tengdosh tinglovchi: ingliz tilida: *John friend, friend, my fellow*
o'zbek tilida: *o'rtoq, do'stim, qadrdonim, azizim*

O'zaro aloqa-aralashuvda muloqotga kirishish o'rniga ko'ra so‘zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan: Rasmiy: *ingliz tilida: Sir, madam o'zbek tilida: o'rtoq Saidov*
Norasmiy: *ingliz tilida: honey, dear, sweetie, darling*
o'zbek tilida: *kichkintoy, qizaloq, bolakay*

Maqola boshida qayd etilgan Sh. Iskandarovaning tasnifiga asoslanib, murojaat birliklarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: kommunikantlarning yoshi, jinsi. mavqei nuqtai-nazaridan so'zlovchi va tinglovchining yoshiga ko'ra farqlanishi ham alohida-alohida jamiyatlar sifatida qaraladi.[3] Yoshga qarab qilingan murojaat asosan o'zbeklar muloqotida oziga xos jihatlarga ega. Odob-axloq qoidasiga ko'ra yosh bola ota-onasiga, yoki o‘zidan kattaga ularning ismini aytib murojaat qilmaydi, balki ism o'rnida qarindoshlik terminlarini qo'llaydi. Yoki yoshi ulug' keksalarga ham "otaxon" yoki "onaxon" deb murojaat qilinadi.

[1] Юсупов.К. Синтактик терминлар тарихидан Ўзбек тили ва адабиёти. -Т.:1979-Б.18-21.
[2] Haydarov Anvar Askarovich. "MODALLIK-SHARQ VA G'ARB OLIMLARI NAZARIDA." Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. 2023.
[3] "Негматов Х, Жўраева В. Социолингвистика. -Бухоро 2004. - В-20.

Muloqotda kommunikantlarning yoshiga qarab qarindoshchilik terminlari orqali murojaat qilish o‘zbek muloqot madaniyatining asosini tashkil qiladi.[1] Bunday holat chog'ishtirilayotgan ikki tilda ham bir xilda ekanligini ta'kidlash mumkin. Masalan: *Ingliz tilida: brother, father, dad, daddy O'zbek tilida: bobo,buvi,ota, ona kabi*

Adresant yoki adresatning bir biriga munosabatida, uni kasbi, lavozimi, mansabi va jamiyatda tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir kommunikant o‘rnini muomala madaniyati bilan bir biridan farqlanadi. Murojaat shakllarini qo'llash ham adresantning dunyoqarashi, madaniyati va ong saviyasiga bog'liq holda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, murojaat shakllari evfemiklashtirishga sabab bo'ladi. Ma'lumki evfemizmlar qo'pol, noqulay bo'lgan so'zlar o'rnida yumshoq muomala qilishni bildiradi, ya'ni nutqni yumshatish, yumshoq muomala qilishdir. "Evfemizm, deb yozadi Azim Hojiyev, (grekcha euphemismos < eu- yaxshi +phemi- gapiraman") narsa hodisaning ancha yumshoq formadagi ifodasi qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Evfimizmlarni tadqiq qilgan olim A.Omonturdiyev tilning evfemik murojaat vositalarini ikki guruhga tasniflaydi va ularning tarixiy asarlarda ko‘p qo‘llanilishini qayd etadi. Bunga har ikkala tilda quyidagi murojaat birliklarini misol qilib keltirish mumkin: Ingliz tilida dvoryan va zodagonlarga nisbatan (o'rta asrlarda qo'llanilgan) murojaat birliklari: *Master, King Edward, Your majesty, Your Royal Highness*

O'zbek tilida: *davlatpanoh, xalifai zamon, hazrati oliylari, begim, mavlono, taqsir.*

Manbalarda keltirilishicha, mavqe bilan bog'liq murojaat shakllari tarixiy asar leksikasida faol qo'llanadi. Murojaat shakllarining jins bilan bog'liq, ya'ni erkak va ayol bajaradigan vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni jihatdan bir biridan farqlanadi, ya'ni murojaat shakllarida gender xususiyatlar hisobga olinadi va bu haqda tilshunoslikda ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ayrim xalqlarda ayollar murojaat shakllari alohida tadqiqotlar ob’ekti bo'lib, maydonga kelgan. O'zbek tilshunosligida S.Mo'minov. Sh.Iskandarovalarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

Muloqotning jins jihatdan xoslanishi sotsiolingvistikaning o'rganish muammolaridan biri bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilida shunday murojaat birliklari mavjudki, ular faqat ayol qizlarga nisbatan qo'llaniladi. Kasbi nima bo'lishidan qat'iy nazar erkaklarga nisbat Mr ayollarga nisbat Mrs yoki yosh qizlarga nisbatan Miss murojaat birligi ishlatiladi. Murojaat shakllari ishchilar o'rtasida ham faol qo'llaniladi. Shotlandiya va Shimoliy Amerikaning ba'zi shtatlarida "Mac", Britaniya va Avstraliya va Yangi Zelandiyada "Mate", Shimoliy Anglyada esa "Hinny" qo'llaniladi. Bazi ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha undalmalar ham leksik-semantik xususiyatiga ko'ra ism-familiya, kasb-hunar, mashg'ulot, mansab-amal, unvon, jins, qarindoshchilik, holat-xususiyat ma'nolarini ifodalovchi turlarga ajratiladi. Bundan tashqari joy nomlari bilan bog'liq murojaat birliklarini ham uchratish mumkin. Bunday birliklar mehr-muhabbat, yuksak hurmat - e'tibor, ishonch, samimiyat kabi insoniy tuyg'ular bilan uyg'unlashib, nozik ma'no qirralariga konnotativ ifodalarga nisbatan farqlanadi. Bunday murojaat birliklarini ko'proq siyosiy badiiy adabiyotlarda uchratish mumkin.

Masalan: *Ko'hna Buxoroning alp yigitlari, hurmatli Jondor ahli*

Ingliz tilida: Habitants of Scotland we should fight for our rights

Yuqoridagi tasniflar bilan birga kasbiy unvonga taalluqli murojaat birliklari diniy murojaat birliklari ham mavjudki, ular ham o'ziga xos jihatlarga ega.

Masalan, kasbiy unvonga ega murojaat birliklari:

Dr. Professor. Postnominal (sudyalarga nisbatan ishlatiladi), *Captain* kabi.

Diniy murojaat birliklari: ahli islom, mo’min-musulmonlar;

Ingliz tilida: Your All Holiness (og’zaki nutqqa xos cherkov papasiga nisbatan qo’llaniladi); His Excellency, most Reverend Eminence (He Reverened- Kristian ruhoniysiga nisbatan ishlatiladi).

Umuman olganda, murojaat birliklari nutqda nominativ, kommunikativ, fatik, konnotativ, regulyativ, vokativ, ijtimoiy-regulyativ, ekspressiv baholash kabi vazifalarni bajaradi. Bular haqida

[1] Haydarov Anvar Askarovich and Sattorova Shahlo Shavkatovna. "Ingliz va O’zbek Tillarida Modallik Kategoriyasining Leksik Tahlili." International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses. 2023.

keyingi ishlarimizda batafsil to'xtalamiz. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilamanki, murojaat birliklarining semantik guruhlari muloqot o'rni va vazifalaridan kelib chiqib, so'zlovchining tinglovchiga bolgan subyektiv munosabatini ifodalashda faol ishlatiladi va nutqda zaruriy aloqani o'matish maqsadida ijtimoiy-psixologik vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Nazarova, N. (2022). Лингвистическое исследование антропонимов в лексической системе. Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 13(13). Извлечено от http://journauxdt.uz/index.php/journals buxdu/article/view/6674

2. Nazarova, N. (2022). ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 25(25). извлечено от http://journal, suxdu neindex php/journals_buxdu/article/view/8279

3.Khamidovna, N. N. (2022). THE DENOTATION AND CONNOTATION OF A WORD. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 382-388. https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1242

4.Nazarova, N. (2022). Обучение молодых учащихся через интерактивные Игры. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ thuxdu 2), 7(7) извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.journals buxdhu/article/view/4979

5.Toshnazarovna, E. M. (2022) The concept of the tragic in the writings of j. carol oates. world Bulletin of Social Sciences, 10, 70-72. https://scholarexpress.net/index.php/vbss/article/view/1009

6. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). Modern Methods of Translating Phraseological Units. Eurasian Research Bulletin. 4.153-158. https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/516.

7. Ruziyeva, N. (2022). Evfemizmlarning semantik va struktur tahlili (ingliz va o'zbek tillari misolida). центр научных публикаций (buxdu. Uz). 8(8) извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.journals buxdu/article/view/4295

8. Haydarov Anvar Askarovich. "Modallik-sharq va g'arb olimlari nazarida." Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. 2023

9. Haydarov Anvar Askarovich and Sattorova Shahlo Shavkatovna. "Ingliz va O'zbek Tillarida Modallik Kategoriyasining Leksik Tahlili." International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses. 2023.

Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: g.xusanova@pf.fdu.uz
ORCID ID: 0009-0002-7696-8168

O‘ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDA GEYMONIMLARNING ONOMASTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqola tilshunoslikning muhim sohasi hisoblangan onomastikaning nazariy asoslari, rivojlanishi, jumladan, o‘zbek onomastikasining shakllanishi va dolzarb muammolariga bag‘ishlangan. Unda atoqli otlarning tarixiy tadqiqi, jumladan, Aristoteldan boshlab to zamonaviy tilshunoslarigacha bo'lgan qarashlar tahlil qilinadi. Maqolada onomastikaning alohida tarmog‘i sifatida o‘yin nomlarini o‘rganish zaruriyati asoslanadi va bu birliklar uchun “Geymonim” (Game+Onym) atamasi taklif etiladi. Shuningdek, o‘zbek, ingliz va koreys tillaridagi “Ajikuku” (Peek-a-boo), “Halinchak” (See-saw) va “Tosh, qaychi, qog‘oz” (Rock, scissors, paper) kabi mashhur o‘yin nomlari sotsiolingvistik va madaniy-chog‘ishtirma aspektda tahlil qilinib, ularning milliy qadriyatlar, til xususiyatlari va tarixiy tajriba bilan bog‘liqligi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Onomastika, atoqli ot, Geymonim, o‘yin nomlari, onomastik tahlil, sotsiolingvistika, chog‘ishtirma tahlil, o‘zbek tili, ingliz tili, koreys tili.*

ONOMASTIC ANALYSIS OF GAIMONYMS IN UZBEK, ENGLISH AND KOREAN LANGUAGES

Abstract. *This article is devoted to the theoretical foundations, development, and current issues of onomastics (the study of proper names), a vital field of linguistics, including the formation of Uzbek onomastics. It analyzes the historical investigation of proper names, from the views of Aristotle to modern linguists. The article substantiates the necessity of studying game names as a separate branch of onomastics and proposes the term “Gameonym” for these units. Furthermore, popular game names in Uzbek, English, and Korean, such as “Ajikuku” (Peek-a-boo), “Halinchak” (See-saw), and “Tosh, qaychi, qog‘oz” (Rock, scissors, paper), are analyzed from a sociolinguistic and cultural-comparative perspective. It reveals their intrinsic link with national values, linguistic features, and historical experience.*

Keywords: *Onomastics, proper name, Gameonym, game names, onomastic analysis, sociolinguistics, comparative analysis, Uzbek language, English language, Korean language.*

ОНОМАСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГАЙМОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ, АНГЛИЙСКОМ И КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Данная статья посвящена теоретическим основам, развитию и актуальным проблемам ономастики (науки об именах собственных), важной области языкознания, включая становление узбекской ономастики. В ней анализируется историческое изучение имен собственных, начиная от взглядов Аристотеля до современных лингвистов. В статье обосновывается необходимость изучения названий игр как отдельной отрасли ономастики и предлагается термин “Геймоним” (Game+Onym) для обозначения этих единиц. Кроме того, популярные названия игр на узбекском, английском и корейском языках, такие как “Ажикуку” (Peek-a-boo), “Халинчак” (See-saw) и “Тош, кайчи, когоз” (Rock, scissors, paper), анализируются в социолингвистическом и культурно-сравнительном аспектах. Выявляется их неразрывная связь с национальными ценностями, языковыми особенностями и историческим опытом.*

Ключевые слова: *Ономастика, имя собственное, Геймоним, названия игр, ономастический анализ, социолингвистика, сравнительный анализ, узбекский язык, английский язык, корейский язык.*

Jahon tilshunosligida XX asr boshlariga kelib atoqli otlar masalasi yetakchi o‘ringa chiqdi va shu vaqtdan boshlab onomastika sohasi tilshunos olimlarning diqqatini tortadigan lingvistik sohalardan biriga aylandi. Bir qator tahlillar, izlanishlar, xulosalar olib borish natijasida olimlar onomastikaning uslubiy apparatini yaratdilar. Ijtimoiy hayotning turli fanlari, masalan sotsiologiya, stilistika, sotsiolingvistika, matn tilshunosligi hamda kommunikativ tilshunoslik bilan bir tizimda onomastika sohasi ham chuqur ildiz otishni boshladi. Ma’lumki, onomastika atamasi yunoncha *onomastike* so‘zidan olingan bo‘lib, *“nom qo‘yish san’ati”* degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu atama ikki ma’noda qo‘llaniladi: “1) ma’lum bir til, xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlar yig‘indisi. 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi”.

Ingliz tilidagi “Collins” lug‘atida onomastikaga quyidagicha ta’rif beriladi: *“the study of proper names, especially their origins or a systematization of the facts about how proper names are formed in a given language”* ya’ni *“atoqli otlarni, xususan, ularning kelib chiqishini yoki ma’lum bir tilda atoqli otlarning qanday shakllanishi haqidagi faktlarni sistemalashtirishni o‘rganish”*.

Tarixan til tizimidagi atoqli otlarning turli xususiyatlarini tadqiq etish qadimgi vaqtlardan beri turli soha olimlarining diqqat-e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Masalan, qadimgi yunon qomusiy olimlaridan bo‘lgan Aristotel, Demokrit va Geraklitlar o‘z asarlarida atoqli otlarning bir qator xususiyatlari haqida qimmatli fikrlarni keltirib o‘tganligini e’tirof etish mumkin. Jumladan, Aristotelning she’riyat bilan aloqador bolgan “Poetika” asarida ot so‘z turkumini alohida nutq bo‘lagi deb ta’kidlagan va quyidagicha ta’riflaydi: “Ot murakkab, ma’no anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o‘z-o‘zidan ma’no anglatmaydigan so‘zdir” [Aristotel, 1980. 41]. Miloddan avvalgi I asrda Y.Polluks atoqli otlar izohiga bag‘ishlangan “Onomastik” deb nomlangan lug‘at yaratgan. O‘sha davrning yana bir olimi Xrisip esa atoqli otlarni mustaqil til birligi hamda so‘zlar guruhi deb ta’kidlagan [Yo‘ldoshev, 2011. 13].

Atoqli otlar nazariy masalalarini o‘rganish o‘zining dolzarbligi bilan ajralib chiqa boshladi. Natijada, olamning lisoniy manzarasini to‘laqonli aks ettirish uchun barcha obyekt va subyekt tushunchalarinining nomlanish nazariyasini yanada boyitishga ehtiyoj sezildi. Tilshunoslar tomonidan bu kabi nomlashni o‘rganuvchi hisoblangan soha onomastikada bir qator ilmiy ishlar olib borish zaruriy ahamiyat kasb eta boshladi. Turli jahon olimlari onomastika sohasi va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan onomastik birliklar borasida o‘zlarining qimmatli ishlarini yaratdilar, bunday birliklarning leksik, semantik, etimologik, struktur hamda lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishga harakat qildilar. Bunday tilshunos olimlar qatoriga ingliz olimlari R.Nordquist, J.Algeo va K.Algeo, H.Motschenbacher, A.Gałkowski, jumladan N.Podolskaya, A.Superanskaya, N.Bushenev, V.Suprun, T.Maxracheva kabi rus tilshunos olimlari onomastika sohasi alohida fan sohasida o‘rganilishi lozimligini isbotlab, onomastik birliklarni izohlaganlar.

XX asrning 60-70-yillarida o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Ulardan eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar shular jumlasidandir. O‘zbek onomastikasi ham o‘sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo‘lib, mazkur soha o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Bu til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo‘llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo‘lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o‘rganadi.

Jumladan, ushbu soha doirasidagi antroponimika, toponimika, etnonimika singari yo‘nalishlarda bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, o‘zbek ismlari yuzasidan manbalar atroflicha to‘plandi, nomzodlik dissertatsiyalari (E.Begmatov 1965, G.Sattorov 1990, S.Raximov 1998, R.Xudoyberganov 2007), bolalar o‘yinlari bo‘yicha (I.Abdurahmonov 1997, Sh.Galiyev 1998, E.Jabborov 1998) himoya qilindi [Yo‘ldoshev, 2011. 18]. O‘zbek bolalar folklori, o‘yinlar doirasida bajarilgan tadqiqot ishlari (N.Safarova 2005, H.Ro‘zmetov 2005, S.Yo‘ldoshev 2019, Sh.Turg‘unov 2019, M.Shokirova 2020, J.Temirova 2022, O.Fayzulloyev 2025) salmoqli bo‘lib, o‘yin nomlarini to‘plashda samarali foydalanildi. Onomastika sohasida bir qancha qimmatli ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularda o‘yinlar ko‘pincha folklor namunasi sifatida o‘rganilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, sohada hali bolalar o‘yin nomlari chog‘ishtirma aspektda yoki alohida fan tarmog‘i sifatida o‘rganilmagan.

Bolalar o‘yinlari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish jarayonida mazkur birliklarni muayyan atama bilan nomlanmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Ma’lumki, “Antroponim” – shaxs nomlari, “Toponim” – joy nomlari, “Zoonim” – hayvon nomlari, “Geortonim” – bayram nomlarini ifodalovchi terminlar onomastik bo‘lganligi holda, o‘yin nomlarini ifodalovchi yangi termin sifatida, bizningcha, “*Geymonim*” (game – o‘yin, onym – ism, nom) atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, xalq milliy harakatli o‘yinlari millatimiz qadriyatlari sifatida qayta tiklana boshlandi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg‘ulotiga aylandi, balki barcha ta’lim muassasalari o‘quv rejalariga to‘laqonli fan sifatida kiritilgan. Oliy o‘quv yurtlarida, xususan tilshunoslik fakultetlarida ham o‘yinlar, ularning kelib chiqishi, nomlanishi katta e’tibor bilan o‘rganilmoqda, ularning oliy o‘quv yurtlari rejalariga kiritilganligining o‘zi ulkan yutuqdir. Ammo, shuni ham ta’kidlash zarurki, xalq milliy harakatli o‘yin nomlarining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning psixofunksional mohiyati, tilshunoslikda tutgan ahamiyati, o‘yin nomlaridagi yashirin so‘z o‘yini mahorati, jismoniy sifatlar va sport mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda qiymati, o‘yin nomlarining aslida tag zamirida qanday ma’no-mazmun yotgani barcha uchun qiziqarli mavzu sanaladi.

Bolalar ham o‘z ota-onalari qatorida turib, ijtimoiy-maishiy hayotda, xususan, ishlab chiqarishning talay jabhalarida o‘z imkoniyatlari va iqtidorlari doirasida qadim zamonlardan beri qatnashib keladilar. Ular, kattalar uyushtirgan barcha marosimlarda qatnashganlar, qo‘shiq kuylasa, jo‘r bo‘lganlar, birgalikda raqs tushganlar. Bu jarayon ular uchun goh o‘yin tarzida kechib, tarzida kechganida bolalar ehtiroslarga to‘lib-toshib, o‘z zavqlarini jo‘shqin va samimiy ohanglarda kuylaganlar, shuningdek, majburiy mehnat tarzida kechganida esa, og‘ir mehnat tufayli xorg‘in va alamli tuyg‘ularini g‘amgin ifoda etganlar [Safarov, 1988. 272-273].

Barcha madaniyatlarda mashhur bo‘lgan **“**Aji-ku-ku” chaqaloqlar bilan o‘ynaladigan o‘yin shakli bo‘lib, o‘yinga ko‘ra, bir o‘yinchi yuzini yashiradi va ikkinchi ko‘rinishga qaytadi, o‘zbek xalqida mazkur o‘yin “Ajikuku” deya ataladi, inglizlarda esa “Peek-a-boo”, bunga javoban esa “I see you” deyiladi. Peekaboo kabi o‘yinlar ota-onalar va chaqaloqlar bir-birlari bilan yaqin va samimiy aloqada bo‘lishiga yordam beradi. Bu bolaning nutqi, fikrlashi hamda ijtimoiy-hissiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Peek-a-boo o‘yini kelib chiqishi haqida V.Aleksandr shunday javob beradi: “Angliyada 1600-yillarda bolalarga qarash o‘yini ma’lum bo‘lib, bu o‘yinda ota-ona yoki boshqa o‘yindoshi ko‘rpa, devor yoki shunga o‘xshash to‘siq ortiga yashirinib, chaqaloqni qiziqtiradi, so‘ngra doimiy ravishda “peek-a-boo” deb chiqib turadi. Kiyim-kechakning bir qismiga ishora qiluvchi buyumi sifatida ishlatiladigan atama 1895-yilga to‘g‘ri keladi. Ushbu o‘yin va uning boshqa tillarda nomlanishi haqida qidirganimizda dunyoning har bir burchagida o‘ynalishi bois 70 dan ortiq variantlarga duch keldik.

Turli millat bolalari orasida mashhur bo‘lgan o‘yinlardan yana biri “Halinchak” bo‘lib, mazkur o‘yinning ikki ishtirokchisi uzun taxtaning ikki tomoniga o‘tiradilar hamda bir birlarining havoga ko‘tarilishiga yordam beradilar. Mazkur o‘yin inglizlarda “See-saw” deb nomlansa, Shimoliy Amerikada esa o‘yinni “Teeter-totter” deb ataladi (sotsiolingvist P.Trudgil fikriga ko‘ra, bu atama Nordik tilining *tittermatotter* so‘zidan kelib chiqqan)[Trudgil, 2021. 48-53]. Janubiy Koreada “널뛰기” (Noltvigi) o‘yini ayollar va qizlar o‘rtasida Dano va Chuseok kabi an’anaviy

bayram, festivallarda mashhur bo‘lib, boshqalaridan farqli ravishda o‘yinchilar o‘tirib emas tik turib sakrab bir-birlarini uchirishadi.

“Tosh, qaychi, qo‘g‘oz” – Qadimgi Xitoyliklarga xos qo‘l o‘yini bo‘lib, odatda ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida o‘ynaladi, unda har bir o‘yinchi bir vaqtning o‘zida cho‘zilgan qo‘li bilan uchta shakldan birini – tosh (tosh qaychini cho‘ktiradi), qog‘oz (qog‘oz toshni yopadi) va qaychi (qaychi qog‘ozni kesadi) hosil qiladi. “Rock, scissors, paper” o‘yini haqida dastlabki ma’lumot “Wuzazu” kitobida bo‘lib, ushbu kitob Xitoyning Ming sulolasi davrida Xie Zhaozji tomonidan yozilgan. Muallif ta’kidlashicha, ushbu o‘yin Xan sulolasi davrida (miloddan avvalgi 206-220 miloddan avvalgi) paydo bo‘lgan va keyinchalik Yaponiyaga ham tarqala boshlagan. Qadimiy qo‘lyozmada o‘yin *shoushiling* tarzida nomlangan. Ushbu o‘yin nomi hozirgi ingliz bolalari tilida “Roshambo” yoki “Rock, scissors, paper” tarzida, o‘zbek bolalari tilida esa “Tosh, qaychi, qog‘oz”, “Chin gal chuk” hamda “Ay-van-jus” tarzida nomlanadi. Koreys xalqi folklorida ham bu o‘yin mashhur bo‘lib, “가위, 바위, 보” (Kavi, pavi, po) tarzida nomlanadi. L.Fisherning “Kundalik turmushda o‘yin nazariyasi: Tosh, qog‘oz, qaychi” kitobida ushbu o‘yin haqida ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Olim o‘yin nomini madaniyatlararo o‘rganar ekan, nomlar bir-biridan keskin farq qilishini yozib, shunday ta’kidlaydi: “O‘yin nomi Yaponiyada “Snake-Frog-Slug”, Indoneziyada “Elephant-Human being-Earwig”, Canadada “Bear-Man-Gun”, Milvakiyda “Bear-Cowboy-Ninja” kabi qiziq nomlanishining o‘zi nafaqat bolalar, balki kattalar tomonidan ham o‘ynalishiga asos bo‘lgan” [Fisher, 2008. 91]. Shuningdek, olim o‘yin nomining “Ro-Sham-Po” deb nomlanish tarixi haqida ham so‘z yuritar ekan, Jorj Vashington 1781-yilda York shahrida Britaniya taslim bo‘lish to‘g‘risidagi bitim imzolangandan so‘ng, Korn-Uollisning chodirini kim oxirgi bo‘lib tark etishini hal qilish uchun “Tosh-qaychi-qog‘oz” o‘yinini Lord Kornuollis va Kont de Rochambu bilan o‘ynaganligi va natijada Kont de Rochambuning o‘yinda g‘olib bo‘lganligi o‘yinning ayrim hududlar shunday nomlanishi asosi deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar o‘yinlarining nomlanishi shunchaki tasodifiy jarayon emas, balki chuqur sotsiolingvistik va madaniy fenomen bo‘lib, jamiyatning qadriyat tizimi, til xususiyatlari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu nomlar xalq og‘zaki ijod an’analarini, tarixiy kontekstni va milliy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Ular bolalarni nafaqat o‘yin faoliyatiga jalb qiladi, balki ularga ijtimoiy ko‘nikmalarni, madaniy merosni va tilning boyligini o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘yinlar bolalarni jamoaga kirishishlarini ta’minlaydi. O‘yin orqali bolalar jamiyat a’zolari orasidagi munosabatlarni o‘rganadilar va uning me’yorlarini o‘zlashtiradilar. O‘yin hamkorlikdagi faoliyatning yakka turi emas, balki o‘yinlar boshqa faoliyat turlari bilan bir o‘rinda, bolalarning layoqatini to‘laqonli tarzda namoyon namoyon qilishga yo‘naltiriladi. O‘yinlar, ayniqsa, bolalardagi hamjihatlikda ijod qilish qobiliyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Fisher L. Game theory in everyday life: Rock, Paper, Scissors. – New York: Basic books, 2008. – P. 91.
2. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Neolttwigi (murojaat sanasi: 22.07.2024)
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Rock_paper_scissors (murojaat sanasi: 22.07.2024)
4. https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/onomastics (murojaat sanasi 19.04.2024)
5. Manas ensiklopediyasi. Davlat tili va ensiklopediya markazi. – Bishkek: Qirg‘iz ensiklopediyasi bosh tahririyati, 1995, II jildli. – I jild. – B. 243.
6. Nordquist R. “Onomastics Explained. ThoughtCo, thoughtco.com/onomastics-names-terms-1691450. 2020, August 26; Algeo J. Algeo K. Onomastics as a Interdisciplinary Study, Names 48.3/4 ISSN:0027-7738. – P. 265-274; Motschenbacher H. (2020) Corpus Linguistic Onomastics: A Plea for a Corpus-Based Investigation of Names, Names, 68:2. – P. 88-103; Gałkowski A. Real and quasi-heortonyms as contextualized and conceptualized intercultural names, PRACE JĘZYKOZNAWCZE, ISSN 1509-5304. – P.73-90.

7. ONOMASTICS definition and meaning | Collins English Dictionary
8. Peekaboo in different languages https://indifferentlanguages.in/word/english/5004188/peekaboo (murojaat sanasi: 20.07.2024)
9. Qarang: Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд, 2011. – Б. 13.
10. Qarang: Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд, 2011. – Б.18.
11. Safarov O., Jahongirov G‘. Bolalar folklori. // O‘zbek bolalar folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 272-273.
12. Trudgill P. Social differentiation of English in Norwich. Edinburgh Research Explorer. https://www.era.lib.ed.ac.uk/handle/1842/16333 (murojaat sanasi: 21.07.2024)
13. Аристотель. Поэтика (поэзия санъати ҳақида). Русчадан М.Маҳмудов, У.Тўйчиевлар таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 41.
14. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973; Бушенев Н.Т. Антонимы среди топонимов (К вопросу о соотношении имен собственных и нарицательных) // Проблемы русской ономастики: межвуз. сб. науч. тр. Вологда: Вологод. гос. пед. ин-т, 1985. – С.122-133; Супрун В.И. Способность онима к образованию притяжательных прилагательных как параметр ядра ономастического поля // Ономастика Поволжья: сб. материалов междунар. науч. конф. / под ред. И.А. Гилязова. – Казань: Отечество, 2010. – С.27-31; Махрачева Т.В. Материалы к словарью хрононимов Тамбовской области. I (А-К) // Вопросы ономастики. 2008. – № 5. – С.113-139.

Фаттахова Д.А.
Национальный университет Узбекистана кандидат педагогических наук

ОБ ИЗУЧЕНИИ СРЕДСТВ РЕЧЕВОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С РУССКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование средств речевой выразительности узбекского языка анафора, эпифора, антитеза, риторический вопрос, инверсия, сравнения в художественных произведениях. Тропы и фигуры в основном употребительны в художественной литературе и публицистике и имеют неодинаковую функциональную активность в разных сферах общения.*

Также в статье дается краткая характеристика средств речевой выразительности и приводятся примеры. Работа студентов над изучением этих средств поможет им закрепить знания и навыки изучения узбекского языка как государственного.

Ключевые слова: *средства речевой выразительности, анафора, эпифора, антитеза, риторический вопрос, инверсия, сравнение.*

RUS TILI GURUHLARIDA O‘ZBEK TILINING NUTQIY IFODAVIY VOSITALARINI O‘RGANISH HAQIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilining tasviriy vositalarining anafora, epifora, antiteza, ritorik so‘roq, inversiya, o‘xshatish kabilarning qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Trop va figuralar asosan badiiy va publitsistik adabiyotlarda ishlatiladi.*

Shuningdek, maqolada tilning tasviriy vositalariga qisqacha ta’rif berilib, misollar keltiriladi. Tasviriy vositalarni bilish, talabalarga o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rganish va mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: tilining tasviriy vositalari, anafora, epifora, antiteza, ritorik so‘roq, inversiya, o‘xshatish.

ON THE STUDY OF SPEECH EXPRESSIVE MEANS OF THE UZBEK LANGUAGE IN GROUPS WITH RUSSIAN AS THE MEDIUM OF INSTRUCTION

Annotation. *This article discusses the use of figurative devices in the Uzbek language such as anaphora, epiphora, antithesis, rhetorical question, inversion, and simile. Tropes and figures are mainly used in fiction and journalistic literature. The article also provides a brief description of the figurative means of language and provides examples.Knowledge of figurative means creates a foundation for students to learn and strengthen the Uzbek language as the state language.*

Key words: *figurative language, anaphora, epiphora, antithesis, rhetorical question, inversion, simile.*

Формирование у будущих филологов навыков владения средствами речевой выразительности узбекского языка является на сегодняшний день актуальной проблемой. Изучение узбекского языка русскоязычными студентами преследует цель обучения разговорному узбекскому не только в официальной обстановке, но и в неофициальной. Подобные ситуации неизбежно требуют применения в речи наряду с нейтральной лексикой и выразительных средств языка. Средства речевой выразительности к настоящему времени сыграли важную роль в формировании художественного стиля речи как одной из разновидностей книжного (функционального) стиля. Они также в современном узбекском языке используются в других стилях языка, в том числе и в разговорном.

Известно, что средства речевой выразительности являются показателем уровня творческого мышления, при их использовании речь достигает точности, образности, выразительности. А овладение ими - необходимое условие развития прагматического потенциала в речи

студентов. Разработка эффективных методов преподавания средств речевой выразительности (тропов и фигур), внедрение в учебный процесс различных педагогическихтехнологий, дают возможность добиться наибольшей продуктивности в обучении. При подготовке к каждому занятию преподавателю необходимо поставить конкретные цели и задачи, которые реально достижимы в процессе занятия. На их решение должны быть направлены все виды работ, методы и приемы ведения занятия. В соответствии с этим также грамотно должны чередоваться типы и виды выполняемых заданий и упражнений.

Именно средства речевой выразительности в художественной литературе помогают более полному раскрытию красоты языка художественного произведения. Благодаря использованию средств речевой выразительности, любая речь приобретает выразительность. Эмоциональная выразительность и эмоциональное воздействие речи – «это не разные, обособленные друг от друга явления, а лишь стороны целого» [1, 20].

Тропы - явления лексико-семантические, это разные случаи употребления слова в переносном значении. Однако, как известно, не всякое переносное значение для современного языкового сознания является образным[2,109]. Сравнение – это вид тропа, заключающийся в сопоставлении одного предмета с другим с целью художественного описания, это образное выражение, построенное на сопоставлении двух предметов, понятий или состояний, обладающих общим признаком, за счет которого усиливается художественное значение первого предмета. Это одно из наиболее употребительных выразительных средств в узбекской речи. Например:

Tog‘ manzarasi

Go‘yo ko‘kka ustun tog‘,
Kiygan suvsar, oq qalpoq.
Cho‘qqilari o‘rkachdek,
Tosh gavdasi keng, yalpoq.
Ko‘ksin bezar alvon gul,
Kifti archa - to‘nlari.
Sho‘x qo‘shiqlar aytadi
Shalola- fontanlari...
Chodir-uyni ivitib,
Savalaydi sel, jala,
Hurkib kiyik, jayronlar
Qochishar gala-gala.

Mix

Qalpoq kiygan askarga
O‘xshaydi mix polvon ham.
Birikadi u bilan
Eshig-u rom, narvon ham...
Bir istagim bor, uka,
Mixday to‘g‘ri, o‘tkir bo‘l.
Hurmat qilib do‘stlaring
Shunda senga berar qo‘l. (Q.Hikmat)

Сравнения в узбекском языке по происхождению являются общеупотребительными, народно-поэтическими и авторскими. Общеупотребительные образуют нейтральный и разговорный слой сравнений. Народно-поэтические отличаются тем, что имеют возвышенную окраску. Их содержание тесно связано с явлениями природы. Как стилистическое средство они вводятся в литературные произведения:

Vatan

Shu Vatanni sevaman jondan,
Sevdim- yana go‘zal bo‘ldi u.
Oqqush bo‘ldi har tushgan qori,
Har yomg‘iri asal bo‘ldi u.
Qo‘limga suv quydi bulog‘i,
Shamollari tutdilar sochiq.
U qo‘lini ochgani sayin,
Yo‘li bo‘ldi shunchalar ochiq. (Z.Mo‘minova)

Из приведенных примеров мы пришли к выводу, что сравнение является важным средством повышения эмоциональности речи.

К фигурам и в узбекском и русском языкознании относят в основном синтаксические средства выразительности. Фигуры речи - это "особые, зафиксированные стилистикой обороты речи, применяемые для усиления экспрессивности (выразительности) высказывания (напр: анафора, эпифора, антитеза, инверсия, и др.)" [3, 109]. При обучении студентов средствам речевой выразительности узбекского языка даются упражнения, где использованы эти средства. Например, дается описание той или иной фигуры, приводятся примеры из стихотворений.

Задание. Найдите в приведенных отрывках анафору и эпифору. Объясните смысл этих выразительных средств.

Анафора- эта фигура, смысл которой заключается в повторении одних и тех же элементов вначале каждого паралельнонго ряда (стихи, строфы, предложения).

Эпифора-это фигура, противоположная анафоре, смысл которой заключается в повторении одних и тех же элементов конце каждого паралельнонго ряда (стихи, строфы, предложения).

Yaxshilik deb yashayman

Yaxshi kunni saharidan kutdim men,
Tong keltirgan xabaridan kutdim men,
Hayot zavqin saharidan kutdim men,
Men kelganman yaxshilik deb dunyoga,
Azizlarim, yaxshilik deb yashayman!
Do‘st qadrini vafosidan bildim men,
Ishq jabrini jafosidan bildim men,
Qalb zarbini xatosidan bildim men,
Men kelganman yaxshilik deb dunyoga,
Azizlarim, yaxshilik deb yashayman!
Ul chamanmas - lola, guli bo‘lmasa,
Ul maskanmas - gar bulbuli bo‘lmasa,
Ul Vatanmas - shoir o‘g‘li bo‘lmasa,
Men kelganman yaxshilik deb dunyoga
Azizlarim, yaxshilik deb yashayman! (N.Narzullayev)

Риторический вопрос – фигура, в которой в форме вопроса содержится утверждение. Риторический вопрос не требует ответа, он используется, чтобы усилить эмоциональность, выразительность речи. Риторический вопрос - своеобразный оборот речи, усиливающий ее выразительность [4,45].

Например:

Yoshlik! Seni kuylamagankim,
Ertaklaring so‘ylamagan kim,
Qariganda o‘ylamagan kim,
O‘ylab yana kuylamagan kim?(“Yoshlik”)

Axir sening vataning bor, uying, oilang,
Menda esa xotiradan o‘zga nima bor? (“Istanbul fojiasi”)

Endi faqat o‘lim degan bir imkon qoldi
Vatanimga ne yuz bilan, ne deb qaytaman? (“Istanbul fojiasi”)

Yurak faqat sev der, sevgisiz
Yashamoqdan bormi hech ma’no? (“Yurak va aql”)

Антитеза (от греч. противоположение) - это стилистическая фигура, основанная на резком противопоставлении понятий, мыслей, образов с целью усиления [86,19].

Антитеза широко представлена в пословицах и поговорках как узбекского, так и русского языках: Дўст ачитиб гапирар, душман кулдириб; Яхшидан боғ қолади, ёмондан доғ қолади.; Катталар ҳурматда, кичиклар иззатда. Для сравнения двух явлений в пословицах используется антонимы – слова с противоположным значением: велик – мал, труд – лень, густо – пусто. Антитезы как в русском, так и узбекском языках часто используются в заглавиях книг: «Отцы и дети», «Война и мир» и т. д. Они служат для усиления выразительности, эмоциональности и в стихах:

Erkalangiz qalamni olib,
O‘pib qo‘ying uni muloyim.
Sho‘rlik o‘zi yalang‘och qolib,
Kiyintirar egasin doim. (A.Oripov)

Dutorim tori ikkidur:
Biri quvnoq, biri mahzun,
Ki baytim satri ikkidur,
Biri dilxush, biri dilxun (“Dutorim tori ikkidur”)

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg‘on yomon,
Ul shirin yolg‘onga mendek
Aldanib qolg‘on yomon. (E.Vohidov)

Инверсия является ценным средством выразительности. Это изменение обычного порядка слов в предложении со смысловой и стилистической целью. Инверсия может служить для передачи фольклорных интонаций. [86, 47].

Donishqishloq degan joy
Bordir bizning tomonda.
O‘sha qishloq ahlidek
Dono xalq yuq jahonda.
Ko‘rib minoralarni
O‘sha yerlik ulug‘lar
Degan:”bular teskari
Turib qolgan quduqlar”. (“Donishqishloq latifalari”)
Kecha ko‘rdim dahshatli bir tush,
Kelolmayman o‘zimga hamon.
Bir yozuvchi roman yozarmish,
Men emishman unga qahramon.

Yozar emish meni hayolan
Yo‘q xislatlar qo‘shib borimga.

Hisoblashmas hech mantiq bilan,
Sira boqmas ixtiyorimga.

Boqdim, shukur, qo‘l-oyog‘im sog‘,
Shukur, tirik odamman o‘zim.
Bir romanni o‘qib banogoh
Ilinibdi salgina ko‘zim. (E.Vohidov "Tush")

She’rni sevib o‘qiyman, ammo
Hayron qilar bir holat meni. (“Lirik qahramon”)

Yillar o‘tib ketdi va lekin hamon
O‘sha ilk tasavvur yashaydi menda. (“Tasavvur”)

Таким образом, для того, чтобы овладеть необходимыми для построения речевого высказывания средствами речевой выразительности, необходимо научить студентов воспринимать, интерпретировать их адекватно замыслу говорящего и передавать определенную информацию с широким их использованием. Из вышесказанного следует, что без средств речевой выразительности нельзя представить никакой язык, в том числе и узбекский, а значит и процесс его изучения не только как родного, но и как неродного и государственного.

Литература.

1. Кожина М.Н. Стилистика и некоторые её категории. – Перьм, 1981. – С. 20.
2. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М., 1983. – С. 109.
3. Хованская З.И. Принципы анализа художественной речи и литературного произведения. – Саратов, 1985. -309 с.
4. Методика преподавания русского языка Учеб. пособие для студентов / Отв. ред. М.Т. Баранов. – М.: Просвещение, 1990. - 435 с.
5. Мизинина И., Тюрина Т. Выразительности средства языка. Справочное пособие. – М.: Н-ПРО, 2006. – С. 91.
6. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. – М.: Феникс, 2007. – С.869.
7. Бегматов Э. Нутк маданияти тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1975. №5. – Б.50-58.
8. XX аср ўзбек ҳикояси антологияси “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент, 2009. - 617 б.
9. XX аср ўзбек шеърияти антологияси “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент, 2007. - 476 б.
10. Щукин А.Н. Лингводидактический энциклопедический словарь. –М.: АСТ, 2007. – С.740.

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar "Antiplagiat" tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo'yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbaasi ko'rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo'lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo'lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so'zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo'lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta'lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo'lsa ularning har biri haqida to'liq ma'lumotlar berilishi shart; (barcha ma'lumotlar 3 tilda:o'zbek, rus, ingliz tillarida bo'lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo'limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e'tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak) (3 tilda:o'zbek, rus, ingliz tillarida bo'lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz tillarida bo'lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O'quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)***
https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**
Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)
METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)
NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)
Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O'ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	19.00.00 – PSIXOLOGIYA
5	**Fayziyeva Mavluda Xudayarovna** Konstruktiv psixologik himoya mexanizmi shakllanishining dasturiy samaradorlik tahlili
11	**Ikromova Sitora Akbarovna** Keksalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar
14	**Turg‘unboyeva Azizaxon G‘ulomovna** Etnomilliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
18	**Usmanova Shoira Djumabekovna** Kasbiy shakllanish jarayonida ijtimoiy faollikni rivojlantirish asoslari
22	**Нишанова Зулфизар Яшин кизи** Место манипуляции в системе человеческих взаимоотношений
27	**Ataxo‘jayeva Shaxlo Anvarovna** Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarida sotsial emotsional kompetentlikning namoyon bo‘lishi
32	**Jabborov Jamshid Azimovich** O‘smirlar ma’naviy qiyofasini rivojlantirishning axloqiy asoslari
36	**Sattarova Gulnora Ikromovna** Imkoniyati cheklangan o’smirlarda hissiy-irodaviy sifatlar shakllanishining sababiy bog'liqliklari tahlili
42	**Otakulova Dilorom azimjonovna** Raqamli kommunikatsiya sharoitida empatiya: onlayn muloqot va yuzma-yuz muloqot farqlari
46	**Xasanova Nozimaxon** Kasallikda davolanishga munosabatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiqotini tashkil qilish va metodikalari
50	**Quliev Yorqin Karitmovich** Talabalarning uzluksiz ta`limga daxldorligining psixologik xususiyatlari
57	**Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich** Oliy ta’lim jarayonida sun’iy intelekt omili: muammo va yechimlar
61	**Shukurov Rahim Salimovich** Talabalarni milliy sport turlariga jalb etishning innovatsion va motivatsion usullari (turon kurashi misolida)
68	**Rahmonova Mahliyo Boymurodovna** Yoshlarda psixologik himoya mexanizmini o‘rganishga yo‘nalgan tadqiqot metodlari
72	**Nishanbekova Jadira O‘rinboy qizi** O‘quvchilarning musiqiy qiziqishlari
78	**Qosimova Feruzaxon** Shalom shvarsning qadriyatlar konsepsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari
82	**Latipov Bobur Bakhromovich** Challenges in listening comprehension faced by second language learners
86	**Mengliyeva Gavhar Ibroxim qizi** Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvida oilaning o‘rni
91	**Shukurova Dilfuza Raupovna** Bo‘lajak maktabgacha talim mutaxassisining psixologik qiyofasi
96	**Raxmatova Aziza Rustam qizi** Psixolog talabalarda psixologik himoyaning ijtimoiy psixologik omillari
103	**Muxtorjonova Nozanin g’ulomjon qizi** Kichik maktab yoshi davrida emotsional intellektni shakllanishi
111	**Shabbazova Nodira Xamzayevna**

	Oliy ta’limda kasbiy-ijodiy muhitni yaratishning metodologik asoslari
115	**Sharifova Nigora Axtam qizi** Neyropedagogik yondashuv asosida talabalarda ijodiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari
121	**Sharopov Jamshid Dilmurodovich** Yosh avlod xulq-atvorida ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishning psixologik asoslari
125	**Bog‘ibekova Dilnoza Shonazarovna** Stress tushunchasining kelajakdagi nomlanishi va sotsial jamiyatning unga munosabati
128	**Rajabov Rasulbek** O‘smir qalbida oilaning o‘rni va qadri
134	**Isabayev Abdukarim Komiljonovich** Ichki ishlar xodimlari faoliyatida stress omillari va ularni yengib o‘tish mexanizmlari
138	**Kurbonova Zilola Alisher qizi** Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarida kasbiy so‘nish Jarayonining psixologik determinantlari
146	**Нишанбекова Жанар Камбаровна** Абьюзивные отношения
152	**Isoqova Gulnoz Ulug‘bek qizi** Imom g‘azzoliy farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari
155	**Kamolova Sabrina Habibovna** Motivational and emotional determinants of critical thinking in adolescence
160	**Elmuradova Gulsaraxon** Maktab o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasining shakllanish omillari
164	**Nazarov Jamshid Xoliyorovich** Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak chqbt fani o‘qituvchilarining kreativ qobilyatini rivojlantirish - pedagogik muammo sifatida
171	**Jalolova Feruza Mirkamol qizi** Bo’lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda xorij tajribasi
178	**Jonpo‘lotova Manzura Jahonovna** Ota onalik munosabatlarining bolalar qobiliyati va ko‘nikmalariga ta’siri
186	**Barakayeva Nilufar Zubaydullo qizi** **Destruktiv axborot tahdidlariga qarshi psixologik profilaktika strategiyalari**
	13.00.00 – PEDAGOGIKA
192	**Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna** Esp (english for specific purposes) asosida arxitektura va qurilish yo‘nalishidagi tala-balar uchun ingliz tilini o‘qitish usullari
195	**Xuddiyeva Umida Aminjon qizi** Ikkichi tartibli sirtning kanonik tenglamasi va uning turlari
199	**Шокиров Камол Фазлиевич** Адаптивная физическая культура и ее особенности
204	**Юлдашева Фарогат Туракуловна.** Интерактивные методы обучения, применяемые на занятиях русского языка
210	**Abdunazarova Zaynab Almurod qizi** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy–kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish metodikasi mazmuni
216	**Achilov Obid Muzrobovich** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari
222	**Aliyeva Chinora Boxodir qizi** Bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetentlilikni shakllantirish mohiyati
227	**Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich**

	Axborot ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasini ishlab
234	**Axmedova Zamira Shirinovna** Umumta'lim maktab o'qituvchilarining Innovatsion faoliyatini tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy tadqiqot ishlari tahlili
240	**Esanova Lobar Kulmuratovna** Tasviriy san'at va musiqa uyg'unligida estetik madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari (talabalar misolida)
245	**Karimov Eldor Erkinovich** Yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda dual ta'limdan foydalanish jarayonini boshqarish strategiyalari
253	**Ma'rufjonova Rohila Lutfulla qizi** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarni tarbiyalashning metodik tizim
257	**Norbo'tayev Xo'shboq Bobonazarovich,** **Shermatova Uljamol Shopulat qizi** Boshlang'ich ta'limda ekologik madaniyatni takomillashtirish pedagogik muammo sifatida
261	**Raxmatov Mirzo Mukimovich** Raqamli ta'lim muhitida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlanganligini baholash usullari
265	**Saparova Gulzira Qazaqbayevna** Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorlashda kognitiv-integrativ mobilligini takomillashtirishning pedagogik zarurati
270	**Turapova Ra'no Barat qizi** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda variativ yondashuv asosida innovatsion metodlardan foydalanish
275	**Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li** O'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining mavjud holati
280	**Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna** Aksiologik paradigmaning ta'lim tizimiga ta'sirini kuchaytirish yo'llari
285	**Temirova Iqbol Sadriddinovna** Boshlang'ich ta'limda kollaborativ metodlarning adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi: Quasi-eksperimental tadqiqot
289	**Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi** Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarida kasbiy ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
293	**Мамирова Диларам Тавкуловна** Реформы преподавания физического воспитания в колледжах и университетах
	10.00.00 – FILOLOGIYA
298	**Sadikov Erkin Tursunovich** Nutq aktlarini o'qitish metodikasi
303	**Kenjabayev Jaxongir Abdisalimovich** Sport terminlarining ingliz va o'zbek tillarida pragmatik qo'llanishi
306	**Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna** Xolid Husayniy va malala yusufzoy asarlarida musulmon ayolining badiiy tasviri
309	**Yusupova Omina Muxammadzoir qizi** Ingliz ertaklarining tasnifi va ularning o'ziga xos xususiyatlari
313	**Usmonova Shahodat Abdurahimovna** Kolmnist va sharhlovchilar materiallari tarjimasining mantiqiy izchilligi: pragmatik ar-gumentatsiya va sotsial imidj

317	**Ismoilova Diloromhon Rustamjon kizi** Theoretical foundation of linguopoetics
321	**Ismoilova Charos Shuhrat qizi** Ingliz leksikografik manbalaridagi turkizmlarning sistem-struktur tahlili
326	**Ismoilov Abdurashid Isakovich** Harbiy unvon va mundirlar konsepti: uch tilli (ingliz, amerika, o‘zbek) lingvokognitiv va lingvomadaniy tahlil
330	**Maxmudova Sevara Asatilla qizi** Nutqning grammatik tuzilishini va uni shakllantirish metodikasi
336	**Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o‘g‘li** Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida ijtimoiy muammolarning badiiy talqini va o‘ziga xosliklar
340	**Xolmurodova Madina,** **Umarjonova Dilfuzaxon Dilshodjon qizi** Talaffuzda lahjalar ta’siridagi empirik kuzatuvlar
346	**Xamdamova Nilufar Esanovna** Socio-cultural approach to teaching english to students of economic specialty
350	**Halimova Dilnoza Farhod qizi** Lev Tolstoy ijodida avtobiografik izlar va ularning badiiy talqini
355	**Xujamqulova Iroda Faxriddinovna** Bolalar adabiyotini o‘qitishning zamonaviy mexanizmlari
359	**Mamarasulova Gulshoda Bekmirza qizi** Ona tili darslarini samarali tashkil qilish asosida maktab o’quvchilarining ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish
365	**Kurbanbayeva Barno Farxadovna** Лексикография узбекской топонимики: теоретические основы и перспективы
370	**Khudoyarova Ziyoda Maratovna** Innovative approaches and artificial intelligence capabilities in foreign language teaching
374	**Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi** Tasavvuf adabiyotining paydo bo`lish omillari
378	**Anvarova Zohida Akramovna** Tarixiy so‘zlarning fonopragmatik tahlili (“buyuk saltanat” asari asosida**)**
383	**Azimova Xurshida Zohidjon qizi** **Qo’chqarova Musharraf Ilhomjon qizi** Anaphora in linguistics
387	**Bekmurotova Shaxnoza Azamatovna** Nemis tilida juft so‘z yasalishiga doir nazariyalar
390	**Eshmuratov Muzaffar Elamanovich** Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ingliz tilida o‘qish ko’nikmalarini rivojlantirishning amaliy usul, shakl va vositalari
395	**Faxriyeva Dilrux To‘lqin qizi** Chingiz Aytmatov qahramonlari orasida ayolning iroda va kurashchanlik timsoli
400	**Haydarov Anvar Askarovich** Ingliz va o’zbek badiiy diskursida murojaat birliklarining konnotativ ma’nolari
404	**Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi** O‘zbek, ingliz va koreys tillarida geymonimlarning onomastik tahlili
409	**Фаттахова Д.А.** Об изучении средств речевой выразительности узбекского языка в группах с русским языком обучения

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№ 9, 2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro xalqaro universiteti
ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.
№ 9. – 420 b.